International scientific journal

# MODERN SCIENCE AND RESEARCH

2023
ISSN: 2181-3906



**Modernscience.uz**

- **Exact Sciences**
- **Natural Sciences**
- **Medical Sciences**
- **Technical Science**
- **Pedagogical Sciences**
- **Social and Humanitarian Sciences**

**www.modernscience.uz**

# «MODERN SCIENCE AND RESEARCH»

**INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL**

**VOLUME I/ ISSUE 3**

**JANUARY**

The journal publishes the results of research conducted by professors and teachers and independent researchers of the Republic of Uzbekistan and international higher education institutions in the form of scientific articles.

***TOSHKENT-2023***

«MODERN SCIENCE AND RESEARCH»

XALQARO ILMIY JURNAL

МЕЖДУНАРОДНЫЙ НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ

INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL

BOSH MUHARRIR: G'.T.Boymurodov

MAS'UL MUHARRIR: S.Ergashova

JURNAL BIR OYDA BIR MARTA NASHR QILINADI.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI AXBOROT VA OMMAVIY KOMMUNIKATSIYA AGENTLIGI TOMONIDAN BERILGAN № 042359 RAQAMLI RUXSATNOMAGA EGA.

ISSN: 2181-3906

## TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI

**Pardayev Qo'ldosh Uzoqovich**
Filologiya fanlari doktori, dotsent. Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti O'zbek adabiyoti tarixi kafedrasi professori v.b.

**Hamrayeva Muhayyo Ahmadovna**
Filologiya fanlari nomzodi , dotsent. Termiz davlat universiteti O'zbek adabiyoti kafedrasi dotsenti. Turon fanlar akademiyasi faxriy akademigi.

**Khamdamov Ulugbek Abduvakhobovich**
O'zbek tili, adabiyoti va folklor instituti "XX asr o'zbek adabiyoti va hozirgi adabiy jarayon" bo'limi mudiri, prof. , f.f.d.

**Khaydarov Mamat Eshkulovich**
Pedagogika fanlari doktori, professor. Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universiteti "Uzluksiz talim pedagogika va menejment" kafedrasi professori.

**Eshmuminov Askar Allamurodovich**
Filologiya fanlari doktori, dotsent. Termiz davlat universiteti o'zbek tili va adabiyoti kafedrasi mudiri.

**Khodjaev Begzod Khudoyberdievich**
Pedagogika fanlari doktori, professor. Toshkent davlat pedagogika universiteti "Umumiy pedagogika" kafedrasi mudiri.

**Yo'ldashov Murodjon Ravshanovich**
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori. O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti futbol nazariyasi va uslubiyati kafedrasi o'qituvchisi.

**Artikov Askar Akbarovich**
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti "Futbol nazariyasi va metodikasi" kafedrasi dotsenti.

**Botirov Mirzokhid Ismonkhojayevich**

***Jurnaldan maqola ko'chirib bosilganda manba ko'rsatilishi shart.***

***Jurnal rasmiy sayti:***

***www.modernscience.uz***

*Qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent.*

***Abidov Shavkat Usmanovich***
*Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent*

***Hamrokulov Mahmud Gofurjonovich***
*Toshkent kimyo-texnologiya instituti sifat menejmenti va mahsulotlar xavfsizligi kafedrasi dotsenti*

---

@MODERNSCIENCE RESEARCH

**«Modern Science and Research» international scientific journal, 2023. 563 pages.**
**© Modern Science and Research, 2023**
**© Authors, 2023**

# TARIX FANINI O'QITISHDA TURLI USULLARDAN FOYDALANIB INTEGRATSIYANI TAMINLASH

**Seytekova Ayzoda Jaksilikovna**
Toshkent shahar Uchtepa tumani 236 - maktab
tarix fani o'qituvchisi

https://doi.org/10.5281/zenodo.7514155

***Anatatsiya.*** *Ushbu maqolada, umumiy o'rta ta'lim muassasalarida tarix fanlarini o'qitishda turli usullardan foydalanib integratsiyani taminlash yuzasidan fikr – mulohazalar yurutilgan.*

***Kalit so'zlar:*** *Ta'lim klasteri, topshiriq va savollar, taqqoslash usuli, darslarni tarixiy o'quv o'yinlari, sinxron.*

# ОБЕСПЕЧЕНИЕ ИНТЕГРАЦИИ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ РАЗЛИЧНЫХ МЕТОДОВ В ПРЕПОДАВАНИИ ИСТОРИИ

***Аннотация.*** *В данной статье представлены мысли и мнения по интеграции различных методов в преподавании истории в общеобразовательных средних учебных заведениях.*

***Ключевые слова:*** *Учебный кластер, задачи и вопросы, метод сравнения, исторические обучающие игры уроков, синхронность.*

# PROVIDING INTEGRATION USING DIFFERENT METHODS IN HISTORY TEACHING

***Abstract.*** *In this article, there are thoughts and opinions on the integration of various methods in the teaching of history in general secondary educational institutions.*

***Key words:*** *Educational cluster, tasks and questions, comparison method, historical educational games of lessons, synchronous.*

Mustaqillikning birinchi kunlaridan ijtimoiy-gumanitar fanlarda tub o'zgarishlar davri boshlandi. Tarix fanini tadqiq etish va o'qitishda yangi metodologiya kirib keldi. Jahon tarixi fanida e'tirof etilgan xolisiylik, ilmiylik, tarixiylik va muqobillik tamoyillari tarixni tadqiq etish va o'qitishda tadbiq etila boshlandi. Tarix ta'limi mazmun-mohiyatini zamon ruhida o'quvchilarga yetkazish uchun o'quv-metodik majmua yangilandi. O'rta maktab uchun tarix fanidan yangi darsliklar yaratildi. Bugungi kunda o'rta maktab tarix o'qituvchisi samarali ta'lim berishi uchun nazariy va amaliy jihatdan yetarli bilim va malakaga ega bo'lishi lozim.

Ta'lim klasteri asosida dars samaradorligini oshirish o'quv jarayonlarida ta'limning turli shakl va usullarini amaliyotga tatbiq etishni talab etadi. O'quvchilarni qisqa vaqt ichida kurslararo bog'lanish yordamida faol ravishda bilimlarini jalb qilib, materialni idrok etishlari uchun pedagog oddiy uslubiy usullarni qo'llashdan murakkabga qarab borishi lozim bo'ladi. Bular jumlasiga quyidagilar kiritildi: eslatish (misollar, dalillar keltirish va h.k.), topshiriq va savollar (mantiqiy, muamoli va h.k.) berish, taqqoslash, tarixiy sayohat (tarixga nazar tashlash, o'tmishga sayohat), turli xil jadvallar tuzish, kurs mavzularini birlashtirib integratsion dars o'tish, yangi o'rganilayotgan materialni boshqa kursdan ma'lum bo'lgan material (tarixiy tushunchalar) bilan bog'lash orqali tahlil qilib umumlashtirish, yangi pedagogik texnologiya asosida dars o'tish, qo'shimcha manbalardan foydalanib dars o'tish, umumlashtiruvchi – takrorlash darslarida kurslararo aloqalardan foydalanish va boshqalar.

Ushbu qo'llanilgan uslubiy usullarning har birini didaktik jihatdan sharhlab o'tish mumkin: Jahon va O'zbekiston tarixi fanlaridan o'quvchilarga ilgari ma'lum bo'lgan o'quv materiallariga murojaat qilib eslatish asosan umumlashtiruvchi– takrorlash darslarida qo'llaniladi. Uni qo'llanilishi o'quvchilarning yangi materialni o'zlashtirishini osonlashtirish bilan birga bilimlarini yanada mustahkamlash omili bo'ladi. Shuni ta'kidlash kerakki, o'tilgan o'quv mashg'uloti axborotlarini o'quvchilarning yodiga tushirish bilan muammoli vaziyat yaratish orqali, ulardagi mustaqil mushohada rivojlantirilib, yangi materialni uzviy bog'lagan holda puxta o'zlashtirishga zamin tayyorlash mumkin. Masalan, VII sinf jahon tarixi o'quv-uslubiy ta'minotidan quyidagilarni keltirish o'rinli:

Arab xalifaligi madaniyatini uning tarkibida bo'lgan barcha xalqlar yaratgan. Uni yaratishda qaysi mintaqa eng ko'p hissa qo'shgan deb hisoblaysiz? Ilk uyg'onish davriga qadar g'arb dunyosida: Ptolomey, Aristotel, Evklid, Gippokrat, Galen, Arximed kabi mashhur olimlar asarlari arabchadan lotinchaga o'girilgan holda o'rganilganligini qanday izohlaysiz? Salb yurishlari oqibatlarini xotirangizga keltiring. Bularni eslasangiz Sharqning G'arbga ko'rsatgan ta'sirini yaxshi anglaysiz.

Turli topshiriqlar va savollar yordamida o'zaro bog'lanishlardan foydalanishda o'quv ta'minotidagi savol va topshiriqlarni keltirish maqsadga muvofiqdir. Chunonchi, o'quvchilarning bog'lanishlarga oid tarixiy materialni tahlil qilib, xulosalarini asoslash ko'nikmasini rivojlantirishga qaratilgan "Mantiqiy mushohada!" rukni ostida berilgan quyidagi savol va topshiriqlarga e'tibor qaratiladi: Anqara jangini g'alaba bilan yakunlagan Amir Temurdan Yevropa hukmdorlari minnatdor bo'lishining boisi nimada deb o'ylaysiz? Boburiylar davrida o'zbek madaniyatining Hindistonga ko'rsatgan ta'siri nimalarda ko'rinadi? O'rta asrlarda Sharqda mashhur bo'lgan quyidagi iborani sharhlab bering: "Samarqand sayqali ro'yi zamindur, Buxoro qudrati islomi dindur".

Taqqoslash usuli o'quvchilarning zamon va makon tasavvurlarini hosil qilishda, ularni tarixiy voqealar, hodisalar va jarayonlarning mohiyati, sabablari hamda natijalarini tushunishga olib kelishida muhim o'rin tutadi. "Rus pedagogi K.D.Ushinskiy, o'rganilayotgan hodisalarni taqqoslash didaktikada qo'llaniladigan eng muhim bir usul, deb hisoblagan edi". Bu yo'nalish bo'yicha tarix kurslarini o'qitish jarayonida quyidagilar taqqoslanishi mumkin:

1) bir vaqtga yoki turli tarixiy davrlarga taaluqli bir turdagi ob'ektlar (moddiy-ma'naviy madaniyat yodgorliklari, tarixiy-geografik ob'ektlar);

2) turli vaqtda turli mamlakatlarda bo'lib o'tgan bir turdagi voqea va hodisalar, ularning sabablari va natijalari;

3) bir mamlakatda yoki bir necha mamlakatda ayni bir vaqtda bo'lib o'tgan, bir-biriga o'xshash hamda bir-biridan farq qiladigan voqealar va hodisalar;

4) turli mamlakatlardagi ijtimoiy taraqqiyotning bir-biriga o'xshab ketadigan yoki aynan o'xshaydigan jarayonlari.

Jahon va O'zbekiston tarixi o'quv mashg'ulotlarida sayyor darslarni tarixiy o'quv o'yinlari vositasida amalga oshirish yaxshi samara beradi. Tarix o'qitishning shakl va usullari tizimida o'quv o'yinlari alohida o'rinni egallaydi. U yangi pedagogik texnologiyaning tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, o'quv o'yinlaridan foydalanish o'quvchilarning mustaqil mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi va bilimini puxta bo'lishiga zamin yaratadi.

Tarixiy o'quv o'yinlarini ikki guruhga bo'lish mumkin.

Birinchi guruhga 2-6 o'quvchiga mo'ljallangan kichik tarixiy o'yinlar: muammoli o'yinlar, chaynvord, xronologik topshiriqlarning javobini topish, tarixiy loto, turli viktorina savollariga to'g'ri javob berish va hokazolarni kiritish mumkin.

Ikkinchi guruhga esa sinfdagi barcha o'quvchilarni, ba'zida bir necha sinf o'quvchilarining ishtirokini talab etuvchi tarixiy musobaqalar, ishchanlik, timsolli o'yinlar kiradi. SHularning ichida tarixiy timsolli o'yinlar o'quvchilarning bilish faoliyatini jamoa tarzida tashkil qilish shakli va o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan o'quv o'yin turidan biridir. Jumladan, mazkur o'yin mobaynida o'quvchilar o'yin syujeti hamda o'zlariga taqsimlangan timsollar asosida tasavvur qilingan o'tmish va zamonaviy voqealarni aniq maqsadga qaratilgan o'yin harakatlari orqali amalga oshiradilar.

O'quvchilarda tarixiy sharoitni yaxshi bilishi, o'rganilayotgan voqealarning sabab-oqibatlari va ahamiyatini tahlil qilish hamda mohiyatini teran tushunish ko'nikmasining shakllanganligi ushbu o'yin muvaffaqiyatini ta'minlaydigan muhim omil sanaladi. Shu bilan birga o'qituvchi o'quvchilarni o'yinga psixologik jihatdan tayyorlashi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

O'quvchilar bu kabi topshiriqlarni qiziqish bilan qabul qiladilar va bajaradilar. Timsolli o'yinlarning yana bir turi tarixiy voqeaning sahna ko'rinishi bo'lib, unda o'quvchilar tarixiy shaxslar timsolida qatnashib, ularning xarakterlari, ma'lum vaziyatlarda tutgan yo'llari, yo'l qo'ygan xatolarini o'z fikrlari yordamida ifodalaydilar. Masalan, Iskandari Soniy, deb nom olgan Xorazmshoh Sulton Muhammad saroyida Chingizxon boshliq mo'g'ullar hujumiga nisbatan ko'riladigan chora masalalarida harbiy kengash chaqiriladi. Harbiy kengashda turli fikr-mulohazalar bildiriladi. Jumladan, saroy arboblaridan Shahobiddin Xivaqiy bor qo'shinni Sirdaryo bo'yiga to'plab, uzoq yo'ldan toliqib kelgan mo'g'ullarga qarshi, to'satdan zarba berishni taklif qiladi. Lekin, Xorazmshoh Muhammad bo'lajak urushda mudofaa taktikasini qo'llash sabablari, Jaloliddin Manguberdi va boshqa kengash qatnashchilarining bu boradagi fikrlari sahnalashtirilgan holda ko'rsatiladi. Bular o'quvchilarni tarixiy voqea va hodisalarga to'g'ri baho berishga o'rgatish bilan har ikkala tarix kursidan yaqin bo'lgan mavzu materiallari mazmunini uzviy bog'lab, keyin yuzaga keladigan muammolarni oydinlashtirishga yordam beradi.

Tarix ta'limida sinxron (bir vaqtda, o'zaro mos ravishda) aloqa va o'tgan voqealar bilan izchil bo'lgan aloqalarni turli yo'llar bilan amalga oshirish mumkin. Jumladan, sinxron va uzviy xronologik jadvallarni o'quvchilarning o'qituvchi topshirig'iga ko'ra to'ldirishlari tarix kurslarida mavjud bo'lgan bir turdagi tarixiy asoslar haqidagi bilimlarini tizimlashtiradi.

O'zaro bog'langan va bir-biri o'rtasida nisbat aniqlangan xronologik sanalar tizimi o'quvchilar ongida xronologik asos yaratib, tarixiy dalillarni puxta o'zlashtirishga yordam beradi. Ayniqsa, uzviy xronologik va sinxronik aloqalar, shu jumladan kurslararo aloqalarni takrorlash va mustahkamlash yo'li bilan o'rganish tarix o'qitishning o'ziga xos xususiyatini belgilaydi.

Jahon tarixidan qaysi voqea O'zbekiston tarixining ayrim voqealaridan oldinroq yoki boshqa voqealaridan keyinroq bo'lganligini va ular orasidagi farq necha yilni tashkil etishi kabi topshiriqlar o'quvchilarning xronologik bilimini mustahkamlab, tarixiy materialni zamonda tahlil qilish ko'nikmasini rivojlantiradi. Bu borada xronologik boshqotirmalarni echish o'quvchilarda tarixga bo'lgan qiziqishlarini oshiradi.

Demak, xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ta'lim mazmunini integratsiyalash orqali tarix fanlarini o'qitishda o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalariga ega bo'lishidagi mavjud muammolarni hisobga olgan holda baholashning namunali me'yorlari iste'molchilar talablariga muvofiq ishlab chiqilishi lozim bo'ladi. SHuningdek, tarix kurslarini o'zaro bog'lab o'qitish orqali dars samaradorligini oshirishda maqsadga muvofiq uslubiy usullarni tanlashning asosiy mezonlari ishlab chiqish tavsiya etildi. Bunda ta'lim jarayonida amal qilinadigan qonuniyatlar va undan kelib chiqadigan ilmiy pedagogik tamoyillar asosida tarix fanlarining mazmuni va usullarini integratsiyalash o'qituvchi va o'quvchilarning imkoniyatlariga ko'ra belgilanishi zarur.

**REFERENCES**

1. Mahkamov S.T. Tarix ta'limida kurslararo uzviylikni ta'minlashning didaktik asoslari // ped. fanlari nomz. diss. – T.: 2005.
2. Umumiy o'rta ta'lim davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. "Ta'lim taraqqiyoti", 3-maxsus son.-T.: "Sharq", 1999 y.
3. Tarix o'qitish metodikasi . Toshkent, 2005 yil
4. Abduraxmanova J. N. (2020). Innovatsion tajriba maydoni – "maktab– laboratoriya"ning ta'lim tizimidagi o'rni. Mug'allim hem o'zliksiz bilimlendiri. (Issue 1)
5. "Ta'limda innovatsion texnologiyalar" A.Abduqodirov, R.Ishmuhammedov: 2008.

# ONA TILI VA ADABIYOT DARSLARIDA TURLI XIL INNOVATSION TEXNALOGIYALARDAN FOYDALANISH

**Niyozaliyeva Nigora Ravshanovna**
Toshkent shahar Uchtepa tumani 236 - maktab
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

https://doi.org/10.5281/zenodo.7514167

***Annotatsiya.*** *Maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarida ona tili va adabiyot fanini innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda o'qitish, darsda turli o'yin va og'zaki so'rovlardan foydalanish haqida ma'lumotlar keltirib o'tildi.*

***Kalit so'zlar:*** *Innovatsiya, dunyoqarash, og'zaki nutq, yozma nutq, muammoli vaziyat, mustaqil o'rganish.*

# ИСПОЛЬЗОВАНИЕ РАЗЛИЧНЫХ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ НА УРОКАХ РОДНОГО ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

***Аннотация.*** *В статье представлена информация об обучении родному языку и литературе в общеобразовательных школах с использованием инновационных технологий, с использованием на уроке различных игр и устных вопросов.*

***Ключевые слова:*** *новаторство, мировоззрение, устная речь, письменная речь, проблемная ситуация, самостоятельное исследование.*

# USE OF DIFFERENT INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN MOTHER LANGUAGE AND LITERATURE LESSONS

***Abstract.*** *The article provides information on teaching mother tongue and literature using innovative technologies, using various games and oral inquiries in the lesson in general secondary schools.*

***Key words:*** *Innovation, worldview, oral speech, written speech, problem situation, independent study.*

Buyuk islohotlar amalga oshirilayotgan sharoitda ijodiy fikrlovchi yoshlarga bo'lgan talab davr taqozosidir. Chunki shaxsiy dunyoqarashga ega bo'lgan insonlargina jamiyat taraqqiyotini ta'minlovchi muvaffaqiyatlarga erishishga qodir bo'ladilar. Respublikada olib borilayotgan davlat siyosatining bosh omillaridan biri ham ijodiy fikrlovchi, keng dunyoqarashga ega, iqtidorli shaxslarni kamol toptirish va tarbiyalashdir. Bularni amalga oshirishda o'qituvchining darslar va sinfdan tashqari mashg'ulotlar jarayonida interfaol metodlardan unumli foydalana olishi ham muhim o'rin tutadi. Interfaol metodlardan amalda foydalanishda quyidagi asosiy xulosalarini hisobga olish lozim:

- o'quvchi o'zi o'rganishi kerak, aks holda unga hech kim hech narsani o'rgata olmaydi;
- o'qituvchi o'quvchilarga bilimlarni "kashf qilishga" yordam beradigan jarayonni tashkil qiladi ya'ni yapon xalq maqoli misolida olsak, o'qituvchi baliq tutib bermaydi, balki unga baliq tutishni o'rgatadi;
- bilim borliqdan ko'chirilgan nusxa emas, uni odam shakllantiradi kabilar.

Shuningdek o'qitishning zamonaviy metodlarini qo'llash o'qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Bu metodlarni har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq. An'anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda uni ta'lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan turli-tuman metodlar bilan boyitish ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasi o'sishiga olib keladi.

Ona tili darslarini innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida tashkil etish va o'quvchilarda mustaqil ishlash, shuningdek, ijodiy fikrlash kompetensiyasini shakllantirishda "Juftlikda ishlash", "Kichik guruhlarda ishlash", " Daraxt yechimi", "tugallanmagan gap mashqi", "Charxpalak", "Adashgan so'zni topish", "Chalkash ma'lumotlar", "Alifbo", "Tarozi", "Loto", "Qora quti" kabi metodlardan foydalanish o'quvchi mehnati samaradorligini ta'minlaydi. Shulardan o'z tajribamda sinalgan "Charxpalak" texnologiyasini ko'rib chiqamiz.

**Texnologiyaning tavsifi.** Ushbu texnologiya o'quvchilarni o'tilgan mavzularni yodga olishga, mantiqan fikrlab, berilgan savollarga mustaqil ravishda to'g'ri javob berishga va o'z-o'zini baholashga hamda qisqa vaqt ichida o'qituvchi tomonidan barcha o'quvchilarning egallagan bilimlarini baholashga qaratilgan.

**Texnologiyaning maqsadi**.Texnologiya o'quv mashg'ulotining barcha turlarida dars boshlanishi yoki dars oxirida yoki o'quv predmetning biron bir bo'limi tugallanganda, o'tilgan mavzularni o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilganlik darajasini baholash, oraliq va yakuniy nazorat o'tish uchun mo'ljallangan.

**Mashg'ulotni o'tkazish tartibi.** O'quvchilar guruhlarga bo'linadi, talab va qoidalar tushuntiriladi. Guruhlarga mos tarqatma materiallar tarqatiladi. Har bir guruh a'zosi o'zi ishlagan tarqatma materiallarining o'ng burchagiga guruh raqamini yozadi, chap burchagiga esa o'zining ramziy belgisini chizib qo'yadi. Vazifa bajarilgan tarqatma materiallar boshqa guruhlarga "charxpalak aylanmasi" yo'nalishida almashtiriladi. 11-sinfda "O'zbek tili va uning taraqqiyoti" mazusini o'tishda **"Charxpalak"** usulidan foydalanamiz. 1-guruh fikrini 2-guruh, 2-guruh fikrini 3guruh, 3-guruh fikrini 1-guruh davom ettirib charxpalak hosil qiladi. Qaysi guruh fikr topa olmasa o'sha guruh o'yinni tark etadi.

**Izoh:** reja bo'yicha belgilangan mavzu asosida hamda o'qituvchining qo'ygan maqsadi (tekshirish, mustahkamlashga,mashqlar bajarishga, baholash)ga mos tayyorlangan tarqatma materiallar guruhlar soniga qarab tayyorlanadi. Biz mashqdan kelib chiqib barcha guruhlarga til deganda nimani tushunasiz ? degan bir xil tarqatma berib har xil javob olishga harakat qildik. Fikrlar ketma-ket guruhlararo amalga oshiriladi. Masalan o'qituvchi tomonidan har bir guruh 20 ta fikr yig'ish kerak bo'lsa, 15-16 ta o'quvchilar tomonidan fikr yig'ilgan bo'lsa, o'quv materiali o'zlashtirilgan hisoblanadi. Har bir to'g'ri fikr uchun 1 ball beriladi va guruh baliga qo'shib boriladi.

O'quvchilar matnga mos sarlavhalar topadilar. Agar e'tibor berayotgan bo'lsangiz darslikdagi har bir topshiriq va mashqlarga namuna berib, yosh o'qituvchilarimizga metodik tavsiyalar ham taklif qilib bormoqdamiz. Chunki mavzumiz mantiq, mustaqil fikrlash, izlanish, isbotlash, izohlash, tahlil qilish, yangiliklar yaratish, ruhiy holatlardan chiqish, manbalar bilan ishlash, ziddiyatsiz raqobatni yo'lga qo'yishni taqozo etadi. (tajriba va izlanishlar asosida)

1-guruh -Til dilga yo'l topadi.

2-guruh-Til- inAsonni hayvondan ajratuvchi vosita.

3-guruh Til-yangi hayot mezoni.

1-guruh Til tufayli bilim avlodga o'tadi.

O'quvchilar o'z baholari yoki ballarini belgilab olishgach, o'qituvchi vazifa bajarilgan qog'ozlarni yig'ib oladi va baho (ballar)ni guruh jurnaliga ko'chirib qo'yadi.

**"Charxpalak" texnologiyasining afzalligi**

1.O'quvchilarni guruh bo'lib ishlashga, ya'ni hamjihatlikka o'rgatganligi;

2. Kafolatlangan natijaga yo'naltirilganligi;

3.O‘quvchilarni o‘rtasida sog‘lom raqobatni yo‘lga qo‘yilganligi;

4. O‘quvchilarda mustaqil ishlash va mantiqiy fikrlashga o‘rgatish;

5. Komunikativ shaxs sifatida o‘z-o‘zini rivojlantirish; 6. O‘quvchilarimizda milliy qadriyatlarni bilishga qaratilganligi;

Yuqoridagilardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, qo‘llanilgan usullar o‘quvchilarning intellektual faollik, qiziqishlari hamda moyilliklaridan kelib chiqqan holda bilimlarning ortishi va ko‘nikmalarining malakaga aylana borishini ta’minlaydi. Ta’lim sifat samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Mamlakatimizda ta’lim-tarbiyani hozirgi zamon talablari darajasida olib borishda mavjud barcha imkoniyatlar va vositalardan samarali foydalanganimizdagina ma’naviyati yuksak yoshlarni tarbiyalashga erishamiz.

**REFERENCES**

1. Karimov I.A Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch.-T.,”Ma’naviyat”, 2008.
2. Mahmudov N. M Odilov Y.R Ziyodullayeva G.Sh Ona tili. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 11-sinfi uchun darslik. Davlat ilmiy nashriyoti, 2018.
3. Hamroyev M.A. O‘zbek tilidan ma’ruzalar majmuasi.-T., 2011
4. Ishmuhamedov R.J Yuldashev M.A Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar.-T., 2017
5. Xalq ta’limi . O‘zbekiston Respublikasining Xalq ta’limi vazirligining ilmiymetodik jurnali.5-son. 2014.-51-b.

ISSN: 2181-3906
International scientific journal
«MODERN SCIENCE AND RESEARCH»
VOLUME 1 / ISSUE 3

# BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING MATEMATIK MALAKALARINI RIVOJLANTIRISHDA INTERFAOL METODLARNING AHAMIYATI

**Davatova Oysifat Xakimovna**
Qashqadaryo viloyati Nishon tumaniga qarashli 33-umumiy o'rta ta'lim maktabida boshlang'ich sinf o'qituvchisi

https://doi.org/10.5281/zenodo.7514716

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarning matematika darslarida zamonaviy metodlarni qo'llash orqali darsni samarali tashkil etish bo'yicha ma'lumotlar yoritib beriladi.*

***Kalit so'zlar:*** *Matematika, Interfaol metod, Fikrlarning tezligi, katta, doira, charxpalak, akvarium, kichik guruhlarda (juftlikda) ishlash.*

# ЗНАЧЕНИЕ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ В РАЗВИТИИ МАТЕМАТИЧЕСКИХ НАВЫКОВ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

***Аннотация.*** *В данной статье освещается информация об эффективной организации урока с использованием современных методик на уроках математики в младших классах.*

***Ключевые слова:*** *Математика, Интерактивный метод, Скорость мысли, большой, круг, кружок, аквариум, работа в малых группах (в парах).*

# THE IMPORTANCE OF INTERACTIVE METHODS IN THE DEVELOPMENT OF MATHEMATICAL SKILLS OF PRIMARY CLASS STUDENTS

***Abstract.*** *In this article, the information on effective organization of the lesson by using modern methods in mathematics classes of elementary grades is highlighted.*

***Key words:*** *Mathematics, Interactive method, Speed of thoughts, big, circle, circle, aquarium, work in small groups (in pairs).*

Mamalakatimizda matematik savodxonlikni oshirish, ta'lim sifatini yaxshilash maqsadida qator chora-tadbirlari amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 - yil 25 fevraldagi 133-F sonli farmoyishi asosida 2019 - yil 18-19 aprel kunlari "Boshlang'ich ta'limning dolzarb masalalari: muammo va yechimlar" mavzusidagi Respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumani o'tkazildi. Ushbu ilmiy-amaliy anjumanda boshlang'ich ta'lim tizimida isloh qilinishi kerak bo'lgan muammolar sanab o'tildi. Shunday muammolardan biri bu matematika fanini boshlang'ich sinflarda samarali tashkil etish, interfaol metodlarni qo'llash orqali zamonaviy ta'limni yo'lga qo'yib, o'quvchilarni nafaqat Respublika balki chet ellarda bo'ladigan fan olimpiadalarida ishtiroki va g'alabasini ta'minlashdan iboratdir.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Miromonovichning 2020 yil 7- maydagi " Matematika sohasida ta'lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish" to'g'risidagi qarori ham ushbu sohaga nisbatan e'tiborni kuchaytirdi va quyidagilar ustuvor yo'nalish sifatida belgilandi :

- ta'lim va ilmiy muassasalar o'rtasida yaqin hamkorlikni ta'minlovchi yaxlit tizimni shakllantirish
- zamonaviy pedagogik texnologiyalarnijoriy qilish
- matematika fanlarini o'qitish sifatini oshirish

**Interfaol metod** – ta'lim jarayonida o'quvchilar hamda o'qituvchi o'rtasidagi faollikni oshirish orqali o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirishni faollashtirish, shaxsiy sifatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Interfaol metodlarni qo'llash dars samaradorligini oshirishga yordam beradi. Interfaol ta'limning asosiy mezonlari:

norasmiy bahs-munozaralar o'tkazish, o'quv materialini erkin bayon etish va ifodalash imkoniyati, nazariy bilim olishlar soni kamligi, amaliyotlar soni ko'pligi, o'quvchilar tashabbus ko'rsatishlariga imkoniyatlar yaratilishi, kichik guruh, katta guruh, sinf jamoasi bo'lib ishlash uchun topshiriqlar berish, yozma ishlar bajarish va boshqa metodlardan iborat bo'lib, ular ta'lim – tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishda o'ziga xos ahamiyatga ega.

Interfaol metodlar ko'p turli bo'lib ularning hammasi ham har qanday progressiv usullar kabi eng avvalo o'qituvchidan mashg'ulot oldidan katta tayyorgarlik ko'rishni talab qiladi.

Bugungi kunda boshlang'ich matematika o'qitish jarayonida o'quvchilar tabiat va jamiyatimizda sodir bo'ladigan voqea-hodisalarga o'z fikrini bildirishi, shuningdek, kundalik hayotida ro'y bergan muammoli vaziyatlarni mustaqil ravishda hal eta olishlari uchun erkin va ijodiy fikrlashni hosil qilish lozim. O'quvchilar o'quv-biluv faoliyatlarida yangi bilim va axborotlarni majburan o'zlashtirmasdan, balki qiziqib o'rgansalar o'qitishdagi samaradorlik yuqori bo'ladi. Interfaol metodlar tatbiq etilganda o'quvchilar o'zlarining haqiqiy matematik fikr va g'oyalarini aniq maqsad sari yo'naltiradi va yuzaga chiqaradilar. O'quvchilarning izlanishlari va ijodiy fikr yuritishlari orqali fikrlar tezligi, fikrlar egiluvchanligi hamda fikrlar aniqligi kabi pedagogik-psixologik holatlar ro'y beradi.

Fikrlarning tezligi - ikki komponentni, ya'ni matematik misol va masalalarni yechish tezligi va masala yechilishining aniqligini o'z ichiga oladi. Fikrlash jarayonining egiluvchanligi – bu yuzaga kelgan bir g'oyadan masala yechimiga olib keluvchi boshqa g'oyaga o'tishdir. Boshqacha qilib aytganda, qo'yilgan masalaning to'g'ri yechimiga olib boruvchi bir yoki bir necha usullardan foydalanishdan iboratdir.

Fikrlarning aniqligi – qo'yilgan matematik misol va masalalarni yechishda taxminiy chegarani bilish hamda fikrlash orqali aniq, ishonchli javoblarni hosil qilish.

Interfaol metodlarni dars jarayonida qo'llash o'quvchi va o'qituvchining innovatsion faoliyati bilan o'zaro uzviy bog'langan ikki jarayonni o'z ichiga oladi:

- o'qitiladigan shaxsning innovatsion o'quv faoliyatini tashkil etish;
- innovatsion o'quv faoliyati ustidan nazoratni tashkil etish.

Interfaol mashg'ulot jarayonining asosiy bosqichlari quyidagilardan iborat:

- ➢ Salomlashish (o'qituvchi va o'quvchilar).
- ➢ Kirish so'zi – o'quvchilarga darsda interfaol ta'limning qaysi turidan foydalanish, dars mavzusi, shakli va maqsadlari bilan tanishtirish lozim.. Kirish so'zi aniq va qisqa bo'lishi kerak.

Qoidalarni ishlab chiqish-guruhning samarali ishlashi uchun qoidalarni belgilash yuzasidan o'quvchilarning takliflar bildirishi so'raladi. Shu takliflar asosida ular tomonidan qoidalar ishlab chiqilib, qabul qilinadi. Bu qoidalarga rioya qilinishi nazoratini faqat o'qituvchi emas, o'quvchilar ham olib borishlari ko'zda tutiladi.

- ➢ Tanishuv (muzyorar)- ishtirokchilarning darsda o'zaro erkin va faol muloqotlarini ta'minlash maqsadida har turli harakatli mashqlarni tashkil qilish orqali o'tkaziladi. Bu mashqlarni o'quvchilar orasidagi notanishlik, tortinchoqlik va shu kabi holatlarni bartaraf qilib, o'zaro iliq munosabatlarni hosil qilishga yo'naltirilgani uchun "muzyorar" deb nomlanadi.

Kutiladigan natijalar har bir o'quvchi dars yakunida nimalarni o'rganishi, qanday ishlarni bajara oladigan bo'lishi haqida ma'lumot berilib, bunda o'quvchilarning shaxsiy ehtiyojlari asosida og'zaki yoki yozma ravishda bildirgan kuzatuvlari ham hisobga olinadi.

- Kichik guruhlarga ajratish - dars maqsadiga muvofiq ravishda o‘quvchilarni bir nechta kichik guruhlarga ajratgan holda vazifalar bajarishlarini tashkil etish uchun har turli harakatli mashqlar shaklida amalga oshiriladi. Kichik guruhlarga birinchi marta ajratishda o‘quvchilar o‘z ixtiyorlariga ko‘ra guruhlarga ajralishlari mumkin. Keyingi gallarda tasodifiy kichik guruhlarga ajratish qo‘llaniladi.

Kichik guruhlar ishini tashkil qilish – har bir kichik guruhga aniq vazifa, zarur materiallar, vositalar taqsim qilinadi, vazifani bajarish, natijani ma’lum qilish tartibi va ajratilgan vaqt belgilanadi.

- Taqdimotlar – kichik guruhlar o‘zlariga berilgan vazifalarni bajarganda keyin, olingan natijalarni ular belgilangan vakil tomonidan barcha guruhlar a’zolari oldida taqdimot qilishdan iborat. Bunday taqdimot yakka tartibda berilgan vazifani bajargan biror o‘quvchi tomonidan ham amalga oshirilishi mumkin.
- Kichik ma’ruzalar – interfaol mashg‘ulot mavzusi bo‘yicha o‘quvchilarga nazariy ma’lumotlarni yetkazish maqsadida o‘qituvchi tomonidan o‘tkaziladi.
- Muhokamalar o‘tkazish – dars mavzusiga doir masalalar yuzasidan hamkorlikda fikr yuritish va xulosalar chiqarishga yo‘naltirilgan interfaol mashqlardan iborat.
- Xulosalar va vazifalarni belgilash - mashg‘ulot davomidagi xulosalarni jamlash va umumlashtirish hamda o‘quvchilar uchun navbatdagi vazifalarni belgilab berishdan iborat.
- Darsni yakunlash - darsdan qoniqqanlik darajasini har bir o‘quvchi tomonidan baholashni har turli interfaol shakllarda tashkil etiladi. Bu baholash natijalarini keyingi darslarni tashkil etishda hisobga olib boriladi.

Interfaol ta’limning asosiy shakllari: katta, doira, charxpalak, akvarium, kichik guruhlarda (juftlikda) ishlash va boshqalardan iborat bo’lishi mumkin.

Interfaol ta’limning asosiy usullari: interfaol seminar, trening, ma’ruza, aqliy hujum, ishchanlik o‘yini, rolli o‘yin, muhokama, bahs, munozara, tanqidiy fikrlash, skarabey, bumerang, zig-zag yoki arra, press, intervyu, zanjir, sinkveyn, pinbord, insert, suratli diktant, chigilyozmadi, muzyorar va boshqalar. Shu bilan birga ta’kidlash zarurki, interfaol darslarda shakl va usullar birgalikda mavjud bo‘lib, ularni shartli ravishdagina ajratish mumkin.

Shunday qilib, interfaol metodlar ta’lim sifatini yaxshilash, samaradorligini oshirish, o’quvchi, o’qituvchi va o’quvchilar guruhi o’rtasida hamkorlikni qaror toptirish, yagona maqsad sari intilish hamda shaxsning ichki imkoniyatlarini ro’yobga chiqarish kabi muhim vazifalarni amalga oshirishda muhim omil bo’lib xizmat qiladi. Demak, interfaol metodlar o‘quvchilarni faqatgina matematik bilimlarini rivojlantirib qolmasdan ularning olgan bilimlarini kundalik hayotda qo‘llashga ham yordam beradigan metodlar hisoblanadi.

**REFERENCES**

1. A. Ismoilov, D. Norboyeva, K. Kucharova, Z. Qosimova, N. Aminova. Xalqaro tadqiqotlarda boshlang’ich sinf o’quvchilarining savodxonligini baholash. (o’quv qo’llanma) – T.: Sharq NMAK, 2019.
2. Davydov, V.V. Ta’limni rivojlantirish muammolari / V.V. Davydov. - M., 2016 yil.
3. Ishmuhamedov, R., Abduqodirov, A., & Pardaev, A. (2008) Ta’limda innovatsion texnologiyalar. Iste’dod.

4. Muslimov, N., Usmonboeva, M., Sayfurov, D., & To'raev, A. (2015) Innovatsion ta'lim texnologiyalari. Sano-standart.

# HAMSHIRALIK ISHI ASOSLARI FANINI O‘QITISHDA INOVATSION TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI

**Palvanova Dilnoza Husan qizi**
Xorazm viloyati Urganch Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi tehnikumi yetakchi o‘qituvchisi

https://doi.org/10.5281/zenodo.7514748

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada hamshiralik ishi asoslari fanini o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning o‘rni va ahamiyati, zamonaviy asbob-uskunalardan unumli foydalangan holda o‘sib kelayotgan bo‘lajak kadrlarni har tomonlama yetuk mutaxassis sifatida shakllantirishning usul hamda vositalari haqida so‘z boradi.*

***Kalit so‘zlar:*** *Ta’lim, tarbiya, kasb, darslik, texnologiya, vizual, taktil, axborot kommunikatsiya texnologiyalari.*

# РОЛЬ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБУЧЕНИИ ОСНОВАМ СЕСТРИНСКОГО ДЕЛА

***Аннотация.*** *В данной статье говорится о роли и значении современных педагогических технологий в обучении основам сестринского дела, методах и средствах формирования подрастающих будущих кадров как полноценных специалистов с использованием современного оборудования.*

***Ключевые слова:*** *образование, обучение, профессия, учебник, технология, визуальные, тактильные, информационно-коммуникативные технологии.*

# THE ROLE OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN TEACHING FUNDAMENTALS OF NURSING

***Abstract.*** *This article talks about the role and importance of modern pedagogical technologies in teaching the basics of nursing, the methods and means of forming the future personnel as mature specialists in all aspects, using modern equipment effectively.*

***Key words:*** *Education, training, profession, textbook, technology, visual, tactile, information communication technologies.*

Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining ma’lumotlariga ko‘ra, inson salomatligi 19 foiz tashqi muhitga, 20 foiz genetik omillarga, 9 foiz sog‘liqni saqlashni tashkil etish va 52 foiz turmush tarziga bog‘liq. Dunyo miqyosida fan va ta’lim o‘zaro muvofiq tarzda rivojlanib kelayotgani sayin turli davlatlarda ham o‘qitish tizimida ham ko‘pgina interfaol texnologiyalar shakllanib kelmoqda. Chunonchi tibbiyot xodimlarining kasbiy tayyorgarligini oshirish, kasbiy yutuqlari sonini kengaytirishga bo‘lgan e’tibor davlat miqyosida ham e’tirof etilmoqda. Misol tariqasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2022-yil, 18-mart kuni tibbiyot xodimlari bilan ochiq muloqot o‘tkazdi. Uchrashuvda davlatimiz rahbari o‘z nutqida ularni umumlashtirib, 7 ta muhim yo‘nalishni ko‘rsatib o‘tdi:

- ➢ birlamchi tibbiy xizmatlarni aholiga yaqinlashtirish,
- ➢ tez tibbiy yordamni rivojlantirish,
- ➢ tibbiyot muassasalarining sharoitini yaxshilash,
- ➢ soha xodimlarini moddiy rag‘batlantirish,
- ➢ shifoxonalarni malakali kadrlar bilan ta’minlash,
- ➢ jamiyatda sog‘lom turmush madaniyatini oshirish,
- ➢ kasalliklarning oldini olishga qaratilgan.

Yuqorida keltirib o‘tilgan yo‘nalishlardan beshinchisi – shifoxonalarni malakali kadrlar bilan ta’minlash holati bilan bog‘liq bo‘lib, unga ko‘ra quyidagi ishlar amalga oshirilishi ko‘zda tutilgan. Unga ko‘ra 2022-2023-o‘quv yilidan tibbiyot oliygohlariga davlat grantlari asosida qabul kvotalari hududlarda shifokorlarga bo‘lgan haqiqiy ehtiyojdan kelib chiqib, maqsadli oshirib boriladi. Tibbiyot oliygohlarida olti oylik ixtisoslashgan kurslar tashkil etilib, oilaviy shifokorlarni hududlarda zarur mutaxassislik bo‘yicha maqsadli o‘qitish yo‘lga qo‘yiladi. Barcha tibbiyot Tehnikumlari va Tehnikumlari oliy ta’lim muassasalariga biriktiriladi. Joriy yildan boshlab, tibbiy brigada, oilaviy shifokor punkti va poliklinikalar ish samaradorligini baholash bo‘yicha reyting tizimi joriy qilinishi aytildi. Ijobiy ko‘rsatkichlarga erishgan tibbiyot xodimlari mukofotlanadi. “Xalq salomatligi posboni” ko‘krak nishoni ta’sis etildi.

Kasbiy harakatchan malakali mutaxassislarni tayyorlash uchun zamonaviy pedagogik texnologiyalardan faol foydalanilmoqda. Ularni o‘qitishda qo‘llash kasbiy va umumiy madaniy kompetensiyalarni rivojlantirish, o‘quvchining bilim faolligini rag‘batlantirish va yuqori darajadagi mustaqillikka erishish imkonini beradi. Bo‘lajak mutaxassisning raqobatbardosh bo‘lishi va turli kasbiy vaziyatlarda harakat qila olishi uchun zamonaviy pedagogik texnologiyalar nafaqat samarali o‘qitish va aniq kompetensiyalarni shakllantirish maqsadlarini amalga oshirishni ta’minlashi, balki kasbga sho‘ng‘in muhitini yaratishi kerak.

Tehnikum o‘qituvchilari bugungi kunda turli pedagogik texnologiyalardan foydalanmoqda. Eng ko‘p qo‘llaniladigan texnologiyalarga quyidagilarni misol qilib keltirishimiz mumkin:

1) hamkorlikda o‘rganish,

2) simulyatsiya texnologiyasi,

3) axborot texnologiyalari va immersion texnologiyasi.

O‘quvchini jamoada ishlashga va har doim bir-biriga yordam berishga tayyor bo‘lishga o‘rgatish uchun hamkorlikda o‘rganish qo‘llaniladi. O‘quv guruhi 2-3 kishidan iborat kichik guruhlarga bo‘lingan holatda olib borish usulida ham ijobiy natijalarga olib kelishi mumkin. Bunday holatlarda guruh bilan ishlash jarayonida quyidagi jhatlarga e’tibor qaratish zarur:

1) har bir o‘quvchi muvaffaqiyatga erishish uchun teng imkoniyatlarga ega bo‘lgan ushbu guruh vazifasini hal qilish uchun har bir talabaning individual javobgarligi inobatga olinadi.

2) vazifani echish jarayonida natijalar boshqa kichik guruhlar bilan almashiniladi va umumiy echim ishlab chiqiladi.

3) birgalikda ishlash jarayonida barcha materiallarni o‘zlashtirishga erishiladi.

4) o‘qituvchi talabalarning mustaqil bilish faoliyatini tashkil qiladi. Ish jarayonida u talabalarning faolligini nazorat qiladi va topshiriqning muvaffaqiyatli bajarilishini nazorat qiladi.

5) yakunda bitta yechim ishlab chiqiladi, natijalar umumlashtiriladi, natijalar e’lon qilinadi, har bir o‘quvchining faollik darajasi qayd etiladi.

Yuqoridagi usul va vositalardan tashqari simulyatsiya texnologiyasi bugungi kunda o‘quvchilarda bemorga zarar etkazish xavfsiz keng ko‘lamli kompetentsiyalarni rivojlantirish uchun sharoit yaratishda etakchi hisoblanadi. Tibbiyot ta’limida simulyatsiya (tashqi

ko‘rinish, da’vo) - bu biologik, mexanik, elektron, virtual modellar qo‘llaniladigan klinik vaziyatni yoki yagona fiziologik tizimni taqlid qilish, real modellashtirishga asoslangan amaliy ko’nikma va ko’nikmalarni o’rgatish va baholash texnologiyasi hisoblanadi. Shu bilan birga bu usullarda asbob-uskunalar bilan ishlash, jamoada ishlash ko‘nikmalari oshirilmoqda.

Real qo‘llanilish darajasiga ko’ra, simulyatsiya texnologiyalarining yetita guruhi ajratiladi.

Vizual - klassik darsliklar

1) elektron darsliklar

2) o‘quv kompyuter mashqlari

Taktil - amaliy ko‘nikmalarni mashq qilish uchun simulyatorlar 1) real fantom organlar

2) qo‘g‘irchoqlar, avtomatlashtirilgan - o‘rta darajadagi realizm manekenlari 3) video uskunalar

Uskuna - tibbiy mebel va jihozlar bilan jihozlangan palatadagi simulyatori;

1) haqiqiy tibbiy asbob-uskunalar bilan jihozlangan simulyator.

Interaktiv - robotlar - realizmning eng yuqori sinfidagi bemor simulyatorlari va taktil aloqa bilan virtual stimulyatorlar.

Ro‘yxatga olingan texnologiyalardan o‘qituvchilar tomonidan simulyatsiya texnologiyasining quyidagi darajalari keng qo‘llaniladi:

1) Vizual – o‘quvchilarni manipulyatsiyalarni bajarish algoritmi bilan tanishtirish. Ushbu bosqichda elektron qo‘llanmani o‘rganish yoki videoni tomosha qilish orqali manipulyatsiyalarni bajarish uchun harakatlar ketma-ketligi ishlab chiqilmoqda.

2) Taktil - fantom, model, standartlashtirilgan bemorda amaliy manipulyatsiyalarni takrorlash va ishlab chiqish. Manipulyatsiyani bajarish jarayonida harakatlar ketma-ketligi va muvofiqlashtirilishi rivojlanadi, amaliy ko’nikma hosil bo’ladi.

Yuqoridagi o‘quv uslubiy vositalarni qo‘llash jarayonida axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan unumli foydalana olish ham muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy mutaxassis nafaqat aniq bilimlarga ega bo‘lishi, balki kasbiy muammolarni qo‘yish va hal etish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o‘zlashtirish, ijodiy fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lishi kerak. Bunga ta’lim va tashkiliy muammolarni hal qiluvchi zamonaviy axborot texnologiyalari yordam beradi.

O‘rganilayotgan materialning ko’rinishini va bilim sifatini baholash uchun o‘qituvchilarning darslarining kompyuter taqdimotlaridan yoki matn, jadvallar, diagrammalar, chizmalar, fotosuratlar, videolar bilan slaydlar to‘plamini o‘z ichiga olgan qismlaryanada so’zlangan qismlarga va materialni idrok yetishtirish, uning muhim daqiqalariga e’tibor qilishga imkon beradi.

Hamshiralik ishi asoslari o‘qituvchilari hamshiralik aralashuvini amalga oshirish, hamshiralik manipulyatsiyasi algoritmlarini o‘z ichiga olgan multimedia vositalarini qo‘llash orqali, bu yerda ularni amalga oshirishning barcha bosqichlari ish joyidagi xavfsizlik elementlari bilan mantiqiy ketma-ketlikda taqdim etiladi. O‘quvchilar bilan tezda fikr almashish, ularning bilimlariga tuzatishlar kiritish va har bir darsga tayyorgarlikni rag‘batlantirish imkonini beruvchi test nazorati topshiriqlari ham mavjud. Shu bilan birga, bu vaqtni tejaydi, bilimlarni nazorat qilishda hissiy stress darajasini pasaytiradi.

Demak, axborot texnologiyalaridan foydalanish o‘quvchilarning mustaqil ijodiy faoliyatini tashkil etish, o‘rganilayotgan fanlar bo‘yicha ulardan chuqur va mustahkam bilim olishda yuqori bilish faolligini ta’minlash imkonini beradi.

**REFERENCES**

1. Gaponenko I Y. “Bilimlarni boshqarish”- M .: Eksmo, 2008.
2. Panfilov A.P. “Innovatsion pedagogik texnologiyalar”- M: “Akademiya markazi”nashriyoti, 2009 yil.
3. Professional pedagogika. /Rossiya Ta’lim akademiyasi, “Kasbiy ta’lim”uyushmasi - M: APO nashriyoti, 1997 yil
4. https://uzlidep.uz/uz/news-of-uzbekistan

# TA`LIM JARAYONIDA MAKTABLARDA BIOLOGIYA VA KIMYO FANLARINI O`QITISH VA VAZIFALARI

**Komilova Mohinabonu Bobir qizi**
Buxoro viloyati G‘ijduvon tumani 1-umumiy o‘rta ta’lim maktabi biologiya fani o‘qituvchisi
**Abdullayeva Nazokat Amrullayevna**
Buxoro viloyati G‘ijduvon tumani 1-umumiy o‘rta ta’lim maktabi kimyo fani o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7514760

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada ta`lim jarayonida maktablarda kimyo o`qitish metodikasi va vazifalari borasida ma’lumotlar o‘z aksini topgan.*

***Kalit so’zlar:*** *Kimyo metodikasi, innovatsion jarayon, tanqidiy fikrlash, metodika, maqsad, dars, o’qitish, natija, ta’lim, tarbiya, o'qish jarayoni.*

# ПРЕПОДАВАНИЕ И ЗАДАЧИ ПО БИОЛОГИИ И ХИМИИ В ШКОЛЕ В ПРОЦЕССЕ УЧЕБНОГО ПРОЦЕССА

***Аннотация.*** *В данной статье отражена информация о методике и задачах преподавания химии в школе в учебном процессе.*

***Ключевые слова:*** *Химическая методика, инновационный процесс, критическое мышление, методика, цель, урок, обучение, результат, образование, обучение, учебный процесс.*

# TEACHING AND TASKS OF BIOLOGY AND CHEMISTRY IN SCHOOLS DURING THE EDUCATIONAL PROCESS

***Abstract.*** *In this article, information about the methodology and tasks of teaching chemistry in schools is reflected in the educational process.*

***Key words:*** *Chemistry methodology, innovative process, critical thinking, methodology, goal, lesson, teaching, result, education, training, learning process.*

Ma’lumki, mamlakatimizda o'qituvchiga, yosh avlodni tarbiyasiga katta imtiyozlar berilmoqda. Shu sababli oliy ta'lim oldida birinchidan studentlar jamoasiga bilimli, ma'naviyatli hamda o'zbek millatiga xos tafakkurga ega bo'lgan yoshlar qabul qilish, ularni bilim bilan qurollantirish va yuqori ma'nosida buyuk inson darajasiga etkazish kerakdir. Buni bajarishda fan o'qituvchilari xizmati kattadir. O'qituvchi-mukamal shakllangan kimyo fani bo'yicha mutaxassis bo'lishi kerak. U kimyo fani, kimyoviy bilimlar va amaliy uslublardan tashqari bolalarning yoshiga qarab psixologiyasini bilish kerak. U oldindan bilim berishning hamma bosqichlarini amalga oshirish uslublarini mukammal egallashi kerak. O'zi dars beradigan fanning didaktik asoslarini bilib, bilimni berish umumiy uslublarini bolalar yoshlarini hisobga berib, o'zining hayotiy tajribasiga asoslanib bilimni etkazishi kerak. Kimyo o'qitish uslublari ma'lum tartibda o'rganiladi. Avval o'qish jarayonining asosiy vazifalari qarab chiqiladi. Keyin o'qish jarayonini tashkil etish uslublari, o'qitish qurollari, shakli va o'qituvchi mexnatini ilmiy tashkil etish uslublari qarab chiqiladi.

Biologiyani o'qitishda maqsadga muvofiq ta'sir ko'rsatish va qulay ijtimoiy-psixologik muhitni vujudga keltirishi o'qituvchi tomonidan qo'llanilgan pedagogik texnologiyalarga bog'liq bo'ladi. Didaktikada ishlab chiqilgan har qanday texnologiya o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish va ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi, lekin quyidagi texnologiyalarda mazkur masala asosiy g'oyani egallaydi:

I. Didaktik o'yin texnologiyalari.

2. Muammoli ta'lim texnologiyalari.

3. Modulli ta'lim texnologiyalari.

4. Hamkorlikda o'qitish texnologiyasi.

5. Loyihalash texnologiyasi.

O'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish va ta'lim samaradorligini oshirishga imkon beradigan texnologiyalarning o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lishi bilan birgalikda, ta'lim jarayonida ta'lim beruvchi, rivojlantiruvchi, tarbiyalovchi, ijodiy faoliyatga yo'llovchi, kommunikativ, mantiqiy fikrlash, aqliy faoliyat usullarini shakllantirish, o'z faoliyatini tahlil qilish, kasbga yo'llash, mo'ljalni to'g'ri olishga o'rgatish, hamkorlikni vujudga keltirish kabi funksiyalarni bajaradi.

*Biologiya o'quv fanini o'qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanish quyidagi didaktik maqsadlarni amalga oshirishga zamin tayyorlaydi:*

I. Axborot texnologiyalari biologiyani o'qitishda ko'zda tutiladigan ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarni amalga oshirish imko nini beradigan o'quv materialini yig'ish, saralash, unga didaktik ishlov berish, tarqatish va ta'lim jarayonida foydalanishga zamin yaratadi.

2. Har bir o'quvchida mavjud iqtidor, ehtiyoj, qiziqish va o'quv motivlariga mos holda tahsil olish trayektoriyasi, tempini belgilash, zarur hollarda axborot dasturlaridan takroran foydalanish imkonini beradi.

3. Biologiya darslarining strukturasini tubdan o'zgartiradi, darsning borishi, xarakteri, o'quvchilarning bilish faoliyatini obyekt-subyekt munosabatidan, subyekt-subyekt munosabatiga, ya'ni o'quvchilar o'quv maqsadlariga erishish uchun pedagogik jarayonning faol ishtirokchisiga aylantiradi.

4. O'quvchilarda mustaqil, ijodiy, mantiqiy va tizimli fikr yuritish ko'nikmalarini rivojlantirishga zamin tayyorlaydi.

5. O'quv yurtida amalga oshirish imkoni bo'lmagan hollar (kerakli jihozlar bo'lmagan, o'tkaziladigan tajribalar o'quvchilar sog'ligi uchun zararli, uzoq davom etadigan, ishlab chiqarish korxonalarining texnologiyalarini o'rganish)da tajribalarni virtual namoyish qilish imkonini beradi.

6. O'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini o'stirish, o'quvchilarning o'quv bilish faoliyatini faollashtirish va o'quv motivlarini orttirishga zamin tayyorlaydi.

7. Ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini aniqlash maqsadida teskari aloqa, ya'ni qisqa muddat ichida o'quvchilarning o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlash va baholash imkoniyati vujudga keladi.

Uzluksiz ta'lim tizimida pedagogik faoliyat ko'rsatayotgan o'qituvchilarning oldidagi muhim vazifalardan biri o'quvchilarning fan asoslarini o'zlashtirishga bo'lgan qiziqishlarini orttirish, mustaqil va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish asnosida ularning barkamolligini ta'minlash sanaladi. Ushbu muammolarni hal etishda axborot texnologiyalarining mahsullari muhim ahamiyat kasb etadi. Axborot texnologiyalari mahsullaridan foydalanilgan darslar axborotlarga boy, ko'rgazmali, interfaol bo'lib, vaqtdan unumli foydalanish, har bir o'quvchining o'z tempi bo'yicha bilim olish, o'qituvchi esa, o'quvchiIar bilan tabaqalashtirilgan va individuallashtirilgan ta'limni amalga oshirish imkoniyati vujudga keladi, shu bilan bir qatorda o'qitishda natijalarini nazorat qilish va baholash uchun zamin yaratadi.

O'qituvchi ishining asosiy o'qitish metodikasi o'quvchilarni o'qitish va tarbiyalash metodikasidir. Kimyo o'qituvchisi ishining asosi-kimyo o'qitish metodikasidir. Kimyo metodikasi, boshqa o'quv predmetlari o'qitish metodikasi kabi, asl mohiyati bilan olganda, uchta asosiy masalani: ta'lim-tarbiyaviy ishlarning maqsadi va vazifalarini; bu ishning mazmuni; o'quvchilarni ma'lumotli qilish va tarbiyalash protzessining xarakterini hal qilib beradi. Kimyo o'qitish o'quvchilarni tarbiyalashning qudratli vositasidir, kimyo o'qitish o'quvchilarni mehnatsevar va vataniga muhabbat qo'yadigan q'ilib, fanga chuqur qiziqadigan qilib, ilmiy predmetlar to'g'risida mustaqil fikr yuritish qobiliyatiga ega qilib, ijodiy faollik ko'rsatadigan, kimyodagi asosiy tushuncha va qonunlarning tadrijiy-tarixiy rivojlanishiga to'g'ri nuqtai-nazardan qaraydigan qilib tarbiyalashi kerak. Kimyo o'qitish uslublaridan xususan kimyo o'qitishga xos uslublar hamda umumpedagogik uslublarni qo'llash mumkindir. Masalan, tajriba va tushuntirish muammosi quyidagicha bo'lishi mumkin:

a) oldin tajriba, keyin izoh;
b) b) avval izoh, keyin tajriba;
c) v) izoh va tajriba birgalikda;
d) g) uyga vazifa qo'ralib, tajribani ko'rsatib, so'ngra izohlash.

Kimyo o'qitish yangi uslublarini ishlab chiqishda umumpedagogik tadqiqotlardan: pedagogik kuzatish, tadqiqotchining o'qituvchi va o'quvchi bilan suhbati, anketalash, kuzatilgan darsni pedagogik tashkil etish, tajriba q'aytadan sinab ko'pchilikka taklif etishni qo'llanilishi shartdir. Kimyo o'qituvchisi g'oyaviy shakllangan shaxs bo'lishi, fanni chuqur bilishi, tarbiyalash va o'qitishning asosiy nazariy bilimlarini amaliy faoliyatda to'g'ri qo'llay bilishi, hamda pedagogik tajribalardan xabardor bo'lishida kimyo o'qitish uslublari fanining alohida o'rni bor. Chunki bu fan maktabda kimyo o'qitish fanining mazmuni va uni o'quvchilar tomonidan tushunib olish qonuniyatlarini o'rgatuvchi, yo'naltiruvchi pedagogik quroldir. Kimyo o'qitish uslublarining mohiyati fan sifatida bu kimyo o'qitish jarayoni qonuniyatlaridir, bunga:o'qitish maqsadi, mazmuni, uslublari, shakllari, vositalari hamda o'qituvchi va o'quvchi orasidagi faoliyat kiradi. Kimyo metodikasining funksiyasi o'rta maktab o'quvchilarining asosiy faktlarni tushuncha qonuniyatlar va nazariyalarini, ularni kimyoga xos bo'lgan jumlalarda ifodalash optimal yo'llarini topishdan iborat. Didaktikaning asosiy xulosalari, qonuniyatlari va prinsiplariga tayanib ta'lim-tarbiyani va yetuklikni o'stiradigan kimyo o'qitishning asosiy vazifalarini metodika hal qiladi. O'quvchilarning kasb tanlashi politexnik ta'limot muammolariga katta e'tibor beriladi. Metodika esa didaktika kabi o'quvchilarning bilim olish faoliyatlarini rivojlantirish, o'stirish va dialektik materialistik dunyoqarash asoslarini hosil qilish masalalarini ko'rib chiqadi. Bunda kimyo metodikasining ta'siri har xil qiziqishga va boshqa o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan har xil yoshlarga turlicha ekanligiga e'tibor berilishi shartdir. Kimyo metodikasini ilmiy asosida hal qilish uchun maktab kimyo kursining konkret materiallariga dialektik-materialistik falsafa nuqtai nazaridan qarab asoslanish, pedagogikaning, fiziologiya va psixologiyaning hozirgi zamon ma'lumotlarini har tomonlama hisobga olishi albatta zarur.

Kimyo o'qitish metodikasi asosida quyidagi metodologik yo'nalishlar mavjud: 1. Umumiy dialektik uslub, bunda tushunchalarning fikrlash davomida rivojlanishi, o'qitishning har xil qismlarining o'zaro bog'liqligi, ichki qarama-qarshilikning o'zaro bog'liqligi, ularni yechishda muammoli yondashish. 2. Sistematik-struktur yondashish, bunda o'qitish uchun asosiy bo'limlarni ajratish, ularning o'zaro bog'liqligini topish, hamda elementlar o'zaro ta'sirining barqarorligini, yaqinligini ko'rsatish va maktab kimyo o'qitish metodikasini birligini ko'rsatish. 3.

Yuqoridagi metodik kategoriyalarni uchta o'qitish funkziyalari: bilim berish, tarbiyalash va rivojlantirishga asoslanib qarash. 4. Kimyo o'qitish metodikasining asosini didaktik yondashish orqali qarab chiqish. Kimyo o'qitish metodikasida o'qitish uslubini didaktik tarbiyalashni tarbiya qonuniyatlari, bilimini rivojlantirishni-psixologiya fanlari o'rgatadi. O'qitish davrida bu uchala tarkibiy qismlar o'zaro ta'sirlanadi va kimyo o'qi tish metodikasi asosida turadi. Demak, kimyo o'qitish metodikasi maktabda o'quvchilarga bilim berish, tarbiyalash va bilimini rivojlantirishni kimyo darslarini o'qitish davomida o'rgatadigan pedagogik fan ekan. Kimyo o'qitish metodikasi pedagogika, kimyo, jamiyatshunoslik va boshqa fanlarning qoq markazida joylashgan bo'lib ular bilan uzviy bog'liqdir.

**REFERENCES**

1. Yu. V. Pletner, V. S. Polosin. Kimyo o’qitish metodikasidan praktikum. N. 1981y.
2. V. I. Sushko. Maktabda kimyo. T. O’qituvchi. 1991y.
3. J. O. Tolipova, A. T. G'ofurov. Biologiya o'qitish metodikasi. O'quv-metodik qo'llanma. - T.: .Bilim. 2004.

# TA'LIMDA TEXNOLOGIK JARAYONLAR HAQIDA

**Muhammadjonova Zarnigor Adxamjon qizi**
Andijon davlat pedagogika instituti Aniq va tabiiy fanlar fakulteti Texnologik ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi

***https://doi.org/10.5281/zenodo.7514780***

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada ta'lim va ta'limiy texnologiyalar borasida ma'lumotlar adabiyotlar asosida yoritib berishga harakat qilinadi.*

***Kalit so'zlar:*** *Pedagogik texnologiya, «texnologiya», «texnologik jarayon», o'quv jarayonini texnologiyalashtirish.*

# О ТЕХНОЛОГИЧЕСКИХ ПРОЦЕССАХ В ОБРАЗОВАНИИ

***Аннотация.*** *В данной статье делается попытка уточнить информацию об образовании и образовательных технологиях на основе литературы.*

***Ключевые слова:*** *Педагогическая технология, «технология», «технологический процесс», технологизация образовательного процесса.*

# ABOUT TECHNOLOGICAL PROCESSES IN EDUCATION

***Abstract.*** *In this article, information about education and educational technologies is tried to be clarified on the basis of literature.*

***Key words:*** *Pedagogical technology, "technology", "technological process", technologicalization of the educational process.*

*"Texnologiya"* tushunchasi texnikaviy taraqqiyot bilan bog'liq holda fanga 1872-yilda kirib keldi va yunoncha ikki so'zdan texnos- san`at, hunar va logos-fan, ta`limot so'zlaridan tashkil topib, "hunar fani " ma`nosini anglatadi. Biroq bu ifoda texnologik jarayonni to'liq tavsiflab berolmaydi, texnologik jarayon har doim zaruriy vositalar va sharoitlardan foydalangan holda amallarni (operatsiyalarni) muayyan ketma-ketlikda bajarishni ko'zda tutadi. Yanada aniqroq aytadigan bo'lsak, texnologik jarayon, bu – mehnat qurollari bilan mehnat ob`ektlari (xom ashyo) ga bosqichma- bosqich ta`sir etish natijasida mahsulot yaratish borasidagi ishchi (ishchi-mashina) ning faoliyatidir. «Pedagogik texnologiya» so'z birikmasi asosida «texnologiya», «texnologik jarayon» tushunchalari yotadi. Ushbu tushunchalar orqali sanoatda tayyor mahsulotni olish uchun bajariladigan ishlarning ketma-ketligi haqidagi texnik hujjat, ta'limda esa fan bo'yicha uslubiy tadbirlar majmuasi tushuniladi. Pedagogik texnologiyani tushunishning asosiy yo'li aniq belgilangan maqsadlarga qaratish, ta'lim oluvchi bilan muntazam o'zaro aloqani o'rnatish, pedagogik texnologiyaning falsafiy asosi hisoblangan ta'lim oluvchining xatti-harakati orqali o'qitishdir. O'zaro aloqa pedagogik texnologiya asosini tashkil qilib, o'quv jarayonini to'liq qamrab olishi kerak.

Texnologiya deganda sub'ekt tomonidan kiritilgan ta'sir natijasida sub'ektda sifat o'zgarishiga olib keluvchi jaraen tushuniladi. Texnologiya g'ar doim zaruriyat vositalar va sharoitlardan foydalanib, ob'ektga yo'naltirilgan maqsadni amallarni muayyan ketma-ketlikda bajarishni ko'zda tutadi.

Texnologiya – zamonaviy ilmiy-amaliy tafakkur mahsuli degan xulosaga kelish mumkin. U faoliyatni tubdan takomillashtirishga, uning natijaviyligini, tezkorligini, texnikaviy qurollanganligini oshirishga oid amaliy tadqiqotlar yo'nalishini aks ettiradi.

Shunday qilib, “texnologiya” deganda insonning aniq, murakkab jarayonni ketma-ketli o’zaro bogliq mualaja va amallar tizimiga taqsimlash yo’li bilan kafolatli natijaga erishish maqsadida amalga oshiriladigan usullar tushuniladi.

Texnologiya (jarayon sifatida) uchta qoida bilan tavsiflanadi:

- jarayonni o’zaro bog’liq bosqichlarga taqsimlash;
- izlanayotgan natijaga (belgilangan maqsad) erishishga qaratilgan harakatlarni izchil va bosqichma-bosqich bajarish;
- qo’yilgan maqsadga mos natijaga erishishning zaruriy sharti hisoblangan texnologik mualaja va amallarni bajarishning alohida ahamiyat kasb etishi.

Hozirgi kunda jahon miqiyosida ishlab chiqarilgan va foydalanilgan texnologiyalarni ikki turga bo’lish mumkin: sanoat va ijtimoiy texnologiyalardir. Ijtimoiy texnologiyalar har qanday sharoitga moslasha oladi.

Pedagogik texnologiyaga asoslangan ta’lim jarayonida o’qituvchi faoliyati va o’quvchi faoliyati doirasi aniq belgilanadi, ta’limni tashkil etishning aniq texnologiyasi ko’rsatiladi.

Ishlab chiqarishda texnologiya so’zidan kelib chiqadigan quyidagi tushunchalar ishlatiladi:

*Texnologik jarayon*- ishlab chiqariladigan mahsulotga ishlov berishning yagona jarayonini hosil qiluvchi texnologik operatsiyalarning yig’indisi.

*Texnologik operasiya* - ishchi tomonidan o’zining ish joyida bajariladigan, yakuniga yetkazilgan harakat ko’rinishidagi jarayonning bir qismi.

*Texnologik xarita*- ma`lum bir mahsulotni ishlab chiqarish texnologik operatsiyalarini ketma-ketligini bayon qiluvchi texnik hujjat.

*Texnologik rejim* - texnologik operatsiyalarni amalga oshirishni belgilovchi tartib bo’lib, ma`lum bir mahsulotni ishlab chiqarishda bajariladigan operatsiyalarning vaqti, shartlarini belgilaydi.

Ana shu ta`rif va tushunchalarni o’quv jarayoniga ko’chirsak quyidagi xulosaga kelish mumkin:

*Pedagogik texnologiya* - bu o’qituvchining o’quvchilarga o’qitish vositalari yordamida muayyan sharoitlarda ta`sir ko’rsatishi va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda oldindan belgilangan shaxs sifatlarini intensiv shakllantirish jarayonidir. Pedagogik texnologiya - o’quv jarayonini texnologiyalashtirishni butunligicha aniqlovchi tizimli kategoriya. Pedagogik nashrlarda «o’qitish texnologiyasi», «ta`lim texnologiyasi» tushunchalari ham ishlatiladi.

**REFERENCES**

1. Karimov I.A. Barkamol avlod - O’zbekiston taraqqiyotining poydevori.- T., "O’zbekiston", 1997.
2. www.ziyonet.uz
3. U.Y.Elmurodov “O’qituvchi va o’quvchi yoshlarda kompetensiyani shakllantirish samaradorligini oshirish”

# INFORMATIKA DARSLARINI OLIB BORISHDA O'YIN TEXNALOGIYALARINNG AHAMIYATI

**Matkarimova Nazokat Yo'ldashevna**
Urganch shahar Urganch Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi informatika fani o'qituvchisi

https://doi.org/10.5281/zenodo.7514798

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada, umumta'lim maktablarining informatika darslarida o'yin texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyatiga haqida.*

***Kalit so'zlar:*** *informatika, o'yinli texnologiya, axborotni uzatish, shaxsiy kompyuter, monitor.*

## ЗНАЧЕНИЕ ИГРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПРОВЕДЕНИИ IT-УРОКОВ

***Аннотация.*** *В данной статье речь идет о важности использования игровых технологий на уроках информатики в общеобразовательных школах.*

***Ключевые слова:*** *информатика, игровые технологии, передача информации, персональный компьютер, монитор.*

## THE IMPORTANCE OF GAME TECHNOLOGIES IN CONDUCTING IT LESSONS

***Abstract.*** *This article is about the importance of using game technologies in computer science classes of general education schools.*

***Key words:*** *informatics, gaming technology, information transfer, personal computer, monitor.*

Bugungi kunda ta'lim mazmunini modernizatsiyalash, ta'lim sifatini oshirish, ta'limda innovatsion texnologiyalarni keng joriy etishga yo'naltirilgan ko'plab innovatsiyalar yaratilmoqda va amaliyotga joriy etilmoqda. Mazkur innovatsiyalarning samaradorligi ko'p jihatdan ta'lim muassasasida amalga oshirilayotgan innovatsion faoliyatning to'g'ri tashkil etilganligiga bog'liqdir. Ta'lim jarayonini zamonaviylashtirish, jahon talablariga mos mutaxassislarni tayyorlash, ta'lim berish jarayonida ta'lim oluvchini o'z ortidan ergashtira olish uchun o'qituvchida ham pedagogik ham innovatorlik mahorati yuqori darajada bo'lishi lozim.

Pedagogika sohasidagi eng dolzarb vazifalardan biri har tomonlama kuchli, bilimli, mustaqil fikrlaydigan shaxsni tarbiyalashdir. Bunda darsda va amaliy mashg'ulotlarda mustaqil ishlarning tashkil etilishi muhim ahamiyatga ega. Axborot oqimi va bilimlar doirasi tez sur'atlar bilan kengayib borayotgan hozirgi sharoitda barcha ma'lumotlarni faqat dars mashg'ulotlarida o'quvchilarga yetkazish qiyin, albatta. Shuning uchun ham o'qituvchilar o'quvchilarning mustaqil ishlarini to'g'ri tashkil etishga alohida ahamiyat qaratishi lozim.

Informatika darslarida o'yinli texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati katta. O'yinli texnologiyaning asosiy talablarini faollashtiruvchi va jadallashtiruvchi faoliyat tashkil etadi. Informatika darslarida o'yin texnologiyalarini qo'llashning bir nechta samarali tomonlarini olimlar quyidagicha tahlil etishgan, yani mehnat va o'qish bilan birgalikda faoliyatning asosiy turlaridan biri hisoblanadi. Psixologlarning ta'kidlashlaricha, o'yinli faoliyatning psixologik mexanizmlari shaxsning o'zini namoyon qilish, hayotda o'z o'rnini barqaror qilish, o'zini o'zi boshqarish, o'z imkoniyatlarini amalga oshirishning fundamental ehtiyojlariga yondashadi.

Informatika darslarida o'yin ijtimoiy tajribalarni o'zlashtirish va qayta yaratishga yo'nalgan vaziyatlarda faoliyat turi sifatida belgilanadi va unda shaxsning o'z xulqini

boshqarishi shakllanadi va takomillashadi. O'yinli faoliyat muayyan funksiyalarni bajarishga bag'ishlangan bo'ladi, ular o'z navbatida quyidagi parametrlarni qamrab oladi.

- ❖Maftunkorlik
- ❖Kommunikativlik
- ❖O'z imkoniyatlarini amalga oshirish
- ❖Davolovchilik
- ❖Tashxis
- ❖Millatlararo muloqat
- ❖Ijtimoiylashuv

O'yin texnologiyalarini darslarda qo'llanilishining afzallik taraflari shuni ko'rsatadiki, o'quvchi yoshlarda avvalombor, har bir qo'yilgan mavzuni chuqur tahlil etib keyin davom ettirishi shakllantiriladi.

Informatika darslarida tadbirkorlik o'yinlaridan foydalanish, yangi texnologiya sifatida mohiyati quyidagilardan iborat bo'ladi.

• Ishlab chiqarish imitatsion modeli sifatida taqdim etilgan o'quv materiali mazmunining izchilligi.

• O'yinli o'quv modelida kelgusidagi kasbiy faoliyati tarkibiy qismlarini yaratish.

• O'quv jarayoni tarzini bilimlarga ehtiyojlarni to'ldirish va ularni amalda qo'llashning real sharoitlariga yaqinlashtirish.

• O'yin olib boruvchi o'qituvchining bilimdonligi. O'yin texnologiyalarini darslarga qo'llashning yana bir nechta afzallik taraflari mavjud bo'lib, bunda o'quvchilarning berilayotgan axborotlarni qanday ko'rinishda aniglab etishlarini kuzatish mumkin, buni qo'yidagi misol orqali ko'rib o'tishimiz mumkin.

Masalan: O'quvchi kompyuter bilan muloqat qilishdan oldin muloqat qilish qonun qoidalarini bilishi kerak bo'ladi.

1. Monitor tomonidan ishlab chiqarilgan elektromagnit nurlanish inson tanasiga ta'sir qilishi mumkin, shuning uchun zararli maydonni zararsizlantirish uchun ehtiyot bo'lish va ba'zi choralarni ko'rish kerak.

2. Agar kompyuterdan foydalanmasangiz, monitorni va tizim blokini uzoq vaqt yoqmang. Bu birinchi qarashda noqulay bo'lib tuyulishi mumkin, ammo bu tavsiyani e'tiborsiz qoldirmang, chunki mos kelmaslik narxi juda yuqori bo'lishi mumkin;

3. Kompyuterni xonaning burchagiga yoki u ishlamaydiganlarning yonida yoki orqasida bo'lmasligi uchun joylashtiring. Monitorning yon va orqa tarafidan chiqadigan elektromagnit nurlanish (bu joylarda uning darajasi eng yuqori) foydalanuvchi va boshqalarning sog'lig'iga zarar yetkazmasligi uchun zarurdir.

4. Ishlash paytida maxsus himoya ekranidan foydalaning, bu kompyuter ekranidan chiqadigan elektromagnit maydonning faolligini sezilarli darajada kamaytiradi;

5. Monitorni o'zingizdan uzoqroq joyda joylashtiring; O'yin texnologiyalarining yana bir tarafi shundan iboratki, o'quvchilar har bir mavzuda berilayotgan ma'lumotlarni o'zlari kompyuterlardagi o'yin dasturlari orqali tahlil etib borishadi.

O'quvchilarda har bir mavzu ko'rsatmalar asosida amalga oshirib borilsa bunday holatda, o'quvchilar kompyuterlar bilan ishlash vaqtida shu narsalarga to'g'ri kelganda to'g'ridan to'g'ri

bunday masalalarni yechish imkoniyatiga ega bo’lishadi. Masalan: quyidagi ko’rgazmalar orqali o’quvchilar turli axborotlarni tahlil etish texnologiyalarini o’rganib borishadi.

O’yin texnologiyalarini qo’llash orqali o’quvchilar bilim saviyasi quyidagi uchta parametr bo’yicha tahlil etilgan holda ushbu jarayon yaxshi natijalar bergan.

Bular quyidagilardir:

1. Bajarilayotgan jarayonni ko’rish orqali
2. Bajarilayotgan jarayonni sezish orqali
3. Bajarilayotgan jarayonni eshitish orqali

Bu uch ko’rsatkich orqali o’quvchilar berilayotgan mavzuning mazmunmohiyatini turlicha tahlil etishadi.

Masalan: Ko’rish orqali berilgan axborotning 75% ini, sezish orqali berilgan axborotning 12% ini, eshitish orqali berilgan axborotning 13% ini o’zlashtirishi mumkin bo’lar ekan.

Shuni e’tiborga olib, har bir o’tilishi kerak bo’lgan mavzuni, turli o’yinli qismlarini qidirib topish maqsadga muvofiq bo’ladi.

**REFERENCES**

1. Boymurodov A. X. (2020). Umumta'lim maktablari va oliy o'quv yurtlarining integrasiyasi pedagogik ta'limning innovasion klasteridagi ta'lim muassasalari. Evropacha Ta'lim fanlari bo'yicha tadqiqotlar va mulohazalar jurnali, 8(8), 1-5.
2. Boymurodov A. X. (2019). Umumiy O’rta ta’lim tizimida Informatika va axborot Texnologiyalari Fanny Klaster modellari axborot manbalarini yashratish. Zamonaviy taulim, 10( 10), 43-51.
3. Informatika o’qitish metodikasi. Toshkent-2013-yil.

# TA’LIMDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING ILMIY ASOSLARI

**Habibullayeva Mohira**
Andijon davlat pedagogika instituti texnalogik ta’lim yo'nalishi 201-guruh talabasi
***https://doi.org/10.5281/zenodo.7514812***

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada pedagogik texnologiyalarning ilmiy asoslari mavzusida ilmiy ma’lumotlar berildi.*

***Kalit so‘zlar:*** *Pedagogik texnologiya, didaktik vazifa, o‘qitish texnologiyalari, texnologiyada ta’lim amaliyoti.*

# НАУЧНЫЕ ОСНОВЫ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБРАЗОВАНИИ

***Аннотация.*** *В данной статье представлена научная информация о научных основах педагогических технологий.*

***Ключевые слова:*** *Педагогическая технология, дидактическая задача, технологии обучения, педагогическая практика в технологии.*

# SCIENTIFIC BASIS OF PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN EDUCATION

***Abstract.*** *This article provides scientific information on the scientific basis of pedagogical technologies.*

***Key words:*** *Pedagogical technology, didactic task, teaching technologies, educational practice in technology.*

Pedagogikaga oid adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, hozirgi davrda pedagogik texnologiya tushunchasi ta’lim amaliyoti va nazariyasi ilmidan mustahkam o‘rin egalladi, lekin uni pedagogikaning mukammal lug‘atlaridagi o‘rni hali noma’lumligicha qolib kelmoqda. Pedagogik texnologiya tushunchasining shakllanishi va rivojlanishi tarixida turli qarashlar mavjud bo‘lgan: u texnik vositalar haqidagi ta’limot deb, hamda o‘qitish jarayonini loyihalashtirilgan holda izchil va muntazam tashkil etish deb talqin qilingan.

Hozir pedagogik texnologiyalarning bir qancha ta’riflari mavjud. V.P. Bespalko pedagogik texnologiyani amaliyotga tatbiq qilinadigan muayyan pedagogik tizim loyihasi sifatida belgilaydi. U pedagogik tizim texnologiyalar ishlab chiqish uchun asos bo’ladi, deb hisoblaydi. Bunda asosiy diqqat o‘quv-pedagogik jarayonni oldindan loyihalashga qaratiladi, didaktik vazifa va o‘qitish texnologiyalari tushunchasidan foydalaniladi. Shu tariqa V.P. Bespalko o‘quv jarayonini loyihalash g‘oyasini ilgari suradi. Afsuski, hozirigi qadar pedagogik texnologiya va loyiha tushunchalari haqida aniqlik yo‘q. Pedagogik texnologiya ta’lim jarayoniga jadallik bilan kirib borayotgan bo‘lsa ham, uning maqomi noaniqligicha qolib ketmoqda.

Tadqiqotchilarning ishlarida fan va amaliyot oralig‘idan o‘rin egallarnoqda. N.F.Talizina har bir pedagog real pedagogik jarayonni tashkil etishdan oldin o‘quv jarayoni haqida texnologik darajada bilimlar tizimini bilib olgan bo’lishi shart deb hisoblaydi, U fan va amaliyot oralig‘ida tamoyillarni olg‘a suruvchi, metodlar ishlab chiquvchi, ularni izchil qo‘llash kabi masalalar bilan shug‘ullanuvchi alohida fan bo‘lishi kerak, deb hisoblaydi.

Ularsiz pedagogik jarayon texnologiya real o‘qitish jarayoni sifatida asoslanmay qoladi. Ayrim mualliflar o‘qitish texnologiyalariga fan va san’at oralig‘idagi fan deb qaraydilar, boshqalari uni loyihalash bilan bog‘laydilar. Shunday qilib, bir yondashuvda o‘qitish texnologiyalari o‘qitishning barcha vositalarini qamrab olgan qandaydir jihozlash sifatida ham belgilanadi. Unda texnologiya o‘quv jarayonini texniklashtirishni taqozo qiladi. Boshqa

yondashuvda texnologiyaga ta'lim amaliyotini yangi yoki zamonaviylashtirilgan bilimlar bilan ta'minlashning usuli sifatida qarashga imkoniyat beradi. Bunda texnologiyaga ta'limning ilmiy tamoyillari va amaliyotini tatbiq etish sifatida qaraladi.

Texnologiya tushunchasi 60-yillardagi Amerika va G'arbiy yevropada ta'limni isloh qilinishi bilan bog'liq ravishda kirib keldi. J. Koroll, P.Ya.Galperin, V.I.Davidov, N.A.Menchinskaya, Z.I.Kalmikova, L.I. Zankov texnologiyalari mashxur. O'qitishni tashkil qilishning texnologik yondashuvlari V.P.Bespalko, N.F.Talizina, L.M.Fridman, Yu.N.Kulyutkina, G.S.Suxobskoy, T.V.Kudryavsev, A.M. Matyushkin, M.l.Maxmutov kabi aksariyat psixolog va didaktikachilarga taalluqlidir.

L.V. Zankov, T.Ya.Galperin, V.l.Davidov tadqiqotlarida bosqichli o'qitishning yaxlit texnologiyalari haqida fikr yuritiladi.

1. Pedagogik texnologiyada hali ko'p aniqlanmagan masalalar bor. Bu muammoni tadqiq etish, o'qitish texnologiyasining tushunchasi va metodologik mohiyatini aniqlash bilan bog'liq.

Pedagogik texnologiya o'ziga xos va potensial yaratiladigan pedagogik natijalarga erishish uchun, pedagogik tizmning barcha tashkiliy tomonlariga aloqador nazariy va amaliy (ta'lim tizimi doirasida) tadqiqotlar sohasi sifatida belgilanadi.

Pedagogik texnologiya mohiyatini yoritish uchun pedagog-didaktikachilar tomonidan berilgan ta'riflarga to'xtalishni maqsadga muvofiq deb topamiz.

«Pedagogik texnologiya — psixologik va pedagogik o'gitlar yig'indisi bo'lib, shakllar, metodlar, usullar, o'qitish yo'llari, tarbiyaviy vositalarning maxsus to'plamidir. Ayni zamonda u pedagogik jarayonning tashkiliy-metodik omilini ham bildiradi» (B.Lixachev). «Pedagogik texnologiya — o 'quv jarayonini amalga oshirishning mazmuniy texnikasi» (V.P. Bespalko).

«Pedagogik texnologiya — rejalashtirilgan o'qitish natijalariga erishish jarayoni tavsifi» (I.P. Volkov).

«Texnologiya — ishlov berish, holatni o'zgartirish san'ati, mahorati, malakasi va metodlar yig'indisi» (V.M. Shepel).

«Pedagogik texnologiya — o'quvchi va o'qituvchining ularga zarur sharoit yaratish orqali o'quv jarayonini loyihalashtirish, tashkil etish hamda o'tkazish bo'yicha ular pedagogik faoliyatining har tomonlarna o'ylangan modelidir.»(V. M. Manaxov).

«Pedagogik texnologiya — bu ta'lim shakllarini jadallashtirish vazifasini ko'zlagan o'qitish va bilimlarni o'zlashtirishning barcha jarayonlarini texnika va inson omillarida va ularning birgalikdagi harakatlari vositasida yaratish, tatbiq etish va belgilashning izchil metodidir» (YuNESKO).

Ta'lim texnologiyasi deganda ta'limning belgilangan maqsadi va o'quvchining bilim darajasiga ko'ra o'quv faoliyatini boshqarishning nazariy loyihasi va pedagogik tizimning amalda bo'lishini ta'minlovchi zarur vositalar tizimi tushuniladi. O'qitishning shaxsga yo'naltirilgan texnologiyasi biror nazariya va maqsad asosida ishlab chiqiladi. Pedagogik tizimning amalda bo'lishi, uning moslanuvchanligi hamda o'quvchining shaxsiy xususiyatlari, ularning texnologik va individual me'yorlari bilan bog'langan. Bunda ushbu texnologiyalarning moslashuvchanligi, ularning variativligi, o'quvchi xatti-harakatlarining bosqichliligi muhim ahamiyat kasb etadi. O'qitish texnologiyasi sathida o'quv jarayonining barcha komponentlari yoritiladi.

**REFERENCES**

1. O'.Q.Tolipov, M.Usmonboeva. Pedagogik texnologiyalarning tanqidiy asoslari. – T.: Fan, 2006.
**2.** N.N. Azizxo'jaeva. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. T. Nizomiy nomidagi TDPU. 2006.

# BOSHLANG'ICH SINFLARGA MATEMATIKA FANINI O'QITISH METODIKASI VA DARS JARAYONIDA NOAN'ANAVIY - NOODATIY USULLARDAN FOYDALANISH USULLARI.

**Babekbaeva Baxtigul Muratbaevna**
Qoraqalpog'iston Respublikasi, Qo'ng'irot tumani, 54-sonli maktabning matematika fani o'qituvchisi.

*https://doi.org/10.5281/zenodo.7514830*

***Annotatsiya.*** *Ushbu metodik tavsiyada, boshlang'ich sinflarga matematika fanini o'qitish metodikasi va dars jarayonida noan'anaviy* - *noodatiy usullardan foydalanish usullari haqida ma'lumotlar keltirilgan.*

***Kalit so'zlar:*** *Matematika, Boshlang'ich sinf, "Fikriy hujum" metodi, "Yalpiy fikriy hujum" metodi, "Fikrlarning shiddatli hujumi" metodi, "6x6x6" metod.*

# МЕТОДЫ ПРЕПОДАВАНИЯ МАТЕМАТИКИ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ И СПОСОБЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ НЕТРАДИЦИОННЫХ - НЕОБЫЧНЫХ МЕТОДОВ В ПРОЦЕССЕ УРОКА.

***Аннотация.*** *Настоящая методическая рекомендация содержит сведения о методике преподавания математики в начальных классах и способах использования нетрадиционных* - *необычных методов в ходе урока.*

***Ключевые слова:*** *Математика, Начальный класс, метод «Мозговой штурм», метод «Общий мозговой штурм», метод «Сложный мозговой штурм», метод «6х6х6».*

# METHODS OF TEACHING MATHEMATICS TO PRIMARY CLASSES AND METHODS OF USING NON-TRADITIONAL - UNUSUAL METHODS IN THE LESSON PROCESS.

***Abstract.*** *This methodical recommendation contains information about the methodology of teaching mathematics to primary classes and the methods of using non-traditional - unusual methods in the course of the lesson.*

***Key words:*** *Mathematics, Primary class, "Brainstorming" method, "General brainstorming" method, "Severe brainstorming" method, "6x6x6" method*

Matematika o'qitish metodikasi eng avvalo kichik yoshdagi o'quvchilarni umumiy tizimda o'qitish va tarbiyalash vazifasini qo'yadi. Umumiy metodika boshlang'ich sinf matematikasining mazmunini va tizimliligini aks ettiradi, har bir bo'limni o'qitishning o'ziga xos xususiy metodlarini o'rgatadi. Xususiy metodika matematika o'qitishning asoslangan metodlarini va o'qitish formalarini, shuningdek o'quv faoliyatini tashkil qilish yo'llarini ko'rsatadi.

Ma'lumki o'qitish tarbiyalash bilan o'zaro mustahkam bog'liqdir. Ushbu metodika o'qitishni tarbiyalash bilan qo'shib olib borish yo'llarini o'rgatadi. Boshlang'ich matematika o'qitish metodikasi bir necha fanlar bilan chambarchas bog'liqdir.

1) O'qitish asosi bo'lgan matematika bilan;
2) Pedagogika;
3) Psixologiya;
4) Boshqa o'qitish metodikalari bilan (ona tili, mehnat ...).

Boshlang'ich matematika kursining vazifasi maktab oldiga qo'yilgan "o'quvchilarga fan

asoslaridan puxta bilim berishda yangi texnologiyadan foydalanish, ularga hozirgi zamon ijtimoiy-iqtisodiy bilimlarni berish, turmushga, kasb-hunarga yo‘naltirish, kasblarni ongli tanlashga o‘rgatish” kabi vazifalarni hal qilishda yordam berishdan iborat. Shunday qilib, boshqa har qanday o‘quv predmeti kabi matematika boshlang‘ich kursi matematika o‘qitishning maqsadi quyidagi uch omil bilan belgilanadi:

1. Matematika o‘qitishning umumta’limiy maqsadi.
2. Matematika o‘qitishning tarbiyaviy maqsadi.
3. Matematika o‘qitishning amaliy maqsadi.

Matematika o‘qitishning umumta’limiy maqsadi o‘z oldiga quyidagi vazifalarni qo‘yadi:

a) o‘quvchilarga ma’lum bir dastur asosida matematik bilimlar berish. Bu bilimlar matematika fani to‘g‘risida o‘quvchilarga yetarli darajada ma’lumot berishi, ularni matematika fanining yuqori bo‘limlarini o‘rganishga tayyorlashi kerak. Bundan tashqari, dastur asosida o‘quvchilar o‘qish jarayonida olgan bilimlarning ishonchli ekanligini tekshira bilishga o‘rganishlari, nazorat qilishning asosiy metodlarini egallashlari lozim.

b) o‘quvchilarning og‘zaki va yozma matematik bilimlarni tarkib toptirish lozim bo‘ladi; Matematikani o‘rganish o‘quvchilarning o‘z ona tillarida nutq madaniyatini to‘g‘rishakllantirish, o‘z fikrini aniq, ravshan va lo‘nda qilib bayon eta bilish malakalarini o‘zlashtirishlariga yordam berishi kerak.

d) o‘quvchilarni matematik qonuniyatlar asosida real haqiqatlarni bilishga o‘rgatish. Bunday bilimlar berish orqali esa o‘quvchilarning fazoviy tasavvur qilish xususiyatlari shakllanadi hamda mantiqiy tafakkur qilishlari yanada rivojlanadi.

Boshlang‘ich matematika o’qitishning tarbiyaviy maqsadi o‘z oldiga quyidagi vazifalarni qo‘yadi:

- O’quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish.
- O’quvchilarda matematikani o‘rganishga bo‘lgan qiziqishlarni tarbiyalash Boshlang‘ich sinf o’qituvchisining vazifasi o’quvchilarda mustaqil mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish bilan birga ularda matematikaning qonuniyatlarini o‘rganishga bo‘lgan qiziqishlarini tarbiyalashdan iboratdir.
- O’quvchilarda matematik tafakkurni va matematik madaniyatni

shakllantirish. Matematika darslarida o‘rganiladigan ibora, amal belgilari, tushuncha va ular orasidagi qonuniyatlar o’quvchilarni atroflicha fikrlashga o‘rgatadi.

Boshlang‘ich sinflarda matematika o’qitishning noan`anaviy usullari o‘z oldiga quyidagi vazifalarni qo‘yadi:

✓ O’quvchilar matematika darsida olgan bilimlarini kundalik hayotda uchraydigan elementar masalalarni yechishga tatbiq qila olishga o‘rgatish, o’quvchilarda arifmetik amallar bajarish malakalarini shakllantirish va ularni mustahkamlash uchun maxsus tuzilgan amaliy masalalarni hal qilishga o‘rgatish,

✓ Matematika o’qitishda texnik vosita va ko‘rgazmali qurollardan foydalanish malakalarini shakllantirish. Bunda asosiy e’tibor o’quvchilarning jadvallar va hisoblash vositalaridan foydalana olish malakalarini tarkib toptirishga qaratilgan.

✓ O’quvchilarni mustaqil ravishda matematik bilimlarni egallashga o‘rgatish.

O’quvchilar imkoni boricha mustaqil ravishda qonuniyat munosabatlarini ochishlari, kuchlari etadigan darajada umumlashtirishlar qilishlari, shuningdek, og‘zaki va yozma

xulosalar qilishga o‘rganishlari kerak. O’qitish samaradorligining zaruriy va muhim sharti o’quvchilarning o‘rganilayotgan materialni o‘zlashtirishlari ustidan nazoratdir. Didaktikada uni amalga oshirishning turli shakllari ishlab chiqilgan. Bu o’quvchilardan og‘zaki so‘rash; nazorat ishlari va mustaqil ishlar; uy vazifalarini tekshirish, testlar, texnik vositalar yordamida sinash kabi usullardir.

Didaktikada dars turiga, o’quvchilarning yosh xususiyatlariga va h.k. bog‘liq ravishda nazoratning u yoki bu shaklidan foydalanishning maqsadga muvofiqligi masalalari, shuningdek, nazoratni amalga oshirish metodikasi yetarlicha chuqur ishlab chiqilgan. Boshlang‘ich maktabda matematika o’qitish metodikasida mustaqil va nazorat ishlari, o’quvchilardan individual yozma so‘rov o‘tkazishning samarali vositalari yaratilgan.

Ba’zi didaktik materiallar dasturning chegaralangan doiradagi masalalarining o‘zlashtirilishini reyting tizimida nazorat qilish uchun, boshqalari boshlang‘ich maktab matematika kursining barcha asosiy mavzularini nazorat qilish uchun mo‘ljallangan. Ayrim didaktik materiallarda o’qitish xarakteridagi materiallar, boshqalarida esa nazoratni amalga oshirish uchun materiallar ko‘proqdir.

Boshlang‘ich maktab matematikasida barcha didaktik materiallar uchun umumiy topshiriqlarning murakkabligi bo‘yicha tabaqalashtirilishidir. Bu materiallar tuzuvchilarning g‘oyasiga ko‘ra ma’lum mavzu bo‘yicha topshiriqning biror usulini bajarishi o’quvchining bu mavzuni faqat o‘zlashtirganligi haqidagina emas, balki uni to‘la aniqlangan darajada o‘zlashtirganligi haqida ham guvohlik beradi.

Amaliyotda o‘qituvchilar ko‘pincha biror topshiriqning usullarini biri boshqalaridan soddaroq yoki murakkabroq deb aytadilar. Bundan tashqari, didaktik materiallar qanchalik san’atkorona tuzilgan bo‘lmasin, ularning mazmuni va tuzilishida qanchalik sermahsul va chuqur g‘oyalar amalga oshirilmasin, ular baribir barcha metodik vazifalarni tezda hal etishga qodir emas, chunki hech qanday o‘rgatuvchi mashina o‘qituvchining intuisiyasini, ya’ni hissiyotini almashtira olmaydi.

Shunday qilib, didaktik materiallarni o‘quvchilarning o‘quv materialini o‘zlashtirish darajasini nazorat usullaridan biri sifatida qarash lozim. Shu bilan birga muayyan usul mazkur sinf, mazkur o‘qituvchi uchun eng yaxshi usul bo‘lmasligi ham mumkin. Shu sababli didaktik materiallar o‘qituvchini o‘quvchilarning bilimlarni o‘zlashtirish darajasini aniqlash imkonini beradigan individual tekshirish uchun nazorat turlarini tuzishdan xalos eta olmaydi. Bu umummetodikaning asosiy vazifalaridan biridir

***O‘quvchilarni matematika kursini o‘rganishga tayyorlash.***

I–IV sinflarda matematika o‘qitishning asosiy vazifasi bo‘lgan ta’lim-tarbiyaviy vazifalarni hal qilishda ulardagi matematika kursi bo‘yicha qanday darajada tayyorgarligi borligiga bog‘liq.

Shuning uchun 1-sinfga kelganlarning bilimlarini aniqlash, sinf o‘quvchilarining bilimlarini tenglashtirish, ya’ni past bilimga ega bo‘lgan o‘quvchilarning bilimlarini yaxshi biladigan o‘quvchilarga yetkazib olish vazifasi turadi. O‘qituvchi quyidagi tartibda o‘quvchilar bilimini maxsus daftarga hisobga olib boradi:

1. Nechagacha sanashni biladi?
2. Nechagacha sonlarni qo‘shishni biladi?
3. Nechagacha sonlarni ayirishni biladi?.
4. >, <, = belgilarini ishlata oladimi?.

5. Noma’lumlar bilan berilgan qo‘shish va ayirishda bu noma’lumlarni topa oladimi?
6. Qaysi figuralarning nomlarini biladi va chiza oladi?
7. Nechagacha sonlarni yoza oladi?
8. O‘ngga, chapga, kam, ko‘p, og‘ir, engil, teng kabilarni farqlay oladimi?
9. Pul, narx, soat, minut, uzunlik, og‘irlik o‘lchov birliklari bilan muomala qila oladimi?

Bolalarni o‘qitishga tayyorlashda asosiy ish metodi tahlil, sintez, taqqoslash, umumlashtirish, tabaqalashtirish kabi aqliy operasiyalarni bajarish malakalarini shakllantirishga qaratilgan bo‘lishi kerak. Bunday ishlar o‘quvchilarnig og‘zaki va yozma nutqlarini rivojlantirishga katta yordam beradi, matematik bilimlarni o‘zlashtirishga qiziqishi kuchaya boradi.

Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda o‘quvchilarning o‘quv va ijodiy faolliklarini oshiruvchi hamda ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi pedagogik texnologiyalarni qo‘llash borasida katta tajriba to‘plangan bo‘lib, ushbu tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritiladi. Quyida amaliyotida foydalaniladigan interfaol metodlardan bir nechtasining mohiyati va ulardan foydalanish borasida so‘z yuritamiz.

***“Fikriy hujum” metodi***. Mazkur metod o‘quvchilarning mashg‘ulotlar jarayonidagi faolliklarini ta’minlash, ularni erkin fikr yuritishga rag‘batlantirish hamda bir xil fikrlash inertsiyasidan ozod etish, muayyan mazvu yuzasidan rang-barang g‘oyalarni to‘plash, shuningdek, ijodiy vazifalarni hal etish jarayonining dastlabki bosqichida paydo bo‘lgan fikrlarni yengishga o‘rganish uchun xizmat qiladi.

“Fikriy hujum” metodi A.F.Osborn tomonidan tavsiya etilgan bo‘lib, uning asosiy tamoyili va sharti mashg‘ulotning har bir ishtirokchisi tomonidan o‘rtaga tashlanayotgan fikrga nisbatan tanqidni mutlaqo ta’qiqlash, har qanday luqma va hazil-mutoyibalarni rag‘batlantirishdan iboratdir. Bundan ko‘zlangan maqsad o‘quvchilarning mashg‘ulot jarayonidagi erkin ishtirokini ta’minlashdir.

Ta’lim jarayonida ushbu metoddan foydalanish o‘qituvchining pedagogik mahorati va tafakkur ko‘lamining kengligiga bog‘liq bo‘ladi. “Fikriy hujum” metodidan foydalanish chog‘ida o‘quvchilarning soni 15 nafardan oshmasligi maqsadga muvofiqdir. Ushbu metodga asoslangan mashg‘ulot bir saotga qadar tashkil etilishi mumkin.

***“Yalpiy fikriy hujum” metodi*** Ushbu metod J.Donald Filips tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, uni bir necha o‘n (20-60) nafar o‘quvchilardan iborat sinflarda qo‘llash mumkin. Metod o‘quvchilar tomonidan yangi g‘oyalarning o‘rtaga tashlanishi uchun sharoit yaratib berishga xizmat qiladi.

Har bir 5 yoki 6 nafar o‘quvchilarni o‘z ichiga olgan guruhlarga 15 daqiqa ichida ijobiy hal etilishi lozim bo‘lgan turli xil topshiriq yoki ijodiy vazifalar belgilangan vaqt ichida ijobiy hal etilgach, bu haqida guruh a’zolaridan biri axborot beradi. Guruh tomonidan berilgan axborot (topshiriq yoki ijodiy vazifaning yechimi) o‘qituvchi va boshqa guruhlar a’zolari tomonidan muhokama qilinadi va unga baho beriladi.

Mashg‘ulot yakunida o‘qituvchi berilgan topshiriq yoki ijodiy vazifalarning yechimlari orasida eng yaxshi va o‘ziga xos deb topilgan javoblarni e’lon qiladi. Mashg‘ulot jarayonida guruhlar a’zolarining faoliyatlari ularning ishtiroklari darajasiga ko‘ra baholab boriladi.

***“Fikrlarning shiddatli hujumi” metodi.*** “Fikrlarning shiddatli hujumi” metodi Ye.A.Aleksandrov tomonidan asoslangan hamda G.Ya.Bush tomonidan qayta ishlangan.

Metodning mohiyati quyidagidan iborat:

- jamoa orasida muayyan topshiriqlarni bajarayotgan har bir o‘quvchining shaxsiy imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishga ko‘maklashish;
- o‘quvchilarda ma’lum jamoa tomonidan bildirilgan fikrga qarshi g‘oyani ilgari surish layoqatini yuzaga keltirishdan iborat.

“Fikrlarning shiddatli hujumi” metodidan foydalanishga asoslangan mashg‘ulot quyidagi bosqichlarda tashkil etiladi:

1-bosqich: Ruhiy jihatdan bir-biriga yaqin bo‘lgan o‘quvchilarni o‘zida biriktirilgan hamda son jihatdan teng bo‘lgan kichik guruhlarni shakllantirish;

2-bosqich: Guruhlarga hal etish uchun topshirilgan vazifa yoki topshiriqlar mohiyatidan kelib chiqadigan maqsadlarni aniqlash;

3-bosqich: Guruhlar tomonidan muayyan g‘oyalarning ishlab chiqilishi (topshiriqlar hal etilishi);

4-bosqich: Topshiriqlarning yechimlarini muhokama etish, ularni to‘g‘ri hal etilganligiga ko‘ra turkumlarga ajratish;

5-bosqich: Topshiriqlarning yechimlarini qayta turkumlashtirish, ya’ni ularning to‘g‘riligi, yechimni topish uchun sarflangan vaqt, yechimlarning aniq va ravshan bayoni etilishi kabi mezonlar asosida baholash;

6-bosqich: Dastlabki bosqichlarda topshiriqlarning yechimlari yuzasidan bildirilgan muayyan tanqidiy mulohazalarni muhokama etish hamda ular borasida yagona xulosaga kelish.

*Metodni qo‘llash jarayonida quyidagi holatlar yuzaga keladi:*

- o‘quvchilar tomonidan muayyan nazariy bilimlarning puxta o‘zlashtirilishiga erishish;
- vaqtni iqtisod qilish;
- har bir o‘quvchini faollikka undash;
- ularda erkin fikrlash layoqatini shakllantirish.

***“6x6x6” metod.*** “6x6x6” metodi yordamida bir vaqtning o‘zida 36 nafar o‘quvchini muayyan faoliyatga jalb etish orqali ma’lum topshiriq yoki masalani hal etish, shuningdek, guruhlarning har bir a’zosi imkoniyatlarini aniqlash, ularning qarashlarini bilib olish mumkin. Bu metod asosida tashkil etilayotgan mashg‘ulotda har birida 6 nafardan ishtirokchi bo‘lgan 6 ta guruh o‘qituvchi tomonidan o‘rtaga tashlangan muammoni muhokama qiladi. Belgilangan vaqt nihoyasiga yetgach o‘qituvchi 6 ta guruhni qayta tuzadi. Qaytadan shakllangan guruhlarning har birida avvalgi 6 ta guruhdan bittadan vakil bo‘ladi. Yangidan shakllangan guruh a’zolari o‘z jamoadoshlariga guruhi tomonidan muammo yechimi sifatida taqdim etilgan xulosani bayon etib beradilar va mazkur yechimlarni birgalikda muhokama qiladilar.

*“6x6x6” metodining afzallik jihatlari quyidagilardir*:

- guruhlarning har bir a’zosining faol bo‘lishiga undaydi;
- ular tomonidan shaxsiy qarashlarning ifoda etilishini ta’minlaydi;
- guruhning boshqa a’zolarining fikrlarini tinglay olish ko‘nikmalarini hosil qiladi;
- ilgari surilayotgan bir necha fikrni umumlashtira olish, shuningdek, o‘z fikrini himoya qilishga o‘rgatadi.

Eng muhimi, mashg‘ulot ishtirokchilarining har bir qisqa vaqt (20 daqiqa) mobaynida ham munozara qatnashchisi, ham tinglovchi, ham ma’ruzachi sifatida faoliyat olib boradi.

Ushbu metodni 5, 6, 7 va 8 nafar o‘quvchidan iborat bo‘lgan bir necha guruhlarda qo‘llash mumkin. Biroq yirik guruhlar o‘rtasida “6x6x6” metodi qo‘llanilganda vaqtni

ko‘paytirishga to‘g‘ri keladi. Chunki bunday mashg‘ulotlarda munozara uchun ham, axborot berish uchun birmuncha ko‘p vaqt talab etiladi. So‘z yuritilayotgan metod qo‘llanilayotganda mashg‘ulotlarda quruhlar tomonidan bir yoki bir necha mavzuni qilish imkoniyati mavjud.

“6x6x6” metodidan ta’lim jarayonida foydalanish o‘qituvchidan faollik, pedagogik mahorat, shuningdek, guruhlarni maqsadga muvofiq shakllantira olish layoqatiga ega bo‘lishni talab etadi. Guruhlarning to‘g‘ri shakllantirmasligi topshiriq yoki vazifalarning to‘g‘ri hal etilmasligiga sabab bo‘lishi mumkin.

Bu metod yordamida mashg‘ulotlar quyidagi tartibda tashkil etiladi:

1. O‘qituvchi mashg‘ulot boshlanishidan oldin 6 ta stol atrofiga 6 tadan stul qo‘yib chiqadi.

2. O‘quvchilar o‘qituvchi tomonidan 6 ta guruhga bo‘linadi. O‘quvchilarni guruhlaga bo‘lishda har o‘rindiqni nomlab, nomlangan varaqchalarni olganlar o‘z o‘rinlariga joylashadilar.

3. O‘quvchilar joylashib olganlaridan so‘ng o‘qituvchi mashg‘ulot mavzusini e’lon qiladi va guruhlarga muayyan topshiriqlarni beradi. Ma’lum vaqt belgilanib, munozara jarayoni tashkil etiladi.

4. O‘qituvchi guruhlarning faoliyatini kuzatib boradi, kerakli o‘rinlarda guruh a’zolariga maslahatlar beradi, yo‘l-yo‘ruqlar ko‘rsatadi hamda guruhlar tomonidan berilgan topshiriqlarning to‘g‘ri hal etilganligiga ishonch hosil qilganidan so‘ng guruhlardan munozaralarni yakunlashlarini so‘raydi

Shuningdek, o‘quv-bilish faoliyatini tashkil qilish metodlari bir necha guruhga bo‘linadi, bular:

- ✓ O‘quvchilar bilim oladigan manbalar bo‘yicha: og‘zaki, ko‘rsatmali, amaliy metodlar.
- ✓ O‘quvchi fikrining yo‘nalishi bo‘yicha: induksiya, deduksiya, analogiya.
- ✓ Pedagogik ta’sir boshqarishning darajasi, o‘quvchilarning o‘qishida mustaqillik darajasi bo‘yicha: o‘qituvchi boshchiligida bajariladigan o‘quv ishi metodi hamda o‘quvchilarning mustaqil yillari metodi.
- ✓ O‘quvchilarning mustaqil faolliklari darajasi bo‘yicha: izohli-illustrativ, re- produktiv, bilimlarni jumboqli bayon qilish metodi, qisman izlanish va tadqiq qilish metodi.

Endi o‘quvchilar bilim oladigan manbalar bo‘yicha taqsimlangan guruhni alohida tahlil qilib o‘tsak.

Yuqorida keltirilganlardan ma’lumki, bular og‘zaki, ko‘rsatmali va amaliy metodlardan iborat edi.

Og‘zaki metodlar qisqa muddat ichida hajmi bo‘yicha eng ko‘p axborot berish, o‘quvchilar oldiga jumboqlar qo‘yish, ularni hal qilish yo‘nalishlarini izlab topishiga ko‘maklashish, umuman olganda o‘quvchini og‘zaki ishlash qobiliyatini rivojlantirish imkonini beradi.

Bu metodlar o‘quvchilarning tafakkurini rivojlantirishda o‘ziga xos sha- roit yaratadi. Ularni, ya’ni og‘zaki metodlarni ham alohida ko‘rib chiqsak:

**Tushuntirish**. Bilimlarni tushuntirish metodi shundan iboratki, bunda o‘qituvchi materialni bayon qiladi, o‘quvchilar esa bilimlarni tayyor holda qabul qilib olishadi. O‘quv materialining bayoni aniq, tushunarli, qisqa bo‘lishi kerak. Tushuntirish metodidan ma’lu- motlar tariqasidagi nazariy materiallar bilan tanishtirish, o‘quvchilarga o‘quv qurollarini ishlatish bo‘yicha yo‘l-yo‘riqlarni berishda foydalaniladi.

**O‘quv-bilish faoliyatini tashkil qilish metodlari**

Boshlang‘ich matematika kursining birqator masalalarini og‘zaki tushuntirish usuli bilan bayon qilish zarur. Og‘zaki tushuntirish usulida zamonaviy axborot-texnologiyalari, maxsus




gadjetlardan ham oqilona foydalanish mumkin, bu o‘quvchilarda matematik figuralarni tasavvur qilish va ularni anglab yetishga katta yordam berishi mumkin.

**Suhbat.** Eng ko‘p tarqalgan va yetakchi o‘qitish metodlaridan bo‘lib, darsning har xil bosqichlarida, har xil maqsadlarda qo‘llanilishi mumkin, ya’ni yangi materialni bayon etish, mustahkamlash, takrorlashda, uyga berilgan topshiriqlarni, mustaqil ishlarni tekshirishda qo‘llanilishi mumkin.

Hikoya. O‘qituvchi bilimlarni tushuntirishni hikoya (ertak) ko‘rinishida amalga oshi- rishi mumkin. Bundan asosan matematika tarixining rivojlanishi, o‘lchov tizimlari ri- vojlanishi haqida va boshqa matematika tarixiga oid ma’lumotlarni berish uchun foydalaniladi.

Amaliy metodlar. Malaka va ko‘nikmalarni shakllantirish va mukammallashtirish jarayoni bilan bog‘liq bo‘lgan metodlar amaliy metodlardir. Bunga yozma va og‘zaki mashqlar, amaliy laboratoriya ishlari, mustaqilishlarning ba’zi turlarini kiritish mumkin. Mashqlar asosan mustahkamlash va bilimlarni tatbiq qilish metodi sifatida qo‘llaniladi.

Xulosa qilib aytadigan bo’lsak, boshlang‘ich sinflarda matematika darslarini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish tajribasidan kelib chiqib va olib borilgan izlanishlarimiz asosida mazkur yo‘nalishda quyidagilarni taklif qilamiz:

– o‘qituvchi zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalari haqida asosli bilimlar-ga ega bo‘lishi, bu sohada metodik jihatdan o‘z ustida doimiy ravishda ishlashi lozim;

– har bir darsda bir-biriga mazmunan yaqin didaktik o‘yinlarga bir oz yangi ele-

mentlar qo‘shib foydalanish, bunda didaktik o‘yinlar shartini to‘g‘ri izohlashga e’tibor berish.

**REFERENCES**

1. O‘zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” / Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa kontserni. 1997.
2. G‘afforova T. Boshlang‘ich ta’limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar. - T.:
3. “Tafakkur”,
4. M., Matnazarova K. Boshlang‘ich ta’limdagi muammolarni bartaraf 2011.
5. Axmedova N., Inoyatova etish yo‘llari. Metodik tavsiyalar. – T.: library.ziyonet.uz/ru/book/ download/16233, 2015.
6. Umumiy o‘rta ta‘limning Davlat ta‘lim standartlari. Boshlang‘ich ta‘lim ―Ta‘lim taraqqiyoti‖ jurnali, Toshkent ―Sharq‖, 2019, 7 - soni
7. Levenberg L.Sh. va boshqlar. ―Boshlang’ich sinflarda matematika o’qitish metodikasi Toshkent ―O’qituvchi
8. Bikbaeva N.U. va boshqalar. ―Boshlang’ich sinflarda matematika o’qitish metodikasi Toshkent ―O’qituvchi‖ 2016 yil.

# UMUMTA’LIM MAKTABLARIDA MATEMATIKA FANINI O‘QITISHDA AXBOROT VA INAVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

**Davletbayeva Dilafruz Yerdashevna**
Qoraqalpog‘iston respublikasi, Qo‘ng‘irot tumani, 54-sonli maktabning matematika fani o’qituvchisi

https://doi.org/10.5281/zenodo.7514933

***Annotatsiya.*** *Ushbu metodik tavsiyada, umumta’lim maktablarida matematika fanini o‘qitishda axborot va inavatsion texnologiyalardan foydalanish metodi yoritib berildi.*

***Kalit so’zlar:*** *Matematika, inavatsion texnologiya, AKT, Ms-word, Ms- excel, Ms-Powerpoint, Geogebra Classic 5, Xususiy texnologiya, “Matematik bozor” o‘yini.*

# ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНФОРМАЦИОННО-ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПРЕПОДАВАНИИ МАТЕМАТИКИ В ВУЗЕ

***Аннотация.*** *В данной методической рекомендации разъяснена методика использования информационно-инновационных технологий в обучении математике в общеобразовательной школе.*

***Ключевые слова:*** *Математика, инновационная технология, ИКТ, Ms-word, Ms-excel, Ms-Powerpoint, Geogebra Classic 5, Частная технология, игра «Математический рынок».*

# USE OF INFORMATION AND INNOVATION TECHNOLOGIES IN TEACHING MATHEMATICS IN HIGH SCHOOLS

***Abstract.*** *In this methodological recommendation, the method of using information and innovative technologies in the teaching of mathematics in secondary schools was explained.*

***Keywords:*** *Mathematics, innovative technology, ICT, Ms-word, Ms-excel, Ms-Powerpoint, Geogebra Classic 5, Private technology, "Mathematical market" game.*

Inson, uning har tomonlama uyg‘un kamol topishi va farovonligi, shaxs manfaatlarini ro‘yobga chiqarishning sharoitlarini va ta’sirchan mexanizmlarini yaratish, eskirgan tafakkur va ijtimoiy xulq-atvorning andozalarini o‘zgartirish respublikada amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi va harakatlantiruvchi kuchidir. Xalqning boy intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida, zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan, texnika va texnologiyalarning yutuqlari asosida kadrlar tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirish O‘zbekiston taraqqiyotining muhim shartidir.

Yangi axborot-kommunikatsion texnologiyalari hozirgi vaqtda eng dolzarb mavzulardan biri bo‘lib, sababi har bir sohani o‘rganish, izlanish va tajriba orttirish uchun turli usullardan foydalanish zarurligidir. Shuning uchun bog‘cha yoshidan to mukammal kasbni egallagunga qadar yangi axborot - kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Hozirgi zamon mutaxassislari faoliyat doiralari qanday bo‘lishidan qat’iy nazar, informatika bo‘yicha keng ko‘lamdagi bilimlarga, zamonaviy hisoblash texnikasi, informatsion aloqa va kommunikatsiya tizimlari, texnika vositalari va ulardan foydalanish borasida etarli malakalarga ega bo‘lishi hamda yangi informatsion texnika va texnologiya asoslarini, uning ertangi kuni, rivoji to‘g‘risidagi bilimlarni o‘zida mujassamlashtirgan bo‘lishi kerak. Zamonaviy hisoblash texnikalari va informatsion texnologiyaning kun sayin rivojlanib, jamiyatning esa tobora informatizatsiyalashib borishi sababli uzluksiz ta’lim tizimining o‘rta va yuqori bosqichlariga informatika, ishlab chiqarish va boshqarish jarayonlarini kompyuterlashtirish bo‘yicha bir qator o‘quv fanlari kiritilgan.

XX asr o‘rtalariga kelib tezkor mashina mexanizmlaridan foydalana boshlandi, murakkab texnika va texnologiyalar o‘ylab topildi. Ko‘pgina masalalarni hal qilish jarayonida axborot hajmi behisob bir majmuaga aylandi hamda bu axborotlarni yig‘ish va uzatish vositalarini yaratish, ularni vaqtida qayta ishlab, boshqarish uchun zarur bo‘lgan choralarni belgilab chiqish kerak bo‘lib qoldi. Ko‘pchilik vazifalarni bajarishda boshqarish jarayonlarini takomillashtirish, axborot tizimini joriy etish, mutaxassislarni kompyuterda ishlashga o‘rgatish muhim ahamiyatga ega bo‘lib, AKT vositalari biz uchun quyidagi imkoniyatlarni yaratib bera oladi:

- AKT o‘quvchilarni rag‘batlantiradi va ularning qiziqishini oshiradi;
- AKT o‘quvchilarni kelajakdagi faoliyatiga tayyorlashga ko‘mak beradi.

Hozirgi zamonda mehnat faoliyati o‘quvchilar qoniqish bilan ishlatayotgan kompyuterlar, texnologiyalar, dasturlarva qurilmalar yordamida boshqariladi;

- AKT o‘rganish va o‘qitishning yangi imkoniyatlarini ochib beradi;
- AKT o‘qituvchilarning kasbiy o‘sishi uchun ularga o‘z fanlari bo‘yicha o‘qitishning yangi usullarini kiritishga, yangi yondashuvlarni qo‘llashga, g‘oyalarni ro‘yobga chiqarish va yangi ko‘nikmalarni rivojlantirishga imkoniyat yaratadi.
- AKT o‘z resurslaridan oqilona foydalanishga imkoniyat yaratadi;
- AKT o‘quv jarayonini oqilona boshqarish va nazorat qilish orqali vaqtni hamda mablag‘ni tejaydi. AKT darslarga tayyorgarlik jarayonini qisqartiradi va o‘qish jarayonini o‘quvchilar uchun qiziqarli hamda ko‘ngilochar qiladi;
- AKT moslashuvchandir. AKT turli yoshdagi o‘quvchilar, turli darajadagi o‘qituvchilar uchun moslashtirilishi mumkin hamda ta’lim jarayonida o‘qituvchilar va o‘quvchilar uchun ko‘makdir.

Bizga ma’lumki, bundan 3500 yil oldin Xitoy faylasufi Konfutsiyni “Eshitganimni yodimdan chiqaraman, ko‘rganimni eslab qolaman, mustaqil bajarsam tushunib yetaman”, degan iborali so‘zlari bugungi kunda ham o‘z ifodasini topmoqda. Ta’limda informatsion hamda pedagogik texnologiyalarni qo‘llaganda talaba eshitish, ko‘rish, ko‘rganlari asosida mustaqil fikrlash imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Ta’lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda darslarni tashkilashtirish uchun ma’lum bir shartsharoitlar mavjud. Birinchidan, axborot resurslari bo‘lishi kerak.

Bularga

• shaxsiy kompyuter;
• proektor;
• multimedia vositalari;
• skaner (murakkab sxemalar va chizmalarni, negativ plyonkadagi tasvirlarni kompyuterga o‘tkazish uchun);
• raqamli fotoapparat;
• video kamera (video konferinsiyalar o‘tkazish uchun va yana boshqa maqsadlarda);
• printer, nusxa ko‘chiruvchi qurilma (tarqatma materiallarni qog‘ozga tushirish va ko‘paytirish va yana boshqa maqsadlar uchun) va boshqa resurslar.

Ikkinchidan, maxsus dasturiy ta’minotlar hisoblanadi. Ta’lim tizimda multmediya elektron o‘quv adabiyotlar, ma’ruzalar, virtual laboratoriya ishlari, har hil animatsion dasturlar va yana boshqa ishlarni yaratishda kerak bo‘ladigan maxsus dasturlar hisoblanadi. Bu dasturlar juda ko‘p bo‘lib, misol uchun: Animatsion roliklar yaratish uchun Macromedia Flash MX dasturidan

foydalaniladi. Multmediali taqdimot ma’ruzalarini yartishda hammamizga ma’lum bo‘lgan Power Point dasturidan foydalaniladi.

Yanada samarali o‘qitish uchun proektorlar va AKT dan foydalanib, jonli o‘quv sinflarini tashkil etishlari kerak bo’ladi.

AKT dan foydalanish kundalik hayotimizning dolzarb talabi hisoblanadi va jamiyatni globallashtirishda muhim rol o‘ynaydi. O‘quvchilar yangi tushunchalar haqida rasmiy bilimlarni to‘plamasdan, balki, ularni tushunib olishlari juda muhim.

Matematika fanini o‘qitish yanada samarali bo‘lishi uchun o‘quv mashg‘ulotlari davomida o‘qituvchilar AKT ni ishlab chiqish va foydalanishlarini rag‘batlantirish zarur.

Matematika fani o‘qituvchilari dars o‘qitish uchun samarali AKT yaratishlari uchun Ms-Word, Ms- Excel, Ms-PowerPoint, GeoGebra Classic 5 kabi turli dasturiy ta’minotlardan va boshqa web vositalardan foydalanishlari mumkin. Masalan:

- Ms-Word dasturidan so‘rovnoma, matnlar, tasvirlar va boshqa elektron hujjatlar ishlab chiqishda foydalanish mumkin;

- Ms-Excel dasturidan tirik va jonsiz organlar o‘rtasidagi farqlarni chizib ko‘rsatish kabi ustunli taqdimotlar talab etiladigan joylarda foydalanish mumkin;

- Photoshop dasturida yuqori sifatli tasvirlar tuzilishi mumkin;

- GeoGebra Classic 5 dasturidan turli kontseptsiyalarni o‘qitish uchun foydalanish mumkin.

Ta’rif 1. Tekislikda qo‘zg‘almaydigan ikki nuqtagacha masofalarning yig‘indisi o‘zgarmas bo‘lgan nuqtalarning geometrik o‘rni ellips deyiladi. Bizga qo‘zg‘almas ikkita nuqta berilgan bo‘lsin. Mana shu qo‘zg‘almas ikki nuqtaga fokus deyiladi. Tekislikda ikkita $F1$ va $F2$ nuqta berilgan bo‘lsin. $F1$ va $F2$ nuqtalardan to‘g‘ri chiziq o‘tkazamiz va to‘g‘ri chiziqqa yo‘nalish berib uni absissa o‘qi deymiz. $F1$ va $F2$ nuqtalarning o‘rtasidan ordinata o‘qini o‘tkazamiz. Berilganlardan foydalanib tekislikda ixtiyoriy ellipsning chizmasini GeoGebra Classic 5 dasturi yordamida chizishimiz mumkinligini o’quvchilarga ko’rsatamiz.



Ushbu taqdimotlarda Photoshop dasturida ishlab chiqilgan fotosuratlarni yoki Flash dasturi bilan yaratilgan animatsiyalarni osongina joylashtirish mumkin. Matematika fanini o‘qitishda o’quvchilarning qiziqishlarini oshirish uchun ularni turli dasturlar yordamida namoyish etish kerak bo’ladi.

Yuqorida taqdim etilgan dasturlardan foydalanib, yaratilgan animatsiyalar, filmlar va taqdimotlar oʻqituvchilar tomonidan matematika fanini oʻqitishda samarali qoʻllanilishi mumkin. Matematika fanini oʻqitishda elektron darslik va oʻquv qoʻllanmalardan foydalanish dars samaradorligini yanada oshiradi. Matematika fanidan oʻtkaziladigan koʼrgazmali mashgʻulotlari uchun kerakli jihozlar etishmaganda, virtual va vizual koʼrinishlardan foydalanilsa, oʻquvchilarda fanga oid umumiy kompetentsiyalar rivojlanib, mustaqil shakllanib boradi.

Shuni aytib oʻtish lozimki, darslarda turli ilgʻor pedagogik texnologiyalardan va buyuk allomalarimizning ijodlaridan foydalanish samaradorlikni oshiradi. Bu oʻquvchilarning bilimlarini oshirishda va kelgusida ilmiy izlanishlar olib borishlariga yordam beradi.

Shuningdek, Innovatsion texnologiyalarni amaliy mashgʻulot darslarida qoʻllash ham oʻqituvchidan katta mahorat va bilim talab qiladi. Innovatsion texnologiya oʻz oʻrnida qoʻllansa qoʻyilgan maqsadiga erishiladi. Oʻqituvchi dars davomida darsning mavzusiga qarab xususiy texnologiyalarni qoʻllab ham yuqori natijalarga erishsa boʻladi.

***Xususiy texnologiya*** bu - taʼlim-tarbiya mazmunining ayrim yoʻnalishlarini amalga oshirish usullari va vositalari majmuini oʻz ichiga oluvchi innovatsion tizimlarni qamrab oladi. Bunga ayrim fanlarni oʻqitish texnologiyalari va oʻqituvchining oʻquvchi bilan ishlash texnologiyalari kiradi.

***“Klassik juftliklar”*** *(“Klassik uchliklar”)* - bunda ishtirokchilarga ustiga oʻzaro klassik yoki barchaga maʼlum bogʻliqlikka ega boʻlgan tushunchalar, odamlar familiyalari, ertak va folklor qahramonlarining nomlari yozilgan (bosib chiqarilgan) kichik kartochkalar tarqatiladi.

Masalan:

| Klassik juftliklar: | Klassik uchliklar: |
|---|---|
| Funksiya – jadval | Quyosh - havo - suv |
| Parabola – giperbola | Minus - plyus - modul |
| Elektron – proton | Mediana - balandlik - bissektrisa |
| Kenglik – uzunlik | ……… |
| Bissektrisa - burchak | |
| Nyuton - olma | |

Soʻzlar tartibsiz ahvolda bir varaq qogʻozga yozilgan, masalan, plyus, parabola, uzunlik, burchak, mediana, minus, funksiya, giperbola, jadval va hokazo. Oʻquvchilar shu soʻzlar orasida klassik juftlik yoki uchlikni topib, tuzishlari va ana shu bogʻliqlikni asoslab berishlari kerak. Mashq ham individual tartibda, ham kichik guruhlarda oʻtkazilishi mumkin.

***“Juft-juft muloqot”*** usuli - Biror mavzu boʻyicha yonma-yon oʻtirgan oʻquvchilarga biror topshiriq (yoki alohida-alohida topshiriqlar) berish va ularni birgalikda topshiriqda keltirilgan muammo (masala) yechimini topishga chorlash, yechimlarni eshitish va baholash.

Baʼzi hollarda oʻquvchilar bir-birlariga navbatma-navbat savol (masala) bilan yuzlanishlari ham mumkin. Bunday holda savol javobi (masala yechimi) savol (masala) bergan oʻquvchi tomonidan tinglanishi (tekshirilishi) va baholanishi lozim boʻladi.

Juftlikda ishlash mavzusini tanlayotganda alohida ehtiyot boʻlish zarur. Bu mavzu koʻpchilik tomonidan oʻzlashtirilgan boʻlishi lozim, aks holda juftlarda ish ketmasligi mumkin.

Topshiriqlardan namunalar:

a) Har bir oʻquvchi 1 minut davomida “Oʻnli kasrlarni 10, 100, 1000 va hokazo sonlarga boʻlish” mavzusiga oid 3 ta misolni tuzsin va oʻz partadoshi bilan almashsin. 3 minutdan keyin misollarga javobni qaytarib olsin va javoblarni 1 minut ichida tekshirib, baholasin.

b) Har bir o‘quvchi 1 minut davomida “O‘nli kasrlarni 10, 100, 1000 va hokazo sonlarga ko‘paytirish” mavzusiga oid 3 ta misolni tuzsin va o‘z partadoshi bilan almashsin. 3 minutdan keyin misollarga javobni qaytarib olsin va javoblarni 1 minut ichida tekshirib, baholasin.

c) Har bir o‘quvchi 1 minut davomida “O‘nli kasrlarni 0,1, 0,01, 0,001 va hokazo sonlarga ko‘paytirish” mavzusiga oid 3 ta misolni tuzsin va o‘z partadoshi bilan almashsin. 3 minutdan keyin misollarga javobni qaytarib olsin va javoblarni 1 minut ichida tekshirib, baholasin.

d) Har bir o‘quvchi 1 minut davomida “O‘nli kasrlarni 0,1, 0,01, 0,001 va hokazo sonlarga bo‘lish” mavzusiga oid 3 ta misolni tuzsin va o‘z partadoshi bilan almashsin. 3 minutdan keyin misollarga javobni qaytarib olsin va javoblarni 1 minut ichida tekshirib, baholasin.

***Matematika darslarida Pazl (“Bo‘laklardan butunni tuz”) metodi.***

Pazl (inglizcha puzzle - topishmoq, boshqotirma) - rasmni uning bo‘laklari yordamida tiklashdan iborat bolalar o‘yinining nomi. Shuning uchun bu metod nomini o‘zbek tilida “Bo‘laklardan butunni tuz” deb ham atash mumkin.

O‘tilgan mavzuga oid asosiy jumla, formula, teorema, tenglama, chizma va boshqa ko‘rinishidagi asosiy ma’lumotlar qog‘ozga yozilib, so‘ng bir nechta bo‘laklarga bo‘linib aralashtirib yuboriladi. O‘quvchilar bu bo‘laklar ichidan faqat bitta ma’lumotga moslarini topib, uni tiklaydilar.

Bu metod o‘quvchilarda ziyraklik, topqirlik, diqqatni to‘plash, tahlil va sintez qilish kabi qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Uni yakka tartibda ham, sinfni guruhlarga bo‘lib ham o‘tkazish mumkin.

Masalan: Parallel to‘g‘ri chiziqlar, “To‘g‘ri chiziqlarning parallellik alomatlari” va “Ikki to‘g‘ri chiziqni uchinchi to‘g‘ri chiziq kesib o‘tganda hosil bo‘ladigan burchaklar haqidagi teoraemalar” mavzulari o‘tib bo‘linganidan so‘ng o‘quvchilarga quyidagi ko‘rinishdagi 24 ta varaqchalar (kartochkalar)dan iborat to‘plam taqdim qilinadi. Bu to‘plamda 6 ta teorema keltirilgan bo‘lib, ularning har bir haqida 4 ta varaqchada ma’lumot berilgan bo‘ladi.

1-kartochkada: teoremaning yozma bayoni,

2-kartochkada: teoremaga mos chizma,

3-kartochkada: teorema sharti va xulosasining qisqacha matematik bayoni,

4-kartochkada: teoremaning matematik isboti yozuvi.

Topshiriq: 6 ta o‘quvchiga (yoki guruhga) 6 ta teorema beriladi va taqdim qilingan to‘plam ichidan faqat o‘z teoremasi bo‘yicha ma’lumotlarni to‘la yig‘ish vazifasi topshiriladi.

***“Matematik bozor” o‘yini*** - Bu mashg‘ulotni odatda biror katta bo‘lim yoki bobning oxiridagi takrorlash darslarida o‘tkazish mumkin. Biror bob yakunlangandan keyin o‘qituvchi shu bobda o‘rganilgan materiallarga taalluqli misollarni kartochkalarga yozib tayyorlaydi. Har bir kartochkada 2-3 tadan turli qiyinlikdagi misollar yoziladi va har bir misolga qiyinlik darajasiga qarab “narx” belgilanadi (masalan 50so‘m, 100so‘m, 200so‘m,...). Kartochkalar soni sinfdagi o‘quvchilar soniga qarab tuziladi. O‘quvchilar 4 tadan qilib guruhlarga bo‘linadi, bunda sinfda o‘rtacha 8-10 ta guruh tashkil qilish mumkin. Demak, har bir kartochkadan guruhlar soniga mos ravishda 8-10 tadan tayyorlash kerak bo‘ladi. Kartochkalarning turi esa 45 xil bo‘lsa yetarli bo‘ladi (jami 32-40 ta kartochka). Har bir guruh kartochkalardan bittadan oladi, ya’ni har bir guruhda 4 yoki 5 xil kartochka bo‘ladi, “narxlar” kartochkalarda har bir misol (savol) to‘g‘risida ko‘rsatilgan bo‘lishi kerak.

| 1-variant | |
|---|---|
| 1. Topshiriq | 100s. |
| 2. Topshiriq | 150s. |
| 3. Topshiriq | 200s. |

Biror guruh 1-variantdagi topshiriqlarni birichi bo‘lib bajarsa, o‘qituvchiga ko‘rsatadi va o‘qituvchi yechimni tekshirib shu guruh ishlagan pulni doskada tayyorlab qo‘yilgan jadvalga yozib qo‘yadi. Shu 1-variantni keyingi bo‘lib ishlagan guruhga har bir topshiriqdan 25 so‘mdan chiqarib tashlanadi. Shu tariqa guruhlar har bir variantdagi topshiriqlardan iloji boricha ko‘proq va tezroq yechishga va ko‘proq pul to‘plashga harakat qiladilar. Variantlardagi topshiriqlar xilma-xil va har xil narxli bo‘lishi mashg‘ulotlarni qiziqarli bo‘lishiga yordam beradi.

Ma’lum vaqtdan so‘ng (masalan 30 minutdan keyin) “bozor” to‘xtatiladi va o‘qituvchi guruhlar to‘plagan pullarni jadval yordamida hisoblaydi. Guruhlarni nomerlash yoki ularning o‘zlari guruhga nom tanlashlari mumkin. Qaysi guruh ko‘proq pul to‘plagan bo‘lsa, shu guruh g‘olib topiladi, qolgan guruhlarga ham o‘rinlar beriladi. O‘qituvchi guruhlarning bajargan ishlarini kuzatib, qaysi guruh biror topshiriqni bajarishga qiynalgan yoki bajara olmagan bo‘lsa, shu topshiriqni bajargan guruhlar yechimini doskada namoyish qilib berishlari mumkin. Biror topshiriqni har bir guruh bajara olmagan bo‘lsa, o‘qituvchining o‘zi shu topshiriqni yechish yo‘llarini ko‘rsatib berishi mumkin va shu kabi misollar ustida ishlash zarurligini bilib olishi mumkin.

So‘ngra o‘qituvchi guruhlarning to‘plagan pullariga qarab o‘quvchilarni baholaydi. Besh balli tizimda eng ko‘p pul to‘plagan guruh o‘quvchilariga 5 ball, keyingi 2 ta guruhga 4 balldan, keyingi 3ta guruhga 3 balldan va hokazo, qo‘yish mumkin.

Yakuniy jadval

| | 1-V | 2-V | 3-V | 4-V | 5-V | Jami | O‘rin | Ball |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1-G | 500 | 425 | | | | | | |
| 2-G | 425 | 350 | | | | | | |
| 3-G | 350 | 500 | | | | | | |

*Bu usullardan foydalanish doiralari:* Tabiiy va aniq fanlarni o‘qitishda.

*Afzalliklari* - ushbu mashq o‘quvchilarga maktabda o‘rganiladigan fanlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlashga yordam beradi, o‘quvchilar birmuncha dastlabki ishni bajarishga ulgurgan mavzular o‘rtasidagi aloqani o‘rganish uchun juda qulay imkon yaratadi.

Zamonaviy o‘qituvchining muammolardan biri - muammolarni aniqlash va aniq misollar bilan talabalarga tushuntirish. Bu sifat ta’lim tizimini barpo etishning juda muhim shartidir. Chunki ilm murakkabligi amaliy muammolarni hal qilish uchun qo‘llash samaradorligi bilan bevosita bog‘liq.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, bugungi kun o‘quvchisini bugungi zamonning talablari asosida o‘qitish lozim. Zero, yangi texnologiyalar zamonida dunyoga kelayotgan o‘g‘il-qizlar o‘zining bir qator umumiy sifatlari bilan ajralib turadi. Turmush tarzimiz, qiziqish va xohish-istaklarimiz global makonda qariyb o‘xshash tus olayotgan bir vaqtda kechagi o‘qitish usullari bilan maqsadga erishib bo‘lmaydi. Zamon bilan hamqadam rivojlanib borgandagina yuksak intellektual avlodni tarbiyalash imkoniga ega bo‘lamiz. Innovatsion texnologiyalarni ta’lim

jarayoniga tatbiq etish asosida ta'lim samaradorligini oshirish va ta'lim jarayoniga texnologik yondashish mumkin. Hamda bu usulning afzalligi shundaki, butun faoliyat o'quvchi- talabani mustaqil fikrlashga o'rgatib, mustaqil hayotga tayyorlaydi. Ta'limda innovatsion texnologiyalardan foydalanish maqsadidagi ilmiy natijalarni o'rganish va nazariy ma'lumotlarni tayyorlash, o'quvchilarda fanga nisbatan qiziqish uyg'otishga xizmat qilishi mumkin.

Shu bilan bir qatorda yoshlarni olimpiadalarga tayyorlash mashg'ulotlarida interfaol metodlardan foydalanish ham maqsadga muvofiq. Tajribalar shuni ko'rsatmoqdaki, mashg'ulotlar davomida matematikaning amaliyotga tadbiqlariga bag'ishlangan ilmiy ishlar bo'yicha qisqacha ma'lumotlar berilishi, ularda fanga bo'lgan qiziqishni ortishi va dunyoqarashlarini kengayishiga hamda ilmiy ishlar chop qilishlariga sabab bo'lmoqda.

Shuningdek, axborot-kommunikatsion texnologiyalari matematika fani o'qituvchilarining ta'lim berishida kasbiy rivojlanishi uchun katta imkoniyatlar yaratadi. AKTning asosiy afzalliklari: fan o'qituvchilar tomonidan o'quvchilar ishini samarali boshqarish, saqlash va olib borish hamda vaqtni tejashdan iborat. Vaqtni tejash mashg'ulotlarga yaxshi tayyorlanish imkoniyatini beradi. Fan o'qituvchilari AKT resurslaridan foydalangan holda nafaqat o'z bilimlarini yangilaydilar, balki nazariy bilimlarini ham orttirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

**REFERENCES**

1. Umumiy o'rta ta'limning Davlat ta'lim standartlari. Boshlang'ich ta'lim ―Ta'lim taraqqiyoti‖ jurnali, Toshkent ―Sharq‖, 2019, 7 - soni
2. Levenberg L.Sh. va boshqlar. ―Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi Toshkent ―O'qituvchi
3. Bikbaeva N.U. va boshqalar. ―Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi Toshkent ―O'qituvchi‖ 2016 yil.
4. Skatkina A.A. ―Metodika prepodaveniya matematiki v sredney shkole. Moskva―Prosveshenie.

# MATEMATIKA FANINI O‘QITISHNING METODIKASI, MAZMUNI VA VAZIFALARI

**G'anijonova Nozimaxon Paroxiddin qizi**
**Jumaboyeva Dildora Shaxobiddin qizi**
Andijon davlat pedagogika instituti Aniq va tabiiy fanlar fakulteti Matematika va informatika yo‘nalishi 203-guruh talabalari

https://doi.org/10.5281/zenodo.7514947

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada matematika fanini o‘qitishning metodikasi, mazmuni va vazifalari haqida ma’lumotlar keltirilgan.Matematika fanini rivojlanish bosqichlari va bugungi kunda matematika fanini o‘qitish uslubiyati tahlili yoritilgan.*

***Kalit so’zlar:*** *Matematika fan sifatida, o‘quv predmeti sifatida, elementar matematika, oliy matematika, metodika.*

## МЕТОДИКА, СОДЕРЖАНИЕ И ЗАДАЧИ ОБУЧЕНИЯ МАТЕМАТИКЕ

***Аннотация.*** *В данной статье представлена информация о методике, содержании и задачах обучения математике, выделены этапы развития математики и проведен анализ методики преподавания математики на сегодняшний день.*

***Ключевые слова:*** *Математика как наука, как учебный предмет, элементарная математика, высшая математика, методология.*

## METHODOLOGY, CONTENT AND TASKS OF TEACHING MATHEMATICS

***Abstract.*** *This article provides information on the methodology, content and tasks of teaching mathematics. The stages of development of mathematics and the analysis of the methodology of teaching mathematics today are highlighted.*

***Key words:*** *Mathematics as a science, as an educational subject, elementary mathematics, higher mathematics, methodology.*

Matematika faning o‘rganadigan narsasi (obyekti) materiyadagi mavjud narsalarning fazoviy formalari va ular orasidagi miqdoriy munosabatlardan iborat.

Matematika fan sifatida ham, o‘quv predmeti sifatida ham yosh avlodga o‘rgatilishi talab etiladi. Bunga sabab quyidagilar:

***Matematika fan sifatida:*** moddiy borliqning fazoviy va miqdoriy munosabatlarini aks ettiruvchi qonunlarni to‘la va chuqur o‘rganish, targ‘ib etishni talab etadi; o‘rganilayotgan qonuniyatlarning qanday mazmunga egaligi va ularning qanday usul bilan asoslanganligi rivojlanish darajasi bilan hisoblanmaydi;

unda tadqiqotchining shaxsiy fazilatlari, u yoki bu matematik qonunning qanday kashf etilganligi muhim emas; matematika fani ma’lum tizimda yaratiladi va rivojlanadi, u bir-biriga bog‘liq qat’iy ketma-ket keluvchi qonunlarni ochib beradi;

fanda asosiy tushunchalar, qabul qilingan aksiomalar uning boshlang‘ich asosi bo‘lib hisoblanadi.

***Matematika o‘quv predmeti sifatida:*** o‘quvchilarga matematikadan bilim, ko‘nikma va malakalar beradi;

matematik bilimlar berishda o‘quvchilar yosh xusu-siyatlari hisobga olinadi;

yangi matematik tushuncha yoki qonun kiritishga yonda-shish muhim ahamiyatga ega va shu asosda uni bayon etish usuli tanlanadi;

abstrakt tushunchalar izohlar va misollar bilan beriladi;

o‘qitishda takrorlash ham amalga oshiriladi; o‘quv predmeti fan tizimini qisqartirishi va buzishi mumkin emas.

Hozirgi davrda matematika fani shartli ravishda ikkiga ajraladi:

1)elementar matematika,

2) oliy matematika.

Elementar matematika ham mustaqil mazmunga ega bo‘lgan fan bo‘lib, u oliy matematikaning turli tarmoqlaridan, ya’ni nazariy arifmetikadan, sonlar nazariyasidan, oliy algebradan, matematik analizdan va geometriyaning mantiqiy kursidan olingan elementar ma’lumotlar asosiga qurilgandir.

Oliy matematika fani esa real olamning fazoviy formalari va ular orasidagi miqdoriy munosabatlarlarni to‘la hamda chuqur aks ettiruvchi matematik qonuniyatlarni topish bilan shug‘ullanadi.

***Matematika o’qitish uslubiyati fanining maqsad va vazifalari*.**

Insoniyat o‘z rivoji davrida yosh avlodga bilimlar berar ekan asosiy e’tibo- rini o‘z faoliyati va taraqqiyot talablarini hisobga olib, fanlar asoslarini o‘rgatishga harakat qiladi.Shu sababli o‘quvchilarga barcha bilimlar qatori matematikadan chuqur bilimlar berish vazifasi va uni ilmiy amalga oshirish asosiy masalalardan hisoblanadi.Bunda matematika o‘qitish uslubiyati asosiy o‘rinlardan birida turadi.

***“Metodika”*** so‘zi yunoncha ***“metod”*** yoki ***“usul”*** so‘zidan olingan. *Matematika o‘qitish metodikasi* (uslubiyati) fani deb, jamiyat tomonidan qo‘yilgan ta’lim maqsadlarga mos ravishda matematik o‘qitish usullarini, qonuniyatlarini uning ma’lum rivojlanish darajasida o‘rganadigan va tadqiq etadigan pedagogika- ning bo‘limiga aytiladi. Matematika metodikasi pedagogika va didaktika fanining asosiy bo‘limlaridan biri bo‘lib, jamiyatimiz taraqqiyoti darajasida ta’lim maqsad- lariga mos keluvchi matematikani o‘qitish, o‘rganish qonuniyatlarini o‘rganadigan mustaqil fandir.

Matematika o‘qitish metodikasi pedagogika universitetlarining III-IV kurslarida o'tiladi. U o‘zining tuzilishi xususiyatiga ko‘ra shartli ravishda uchga bo‘linadi. U o‘zining tuzilishi xususiyatiga ko‘ra shartli ravishda uchga bo‘linadi.

1. Matematika o‘qitishning ***umumiy metodikasi***. Bu bo'limda matematika fanining maqsadi, mazmuni, formasi, metodlari va uning vositalarining metodik sistemasi, pedagogika, psixologiya qonunlari hamda didaktik prinsiplar asosida ochib beriladi.

2. Matematika o‘qitishning *maxsus metodikasi*. Bu bo‘limda matematika o‘qitish umumiy metodikasining qonun va qoidalarining aniq mavzu materiallariga tatbiq qilish yo‘llari ko‘rsatiladi.

3. Matematika o‘qitishning *aniq metodikasi*.

Bu bo‘lim ikki qismdan iborat:

1) Umumiy metodikaning xususiy masalalari.

2) Maxsus metodikaning xususiy masalalari. Masalan, VI sinfda matematika darslarini rejalashtirish va uni o‘tkazish metodikasi deyilsa, bu umumiy metodikaning xususiy masalasi bo‘lib hisoblanadi.

***Matematika o’qitish uslubiyati*** fani “matematika pedagogikasi”sifatida ta’limning umumiy qonuniyatlarini matematika sohasida namoyon bo‘lish xususiyatlarini o’rganadi.

Matematika o‘qitish uslubiyati fani avvalo o‘zaro bir-biriga bog‘liq to‘rtta savolga javob berishi lozim.

Birinchisi-nima uchun matematikani o‘rganish kerak?

Bu savolga javobni ta’lim va tarbiya umumiy vazifalariga asoslanib topish mumkin, o‘z navbatida bu vazifalar jamiyat rivojining ma’lum bir bosqichida uning oldida turgan umumbashariy maqsad va vazifalar bilan aniqlanadi.

Ikkinchisi-kimni matematikaga o‘rgatish kerak?

Bir tomondan bu savol yosh haqida bo‘lib, qachondan boshlab bolalarni matematikaga o‘rgatish maqsadga muvofiq va qachon barcha uchun majburiy dastur o‘rnatishni tugatish zarurligini ifoda etadi.Ikkinchi tomondan, maktabdan keyingi matematik ta’limning uzviyligini ifodalaydi.

Uchinchisi - o‘rganiladigan matematika mazmuni qanday bo‘lishi kerak? Yoki nimani o‘rganish kerak?

Bu savolga javob matematika o‘qitish uslubiyatining muhim qismi bo‘lib, eng harakatchan, eng ilg‘or va eng qulay o‘qitish usullari bilan birga ijodiy yondoshishni talab etadigan usullar tizimini asoslash va targ‘ib qilish talab etiladi.

Matematika o‘qitish uslubiyati fanining asosiy vazifalari quyidagilar: matematikani o‘rganishning maqsadlari va o‘quv predmeti mazmunini aniqlash; qo‘yilgan masalalarni amalga oshirish uchun eng qulay usullar va asosiy o‘qitish shakllarini yaratish.

Matematika o‘qitish uslubiyati uchta bo‘limdan iborat:matematika o‘qitish umumiy uslubiyati (masalan, o‘qitish usullari prinsiplari va hokazo masalalar kiradi); matematika o‘qitish xususiy uslubiyati (maktab matematika kursining ayrim bo‘limlari yoki tushunchalari yo‘nalishlarini o‘rganish usul va yo‘llari qaraladi); matematika o‘qitish maxsus uslubiyati (masalan, akademik litsey, kasb-hunar kollej va maxsus o‘quv yurtlarida matematika o‘qitishning xususiyatlari o‘rganilishi mumkin).

***O‘rta umumta'lim maktablarida matematika o‘qitishning maqsadlari.***

O‘rta maktablarda matematika o‘qitishning maqsadi quyidagi uch omil bilan belgilanadi:

1. Matematika o‘qitishning umumta’limiy maqsadi.
2. Matematika o'qitishning tarbiyaviy maqsadi.
3. Matematika o‘qitishning amaliy maqsadi.

Umumta’lim maqsadi: o‘quvchilarga ma’lum matematik bilim, ko‘nikma va malakalar sistemasini berish;

o‘quvchilarga olamni o‘rganishning matematik usul-larini egallashlariga yordam berish; o‘quvchilarni og‘zaki va yozma matematik nutqqa o‘rgatish;

o‘quvchilarning ta’lim jarayonida va o‘z ustida ishlashlarida faol bilish faoliyatini oshirish uchun zarur bilim, ko‘nikma va malakalar bilan qurolla- nishga hamda qo‘llashlari uchun yetarli matematik ma’lumotlarni olishiga erishish.

**REFERENCES**

1. Matematika o‘qitish metodikasi.S.Alixonov. Toshkent. “Cho‘lpon” 2011.
2. “Matematika va informatika o‘qitish metodikasi” fanidan o‘quv-metodik

majmua.J.O‘Muxammadiyev.Toshkent.2019.
3. M.E. Jumayev “Matematika o’qitish metodikasi”. Toshkent. “O‘qituvchi”. 2004

# INFORMATIKA FANINI TURLI INNOVATSIYA BILAN O‘QITISH HAQIDA

**Jo‘raxonov Faruxbek**
**Jumaboyeva Dildora**
Andijon davlat pedagogika instituti Aniq va tabiiy fanlar fakulteti Matematika va informatika yo‘nalishi 203-guruh talabalari

***https://doi.org/10.5281/zenodo.7514971***

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada informatika fanini o’qitishda noan’anaviy darslardan foydalanish hususida yoritib berilgan va uning afzalliklari tahlil etib o’tilgan.*

***Kalit so’zlar:*** *informatika, texnika fanlari, innovatsion texnologiya, texnik vositalar, ma’ruza usuli, an’anaviy darslar.*

# О ПРЕПОДАВАНИИ ИНФОРМАТИКЕ С ПОМОЩЬЮ РАЗЛИЧНЫХ ИННОВАЦИЙ

***Аннотация.*** *В данной статье освещается использование нетрадиционных уроков в обучении информатике и анализируются их преимущества.*

***Ключевые слова:*** *информатика, технические науки, инновационная технология, технические средства, лекционный метод, традиционные уроки.*

# ABOUT TEACHING COMPUTER SCIENCE WITH VARIOUS INNOVATIONS

***Abstract.*** *This article highlights the use of non-traditional lessons in the teaching of computer science and analyzes its advantages.*

***Key words:*** *informatics, technical sciences, innovative technology, technical tools, lecture method, traditional lessons.*

Ta’lim muassasalarining zamonaviy texnik vositalar, axborot-kommunikatsion texnologiyalar va o‘quv laboratoriya jihozlari bilan qaytadan ta’minlanishi talabalarning bilim samaradorligini oshirishga muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Bu esa o‘z navbatida pedagog–o‘qituvchilar zimmasiga yana bir qo‘shimcha ma’suliyat yuklaydi. Bugungi kun o‘qituvchisi endi nafaqat o‘z fanini mukammal bilishi, balki zamonaviy texnik vositalar bo‘yicha ham zaruriy bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari zarurdir. Shuningdek bugungi kun o‘qituvchisi an’anaviy o‘qitish usullarini yanada takomillashtirib, informatika fanini o‘rgatishda yangi pedagogik innovatsion texnologiyalarni o‘quv jarayoniga izchil qo‘llashi va jadal rivojlanib, shakllanib borayotgan o‘qitish usullaridan muntazam xabardor bo‘lib turish muhimdir.

Bugungi kunda ta’lim mazmunini modernizatsiyalash, ta’lim sifatini oshirish, ta’limda innovatsion texnologiyalarni keng joriy etishga yo’naltirilgan ko’plab innovatsiyalar yaratilmoqda va amaliyotga joriy etilmoqda. Mazkur innovatsiyalarning samaradorligi ko’p jihatdan ta’lim muassasasida amalga oshirilayotgan innovatsion faoliyatning to’g’ri tashkil etilganligiga bog’liqdir. Ta’lim jarayonini zamonaviylashtirish, jahon talablariga mos mutaxassislarni tayyorlash, ta’lim berish jarayonida ta’lim oluvchini o’z ortidan ergashtira olish uchun o’qituvchida ham pedagogik ham innovatorlik mahorati yuqori darajada bo’lishi lozim.

Pedagogika sohasidagi eng dolzarb vazifalardan biri har tomonlama kuchli, bilimli, mustaqil fikrlaydigan shaxsni tarbiyalashdir. Bunda darsda va amaliy mashg’ulotlarda mustaqil ishlarning tashkil etilishi muhim ahamiyatga ega. Axborot oqimi va bilimlar doirasi tez sur’atlar bilan kengayib borayotgan hozirgi sharoitda barcha ma’lumotlarni faqat dars

mashg’ulotlarida o’quvchilarga yetkazish qiyin, albatta. Shuning uchun ham o’qituvchilar o’quvchilarning mustaqil ishlarini to’g’ri tashkil etishga alohida ahamiyat qaratishi lozim.

Aksariyat hollarda informatika fanini oʻqitishda ma’ruza usuli qoʻllaniladi. Bu usul ayrim talabalarning darsda faolligini susaytiradi va tinglovchining diqqatini shu mavzuga va u bilan bog’lik boʻlgan texnik jarayonlarni tushunishga jalb qilish qiyin ekanligi ma’lum. Endilikda bizning nazarimizda mavzuni bayon qilishda va yoritib berishda koʻproq axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish oʻqitish samaradorligini yanada yaxshilaydi va oshiradi. Shunday ekan informatika va texnika fanlarini oʻqitishga e’tiborni jalb qiladigan ayrim xulosalar toʻgʻrisida fikr yuritamiz.

Oʻrganilayotgan mavzularga doir materiallarning elektron variantlarini internetga joylashtirish ham oʻqitish sifat va samaradorligini oshirish omillaridan biridir. Talaba mustaqil oʻrganish jarayonida internetdan foydalanib berilgan topshiriqlarni bajarish uchun izlanish olib boradi, yoki ma’lum uzrli bir sabablarga koʻra, darsga qatnasha olmagan talaba elektron manbalardan kerakli ma’lumotlarni olish imkoniga ega boʻladi. Bu talabaga qulaylik yaratish bilan birga undagi boʻshliqni toʻldirish imkonini beradi. An’anaviy darsda aksariyat hollarda oʻqituvchi gapiradi. Bu esa talabalarning faolligini ma’lum darajada susaytiradi. Noan’anaviy dars esa asosan talabani darsda mustaqil faol ishlashga, erkin fikrlashga va muloqotda boʻlishga imkon beradi. Texnik vositalar yordamida dars oʻtish berilgan qisqa vaqtdan unumli foydalanishga sharoit yaratib beradi.

An’anaviy o'qitishning usul va metodlari respublikamizda keng tarqalgan va ular oʻzining ma'lum tarixiga ham egadirlar. Biroq ta'lim sohasidagi islohotlarni amalga oshirishda an’anaviy ta’limning imkoniyatlari cheklanayotganligini, muhim ta'limiy muammolar oʻz yechimini topmayotganligi, qator ilgʻor pedagogik tajribalar ommalashmayotganligini ko'rishimiz mumkin.

Pedagogik texnologiyaning an'anaviy oʻqitish metodikasidan farqlovchi belgilari ko'p. Pedagogik texnologiya an'anaviy metodikadan, avvalo, maqsadlarning qo'yilishi va unga erishishi bilan farqlanadi. Pedagogik texnologiyaning usul va metodlari ta'limning umumiy maqsadlarini ishlab chiqish, ularni amalga oshirish va natijalarni nazorat qilish, kuzatish hamda baholashga xizmat qiladi.

An’anaviy darslarda koʻrgazmali vosita sifatida plakatlardan foydalanib kelingan boʻlsa, hozirgi paytda kompyuter, slayd, multimedia vositalar kabi zamonaviy axborot–kommunikatsion texnologiyalari keng tadbiq etilmoqda. Noan’anaviy darslarda an’anaviy darsdan farqli ravishda tasvir va tovush uygʻunligi talabaning faolligini va ularning oʻtilayotgan mavzuga qiziqishini oshiradi hamda berilayotgan ma’lumotlarning uzoq muddatga xotiralarida saqlanib qolishiga xizmat qiladi. Eng muhimi har bir talabani mustaqil ishlashga va fikrlashga undaydi.

Informatika va texnika fanlarni oʻqitishda axborot – kommunikatsion vositalardan unumli foydalanish va uni dars jarayonida qoʻllash uchun eng birinchi oʻrinda pedogog–oʻqituchilarning oʻzlari texnik vositalar bilan ishlash koʻnikmalariga ega boʻlishi zarur. Bir soʻz bilan aytganda oʻqituvchi muntazam ilmiy, ilmiy – ijodiy izlanishda boʻlishi kerak. Aks holda oʻqituvchining mehnat samarasi talabga javob bermay qoladi.

Kuzatishlar shuni ko’rsatadiki, kasb-hunar kolleji o’qituvchilari tomonidan mustaqil ishlarni innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish bo’yicha tajribalar hali yetarli emas. Kasb-hunar kollejlari o’qituvchilari mustaqil ishlarga yetarli darajada e’tibor bermasdan an’anaviy usullar (referat yozish, misol yechish va h.k.) bilan cheklanadilar, xolos. Bu turdagi usullar esa o’quvchini mustaqil fikrlashga o’rgatmaydi, kasbiy ko’nikmasini

rivojlantirmaydi, mashg'ulotga bo'lgan qiziqishini oshirmaydi.

Haqiqiy innovatsion pedagogik texnologiyalarda o'quv maqsadlari bo'lajak kasbiy faoliyatga qaratilgan bo'ladi. Bunday texnologiyalardan biri "keys-study"dir.

Case-study (inglizcha case - vaziyat, holat, study -o'rganish). Keys-study metodida bayon qilingan va ta'lim oluvchilarni muammoni ifodalash hamda uning maqsadga muvofiq tarzdagi yyechimi variantlarini izlashga yo'naltiradigan aniq real yoki sun'iy ravishda yaratilgan vaziyatning muammoli-vaziyatli tahlil etilishiga asoslanadigan o'qitish usulidir.

Keys-study metodi - o'qitish, axborotlar, kommunikatsiya va boshqaruvning qo'yilgan ta'lim maqsadini amalga oshirish va Keys metodida bayon qilingan amaliy muammoli vaziyatni hal qilish jarayonida prognoz qilinadigan o'quv natijalariga kafolatli yetishishni vositali tarzda ta'minlaydigan bir tartibga keltirilgan optimal usullari va vositalari majmuidan iborat bo'lgan o'qitish texnologiyasidir.

Keys-study metodi vaziyatlarni tahlil qilish metodi hisoblanib, uning mohiyati quyidagidan iborat: o'quvchilarga bir tomondan amaliy muammoni aks ettiruvchi, ikkinchi tomondan bu muammoni hal etish jarayonida avvaldan belgilangan aniq bilimlarni egallashga zarurat tug'diradigan qandaydir hayotiy vaziyatning mazmun - mohiyatini tushunish va tegishli xulosalarni chiqarish uchun taqdim etiladi.

Quyida informatika fanini innovatsion ta'lim muxitida, ya'ni Keys metodi asosida o'qitishga doir namuna keltiramiz.

*Keys-study:* "Elektron jadval yordamida ma'lumotlarni qayta ishlash"

*Keys-study maqsadi:* talabalarga hayotda duch kelishi mumkin bo'lgan muammolarni (amaliy masalalarni) elektron jadval yordamida hal qilishni o'rgatish. Masalaning yechimini mustaqil ravishda aniqlash (zarur hollarda o'qituvchi bilan maslahatlashish).

*Keys-study bajariladigan joy:* Keys "Elektron jadval imkoniyatlari" mavzusidagi amaliy mashg'ulotda qo'llanilib, unda berilgan amaliy topshiriqlar ijodiy guruhda bajariladi.

Keys bilan ishlashda o'quvchilar "Elektron jadval imkoniyatlari" mavzuda ega bo'lgan nazariy materiallarga tayanadi. Keys metodidan ko'zlangan maqsad, o'quvchilarda "Elektron jadval imkoniyatlari" mavzusida shakllantirilgan bilimlarni amaliyotga tadbiq qilish malaka va ko'nikmalarini shakllantirish hisoblanadi.

Axborot – kommunikatsion vositalarning yana bir ahamiyatli jihati shundaki, bunda faqatgina dars jarayonida emas, balki darsga tayyorgarlik jarayonida ham o'qituvchining eng yaqin va qulay ko'makchisidir. Bu jihatlari bilan ushbu texnik vositalar o'qituvchi faoliyati samaradorligini oshirishga hissasi beqiyos kattadir.

Xulosa o'rnida shuni qayd qilish kerakki, darsda texnik vositalardan foydalanish talabaning o'zlashtirish koeffitsentini bir necha barobar oshiradi. Ilmiy asoslarga ko'ra inson taxminan 70 foiz ma'lumotlarni ko'rish va kuzatish orqali oladi.

Xususan, informatika va texnika fanlarini o'rgatishda noa'nanaviy usullarni va axborot – kommunikatsion vositalarni keng joriy etish har bir o'qituvchining kundalik uslubiga aylanishi zarur deb hisoblaymiz.

Shundagina biz tayyorlab jamiyatga yetkazib berayotgan kadrlarimiz bugungi kun talabiga javob bera oladigan rakobatbardosh mutaxasislar bo'lib shakllanadi deb o'ylaymiz.

**REFERENCES**

1. Topildiyev V.R. Ta'lim va tarbiya jarayonlarini tashkil etishning meyoriy-huquqiy asoslari. T.: 2015;
2. Podlasiy I.P. Pedagogika. Obshiye osnovi. Protsess obucheniY. M., 2005;
3. Podlasiy I.P. Pedagogika. Noviy kurs. Ucheb. dlya stud. vissh. ucheb. zavedeniy: v 2 knigax. M.,2002 y.

# MATEMATIKA FANINI O‘QITISH JARAYONIGA INNOVATSION YONDASHUV HAQIDA

**Foziljonov Asadbek Akromjon o‘g‘li**

**Ikromova Husnidabonu Shoyatbek qizi**

Andijon davlat pedagogika instituti Aniq va tabiiy fanlar fakulteti Matematika va informatika yo‘nalishi 203-guruh talabalari

https://doi.org/10.5281/zenodo.7514993

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada matematika fanini o‘qitish jarayoniga innovatsion yondashuvlarini tatbiq etish borasida ma’lumotlar berilgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *Pedagogik texnologiyalar, topshiriqlarni faol qabul qilish, fan mavzulari bo‘yicha o‘qitishning tashxislanuvchi maqsadi, o‘zlashtirish unsuri.*

# ОБ ИННОВАЦИОННОМ ПОДХОДЕ К ПРОЦЕССУ ОБУЧЕНИЯ МАТЕМАТИКЕ

***Аннотация.*** *В данной статье представлена информация о внедрении инновационных подходов в процесс обучения математике.*

***Ключевые слова:*** *Педагогические технологии, активное выполнение заданий, диагностическая цель обучения предметам науки, элемент усвоения.*

# ON THE INNOVATIVE APPROACH TO THE PROCESS OF TEACHING MATHEMATICS

***Abstract.*** *This article provides information on the implementation of innovative approaches to the process of teaching mathematics.*

***Key words:*** *Pedagogical technologies, active acceptance of assignments, diagnostic goal of teaching on science subjects, mastery element.*

Matematika fani insonning intellektini, diqqatini rivojlantirishda, ko‘zlangan maqsadga erishish uchun qat’iyat va irodani tarbiyalashda, algoritmik tarzdagi tartibintizomlilikni ta’minlashda va tafakkurini kengaytirishda katta o‘rin tutadi. Matematika olamni bilishning asosi bo‘lib, tevarak-atrofdagi voqea va hodisalarning o‘ziga xos qonuniyatlarini ochib berish, ishlab chiqarish, fan-texnika va texnologiyaning rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun matematik madaniyat — umuminsoniy madaniyatning tarkibiy qismi hisoblanadi. Matematika fanini nazariylashtirgan holda o‘qitishga yondashishdan voz kechib, o‘quvchining kundalik hayotida matematik bilimlarni tatbiq eta olish salohiyatini shakllantirish va rivojlantirishga erishish, o‘quvchilarning mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini namoyon qilish va faollashtirishga e’tiborni kuchaytirish – davr talabi. Matematik ta’limga kompetensiyaviy yondashuv o‘quvchilarda kasbiy, shaxsiy va kundalik hayotda uchraydigan holatlarda samarali harakat qilishga imkon beradigan amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish va rivojlantirishni hamda matematik ta’limning amaliy, tatbiqiy yo‘nalishlarini kuchaytirishni nazarda tutadi. Mamlakatimizning dunyo hamjamiyatiga integratsiyalashuvi, fan-texnika va texnologiyalarning rivojlanishi yosh avlodning o‘zgaruvchan dunyo mehnat bozorida raqobatbardosh bo‘lishi, fanlarni mukammal egallashini taqozo etadi. Bu esa ta’lim tizimiga, jumladan, matematikani o‘rgatishga ilg‘or milliy va xalqaro tajribalar asosida standartlarni joriy etish orqali ta’minlanadi.

Pedagogik texnologiyaning muvaffaqiyatli loyihalanishi va yakuniy natijaning kafolatlanishi o‘qituvchining didaktik masalalar mohiyatini anglab yetish darajasi va darsda ularni to‘g‘ri baholay olishiga bog‘liqdir. Fanlarni o‘qitish jarayoniga yangi ta’lim

texnologiyalaridan foydalanish shaxs kamolotini ta’minlashga xizmat qiluvchi mustaqil fikr yuritish, o‘z ustida ishlash, faoliyatga nisbatan ijodiy yondashish kabi xislatlarning ham shakllanishiga zamin yaratadi. Shu bois quyida xususiy fanlarni o‘qitish jarayonida (xususan, tabiiy fanlarni) ta’lim texnologiyalaridan foydalanish, ularning bu boradagi ichki imkoniyatlarini ochib berish xususida gapiramiz. Har bir darsda ta’limning aniq maqsadi belgilanishi o‘qitish texnologiyasini loyihalashda muhim shartlardan biri sanaladi. Bunda fan mavzulari bo‘yicha o‘qitishning tashxislanuvchi maqsadi aniqlanadi. Darhaqiqat, har qanday fan o‘zining paydo bo‘lgan vaqtidan boshlab katta bilimlar hajmini to‘plagan va u yuqori tezlikda boyitib bormoqda. O‘qitish faqat zaruriy axborotlarnigina tanlab olish va o‘quvchining o‘zlashtirish qobiliyatlariga mos holda ular hajmini miqdoriy o‘lchamga keltirish zarur. Har qanday fan bosqichma-bosqich o‘rganish asosida rivojlanib boradi. Rivojlanishning uzluksiz jarayoni turli fanlarda turlicha, hatto bir fan bo‘limlari o‘rtasida ham notekis kechadi. Shu bois o‘quv mavzulari bo‘yicha maqsadni aniq belgilash uchun abstraktsiya pog‘onalari va unga mos o‘quv unsurini bayon qilish foydalanish maqsadga muvofiq.

Mavzular bo‘yicha ta’lim maqsadini aniq belgilashning abstraktsiya pog‘onalari:

1. Ob’ektning xususiyat va sifatlari qayd etilib, o‘zlashtirish unsuri odatdagi tilda tushuntiriladi.

2. Fan uchun xususiy bo‘lgan tushuncha, atama va qonuniyatlarni o‘zlashtirish unsurining tarkibini tashkil qilib, ilmiy tilda bayon etiladi.

3. Fanga tegishli ma’lum hodisalar ularning sonli nazariyalari asosida tushuntiriladi.

Matematika bolaning intellektual faoliyatini rivojlantirishda muayyan maqsad sari qaratilgan sistematik faoliyat to’g’risidagi hamda ta’lim jarayonining innovatsion xususiyatlarini ochib bera oladigan fan hisoblanadi. Matematikaning asosiy vazifasi bolaning aqliy ongini o’stirish uni jamiyat hayotidagi o’rnini belgilashdan iborat. Matematika fani pedagogika bilan bog’lanib, o’quvchining sotsial hayotini izga solishda, barkamol shaxs sifatida shakllantiruvchi asosiy mezondir. O’qituvchining ta’lim-tarbiya sohasidagi faoliyatida erishishi lozim bo’lgan barcha ijobiy natijalari o’quvchilar bilan erkin muloqotni to’g’ri tashkil etishida ko’rinadi. O’qituvchi so’z san’atining cheksiz qudrati asosida o’quvchilarga tarbiyaviy ta’sir ko’rsatishi, har bir darsni qiziqarli tashkil etishi zarur. O’qituvchining mahorati u tarbiyalagan shogirdlarining axloq odobi va bilimdonligi bir so’z bilan aytganda ma’naviyati bilan belgilanadi. Bu jarayon pedagogika ilmi, ya’ni tili bilan aytganda pedagogik ta’sir orqali namoyon bo’ladi. Pedagogik ta’sir pedagogik hodisalarning shakllanishi va rivojlanishiga sabab bo’ladi. Masalan, guruh jamoalarining ta’sirida guruh a’zolarining tutgan o’rni, yoki o’qituvchi ta’sirida o’quvchida ijobiy faoliyatning paydo bo’lishi.

O‘quv predmetining ilmiylik darajasi va bu parametrlar yordamida o‘quvchilar bilim sifatini baholash uchun koeffitsient kiritiladi. O‘quvchilar tomonidan o‘quv unsurini qay darajada o‘zlashtirish ularning faoliyatiga bog‘liq. Faoliyat ko‘rsatma vositasida yoki ko‘rsatmasiz mustaqil ravishda bajaraliadi. Mahsuldor faoliyat ma’lum pedagogik ko‘rsatmalar asosida tashkil etiladi, biroq bu yerda harakatlar ketma-ketligi, tartib qoidalari ayni vaziyatda yangilangan yoki hech kimga ma’lum bo‘lmagan usullar vositasida amalga oshadi.

Yuqorida tilga olingan o‘zlashtirish darajasini aniqlash uchun munosib testlar ishlanishi kerak. Test – bu biror bir faoliyatni bajarish uchun ma’lum darajadagi bilimni egallashga

qaratilgan topshiriqlardir. Testning to‘g‘ri bajarilganligini o‘lchash va baholash maqsadida har bir testga ekspert metodi yordamida etalon ishlab chiqiladi. Etalon yordamida test yechimiga olib keladigan jiddiy amallar sonini aniqlash qiyin emas. O‘quvchining javobi etalon bilan solishtirgach, testning sifatli bajarilganligi to‘g‘risida tegishli xulosaga kelinadi va to‘g‘ri yechilgan amallar yordamida o‘zlashtirish koeffitsienti aniqlanadi. Shunday qilib, pedagogik aylanmaga o‘quvchilarning tajribani o‘zlashtirish darajasi sifatini o‘zlashtirish koeffitsienti yordamida aniq hisoblash metodikasini kiritish pedagogik texnologiyaning muhim tamoyillaridan birini ifodalashga imkon beradi. Bu ta’limning tugallanganlik tamoyilidir. Mazkur tamoyil maktabda o‘qitish jarayoni samarasiz kechishi muammolarning yechimi va yo‘nalishlarini izlab topish imkonini beradi.

Didaktik masalalarning uchinchisi – “ta’lim mazmuni” yoki axborotlarning muayyan majmuasi bo‘lib, ular yordamida yosh avlodga umuminsoniy va milliy tajribalar uzatiladi. O‘quv yurtlarida o‘rganilayotgan fanlarning o‘zlashtirtish unsuri nihoyatda ko‘p, biroq har bir o‘quv yurti turiga qarab o‘zlashtirish unsurining soni cheklanadi. Ma’lumki, bilimlarning o‘quvchilar tomonidan egallanishi ularning xususiy o‘quv faoliyati natijasi tufayli ro‘y beradi. Har qanday o‘quv faoliyati umumiy loyiha bo‘icha quriladi va tuzatuvchi harakatlarni mujassamlashtiradi. Bu harakatlarni o‘quvchilar bevosita o‘qituvchi va darslik yordamida bajarishlari mumkin. O‘zlashtirish unsuri o‘quv harakatlarining alohida, o‘zlashtirishning ma’lum bosqichida namoyon bo‘ladi. Chunonchi, mo‘ljalli harakatning bajarilishi va o‘quv topshiriqlarining o‘zlashtirilishi quyidagicha ta’minlanadi:

-o‘quvchilar o‘qituvchi tomonidan berilgan tayyor topshiriqlarning mohiyatini tushunib yetishlari; -ularning topshiriqlarni faol qabul qilishlari;

-o‘quvchilarning mustaqil ravishda o‘quv topshiriqlarini bajarishlari;

-ular tomonidan muayyan o‘quv topshiriqlarining mustaqil ravishda bajarilishi.

O‘quv faoliyatining muhim tavsifnomalaridan biri – uning natijasidir. Yechimning ob’ektiv to‘g‘riligi, natijani olgunga qadar sodir etilgan harakat va qadamlar soni, vaqti sarfi, sub’ekt uchun faoliyatning muhimligi, uning yukunida o‘quvchining qanoatlanishi, sarflangan aqliy va jismoniy kuch hajmi va boshqalar o‘quv faoliyatinig samarali yukunini ko‘rsatuvchi omillar hisoblanadi.

**REFERENCES**

1. Jakayeva K. Aymurzayeva G. O‘quvchi mustaqil fikrlasin. “Ma’rifat” gazetasi, 26-sentabr 2012 yil.73-son.
2. Tolipov O‘.Q., Usmanboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. Monografiya. Toshkent: “Fan”. 2006.

# MAKTABDA MATEMATIKA O'QITISHNING MAZMUNI VA VAZIFALARI HAQIDA

**Abdumajidova Mubina Mirzohidjon qizi**
**Muhamadjonova Gulshoda Farhodjon qizi**
Andijon davlat pedagogika instituti Aniq va tabiiy fanlar fakulteti Matematika va informatika yunalishi 203-guruh talabalari
https://doi.org/10.5281/zenodo.7515181

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada maktabda matematika o'qitishning mazmuni va vazifalari mavzusida ma'lumotlar keltirilgan.*

***Kalit so'zlar:*** *O'quvchilarga ma'lum matematik bilim, ko'nikma va malakalar sistemasini berish; o'quvchilarga olamni o'rganishning matematik usullarini egallashlariga yordam berish.*

# О СОДЕРЖАНИИ И ОБЯЗАННОСТЯХ ПРЕПОДАВАНИЯ МАТЕМАТИКИ В ШКОЛЕ

***Аннотация.*** *В данной статье представлена информация о содержании и задачах обучения математике в школе.*

***Ключевые слова:*** *Обеспечение учащихся определенными математическими знаниями, умениями и системой умений; помочь учащимся освоить математические методы изучения мира.*

# ABOUT THE CONTENT AND DUTIES OF MATHEMATICS TEACHING AT SCHOOL

***Abstract.*** *This article provides information on the content and tasks of teaching mathematics at school.*

***Key words:*** *Providing students with certain mathematical knowledge, skills and a system of skills; to help students acquire mathematical methods of studying the world.*

Maktabda matematika o'qitishning asosiy maqsadlari quyidagilar: umumta'lim, tarbiyaviy va amaliy maqsadlar.

Umumta'lim maqsadlari: o'quvchilarga ma'lum matematik bilim, ko'nikma va malakalar sistemasini berish; o'quvchilarga olamni o'rganishning matematik usullarini egallashlariga yordam berish; o'quvchilarni ogzaki va yozma matematik nutqqa o'rgatish; o'quvchilarning ta'lim jarayonida va o'z ustida ishlashlarida faol bilish faoliyatini oshirish uchun zarur bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollanishga hamda qo'llashlari uchun yetarli matematik ma'lumotlarni olishiga erishish.

Tarbiyaviy maqsadlari: matematika faniga bo'lgan turg'un qiziqishni tarbiyalash; o'quvchilarni ahloqiy, ma'naviy-ma'rifiy, iqtisodiy, estetik va ekologik tarbiyalash( masalan, mehnatga hurmat, burch xissi, go'zallik, ziyraklik, iroda va chidamlilik va h.k. xislatlarni tarbiyalash); o'quvchilarning matematik tafakkur va qobiliyatlarini rivojlantirish, ularda matematik madaniyatni shakllantirishdan iborat.

Amaliy maqsadlari: olingan bilimlarni oddiy hayotiy masalalarni yechishga, boshqa o'quv fanlarni o'rganishda qo'llay olish ko'nikmalarini shakllantirish; matematik asboblar va jihozlardan foydalana olishga o'rgatish; bilimlarni mustaqil egallay olish ko'nikmalarini tarkib toptirish.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-9-sinflari uchun matematikadan davlat ta'lim standarti maktabda o'quvchilarga matematikani o'qitishdan ko'zda tutilgan maqsadlarni

quyidagicha belgilaydi: - o'quvchilarning hayotiy tasavvurlari bilan amaliy faoliyatlarini umumlashtirib borib, matematik tushuncha va munosabatlarni ular tomonidan ongli o'zlashtirilishida hamda hayotga tadbiq eta olishiga intilish; - o'quvchilarda izchil mantiqiy fikrlashni shakllantirib borish natijasida ularning aql-zakovat rivojiga, tabiat va jamiyatdagi muammolarni hal etishning maqbul yo'llarini topa olishlariga ko'maklashish; - insoniyat kamoloti, hayotning rivoji, texnika va texnologiyaning takomillashib borishi asosida fanlarning o'qitilishiga bo'lgan talablarni xisobga olgan holda maktab matematika kursini ularning zamonaviy rivoji bilan uyg'unlashtirish; - vatanparvarlik, milliy g'ururni tarkib toptirish, rivojlantirish, matematika rivojiga qomusiy olimlarimiz qo'shgan ulkan xissalaridan o'quvchilarni xabardor qilish; - jamiyat taraqqiyotida matematikaning ahamiyatini his kilgan xolda umuminsoniy madaniyatning tarkibiy qismi sifatida matematika to'grisidagi tasavvurlarni shakllantrish; - o'quv jarayonini demokratiyalashtirish, gumanitarlashtirishga erishish.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida matematik ta'limning vazifalari quyidagilar: son haqidagi tasavvurlarni rivojlantirish va xisoblashning inson tajribasidagi o'rnini ko'rsatish; xisoblashning amaliy ko'nikmalarini va xisoblash madaniyatini shakllantirish; algebrik amallarni bajarish ko'nikmalarini shakllantirish va ularning matematika va boshqa sohadagi masalalarni yechishda qo'llash; elementar funksiyalarning xossalari, grafiklarini o'rganish va ularni tabiatdagi mavjud munosabatlarni tahlil qilish hamda ularni bayon qilishda foydalanish; o'rganilayotgan tushuncha va uslublar hayotda va tabiatda ro'y berayotgan hodisalarni matematik modellashtirish vositasi ekanligi to'grisida tasavvurlarni shakllantirish; fazoviy jismlarning xossalarini o'rganishda bu xossalarning amaliyot masalalarini yechishga tadbiq qilish ko'nikmalarini shakllantirish.

Yosh avlodga hozirgi zamon fani yangiliklarini, uning murakkab qirralarini o'rgatish bilan bir qatorda o'tmish merosimizni o'rganishga imkoniyat tug'dirilishi lozim. Al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Axmad Fargoniy, Abu Ali Ibn Sino, Abu Rayxon Beruniy, Abul Vafo Buzjoniy, Fiyosiddin al-Koshiy, Umar Xayyom, Nasriddin At-Tusiy, Mirzo Ulug'beklarning va hozirgi zamon mashhur o'zbek matematiklarining matematika faniga qo'shgan xissalari haqida tushuncha berish maqsadga muvofik. Matematik ta'limning asosiy yo'nalishlari: son va xisoblashlar; tenglamalar va tengsizliklar; funksiyalar va grafiklar; geometrik shakllar va kattaliklar.

Bu yo'nalishlar bo'yicha standartda majburiy minimum belgilangan. O'quvchilarning matematik tayyorgarligiga qo'yiladigan talablarda:

a) matematik ta'lim jarayonida o'quvchilarga beriladigan imkoniyatlar bayon etiladi;

v)o'quvchilarning matematikadan egallashlari majbur bo'lgan bilim va malakalar, masalalar yechish ko'nikmalari ko'rsatiladi.

Shunday qilib, maktabda matematika o'qitish mazmuni va uni o'qitishni tashkil etish bo'yicha me'riy hujjatlarga DTS, o'quv rejasi va dastur kiradi. Ular matematika o'qitish mazmunini aniqlashni ta'minlaydi; har bir sinf o'quvchisi egallashi lozim bo'lgan ko'nikma va malakalar hajmini belgilaydi; dasturning maktabda o'qitish asosiy maqsadlariga mos kelishini va o'quvchilar matematik tayyorgarligini ta'minlashi uchun yetarliligini aniqlab beradi.

**REFERENCES**

Biz o'rganmoqchi bo'lgan isbotlashga doir algebraik masalalar asosan olimpiada materiallarida keng qo'llanilgan bo'lib, bunday ko'rinishdagi misollar asosan Matematikadan olimpiadalarga tayyorgarlik ko'rayotganlar uchun qo'l keladi. Biz bu isbotlashga doir algebraik masalalarimizning qisqaroq va qulayroq yechish usullarini keltirib o'tamiz. Biz o'rganayotgan masalalarning yechish usullari bizning shaxsiy tajribamizga asoslangan holda kelib chiqqan bo'lib avvalgi usullardan osonroq va tushunish hamda tushuntirish uchun qulayroq. O'ylaymizki bizning bu maqolamizdan o'zingizga kerakli bo'lgan zarur bilim va ko'nikmalarga ega bo'lasiz degan umiddamiz.

*Isbotlashga doir algebraik masalalar*

Isbotlashga doir algebraik masalalar algebrada keng qo'llanilib, ular orqali bir qancha murakkab matematik muammolarni hal qilish mumkin. Isbotlashga doir algebraik masalalar olimpidalarda ham berib boriladi. Buni quyidagi misollar yordamda qarab chiqamiz:

*1-misol.* $1^{2021}+2^{2021}+3^{2021}+\ldots+16^{2021}$ yig'indining 17 ga bo'linishini isbotlang.

*Yechish:* $a^{2n+1}+b^{2n+1}=(a+b)(a^{2n}-a^{2n-1}b+\ldots+ab^{2n-1}+b^{2n})$ tenglikdan foydlangan holda isbotni amalga oshiramiz.

$$1^{2021}+2^{2021}+3^{2021}+\ldots+16^{2021}=$$

$$=(1^{2021}+16^{2021})+(2^{2021}+15^{2021})+\ldots+(8^{2021}+9^{2021})=$$

$$=(1+16)(1^{2020}+\ldots+16^{2020})+(2+15)(2^{2020}+\ldots+15^{2020})+\ldots$$

*2–misol.* Ixtiyoriy natural son $n$ da $\dfrac{2n+1}{2n(n+1)}$ kasr qisqarmas ekanligini isbotlang.

*Yechish:* Berilgan kasrga teskari kasr qisqarmas ekanini ko'rsatsak yetarli.

$$\frac{2n(n+1)}{2n+1} = n + \frac{n}{2n+1} = n + \frac{1}{2} \cdot \frac{2n}{2n+1}$$

$2n$ va $2n+1$ lar ketma-ket kelgan sonlar bo'lgani uchun $\frac{2n}{2n+1}$ kasr qisqarmas kasr bo'ladi.

Demak $\frac{2n(n+1)}{2n+1}$ kasr ham qisqarmas kasr bo'lar ekan.

*3–misol.* $a,b>3$ tup sonlar bo'lsa , u holda $a^2-b^2$ ni 24 ga bo'linishini isbotlang

*Yechish:* Har qanday 3 dan katta tub sonning kvadratini 3 ga bo'lganda 1 qoldiq qoladi. U holda $a^2-b^2$ ifoda 3 ga karrali. Ixtiyoriy 3 dan katta tub sonning kavadratini 4 ga bo'lganda 1 va 3 qoldiqlar qolishini hisobga olsak, $a^2-b^2$ ifoda 8 ga karrali ekani kelib chiqadi. Demak bir vaqtning o'zida ham 3 ga ham 8 ga karrali son 24 ga bo'linadi.

*4–misol* $n$ ning ixtiyoriy qiymatida $n^3+3n^2+5n+3$ ifodaning $3$ ga bo'linishini isbotlang.

*Yechish:* Oldin berilgan ifodani ko'paytuvchilarga jaratamiz:

$$n^3+3n^2+5n+3 = n^3+n^2+2n^2+2n+3n+3 =$$

$$= n^2(n+1)+2n(n+1)+3(n+1) = (n+1)(n^2+2n+3) =$$

$$= (n+1)(n(n+2)+3) = n(n+1)(n+2)+3(n+1)$$

Uchta ketma-ket kelgan sonlar ko'paytmasi 3 karrali. Demak $n(n+1)(n+2)$ ko'paytma 3 ga karrali. Qo'shiluvchilarning har biri 3 ga karrali bo'lgani uchun yig'indi ham 3 ga karrali bo'ladi.

*5–misol* Ixtiyoriy natural son uchun $7n^2+1$ ifodani 3 ga bo'linmasligini isbotlang.

*Yechish:* Ixtiyoriy natural sonni $n=3m$, $n=3m+1$ va $n=3m+2$ ko'rinishida tasvirlash mumkin. Bizga berilgan ifoda bularning hech birida 3 ga bo'linmaydi.

*6–misol.* Ixtiyriy natural $n$ uchun $\frac{n^3}{6}+\frac{n^2}{2}+\frac{n}{3}$ kasr natural son ekanini isbotlang

*Yechish:* Ixtiyriy natural  uchun $\frac{n^3}{6}+\frac{n^2}{2}+\frac{n}{3}$ kasr natural son ekanini isbotlang

$$\frac{n^3}{6}+\frac{n^2}{2}+\frac{n}{3} = \frac{n^3+3n^2+2n}{6} = \frac{n(n+1)(n+2)}{6}$$

Ixtiyoriy ikkita ketma-ket kelgan sonlar ko'paytmasi 2 ga, ixtiyoriy 3 ta ketma-ket kelgan sonlar ko'paytmasi 3 karrali ekanidan $n(n+1)(n+2)$ ifodaning 6 ga karrali ekani kelib chiqadi. Demak berilgan ifoda natural son

*Mustaqil yechish uchun:*

1. Natural $n$ sonda $n^4+2n^3+2n^2+2n+1$ ko'phad to'la kvadrat bo'la olmasligini isbotlang.

2. Ixtiyoriy natural son $n$ da $\frac{10^{2n-2}+2}{3}+\frac{10^{3n-3}+2^3}{3^2}$ ifoda butun songa teng bo'lishini isbotlang.

3. Agar $a, b, c$ natural sonlar uchun $a^2+b^2=c^2$ tenglik o'rinli bo'lsa, $a$ va $b$ sonlardan hech bo'lmaganda bittasi 3 ga karrali ekani isbotlang.

4. $(6n-5)^2-(5n-6)^2$ ifodaning qiymati istalgan $n$ butun son uchun 11 ga bo'linishini isbotlang.

**REFERENCES**

1. Ayupov Sh.,Rihsiyev B.,Quchqorov O. "Matematika olimpiadalari masalari" 1,2 qismlar.T.:Fan,2004
2. Bahodir Kamolov, Ne'matjon Kamalov. Matematikadan bilimlar bellashuvi va olimpiada masalalari. "Quvanchbek-Mashhura" MCHJ nashriyoti, 2018y
3. Abdiyev.uz web sayti materiallari.

# TA'LIMDA TEXNOLOGIK JARAYONLAR HAQIDA

**Jurayeva Nargiza Abdulxapizovna**
Namangan viloyati Uychi tumani 40-IDUM texnologiya fani o'qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7524478

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada ta'lim va ta'limiy texnologiyalar borasida ma'lumotlar adabiyotlar asosida yoritib berishga harakat qilinadi.*

***Kalit so'zlar:*** *Pedagogik texnologiya, «texnologiya», «texnologik jarayon», o'quv jarayonini texnologiyalashtirish.*

## О ТЕХНОЛОГИЧЕСКИХ ПРОЦЕССАХ В ОБРАЗОВАНИИ

***Аннотация.*** *В данной статье делается попытка уточнить информацию об образовании и образовательных технологиях на основе литературы.*

***Ключевые слова:*** *Педагогическая технология, «технология», «технологический процесс», технологизация образовательного процесса.*

## ABOUT TECHNOLOGICAL PROCESSES IN EDUCATION

***Abstract.*** *In this article, information about education and educational technologies is tried to be clarified on the basis of literature.*

***Key words:*** *Pedagogical technology, "technology", "technological process", technologicalization of the educational process.*

"Texnologiya" tushunchasi texnikaviy taraqqiyot bilan bog'liq holda fanga 1872-yilda kirib keldi va yunoncha ikki so'zdan texnos- san`at, hunar va logos-fan, ta`limot so'zlaridan tashkil topib, "hunar fani" ma`nosini anglatadi. Biroq bu ifoda texnologik jarayonni to'liq tavsiflab berolmaydi, texnologik jarayon har doim zaruriy vositalar va sharoitlardan foydalangan holda amallarni (operatsiyalarni) muayyan ketma-ketlikda bajarishni ko'zda tutadi.

Yanada aniqroq aytadigan bo'lsak, texnologik jarayon, bu – mehnat qurollari bilan mehnat ob`ektlari (xom ashyo) ga bosqichma- bosqich ta`sir etish natijasida mahsulot yaratish borasidagi ishchi (ishchi-mashina) ning faoliyatidir.

«Pedagogik texnologiya» so'z birikmasi asosida «texnologiya», «texnologik jarayon» tushunchalari yotadi. Ushbu tushunchalar orqali sanoatda tayyor mahsulotni olish uchun bajariladigan ishlarning ketma-ketligi haqidagi texnik hujjat, ta'limda esa fan bo'yicha uslubiy tadbirlar majmuasi tushuniladi.

Pedagogik texnologiyani tushunishning asosiy yo'li aniq belgilangan maqsadlarga qaratish, ta'lim oluvchi bilan muntazam o'zaro aloqani o'rnatish, pedagogik texnologiyaning falsafiy asosi hisoblangan ta'lim oluvchining xatti-harakati orqali o'qitishdir. O'zaro aloqa pedagogik texnologiya asosini tashkil qilib, o'quv jarayonini to'liq qamrab olishi kerak.

Texnologiya deganda sub'ekt tomonidan kiritilgan ta'sir natijasida sub'ektda sifat o'zgarishiga olib keluvchi jaraen tushuniladi. Texnologiya g'ar doim zaruriyat vositalar va sharoitlardan foydalanib, ob'ektga yo'naltirilgan maqsadni amallarni muayyan ketma-ketlikda bajarishni ko'zda tutadi.

Texnologiya – zamonaviy ilmiy-amaliy tafakkur mahsuli degan xulosaga kelish mumkin. U faoliyatni tubdan takomillashtirishga, uning natijaviyligini, tezkorligini, texnikaviy qurollanganligini oshirishga oid amaliy tadqiqotlar yo'nalishini aks ettiradi.

Shunday qilib, "texnologiya" deganda insonning aniq, murakkab jarayonni ketma-ketli o'zaro bogliq mualaja va amallar tizimiga taqsimlash yo'li bilan kafolatli natijaga erishish

maqsadida amalga oshiriladigan usullar tushuniladi.

Texnologiya (jarayon sifatida) uchta qoida bilan tavsiflanadi:

- jarayonni o'zaro bog'liq bosqichlarga taqsimlash;
- izlanayotgan natijaga (belgilangan maqsad) erishishga qaratilgan harakatlarni izchil va bosqichma-bosqich bajarish;
- qo'yilgan maqsadga mos natijaga erishishning zaruriy sharti hisoblangan texnologik mualaja va amallarni bajarishning alohida ahamiyat kasb etishi.

Hozirgi kunda jahon miqiyosida ishlab chiqarilgan va foydalanilgan texnologiyalarni ikki turga bo'lish mumkin: sanoat va ijtimoiy texnologiyalardir. Ijtimoiy texnologiyalar har qanday sharoitga moslasha oladi.

Pedagogik texnologiyaga asoslangan ta'lim jarayonida o'qituvchi faoliyati va o'quvchi faoliyati doirasi aniq belgilanadi, ta'limni tashkil etishning aniq texnologiyasi ko'rsatiladi.

Ishlab chiqarishda texnologiya so'zidan kelib chiqadigan quyidagi tushunchalar ishlatiladi:

*Texnologik jarayon*- ishlab chiqariladigan mahsulotga ishlov berishning yagona jarayonini hosil qiluvchi texnologik operatsiyalarning yig'indisi.

*Texnologik operasiya* - ishchi tomonidan o'zining ish joyida bajariladigan, yakuniga yetkazilgan harakat ko'rinishidagi jarayonning bir qismi.

*Texnologik xarita* - ma`lum bir mahsulotni ishlab chiqarish texnologik operatsiyalarini ketma-ketligini bayon qiluvchi texnik hujjat.

*Texnologik rejim* - texnologik operatsiyalarni amalga oshirishni belgilovchi tartib bo'lib, ma`lum bir mahsulotni ishlab chiqarishda bajariladigan operatsiyalarning vaqti, shartlarini belgilaydi.

Ana shu ta`rif va tushunchalarni o'quv jarayoniga ko'chirsak quyidagi xulosaga kelish mumkin:

*Pedagogik texnologiya* - bu o'qituvchining o'quvchilarga o'qitish vositalari yordamida muayyan sharoitlarda ta`sir ko'rsatishi va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda oldindan belgilangan shaxs sifatlarini intensiv shakllantirish jarayonidir.

Pedagogik texnologiya - o'quv jarayonini texnologiyalashtirishni butunligicha aniqlovchi tizimli kategoriya. Pedagogik nashrlarda «o'qitish texnologiyasi», «ta`lim texnologiyasi» tushunchalari ham ishlatiladi.

**REFERENCES**

1. Karimov I.A. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.- T., "O'zbekiston", 1997.
2. www.ziyonet.uz
3. U.Y.Elmurodov "O'qituvchi va o'quvchi yoshlarda kompetensiyani shakllantirish samaradorligini oshirish"

# HEURISTICS IN ARCHITECTURE.
# (HEURISTIC METHODS).

**Makhamova Makhbura**
Teacher of the Department, Architectural Design, Samarkand state Architectural and Civil engineering university, Uzbekistan.

https://doi.org/10.5281/zenodo.7524503

***Abstract.*** *The purpose of the article is to consider the features of the science of Heuristics, which explores creative activity in architecture. It also considers heuristic methods with examples.*

***Key words:*** *Heuristics, neology, exoteria, analogy, fragmentation, impulsation, inversion.*

# ЭВРИСТИКА В АРХИТЕКТУРЕ.
# (ЭВРИСТИЧЕСКИЕ МЕТОДЫ).

***Аннотация.*** *Цель статьи - рассмотреть особенности науки эвристики, исследующей творческую деятельность в архитектуре. Также рассматриваются эвристические методы с примерами.*

***Ключевые слова:*** *эвристика, неология, экзотерия, аналогия, фрагментация, импульсация, инверсия.*

Architects around the world are looking for new ideas to create new works. Therefore, a creative search in design is important, for the development of non-standard design thinking of the architect and for the expansion of production to maintain the level of technology.

Heuristics (from the ancient. ευρίσκω - "I search", "discover") is a science that studies the creative activity of a person. The term "eureka" is used to express joy when solving a problem, when a successful thought, idea, or "enlightenment" appears. The list of heuristics is wide: the question of the specific features of creative activity, the structure, stages of the creative process, types of creative activity, talent and genius, the role of motivational and personal factors in creative activity, the role of scientific methods in productive thinking, the style of thinking in science and creativity.

Heuristics is a learning system that originated in ancient Greece. Socrates was its author. The most intensive search and development of heuristic methods has been taken up since the second half of the 20th century.

The main goal of using heuristics in architectural creativity is to minimize the time, cost and effort spent in the process of solving a problem.

Many modern architects have their own individual design methodology. Briefly explained, Heuristics in architecture include: reason, goal, task, method, abstraction, etc. At the moment, about 40 methods for solving the use of heuristic techniques and varying degrees of consistency are known.

We can single out the following most commonly used heuristic methods, the name and number of which are conditional and can be supplemented independently.

Neology - techniques associated with the transfer of new values of any indicators from one area to another.



Residential complex Eden. Architect Thomas Heatherwick. Singapore.

An example is the project called Eden, which author Thomas Heatherwick of Heatherwick Studio sees as an alternative to standard glass and steel towers, as well as a desire to exploit the relationship between built and natural environments. Instead of a hermetically sealed box, the designers created an open home paired with organic, lush vegetation to complement the balconies. Residents of the city have already nicknamed the new building the "vertical palace of nature".

Analogy (Greek analogia - correspondence, similarity) - techniques where similarity is used, similarity in some respect of the projected indicators of an object with those already known.



*Burj Al Arab Hotel, architect Tom Wright, Dubai, UAE.*

The well-known "Architecture of the Burj Al Arab hotel built in Dubai, the building becomes a symbol when its forms are simple and at the same time unique. When they are instantly recognizable, and immediately there is an association with the country where the building itself is located. In a world of such no more than ten: the Sydney Opera House, the Egyptian Pyramids, the Eiffel Tower, etc. Burj Al Arab is an image that can be drawn with just a few strokes. It has become the image of a sail blown by the wind.

Endomorphism (Greek endon - inside and morphe - form) are techniques that consider the internal relationship of the indicators of objects in various spheres.

House Mila (Casa Mila) is one of the early successful projects of the famous architect Antonio Gaudi, distinguished by its unique architecture. The curved facade of the Mila House is made of reinforced concrete and limestone blocks, and the balustrades are decorated with wrought iron bars resembling a grapevine.



*House of Mila, architect Antoni Gaudí, Spain.*

Designed by architect Frank Gehry for the Walt Disney Concert Hall in Los Angeles. The heart of one of the world's most sophisticated acoustic venues. The bizarre shape of the building is the sound of an atypical organ expressed in architecture. Adaptation (lat. adaptatio - adapt) - techniques associated with the adaptation of processes, structures, forms, materials to specific environmental conditions. Merging with the environment.



*Walt Disney Concert Hall, architect Frank Gehry, Los Angeles.*



*NN, architect Max Margorsky, Russia. Moscow.*

The project of a private residence in the Moscow region, which was developed by well-known architects Juergen Mayer and Max Margorsky from Germany and Alexander Erman, demonstrates not only the unique unity of architecture and landscape, but also completely changes the idea of building in natural areas on large areas. The perfect fusion of architecture and nature.

Impulse (lat. Impulsus - push) - techniques associated with impulse intermittent changes in object indicators in time and space.

Architecture as "frozen music": buildings that can be listened to. Architecture and music are really closely related and in tune with each other. Music is invisible and architecture is inaudible, but associatively one can “see” music and “hear” architecture.



*Philips Pavilion "Electronic Poem", architect Le Corbusier, Brussels, Belgium*

Inversion (lag. inversio - permutation) - techniques associated with changing the order of the links of the object's indicators to the opposite.



*Project 300-meter skyscraper, vice versa. Mexico City*

Specialists of the architectural bureau BNKR Arquitectura have developed a unique project for a huge underground structure. The pyramid has a height of 300 and a base of 240 by 240 meters. The building must be located in the central city square of Mexico City, without violating her appearance.

Exoteria - (Greek exoterikos - external) - techniques that consider external relationships between the indicators of objects.



*Milwaukee Museum, architect Santiago Calatrava, Milwaukee, USA.*

The snow-white creations of Santiago Calatrava, whose "wings" change their position depending on the movement of the sun.

Fragmentation - (lat. fragmentum - a fragment, a piece) - techniques associated with dividing, splitting and dividing indicators.



*Residential complex in Romainville, architect Brenac Gonzalez, France, Paris.*

Residential complex in Romainville. Apartments of various types open into the green courtyard, including townhouses with their own garden, apartments in the building with steps-terraces or with access to the roof with trees and space for relaxation (it was created there thanks to the efficient location of engineering equipment). But the most interesting thing is the balconies sheathed with wood on the facades and “tree houses”, terraces at the level of the second floor, where private bridges lead from the apartments. They give life to the whole complex.

To consider all the methods included in this list, a multi-volume book would not be enough. Therefore, we limited ourselves to a few examples. Despite the fact that the activities were carried out in different areas and at different times, but the heuristic approach in architecture determines their creative activity. There is still a long way to go before understanding the possibilities of communication between heuristics in architecture - we still understand too little. In addition, there are many different schools and trends in heuristics, each of which can be associated with different aspects of architecture. Studying about the possible connections of heuristics in practice with architecture, I come to the conclusion about the dual meaning of heuristics for the architect. In this perspective, I see the role of heuristics as one of

the supporting disciplines - along with theology, psychology, methodology, philosophy - or even as a core-oriented course.

Architecture in modern times took a sharp turn on the path, both in the field of connection with the technical sciences and in the field of socio-cultural norms.

The proposed methodology, based on a systematic approach, a heuristic approach, can make it possible to more effectively and quickly solve the tasks.

**REFERENCES**

1. Sarkisov S.K. Fundamentals of architectural heuristics: a textbook. M.: Architecture - S, 2004.
2. Pushkin V.N. Heuristics is the science of creative thinking. — M.: Politizdat, 1967.
3. Mikhelkevich V. N., Radomsky V. M. Fundamentals of scientific and technical creativity. - Rostov-on-Don.: Phoenix, 2004.
4. Akin O. Psychology of architectural design: Translation from English. Yu.A. Plotnikov. - M.: Stroyizdat, 1996.
5. https://science-education.ru/ru/article/view?id=19405
6. 6.http://www.dslib.net/teoria-kultury/jevristicheskie-metody-v-issledovanii-kompozicii-proizvedenij-izobrazitelnogo.html

# ONA TILI VA ADABIYOT DARSLARIDA FANLARARO ALOQADORLIKNING AHAMIYATI

**Alimuhamedova Shahnoza G'ayratovna**
Toshkent shahar Uchtepa tumani 236 - maktab ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7524626

***Annotatsiya.*** *Maqolada ta'lim tizimiga integratsiya jarayonining kirib kelishi hamda ona tili va adabiyot darslarini o'qitishda integrativ yondashuvning ahamiyati haqida so'z boradi. Shuningdek, umumta'lim maktablarida ona tili va adabiyot darsliklarida berilgan mavzularni bir-biriga bog'lagan holda tushuntirish usullari va metodlarini ishlab chiqish ko'zda tutilgan.*

***Kalit so'zlar:*** *integratsiya, integrativ yondashuv, metod, tadqiqot, fanlararo aloqadorlik, yangi texnologiyalar.*

# ЗНАЧЕНИЕ МЕЖДИСЦИПЛИНАРНЫХ ОТНОШЕНИЙ НА УРОКАХ РОДНОГО ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

***Аннотация.*** *В статье говорится о внедрении процесса интеграции в систему образования и важности интегративного подхода в обучении на уроках родного языка и литературы. Также планируется разработать методы и способы объяснения в общеобразовательных школах, соединяя темы, данные в учебниках по родному языку и литературе.*

***Ключевые слова:*** *интеграция, интегративный подход, метод, исследование, междисциплинарность, новые технологии.*

# THE IMPORTANCE OF INTERDISCIPLINARY RELATIONSHIP IN MOTHER LANGUAGE AND LITERATURE LESSONS

***Abstract.*** *The article talks about the introduction of the process of integration into the education system and the importance of an integrative approach in teaching native language and literature classes. It is also planned to develop methods and methods of explanation in secondary schools, connecting the topics given in the mother tongue and literature textbooks.*

***Key words:*** *integration, integrative approach, method, research, interdisciplinarity, new technologies.*

Maktabda o'qitishdan ko'zlanadigan maqsad bu davlat ta'lim standartlarida belgilangan bilim va ko'nikmalarini o'quvchiga yetkazishdan iborat. Qachonki o'quvchi tomonidan bilim qabul qilinsa va tushunib yetilsa yoki o'quvchi malaka oshirish uchun mo'ljallangan topshiriqlarni amalda namoyish etib bera olsagina o'qitish muvaffaqiyatli kechdi deb hisoblasa bo'ladi.

Ona tili va adabiyot darslarida mavzularni o'rganishda o'quvchilarni qiziqtirish, bugungi kun talabi asosida interfaol metodlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda. Ona tili va adabiyot darslarini tashkillashda zamonaviy metodlardan foydalanishda, o'quvchining bilimi, yoshi hamda salohiyati hisobga olinsa maqsadga aniq erishiladi.

Shuningdek, ona tili va adabiyot darslarini tashkil etishda integrativ yondashuvdan keng foydalanish – o'quvchilarning fanga doir bilimlarini puxta o'zlashtirishida yetakchi samara beradi.

Keyingi yillarda ta'limda integrativ yondashuv jarayonlarini tadqiq qilishda ko'plab izlanishlar olib borildi. Shuningdek, ona tili va adabiyot darslarini integrativ o'qitishning samaradorligi va bu jarayonga xos ta'lim metodlarini ishlab chiqish kabi masalalar ko'ndalang

qo‘yildi. Xususan, A.G‘ulomov, H.Ne’matov, B.Ziyomuhammadov, B.Abdullayeva singari olimlarning ishlarida fanlararo integratsiyaning ona tili va adabiyot ta’limidagi o‘rni xususida qimmatli fikrlar uchraydi.

Til ta’limida integrativ yondashuv xususida U.Musayev, D.Yo‘ldosheva kabi pedagoglarlarning ilmiy izlanishlaridan ham ma’lumotlar olish mumkin. Jumladan, K.Mavlonovaning “Ona tili darslarini adabiyot darslari bilan badiiy matn orqali integratsiyalash masalalari” bo‘yicha olib borgan izlanishlari ham alohida ahamiyat ega.

**“Integratsiya”** - ayrim bo‘laklarning yoki elementlarning bir-biriga qo‘shilishi, bir butunga aylanishi, yaxlitlanishidir. “Integratsiya” tushunchasi XVIII asrdayoq Spenser tomonidan izohlangan edi. Integratsiyani tafakkur o‘stirish omili sifatida qarab, uni fanlararo aloqa va ta’lim shakllarini sintezlash tarzida talqin etish mumkin.

Ma’lumki, o‘quv fanlari miqdorini oshirish, albatta, har doim ham ijobiy natija beravermaydi. Chunki bugungi zamonaviy texnologiya son orqasidan quvish emas, balki sifat o‘zgarishlarining ham bo‘lishini taqozo etmoqda. Bu borada rivojlangan davlatlar tajribasidan foydalanish mumkin. Chunki ular allaqachon o‘z ta’lim tizimiga integratsiyani olib kirgan va integrativ fanlarni joriy qilgan. Buyuk Britaniya, Koreya, Shveysariya, Vengriya, AQSh, Rossiya va boshqalar shular jumlasidandir.

Bugungi kunda bizning ta’lim tizimimizga ham integratsiyalashish jarayoni kirib keldi. Integratsiya – “butun” degan ma’noni bildiradi, demak, bu tafakkur o‘sishi jarayonining turli qism va elementlarini bitta butunga birlashtirishdir. Bu esa, ta’limda fanlararo aloqadorlikni, fanlarni bir-biri bilan chambarchas bog‘liq holda o‘qitishni ko‘rsatadi. Ta’lim tizimida ona tili darslarini olib borishda bu fanni bevosita adabiyot bilan bog‘lab o‘qitish yaxshi natija beradi. Masalan, 5-sinf ona tili darsligini olaylik.

Ushbu darslikda “Leksikologiya” bo‘limini o‘rganish uchun 39 soat ajratilgan. Bu bo‘lim va undagi mavzularni adabiyot faniga bog‘lagan holda badiiy asarlar, hikmatli so‘z va maqollar, she’rlar orqali tahlil etilsa, bu ham ta’limiy, ham tarbiyaviy mohiyat kasb etadi. Quyidagi 6-sinf adabiyot darsligidan olingan parcha O‘tkir Hoshimovning “Urushning so‘nggi qurboni” hikoyasidan olingan bo’lib, o‘quvchilar parchada ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarni tahlil qilish orqali, har bir so‘zning lug‘aviy ma’nosini, salbiy va ijobiylik xususiyatini farqlab, badiiy asarni yanada teranroq anglab yetadi. *“**Ziqna** bo‘lmay, o‘l! – deb o‘yladi xotinini so‘kib, – azaldan **qurumsoq** edi, zamon og‘irlashgandan buyon battar bo‘ldi”.*

Umumiy o‘rta ta’lim bosqichlarida, mavzular oddiydan murakkabga tomon o‘sib boradi. Masalan, 9-sinfda o‘quvchilar ona tili darslarida badiiy matnning til xususiyatlarini, uslublarini bilishlari, shu orqali o‘z nutq madaniyatini rivojlantirishda bajariladigan ish turlaridan biri undan biror til hodisasi yoki uslubini aniqlash va izohlash, nutq uslublarini bir-biridan farqlay olishlari kerak bo‘ladi.

Buning uchun o‘qituvchidan nazariy bilimlarni yetkazib berish va ularni amalda qo‘llay olish uchun o‘quvchilarda yetarli ko‘nikma va malakalarni hosil qilish talab etiladi. Bunda dastlab o‘qituvchi nutq uslublari haqida umumiy ma’lumot beradi va o‘quvchilarga kerakli manbalarni yozdirib o‘tadi. Yangi mavzu bayonidan so‘ng o‘qituvchi mavzuni bevosita boshqa fanlar bilan bog‘laydi. Buning uchun o‘qituvchi o‘quvchilar qo‘liga har xil turdagi matnlar aks etgan tarqatma materillarni tarqatadi. Bu bilan o‘qituvchi darsning qiziqarli o‘tishi va shu bilan bir qatorda o‘quvchining faol bo‘lishiga imkon yaratadi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, ona tili darslarini adabiyot bilan uygʻunlikda olib borish, oʻquvchilarning badiiy-estetik dunyoqarashini yanada boyitadi. Ona tilida darslarida yangi mavzuni tushuntirishda adabiyot darsligida berilgan hikoya, she'r, maqol, hikmatli so'zlar va badiiy asarlardan misollar keltirib, darsni integrativ tarzda tashkil etish maqsadga muvofiq boʻladi. Bu keyinchalik ularning ilmiy salohiyatini yanada oshirishga, oliy ta'limda tahlil yuzasidan bilim, koʻnikma, malakalarga ega boʻlib, til boʻyicha nazariy ma'lumotlarini mustahkamlab borishda yordam beradi.

**REFERENCES**

1. Mavlonova, K. (2016). Ona tili darslarida badiiy matnning til xususiyatlarini integratsiyalash asosida oʻrganish metodikasi. Mashhur-press.
2. Musayev, U. (2002). Integratsiya darajalari. Xalq ta'limi - №6
3. Oʻzbek tilining izohli lug'ati. (1981). M.: Русский язык.
4. Холиқова, Н. (2020). Ўзбек мумтоз адабиётида хотин-қизлар образининг бадиий тадрижи (Ширин образи мисолида). Academic research in educational sciences, (3).
5. Kholikova, N. D. (2020). The genesis and poetic evolution of character Shirin. Alisher Navoi and the XXI centure.
6. Djokhongirovna, K. N. (2020). The period of national awakening in uzbek poetry echo of the treasure voice of the nation. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, 24(6), 4045-4054.

# BOSHLANG'ICH SINFLARGA TABIIY FANLARNI O'QITISHDA STEAM TA'LIM DASTURINING AHAMIYATI.

**Ergashova Mo'taram Sa'dullayevna**
Navoiy viloyati G'ozg'on shahar 1- maktabning Boshlang'ich sinf Oliy toifali o'qituvchisi.

https://doi.org/10.5281/zenodo.7524649

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada STEAM ta'limi metodikasi orqali tabiiy va aniq fanlar masalalarini tadqiq qilish, STEAM ta'lim tizimini o'rganish va tadbiq etishdagi jarayonlar keltirib o'tilgan.*

**Kalit so'zlar:** *STEAM metodika, STEAM fanlar, STEAM ta'limi, matematik model.*

# ЗНАЧЕНИЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ПРОГРАММЫ STEAM В ПРЕПОДАВАНИИ ЕСТЕСТВЕННЫХ НАУК В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ.

**Аннотация.** *В данной статье представлены процессы исследования вопросов естественных и конкретных наук, изучения и применения системы образования STEAM через методологию образования STEAM.*

**Ключевые слова:** *STEAM-методология, STEAM-науки, STEAM-образование, математическая модель.*

# THE IMPORTANCE OF THE STEAM EDUCATIONAL PROGRAM IN TEACHING NATURAL SCIENCES TO PRIMARY CLASSES.

**Abstract.** *In this article, the processes of researching the issues of natural and concrete sciences, studying and applying the STEAM education system through the STEAM education methodology are mentioned.*

**Key words:** *STEAM methodology, STEAM sciences, STEAM education, mathematical model.*

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrdagi “Xalq ta`limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to`g`risida”gi № PP-3931-son qarori bilan tasdiqlangan “2018-2021 yillarda O`zbekiston Respublikasi xalq ta`limi tizimini yanada takomillashtirish bo`yicha chora tadbirlar dasturi” ning II bo`lim, 11-bandida: Umumiy o`rta ta`limning yangi davlat ta`lim standartlari va o`quv dasturlarini takomillashtirish va shu bilan birga STEAM (fan, texnologiya, muhandislik va matematika) metodlarini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish belgilab berildi.

Mazkur vazifalarni bajarish uchun avvalo ta`lim ishtirokchilari–pedagoglar, metodistlar, o`quvchilar, ota-onalar va boshqalar STEAM metodi va ta`lim sifati yo`nalishida o`tkaziladigan xalqaro tadqiqotlar xaqida ma`lumotlarni bilishi hamda ularni amaliyotda qo`llashi uchun malakalarga ega bo`lishlari zarur bo`ladi.

STEM / STEAM / STREAM yangi yondashuvlari rivojlangan davlatlarda keng qo`llanilib, jahon hamjamiyati tomonidan ijobiy baholanmoqda.

Ta'lim beruvchi talabalarga fanning xususiyatidan kelib chiqib ta'lim metodlarini to'g'ri tanlashi sifatli ta'limning garovi hisoblanadi. Biz taklif qilayotgan STEAM ta'limi metodikasi, ya'ni STEAM metodika-bu metodika boshqa metodikalardan shunisi bilan farq qiladiki bunda STEAM fanlar bir-biri bilan integratsiyalashadi. Fanlarni bir mavzusini o'rganishi davomida boshqa fanlar mavzulari ushbu fan mavzusini o'zlashtirishga yordam beradi.

STEAM yondashuvi o`quv samaradorligiga qanday ta`sir qiladi? Uning asosiy g`oyasi shundan iboratki, amaliyot nazariy bilimlar singari muhimdir. Ya`ni, o`rganish paytida biz

nafaqat miyamiz bilan, balki qo`limiz bilan ham ishlashimiz kerak. Faqat sinf devorlarida o`rganish tez o`zgaruvchan dunyo bilan hamqadam emas. STEAM yondashuvining asosiy farqi shundaki, bolalar turli xil mavzularni muvaffaqiyatli o`rganish uchun ham miyani, ham qo`llarini ishlatadilar. Ular olgan bilimlarni o`zlari uqib oladilar. STEAM ta`limi nafaqat o`qitish usuli, balki mantiqiy fikrlash ta`limidir. Ta`lim berishni o`quv fanlari bo`yicha emas, balki "mavzu"lar bo`yicha integratsiyalab olib borish. STEM – ta`limida fanlararo aloqa va loyihalash metodi birlashtirilgan bo`lib, uning asosida tabiiy fanlarni texnologiyaga, muhandislik ijodiyotga va matematikaga integratsiya qilish yotadi. Bunda muhandislik bilan bog`liq kasblarga bo`lgan tayyorgarlik amalga oshiriladi.

Boshlang'ich ta'limda STEAM – ta'limning vazifasi o'quvchilarni tabiiy va texnik fanlarga bo'lgan qiziqishlarini rivojlantirishdan iborat. Bajaradigan ishini sevib bajarish, qiziqishlarini rivojlantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Bugungi kunda barkamol avlodni tarbiyalash muhim vazifalardan biri sanaladi. Bu vazifani bajarish, asosan pedagoglarga bog`liq bo`ladi.Shu maqsadda yoshlarni bilim olishga katta e`tibor qaratish lozim.Yurtboshimiz ta`kidlaganidek yoshlarni erkin fikrlash va mustaqil hayotga yo`naltirishimiz kerak.

Bu borada STEAM texnologiyasi bizga qo`l keladi. STEAM - tabiiy fanlar, texnologiya, muhandislik, san`at va matematika fanlarini uyg`unlikda o`qitish uslubidir. STEAM texnologiyasida nazariy va amaliy bilimlar uyg`unligiga e`tibor qaratiladi. STEAM ta`lim muhitida bolalar bilimga ega bo`ladilar va darhol undan foydalanishni o`rganadilar.Milliy dastur asosida ishlab chiqilgan 1-4 sinflarning ona tili va o`qish savodxonligi,tabiiy, matematika darsliklarida berilgan mavzularga STEAM texnologiyasi asosida yondashib,darslar tashkil etsa bo`ladi.Xususan tabiiy fanlarda har bir mavzu nazariy ham amaliy tarzda berilgan. Jumladan 2-sinf tabiiy fanida Yer- sayyora mavzusi berilgan. Bu mavzuni o`rganishda o`quvchilar nazariy bilim bilan birga amaliy mashg`ulot ham o`tkazishadi.

O`quvchilar yer shari,quyosh modelini yasashadi.Bu bilan ular yer shari quyosh atrofida aylanishini amaliy bilib oladilar shu bilan birga yer sharining global muammolarini bartaraf etish choralarini o`ylab topishadi.Bir shu mavzu asosida o`quvchilarni bilishga,fikrlashga,mustaqil ishlashga,ijodkorlikka undash mumkin.

Nafaqat darslarda balki sinfdan tashqari mashg`ulotlarda ham STEAM texnologiyasidan oqilona foydalanish kerak. Mashg`ulotlarni tashkil etishda kasb,hunar egalari taklif etilsa, ular o`z kasblari haqida nazariy bilim bilan birga amaliy ko`rsatib bersa, bu bolalarda yaxshi taassurot qoldiradi.Kelajakda kasb tanlashda, o`z yo`nalishini topib oladilar.Xulosa qilib aytganda, STEAM yondashuvi bolalarni tajribalar o`tkazishga,modellar tuzishga,mustaqil fikrlashga,g`oyalarni ilgari surishga undaydi.

Xulosa qilib aytganda, an'anaviy o'qitish uslublari bilan taqqoslaganda, o'rta maktabdagi STEAM yondashuvi bolalarni tajribalar o'tkazishga, modellartuzishga, mustaqil ravishda musiqa va filmlar yaratishga, o'z g'oyalarini haqiqatga aylantirishga va yakuniy mahsulotni yaratishga undaydi. Ushbu ta'lim yondashuvi bolalarga nazariy va amaliy ko'nikmalarni samarali tarzda birlashtirishga imkon beradi.

## REFERENCES

1. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentyabrdagi "Xalq ta`limi boshqaruv tizimini takomillashtirish bo`yicha qo`shimcha chora-tadbirlar

to`g`risida"gi PFRQ – 5538son farmoni. "O`zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to`plami", 2018-yil 10-sentyabr, 36-son, 722-modda.

2. Ivanova O. L. Gigiena polosti rta. Razdel "Pravilnaya chistka zubov" - M.: "Sofiya", Moskva, 2003.
3. X.M.Baybayeva "STEAM ta'limi mazmun-mohiyati,ahamiyati" ma'ruza matni.
4. STEM for all edicational leadership, december 2014/ january 2015.
5. O`zbekiston Respublikasi Oliy va o`rta maxsus ta`lim vazirligining elektron sayti: www.edu.uz
6. O`zbekiston Respublikasi Xalq ta`limi vazirligining elektron sayti: www.uzedu.uz http://www.rtm.uz – Respublika ta`lim markazi sayti.

# БОЛАЛАР ФОЛЬКЛОР ЖАНРЛАРИ ВА ХАЛҚ ҚЎШИҚЛАРИ.

**Жумаева Шохидахон Шавкатовна**
Тошкент шахар Маданият бош бошқармаси тасарруфидаги Чилонзор туман, 15- сон Болалар мусиқа ва санъат мактаби хор синфи ўқитувчиси
normurodovlar@gmail.com

**https://doi.org/10.5281/zenodo.7524678**

***Аннотация.*** *Мақолада ўзбек халқ оғзаки ижоди жанрларига қисқача таъриф берилади. Болалар фольклори ва жанрлари; уларнинг бугунги кундаги ахамияти, болалар жамоа ижрочилигида қайта ишланган халқ қўшиқлари, ўқитиш услубиётида болалар фольклор жанрларидан самарали ва тўғри фойдалана олиш хақида сўзланади.*

***Калит сўзлар:*** *Халқ оғзаки ижодиёти, болалар фольклор жанрлари, жамоавий ижрочилик санъати, қайта ишланган халқ қўшиқлари.*

# ДЕТСКИЙ ФОЛЬКЛОР ЖАНРЫ И НАРОДНЫЕ ПЕСНИ.

***Аннотация:*** *В статье даётся краткий обзор жанров фольклора. Описывается роль и потребность детского фольклора на сегодняшний день, рациональное и правильное пользование обработками для детского коллективного исполнения при методе обучения детей.*

***Ключевые слова:*** *Устное народное творчество, жанры детского фольклора, коллективное исполнения, народные песни в переложении.*

# CHILDREN'S FOLKLORE GENRES AND FOLK SONGS.

***Abstract.*** *In this article the definition of genres in Uzbek folklore will be provided. The information such as Children's folklore and it's genres; it's importance in today's society; folk songs resung in children's team performance; using the genres of folk songs efficiently and correctly in teaching will be described.*

***Key words:*** *Folklore, the genres of children's folklorile, the performing arts collective, reworked folk songs.*

Мустақил диёримизда ўсиб келаётган хар бир ёш авлоднинг билим олиши, ўқиб ўрганиши учун барча имкониятлар яратиб берилган. Болаларнинг мактабдан ташқари бўш вақтларини мазмунли ўтказиш учун ташкил қилинаётган қўшимча таълим турларини кўпайтириш ва уларни ривожлантириш бугунги кундаги энг долзарб масалардан бири ҳисобланади. Ёш авлодни ўз касбининг етук мутахассиси қилиб тарбиялашда мактабларнинг ўрни беқиёс. Болалар мусиқа ва санъат мактаблари ҳам шулар жумласидандир.

Мусиқа санъати турлари ичида жамоавий куйлаш санъатининг ўзига хослиги, юқори ижро маданияти ва мукаммаллиги билан тингловчиларга ўзгача ҳузур бахш этади. Жамоавийлик- бу бирдамлик, дўстлик, биродарлик тушунчалари билан узвий боғлиқ деб ўйламайман. Жамоавий ижрочилик инсонга маънавий озуқа бериш билан бирга, уларнинг маданиятини, дунёқарашини, улардаги инсоний туйғуларни шакллантиришга катта ёрдам беради.

Мустақилликка эришганимиздан сўнг миллий қадриятларимизни тиклаш ва уларни ривожлантириш борасида турли ишлар олиб борилмоқда. Халқ оғзаки ижодиёти ва уни ўрганиш, ҳамда ўзлаштирилган билимларни ёш авлодга ўргатиш масаласи олдимизда турган жиддий масалалардан бири ҳисобланади. Кўплаб тадқиқотчилар ва тарихчи

олимлар қаторида буюк устозларимиз хам бу маъсулиятли ишга ўз ҳиссаларини қўшиб келмоқдалар. Халқ оғзаки ижоди намуналари асрлар давомида сайқалланиб бизгача етиб келди. Халқ оғзаки ижодиёти бизга ҳар бир халқ ва миллатнинг тарихи, ҳаёт тарзи, кечинмалари ва қарашлари ҳақида сўзлайди.

Болалар жамоавий ижрочилигида халқ қўшикларининг ўрни ва аҳамияти ҳақида тўхталадиган бўлсак, у қадимдан ҳозирги кунга қадар оғиздан оғизга ўтиб келаётган фольклор жанрларини ўз ичга олади. Ўзбек фольклорининг бир қисми ҳисобланган болалар халқ қўшиқлари ўзига хослиги ва бетакрорлиги билан ажралиб туради.

Мустақиллигимизнинг илк даврларини олиб қаралса, болалар жамоалари томонидан ижро этилган халқ қўшиқлари намуналарини учратишимиз мумкин ва бу анъаналар ҳозирги кунга қадар ривожланишда давом этиб келмокда. Болалигимизнинг беғубор дамларини эслаганимизда кўз олдимизда «Булбулча» ва «Томоша» болалар ашула ва ракс ансамбли ижролари гавдаланади. Мохирона қайта ишланган ва болалар учун мослаштирилган халқ қўшиқларидаги миллий колорит хар бир тингловчи эътиборини тортмай қолмайди.

Сўнги йилларда миллий қадриятларимиздан бахшичилик санъатини ва мақом санъатини ривожлантиришга катта эътибор қаратилаётган бир даврда болалар фольклори ижросини тарғиб қилиш учун яна ҳам кенг шароитлар яратиб берилмокда.Бунга мисол сифатида амалиётдаги танловлар, халқ йиғинлари, турли миқёсдаги тадбирлар ва сайлларни санаб ўтишимиз мумкин.

Халқ оғзаки ижодининг энг йирик жанри достончилик бўлиб, унда қаҳрамонлик, мардлик, меҳр-муҳаббат, инсонийлик фазилатлари, ёвузлик ва эзгулик курашлари ҳақида сўзланади. Халқ қўшиқлари ҳам мухим жанрлардан ҳисобланади ва унда меҳнаткаш халқ ҳаёти, уларнинг орзу интилишлари, туйғулари, муҳаббат, садоқат, дўстлик ва қардошлик муносабатлари тараннум этилади. Халқ қўшиқлари **маросим қўшиқлари**, **мавсумий қўшиқлар**, **меҳнат қўшиқлари**, **болалар қўшиқлари** каби турларга бўлиниб кетади.

Болалар фольклори ҳам ўз навбатида тез айтиш, топишмоқ, эртак, сакрамачоқ, турли болалар ўйинлари каби жанрлардан ташкил топган бўлиб, улар худудларга караб турлича бўлади. Болалар қўшиқларининг сўзлари содда ва куйлаб юриш учун қулай. Ва ўша соддалик ва оддийлик замирида беғубор болалик туйғулари ётади. Улар вокал-техник томондан куйлаш учун қулай ва аксарияти у қадар кенг бўлмаган диапазонга эга, ҳамда такрорланувчи – куплет шаклидан ташкил топган.

**Тез айтишлар** болаларни ақлий ривожланишига, ҳотира ва эслаб қолишни ривожлантиришга, энг асосийси тўғри талаффуз кўникмаларига эга бўлишга ёрдам беради.

**Топишмоқлар ва эртакларларда** гўзал инсоний фазилатлар, жасорат, камтарлик ҳақида сўзланади ва улар содда сўзлар йиғиндисидан ташкил топади. Улар ақлий тасаввурни бойитиш, зийраклик, синчиковлик ва мустақил фикрлаш кўникмаларини шакллантиришда муҳим аҳамиятга эга.

Хор дарсларини ташкил қилишда фанга ўқитишнинг ноанъанавий турлари сифатида болалар фольклор жанрлари намуналаридан кенг фойдаланган ҳолда янги методларни олиб кириш ва улардан мақсадли фойдаланиш мумкин. Тез айтишлардан овоз машқи турларини ишлаб чиқишда; топишмоқлардан викторина ўйинлари, ақлий хужум ўйинлари ва ақлни чарҳловчи машқларни ўтказишда; халқ эртаклари асосида эса болалар учун қисқа

метражли саҳнавий ижро дастурларини ва концерт дастурларини ўтказишда, шунингдек фан очиқ дарсларини ташкиллаштиришда унумли фойдаланишимиз мумкин.

Халқ қўшиқларининг қайта ишланган ва мослаштирилган турлари мавжуд бўлиб, нафақат катталар, балки болалар жамоа ижрочилигида ҳам улардан самарали фойдаланиб келинмоқда. Болалар қўшиқларини қайта ишлашда, мослаштиришда ёки устозлар томонидан қайта ишланган асарларни ижро этишда биз ўқитувчилардан юқори билим,зехн ва малака талаб қилинади. Бундан ташқари асарга ижодкорона ёндашиш хам муҳим жиҳатлардан биридир. Болалар учун асар танлашда аввало асарнинг мавзу жиҳатдан мослигига қаралса, бошқа томондан унинг ижро учун қулайлигига катта аҳамият бериш зарур. Асарнинг оҳангдорлиги болаларни ўзига ром этиши ва ижрода ноқулайлик туғдирмаслиги зарур. Баъзи халқ қўшиқлари янги матнлар билан ўзгартирилса, баъзилари эркин бадиҳагуйлик (импровизация ) орқали бойитилади. Болалар қўшиқларини хор учун қайта ишлашда кўповозликнинг гармоник, гомофонно-гармоник, имитацияли ва канон турларидан кенг фойдаланилади. Бу айниқса а-капелла жанрида ўзининг жозибасини ва таъсирчанлигини яққол намоён этади.А-капелла жанри деганда жўрсиз куйлаш, яъни бирон-бир асарни мусиқа асбоби жўрлигисиз факат овоз орқали ижро этиш тушунилади

Бугунги кунда кўплаб устозларимиз изидан бориб, уларнинг анъаналарини давом эттирган холда ижод қилаётган ва ёш авлодга мусиқа санъатининг турли йўналишларидан билим бериб келаётган истеъдодли, хамда изланувчан ёшларимиз кўпчиликни ташкил этмоқда. Ўзбек халқ қўшиқлари қаторида қардош миллатлар ва элатлар халқ қўшиқларини қайта ишлаб, уларни ижро этиш орқали мусиқа санъатимизни бойитиб келмоқдалар. Жамоавий ижрочилик билимлари ва кўникмаларини ўзлаштириш билан биргаликда миллийлик руҳини ўзида жам этган халқ қўшиқларини ўрганиш, хамда ёш авлодга уни ўргатиш орқали халк оғзаки ижодиётини ривожланишига ўз хиссамизни қўшган бўламиз. Устозлар анъаналарини давом эттириш биз ёшлар учун ҳам қарз ҳам фарздир.

**REFERENCES**

1.Жаҳонгиров F., Узбек болалар фольклори, Т., 1975;
2.Ўзбек халқ оғзаки поэтик ижоди, Т., 1980;
3.Сафаров О., Узбек болалар поэтик фольклори, Т., 1985.
4. Н.С.Шарафиева «Ўзбекистон тароналари». Тошкент- 2014 й.
5. Б.В.Шамахмудова «Хор лугати». Тошкент-2009 й.

## MATEMATIKA DARSLARIDA BILISHNING TURLARI VA XULOSA CHIQARISH METODLARI

**Yarbobayeva Muqaddas Mingboyevna**
Termiz shahar 9- umumiy o‘rta ta'lim maktabi matematika fani o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7528884

|***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada matematika darslarida bilishning turlari va xulosa chiqarish uchun metodlar haqida so’z boradi. Maqola davomida turli fikr-mulohazalar keltirilgan bo’lib, mavzu ilmiy asoslar bilan yoritilgan.*

***Kalit so’zlar:*** *psixologik, pedagogik va didaktik qonuniyatlar, hissiy bilish, idrok, ta’riflash, abstrakt-deduktiv metodi, aniq-induktiv metod, diagonal, burchak, kvadrat tenglama.*

## ВИДЫ ЗНАНИЙ И СПОСОБЫ ВЫВОДА НА УРОКАХ МАТЕМАТИКИ

***Аннотация.*** *В данной статье рассказывается о видах знаний и способах делать выводы на уроках математики. На протяжении всей статьи приводятся различные мнения, а тема освещается с научной точки зрения.*

***Ключевые слова:*** *психолого-педагогические и дидактические законы, эмоциональное знание, восприятие, описание, абстрактно-дедуктивный метод, точно-индуктивный метод, диагональ, угол, квадратное уравнение.*

## TYPES OF KNOWLEDGE AND METHODS OF CONCLUSION IN MATHEMATICS LESSONS

***Abstract.*** *This article talks about the types of knowledge and methods for drawing conclusions in mathematics classes. Throughout the article, various opinions are given, and the topic is covered with scientific foundations.*

***Key words:*** *psychological, pedagogical and didactic laws, emotional knowledge, perception, description, abstract-deductive method, exact-inductive method, diagonal, angle, quadratic equation.*

Biz ta'lim deyilganda o’qituvchi bilan o’quvchilar orasidagi ongli va maqsadga tomon yo’naltirilgan bilishga doir faoliyatni tushunamiz. Har qanday ta'lim o’z oldiga ikkita maqsadni qo'yadi.

1) O’quvchilarga dastur asosida o’rganilishi lozim bo’lgan zarur bilimlar sistemasini berish.

2) Matematik bilimlarni berish orqali o’quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish.

Ta'lim jarayonidagi ana shu ikki maqsad amalga oshishi uchun o’qituvchi har bir o’rgatilayotgan tushunchani psixologik, pedagogik va didaktik qonuniyatlar asosida tushuntirishi kerak. Buning natijasida o’quvchilar ongida bilish deb ataluvchi psixologik jarayon hosil bo’ladi.

Bizga falsafa kursidan ma'lumki, bilish jarayoni «jonli mushohadadan abstrakt tafakkurga va undan amaliyotga demakdir». Bundan ko’rinadiki, bilish jarayoni tafakkur qilishga bog’liq ekan. «Tafakkur bu inson ongida obyektiv olamning aktiv aks etishi demakdir» (Yu.M.Kolyagin. «Matematika o’qitish metodikasi», M., 1980 y, 57-bet).

Psixologik nuqtayi nazardan qaraganda bilish jarayoni ikki xil bo’ladi:

1) Hissiy bilish (sezgi, idrok va tasvvur).

Insonning hissiy bilishi uning sezgi va tasavvurlarida o’z ifodasini topadi. Inson sezgi a'zolari vositasida real dunyo bilan o’zaro aloqada bo’ladi. Bilish jarayonida sezgilar bilan birga

idrok ham ishtirok etadi. Sezgilar natijasida obyektiv olaraning subyektiv obrazi hosil bo’ladi, ana shu subyektiv obrazning inson ongida butunicha aks etishi idrok deb ataladi.

Tashqi olamdagi narsa va hodisalar inson miya po’stlog’ida sezish va idrok qilish orqali ma'lum bir iz qoldiradi. Oradan ma'lum bir vaqt o’tgach, ana shu izlar jadallashishi va biror narsa yoki hodisaning subyektiv obrazi sifatida qayta tiklanishi mumkin. Ana shu ob'ektiv olamning sub'ektiv obrazining ma'lum vaqt o’tgandan keyin qayta tiklanish jarayohi tasvvur deb ataladi.

2) Mantiqiy bilish (tushuncha, hukm va xulosa).

Har qanday mantiqiy bilish hissiy bilish orqali amalga oshadi, shuning uchun ham hap bir o’rganilayotgan matematik obyektdagi narsalar seziladi. Abstrakt nuqtayi nazardan idrok va tasavvur qilinadi, so’ngra ana shu o’rganilayotgan obyektdagi narsa to’g’risida ma'lum bir matematik tushuncha hosil bo’ladi.

T a ' r i f. *Matematik obyektdagi narsalarning asosiy xossalarini aks ettiruvchi tafakkur formasiga matematik tushuncha deyiladi.*

Har bir matematik tushuncha o’zining ikki tomoni, ya'ni mazmuni va hajmi bilan xarakterlanadi.

T a ' r i f. *Tushunchaning mazmuni deb, ana shu tushunchani ifodalovchi asosiy, xossalar to’ plamiga aytiladi.*

Masalan, to’g’ri to’rtburchak tushunchasini olaylik. To’g’ri to’rtburchak tushunchasining mazmuni quyidagi asosiy xossalar to’plamidan iboratdir:

1) To’g’ri to’rtburchak diagonali uni ikkita uchburchakka ajratadi.

2) Ichki qarama-qarshi burchaklarining yig’indisi 180° ga teng.

3) Diagonallari bir nuqtada kesishadi va shu nuqtada teng ikkiga bo’linadi.

T a ‘ r i f. *Tushunchaning hajmi deb, ana shu tushunchaga kirgan barcha obyektlar to'plamiga aytiladi.*

Masalan, to’rtburchak tushunchasining hajmi shu to’rtburchak tushunchasiga kirgan barcha to’rtburchak turlaridan, ya'ni parallelogramm, kvadrat, romb va trapetsiyadan iborat bo’ladi. Bundan to’rtburchak tushunchasining hajmi tomonlari uzunliklarining kattaligi turlicha bo’lgan barcha katta-kichik to’rtburchaklar tashkil qilishi ko’rinadi.

Bizga hajm jihatidan keng va mazmun jihatidan tor bo’lgan tushunchani jins tushunchasi, aksincha esa hajmi tor va mazmuni keng bo’lgan tushunchani tur tushunchasi deb yuritilishi psixologiya fanidan ma'lum.

1 - **m i s o** 1. Akslantirish tushunchasini olaylik. Bu tushunchadan ikkita, ya'ni qaytuvchi va qaytmaydigan akslantirish tushunchalari kelib chiqadi. Bu yerda akslantirish tushunchasi qaytuvchi va qaytmaydigan akslantirish tushunchalariga nisbatan jins tushunchasi, qaytuvchi va qaytmaydigan akslantirislilar esa akslantirish tushunchasiga nisbatan tur tushunchalari bo'ladi. Bu mulohazalardan jins tushunchasi tur tushunchalariga nisbatan hajm jihatidan keng va mazmun jihatidan tor tushuncha ekani ko’rinadi.

2 - **m i s o** 1. Ko’pburchak tushnuchasini olaylik. Bu tushunchadan ikkita qavariq va botiq ko’pburchak tushunchalari kelib chiqadi. Ko’pburchak tushunchasi til tushunchalariga nisbatan jins tushunchasi deb yuritiladi, chunki uning hajmi qavariq va botiq ko’pburchaklar hajmlaridan kattadir. Qavariq va botiq ko’pburchaklar esa ko’pburchak tushunchasiga nisbatan tur tushunchalari deb yuritiladi, chunki ulardan har birining hajmi ko’pburchak tushunchasining hajmidan kichik, ammo mazmunlari ko’pburchak tushunchasining mazmunidan katta.

**Matematik tushunchalarni ta'riflash metodikasi.**

Har bir fanda bo'lgani kabi matematika fanida ham ta'riflanadigan va ta'riflanmaydigan tushunchalar mavjud.

Maktab matematika kursida, shartli ravishda, ta'riflanmaydigan eng sodda tushunchalar qabul qilinadi. Jumladan, arifmetika kursida son tushunchasi va qo'shish amali, geometriya kursida esa tekislik, nuqta, masofa va to'g'ri chiziq tushunchalari ta'riflanmaydigan tushunchalardir. Bu tushunchalar yordamida boshqa matematik tushunchalar ta'riflanadi.

Ta'rif degan so'zning ma'nosi shundan iboratki, bunda qaralayotgan tushunchalami boshqalaridan farqlashga, fanga kiritilgan yangi termin mazmunini oydinlashtirishga imkon beruvchi mantiqiy usul tushuniladi.

Tushunchaning ta'rifi ingilizcha definitsiya (definito) so'zidan olingan bo'lib, «chegara» degan yoki «biror narsaning oxiri» degan ma'noni bildiradi.

**Matematik tushunchalarni kiritish metodikasi**

Maktab matematika kursida matematik tushunchalar ikki xil usulda kiritiladi:

1) Aniq-induktiv metod.

Bunda o'quvchilar avval o'qituv-chining topshiriqlarini bajargan holda o'rganilaybtgan tushunchaning umumiy xossalarini aniqlaydilar.

2) Matematik tushunchalarni kiritishning abstrakt - deduktiv metodi.

Bunda o'rganiladigan matematik tushuncha uchun ta'rif tayyor ko'rinishda oldindan aniq misol va masalalar yordamida tushuntirilmasdan kiritiladi. Masalan, 7-sinfda o'tiladigan to'la kvadrat tenglama tushunchasi abstrakt-deduktiv metod orqali kiritiladi.

1. Kvadrat tenglama tushunchasiga ta'rif beriladi.

T a ' r i f . $ax^2+bx+c=0$ ko'rinishidagi tenglamalar to'la kvadrat tenglama deyiladi. Bu yerda $x$ - o'zgaruvchi, $a$, $b$, $c$-ixtiyoriy o'zgarmas sonlar, $a > 1$. .

2) Kvadrat tenglamanitig xususiy hollari ko'rib chiqiladi. Buni jadval tarzida bunday ifodalash mumkin.

| To'la kvadrat tenglama | Keltirilgan kvadrat tenglama |
|---|---|
| $ax^2+bx+c=0$ | $x^2+px+q=0$ |

Chala kvadrat tenglama

(b=0)V(c=0)V(b=0 Λ c=0)

$ax^2+c=0$ $\qquad ax^2+bx=0$ $\qquad ax^2=0$

3. Hosil qilingari keltirilgan va chala kvadrat tenglamalarga aniq misollar keltiriladi. Masalan,

$2x^2$-3x-4 = 0, $\quad x^2-5x$-6 = 0,

$3x^2+5x=0$, $\quad x^2+7x$ - 0, $\quad 5x^2=0$,...

4. Kvadrat tenglama tadbiqiga doir hayotiy misollar keltirish kerak.

Masalan, $S=\frac{gt^2}{2}$ formula fizika kursidan bizga ma'lum, bu

tenglamani yechish $x^2$-25=0 ko'rinishidagi chala kvadrat tenglama holiga keltirib, so'ngra yechiladi.

5. Kvadrat tenglamaning ildizlarini hisoblash formulasini keltirib chiqarish.

*1-usul.* $ax^2 + bx + c = 0$ tenglama ildizlari topilsin. Buning uchun quyidagi ayniy almashtirishlarni bajaramiz:

$$ax^2+bx+c=a(x^2+\frac{b}{a}+\frac{c}{a})=a(x^2+2\frac{b}{2a}+\frac{c}{a})=a(x^2+2\frac{b}{2a}+\frac{b^2}{4a^2}-\frac{b^2}{4a^2}+\frac{c}{a})=$$

$$=a\left[(x^2+2\frac{b}{2a}+\frac{b^2}{4a^2})-\frac{b^2-4ac}{4a^2}\right]=a\left[(x+\frac{b}{2a})^2-\frac{b^2-4ac}{4a^2}\right]=0 \qquad a\neq 0$$

$$(x+\frac{b}{2a})^2=\frac{b^2-4ac}{4a^2}$$

$$x_{1,2}=-\frac{b}{2a}\pm\frac{\sqrt{b^2-4ac}}{2a}=\frac{-b\pm\sqrt{b^2-4ac}}{2a}$$

$$x_1=\frac{-b-\sqrt{b^2-4ac}}{2a} \qquad x_2=\frac{-b+\sqrt{b^2-4ac}}{2a}$$

2-usul. $ax^2 + bx + c=0$

$$ax^2+bx=-c \,|\, 4a$$

$$4a^2x^2+4abx=-4ac \,|+b^2$$

$$(2ax+b)^2=b^2-4ac$$

$$2ax_{1,2}+b=\pm\sqrt{b^2-4ac}$$

$$x_{1,2}=-\frac{b}{2a}\pm\frac{\sqrt{b^2-4ac}}{2a}=\frac{-b\pm\sqrt{b^2-4ac}}{2a}$$

$$x_1=\frac{-b-\sqrt{b^2-4ac}}{2a} \qquad x_2=\frac{-b+\sqrt{b^2-4ac}}{2a}$$

*Agar $ax^2 + bx + c=0$ da $a=1$ bo'lsa $x^2 + bx + c=0$ ko'rinishdagi kvadrat tenglama bo'lib uning yechimi quyidagicha bo'ladi.*

$$x_{1,2}=\frac{-b\pm\sqrt{b^2-4c}}{2}=-\frac{b}{2}\pm\sqrt{\frac{b^2}{4}-c}$$

*Agar $b=p$ $c=q$ desak* $x^2+px+q=0$ *bo'ladi , uning*

$$x_1=\frac{-p-\sqrt{p^2-4q}}{2} \qquad x_2=\frac{-p+\sqrt{p^2-4q}}{2}$$ bo'ladi.

$$x_2=\frac{-p+\sqrt{p^2-4q}}{2}$$ bo'ladi.

**REFERENCES**


5. Umumiy o‘rta ta‘limning Davlat ta‘lim standartlari. Boshlang‘ich ta‘lim ―Ta‘lim taraqqiyoti‖ jurnali, Toshkent ―Sharq‖, 2019, 7 - soni
6. Levenberg L.Sh. va boshqlar. ―Boshlang’ich sinflarda matematika o’qitish metodikasi Toshkent ―O’qituvchi
7. Bikbaeva N.U. va boshqalar. ―Boshlang’ich sinflarda matematika o’qitish metodikasi Toshkent ―O’qituvchi‖ 2016 yil.
8. Skatkina A.A. ―Metodika prepodaveniya matematiki v sredney shkole. Moskva―Prosveshenie.

# АНАЛИЗ ТРЁХ ПОСЛЕДНИХ ИГР В АПЛ ЛОНДОНСКОГО «АРСЕНАЛА»

**Бобомурадов Б.К**
Преподаватель кафедры «Теория и методика футбола» Бобомурадов Б.К
bobomuradovbabur@gmail/com
**Миразизов М.М**
Магистрант- 2 курса

***https://doi.org/10.5281/zenodo.7528920***

***Аннотация.*** *Данная статья даст полный аналитический анализ по таким параметрам как* ***Xg****, удары, удары в створ, блокированные удары, угловые, атаки, опасные атаки, желтые карточки, передачи мяча, точность передач (%), штрафные и.т.д. Все эти данные говорят о том, что чем больше команда атакует и создаёт голевые моменты у чужих ворот тем больше шансов выиграть данную встречу. Этот анализ трех последних игр команды Лондонского Арсенала в Английской Премьер Лиге.*

***Ключевые слова:*** *заблокированный удар, угловой, желтая карточка, команда точность передач, попадание в цель.*

## ANALYSIS OF THE LAST THREE LONDON ARSENAL PREMIER LEAGUE GAMES

***Abstract.*** *This article will provide a complete analytical analysis on parameters such as Xg, shots, shots on target, blocked shots, corners, attacks, dangerous attacks, yellow cards, ball passes, passing accuracy (%), free kicks, etc. All this data suggests that the more the team attacks and creates scoring chances at the opponent's goal, the more likely it is to win this meeting. This analysis of the last three games of the London Arsenal team in the English Premier League.*

***Keywords:*** *blocked kick, corner, yellow card, team accuracy of transmissions, hitting the target.*

В современном футболе меняются скорости, время для принятия правильного решения, атлетизм, оборона и конечно атака! В данной статье мы изложим об атаке, чем больше команда атакует и создаёт опасные моменты тем больше шансов выграть этот матч. В футбольной науке есть такое понятие как **Xg** – от английского «expected goals» - сумма вероятностей результативности голевых моментов-математическая величина, рассчитываемая с учетом параметров потенциально голевых моментов, к которым относятся удары по воротам и опасные моменты без завершающих ударов.

В первой таблице мы видим, что Арсенал по сравнению Ньюкасл Юнайтедом в небольшой разнице процента Xg. Да вы можете сказать что у Арсенала по статистике атак, опасные атаки были выше, но не было завершения атак, и поэтому была ничья в данном матче. Да можно ещё сказать, что Ньюкасл Юнайтед считается одним из неприятных или неудобных соперников для Арсенала.

Во второй таблице мы видим, что Арсенал намного больше атаковал и создавал моменты исходя из этого и высокий уровень **Xg**.У Арсенала он 2.28, а у Брайтона 0.51. Общее количество атак в два раза больше, чем у соперника, у Арсенала 134 атаки, у Брайтона 73 атаки. Ни маловажный фактор опасных атак тоже намного больше, чем у Брайтона, то есть 58 опасных атак у Арсенала, а у Брайтона 37 опасных атак.

International scientific journal
«MODERN SCIENCE AND RESEARCH»
VOLUME 1 / ISSUE 3

В третьей таблице Арсенал по коэффициенту **Xg** был выше. У Арсенала **Xg** 2.28, а у Вест Хэм Юнайтеда 1.03. Количество атак 118- 60, Количество опасных атак 81-24.

**таблица-1**

Арсенал 0:0 Ньюкасл Юнайтед

| | | |
|---|---|---|
| 0.97 | Xg | 0.96 |
| 17 | Удары | 8 |
| 4 | Удары в створ | 1 |
| 5 | Блокировано ударов | 2 |
| 5 | Угловые | 5 |
| 127 | Атаки | 71 |
| 70 | Опасные атаки | 43 |
| 4 | Желтые карточки | 4 |
| 536 | Передачи | 253 |
| 86 | Точность передач (%) | 72 |
| 19 | Штрафные | 11 |
| 1 | Офсайды | 4 |
| 1 | Сэйвы | 4 |
| 10 | Фолы | 16 |
| 13 | Вбрасывания мяча | 11 |
| 16 | Навесы | 19 |
| 67 | Владение мячом (%) | 33 |

**таблица-2**

Брайтон 2:4 Арсенал

| | | |
|---|---|---|
| 0.51 | Xg | 2.28 |
| 11 | Удары | 14 |
| 2 | Удары в створ | 4 |
| 3 | Блокировано ударов | 3 |
| 6 | Угловые | 4 |
| 73 | Атаки | 134 |
| 37 | Опасные атаки | 58 |
| 3 | Желтые карточки | 2 |
| 344 | Передачи | 573 |
| 80 | Точность передач (%) | 89 |
| 7 | Штрафные | 8 |
| 3 | Офсайды | 1 |
| 2 | Сэйвы | 2 |
| 5 | Фолы | 6 |
| 17 | Вбрасывания мяча | 13 |
| 15 | Навесы | 25 |
| 37 | Владение мячом (%) | 63 |

**таблица-3**

Арсенал 3:1 Вест Хэм Юнайтед

| | | |
|---|---|---|
| 1.89 | Xg | 1.03 |
| 16 | Удары | 8 |
| 5 | Удары в створ | 4 |
| 5 | Блокировано ударов | 0 |
| 7 | Угловые | 5 |
| 118 | Атаки | 60 |
| 81 | Опасные атаки | 24 |
| 0 | Желтые карточки | 2 |
| 650 | Передачи | 328 |
| 89 | Точность передач (%) | 76 |
| 14 | Штрафные | 15 |
| 3 | Офсайды | 0 |
| 3 | Сэйвы | 2 |
| 13 | Фолы | 17 |
| 9 | Вбрасывания мяча | 15 |
| 25 | Навесы | 12 |
| 66 | Владение мячом (%) | 34 |

Во всех трёх таблицах показано насколько важно больше атаковать и создавать опасные моменты у ворот соперника **(Xg).** Бить по воротам и за пределами штрафной. Делать больше острых передач или проникающих передач.

**REFERENCES**

1. Подготовка футболистов в ведущих клубах Европы. В.Губа, А.Антипов, Н.Шагин Москва -2021 год.

2. Подготовка футболистов в ведущих клубах Европы. В.Губа, А.Антипов, Н.Шагин Москва -2021 год.

3. Тренировки юных футболистов. В.В. Варюшин Москва -2007 год.

4. Артиқов А. А. Футбол спорт турида дарвозага зарба бериш аниқлигини баҳолаш услубияти //Fan-Sportga. – 2022. – №. 1. – С. 48-51.

5. Артиқов А. А. Тўп узатишлар ва дарвозага зарбалар аниқлигининг таҳлили //Fan-Sportga. – 2020. – №. 4. – С. 35-37.

**сайты:**

1. Footboom.com https:///www.footboom.com/

2. Nb-bet.com https://nb-bet.com.

ISSN: 2181-3906

International scientific journal
«MODERN SCIENCE AND RESEARCH»
VOLUME 1 / ISSUE 3

# ЭШҚОБИЛ ШУКУР ШЕЪРИЯТИДА БАДИИЙ ОБРАЗ ТАКОМИЛИ

**Эргашова Садоқат Эшмамат қизи**
Тошкент давлат ўзбек тили ва адабиёти
университети 1 - босқич таянч докторанти

**https://doi.org/**

***Аннотация.*** *Ушбу мақолада Эшқобил шукур шеъриятида бадиий образ такомили ёритиб беришга ҳаракат қилинади.*

***Калит сўзлар:*** *Педагогик технология, «технология», «технологик жараён», ўқув жараёнини технологиялаштириш.*

# СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ХУДОЖЕСТВЕННОГО ОБРАЗА В ПОЭЗИИ ЭШКОБИЛА ШУКУРА

***Аннотация.*** *В этой статье делается попытка осветить художественный образ в поэзии Эшкобила Шукура.*

***Ключевые слова:*** *педагогическая технология, «технология», «технологический процесс», технологизация образовательного процесса.*

# EVOLUTION OF ARTISTIC IMAGE IN THE POETRY OF ESHKOBIL SHUKUR

***Annotation.*** *This article will try to shed light on the evolution of the artistic image in the poetry of Eshkobil Shukur.*

***Keywords:*** *pedagogical technology, "technology", "technological process", technologization of the educational process.*

Шеъриятнинг асосий хусусиятларидан бири образлиликдир. Шеърий асарлар шунчаки маълумот берибгина қолмай, инсон хотирасида воқейлик суратини чизади ва ўқувчи тасаввурида маънолар, ассоциатив боғланишлар ва таққослашларни уйғотади, нарса ва ҳодисалар ҳақида янгича тасаввур ҳосил қилади. “Бадиий образ” атамасига бағишланган кўплаб тадқиқотлар мавжуд бўлсада, насрий образлар ва шеърий образлар ўртасидаги семантик чегараларнинг моҳияти етарлича очиб берилмаган.

“Шундай экан, бу икки турдаги образни бир-биридан фарқлаш зарурати сезилади. Бизнингча, бу икки атама ўртасидаги фарқни белгиловчи асос шеърий матннинг ўзига хос табиатидан келиб чиқади. Шеърий матн тил тизимида белгиланган қоидаларга бўйсунади, лекин қўшимча равишда унга қўшимча чекловлар қўйилади: метро-ритмик меъёрларга риоя қилиш талаби, қофия, фонологик, лексик, шунингдек, ғоявий ва композицион даражаларда ташкил этиш”[1]. Иккинчиси шеърнинг яна бир хусусияти: сиз билганингиздек, насрни шеъриятдан ажратишга ёндашувлар одатда фонетик ва графикага бўлинади. Ю.В. Казарин шеърий матннинг 10 та асосий сифатини ажратиб кўрсатди: тўлиқлик (формал, семантик ва бошқалар), маданий контекстдан ажралмаслик, индивидуаллик, изчиллик ва тузилиш, оптималлик, регенеративлик, очиқлик ва қатъийлик.[2] Шундай қилиб, фақат яхлит шеърий матн шеърий реноминация жараёнида реноминант ҳисобланади. Учинчиси фақат шеърий образнинг бадиий образдан фарқли

[1] Лотман Ю.М. Анализ поэтического текста: структура стиха. – СПб.: 1996. – 252 с

[2] Казарин Ю.В. Поэтический текст как система: Монография. – Екатеринбург: Изд-во Урал. ун-та, 1999. - 260 с.

ISSN: 2181-3906

International scientific journal
«MODERN SCIENCE AND RESEARCH»
VOLUME 1 / ISSUE 3

ўларок, нутк даражасининг исталган элементи, шунингдек, ўзига хос эстетик таъсирга эга бўлган ҳар қандай расмий хусусиятга эга бўлган унсурлар орқали амалга оширилиши ва “мустаҳкамланиши” мумкинлигини билдиради. Шеъриятда мазмун билан ажралмас бирликни ташкил етувчи асар тузилишини семантика эгаллаши мумкин. Берилган нарсада фикрнинг тузилишга муносабатидаги муҳим элементларнинг кўпайишининг асосий сабабидир.

Юқорида таъкидланганидек, эстетик таъсирнинг шаклланишида шеърий асарнинг ўзига хос унсурлари муҳим рол ўйнайди: шеърнинг луғавий мазмуни ҳам, шаклий элементлари ҳам лирик асарнинг образлилиги устида ишлайди. Шеъриятдаги образлилик ўзига хос табиати билан энг кучли эстетик, ҳиссий ва руҳий таъсирга эга. Лирик образларнинг ўзига хос хусусиятлари ва бадииятини истеъдодли шоир Эшқобил Шукур шеърлари мисолида кўриб ўтамиз. Шоир шеъриятида образлар ранг- баранглигини кузатамиз. У гоҳ дарахт гоҳо майса, гул бўлиб, гоҳида эса ҳуркак оҳу ва йиртқич йўлбарс, беозор қушлар, куйловчи- йиғлоқ тошлар ҳамда гуллаётган най садолари бўлиб, шеърга руҳ олиб киради. Ўша руҳ – образ демакдир.

Адабиёт, шеърият образлилик билан тирикдир. Шеъриятда самимият ҳам бўлиши керак. Шундагина у бир умр эсда қолади. Шоир шеърият олдига иккита асосий талабни қўяди: Буларнинг биринчиси поэзиянинг табиати билан, иккинчиси эса ижодкор шахс-шоир табиати билан боғлиқдир.

Ишимизнинг бу қисмида таниқли шоир Эшқобил Шукурнинг образ яратиш маҳорати хусусида тўхталар эканмиз, юқорида таъкидланган жиҳат, яъни образлилик ва самимийлик шоир лирикасининг асоси эканлилигини кўрамиз.

Дарвоқе, рус адабиётшуноси ва танқидчиси Юрий Борев “Эстетика” асарида “Бадиий образнинг материали бир томондан реал воқелик, иккинчи томондан ижодкор шахсидир” деганда айни маҳорат масаласида сўз юритади. Зеро, ижодкор маҳорати туфайли воқелик бадиий ифода топади, ижодкор нафаси у яратган бетакрор образларда бўй кўрсатади.

Ўтган асрнинг 80-йилларида адабиётимизга кириб келган шоир Эшқобил Шукур ижоди шу давр адабий руҳини ўзида ифода этган. Адабиётшунос Баҳодир Карим айтганидек, “70- 80-йиллар ҳамда истиқлол арафасидаги ўзбек шеърияти инсонни таҳқирлаган ижтимоий тенгсизликка қарши зимдан курашди; миллий қадриятлар қадр-қимматини улуғлади. Жамият ҳаётидаги адолотсизлик сабабларини рамзлар воситасида фош этди. Бу давр шеъриятининг бадиий қудрати ҳам айнан шунда. Шоир сўзи қадр топди, шеърлари, бамисоли сеҳрли тоғдек, ватанпарвар, адаолатпеша инсонлар учун маънавий таянч бўлди. Шоир нимани, қандай ва нима учун ёзаётганини билиб турди. Шу нуқтаи назардан Шавкат Раҳмон, Усмон Азим, Хуршид Даврон, Йўлдош Эшбек ва бошқа қатор шоирлар руҳиятидаги пўртаналар умуминсоний моҳиятга эга бўлди.” Шулар қаторида шубҳасиз шоир Эшқобил Шукур ҳам бор.

Эшқобил Шукурнинг бадиий маҳорати ҳақида, аниқроғи образ яратиш маҳорати хусусида сўз юритар эканмиз, лирик қаҳрамони атрофни шоирона ўткир нигоҳ билан кузатиб, ундан ҳикмат уқаётганини ҳис этамиз. Шоир табиат билан инсон, унинг уй-ҳислари, қувонч-ташвишлари, кайфияти орасида ўхшашликлар топади ва улар ёрдамида дилидагини изҳор қилишга интилади. Шоир ижодий изланишларини кузатар эканмиз, у ўзининг илк машқлариданоқ оддийгина изҳор эмас, поэтик изҳорга, образли ифодага

ҳаракат қилади. Табиий ижодкорнинг тарбия топган муҳити, оиласида адабиётга, шеъриятга бўлган катта ҳавас ва муҳаббат унинг шоир сифатида шаклланишида муҳим омил бўлган. Қумқўрғонда, Боймоқли қишлоғида ана шундай инсонлар кўп бўлганини таъкидлаган шоир, онасидан кўплаб халқ қўшиқларини эшитгани, кейинчалик уларни қайта ишлаб шеърга солганини яширмайди. Ана шу изланишлар шоирнинг маҳоратининг шаклланишида, образ яратиш маҳоратининг ўсишида муҳим омил ҳисобланди.

**REFERENCES**

1. Лотман Ю.М. Анализ поэтического текста: структура стиха. – СПб.: 1996. – 252 с
Казарин Ю.В. Поэтический текст как система: Монография. – Екатеринбург: Изд-

# TURKISTON MILLIY OZODLIK HARAKATLARI TARIXSHUNOSLIGI (XIX ASR OXIRI XX ASR BOSHLARIDA)

**Norbekov Suhrob Farxod o'g'li**
O'zbekiston Milliy unversiteti tarix fakulteti tarixshunoslik, manbashunoslik va tadqiqot usullari yo'nalishi 2-kurs magistranti

***https://doi.org/10.5281/zenodo.7537237***

***Annotatsiya.*** *Mazkur maqolada Turkiston milliy ozodlik harakatlari tarixshunosligi (XIX asr oxiri XX asr boshlarida) haqida so'z boradi. Maqola davomida asosli fikr va mulohazalar keltirilgan bo'lib, maqola so'nggida xulosa va takliflar keltirilgan.*

***Kalit so'zlar:*** *milliy ozodlik, harakat, tarix, tarixshunoslik, ma'naviy hayot.*

# ИСТОРИОГРАФИЯ НАЦИОНАЛЬНО-ОСВОБОДИТЕЛЬНЫХ ДВИЖЕНИЙ ТУРКЕСТАНА (КОНЕЦ 19-НАЧАЛО 20 ВВ.)

***Аннотация.*** *В статье рассматривается историография туркестанских национально-освободительных движений (конец 19 - начало 20 вв.). Обоснованные мнения и комментарии даны на протяжении всей статьи, а выводы и предложения даны в конце статьи.*

***Ключевые слова:*** *национально-освободительное движение, история, историография, духовная жизнь.*

# HISTORIOGRAPHY OF NATIONAL LIBERATION MOVEMENTS OF TURKESTAN (LATE 19TH AND EARLY 20TH CENTURIES)

***Abstract.*** *This article deals with the historiography of the national liberation movements of Turkestan (late 19th and early 20th centuries). Reasonable opinions and comments are given throughout the article, and conclusions and suggestions are given at the end of the article.*

***Key words:*** *national liberation, movement, history, historiography, spiritual life.*

O'zbekistonning davlat mustaqilligi qo'lga kiritilishi bilan mamlakatda mustabid tuzum va unga xizmat qilgan mafkura barham topdi. Ma'naviy hayot mafkuraviy kishanlar iskanjasidan xalos bo'ldi, oshkoralik va hurfikrlik sharoitida tarix fanida mutlaqo yangicha nazariy, uslubiy asoslar shakllana boshladi. Ana shunday asoslarda rivojlanayotgan vatan tarixshunosligida bu masalalar katta qiziqish bilan o'rganila boshlandi.

Ushbu maqolada Turkistondagi milliy ozodlik harakatlari - 1916 yil qo'zg'oloni va 1918-1924 yillardagi kurashlar XX asr davomida xorijiy tarixshunoslikda qanday baholanganligi hamda O'zbekistonda mustaqillik davrida qanday yoritilayotganligi o'zaro qiyosiy asosda tahlil etiladi.

Bunda, eng avvalo, mazkur muammolar haqida har bir yo'nalishdagi ilmiy qarashlar qay tariqa shakllanib borgani kuzatiladi, ularning manbaviy asoslari tahlil etiladi, bu qarashlar qanday manbalarga asoslangani aniqlanadi, ularning shakllanishiga hukmron tuzum, ijtimoiy-siyosiy vaziyat, mafkuraviy muhit qanday ta'sir o'tkazgani o'rganiladi, nazariy, uslubiy asoslari tahlil etiladi. Shuningdek, har bir yo'nalishdagi mazkur masalaga doir mavhum va munozarali qarashlar aniqlanadi.

Muammoga bunday yondoshuv ilmiy haqiqatni aniqlashga, tarixiy haqiqatni tiklashga yordam beradi, murosasiz tortishuvlarga chek qo'yib, munozara mavzulari va hamkorlik rejalarini belgilab olishga imkon beradi.

Maqolada Turkistondagi 1916 yil qo'zg'oloni va 1918-1924 yillardagi sovet hokimiyatiga qarshi kurashlar nafaqat tarixshunoslik, balki manbashunoslik nuqtai nazaridan ham tadqiq etiladi, mazkur mkammolar tarixini aks ettiruvchi manbalar atroflicha tahlil etiladi. Bunda manbashunoslikdagi an'anaviy usulga ko'ra aniq bir manba tahlili bilan cheklanilmaydi, balki mazkur tarixiy voqealar haqida o'sha davr zamondoshlari tarafidan bildirilgan rasmiy va norasmiy qarashlar (ya'ni o'sha davrning shu masalalarga doir ijtimoiy-siyosiy qarashlari) keng o'rganiladi. Ularga mazkur tarixiy jarayonlarni aniqlashtiruvchi muhim manba sifatida qaraladi. Voqealar zamondoshlarining fikr-mulohazalari, ko'rsatmalari o'sha davrdagi matbuotda, arxiv fondlaridagi hujjatlarda saqlanib qolgan bo'lib, maqolada ular ilk bor iste'molga kiritilgan.

Mamlakatda totalitar tuzum mustahkam qaror topib, chuqur ildiz otib ulgurgan, yoppasiga hujumga o'tib, o'z kuchini ko'rsata boshlagan 30-yillar boshiga kelib sovet tarixshunosligida 1916 yil qo'zg'oloni talqini masalasi yana kun tartibidan joy oldi. Bu safargi hujum qo'zg'olonning 15 yilligi munosabati bilan uyushtirildi. 1931 yilda O'rta Osiyo Inqilobtarixi ilmiy-tadqiqot instituti (SANIIR) va VKP(b) MK O'rta Osiyo byurosining madaniy tashviqot bo'limi tomonidan qo'zg'olonning 15 yilligi munosabati bilan tayyorlangan maxsus sharhlari[1] e'lon qilindi. Sharhlarda 1916 yil qo'zg'olonining milliy ozodlik xarakteri e'tirof etiladi. Lekin u Rossiya imperializmiga qarshi qaratilgani alohida ta'kidlandi.

Qo'zg'olonning asosiy harakatlantiruvchi kuchlari sifatida butun xalq emas, «proletar va yarim proletar unsurlar, dehqonlar va chorvadorlar» qayd etildi, ular «Rossiya imperializmi va mahalliy ekspluatatorlarga qarshi bosh ko'targan», degan asossiz fikr alohida ta'kidlandi. «Usti yaltiroq, ichi qaltiroq» qabilida ish tutilib, go'yoki qo'zg'olonning «milliy ozodlik harakati» tan olindi, biroq aslida esa sinfiy kurash sifatida talqin etildi. Mulkdorlar roli tamomila inkor etilmasa-da, ularning ishtiroki umummilli emas, sinfiy manfaatlar bilan izohlandi. Xullas, qo'zg'olonning barcha masalalari, mohiyati va maqsadi bolshevikcha mafkura manfaatlariga hamda sinfiy kurash ta'limoti aqidalariga to'la moslashtirilgan konsepsiya ishlab chiqildi. Uning majburiy sur'atda ommaviy tan olinishini esa totalitar tuzumning zo'ravonlik mexanizmi, g'oyaviy-mafkuraviy bo'g'inlari ta'minlab berdi. O'sha yiliyoq matbuotda P. Galuzoning «1916 yil qo'zg'olonining bolshevikcha talqini uchun» nomli maqolasi e'lon qilindi. Unda «qo'zg'olonning bolshevikcha konsepsiyasi uchun kurash – partiyaning bosh yo'li uchun kurashdir! 1916 yil qo'zg'oloni haqidagi tortishuvlar – bu O'rta Osiyoda sosializm qurish yoki qurishga qarshi kurashdir!» denan da'volar ilgari suriladi[1]. Aniqrog'i bolshevikcha konsepsiyani tan olishdan bosh tortish oqibatlari haqida ogohlantirildi.

Totalitar tuzum avjga chiqib, uning zo'ravonlik mexanizmi ishga tushib ketgan, qatag'onlar boshlanib, «sinfiy dushmanlar», «sosializm dushmanlari» zo'r berib qidirilayotgan 30-yillarning 1-yarmida bu konsepsiyaga qarshi chiqish oqibatlari qanday tugashi mumkinligini zamondoshlar juda yaxshi anglar edilar. Shu tufayli ham bu konsepsiya tarix fanida hyech bir qarshiliksiz qaror topib, tan olindi, undan bir qadam ham chetga chiqmaslik majburiy tus oldi. Endilikda yaratilajak tadqiqotlar shu konepsiyaga asoslanishi, ya'ni aniqrog'i barcha tarixiy hujjatlar shu qarashlarga moslashtirilishi shart edi.

---

[1] Восстание 1916 года в Средней Азии. Тезисы культпропа Средаз-бюро ЦК ВКП(б) и САНИИР к 15-й годов-щине восстания. М. Т.: 1931.

[1] Галузо П. За большевитскую концепцию восстания 1916 года в Средней Азии (К 15-летию восстания) // Турк-меноведение. 1931. № 7-9.

Masalaning shunday hal bo'lishini nafaqat tegishli mafkuraviy bo'g'inlar, balki hukmron tuzum, ijtimoiy-siyosiy vaziyat va o'tkazilayotgan siyosat osongina ta'minlab berdi. 20-yillarda muammoni sinfiylashtirishga keskin qarshilik bildirgan T. Risqulov ham 30-yillar o'rtasiga kelib shu konsepsiya doirasidan bir qadam ham chetga chiqishga jazm etmadi, chunki dahshatli qatag'onlar arafasida u o'zining 20-yillardagi shijoati va haqiqatparvarligi, millatparvarligi uchun «javob berishi» muqarrarligini juda yaxshi his etib turar, uning boshiga nohaq o'lim soya solib, o'ch olishga shaylanardi. «Millatchi», «panislomchi», «panturkchi» kabi siyosiy ayblovlar T. Risqulov-ni «itoat bildirish»ga undab, 20-yillardagi dadil harakatlari, milliy manfaatlar uchun jonbozliklarini «og'ir guvoh» sifatida yuziga sola boshlagan edi.

Shu tufayli T. Risqulov 20-yillardagi haqqoniy so'zlaridan voz kechib, go'yoki «xatoliklarga yo'l qo'yganini» tan olishga, tavba qilishga majbur bo'ldi. Uning 30-yillar o'rtasida, ya'ni qo'zg'olonning 20 yilligi munosabati bilan chop etilgan maqolalari 20-yillarda ilgari surilgan haqqoniy qarashlariga mutlaqo zid bo'lib, bolshevikcha konsepsiyaga to'la moslashtirilgan edi. Biroq bu «tavba-tazarrular» uni qatag'ondan saqlab qololmadi. Sovet hukumati, bolshevikcha mafkura, tuzum uchun aqlli, vatanparvar, xalqiga sodiq, mustaqil fikrlovchi vakillar emas, shu tuzum va mafkuraga ko'r-ko'rona itoat etib, uni ulug'lovchi gumashtalar kerak edi. T. Risqulov bunday ishonchga sazovor emas edi. Shu sababli u o'zining haqqoniy qarashlari, yuksak orzulari bilan birga qatag'on etildi.

T. Risqulov kabi yuzlab milliy ziyolilarning bunday qismati zamondoshlarni o'z xotira va armonlarini yuzaga chiqarmaslikka, alamlarini yutishga, partiya va mafkura chizgan chizig'idan chiqmaslikka o'rgatdi. Ijod ahli ham bundan mustasno emas edi. Shu tariqa zo'rlik bilan qaror topgan bolshevikcha konsepsiya 30-40 yillar davomida yaratilgan barcha tadqiqotlarga andoza bo'lib xizmat qildi, qo'zg'olonning 20 va 30 yilligi munosabati bilan O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston respublikalarida tegishli mafkuraviy bo'g'inlar hamda ilmiy tekshirish muassasalari tomonidan e'lon qilingan rasmiy sharh-larda 1916 yil qo'zg'olonining 1931 yilda e'lon qilingan bolshevikcha talqini yanada mustahkamlanib,isbot talab qilmas aksioma tusini oldi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, 1916 yil qo'zg'olonining sovet tarixshunosligida ijobiy baho olishi, uni sinfiy nuqtai nazardan bo'lsa-da, milliy ozodlik harakati sifatida e'tirof etilishi, ushbu voqyea tarixni yorituvchi manbalarni o'rganishga ma'lum darajada imkoniyat yaratib berdi. Bu jarayon nihoyatda cheklangan doirada, bolshevikcha konsepsiya asosida kechdi. Biroq yangi tarixiy faktlarning aniqlanishi, manbalarning o'rganilishi ijobiy ahamiyatga ega edi. Bu davrdagi izlanishlar asosan ikki yo'nalishda olib borildi.

1. Muammoning manbalarini o'rganish.
2. Qo'zg'olon tarixining alohida respublikalar doirasida yoritilishi.

Ilmiy va mantiqiy nuqtai nazardan olib qaraganda har ikki yo'nalish o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, ikkinchi yo'nalish, ya'ni muammo tarixini tiklash birinchi yo'nalish natijalariga asoslanishi lozim edi. Biroq masalaga xolisona va ilmiy nuqtai nazardan emas, tor siyosiy va sinfiy manfaatlar nazaridan hamda mafkuraviy aqidalar qolipida yondoshgan sovet tarixshunosligida bu mutanosiblik qo'pol sur'atda buzilgani 30-yillar nashrlari misolida yaqqol ko'zga tashlanadi.

Bu davrda aniqlangan manbalar aksariyat hollarda tarixiy haqiqatni tiklash uchun xizmat qilmadi, chunki ular qo'zg'olon haqidagi bolshevikcha konsepsiyaning ko'p talablariga javob bermas edi.

Manbalarni o'rganish ham, o'z navbatida, ikki yo'nalishda olib borilgan:

A) Qo’zg’olonchilarning xotiralarini to’plash.

B) Arxiv ma’lumotlari, hujjatlarini to’plab, chop etish.

Qo’zg’olonchilarning xotiralari qo’zg’olonning 15, 20 va 30 yilligi munosabati bilan uyushtirilgan ilmiy ekspedisiyalarda yozib olingan bo’lib, ular zamondoshlarning fikr-mulohazalari sifatida muhim ahamiyatga ega. Biroq xotiralarni yozib olgan tadqiqotchilar qo’zg’olon haqidagi bolshevikcha konsepsiya va markscha-lenincha dunyoqarash bilan qurollanganliklari nazarda tutilsa, bu xotiralar haqiqatni qay darajada aks ettirganini tasavvur etish qiyin emas. Qo’zg’olonning tafsilotlari, rivojlanib borishi va bostirilishi haqida aniqlangan ma’lumotlar muhim tarixiy qimmatga ega albatta. Biroq 30-yillardagi qatag’on, tazyiq va quvg’inlar sharoitida qo’zg’olonchilar o’z xoti-ralarida barcha alam va iztiroblarini, asosiy maqsadlari – Rossiya hukmron-ligidan qutulish, milliy va diniy erkinlikka erishish istaklarini to’la oshkor eta olmaganlari shubhasiz.

Shunday cheklangan doirada bo’lsa-da, qo’zg’olonchilardan aniqlangan ma’lu-motlar bqorida ta’kidlanganidek, g’alayonlar tafsilotlarini aniqlashga yordam berdi.

Qo’zg’olon ishtirokchilari va zamondoshlarining ixtiyoriy sur’atda, bolshevikcha andozaga asoslanmay, erkin ravishda yozib, e’lon qilingan xotiralari esa qo’zg’olon va uning maqsad hamda oqibatlarini xolisona, nisbatan chuqurroq yoritib berishi bilan ajralib turadi. Yozuvchi Nazir Safarovning Jizzax qo’zg’oloni haqidagi[1], P. Korshunovaning qo’zg’olonchilarning og’ir jazolanishi[2] haqidagi guvohliklari shular jumlasidan bo’lib, muhim tarixiy manba sifatida bugungi kunda ham o’z ilmiy qimmatini yo’qotmagan.

Bu xotiralarda ko’rsatilgan ma’lumotlar boshqa hyech bir manbada qayd etilmagan. Chunonchi, Nazir Safarovning Jizzax voqyealari haqidagi qimmatli ko’rsatmalari bu yerdagi qo’zg’olon mustabid hukumatga qarshi uyushgan umumxalq kurashi bo’lganini, P. Korshunovaning ko’rsatmalari esa 1916 yil qo’zg’oloni ishtirokchilari hukumat tomonidan og’ir siyosiy jinoyat sodir etgan davlat dushmanlaridan ham qattiqroq, inson uchun xos bo’lmagan, vahshiy usullarda jazolanganidan dalolat beradi.

Qo’zg’olonchilar xotiralarini o’rganishning yana bir yo’nalishi – mardikorlikda xizmat qilib qaytganlarning ko’rsatmalarini yozib olinishi bo’lib, ularning ma’lum qismi matbuotda e’lon qilingan[1]. Bu xotiralar mardikorlarning tortgan zahmatlari, chekkan zulm, xo’rliklarini yoritish uchun kerak emas edi. «Turkiston xalqlari vakillarining siyosiy ongi Rossiyadagi rus ishchilari, ularning inqilob g’oyalari ta’sirida uyg’ondi va ular o’z yurtlariga qaytib rus proletariati rahbarligida inqilob sodir etdilar», degan mazmundagi uydirmani asoslash uchun zarur edi. Vaholanki, Oktyabr to’ntarishi Turkistonda mahalliy aholi ishtirokisiz sodir bo’lgan, mardikorlikdan qaytgan sanoqli kishilargina bolsheviklarning ta’sirida bo’lganlar, qolganlari esa qo’lga qurol olib, milliy ozodlik uchun sovet hokimiyatiga qarshi kurash olib borganlar. Rossiyadagi siyosiy jarayonlar, Fevral inqilobi, markikorlikdagi og’ir turmush va zulm ularda adolat uchun kurash istagini alangalatgani shubhasiz albatta, biroq og’ir turma sharoitida ochna-hor yashab, hatto erkin nafas olish imkoniga ega bo’lmagan mardikorlarning Rossiyada bolsheviklar g’oyasi uchun kurashlardagi faol ishtirokini tasavvur etish qiyin.

[1] Сафаров Н. Унутилмас кунлар (16-йил Жиззах љњзђолонидан хотираларим). – Тошкент-Баку.: 1932. Б.19.

[2] Коршунова П. Зверская расправа царского правительства с повстанцами Ферганы (воспоминания очевидца) // «Советское краеведение». 1936. № 9.

[1] Боечин А. Реквизированные рабочие в революционной борьбе в 1916-1917 гг. (Средняя Азия) // История про-летариата СССР. Сб. № 1 (17). 1934.

**REFERENCES**

1. I.Karimov. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. –T.: 1997.
2. I. Karimov. Buxoro shahrining 2500 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi tabrik so'zi. //Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida, Toshkent, 1998.
3. Abduraximova N.A. Revolyusionnoye dvijeniye i karatelnaya politika sarizma v Turkestane. K istorii sarskoy tyurmы v Turkestane. Avtoref.diss.kand.ist.nauk. T.: 1969.
4. Broydo G.I. Materialы k istorii vosstaniya kirgiz v 1916 godu //Novыy Vostok. 1924. Kn.6.
5. Bojko F. Vostaniya 1916 goda v bыvshem Turkestane. K 10-letiyu vosstaniya (materialы dlya dokladchikov). T.:1926.
6. Boyechin A. Rekvizirovannыye rabochiye v revolyusionnoy borbe v 1916-1917 gg. (Srednyaya Aziya) // Istoriya proletariata SSSR. Sb. № 1 (17). 1934.

# МЫСЛИТЕЛИ О ЧЕЛОВЕКЕ, ЕГО ПРИРОДЕ И ФАКТОРЫ СОЦИАЛЬНОГО ВОСПИТАНИЯ

**Нуруллаева Дж.С**

Узбекский государственный университет физической культуры и спорта. Старший преподаватель кафедры “Спортивное право,социальных и естественно-научных дисциплин”.

***https://doi.org/10.5281/zenodo.7537269***

***Аннотация.*** *Статья посвящена важной и актуальной проблеме формирования совершенного человека. Ведь ее теоретическое и практическое решение имеет особое значение в развитии общества. Узбекистан – демократическая страна, и необходимо учитывать биологические и социальные факторы человека, а также его потребности, чтобы решить вопрос воспитания всесторонне развитой личности в новых современных условиях.*

***Ключевые слова:*** *совершенный человек, демократическое государство, общество.*

# THINKERS ABOUT MAN, HIS NATURE AND FACTORS OF SOCIAL EDUCATION

***Abstract.*** *The article is devoted to the important and urgent problem of forming a perfect person. After all, its theoretical and practical solution is of particular importance in the development of society. Uzbekistan is a democratic country, and it is necessary to take into account the biological and social factors of a person, as well as his needs, in order to solve the issue of raising a comprehensively developed person in new modern conditions.*

***Key words:*** *perfect person, democratic state, society.*

Мудрецы Древней Греции, размышляя о жизни и человеке, в качестве некого идеала называли единственно прекрасно-добрых начал. Прекрасное (эстетическое, духовное) и доброе (этическое, нравственное) мыслились нерасчленённо .Это означало, что истинной красотой обладает лишь доброе и хорошее в человеке. Прекрасное и доброе объединялись в учении о «калокагатии (греч.слово из двух корней: calos-красота, aqatos-добрый,хороший)».

Прекрасно-добрыми выступают перед нами шедевры древнегреческого искусства и литературы, которые А.И.Герцен недаром назвал «эстетической школой нравственности». Например, юноша-копьеносец «Дорифор»-скульптура Поликлета, жившего в Үв.до н.э.современниками и многими последующими поколениями считалась каноном. Физическое совершенство идеального юноши-воина нераздельно сочеталось с его гражданскими добродетелями защитника Отечества.

Еще выше прекрасного и доброго почиталось дополненное «истиной» их гармоничное единение. Но единение истинного и прекрасного, жизнь по законам разума и красоты-это и есть то, что сегодня мы называем духовностью, духовной жизнью. А добро в широком смысле этого слова, добрые чувства всегда составляли и составляют основу нравственности.

Мечта о гармоничном единстве доброго, прекрасного и истинного, другими словами, духовно-нравственного в жизни и в человеке никогда не умирала,не только жила в народных массах,но и приковывала к себе лучшие умы человечества.

И сегодня эта извечная мечта в молодых демократических обществах представляет в виде целого ряда конкретных задач. Так,нельзя не видеть тесной взаимосвязи духовно-нравственного состояния современного человека и его потребностей. Историческая практика и современность красноречиво свидетельствует о том, что нарушение взаимодействия компонентов духовно-нравственных ценностей и потребностей чревато тяжелыми искривлениями духовности и нравственности. Особенно велика опасность

деградации этих ценностей в периоды радикальных ломок, исторических виражей, как это происходило на постсоветском пространстве.

Резкое их падение было обусловлено, в первую очередь, определенными экономическими причинами, а также стремительным изменением всего образа жизни, их ценностных ориентаций.

Однако поскольку новые идеалы, принципы выше, гуманнее, истиннее свергнутых, то раньше или позже все должно прийти в соответствие, установиться приобрести статус нормы ,ради чего тысячи лет трудились лучшие представители человечества.

Невозможно, однако, говорить о потребностях человека независимо от его природы, которая представляет собой единство двух взаимодействующих сторон-социальной и биологической: под биологическим понимается телесное, живое, чувственное.

Генетическая уникальность индивида, его темперамент, социальное начало включает в себя сформированные в историческом процессе общественно- трудовой жизни и непередаваемые по наследству сугубо человеческие свойства, черты, потребности, к числу которых относятся сознание, весь духовный мир, этические принципы, чувства, воля, социальная деятельность и т.д.

Вопрос о природе человека и её роли в человеческой жизни, а также в формировании и воспитании личности занимал и занимает центральное место в концепции человека.

Впервые наиболее отчетливо проблема соотношения социального и биологического была поставлена еще в античной философии и особенно четко у Аристотеля. Именно он дал определение человека, получившее всеобщую известность как общественного (политического) животного. По его мнению, именно такая природа человека сделала возможным и необходимым естественное происхождение государства.

Аристотель был согласен с мнением своего учителя и друга Платона, что главной заботой государства и всей политической деятельности является согласование индивидуальной добродетели и общественной справедливости, что достигается путем воспитания.

Однако он не согласился с платоновской идеей упразднения семьи и частной собственности, так как это по его мнению, насилует природу человека, а следовательно, препятствует достижению конечной цели человека, которая состоит в реализации «счастливой и прекрасной жизни».

Огромный вклад в разработку важнейших аспектов проблемы человека, природы, его воспитания и роли в этом процессе государства, общества и семьи внесли мыслители средневекового Востока, в частности Центральной Азии. Фараби в произведениях «Трактат о взглядах жителей добродетельного города» и «Гражданская политика» неразрывно связывает друг с другом политическое и моральное состояние общества, а также их соответствие природе человека. Так, глава его «добродетельного города»-своего рода учитель, обучающий подопечных наукам и путям достижения счастья. Путь у счастью-наука и воспитание, основанное на знании человеческой природы.

Весьма ценными и актуальными представляются высказывания Беруни,в которых он осмысливает социальную сторону природы человека, проявляющуюся во взаимоотношениях последнего с обществом и народами всей Земли.

Ибн Сина, подобно Аристотелю, определяет как общественное животное. Условием существования людей в обществе является их сотрудничество, а для этого необходимы одинаковые для всех разумные законы и правосудие.

Наделенного разумом человека Ибн Сина считал вершиной развития физического мира и органической природы. Ему присущи высшие силы и способности продвижения к высотам совершенства, к прекрасному, которое тождественно совершенству. Просвещенные правители должны способствовать совершенствованию человека всеми имеющимися средствами, в т.ч. системой воспитания.

Многомерна проблема человека в произведениях А.Навои. В мире нет ничего ценнее человека, и все должно служить ему, таков исходный тезис мыслителя. Для Навои все в человеке представляет интерес: его природная сущность, его место в мире и общество и т.д.

Государство и правители, по мнению Навои, созданы для того, чтобы установить и соблюдать порядок, необходимый для благополучия населения и страны: они должны обуздать тех, кто разоряет народ, разрушает страну, воспитать тех, кто раз ошибся и чья провинность допускает возможность снисхождения и перевоспитания. Вообще всех поданных следует воспитывать в духе благородства, не оставлять места ому, что противоречит принципам гуманизма.

Свое высшее социальное звучание мысль о создании общества, соответствующего естественной природе человека, получили в XYII-XYIIIв. в качестве идеи так называемого «Естественного права». Это широко распространенное понятие политической и правовой мысли, обозначающее совокупность принципов, правил, прав, ценностей, продиктованных естественной природой человека и потому якобы вечных, т.е. независимых от конкретных социальных условий. Концепцию естественного права разрабатывали идеологи эпохи Просвещения: Локк, Руссо, Монтескье, Дидро, Гольбах, Радищев.

В наши дни вопрос о соотношении социального и биологического в человеке снова стоит в центре внимания естествоиспытателей и философов. (Мы присоединяемся к мнению тех ученых, которые считают, что человек есть диалектическое единство социального и биологического при ведущей роли социального).

Современные философы и ученые естествоиспытатели всего мира, как и в прошлые века, остро ставят проблему соотношения социального и биологического в человеке.

Немецкие ученые-генетики - пишут, что в настоящее время необходимо изучать и в должной мере учитывать генетические основы здорового человека, их роль в развитии человека как личности. Эта проблема имеет важное значение не только для здравоохранения, но и также для институтов воспитания. Более того, они справедливо считают, что возможность коррекции генетических структур означает совершенно новый подход к проблеме человека, еще не представленный в истории нашей цивилизации. Русские ученые также неоднократно подчеркивают, что на современном этапе развития науки проблема социально-биологических факторов по- новому ставит вопросы образования и воспитания детей, молодежи и взрослых, проблемы физического развития человека, здравоохранения в целом.

Опосредование биологического социальным осуществляется через центральную нервную систему, которая выполняет функцию не только отражения окружающего мира, но и функцию взаимодействия с внешней и, прежде всего, социальной средой. Острота проблемы соотношения биологического и социального в жизни современного человека определяется тем, что интенсивное развитие социальных факторов и условий жизни затронуло основы существования человека.

Таким образом, современные ученые ставят перед собой принципиально новые, несомненно, значимые для нынешних и будущих поколений людей, проблемы, такие как генетические основы человека, механизм взаимодействия биологического и социального на уровне центральной среды и более консервативных факторов в самом человеке.

Существует еще одна острая проблема взаимовлияния социального и биологического в человеке. Известно, что даже,казалось бы, чисто биологическое в человеке на самом деле осуществляется и удовлетворяется в социальной форме. Природно-биологическая сторона существования человека опосредуется и «очеловечивается» социокультурными факторами. Это касается и удовлетворения таких сугубо биологических потребностей, как продолжение рода, еды, питье и т.д.

Но дело в том, что влияние социальной среды не всегда облагораживает природу человека; иногда общество способно и пагубно влиять на свою природную среду. Такое влияние сегодня-не только факт, но и важнейшая глобальная проблема, решение которой связано с выживанием человека как такового.

Все вышеизложенное о духовно-нравственном идеале человека, его природе - потребностях напрямую связано с проблемами его воспитания.

Думается, проблема взаимосвязи биологического и социального применительно к вопросам духовно-нравственного воспитания личности может быть определена в общем виде как единство трех факторов: биологических(задатки),социальных(социальная среда и воспитание) и психических(внутреннее «я» человека, его воля и т.п.)

В плане биологического и социального в человеке сегодня ведутся широкие дискуссии и по вопросам, которые занимали философов и правоведов предшествующих веков и даже тысячелетий, и в то же время весьма актуальным ныне.

Это вопросы о том, какие именно биологические основы лежат в природе человека: со знаком плюс или минус, решаются на современном уровне с привлечением науки генетики.

Прежде всего, современные ученые далеко неоднозначно решают вопрос о наличии или отсутствии в генофонде человека нравственных задатков.

Из этого вовсе не следует, что задача целенаправленного формирования духовно-нравственного мира людей является неразрешимой. Во-первых, потому что каждый человек генетически уникален и, следовательно далеко не все члены общества наделены от природы нежелательными для него качествами. Во-вторых, и это очень важно, как отмечалось выше, уже с момента своего возникновения общество располагало возможностями ограничивать вредные для своего существования черты характера отдельных личностей, природные или благоприобретенные.

И наконец, в третьих, такую фундаментальную возможность предоставляют только человеку присущие гибкость и пластичность, обусловившие специфику его общественной жизни. Тем более это относится к его духовно-нравственному облику. Если исходить из мысли, что человек стал человеком благодаря отсутствию узких ограничивающих специализацией его органов (мозга, руки, гортани и т.д.) и напротив, наличию универсальных возможностей развития всех органов, то естественно считать, что такая же универсализация присуща и его духовно-нравственному миру, связанному с сознанием-продуктом деятельности мозга.

Учитывая огромную роль потребностей в жизни человеческого общества во все времена и во всех её сферах, в т.ч. в духовно-нравственное области, видимо следует увязывать вопросы воспитания современной молодежи с вопросами о возможностях и способах удовлетворения потребностей человека.

В удовлетворении этих потребностей человек вносит нравственное начало. На их основе в человеческом обществе откристаллизовывались наиболее целесообразные для каждой социальной группы, национальности или общества в целом нормы и формы поведения, становившиеся общественной моральной потребностью, а затем и этическими принципами, то есть развивались духовные, нравственные потребности и принципы. Однако, в отличие от биологических, духовно-нравственные потребности и нормы не являются врожденными; они с каждым новым поколением должны вновь и вновь внедрятся в сознание людей.

Другими словами, бытующие в обществе духовно-нравственные принципы, идеалы должны переплавляться в духовно-нравственные потребности, убеждения. Достигается это путем многостороннего целенаправленного воспитания при заинтересованном отношении семьи и общества.

ISSN: 2181-3906

International scientific journal
«MODERN SCIENCE AND RESEARCH»
VOLUME 1 / ISSUE 3

# MAKTABDA BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING BILIMINI BAHOLASHDA PIRLSNING AHAMIYATI

**Axmedova Nurjaxon Amonovna**
Buxoro viloyati Shofirkon tumani 44-maktabning boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

***https://doi.org/10.5281/zenodo.7537293***

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining bilimini baholashda pirlsning afzalliklari borasida ma’lumotlar keltirib o‘tiladi.*

***Kalit so‘zlar:*** *PIRLS, PIRLS, ilm- fan va ta‘lim- tarbiya sohasining rivoji, g‘oyalar va axborotlarni talqin qilish, sinfda va sinfdan tashqari o‘qish, ijodiy g‘oyalar, xorijiy ilg‘or tajribalarni o‘rganish.*

# ЗНАЧЕНИЕ ЖЕМЧУГА В ОЦЕНКЕ ЗНАНИЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ В ШКОЛЕ

***Аннотация.*** *В данной статье представлена информация о преимуществах Пирлса при оценке знаний учащихся начальных классов.*

***Ключевые слова:*** *PIRLS, PIRLS, развитие науки и образования, интерпретация идей и информации, чтение в классе и вне его, творческие идеи, изучение передового зарубежного опыта.*

# THE SIGNIFICANCE OF PEARLS IN ASSESSING THE KNOWLEDGE OF PRIMARY CLASS STUDENTS IN SCHOOL

***Abstract.*** *This article provides information on the advantages of the Pirls in assessing the knowledge of elementary school students.*

***Key words:*** *PIRLS, PIRLS, development of science and education, interpretation of ideas and information, reading in and out of class, creative ideas, study of foreign best practices.*

Talim sifatini va samaradorligini oshirish yo‘lida xorijiy ilg‘or tajribalarni o‘rganish, xalqaro standartlar talablarining joriy etilishi muhim ahamiyatga ega. Bu borada O‘zbekiston Respublikasida qo‘yilayotgan amaliy qadamlarga xalq ta‘limi tizimida ta‘lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarning tashkil etilishi to‘g‘risida hukumat qarorining qabul qilinishi ta‘lim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasidek ( IEA) nufuzli tashkilot bilan hamkorlik aloqalarining yo‘lga qo‘yilishini misol keltirishimiz mumkin. 1958- yildan buyon ushbu tashkilot ta‘lim sohasiga oid ko‘plab mavzular bo‘yicha o‘ttizdan ortiq qiyosiy tadqiqotlarni o‘tkazdi. Jumladan matematika va tabiiy fanlar ( TIMSS) , o‘qish (PIRLS) , fuqarolik va fuqarolik ta‘limi (ICCS), kompyuter va axborot texnologiyalari bo‘yicha savodxonlik (ICILS) kabi yo‘nalishlarda o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalari, umuman olganda ta‘lim olish jarayonida erishgan yutuqlarni baholab kelmoqda

Shu tadqiqotlardan eng asosiysi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning o‘qish savodxonligini baholash mezoni bo‘lgan PIRLS tadqiqoti haqida to‘xtalib o‘tmoqchiman. PIRLS dasturi 2001- yilda ta‘lim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasi ( IEA- International Association for the Evaluation of Educational Achievement) tomonidan tashkil etilgan. Xalqaro baholash dasturi PIRLS (Progress In International Reading And Literacy Stady) dunyoning turli mamlakatlari milliy ta‘lim tizimida o‘qish savodxonligi bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar va natijalarni qiyoslashga yo‘naltirilgan.

Tadqiqotlar 2001, 2006, 2011, 2016- yillarda o‘tkazilgan. O‘qish savodxonligi – jamiyat tomonidan talab qilinadigan va inson tomonidan qadrlanadigan yozma tilning shakllarini idrok

ISSN:
2181-3906

International scientific journal
«MODERN SCIENCE AND RESEARCH»
VOLUME 1 / ISSUE 3

etish va amaliyotda qo‘llay olish qobiliyatidir. Ushbu nuqtayi nazar o‘quvchilarning o‘qishdan olingan ma‘lumotlardan foydalanish qobiliyatiga tobora ko‘proq e‘tibor qaratadigan zamonaviy jamiyatda dolzarb ahamiyat kasb etadi. Asosiy e‘tibor tushunishni namoyon qilishdan o‘zlashtirilgan ma‘lumotlarni qanday qilib yangi loyihalar va vaziyatlarda qo‘llay olish qobiliyatlarini namoyon qilishga qaratilgan.

Hozirgi vaqtda PIRLS ta‘rifiga ko‘ra, o‘qish savodxonligi jamiyat tomonidan talab qilinadigan va inson tomonidan qadrlanadigan yozma til shakllarini tushunish va ulardan foydalanish, shuningdek, matnlardan turli shakllarda ma‘no hosil qila olish qobiliyati hamdir. O‘qish savodxonligining bu ko‘rinishi konstruktiv va interaktiv jarayon sifatida ko‘plab o‘qish nazariyalarini aks ettiradi. O‘quvchining matn bilan ishlash jarayonida o‘quvchi va matn orasidagi muloqot orqali ( shuning uchun ham bu jarayon interaktiv deyiladi) o‘quvchi ma‘noni yaratadi (shuning uchun ham bu jarayon konstruktiv deyiladi). O‘quvchi bu jarayonning faol qatnashuvchisi bo‘lib, ma‘no yaratadi, matn ustida mushohada yuritadi va samarali o‘qish strategiyalarini ongli ravishda tanlab qo‘llaydi. Har bir matn turi odatiy shakl va qoidalarga amal qilgan holda o‘quvchiga matnni sharhlashga yordam beradi. Har qanday matn turli shaklga ega bo‘lishi mumkin. Bular an‘anaviy kitoblar, jurnallar, hujjatlar va gazetalar, shuningdek, raqamli ko‘rinishdagi yozma shakllarni ham o‘z ichiga oladi. PIRLS yosh o‘quvchilarning sinfda va sinfdan tashqari o‘qishining ikkita keng qamrovli maqsadiga qaratilgan.

Bular:

1. Badiiy tajribalar orttirish;
2. Ma‘lumot olish va ulardan foydalanish.

Bundan tashqari, PIRLS o‘qish maqsadlarining har birida to‘rtta keng tushunish jarayonini birlashtiradi. Bular:

1. Diqqatni jamlash va aniq ko‘rsatilgan ma‘lumotlarni topish;
2. To‘g‘ridan- to‘g‘ri xulosalar chiqarish;
3. G‘oyalar va axborotlarni talqin qilish va uyg‘unlashtirish;
4. Kontent va matn elementlarini baholash va tanqid qilish.

Butun dunyo bo‘ylab o‘qish savodxonligining rivoji odamlarning nima sababdan o‘qishlari bilan bevosita bog‘liq. Umuman olganda, bu sabablar zavqlanish va shaxsiy qiziqish uchun o‘qishni yoki ta‘lim va jamiyat hayotida munosib ishtirok etishni o‘z ichiga oladi. Ko‘pgina yosh o‘quvchilarning dastlabki mutolaasi aksariyat hollarda hikoya ( masalan, hikoya to‘plamlari yoki rasmli kitoblar) yoki o‘quvchilarga atrofdagi dunyo haqida ma‘lumot beradigan va savollarga javob beradigan ma‘lumotli matnlardan iborat bo‘ladi. PIRLS da ishlatiladigan badiiy matnlarning asosiy shakli – bu badiiy to‘qimaga asoslangan hikoyalardir. PIRLSda har bir matn parchasi yoki matn yuzasidan beriladigan savollar to‘rtta tushunish jarayonini baholash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. O‘quvchilar matndan ma‘no hosil qilar ekan, ular aniq tushuntirilmagan g‘oyalar yoki ma‘lumotlarga nisbatan tushuntirishlar beradi. Xulosalash o‘quvchilarga matndan tashqariga chiqishga imkon beradi. Ko‘pgina hollarda muallif matnni o‘quvchining aniq yoki bevosita xulosa chiqarishi uchun yaratadi.

O‘quvchilar oddiy xulosalar bilan bir qatorda, matndagi g‘oyalar va axborotlarni talqin qilishda va uyg‘unlashtirishda aniq yoki umumiy ma‘nolarga e‘tibor berishlari yoki tafsilotlarni umumiy mavzular va g‘oyalar bilan bog‘lashi mumkin. To‘liq javob berish uchun o‘quvchidan barcha matnni yoki hech bo‘lmaganda uning muhim qismlarini, shuningdek, matndan tashqaridagi fikrlarni yoki axborotni tushunish talab qilinadi.

O‘quvchilardan matnni baholash va tanqidiy tahlil qilishda quyidagilar talab qilinadi:

1. Matnda berilgan ma‘lumotlarning aniq va to‘liqligini baholash;
2. Tasvirlangan voqeani haqiqatan sodir etilishi ehtimolini baholash;
3. Insonlarning o‘ylari, bajaradigan ishlarini o‘zgartirishda muallifning fikrlari qanchalik aniqligini baholash;
4. Matn sarlavhasi asosiy mazmunni qanchalik yoritib berishini baholash;
5. Metafora yoki nutq ohangi kabi til xususiyatlari ta‘sirini tasvirlash;
6. Muallifning asosiy mavzuga oid qarashlarini aniqlash

Xulosa o‘rnida shuni ta‘kidlash joizki, o‘qish savodxonligi o‘quvchilarning ilmiy va shaxsiy muvaffaqiyatini o‘sishi uchun asos bo‘lib xizmat qiladi, shuningdek PIRLS ta‘lim sohasida olib borilayotgan siyosatning muvaffaqiyatga ta‘sirini baholash uchun qimmatli vosita hisoblanadi. Shunday ekan, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarimizning o‘qish savodxonligini oshirishga qaratilgan xalqaro dasturlaga tayyorgarlikni oshiraylik va o‘quvchilarimizning tafakkurini o‘stiraylik, zero, prezidentimiz Sh. Mirziyoyev ta‘kidlaganlaridek: ― Bugungi yosh avlod ertaga xalqqa aylanadi.

**REFERENCES**


1. A. Ismoilov, D. Norboyeva, K. Kucharova, Z. Qosimova, N. Aminova. Xalqaro tadqiqotlarda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining savodxonligini baholash. (o‘quv qo‘llanma) – T.: Sharq NMAK, 2019. -94 b.
2. Xodjaboev A. Xusanov L. Kasbiy ta’lim metodologiyasi. T.: Fan va texnologiyalar, 2007.
3. Shadrikov, V.D. Qobiliyatlarning rivojlanishi // Boshlang'ich maktab. -№5, 2004 yil.
4. Davydov, V.V. Ta'limni rivojlantirish muammolari / V.V. Davydov. - M., 2016 yil.

# BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKA O'QITISH METODIKASI

**Mo'minova Dilrabo Umaraliyevna**
Toshkent viloyati Olmaliq shahar 11- maktab Boshlang'ich sinf o'qituvchisi

https://doi.org/10.5281/zenodo.7537315

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi va ta'lim texnologiyalari, o'qitish samaradorligini oshirish bo'yicha fikrlar keltirilgan.*

***Kalit so'zlar:*** *zamonaviy, innovatsiya, boshlang'ich ta'lim, metodika, texnika, o'quvchi, Pedagogika.*

# МЕТОДИКА ПРЕПОДАВАНИЯ МАТЕМАТИКИ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

***Аннотация.*** *В данной статье представлены представления о методике обучения математике в начальных классах и образовательных технологиях, повышающих эффективность обучения.*

***Ключевые слова:*** *современный, инновационный, начальное образование, методика, методика, ученик, педагогика.*

# METHODS OF TEACHING MATHEMATICS IN PRIMARY CLASSES

***Abstract.*** *This article presents ideas on the methodology of teaching mathematics and educational technologies in primary grades, and improving the effectiveness of teaching.*

***Key words:*** *modern, innovation, primary education, methodology, technique, student, Pedagogy.*

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga matematikani muvaffiqiyat bilan o'qitish uchun mehnat faoliyatini boshlovchi o'qituvchi matematika o'qitishning ishlab chiqilgan tizimini, ya'ni boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasini egallagan bo'lishi va shu asosda mustaqil ravishda ijodiy ishga kirishishi kerak.

"Metodika" grekcha so'z bo'lib, "metod" degani yo'l demakdir. Matematika metodikasi pedagogika fanlari tizimsiga kiruvchi pedagogika fanining tarmog'i bo'lib, jamiyat tomonidan qo'yilgan o'qitish maqsadlariga muvofiq matematika qonuniyatlarini matematika rivojining ma'lum bosqichida tadqiq qiladi.

Matematika boshlang'ich ta'lim metodikasining predmeti quyidagilardan iborat:

Matematika o'qitishdan ko zda tutilgan maqsadlarni asoslash. (nima uchun o'qitiladi).

Matematika o'qitish mazmunini ilmiy ishlab chiqish (ya'ni matematikadan qaysi material boshlangich sinflarda o'rganilishi, nima uchun aynan shu material tanlanishi, boshlangich sinflarda kursning har qaysi ayrim masalasi umumlashtirishning qanday darajasida o'rganilishi, mavzular qanday tartibda o'rganilsa, eng ratsional bo'lishi ko'rsatiladi).

O'qitish metodlarini ilmiy ishlab chiqish. (qanday o'qitish kerak, ya'ni o'quvchilar hozirgi kunda zarur bo lgan bilim, malaka, ko nikmalarni va aqliy qobiliyatlarini egallab oladigan bolishlari uchun oquv ishlari metodikasi qanday bo'lishi kerak?

Masalan, 10 ichida sonlarni qo'shish va ayirishni qanday o'rganish kerak, jumladan, bu mavzuda qo'shishning o'rin almashtirish xossasini qanday ochib berish kerak?).

O'qitish vositalarini - darsliklar, didaktik materiallar, ko'rsatma - qo'llanmalar va texnik vositalarni ishlab chiqish (nima yordamida o'qitish?). kerak!

Ta'limni tashkil etishni ilmiy ishlab chiqish (darsni va ta'limning darsdan tashqari formalarini qanday o'tkazish?. O quv ishlarini qanday tashkiliy metodlarda o'tkazish kerak?.

ISSN: 2181-3906

International scientific journal
«MODERN SCIENCE AND RESEARCH»
VOLUME 1 / ISSUE 3

O'quv prosessida ta'limiy va tarbiyaviy masalalarni qanday qilib samaraliroq hal qilish kerak?)

Boshlang'ich matematika o'qitish metodikasining o'qitish vazifalari:

1) ta'lim-tarbiyaviy va amaliy vazifalarni amalga oshirishi,

2) nazariy bilimlar tizimini o'rganish jarayonini yoritib berishi kerak;

3) o'quvchilarning dunyoqarashini shakllantirish yo'llarini o'rgatishi kerak;

4) ta'limni insonparvarlashtirish;

5) matematika o'qitish jarayonida insonni mehnatni sevishga, o'zining qadrqimmati, bir-biriga hurmati kabi fazilatlarini tarbiyalashni ko'rsatib beradi;

6) o'qitish metodikasi I–IV sinflar matematikasining davomi bo'lgan V–VI sinf matematikasi mazmuni bilan bog'lab o'qitishni ko'rsatadi.

Boshlang'ich matematika kursining vazifasi maktab oldiga qo'yilgan "o'quvchilarga fan asoslaridan puxta bilim berishda yangi texnologiyada foydalanish, ularga hozirgi zamon ijtimoiy-iqtisodiy bilimlarni berish, turmushga, kasb-hunarga yo'naltirish, kasblarni ongli tanlashga o'rgatish" kabi vazifalarni hal qilishda yordam berishdan iborat.

Ta'limning maqsadi jamiyat ehtiyojiga mos ravishda shakllanadi. Shunday ekan, ta'lim-tarbiya maqsadi mos va mutanosib bo'lishi kerak. Ilmiy adabiyotlarda ta'limning maqsadi imkoniyatlaridan to'g'ri, aniq, o'rinli foydalanish ko'nikma va malakalarini hosil qilish, mantiqiy-ijodiy tafakkurni rivojlantirish, kommunikativ savodxonlikni oshirish, milliy g'oyani singdirish, sharqona tarbiyani shakllantirish, shaxsni ma'naviy boyitishdan iboratligi ta'kidlangan.

Ta'limiy maqsad asosida o'quvchilarda mustaqil fikrlash, og'zaki va yozma savodxonlikni oshirish, mantiqiy tafakkurni rivojlantirish orqali ularning muloqot madaniyati takomillashtiriladi. Tarbiyaviy maqsad asosida esa ma'naviy, g'oyaviy, nafosat tarbiyasi beriladi. Til o'rganish jarayonida xalqning madaniy-ahloqiy qadriyatlariga yaqinlashtirish imkoni paydo bo'ladi.

Boshlang'ich maktabda matematika o'qitish metodikasida mustaqil va nazorat ishlari, o'quvchilardan individual yozma so'rov o'tkazishning samarali vositalari yaratilgan. Ba'zi didaktik materiallar dasturning chegaralangan doiradagi masalalarining o'zlashtirilishini reyting tizimida nazorat qilish uchun, boshqalari boshlang'ich maktab matematika kursining barcha asosiy mavzularini nazorat qilish uchun mo'ljallangan.

Ayrim didaktik materiallarda (ayniqsa, kam komplektli maktab uchun mo'ljallangan) o'qitish xarakteridagi materiallar, boshqalarida esa nazoratni amalga oshirish uchun materiallar ko'proqdir.

Boshlang'ich maktab matematikasida barcha didaktik materiallar uchun umumiy topshiriqlarning murakkabligi bo'yicha tabaqalashtirilishidir. Bu materiallar tuzuvchilarning g'oyasiga ko'ra ma'lum mavzu bo'yicha topshiriqning biror usulini bajarishi o'quvchining bu mavzuni faqat o'zlashtirganligi haqidagina emas, balki uni to'la aniqlangan darajada o'zlashtirganligi haqida ham guvohlik beradi.

*O'quvchilarni matematika kursini o'rganishga tayyorlash.*

I–IV sinflarda matematika o'qitishning asosiy vazifasi bo'lgan ta'lim-tarbiyaviy vazifalarni hal qilishda ulardagi matematika kursi bo'yicha qanday darajada tayyorgarligi borligiga bog'liq.

Shuning uchun 1-sinfga kelganlarning bilimlarini aniqlash, sinf o'quvchilarining bilimlarini tenglashtirish, ya'ni past bilimga ega bo'lgan o'quvchilarning bilimlarini yaxshi biladigan o'quvchilarga yetkazib olish vazifasi turadi.

O'qituvchi quyidagi tartibda o'quvchilar bilimini maxsus daftarga hisobga olib boradi:

1. Nechagacha sanashni biladi?
2. Nechagacha sonlarni qo'shishni biladi?
3. Nechagacha sonlarni ayirishni biladi?.
4. >,= belgilarni ishlata oladimi?
5. Noma'lumlar bilan berilgan qo'shish va ayirishda bu noma'lumlarni topa oladimi?
6. Qaysi figuralarning nomlarini biladi va chiza oladi?
7. Nechagacha sonlarni yoza oladi?
8. O'ngga, chapga, kam, ko'p, og'ir, engil, teng kabilarni farqlay oladimi?
9. Pul, narx, soat, minut, uzunlik, og'irlik o'lchov birliklari bilan muomala qila oladimi?

Bolalarni o'qitishga tayyorlashda asosiy ish metodi tahlil, sintez, taqqoslash, umumlashtirish, tabaqalashtirish kabi aqliy operasiyalarni bajarish malakalarini shakllantirishga qaratilgan bo'lishi kerak. Bunday ishlar o'quvchilarnig og'zaki va yozma nutqlarini rivojlantirishga katta yordam beradi, matematik bilimlarni o'zlashtirishga qiziqishi kuchaya boradi.

Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda o'quvchilarning o'quv va ijodiy faolliklarini oshiruvchi hamda ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi pedagogik texnologiyalarni qo'llash borasida katta tajriba to'plangan bo'lib, ushbu tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritiladi.

Quyida amaliyotida foydalaniladigan interfaol metodlardan bir nechtasining mohiyati va ulardan foydalanish borasida so'z yuritamiz.

**"Fikriy hujum" metodi.** Mazkur metod o'quvchilarning mashg'ulotlar jarayonidagi faolliklarini ta'minlash, ularni erkin fikr yuritishga rag'batlantirish hamda bir xil fikrlash inertsiyasidan ozod etish, muayyan mazvu yuzasidan rang-barang g'oyalarni to'plash, shuningdek, ijodiy vazifalarni hal etish jarayonining dastlabki bosqichida paydo bo'lgan fikrlarni yengishga o'rganish uchun xizmat qiladi.

"Fikriy hujum" metodi A.F.Osborn tomonidan tavsiya etilgan bo'lib, uning asosiy tamoyili va sharti mashg'ulotning har bir ishtirokchisi tomonidan o'rtaga tashlanayotgan fikrga nisbatan tanqidni mutlaqo ta'qiqlash, har qanday luqma va hazil-mutoyibalarni rag'batlantirishdan iboratdir. Bundan ko'zlangan maqsad o'quvchilarning mashg'ulot jarayonidagi erkin ishtirokini ta'minlashdir. Ta'lim jarayonida ushbu metoddan foydalanish o'qituvchining pedagogik mahorati va tafakkur ko'lamining kengligiga bog'liq bo'ladi.

## REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" / Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa kontserni. 1997.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni (1997 yil 29 avgustda qabul qilingan) /Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa kontserni. 1997

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori (1999 yil 16 avgust)/Xalq ta'limi j. 1999. № 5
4. 4.Umumiy o'rta ta'limning Davlat ta'lim standartlari. Boshlang'ich ta'lim Ta'lim taraqqiyoti‖ jurnali, Toshkent ―Sharq‖, 1999, 7 – soni
5. 5.Levenberg L.Sh. va boshqlar. ―Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi Toshkent ―O'qituvchi

## ZAMINDA BIOLOGIK O‘SIMLIKLAR DUNYOSI HAQIDA

**Abdiazizova Himoyat Adham qizi**
Qashqadaryo viloyati Yakkabog‘ tumani Serop qishlog‘i 76-maktab biologiya fani o‘qituvchisi
**Ibodullayeva Durdona Ozod qizi**
Buxoro viloyati Buxoro shahar 40-umumiy o‘rta ta‘lim maktabi biologiya fani o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7537345

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada biologik o‘simliklar dunyosi va uning tariflari haqida ma’lumotlar berilgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *yermon, chakanda, aloye, na’matak, fotosintez, kislorod, tog’, cho’l, to’qayzor.*

## О МИРЕ БИОЛОГИЧЕСКИХ РАСТЕНИЙ НА ЗЕМЛЕ

***Аннотация.*** *В данной статье представлена информация о мире биологических растений и его показателях.*

***Ключевые слова:*** *ермон, чаканда, алоэ, наматак, фотосинтез, кислород, гора, пустыня, роща.*

## ABOUT THE WORLD OF BIOLOGICAL PLANTS ON EARTH

***Abstract.*** *This article provides information about the world of biological plants and its rates.*

***Key words:*** *yermon, chakanda, aloe, namatak, photosynthesis, oxygen, mountain, desert, grove.*

O’simliklar dunyosi yerdagi hayotning birlamchi manbaidir. Ular yiliga 380 mlrd. tonna organik modda hosil qiladi, buning 325 mlrd. t. dengiz va okean o’simliklariga, 38 mlrd. t. o’rmonlarga, 6 mlrd. tonnasi o’tloqlarga to’g’ri keladi. Bundan tashqari o’simliklar, ya’ni yashil o’simliklar tufayli fotosintez jarayoni bo’lmasa, havodagi uglyerod ($CO_2$)ning miqdori ko’payib kishilar va hayvonlar nobud bo’lur edi. Biroq atmosfyeradagi suv yuzasidan va tuproqdan kelayotgan o’sha $CO_2$ gazi o’simliklar tomonidan yutilib, fotosintez natijasida yashil o’simliklar atrofga kislorodni chiqarib turadi.

Shunday qilib, fotosintez orqali yer sharidagi suv 5,8 mln. yilda, atmosfyeradagi kislorod 5800 yilda, karbonat angidrid 7 yilda bir marta yangilanib turadi.

O’simliklar inson uchun oziq-ovqat, yem-xashak, dori-darmon, kiyim-kechak va boshqa ko’pchilik moddalarning tabiiy manbalari hisoblanadi.

Halqimiz tomonidan ko’p ishlatiladigan va keng tarqalgan dorivor o’simliklardan foydalaniladi. Bularga isiriq, yermon, chakanda, aloye, na’matak, gazanda va boshqalar misol bo’la oladi.

O’simliklar inson organizmidagi turli yuqumli kasalliklarni davolashda katta ahamiyatga ega. Insonlar o’simliklardan chorva mollari uchun ham yem-xashak sifatida keng ko’lamda foydalanadilar.

O’zbekistonda g’o’za o’simligi asosiy homashyo hisoblanib, undan turli maqsadlarda foydalaniladi. Insonlar o’simliklardan qurilish matyeriali sifatida ham foydalaniladi.

O’simliklarni inson hayotidagi muhim tomonlaridan biri, atrof-muhitni ko’kalamzorlashtirishdir, chinor, tyerak, eman, igna bargli doim yashil o’simliklar shular jumlasidandir. Bundan tashqari ular havodagi changni tozalab, uni kislorod bilan boyitadi.

O'simliklar dunyosidan oqilona foydalanish va muhofaza qilishda o'rmon o'simliklari alohida o'rin egallaydi. Respublikadagi o'rmonlar yagona davlat o'rmon fondini tashkil etadi. O'zbekiston o'rmonlari o'zining xususiyatlari bilan tog', cho'l, to'qayzor va vodiy o'rmonlariga ajratiladi. Hozirgi vaqtda tog' o'rmonlari 311 ming ga maydonni egallaydi, asosiy o'simligi archa hisoblanib, qolganlari turli-xil daraxt va butalardan iborat.

Cho'l o'rmonlari 2,4 mln. ga dan iborat. Bu o'rmonlarning asosiy o'simligi saksovulzorlardir.

To'qay o'rmonlari ilgarilari juda zich bo'lib, hozirda atigi 25 ming ga maydonda saqlanib qolgan.

Vodiy o'rmonlarini madaniy iqlimlashtirilgan daraxtlar tashkil etib, ular 12 ming ga dan iborat.

XX asr boshlarida O'zbekiston o'rmonlarining maydoni 4-5 martaga qisqardi. Ayniqsa to'qay o'rmonlari antropogen tayziqqa duch keldi.

Dunyo bo'yi o'rmonlar xolati qoniqarli emas. Haddan tashqari o'rmonlarni kesilishi avj olib, ularning tiklanishi etarli emas. O'rmonlar kesilishini yillik hajmi 3 mlrd.$m^3$ ni tashkil etadi. Bu FAO (BMTning oziq-ovqat va q/x tashkiloti)ning ma'lumotlariga qaraganda 2000 yilga kelib 1,5 barobarga ortdi. Ayniqsa tropik o'rmonlar (Yyer yuzining 7%idan iborat) holati g'oyat tashvishlidir.

Aniq ilmiy manbalarda keltirilishicha, biz yashab turgan yyer kurasida bundan 1,5 ming yil muqaddam o'rmonlar 47% maydonni tashkil qilgan bo'lsa, hozir ular 27% ni tashkil qiladi. Ko'p mamlakatlardagi sanoat manbalarida foyda ketidan quvish oqibatida juda ko'p o'rmonlar kesilib, ularning o'rniga katta-katta zavod, fabrikalar qurilmoqda. Bu zavod va fabrikalarda chiqayotgan chiqindilar atrof-muhitni ifloslanishi natijasida ko'plab nodir va noyob o'simlik turlari qirilib ketishiga sabab bo'lmoqda.

BMTning rasmiy ma'lumotlariga qaraganda sanoat rivojlana boshlagan davrdan 250 ming xil o'simlik turi yo'q bo'lib ketishi xavotir ostida ekanligi ta'kidlangan. O'zbekiston Respublikasida mustaqillikka yerishgach atrof-muhitni, hayvonot va o'simliklar dunyosini muhofaza qilishga alohida e'tibor byerildi. 1992 yil 9 dekabrda «Tabiatni muhofaza qilish» to'g'risida, 1993 yil 7 mayda «Alohida muhofaza qilinadigan hududlar» to'g'risida va nihoyat 1997 yil 26 dekabrda «O'simliklar dunyosini muhofaza qilish va undan oqilona foydalanish» to'g'risida qonunlar qabul qilindi.

Ushbu qonunlarda tabiiy sharoitda o'sadigan o'simliklar dunyosini shuningdek, takror etishtirish va genetik fondini saqlash uchun ekib o'stiriladigan yovvoyi o'simliklarni muhofaza qilish va ulardan foydalanish sohasidagi munosabatlar to'g'risida boradi.

**REFERENCES**

1. Jurayev I., Latipova G., O'simliklar dunyosi. Toshkent – 2009.
2. Ibodullayev F., Matyoqubboyev A., Tog' va tog'oldi hududlar o'simliklarining biologic xususiyatlari. Navoiy – 2001.

# PROPER NUTRITION IS THE GUARANTEE OF HEALTH

**Ilhom Tolkunbayevich Dzhorayev**
The teacher of the Armed Forces Academy of the Republic of Uzbekistan
***https://doi.org/10.5281/zenodo.7538800***

***Abstract.*** *Today, 50% of the factors determining human health are based on scientific research, which is proven by the diet and lifestyle. It is reflected in the information of the World Health Organization. For this, a person must be full of strength and healthy. Everyone dreams of always being healthy and living a long life, but achieving this goal depends on each person, and not everyone has the willpower to realize it. However, a person who cares a little about his health can protect the body from various unpleasant situations and prevent them from premature "aging" thanks to proper nutrition.*

***Key words:*** *hygiene, organism, macro element, life span, diet, food reaction, calorie, WTO.*

# ПРАВИЛЬНОЕ ПИТАНИЕ – ЗАЛОГ ЗДОРОВЬЯ

***Аннотация.*** *Сегодня 50% факторов, определяющих здоровье человека, основаны на научных исследованиях, что подтверждается питанием и образом жизни. Это отражено в информации Всемирной организации здравоохранения. Для этого человек должен быть полон сил и здоров. Каждый мечтает всегда быть здоровым и прожить долгую жизнь, но достижение этой цели зависит от каждого человека, и не у всех есть сила воли для ее реализации. Однако человек, мало заботящийся о своем здоровье, может уберечь организм от различных неприятных ситуаций и предотвратить его преждевременное «старение» благодаря правильному питанию.*

***Ключевые слова:*** *гигиена, организм, макроэлемент, продолжительность жизни, рацион, пищевая реакция, калорийность, ВТО.*

It is desirable to reduce as much as possible the consumption of canned food by the elderly. Because the transfer of products (fish, meat, milk and vegetables, fruits, etc.) to the canned state is often carried out in an acidic environment (when the pH indicator is below 7). Chronic consumption of such foods will eventually turn the blood reaction to an acidic side. This condition leads to a number of unpleasant conditions in elderly people (blood clotting, blood-shaped elements sticking to each other and difficult flow through capillary blood vessels, etc.). If you have to eat canned foods, if they are eaten with greens (green onions, chives, cilantro, etc.), the damage of the said acidic environment will be reduced.

**Daily meals**

It is important to have a variety of daily meals to meet the body's need for all nutrients. For example, instead of eating the same bread all the time, it is more beneficial to eat bread made from milled flour with the addition of barley, corn, millet. It is also important to use their leaves and stalks (for example, carrots, beets, etc.) when preparing and eating salads from various greens, vegetables and fruit products. Beetroot leaves contain more minerals and vitamins needed by humans compared to its stem. The daily intake of 800-900 g of fruits, vegetables and dairy products plays an important role in the rationalization of the diet of the elderly. Although the daily requirement for these products is set to 500-600 g on average, with the aging of the body, in many cases, low absorption of vitamins, minerals and other biologically active substances in the gastrointestinal tract reduces the amount of fruits, vegetables and vegetables. requires multiplication up to the specified amount. It should be said that in the summer and autumn seasons, more of the above-mentioned products are consumed (watermelon, melon, grapes, apples, etc.). But the mentioned index should be reached throughout the year. Especially

in the winter and spring seasons, due to a number of objective and subjective reasons, the amount of these products decreases sharply. In order to avoid this, it is necessary to store pumpkin, cabbage, carrots, and turnips and use them widely in daily diet.

**Order is important**

Eating in a hurry has a negative effect on the functioning of the digestive organs in the elderly. The point is that the food that has entered the stomach should be eaten when the desire to eat again appears. Otherwise, if there is food in the stomach or if there is no appetite to eat, the normal functioning of the digestive organs will be disturbed. Always eating at a fixed time (breakfast, lunch, dinner) creates a conditioned reflex in relation to time, and digestive juices begin to be released if food is not taken by this time. Movements and sounds (spoon, plate, bowl, noise) made to float food enhance this process and the food is perfectly digested. There is great wisdom in this regard when the great Abu Ali ibn Sina said, "The most harmful thing for the body is to eat again before the food has matured and digested in the stomach." In order to ensure the health and longevity of every old person, it is important to learn some habits and habits related to eating in youth consumption, etc.) by abstaining from foods containing milk, yogurt, cheese, fish, meat, whole-wheat bread, greens, fruits, berries, vegetables and vegetable products, vegetables should achieve enough fats and at the same time eat eggs, fish caviar, sweets, pastries made with white flour, cakes, bitter tea, and dark coffee in limited quantities . Lamb, beef, brains, fatty meat, smoked and salted fish, canned food should be consumed in extremely small quantities or not at all, high-strength alcohol should be completely avoided. Adherence to the diet (meal time, amount, fluid intake rules, etc.) is also important for the rationality of the diet of the elderly.

Proper nutrition is an important factor in longevity. Our great ancestors left a lot of valuable information in this regard. Special attention is paid to this issue in the teachings of the Sultan of Medicine, Abu Ali Ibn Sina. According to the works of the great scholar, diet is the main activity of Tansikhat. Today, the importance of the teachings of our great ancestors is increasing more and more. Lack of movement, excessive food consumption, poor nutrition are the cause of many medical and social problems. Prevention of this requires further development of medical and preventive services, improvement of scientific research, further expansion of promotion of a healthy lifestyle among the population. In our country, a strong organizational and legal mechanism for the implementation of tasks in this field has been created. The improvement of the material and technical base of the health care system serves to increase the quality of diagnostic and treatment work, to raise the medical and preventive service to a new level. Special attention is being paid to the development of the food industry, agriculture, environmental protection, and providing our people with ecologically clean, high-quality food products grown in our country. In the Uzbek family, the fact that everyone eats together around the table has risen to the level of priceless value. First of all, older people reach for the food. In this process, our young people receive spiritual and medical education related to consuming food in moderation and restraining their desires from adults. When preparing food in families, housewives pay special attention to studying the experience of intellectuals, maintaining cleanliness, cooking food in moderation, and preparing different meals every day. It is gratifying that in today's medicine, our national values in this regard are given special attention. These aspects are expressed in the twelve principles of healthy nutrition adopted by the World Health Organization. Aspects such as the diversity of food and the maintenance of standards in nutrition are widely promoted in the world. It is recommended to eat less fat and salt. As much as possible, tea should not be consumed with food. Drinking tea an hour or two after a meal is good

for health. Such principles are widely promoted among the population. Special booklets are printed and distributed among the population in cooperation with the Institute of Health and Medical Statistics under the Ministry of Health of Uzbekistan, experts of relevant research and medical universities.

**What should be the percentage of fruits and vegetables in a person's daily diet?**

In some families, the concept of proper nutrition is understood as eating enough high-calorie foods. This harmful habit leads to many diseases. However, fruits and vegetables are very useful for the human body. Those who pay attention to this in their diet are concerned about their health. Special attention should be paid to children's diet. Parents should set an example for their children in this regard. It is recommended to eat salads, fruits and vegetables made on the basis of tomatoes, cucumbers, red beets, greens and other blessings of nature. It is an important task to pay special attention to the issue of nutrition in pre-school educational institutions and schools, to inculcate national values and principles of modern medicine in this regard, along with proper feeding. It should be said that our heavenly country has all the conditions for proper nutrition. In our motherland, hundreds of different delicacies of nature are grown in all four seasons of the year. Even in winter, there is no shortage of fresh fruits and vegetables in our markets. Uzbek cuisine is distinguished by its richness and variety of dishes. Sumalak, somsa, moshkorda, plov, kebab, stuffed cabbage and pepper, buttermilk, soup, vegetable dips, fried fish, somsa from pumpkin, prepared with fruits food gives grace to our table. Our task is to eat them wisely based on our age, profession, seasons, and health. In the course of measures implemented in the field of healthy nutrition in our country, special attention is paid to the issue of ensuring food safety. It is necessary to strengthen the promotion of healthy lifestyle and proper nutrition among the population. For this purpose, a lot of work is being done on the training of nutritionists, improving the qualifications and skills of doctors, updating and improving educational and methodological programs and manuals in the field of dietetics based on the needs of the times. Such measures serve the noble cause of bringing reforms aimed at human interests to a new level, prolonging human life, and raising a healthy and well-rounded generation. The human body receives almost all necessary substances through food and water. The composition of food products and their properties have a direct impact on health, physical development, work ability, emotional state and, in general, the duration and quality of life. It is difficult to find another factor that can affect the human body in such a way. There are many theories about proper nutrition, and new information appears almost every day. Some of them say that it is necessary to limit meat, others say that a diet consisting of only certain products is the key to getting rid of any diseases. In fact, the human body is a very complex system, for its normal functioning it requires both meat and vegetable dishes. Therefore, it is very important to know the rules of proper nutrition. Following dubious recommendations in this regard can cause serious health problems. However, it is necessary not to forget to exclude from the diet "harmful" products that cause fat accumulation in the body and metabolic diseases, while consuming useful products. To them:

1. Chips, popcorn, crackers, salted nuts.
2. Alcoholic drinks.
3. Any semi-finished products and concentrates: dry potato puree, quick-cooking lagmon.
4. Dough pastries, especially if the sugar content is high.
5. Fast food

Eating sugar and salt is also not recommended. If it is not possible to completely reject them, then it is possible to use honey instead of sugar, and to use salt to a minimum. To calculate

the amount of calories in the diet, it is necessary to know the permissible norm and daily calorie intake, as well as take into account the lifestyle: it is logical that the calorie value for those who do active sports is higher than for those who work sitting in the office. Average daily calorie consumption for men is 2000-2400 kcal, depending on age and lifestyle, for women - 1800-2400 kcal. The balance of proteins, fats and carbohydrates should be as follows:

• Proteins — 30-40%;
• Carbohydrates — 40-50%;
• Fats — 20-25%.

There are several formulas for calculating the need for calories. For example, the WHO formula is based on the body area involved in work, and the Ketch-McArdle formula is based on the percentage of body fat.

**Conclusions and suggestions**:

According to experts, any habit can be formed in 21 days. The same statement applies to healthy eating. It is not difficult to form such a habit, the main thing is to set a clear goal and not go back from it. In addition to proper nutrition, it is necessary to accurately calculate the time of meals, because only timely meals fully compensate for energy consumption. For a healthy person, eating four times a day is the most reasonable. In this case, the load on the digestive system is evenly distributed, food is better digested and absorbed. When eating twice a day with an interval of 7 hours or more, the level of cholesterol in the blood increases, fat begins to accumulate in the body, and the activity of the thyroid gland decreases. In addition, it is often observed that a person eats more than the norm after a long break. In order to prevent problems that may arise in our health over time, it is necessary to follow the rules of proper nutrition. After all, proper nutrition is a guarantee of health.

**REFERENCES**

1. Roberta L.Duyff. Complete food and nutrition guide. April 2017
2. Rashael Hartley. Gentle Nutrition: A Non-Diet Approach to Healthy Eating. 9 february. 2021
3. Michael Pollan. In defence of food
4. Gary Taubes. Good calories, bad calories
5. Avitsenna.uz

# MODEL VA MODELLASHTIRISH

**Shodiyeva Nasiba Ro‘zimurod qizi**
Navoiy viloyati Uchquduq tuman kasb-hunar maktabi
Informatika va axborot texnologiyalari fani o‘qituvchisi

https://doi.org/10.5281/zenodo.7538851

***Annatatsiya.*** *Ushbu maqolada obyekt va model, ular o’rtasidagi o’xshashlik, modellashtirish hamda model turlari haqida tushuncha keltiriladi.*

***Kalit so‘zlar:*** *model, obyekt, o’xshashlik, model turlari, geografik model, biologic model, kimyoviy model, matematik model, modellashtirish.*

# МОДЕЛЬ И МОДЕЛИРОВАНИЕ

***Аннотация.*** *В данной статье дается представление об объекте и модели, их сходстве, моделировании и типах моделей.*

***Ключевые слова:*** *модель, объект, подобие, типы моделей, географическая модель, биологическая модель, химическая модель, математическая модель, моделирование.*

# MODEL AND MODELING

***Abstract.*** *This article gives an idea about the object and model, their similarities, modeling and types of models.*

***Key words:*** *model, object, similarity, types of models, geographical model, biological model, chemical model, mathematical model, modeling.*

**Kirish:** Ilmiy va amaliy tadqiqotlarda real mavjud sistemalarni modellashtirish katta rol o’ynaydi. Modellashtirish moҳiyati shundan iboratki, har biri real mavjud yoki abstrakt bo’lgan ikki sistemalar orasida o’xshashlik munosabati o’rnatiladi. Agar bu sistemalardan birinchisi tadqiq qilish uchun ikkinchisiga nisbatan soddaroq bo’lsa, ikkinchi sistemaning xossalari haqida birinchi sistema xulqini kuzatib hukm chiqarish mumkin. Bu holda tadqiqot uchun foydalanilgan sistemani model deyiladi.

"Model" so’zi lotincha modulus so’zidan olingan bo’lib, o’lchov, me’yor, obraz, namuna, analog, "o’rinbosar" degan ma’nolarni bildiradi.

Modelni ma’lumotni kodlashning maxsus shakli sifatida qarash mumkin. Oddiy kodlashda bizga barcha dastlabki ma’lumotlar ma’lum bo’ladi va ularni biz faqat boshqa tilga o’tkazamiz, model esa, qaysi tildan foydalansa ham, kishilar ilgari bilmagan ma’lumotni ham kodlaydi». Modellashtirishning ham turli shakllardagi bayonini keltiramiz. Modellarni yasash kishilar faoliyatida juda katta ahamiyatga ega. Modelni ko’rish jarayonni modellashtirish deyiladi. Modellashtirish deganda obyekt (sistema) ning modeli yordamida shu ob’ektning xossalarini tadqiq qilish jarayoni tushuniladi. Modellashtirish bilish obe’ktlarini ularning modellari yordamida tadqiq etish, kuzatilayotgan predmet va hodisalarning modellarini yasash va o’rganishdir. Ob’ektni uning modeli yordamida bilish modellashtirishdir. Har qanday bilish modellashtirishdan iborat, chunki bunda tegishli ob’ekt bosh miyada nerv xujayralari majmui yordamida ideal ko’rinishda aks etadi, ya’ni biz ob’ektning modeli bilan ish ko’ramiz. Modellashtirish-turli jarayon va hodisalarni o’rganishning eng keng tarqalgan metodlaridan biri.

***Asosiy qism:***

Model tushunchasi biologiya, medistina, kimyo, fizika, iqtisodiyot va boshqa fanlarda ham qo'llaniladi. Matematik model, fizik model, biologik model, iqtisodiy model va boshqa modellar turlari mavjud.

Tizimli yondashish tushunchalarining aniq amaliy muammolarning tahliliga qullash tizimli tahlil (yoki sistemalar tahlili)nomini oldi.Tizimli tahlilning har qanday metod u yoki bu omillar, xodisalar, jarayonlarning matematik bayoniga tayanadi.Tizimli tahlilning asosi matematik modellarni tuzishdan iborat. Tahlilning taqdiri modelning sifatiga bog`liq. Fan bora-bora alohida faktlarni o'rganishdan modellarning murakkab sistemalarini o'rganishga o'tishni tayyorladi. Tizimli tahlilining yaxshi maktabi bo'lib, fizika hisoblanadi. Fizikada o'zaro bog`langan modellar tizimibarpo qilingan. Tizimli tahlil matematik fan emas. U rasmiylashtirilgan modellarni tahliliga asoslangan metodlarni soddalashtiradi va o'zlashtiradi.

| OBYEKT | MODEL |
|---|---|

**Rangsiz, hidsiz suyuqlik (qalin qatlamda zangori rangli) kimyoviy birikma.**







inson

meduza



$H_2O$



ISSN: 2181-3906
International scientific journal
«MODERN SCIENCE AND RESEARCH»
VOLUME 1 / ISSUE 3

o'xshashlik

**OBYEKT** → **MODEL**

Model –(lat. modulus – o`lchov, me`yor) - biror obyekt yoki obyektlar tizimining obrazi yoki namunasidir. Demak, model tuzish uchun obyekt nima hisoblanadi?

*Obyekt (lot. objectum - narsa, anjom) —haqiqatda mavjud bo'lgan, kuzatuv (o'rganish) jarayonining va subyektning (kuzatuvchining) e'tibori qaratilgan predmet, voqea, hodisadir.*

**GEOGRAFIK MODELLAR:**






**BIOLOGIK MODELLAR:**







**KIMYOVIY MODELLAR:**





ISSN:
2181-3906

*International scientific journal*
*«MODERN SCIENCE AND RESEARCH»*
*VOLUME 1 / ISSUE 3*



**MATEMATIK MODELLAR:**







**Rangsiz, hidsiz suyuqlik (qalin qatlamda zangori rangli) kimyoviy birikma.**




**BITTA OBYEKTNI BIR NECHTA MODELL BILAN, HAR XIL OBYEKTLARNI ESA BITTA MODEL BILAN IZOHLASH MUMKIN.**




**– bilish obyektlari (fizik hodisa va jara[illegible] modellari yordamida tadqiq, qilish mavjud predmet va hodisalarning modellarini yasash va o`rganishdir.**


Modellar
Materialli
axborotli
maketlar
o’yinchoqlar
chizmalar
foto-rasmlar
rasmlar
rejalar
kartalar
sxemalar
grafiklar
og'zaki tushuntirishlar:
matematik

# BOSHLANG’ICH SINF O’QUVCHILARINING FIKRLASHINI OSHIRIB BORISHDA O’YINLARNING AHAMIYATI

**Alimova Arofat Mavlonovna**

Andijon viloyati Shahrixon tumani 35-maktab Boshlang’ich ta’lim o’qituvchisi

***https://doi.org/10.5281/zenodo.7539612***

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada darslarni tashkil etishda didaktik o’yinlarning ahamiyati va ushbu o’yinlar orqali boshlang’ich sinf o’quvchilarining fikrlashini oshirib borish choralari keltirib o’tildi.*

***Kalit so’zlar:*** *Didaktika, didaktik o’yinlar, “Guldasta” o’yini, “So’zdan so’z” o’yini, “Qarindoshini top” o’yini, “Qarindoshini top” o’yini, “Besh panja “ o’yini.*

# ЗНАЧЕНИЕ ИГР В СОВЕРШЕНСТВОВАНИИ МЫШЛЕНИЯ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

***Аннотация.*** *В данной статье упоминалось о значении дидактических игр в организации занятий и о мерах по активизации мышления учащихся начальных классов посредством этих игр.*

***Ключевые слова:*** *Дидактика, дидактические игры, игра «Букет», игра «Слово в слово», игра «Найди своего родственника», игра «Найди своего родственника», игра «Пять лап».*

# THE IMPORTANCE OF GAMES IN IMPROVING THE THINKING OF PRIMARY CLASS STUDENTS

***Abstract.*** *In this article, the importance of didactic games in the organization of lessons and the measures to improve the thinking of primary school students through these games were mentioned.*

***Key words:*** *Didactics, didactic games, "Bouquet" game, "Word to word" game, "Find your relative" game, "Find your relative" game, "Five Paws" " game.*

Avvalo har bir ustoz, muallim bolaga tarbiya berishda, unda mehribon onaning qalbi, mard yigitning vijdoni, filning bosiqligi, sherning jasorati, kabi hislatlari mujassam bolmog’i lozim. Abu Nasr Farobiy aytganidek, o’qituvchi o’z or- nomusini qadrlashi, adolatli bo’lmog’i kerak. Ana shundagina u insoniylikning yuksak darajasiga ega bo’ladi va baxt cho’qqisiga erishadi. Darhaqiqat, ustoz birinchi o’rinda bolalarni sevmog’i, har tomonlama ularni darsga qiziqtirish va jalb eta bilishi lozim, hamda o’z fanini chuqur bilimdoni, dunyo qarashi keng, moxir pedagog sifatida o’quvchilarga bevosita ruhiy, emosional- irodaviy ta’sir ko’rsata olishi kerak.

Darslarni qiziqarli tashkil etishda didaktik o’yinlar doimo qo’l keladi . Bunda bola zerikmaydi, darsga bo’lgan qiziqishi yanada oshadi. Ayniqsa ilk maktabga qadam qo’ygan bola uzoq vaqt darsda o’tirishi, tinglashi bolani toliqtirishi mumkin. Tajribali o’qituvchi o’quv materiallarinini taqdim etar ekan, dars maqsadi, mazmuni, shakli, vaqt taqsimlanishi, o’quvchilarni bilim o’zlashtirish darajasini e’tibordan chetda qoldirmay va ayni paytda ularning mashg’ulot mobaynida ruhiy holati, toliqishi, loqaydlik, e’tiborsizlik, tushkunlik alomatlarini hushyorlik bilan kuzatib boradi. Bugungi kunning bolasi aqlli, bilimli, idrokli bo’lishi lozim.Yuqorida aytilganidek, bunda ustozning mahorati alohida kasb etadi. Darsni qanday tashkil etish, qanday metodlardan foydalanishiga bog’liq bo’ladi.Bunda bir qancha didaktik o’yinlarni misollar keltirib o’tish mumkin va darslarda foydalanishda, o’quvchilar bilan ishlaganda o’z samarasini beradi.

ISSN: 2181-3906
International scientific journal
«MODERN SCIENCE AND RESEARCH»
VOLUME 1 / ISSUE 3

**Didaktika** - yunoncha so'z bo'lib, "didaktikos"-o'rganish, ta'lim beruvchi pedagogikaning tarmog'i, ta'lim nazariyasi bilan shug'ullanadigan didaktika atamasidir. Yevropada XVII asrda o'qitish va ta'lim jarayoni haqida asarlar yarata boshlagan olimlar tomonidan qo'llana boshlagan. Chex pedagogi Ya.A. Kamenskiy o'zining "Buyuk didaktik" asarida bolalar va o'smirlarni ma'lumotli qilish va ularga ta'lim berishning didaktik jihatlarini ishlab chiqadi (1657). O'zbek milliy pedagogika tarixida ham didaktikaning asosiy hususiystlari aks etgan ko'pgina tadqiqotlari mavjud. Garchi o'sha davrlarda didaktika hozirgi nom bilan atalmasada, lekin ular ta'lim jarayoninig qonuniyatlarini belgilashi, uning tashkil etishning yo'l –yo'riq ko'rsatish jihatidan beqiyos ahamiyatga ega. Farobiy, Beruniy, Ibn Sino, Alisher Navoiy, Munis singari mutafakkirlarning ta'limini uyushtirish, uning samaradorligini oshirish va o'qitish jarayonida o'qituvchi va o'quvchi qarashlari jahon pedagoikasi taraqqiyotining o'ziga xos bosqichlarini tashkil etgan. Didaktik o'yinlarni foydalanishda qo'l keladigan bir qancha namunalarini keltirib o'tamiz:

**"Guldasta" o'yini.** O'quvchilarga bir necha gullar taqdim etiladi. Gul barglariga topshiriqlar joylashtirilgan. Masalan matematika, infarmatika o'quv predmetlari bo'yicha tashkil qilingan darslarga gul barglariga kasr sonlarini aks ettirish mumkin. Ushbu kasrlarni qo'shish, ayirish, ko'paytirish, bo'lish kabi amallarni bajarish lozimligi ko'rsatiladi. Gul barglarida shu kasrlar bilan o'tkaziladigan amallar bajarib bo'lingandan so'ng, doskada yoki kompiyuterda birinchi bo'lib topshiriqni bajargan o'quvchi xuddi shunday gulni tasvirlashi kerak. Qaysi o'quvchi doskada yoki slayd shaklida ko'p gular tasvirini tushirsa, o'sha o'quvchi g'olib deb topildi. Bu texnalogiyadan boshqa fan darslarida xam foydalanish mumkin. Albatta, gullar barglaridagi bajarilgan topshiriqlar, doska yoki slayddagi gul sonning ko'payishiga sabab bo'ladi. O'quvchining bu faoliyatini o'qituvchi baholaydi. Bu texnalogiya umimy o'rta ta'lim tizimida taxsil olayotgan barcha sinf o'quvchilarida intellektuval salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Yana bir o'yinlardan biri **"Ilm qasri"** . Texnalogiya oldingi didaktik o'yin tariqasida o'tkaziladi. Kasr konturlari bilim darchalari bilan bezatiladi. O'quvchilarda yangi bilimlar, tushunchalar shakllanishga xizmat qiladi. Oldin o'tilgan mavzular va yangi mavzu o'rtasida bog'lanish hosil qilishda, o'quv materiyalining uzviyligini davom ettirishda qo'llaniladi.

Didaktik o'yinlar o'quvchilarnining faoliyatini rivojlantiribgina qolmay, ularning fikrlarini jamlab, tez va aniq bayon etishga, mashg'ulotlar jarayonida o'zaro hamjihatlikda faol harakat qilishga undaydi. O'quvchilarda bilim olishga, tengdoshlaridan orta qolmaslikka intilish hissini kuchaytiradi.Dars jarayonida jo'shqin vaziyat vujudga keladi. Eng muhimi bolalarda iqtidor, salohiyat, maqsadga intiluvchanlik yuzaga chiqadi va mukammallashib boradi.

**"So'zdan so'z" o'yini.** O'qituvchi bolalarga ushbu o'yin qoidalarini e'lon qiladi.O'yin qoidasi: o'quvchilardan harflarning ketma – ketligini buzmagan holda yangi so'z hosil qilishlari talab etadi.



Kabi ko'plab sozlar topib, davom ettirish mumkin. Ushbu o'yindan ona tili darslarida "So'z","Bo'g'in", ko'chirish qoidalari ", "So'z tarkibi", " Ot- so'z turkumi", kabi mavzularni o'tish jarayonida foydalanish mumkin.

Undan tashqari yozuvlarga o'rgatish darslarida didaktik oyinlar o'quvchilarni maktabga kelganlik kunida berilgan topshiriqlarni ko'rib, "o'qish shunchalik murakkab ekan-da ‘‘ degan fikrdan seskanib ketadi. Biz o'qituvchilar metodik jihatdan har bir mavzuni ularning yosh hususiyatlari va imkoniyatlarni hisobga olgan holda, o'rgatib borishimiz lozim. O'quvchilarni chiroyli yozuvga o'rgatishda quyidagi didaktik o'yinlardan foydalanish mumkin.

**"Qarindoshini top" o'yini**.

1. 4 nafar o'quvchi xattaxta yoniga chiqadi, o'quvchilarga "Meva", "Sabzavot", " Daraxt", "Gul", kabi so'zlar yozilgan kartochkalar beriladi.

2. O'quvchilarga shu turkumga oid so'zlar topish kerakligi tushuntiriladi. Vaqt belgilanadi.

3. O'quvchilar so'lar topishadi. Masalan; Meva –olma, anor, gilos, yong'oq, behi, nok… Sabzavot- pomidor, bodring, sabzi, kartoshka… Daraxt- tol, archa, terak, majnuntol, chinor…

Gul- lola, qizg'aldoq, nilufar, atirgul…

4. Vaqt tugagach, so'zlarnig, to'g'ri va chiroyli yozilgani tekshiriladi.

5. G'olib o'uvchi aniqlanadi va rag'batlantiriladi. O'yin shu tariqa davom ettiriladi.

**"Besh panja" o'yini.**

Ushbu o'yin ham bolalar bilimini oshirishga, bilimga bo'lgan qiziqishlarini kengaytirishga, o'z- o'zini tahlil qilishda yordam berib,faolligi o'sib boradi. Har bir o'quvchiga rangli qog'ozlardan qirqib, tayyorlangan beshta panja rasmi qo'llariga yopishtiriladi.

Har bir barmoqlarga savollar yozib qoyiladi. Savollarga to'g'ri javob bergan o'quvchilar barmoqlari butun holatda, noto'g'ri javob bergan o'quvchi qog'ozli barmoqchalarni bukib qo'yiladi va o'yin so'ngida barcha oquvchilar barmoqchalarni yuqoriga ko'taradilar. Bunday usullarda o'qituvchining bolalar bilimini baholashi qo'l keladi. Undan tashqari yana "Toq son juft son" o'yinlari ham bolalar uchun juda qiziqarli .O'quvchilar doira shaklida joylashib olishadi. Qo'llarini bir-birlariga berib og'zaki sonlar aytib boradi.

Masalan juft son 2,4,6,8,10,12………… shu tariqa davom etib boradi, kimda –kim sonlar aytishda adashib qolsa mag'lub bo'ladi va o'yindan chiqadi, bolalar soni kamayib,o'yin so'ngida g'olib o'quvchi qoladi. Bunday o'yinlarning juda ko'p turi mavjud . O'qituvch, tarbiyachi ish faoliyatida qo'llab borsa dars jarayoni yana ham qiziqarli va mazmunli o'tadi.

**REFERENCES**

1. Avliyakulov N.X. Zamonaviy o'qitish texnologiyalari. –T., 2001.
2. Yo‘ldoshev J., Usmonov S. Pedagogik texnologiya asoslari. –T.: O‘qituvchi, 2004.

3. Farberman B.L. Ilg‘or pedagogik.texnologiyalar.-T.,1999.
4. Saydaxmedov N., Ochilov A. Yangi pedagogik texnologiya moxiyati va zamonaviy loyixasi.-T., 1999.
5. Axmedov M., Abduraxmonova N.Jumayev M.E. Birinchi sinf matematika darsligi. Toshkent. “Turon-iqbol” 2008 yil

# BOSHLANG'ICH SINFLARDA DARSLARNI AXBOROT TEXNALOGIYALARIDAN FOYDALANGAN HOLDA TASHKIL ETISH

**Qo'chqarova Mavjuda Abdimannobovna**
Andijon viloyati Shahrixon tumani 51-maktab Boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7539628

**Annotatsiya.** *Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilimini takomillashtirishga qaratilgan, hozirgi kunda keng qo'llaniladigan kompyuter texnologiyalaridan foydalanib darsni tashkil qilish, natijada samarali bilim berish haqida fikrlar yuritilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Boshlang'ich ta'lim, axborot texnologiyalari, kompyuter, dars.*

# ОРГАНИЗАЦИЯ УРОКОВ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

**Аннотация.** *В статье основное внимание уделяется совершенствованию знаний учащихся начальных классов, организации урока с использованием широко используемых сегодня компьютерных технологий и, как следствие, обеспечению эффективных знаний.*

**Ключевые слова:** *Начальное образование, информационные технологии, компьютер, урок.*

# ORGANIZING LESSONS USING INFORMATION TECHNOLOGIES IN PRIMARY CLASSES

**Abstract.** *The article focuses on improving the knowledge of elementary school students, organizing lessons using widely used computer technologies, and as a result, providing effective knowledge.*

**Key words:** *Primary education, information technology, computer, lesson.*

Zamonaviy axborot texnologiyalarning jadal taraqqiy etib, ta'lim sohasiga jadal kirib kelishi, hayotimizda muhim ahamiyatga ega bo'lib borayotgani bu boradagi bilim va malakalarimizni ham mos ravishda shakllantirishni taqozo etadi. Shuning uchun, boshlang'ich sinflarda kompyuterdan foydalanib dars o'tish tavsiya qilindi. Dars jarayonining muhim yutuqlaridan biri kompyuter texnologiyalari komponentlaridan foydalanishni ta'minlovchi dasturiy vositalarning yaratilishi bo'ldi. Ayniqsa, o'quv jarayonining tashkil qilishda bu dasturiy vositalar alohida ahamiyatga ega.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun yaratilgan elektron darslik, qo'llanma va taqdimotlardan o'quv jarayonida keng foydalanilmoqda. Elektron taqdimotlardan darsda namoyish va ko'rgazmali material sifatida foydalanish o'qituvchiga katta yordam beradi. O'quv materialining elektron taqdimotda animatsiyalar shaklida berilishi o'tilayotgan mavzuni tushunishni yengillashtiradi va ko'rgazmalilikni oshiradi. Namoyish slaydlarini o'quvchilarga tarqatma material sifatida ham berish mumkin. Elektron darslikdan mustaqil ta'lim olishda va o'quv materiallarini har tomonlama samarali o'zlashtirishda foydalanish mumkin.

Mamlakatimizdagi deyarli barcha umumta'lim maktablari zamonaviy kompyuter va telekommunikatsiya texnologiyalari bilan jihozlangan. Bu esa, o'z navbatida, boshlang'ich sinf o'qituvchilarning o'z mehnat faoliyatlariga yangicha yondashuvlarini talab etadi. Boshlang'ich sinf darslari o'quv jarayoniga yangi texnologiyalarni joriy etilishi, o'qituvchini texnik vositalar tomonidan siqib chiqishiga emas, balki yangicha yondashuv orqali uning vazifasi va rolini o'zgartirib, o'qituvchilik faoliyatini yana-da serqirra, ijodiy va kreativ yondashuvga asoslangan

kasbga aylantiradi. Zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida dars jarayonini tashkil etishda o‘qituvchi dastlab:

- darsning maqsadi;
- maqsadga erishish yo‘llari;
- o‘quv materiallarini taqdim etish usullari;
- o‘qitish metodlari;
- o‘quv topshiriqlarining turlari;
- muhokamalar uchun savollar;
- munozara va bahslarni tashkil etish yo‘llari;
- o‘zaro aloqa usullari va kommunikatsiya singari omillarni aniqlab olishi lozim bo‘ladi.

Ta’lim-tarbiya jarayonida o‘quvchilarni aqlan va ruhan yetuk insonlar qilib tarbiyalashda, milliy urf-odatlarimiz, qadriyatlarimiz mohiyati bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarini rivojlantiriшda ularda buyuk ajdodlarimizning boy ma’naviy me’roslarini o‘rganishda kompyuter va axborot texnologiyalaridan foydalanish muxim rol o‘ynaydi.

Kompyuter va axborot texnologiyalari vositalari orqali pedagog xodimlar hamda o‘quvchilar juda ko‘p miqdorda ma’lumotlarni olish, izlash qayta ishlash va o‘zlashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Albatta, ta’lim muassasalarida yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy qilish. O‘quv mashg‘ulotlarini yangi interfaol usullar, zamonaviy vositalar ya’ni axborot texnologiyalari vositalaridan foydalangan holda o‘tkazish, jumladan, dars mashg‘ulotlarida multimediani qo‘llash, internet tarmog‘idan foydalanish shubhasiz o‘z samarasini beradi.

O‘qituvchi zamonaviy kompyuter texnologiyalaridan foydalanish orqali quyidagi bir qancha vazifalarni amalga oshirishi mumkin:

➢ boshlang‘ich sinflarda multimedia texnologiyalarini qo‘llash orqali o‘quvchilarda fanga qiziqishi rivojlanadi;

➢ ta’limning bunday usuli o‘quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini faollashtiradi va o‘quv materialini o‘zlashtirilishining samaradorligi yana-da oshadi;

➢ namoyish qilinishi qiyin yoki murakkab bo‘lgan jarayonlarni modellashtirish va ko‘rish imkoniyatini beradi;

➢ o‘quv materiallarini o‘zlashtirilishi faqat darajasiga ko‘ra emas, balki o‘quvchilar erishgan mantiq va qabul qilishlarining darajasiga ko‘ra ham samarali hisoblanadi;

➢ o‘quvchilarga mustaqil izlanish yo‘li bilan materiallarni izlash, topish hamda muammoli masalalarga javob topish orqali ma’lum tadqiqot ishlarini bajarish uchun imkoniyat yaratiladi;

➢ o‘quvchilarning yangi mavzuni o‘zlashtirishi, misollar yechishi, insho, bayon yozish ishlarida, o‘quv materiallari bilan mustaqil tanishish, tanlash va axborot hamda ma’lumotlarni tahlil etish kabi masalalarni tez bajarish uchun sharoit yaratiladi.

Boshlang‘ich ta’limga zamonaviy axborotlar texnologiyalarini tatbiq etish o‘quv mashg‘ulotlarining samaradorligini oshiribgina qolmay, ilm-fan yutuqlarini amaliyotda qo‘llash orqali mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, har tomonlama barkamol yuksak ma’naviyatli shaxsni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Har bir o‘qituvchi ijodkor bo‘lishi kerak, u har bir o‘quv soatiga puxta tayyorlanib yangilik bilan kirishi kerak, chunki har darsda takrorlanadigan bir xillik o‘quvchini darsga va fanga qiziqishini susaytiradi, natijada dars samaradorligining pasayishiga olib keladi.

Axborot texnologiyalarining o'qituvchi va o'quvchi uchun ahamiyatli jihatlari quyidagilar: o'quvchining diqqatini jamlash; ma'lumot to'g'risidagi tasavvurni kengaytirish; zlanuvchanlik, ijodkorlik va mustaqil faoliyatga kirishish; o'z-o'zini baholash. O'qituvchi faoliyatida axborot texnologiyalardan foydalangan holdagi darslarning o'rni quyidagilarda aks etadi: vaqtni to'g'ri taqsimlash; o'quv materiali mazmun-mohiyatining yorqin va ishonarli bo'lishini ta'minlash; berilayotgan axborot ko'lamini oshirish; o'quv topshirig'ining turlarini kengaytirish; sog'lom raqobat, ijodiy muhitni yuzaga keltirish; kasbiy malakani muntazam oshirib borish.

Bugungi kunda O'zbekistonda ham ta'lim jarayonida didaktik vosita sifatida foydalaniladigan dasturlarning maxsus bozori shakllanmoqda. Hozirda umumta'lim darslarida foydalanishi mumkin bo'lgan internetga joylashtirilgan ko'plab dasturlar mavjud. Bular sirasiga birinchi navbatda elektron darsliklarni kiritish mumkin. Kompyuter texnologiyalari turli xil interaktiv xarakterdagi topshiriqlardan foydalanish imkoniyatini beradi.

Masalan, o'quvchilar voqealarni xronologik ketmaketlikda joylashtirish, fanga oid atamalar va tushunchalarni to'g'ri izohlash yoki o'ng va chap qatordagi atamalar va ularning ma'nosini mos ravishda strelka bilan ko'rsatish yoki berilayotgan mavzudagi tayanch so'zlarni to'ldirish, test topshiriqlarini bajarish, krosvordlarni yechish kabi topshiriqlarni qanday bajarganliklarini katta ekranda multimedia yordamida tushirilgan javoblar bilan taqqoslab, bilib borishlari mumkin bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinflarda zamonaviy axborotkommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, ijodiy izlanish va mantiqiy fikrlashlarini kengaytirish bilan birga ularni darslarda o'rganganlarini hayot bilan bog'lash hamda darsga qiziqishlarini oshirishga yordam beradi. O'qituvchilarning bunday zamonaviy talablar asosida yaratilgan sharoitlardan samarali foydalanib, darslarni ilg'or pedagogik hamda axborot kommunikatsiya texnologiyalari asosida tashkil etilishi ta'lim-tarbiya jarayonini sifatini kafolatlaydi.

**REFERENCES**

1. Tolipov U.K., Sharipov Sh.S. O'quvchi shaxsi ijodkorlik faoliyatini rivojlantirishning pedagogik asoslari. – T., Fan, 2012
2. Yo'ldashev J. G., Usmonov S.A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish. – T: Fan va texnologiya, 2008.
3. http://uz.infocom.uz/2012/10/30/boshlangich-sinflarda-akt/

# BOSHLANG'ICH SINFLAR MATEMATIKA FANIDAGI GEOMETRIK MATERIALNING MAZMUNI

**Sobirova Dilfuza Abdimannobovna**
Andijon viloyati Shahrixon tumani 51-maktab Boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi
***https://doi.org/10.5281/zenodo.7539645***

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada boshlang'ich sinflar matematika fanidagi geometrik materialning mazmuni va geometriyani o'qitish usullari haqida ma'lumotlar keltirilgan.*

***Kalit so'zlar:*** *boshlang'ich, matematika fani, geometriya, fazoviy figuralar, geometrik material, rasm solish, mehnat ta'limi.*

# СОДЕРЖАНИЕ ГЕОМЕТРИЧЕСКОГО МАТЕРИАЛА ПО МАТЕМАТИКЕ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

***Аннотация.*** *В данной статье приведены сведения о содержании геометрического материала в элементарной математике и методике обучения геометрии.*

***Ключевые слова:*** *начальная, математика, геометрия, пространственные фигуры, геометрический материал, живопись, трудовое воспитание.*

# CONTENTS OF GEOMETRIC MATERIAL IN PRIMARY CLASS MATHEMATICS

***Abstract.*** *This article contains information about the content of geometric material in elementary mathematics and methods of teaching geometry.*

***Key words:*** *primary, mathematics, geometry, spatial figures, geometric material, painting, labor education.*

Mamlakatimizda matematika 2020-yildagi ilm-fanni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilandi. O'tgan davr ichida matematika ilm-fani va ta'limini yangi sifat bosqichiga olib chiqishga qaratilgan qator tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, sohada yechimini topmagan qator masalalar matematika sohasidagi ta'lim sifati va ilmiy-tadqiqot samaradorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish zaruratini ko'rsatmoqda.

Bunda, umumta'lim muassasalarida matematika fanini o'qitish sifatini oshirish, darsliklarni sodda va tushunarli tilda tayyorlash, hududlarda matematika fanini chuqurlashtirib o'qitishga ixtisoslashtirilgan maktablar faoliyatini samarali tashkil etish bo'yicha juda ko'p samarali ishlar amalga oshirilmoqda.

Matematika fani o'quv dasturlarini qayta ko'rib chiqish, oddiy va tushunarli yozilgan ommabop darslik va o'quv qo'llanmalarni nashr etish bo'yicha davaltimiz rahbari tomonidan katta miqdordagi mablag'lar ajratildi. Matematika fanini chuqurlashtirib o'qitishga ixtisoslashtirilgan maktablarning moddiy-texnik bazasini yaxshilash bugungi kunning dolzarb masalasiga aylandi.

Bugungi kunda yurtimizda yoshlar siyosati dasturi ishlab chiqilgan. Yurtboshimiz tomonidan ishlab chiqilgan ta'lim sohasiga oid qarorlar ham bugungi kunda yoshlarga e'tiborning qay darajadaligini belgilab beradi. Yurtimiz kelajagi bo'lmish yoshlar ham ma'nan ham jismonan sog'lom bolishlari uchun ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda. Barcha sohalar bilan bir qatorda ta'lim sifatini oshirish uchun ko'plab qonun va dasturlar ichlab chiqilgan. Bugungi kunda yurtimizda 8500 ta umumta'lim maktablari faoliyat ko'rsatmoqda. Bu o'rinda boshlang'ich ta'lim matematika kursining ham o'rni katta. Kichik o'quvchilarni

yetuk inson, barkamol shaxs sifatida tarbiyalashda boshlang'ich ta'limning o'rni muhimdir.

Xozirgi kunda mavjud boshlang'ich ta'limning turli tizimlari ta'lim maqsadining nimalarga ko'proq e'tibor berish kerak degan masalada tubdan o'zgarishlar kiritilmoqda.

Ta'limning rivojlantiruvchi funksiyasi birinchi o'ringa chiqib bormoqdaki, bu narsa kichik yoshdagi maktab o'quvchisining shaxs sifatida shakllanishini ta'minlaydi va uning individual (shaxsiy) qobiliyatlarini ochilishini yuqori darajada ta'minlaydi.

Bu bilan bog'liq holda kichik yoshdagi o'quvchilarning umumiy ta'limda matematikani rivojlantiruvchi va tarbiyalovchi rolini kuchaytirishga keng yo'l ochilmoqda. Kichik maktab yoshdagi o'quvchilar bilimlarini rivojlanishi masalasini ko'proq darajada amalga oshiradi, ularning xususan mantiqiy tafakkurlarini rivojlantirishga, fazoviy tasavvurlarini kengaytirishga ko'proq diqqat-e'tiborini qaratadi. Ularda kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hamda imkoniyatlari to'la-to'kis hisobga oladi. Boshlang'ich matematika kursidagi geometrik material mazmunan va hajm jihatdan ham ancha o'zgarishlarga uchraydi.

Shuni ta'kidlash kerakki, geometrik rivojlanish uzluksiz, tekis va turli-tuman bo'lishi kerak. O'quvchilarni ham ikki o'lchovli ham uch o'lchovli geometriya bilan bir vaqtda tanishib borish deb tushunish kerak. Shuning uchun ham hozirgi tizimda sinfdan-sinfga o'tgan sari o'quvchilar tomonidan o'rganiladigan ob'ektlar va munosabatlar soni sifat jihatdan ham son jihatdan ham ortib boradi. O'sish faqat o'lchash amaliyotida qo'llaniladigan o'rganilgan figuralar soni bo'yicha emas, balki geometrik figuralar orasidagi munosabatlarni, ular xossalalarini o'rganish bo'yicha ham yuz berdi.

O'quvchilar ayrim asoslarni emas, balki o'zaro bog'langan asoslar tizimini yaxshi o'zlashritishlari aniqlandi. Shuning uchun ham bu tizimda o'qitilganda juda ko'p deduktiv xulosalarni o'quvchilarning o'zlari chiqaradilar.

O'quvchilardagi geometrik bilimlar sifatining yomonligi o'quvchilar biliminig chegaralanganligi emas, balki geometrik material mazmuniga, uni o'rganish tizimiga bog'liq ekan degan xulosaga olib keladi.

Geometriya elementlariga o'rgatishni I sinfdayoq dasturidagiga qaraganda kengroq amalga oshirsa bo'ladi. Shunday qilib, I sinfda to'g'ri chiziq, egri chiziq, siniq chiziq, kesma, nur, burchaklar va ularning turlariga qarab chiqish mumkin. Yana to'g'ri to'rtburchak, kvadrat va uning xossalarini, doira, aylana, markaz, radius va boshqalarni o'rganish mumkin. II sinfda I sinf geometrik materialini takrorlash va chuqurlashtirish yana to'rtburchaklarni ham o'rganish mumkin: to'g'ri to'rtburchak, kvadrat, parallelogram, romb, trapetsiya. Bundan tashqari to'g'ri chiziqlarning parallellik va perpendikulyarligini va yana fazoviy figuralar bilan tanishtirish: kub, to'g'ri burchakli parallepiped, silindr, konus va shar bilan tanishuv ro'y beradi. III sinfda esa miqdorlar geometriyasini o'rganish bilan birga (uzunlik, yuza va burchak kattaliklari) o'quvchilarni uchburchaklar bilan tanishtirish (ularni burchaklari va tomonlariga ko'ra sinflarga ajratish, yasash va modellashtirish), burchaklarni graduslarda o'lchash, to'g'ri burchakli shakldagi figuralarning perimetri va yuzasi haqida tushunchalar berish va mos masalalar yechishga o'rgatish mumkin.

Bolalarni geometriya elementlari bilan tanishtirish arifmetik materialni o'rganish bilan birgalikda olib boriladi. Geometriya bo'yicha materiallar qismlarga bo'lingan holda har bir darsning 15-20 daqiqasini geometrik materialni o'rganishga ajratgan holda berilishi maqsadga muvofiqdir. Ular bilan tanishishni tekis figuralar bilan ko'rgazmali holda olib borilishi kerak.

Shuning uchun tekis geometrik figuralar haqida tasavvurlar hosil qilish masalasiga koʻp vaqt ajratish muhimdir.

Kichik maktab yoshdagi oʻquvchilar tomonidan geometriyani oʻrgatishning beshta asosiy yoʻnalishi aniqlangan: yerlarni oʻlchash ishlari asosida, geometriyani modellarda oʻrgatish, geometrik figuralarni yasash asosida oʻrgatish, tajriba asosida hamda fanlararo integratsiyani qoʻllab oʻrgatish, kichik sinflarda geometriya elementlarini oʻrgatishning zamonaviy usullarni samarali qo'llanilishini amalga oshirishda foydalanilgan mashqlar va topshiriqlar tizimini ham ishlab chiqish orqali o'rgatish .

O'qituvchi tomonidan kichik yoshdagi sinflarda bolalarning geometrik shakllar haqidagi bilimlari mukammal tahlil qilinadi va chizish-oʻlchash malakalari oʻrganib chiqiladi. Geometrik bilim va malakalarning past darajada ekanligi geometrik material ustida ishlashda tizimi ham maqsad yoʻnalishining yoʻqligi bilan izohlanadi. Geometrik bilimlar tizimlashtirilgan boʻlishi kerak, lekin bir-biri bilan bogʻlangan asoslar yigʻindisidan iborat boʻlib qolmasligi kerak.

Geometrik materialni oʻrganish uchun haftada 2-3 marta darsning 10-15 minutini ajratish tavsiya etiladi, bu bir sinf uchun 20-30 soatni tashkil etadi. Geometriyani oʻrganishda fanlararo aloqasini amalda qoʻllashga boʻlgan intilishi diqqatga sazovordir (rasm solish, mehnat ta'limi).

Geometriyani boshlangʻich oʻqitish masalasi sabablari quyidagilar:

1. amaliy masalalarni yechishga geometrik bilimlarni tadbiq qilishning xayotiy zarurligi;

2. geometriya kursini oʻrganishga boʻlgan oʻquvchilarni tayyorlanishlari kerakligi.

Boshlangʻich geometriya mazmuni aniqlashda quyidagi masalalarga asosiy e'tibor qaratish muhimdir:

1. Asosiy geometrik figuralar shakllari va ularning ba'zi xossalari bilan tanishishga.

2. Bu shakllarni tasvirlash (plastilindan yasash, qogʻozdan qirqib yasash, kartondan yoyilmalarni yasash chizish va rasmini solish).

3. Fazoviy nuqtalar, toʻgʻri chiziqlar va tekisliklarning oʻzaro joylashuvi. Nuqta va toʻgʻri chiziqlarning tekislikdagi vaziyati.

4. Oʻlchashlar. Uzunlik, yuza, hajm, yoy va burchaklar oʻlchovlari. Uzunlik, yuza va hajmlarni oʻlchash, yoy va burchaklarni graduslarda oʻlchash.

Geometriya boshlangʻich kursiga son oʻqi, oʻq simmetriyasi, koordinata tekisligi, miqdorlar orasidagi munosabatlarning eng sodda grafiklari, figuralarning oʻxshashligi tushunchasi va boshqa yangi materiallarning kiritilishi yana II sinfdan boshlab harfiy belgilashlar va chizish qurollardan foydalanish oʻquvchilarning umum ta'limiy darajasini, ularning matematik madaniyatini oshiradi. Amaliy masalalar yechishda geometrik bilimlarni tadbiq qilish malakalarini shakllantirishda yordam beradi.

**REFERENCES**

1. Jumaev M.E. Tadjieva 3.F. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi. (OO'Yu uchun darslik.) Toshkent. "Fan va texnologiya", 2005 yil. 197-
2. 201b.
3. Jumaev M.E. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasidan praktikum. (OO'Yu uchun o'quv qo'llanma ) Toshkent. "Oqituvchi", 2004 yil.83-90b.
4. Jumaev M.E. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasidan laboratoriya mashg'ulotlari. (OO'Yu uchun o'quv qo'llanma) Toshkent. "Yangi asr avlodi", 2006 yil.147-150b

ISSN: 2181-3906
International scientific journal
«MODERN SCIENCE AND RESEARCH»
VOLUME 1 / ISSUE 3

# METHODOLOGY FOR USING GAMES IN TEACHING FOREIGN LANGUAGES

**Jalalova Sevara Janabay kizi**
Chirchik State Pedagogical University
XTA-student of the direction of foreign language and literature (English)

***https://doi.org/10.5281/zenodo.7539655***

***Abstract.*** *In this article, it is considered that the use of games is the key to success in teaching foreign languages to students.*

***Key words:*** *linguistic games, small groups, sunflower game, blackboard, let's play together, idea.*

# МЕТОДИКА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИГР В ОБУЧЕНИИ ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ

***Аннотация.*** *В данной статье рассматривается, что использование игр является ключом к успеху в обучении студентов иностранным языкам.*

***Ключевые слова:*** *лингвистические игры, малые группы, игра "подсолнух", классная доска, давайте поиграем вместе, идея.*

Nowadays, in our country, which is rapidly developing day by day, there is an increasing demand for specialists who perfectly master foreign languages. Therefore, much attention is paid to teaching the younger generation of foreign languages even in the period from preschool to higher education.

Looking back at our past years and intoxicating it, we notice that in education we are going through a period of total renewal and adaptation to it.

In today's dynamically developing education, we need advanced pedagogical technologies, as well as advanced teachers, so that we can kill the fire and bring it to high heights in every possible way.Learning and teaching foreign languages is a long and perfect process. It requires regular work from a person and work on oneself. It is clear that the use of various interactive techniques in the process of teaching foreign languages to cultivate oral skills makes language learning a girlish and hobby.

To increase the wealth of students' speech in a foreign language and its effectiveness, it is advisable to use educational games in the lesson. From experiments it is known that the game expands the imagination when learning a new language, makes it possible to think and speak the same language.with the help of the game, it is possible to restore words forgotten in memory. Games that are played in small-to-small groups or in general can be used in the lesson or in circle training during the lesson process. This in turn will not fail to pay off of course. When playing alone and finding a solution to a problem, the reader feels a real feeling of joy. And team games teach to achieve success and liberalize speech.

In linguistic games, it is possible to grow an oral and written defect in students, generating situations of communication.

## METHOD AND METHODOLOGY

Games or game-style exercises conducted in a foreign language all open the way to the magical world of words. Therefore, I think that everyone who says that I will be a real foreign language teacher should be creative, that is, it is always possible to adapt to the knowledge of students without using the same games, changing their words every time, choosing the optimal

one, creating new ones and generally using these games to make the lesson more interesting and interesting.

In such lessons and circle classes, students will never get bored and fully attend the lesson, while looking forward to the next lesson. Below I want to illustrate some of the games I use for my students who are learning English in their free time from class and also recommend them to my peers who want to become teachers in the future:

1.Game “sunflower”. In this game, students are divided into groups of 4-5 people. The teacher, based on the subject of the subject, throws one problem in the middle. Each group makes a sunflower and sticks leaves, placing a circle in its center. Depending on the topic, each group on the circle is written one common problem and glued to the board. In the allotted time, the groups together write their thoughts on a leaf and place it in a flower where that group problem is written. This technique can be used to explain the topic covered, reinforce and repeat it, and to identify the knowledge acquired by readers.

In our next game, the task is performed in pairs. In this, the first participant gives his name in a foreign language, and the second participant adds his own name to him, saying the name of his comrade.

For example:

**First reader:** My name is Jeremie

**Second Reader:** His name is Jeremie and my name is Nicole, and others. The game will continue on this throne. From such games can be spent at the beginning of the school year with students who are just getting acquainted. Through this, they learn in English the names of their fellow citizens as well.

**What is your name ? What is your hobby?** and in the game, the participants sit in a circle. This will require a soft small ball. In this, the presenter races the ball to one of the participants. The reader who received the ball should say his name and talk about himself. Then he shoots the ball to another participant. And the reader who fails to fulfill the condition comes out of the game

For example:

1.My the name is Ruslan. I like drawing.

2. My name is Anne .I like reading books

3. Meningism im..... I like it.....

It is possible to apply such as (dancing, playing football, a list of music, going to the movies, going to the theater, playing chess).

**Team games.**

The purpose of this game, which is played without using the word **“Yes”** or **“No”,** is to expand the imagination of students, increase their creativity, teach them to ask questions. 2 or more teams participate in the game with their 5 or 6 players. The first participant of one of the teams gets to the middle and introduces himself, and the members of the opposing teams ask him questions that will be answered with a short “yes” or “no”. The player, on the other hand, must apply other answer options to these questions instead of using the word “yes” or “no”. 1 question and answer lasts about 30 seconds and is done very quickly. The player should not be given a chance to think. The person who is running the game must check whether the player who is answering, depending on the hour, is responding to his questions in 30 seconds or a minute. If a player answers questions quickly without using the word “yes” or “no” for a minute, he is

considered the first to score, otherwise he is considered a loser. And a score is added to the reader who asked the question. The points scored are calculated by each reader or team.

**The questions to ask can be as follows:**

**Opponent:** do you have a cat?

**Player:** Of Course!

**Opponent**: do you love him?

**Player:** Although Not!

**Opponent:** is his color black?

**Player:** Completely

**Second game:**

**Groupe adventure:** Have you ever gone to Tashkent?

**Joueur 2:** Of Course!

**Groupe adverse:** do you like that place?

**Joueur 2:** I haven't seen a place yet!

**Groupe adverse:** have you watched The Fountains?

**Joueur 2**: I didn't have time!

**RESEARCH RESULT AND DISCUSSION**

Team games are much more complex and readers can use dictionaries. But no special manuals are required to run these games. And the participants in the game will need paper and a pen.

Technique **"LET'S STUDY TOGETHER".** In this case, the training group is divided into small groups. In each small group there will be an expert and will teach others. The goal of each group is to fully assimilate the knowledge of the participants of all other groups on the topic.

The structure of the process of organizing work in groups using the "LeT's study together" technique:

1. Depending on the level of knowledge, groups of different types are formed, consisting of 3-5 people.
2. Each group is assigned one task.
3. Within each group, a common assignment is distributed.
4. Everyone performs an Individual Assignment.
5. Mini-lectures of all group members are listened to.

The overall result is formed and prepared for its presentation.

In addition to these games, it is possible to achieve the expected results if the following types of exercises are also used:

1. Place the pictures on the basis of the given words - instead.
2. Work in pairs, apply vocabulary in dialogues.
3. Exercises that teach independent thinking (describe, draw or write down the house or apartment of my dream).
3. Listen and stage the dialogue.
4. Find the flaw in the image. Write a letter to the artist, finding how he made a mistake.
5.Hear opinions and express your attitude towards him. And hakozo is such a type of exercise, which can be continued again with a creative approach.

**CONCLUSION**

In conclusion, it can be said that in order to create the spirit, mood of the competition in the classroom, it is advisable for the teacher to announce the result of the games once a month and hold the final competition. But it should be remembered-the most important thing in all games is not victory, but participation.

**REFERENCES**

1. Jalalav J.J. Foreign Language Teaching Methodology. T.:2012.
2. Khashimov A., I. Yagubov. English teaching methodology T.: 2003 y.
3. Rogova G.B., Rabinovich F.M., Sakharova E.E. Methods of teaching foreign languages in secondary school Moscow: Prosveshchenie, 1991

## BOSHLANG'ICH SINFLARNING MATEMATIKA DARSLARIDA MATEMATIK NUTQNI RIVOJLANTIRISH

**Xalilova Feruza Mirshavkatovna**
Toshkent shahar Olmazor tumani 111- maktab Boshlang'ich sinf o'qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7539676

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarning matematika darslarida matematik nutqni rivojlantirish yuzasidan ma'lumotlar va misollar keltirib o'tildi.*

***Kalit so'zlar:*** *Matematika, boshlang'ich ta'lim, nutq, chizma, Matematika va logika.*

## РАЗВИТИЕ МАТЕМАТИЧЕСКОЙ РЕЧИ НА УРОКАХ МАТЕМАТИКИ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

***Аннотация.*** *В данной статье были представлены сведения и примеры по развитию математической речи на уроках математики в начальной школе.*

***Ключевые слова:*** *Математика, начальное образование, речь, рисование, Математика и логика.*

## DEVELOPMENT OF MATHEMATICAL SPEECH IN PRIMARY CLASS MATHEMATICS LESSONS

***Abstract.*** *In this article, information and examples on the development of mathematical speech in elementary school mathematics classes were presented.*

***Keywords:*** *Mathematics, primary education, speech, drawing, Mathematics and logic.*

Ma'lumki matematik nutq umumiy nutqni tarkibiy qismidir. Boshqa fanlar qatori matematik nutq ham bola nutqini rivojlantirib, uni so'z zaxirasini oshirib borishida muhim o'rin egallaydi. Matematika darslarida mantiqiy fikrlashni o'stirishda matematik nutq muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Chunki turmushda va hayotda bo'ladigan jarayonlarni matematik modelini tuzish uchun bu jarayon tilda aytib tasavvur qila olish kerak. Shu bois matematika darslarida o'quvchilarni mantiqiy tasavvurini rivojlantirish usullarini o'rganiladi. Mantiqiy fikrlash bo'layotgan jarayonni o'quvchilar tomonidan tasavvur etib, so'ng uni til bilan bayon etishda bolada matematik nutq rivojlanib boradi. O'quvchilar tomonidan matematik formulalarni so'z bilan ifodali qilib aytishda ham nutq rivojlanadi. Shu bois maqolada matematik qobiliyat va uni rivojlanishiga ko'proq urg'u berilgan. O'quvchilardagi og'zaki hisoblash malakalarni shakllantirishda ham nutq rivojlanadi. Og'zaki nutqni rivojlanishida masala va misollar yechish ham muhim ahamiyatga ega. Bunga bir qator qiziqarli misol, masalalar tuzib, uni yechish mobaynida matematik nutq rivojlanishini ko'rsatib berilgan.

Sir emaski, keyingi vaqtlarda umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarida bola nutqini rivojlanishiga uncha ahamiyat bermayapti va natijada bolani matematik bilimi sayoz bo'lib qolmoqda. Bolada matematik nutqi rivojlanishi uni o'ylagan fikrini aniq va lo'nda bayon etishi asos bo'lib xizmat qiladi. Matematik nutq o'quvchida dars jarayonida, uy vazifasini bayon etib berishda, berilganlar asosida masala tuzishda, rasmga qarab misol va masala tuzishda asta-sekin rivojlanadi va sayqalanib boradi.

**O'quvchilar bilib olish faoliyatini rivojlantirish usullari.**

O'qitish jarayonining ikki tomoni bor: o'qituvchi o'qitadi, o'quvchi o'qiydi, o'qitishning muvaffaqqiyati faqat o'qituvchining muvaffaqiyati faqat o'qituvchining ilmiy va metodik bilimdonligigagina bog'liq bo'lib qolmasdan, o'quvchining bilimini o'zlashtirishdagi

ijodiy aktivligi va mustaqilligiga ham bog'liq, hatto mana bunday deyish ham to'g'riroq bo'ladi; o'qituvchining ustaligini o'z o'quvchilarini o'quv jarayoniga faol ravishda jalb qila olish darajasiga qarab baholash mumkin; matematika o'qitishda o'quvchilarning mustaqil aqliy va amaliy ishlarini tashkil qila olgan pedagog usta pedagogdir.

O'qitish ishida eng asosiysi, o'qituvchining materialni bayon qilishi emas, balki o'quvchilarning faol ijodiy ishlaridir deb tasdiqlash yuqorida aytilgan ma'noda juda to'g'ri bo'ladi. Bu so'zlarni o'qitishdagi bayon metodini rad qilish deb tushunish yaramaydi. O'qitishdagi bayon metodi o'quvchilarda qiziqish va ularning diqqatini uyg'otishi, ular oldiga kelajakda yechishga to'g'ri keladigan masalalar va muammolarni qo'yishi kerak.

O'quvchilarning fikrlash faoliyatini rivojlantirishning mazmuni quyidagilardan iborat:

1. Yangi bilimlarni o'zgartirishda va ularni amalda qo'llanishda fikrni mustaqil ravishda ishlatish.

2. Bilib olish qobilayatini rivojlantirish ( ya'ni matematik tadqiqot metodlarini va ularni yangi masalalar yechishga tatbiq qilish malakalarini o'zlashtirish.)

3. Har tomonlama psixik rivojlanishi, ya'ni tegishli iroda sifatlarning tashkil topishi, aqliy mehnatga bo'lgan qiziqishning rivojlanishi, o'quv faoliyati sabablarini anglash va hokazolar.

Shunday qilib, o'quvchilarni fikrlash faoliyatini rivojlantirish deganda, ularning bilimlarini takomillashtirish va tatbiq qilish jarayonida bu jarayonga bog'liq bo'lgan mustaqil aqliy va amaliy faoliyatni kuchaytirish asosida har tomonlama taraqqiy qilishini tushunamiz.

O'quvchining faol o'quv faoliyatini uyushtirishda o'qituvchining ro'li, o'qitishning passiv metodlariga nisbatan, ya'ni o'quvchining vazifasi faqat eshitish, esda saqlab qolish va takrorlashdan iborat bo'lgan metodga nisbatan beqiyos ortadi. Shubhasizki, bunda bunday darslarni o'tkazishning qiyinligi unga tayyorgarlikning murakkabligi ortadi. Lekin, buning evaziga o'qituvchi o'quvchilarining puxta, oydin anglashilgan bilim olishiga, to'la qonli aqliy rivijlanishiga har qanday ijodiy ixtisosni egallashiga yaxshi tayyorlanishiga erishadi.

Matematika o'qitish jarayonini faollashtirishga qanday qilib erishish mumkin? Hamma sinflar uchun va maktab kursining hamma bo'limlarga doir yagona andoza yo'q, albatta. Hatto, yangi o'qituvchi uchun ustalikning sirlarini bilib olishga imkon beruvchi pedagogik "abadiy mashina" o'ylab topish naqadar qiziqarli bo'lmasin, eng yaxshisi, har bir o'qituvchi o'qitishning foydali tomonini doimo ijodiy qidirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yishi kerak

**Misol:**

**1-misol:**

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Qo'shiluvchi | 60 | 32 | 24 | 50 | 26 | 14 | 57 |
| Qo'shiluvchi | 40 | 8 | 13 | 5 | 32 | 6 | 32 |
| Yig'indi | 100 | 40 | 37 | 55 | 58 | 20 | 89 |

**2-misol:**

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Kamayuvchi | 90 | 80 | 38 | 57 | 96 | 70 | 49 |
| Ayriluvchi | 50 | 30 | 30 | 32 | 44 | 10 | 24 |
| Ayirma | 40 | 50 | 8 | 25 | 52 | 60 | 25 |

**3-misol:** Ko’pburchakning barcha tomonlari uzunliklari yig’indisi uning perimetridir. To’rtburchakning perimetrini toping:




8+3+6+2=19 (sm)

**4-misol:**

29+32=(20+30)+(9+2)=50+11=61

29+32=(20+30)+(9+2)=50+11=61

| O’nlik | Birlik |
|---|---|
| +2 | 9 |
| 3 | 2 |
| 6 | 1 |

1. O’nliklar o’nliklarning tagiga, birliklar birliklarning tagiga yoziladi. 2. Birliklar birliklarga qo’shiladi.

9 birl. + 2 birl. = 11 birl.

11 birl. – bu 1 o’nl. va 1 birl.

Birliklar ostiga 1 yozib, 1 o’nlikni o’nliklarga qo’shib yozish uchun esda saqlab qolinadi.

3. O’nlik o’nlikka qo’shiladi. 2 o’nl. + 3 o’nl. = 5 o’nl.

5 o’nl. + 1 o’nl. = 6 o’nl. O’nliklar ostiga 6 yoziladi.

5. Javob: 29 bilan 32 ning yig’indisi 61 ga teng.

**Matematika va logika.**

Matematikaning mantiqiy tafakkur rivojlanishi uchun qanday ahamiyatga ega ekanligi qadim zamonlardanoq ma’lum edi. Tafakkurning matematik stili haqida, har qanday ixtisosdagi mutaxasislarning uni bilishi kerakligi haqida gapirar ekanmiz, bunda mantiqiy tafakkurning yuqori sifatlari yuqori, qisqalik, tartiblanganlik hatto kichkina bo’lsa ham soxtalikka yo’l qo’ymaslik to’la dalil keltirish va hokazolarni tushunamiz. Ko’p kishilar bu qobiliyatlarni ko’pchiligi til, adabiyot, tarixni o’rganish jarayonida ham rivojlanadi deyishlari mumkin. Har bir fan o’quvchilarning aqliy kuchini rivojlantirishi kerak. Lekin, mantiqiy tafakkurning shakllanishda matematika so’zsiz birinchi darajali ahamiyatiga egadir, chunki u soxta da’volar bilan uzviy kelisha olmaydi, u so’zla fikrlashni haqiqatga o’xshatib ko’rsatishdan ko’ra rad qilishni afzal ko’radigan noyob fanlardan biridir ana shuning uchun ham matematika o’qituvchisining jamiyat oldida mas’uliyati juda kattadir ahir tafakkur stil ko’p jihatdan o’qitish stili bog’liqdir.

Mashhur matematik va pedogog A.Y.Xinchin matematik tafakkur madaniyat haqida ota-onalar va o’quvchilar bilan suhbat o’tkazganda, ko’pincha, “Matematikada qobliyati yo’q ” degan javobni eshitasiz. Matematik qobiliyat nima? Uni rivojlantirish mumkinmi ?

Matematik qobiliyatlar quyidagilar .

1. Hisoblash (algoritmlash) qobiliyati, bu murakkab algebraik shakl almashtira bilish xarakterlanadi.

2. Logik tafakkur qobiliyati –izchil, to'g'ri qismlarga ajratilgan mantiqiy mulohaza san'ati.

3. Fazoviy tasavvur yoki geometrik intuatsiya matematikaning turli tadbiqlari ham bu qobiliyatlarning bir xilda rivojlanishi talab qilmaydi: bir sohada hisoblash uchun yaxshi algoritmni topish muhimroq bo'lsa, boshqa sohalar uchun mantiqiy fikrlashni bilish muhimdir.

Shu sababli, o'qituvchi o'quvchilarning kunlik matematika qobiliyatlarini rivojlantirish uchun keng yo'l ochib berishi kerak. Matematika qobiliyatlari tuzilishida quyidagi asosiy tarkibiy qismlarni ajratib ko'rsatadi.

1. Matematika materialni formalashtirib idrok qilish, ya'ni aniq masalada uning matematika formasini tezgina sezib ola bilish.

2. Matematika ob'yektlarni, nisbatlarni va amallarni tez va keng ravishda umumlashtirish.

3. Matematika mulohaza protsessini va tegishli amallar sistemani ixchamlash ya'ni mulohazaning ba'zi oraliq guruhlarni o'z o'zidan ma'lum faraz qilib tashlab ketish.

4. Matematika masalarni yechishda fikrlash jarayonining uyg'unligi.

5. To'g'ri fikrlashdan teshkari fikrlashga tez o'ta bilish imkoniyati.

6. Aqliy zo'riqishni o'ziga xos tejashga harakat qilish matematik masalalari, aniq, ratsional ravishda yechishga intilish.

7. Matematik xotira.

O'qituvchilar matematikaga qobiliyatsiz deb hisoblagan o'quvchilardan bu sifatlar yo'q edi. Ikki xolni nazarda tutish kerak. Brinchidan, o'quvchiarning o'qishda bo'lgan muvaffaqiyatlariga qarab, qobiliyatlari haqida katta ishonch bilan hukm chiqarish yaramaydi.

Kashfiyotchi Edison filosof Gegel matematik Luzin o'qish davrida ‚qobiliyatsiz"deb e'lon qilinishini esga olaylik. O'zining ba'zi o'quvchilarini qobiliyatsiz yoki qobiliyatli ham deb e'lon qilishga shoshiladigan o'qituvchilar uchun bu (fakt) doimiy ogohlantirish bo'lish kerak. Angliyalik pedagog Doris 100 ta o'g'il qiz o'quvchisini besh yil o'qitgandan keyin, ularning matematik qobiliyatlarini va matematikadan o'zlashtirishlarini taqqoslab ko'rgan yomon ulguruvchi o'quvchilari ba'zan yuqori matematik qobiliyat oshkor qilar ekan, bu qobiliyatlarning rivojlanishiga faqat bu o'qituvchilarning mashg'ulotlarga qiziqmasligi sabab bo'lgan ekan Ikkinchidan, dastur materiallari hamma o'quvchilarning o'zlashtirishga erishish yo'li bilan matematikaga bo'lgan har qanday qobiliyatsizlikni yo'qotish mumkin. Bu yerda gap o'quvchilarda yuqorida aytib o'tilgan qobiliyatlarni rivojlantirish ustida boradi.

Bu masalani hal qilish uchun sinfdagi butun o'quv ishlarini „o'rtacha" o'quvchiga moslashtirish yaramaydi

Bu bilan qobiliyatli va kam qobiliyatli o'quvchilarga zarar yetadi. Ravshanki, sinfda jamoaviy ishlar bilan bir qatorga o'quvchilar bilan o'tkaziladigan mustaqil ishlarga ham yetarli darajada ahamiyat berish kerak. Bunda ular tafakkurining kuchli yoki kuchsiz tomonlariga moslab ish olib borish lozim. Bunda matematikaga oid didaktik materiallar (tarqatma materiallar, daftarlar) da dastur materiallarini o'zlashtirishnigina emas, balki

maxsus matematik qobiliyatlarni rivojlantirishni ko'zda tutish lozimligi kelib chiqadi. Aniqroq qilib aytganda, matematik qobiliyat va tafakkur matematikadan maktab kursi darsining butun bo'linmalarini o'rganish davomida rivojlantirish kerak bu xol matematik haqida erishish u, ular bilan bog'liq bo'lgan izlanishlarga, sinashlar xatolar, aqliy mehnat usullarini anglashga alohida e'tibor berishga majbur qildi. O'qituvchining barcha ishlar metodikasi ana shu qoidalarga asosan tutilishi kerak. O'qituvchilarning matematikani o'rganish ijodiy faoliyatini rivojlantirish ularning matematik va aqliy qobiliyatini maktab darajasida ochish uchun kalitdir. Ularning matematik tafakkurlarning effektini shakllantirish yo'li ana shundadir.

**REFERENCES**

1. N.Abdurahmonova. L.O'rinboeva. "Matematika" darslik. Toshknt "Yangiyo'l Poligraf Servis" 2018.y
2. S.Burhonov, O'.Hudoyorov, Q.Norqulova, N.Ruzikulova, L.Goipova "MATEMATIKA" darslik. "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. Toshkent - 2019 y.

ISSN: 2181-3906

International scientific journal «MODERN SCIENCE AND RESEARCH» VOLUME 1 / ISSUE 3

# XUSUSIY TA'LIMNING JAMIYATDAGI O'RNI

**Allaberganov Xusniddin Xushnudovich**
TATU Samarqand filiali "Kampyuter injinering" yo'nalishi talabasi
+99893 758 61 60(mob)
xusniddinagllaberganov@gmail.com
**Nuriddinov Asilbek Farhod o'g'li**
TATU Samarqand filiali "Kampyuter injinering" yo'nalishi talabasi
**To'xtayev Sherxon Nuridin o'g'li**
TATU Samarqand filiali "Kampyuter injinering" yo'nalishi talabasi

https://doi.org/10.5281/zenodo.7539684

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada xususiy ta'limning jamiyatdagi o'rni haqida kengroq ma'lumotlar berilgan. Nodavlat ta'lim xizmatlarini ko'rsatish faoliyati to'g'risidagi qarorlar ham muhokama qilib o'tiladi. Shuningdek nodavlat ta'lim muassasalariga berilayotgan imkoniyatlar haqida kengroq yoritiladi.*

***Kalit so'zlar:*** *xususiy, imkoniyat, oliygoh, ta'lim, bilim, investitsiya, jamiyat.*

## РОЛЬ ЧАСТНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В ОБЩЕСТВЕ

***Аннотация***. *В данной статье представлена дополнительная информация о роли частного образования в жизни общества. Также обсуждаются решения об оказании негосударственных образовательных услуг. Также более подробно будут освещены возможности, предоставляемые негосударственным образовательным учреждениям.*

***Ключевые слова:*** *частный, возможность, университет, образование, знания, инвестиции, общество.*

## ROLE OF PRIVATE EDUCATION IN SOCIETY

***Abstract.*** *This article provides more information about the role of private education in society. Decisions on the provision of non-state educational services are also discussed. Also, the opportunities provided to non-state educational institutions will be covered in more detail.*

***Key words:*** *private, opportunity, university, education, knowledge, investment, society.*

Ta'lim – bilim berish, malaka va ko'nikmalar hosil qilish jarayoni, kishini hayotga va mehnatga tayyorlashning asosiy vositasidir. Ta'lim jarayonida ma'lumot olinadi va tarbiya amalga oshiriladi. Ta'lim tor va keng ma'noda tushuniladi. Tor ma'noda o'qitish tushunchasini anglatadi. Lekin u faqat turli tipdagi o'quv yurtlarida o'qitish jarayonini emas oila ishlab chiqarish va boshqa sohalarda ma'lumot berish jarayonini ham bildiradi. Ta'lim va tarbiya jarayonida shaxsning sifatlari, dunyoqarashi, qobilyati o'sadi. Inson hayotida ta'limning o'rni kattadir. Jamiyatning tayanch nuqtasi - ta'lim. Prezidentimizning Oliy Majlis va xalqimizga yo'llagan murojaatnomasini muhim yo'nalishlaridan biri ham ta'lim siyosati bo'ladi. Ta'limga yo'naltirilgan sarmoya- kelajakka yo'naltirilgan sarmoya, demakdir.

Yangi O'zbekistonni barpo etish, yuksak iqtisodiy taraqqiyotga erishish va aholini faravonligini ta'minlash kabi pirovard maqsadlarga ta'lim sohasini tubdan o'zgartirmasdan zamonaviy asosda qayta qurmasdan turib erishib bo'lmaydi. Mamlakat uchun davlat ta'lim tizimining qay darajada ekanligi va kelajakda qanday kadrlar tayyorlanishi muhim ahamiyatga ega. Hozirda mamlakatimiz ta'lim sohasiga diqqat e'tiborini qaratmoqda. Ta'lim yurt kelajagi, rivoji uchun muhim. Bugungi kunda ta'lim sohasining dolzarb masalalaridan biri – bu

mamlakatimizda nodavlat, xususiy ta'lim tizimini rivojlantirishdir. Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyev nodavlat ta'lim tizimi ravnaqiga katta e'tibor qaratmoqda.

Xususan, O'zbekiston Respublikasining Prezidentining "Nodavlat ta'lim xizmatlarini ko'rsatish faoliyatini yanada rivojlantirish chora – tadbirlari to'g'risida" 2017-yil 15- sentabrda PQ – 3276- son qarori qabul qilindi.

Ushbu qarorni ijrosini ta'minlash maqsadida hamda, nodavlat ta'lim xizmatlari ko'rsatish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar uchun qulay sharoit yaratish, davlat - xususiy sheriklik asosida tashkil etilayotgan ta'lim muassasalarini tarmog'ini kengaytirish, nodavlat ta'lim xizmatlari ko'rsatish sohasidagi faoliyatni litsenziyalash tartibini soddalashtirish orqali litsenziya da'vogarlariga qulay imkoniyatlar yaratish maqsadida Vazirlar Mahkamasi 2018-yil 27-martdagi 241 – sonli qarori qabul qilindi. Hozirgi kunda respublikada 43 ta nodavlat umumiy o'rta ta'lim maktabi tegishli litsenziyaga ega bo'lib, xalq ta'lim tizimidagi 9680 ta maktabga nisbatan ularning ulushi 0,4 foizni tashkil etadi. Nodavlat umumiy o'rta ta'lim maktablarining aksariyat qismi Toshkent shahrida joylashgan. Bundan tashqari Prezidentning 5.09.2018 yildagi PQ–3931-son qarori bilan nodavlat ta'lim muassasalari uchun bir qator soliq va bojxona imtiyozlari joriy qilindi.

***Birinchidan***, 15.09.2017 yildagi PQ–3276-son qarorda nazarda tutilgan imtiyozlarning amal qilishi 2025 yil 1 yanvargacha uzaytirildi. Aynan nodavlat ta'lim xizmatlarini koʻrsatish (*maktabgacha va umumiy oʻrta ta'lim sohasida*) faoliyati bilan shugʻullanadigan yuridik shaxslarni quyidagi toʻlovlardan ozod qilish toʻgʻrisida soʻz boradi:

- barcha turdagi soliq va davlat maqsadli jamgʻarmasiga majburiy toʻlovlardan (YaITdan tashqari), bunda ozod qilinayotgan mablagʻlar ularni zamonaviy oʻquv vositalari bilan jihozlash, zarur mahsulotlar va jihozlar sotib olish, bino va inshootlarni rekonstruksiya qilish, kapital ta'mirlash hamda aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamiga bepul ta'lim xizmatlarini koʻrsatishga maqsadli yoʻnaltiriladi;
- mehnat shartnomasi asosida ta'lim-tarbiya jarayoniga jalb qilingan xorijiy oʻqituvchi va mutaxassislarning oylik ish haqidan yagona ijtimoiy toʻlov.

Avvalboshdan mazkur imtiyozlar 2021 yilgacha boʻlgan muddatga joriy etilgan edi.

***Ikkinchidan***, oʻzimizda ishlab chiqarilmaydigan hamda nodavlat umumta'lim muassasalarini jihozlash va faoliyatini ta'minlash uchun olib kiriladigan zamonaviy oʻquv va laboratoriya uskunalari, kompyuter texnikasi, dasturiy mahsulotlar, oʻquv va ilmiy-metodik adabiyotlar, inventar va moddiy-texnika resurslari 2025 yilgacha bojxona toʻlovlaridan rasman ozod qilindi.

***Uchinchidan***, chet ellik oʻqituvchilar va mutaxassislar, ularning oila a'zolariga koʻp martalik vizalar, shuningdek Oʻzbekistonda yashash joyida vaqtinchalik propiska davlat bojini undirmasdan rasmiylashtiriladi va uzaytiriladi. Mamlakatimizga chet ellik oʻqituvchilar va mutaxassislarni jalb etish uchun ruxsatnomalar, mazkur fuqarolar mehnat faoliyatini amalga oshirish huquqining tasdiqnomalari Xalq ta'limi vazirligining buyurtmanomalariga koʻra Mehnat vazirligi tomonidan beriladi.

***Toʻrtinchidan***, Xalq ta'limi vazirligi umumta'lim muassasalari oʻqituvchilari professional faoliyat yuritganda ularning huquq va erkinliklari buzilganligi toʻgʻrisida davlat bojini toʻlamay da'vo arizalari bilan murojaat qilishi mumkin.

Hozirgi kunda xususiy bog'chalar, xususiy maktablar rivojlanish uchun turli imtiyozlar berilmoqda. Shu sababdan turli viloyatlarda xususiy internat maktablar, xususiy bog'chalar va xususiy oliygohlar o'z faoliyatini yuritmoqda. Shuningdek, ba'zi viloyatlarda chet el oliygohlarining filiallari o'zining ta'lim sifatini ko'rsatmoqda. Bu ishlar jamiyat kelajagi yo'lida qilinayotgan sayi- harakatlaridan biridir.

Yangi maktablar qurish mavjudlarini kengaytirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda. Jumladan xususiy investitsiyalar ishtirokida 100 ta maktab qurish loyihalari boshlandi, kelgusi besh yilda ularning soni mingtaga yetkaziladi.2019-yilning 29-aprel kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev "O'zbekistan Respublikasi Xalq ta'limi tizmini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi farmonga imzo chekdi. Hujjatda xalq ta'limi tizmida mavjud muammolar va ularni yechish uchun amalga oshiriladigan chora-tadbirlar belgilandi. Jumladan, konsepsiya tizimda islohatlar amalga oshiriladigan 9 ta yo'nalish va 48 ta ko'rsatkichni belgilab bergan.

Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini samarali ijrosi mamlakatimizda ta'lim sifatini oshirishga turtki bo'ladi. Ta'lim-tarbiya ishlarini samarali olib borishda o'qituvchilarning o'rni muhim. Mamlakatimizda xususiy ta'limning rivojlantirilishi davlat va nodavlat ta'lim muassasalariga bir xil imkomiyatlarining yaratilib berilishi qanday ijobiy va salbiy oqibatlarga olib keladi?

Birinchidan, ta'lim dargohlari o'rtasida raqobat paydo bo'ladi. Raqobat esa sohaning rivojlanishiga, sifatning oshishiga olib keladi.

Ikkinchidan, byudjet yuki kamayadi, davlat ta'lim muassasalariga ko'proq mablag' ajratila boshlaydi, natijada barcha maktablarda umumiy sharoit yaxshilana boradi, o'qituvchilarning oyligini oshirish, sinfda bolalar sonini kamaytirish va boshqa kerakli imkoniyatlar ko'payadi.

Uchinchidan, jamiyatimizda chuqur ildiz oltib ketgan korrupsiya balosini kamaytirishga erishiladi.

To'rtinchidan, bilimni mahoratli pedagoglar safi kengayadi, negaki, jamiyatda ularga ehtiyoj kuchayadi, malakali o'qituvchilar talash bo'lib ketadi, reytingiga qarab oyligi ham oshib boraveradi. Natijada jamiyatimizda professional o'qituvchilar ko'paysa bilimli insonlar ham ko'payadi, bundan jamiyat rivojlanadi, hayot yanada faravon bo'ladi. Nodavlat ta'lim muassasalariga bo'lgan ehtioj yanada kuchayadi. Nodavlat ta'lim muassasalarining ijobiy tromonlari bilan birga salbiy tomonlari ham bor.

Bugungi kunda nodavlat ta'lim muassasalari ko'payib bormoqda. Abituriyentlarga imtixonsiz talaba bo'lish imkoniyati berildi. Beriliyotgan imkoniyatlardan yoshlarning ta'lim saviyasini oshishiga emas balki, pasayishiga ham olib keladi. Bularning oldini olish uchun nodavlat ta'lim muassasalarida abituriyentlardan davlar imtixonlari olingani ma'qul. Oliy ta'lim tizimida ijtimoiy muhofazaga keng o'rin berilayotgani e'tiborga molik. Masalan, 2023 -yilda oliygoh talabalari uchun imtiyozli ta'lim kreditlariga resurslar 2 barobar ko'paytirilib, 1,7 trilion so'm ajratiladigan bo'ldi. Bu yil ilm-fan innovatsiyalarga 1,5 trillion so'm yo'naltirildi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyayev bejizga 2023-yilni "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim" deya nomlamadi. Endilikda qishloq hududlarida ham xorijiy tillarni o'qitish bo'yicha nodavlat ta'lim muassasalarini tashkil qilmoqchi bo'lgan yoshlarga bir martalik subsidiya olishi uchun imkoniyat berildi. Buning uchun talabgor calendar yilning har choragi birinchi oyining 10-sanasiga qadar my.gov.uz sayti orqali onlayn ariza berishi mumkin. Shahar markazlarida esa

nodavlat talim muassalari kundan kunga ko'payib bormoqda. Bu jaroyon kuchli raqobat yuzaga kelishiga turtki bo'lmoqda.

Yosh avlodni Vatanga muhabbat va yurtga sadoqat ruhida tarbiyalash uchun ta'lim va tarbiyaning o'rni kattadir.Ta'lim va tarbiyani bir biridan ajratib bo'lmaydi. Xususiy maktab va oliy o'quv yurtlarining yildan yilga ko'payib borishi biz yoshlar uchun kata imkoniyatdir. Xulosa qilib aytganda so'ngi yillarda O'zbekistonda ta'lim tizimiga boshqacha yondashish zarurligi dolzarb masalaga aylanib boradi.

Sohadagi kamchiliklar, ayniqsa qog'ozbozlik va korrupsiya holatlariga nisbatan tanqidlar kuchaydi. Maktab va oliy ta'lim muassasalarining shu paytgacha davlat byudjeti hisobidan yashab kelgani ham buning sabalaridan biridir. Chunki bunday tizimda sifat emas son ketidan quviladi. Doimiy ta'minot bo'lib turgani sababli o'z -o'zidan raqobat muhiti yo'qoldi. Faqat natija va hisob uchun ishlatildi. Davlat xususiy ta'lim dargohlarini ko'paytirishga e'tibor qaratayotganda ana shu omillarni ham hisobga olgan bo'lsa ajab emas.

Prezident va hukumat vakillarining so'nggi yillarda qabul qilayotgan farmon va qarorlari asosida xususiy ta'lim muassasalariga yaratib berilayotgan shart-sharoit bu boradagi yondashuv o'zgarib borayotganidan dalolat beradi. Xususiy ta'lim hamisha o'zini oqlagan. Bu turdagi ta'lim muassasalari o'z kunini o'zi ko'rgani uchun ham, o'zaro raqobatga kirishadi va sifatli ta'lim berish, yaxshiroq natija ko'rsatish uchun kurshadi.

Davlat va nodavlat ta'lim muassasalarini ko'paytirish va ularni qo'llab- quvvatlash siyosatini boshlagan ekan, jamiyat uchun umuman olganda mamlakat kelajagi uchun eng to'g'ri qadam tashlandi deb ayta olamiz.

**REFERENCES**

1. https://www.norma.uz/oz/qonunchilikda_yangi/hususiy_talim_muassasalariga_-_yangi_imtiezlar
2. https://edu.uz
3. https://www.norma.uz/oz/qonunchilikda_yangi/hususiy_talim_muassasalariga_-_yangi_imtiezlar
4. https://mitc.uz/uz/news/view/4274

# ТАКРОР ИШЛАБ ЧИҚАРИШ ЖАРАЁНИДА ИНСОН КАПИТАЛИНИ ТАДҚИҚ ҚИЛИШ БОРАСИДАГИ НАЗАРИЙ ЁНДАШУВЛАР

**Мамажанова Саида Воҳабжоновна**
Гулистон давлат университети катта ўқитувчиси
**Шарафиддинов Нозим Ўктам ўғли**
Гулистон давлат университети талабаси

https://doi.org/10.5281/zenodo.7540156

***Аннотация.*** *Ушбу мақолада инновацион иқтисодиётни шакллантириш шароитида инсон капиталини такрор ҳосил қилиш ва ундан самарали фойдаланиш юзасидан таклиф ва тавсиялар ишлаб чиқишдан иборат.*

***Калит сўзлар:*** *капитал, инкроз, даромад, тадбиркорлик, трансформация, солиқ, ялпи ички маҳсулот.*

# ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К ИССЛЕДОВАНИЮ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА В ПРОЦЕССЕ УТИЛИЗАЦИИ

***Аннотация.*** *Настоящая статья основана на разработке предложений и рекомендаций по созданию и эффективному использованию инкон-капитала в условиях формирования инновационной экономики.*

***Ключевые слова:*** *капитал, кризис, доход, предпринимательство, предпринимательство, налог, валовой внутренний продукт.*

# THEORETICAL APPROACHES TO THE RESEARCH OF HUMAN CAPITAL IN THE RECYCLING PROCESS

***Abstract.*** *This article is based on the development of proposals and recommendations on the creation and effective use of incon capital in the context of the formation of an innovative economy.*

***Key words:*** *capital, crisis, income, entrepreneurship, tpancfopmation, tax, gross domestic product.*

Мамлакатнинг инновацион тараққиёт йўлига ўтиши асносида инсон капитали сифатини яхшилаш ва уни бошқариш самарадорлигини ошириш муаммолари долзарб аҳамият касб этиб боради. Ташкилий-иктисодий ва технологик жараёнлардаги ўзгаришлар, ишлаб чиқарувчи ва хизмат кўрсатувчи корхоналар ўртасида рақобат курашининг шиддатли тус олиши[3] кабилар иш берувчи ва хизматчилар ўртасидаги муносабатларни янгича тартибда ташкил этиш заруриятини келтириб чиқаради.

Мазкур жараёнлар тадкиқотчи олимлар томонидан атрофлича кенг ва тор талқинда тавсифлаб ўтилган. Кенг талқинга кўра, инсон капитали инсон ҳаётий фаолиятининг турли кўринишлари (таълим, соғлиқни сақлаш, маданият соҳаси) оркали иқтисодий фаолиятнинг бугунги даражаси талаб қилувчи кўникмаларни жамғариш ва уларни амалда қўллаш имкониятларини ва бу хил кўникма ва тажрибаларни шакллантиришга имкон берувчи фаолият соҳаларининг яхлитлигини кўзда тутади.

Инсон капиталини шакллантириш ва амалда фойдаланиш даражасини таълим, ходимларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш, ахлоқий-маданий

---
[3] Jasper Bastiaan van Loo Training, Labor Market Outcomes, and Self- Management. - Maastricht, 2005. - 223 p.

савиясини кўтариш, саломатлигини мустаҳкамлаш кабиларга маблағ ажратиш имкониятлари билан белгилашимиз мумкин бўлади.

Инсон капиталининг тор талқинига кўра, инсон капиталини шакллантириш билим, кўникма ва малакаларни тўплашга қаратилгани ҳолда, инвестициялар киритиш орқали инсоннинг бутун ҳаёт фаолияти давомида такрорланиб турувчи жараён сифатида тавсифланади Инсон капитали инсоннинг фаол меҳнат фаолияти давомида асосан таълим ва тарбия соҳаси орқали шаклланади.

Умумий таълим ва касб-ҳунар таълими инсон капитали кўламини оширишга ёрдам беради, билим ва тажрибани фаолиятга татбиқ этиш учун зарур бўлган шарт-шароитларни яратишга хизмат қилади. Умумий (асосий) инсон капитали кўпинча ёшларнинг таълим муассасаларида (мактаб, коллеж, техникум, касб-ҳунар мактаблари, институт ва университет) таҳсил олиш жараёнлари ва оиладаги муҳит таъсири остида шаклланади.

COVID-19 дунё мамлакатларида машаққат билан қўлга киритилган инсон капиталининг ўсишига ҳалокатли таъсир кўрсатмоқда. Ўтмишдаги пандемия ва инқирозларнинг сабоғи шундаки, уларнинг таъсири бевосита азият чекканларгагина эмас, кўпинча аҳолининг барча гуруҳларига ва аксарият вазиятларда эса бутун бошли авлодларга таъсир кўрсатади.

Ҳозирда давом этаётган инқироздан олинган дастлабки сабоқ шундаки, дунё мамлакатлари қисқа ва узоқ муддатли истиқболда иқтисодий барқарорликка эришиш учун инсон капиталини тиклаш ва унинг эришилган даражасини қўллаб-қувватлаш учун барча ҳатти-ҳаракатларини бирлаштиришлари талаб қилинади.

Ҳаётнинг муайян босқичларида, асосан, эрта болалик даврида муваффақиятсизликлар - инсон капиталини тўплаш борасида, айниқса, ҳалокатли ва узоқ муддатли салбий оқибатларга олиб келиши мумкин. Болаликда ота-оналарнинг даромадлари ва болалар саломатлиги ўртасидаги боғлиқлик, айниқса, кучли бўлади. Аввалги инқирозлар тажрибаси шуни кўрсатадики, ҳомиладор аёлларнинг сифатсиз овқатланиши ва уларнинг соғлиқ даражасининг ёмонлашиши ўша даврда туғилган болаларнинг катта бўлганларида когнитив қобилиятларининг ёмонлашиши, сурункали касалликларга мойиллигининг ортишига олиб келган.

Ҳозирда давом этаётган инқироз иқтисодий ларзалар билан бирга пандемиянинг ўткир босқичида тиббий хизмат кўрсатишдаги узилишлар билан боғлиқ ҳолда тиббий хизматлар сифатининг ёмонлашишида ҳам ўз аксини топади. Шу тариқа, пандемиянинг давомийлиги вақтинчалик бўлса ҳам, у узоқ йиллар давомида ўз салбий оқибатларини кўрсатиши мумкин.

Хусусий инсон капиталини шакллантириш, унинг сифатини яхшилаш орқали корхона ва ташкилотларда ишчи-хизматчиларнинг компетентлигини ошириш корхона ва корхонадан ташқарида амалга оширилади, бунда корхона ва ташкилотлар ходимларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини оширишга инвестиция киритишдан юқори даражада манфаатдор бўладилар.

Инсон капитали категориясини тавсифлашда ҳар доим биринчи эътибор умумий инсон капитали, сўнгра эса хусусий инсон капиталига қаратилади. Инсон капиталини ўрганишда умумий инсон капиталига нисбатан хусусий инсон капиталини ўрганишга бўлган қизиқишнинг ортиши тараққий этган мамлакатлар тажрибасини умумлаштирган

ҳолда, иқтисодиётнинг етакчи тармоқ ва соҳаларида ишчи ва хизматчиларни махсус тайёрлашга инвестициялар оқимининг кўпайтирилиши билан ҳам изоҳланади.[4]

Юқорида баён этилганлардан ва шу билан бир қаторда инсон капиталини таълим, малака ошириш ва ушбу жараёнларга инвестиция киритиш нуқтаи назаридан ўрганишнинг долзарблигини инобатга олган ҳолда, мазкур илмий-мақолада“инсон капиталини шакллантириш” тушунчасининг тор талқинига амал қилган ҳолда иш кўрамиз.

Бир сўз билан айтганда, инсон капитали тўғрисида тўхталар эканмиз, инсоннинг ҳаёт фаолияти давомида инсон капитали билан боғлиқ бўлган иккита босқични ажратиб кўрсатишимиз мумкин бўлади, биринчи босқичда инсон капитали шаклланса, иккинчи босқичда эса шаклланган ва жамғарилган инсон капитали ишлатилади.[5] Инсон капиталининг шаклланиши аслида инсоннинг бутун ҳаётий фаолияти давомида амалга ошади ва ўз навбатида инсон капитали шаклланишининг бир нечта босқичларини ажратиб кўрсатишимиз мумкин бўлади (1-жадвал).

**Инсон капитали шаклланишининг биринчи босқичи** – жисмонан кучга тўлиш, асосий билим, кўникма ва малакаларни эгаллаш, шахснинг ижтимоийлашув даври билан тавсифланади. Ушбу босқич ўз навбатида бир неча даврларни ўз ичига олади: туғилиш (бола туғилишидан болалар боғчасига қабул қилишгача бўлган давр); асосий ривожланиш даври (болалар боғчасида тарбияланиш, умумий таълим мактабида таҳсил олиш, мактаб ва мактабдан ташқари қўшимча таълим олиш); ўрта ва юқори касб-ҳунар таълими муассасаларида ўқиш орқали касбий билимларни эгаллаш.

**1-жадвал.**

**Инсоннинг ҳаётийлик цикли давомида инсон капиталининг шаклланиш босқичлари**

| **Инсон капиталини шакллантириш** | **I босқич – умумий инсон капитали** | | | **II босқич – хусусий инсон капитали** | **III босқич** |
|---|---|---|---|---|---|
| | Инсоннинг ҳаёт фаолияти йиллари | | | | |
| | 7 ёшгача | 7 ёшдан 17-18 ёшгача | 17-18 ёшдан 20-25 ёшгача | 17 ёшдан 55-60 ёшгача (баъзан ундан ҳам юқори) | 55-60 ёшдан инсон умрининг охирига қадар |
| **Йўналиш** | Оила ва маҳалла тарбияи | Умумий таълим | Касбий таълим | Меҳнат фаолияти | Пенсия даври |

[4] Бирюков,В.В. Интеллектуальный капитал. Структурное содержание интеллектуального капитала фирмы [Текст] / В.В. Бирюков // Наука и Экономика. - 2011. - № 4(8). - С. 38-42.

[5] Акрамова Ш.Г. Ўзбекистонда инсон капиталини ривожлантиришнинг истиқбол йўналишлари / Илмий рисола. Ш.Г. Акрамова. – Т.: 2020.

| | | | |
|---|---|---|---|
| **Инсон капиталинг турлари** | Маданий ва ахлоқий қадриятлар, интеллектуал ва ташкилий қобилиятлар, ишбилармонлик кўникмалари | Меҳнат, интеллектуал, ташкилий ва тадбиркорлик | Инсон капиталининг барча шакл ва кўринишларини такрор ишлаб чиқариш |
| **Инвестиция манбалари** | Шахснинг ўз меҳнати ва ҳатти- ҳаракатлари | | |
| | Уй хўжаликларининг даромадлари | | |
| | | Мулк шаклидан қатъий назар корхона-ташкилотларнинг маблағлари | |
| | Ҳомийларва давлат бюджет маблағлари | | |

**Иккинчи босқичда** инсон ўз касбий позициясини шакллантиргани ҳолда, ўзининг касбий ва шахсий компитентлигини ривожлантиришга интилади, ўз навбатида мазкур босқич инсон капиталига инвестицияларнинг максимал рентабеллиги билан тавсифланади. Мазкур даврда бир томондан, касбий ваколатларни эгаллаш, иккинчи томондан, улардан иш жараёнида фойдаланиш амалга ошади.

**Учинчи босқични** тадқиқотчилар кексайиш ёки чарчаш деб аташади – бунда ижтимоий, меҳнат ва ижодий фаолиятнинг пасайиши кузатилади, баъзи касбий кўникмалар ва малакаларнинг йўқолиш хавфи вужудга келади, пировардида инсон нафақага чиқиши лозимлигини англаб етади.

Инсон капиталини шакллантириш ва жамғаришнинг ҳар бир босқичида инвестициялар муайян бир шахс, алоҳида оила, корхона-ташкилотлар ва ялпи тарзда давлат томонидан амалга оширилиши мумкин.

Инсон ҳаёт фаолиятининг илк даврларида инвестициялаш жараёнида оила ва давлат иштирок этади, инсон капиталини муттасил ривожлантириш ва жамғаришга бўлган интилишнинг кучайиши ушбу мақсадлар учун инвестицияларни кўпайтириш зарурлигини келтириб чиқаради. Инсон ўз меҳнат фаолиятини муайян бир ташкилот ёки корхонада бошлаши ва ўз касбий компетенцияларини шакллантириш ва ривожлантиришга интилиши асносида корхона-ташкилотлар ўз ходимларига инвестиция киритишдан манфаатдор бўладилар. Бу ўринда муаммо шунда намоён бўладики, ходимнинг кексайиш даврида корхона-ташкилотлар томонидан мазкур ходимлар тоифасига киритилаётган инвестициялар миқдори камайиб боради, ўз-ўзидан аёнки, мазкур даврда давлатнинг фаол ижтимоий сиёсати ва қўллаб-кувватлаши талаб қилинади.

Инсон капиталини шакллантиришнинг дастлабки икки босқичи ўзлаштирилган билим, тажриба ва кўникмалар кўламининг ортиши, улардан меҳнат фаолияти жараёнида кенг қўлланилиши ҳисобига инсон капитали қийматининг ошиши билан тавсифланади.

Шуни ўз навбатида таъкидлаб ўтишимиз лозимки, инсон капитали шаклланиши ва ундан фойдаланишнинг иккинчи босқичининг ўзидаёқ, аллақачон инсон капиталидан фойдаланиш ва уни кўпайтиришга қаратилган ҳатти-ҳаракатларнинг бир нечта вариантлари пайдо бўлади. Мабодо инсон юқори маҳсулдор ақлий меҳнат билан банд

ISSN:
2181-3906

International scientific journal
«MODERN SCIENCE AND RESEARCH»
VOLUME 1 / ISSUE 3

бўлгани ҳолда, корхона-ташкилотлар бундай ходимларни қайта тайёрлаш ва малакасини оширишга сарфланаётган маблағлар кўламини қисқартирмасагина, инсон капиталининг қиймати ошишини кутишимиз мумкин бўлади, агар бандлик кўпроқ жисмоний меҳнат билан боғлиқ бўлса, у ҳолда маҳсулодорлик пасайиши ва инсон капитали қийматининг пасайиши кузатилади.[6]

Бир сўз билан айтганда, инсон капиталини шакллантириш фаол меҳнат фаолияти даврида ёш авлодга таълим ва тарбия бериш соҳасида амалга ошади, айнан мана шу давр кейинчалик инсон капитали сифати ва самарасини белгилаб беришда муҳим аҳамият касб этади. Инсон ҳаётийлик цикли давомида умумий ва хусусий инсон капиталининг шаклланиши амалга ошади.

Биринчи босқич умумий инсон капиталининг шаклланиш даврини ўз ичига олса, иккинчиси босқичда хусусий инсон капиталига хос бўлган жиҳатлар шаклланади ва айнан, иккинчи босқичдан бошлаб, бир томондан инсон капиталини шакллантириш ва бошқа бир томондан эса ундан фойдаланиш даври бирдек бошланади (1-расм).




**1-расм. Инсон капиталини шакллантириш ва ундан фойдаланиш босқичлари.**

*Манба: муаллиф ишланмаси.*

Инсон ҳаётий циклининг ҳар бир босқичида инсон капиталининг шаклланишига таълим олувчиларнинг шахсий қобилиятлари, ота-оналарнинг маълумот даражаси; болалар таълимига йўналтирилаётган инвестициялар кўлами; таълим-тарбия, ўқув-услубий материаллар ва таълим дастурларининг сифати; мактабнинг узоқ ёки яқинда жойлашганлиги; оилавий анъана ва қадриятлар; ижтимоий алоқалар; ҳудуддаги ижтимоий-иқтисодий вазият каби турли-туман омилларнинг таъсир кўрсатишини кузатишимиз мумкин.

Хорижлик тадқиқотчи ва олимлар ушбу омиллар орасида инсон капиталини шакллантириш, ундан фойдаланиш даражасига таъсир кўрсатиш нуқтаи назаридан муҳим бўлган қуйидаги омилларни алоҳида ажратиб кўрсатишади:

- **туғма индивидуал қобилиятлар-** Veyker ва Tomes, 1979, 1986; Grinvud ва Seshadri, 2002 каби олимларнинг фикрича, туғма қобилиятларнинг юқори даражаси келажакда янги билимларни эгаллашни тезлаштиришга хизмат қилади[7];

[6] Курчидис, К.В. Оценка чистой стоимости человеческого капитала [Текст] / К.В. Курчидис // Ярославский педагогический вестник. - 2011. - №2. - Т. 1 (Гуманитарные науки). - С. 100-104.
[7] Flavio Cunha. Interpreting the Evidence on Life Cycle Skill Formation [Text] / Flavio Cunha, James J. Heckman, Lance Lochner, Dimitriy V. Masterov. - University of Chicago, 2005. - 109 p.

- **ота-оналарнинг таълим савияси** ( маълумот даражаси юқори бўлган ота-оналарнинг кўпроқ билим, қобилиятларга эга бўлиши табиийдир, ўз навбатида улар бу билим ва қобилиятларни ўз фарзандларига улашадилар; юқори маълумотга эга бўлганликлари боис, турли жабҳаларда асосланган қарорлар қабул қила оладилар; ўз навбатида уларнинг даромад даражасининг бошқаларга нисбатан юқорилиги уларга сифатли тиббий ёрдам ва таълим хизматларидан фойдаланишга имкон беради. Фикримизнинг тасдиғи сифатида Coleman, 1966; Xanushek, 1986; Fuchs ва Reklis, 1994; Galor ва Tsiddon, 1994 ва 1997; Xassler ва Rodriges Mora, 2000 каби тадқиқотчи-ларнинг илмий изланиш натижаларини келтириб ўтишимиз мумкин бўлади;

**-аҳолининг ижтимоий аҳволи** – ўз навбатида ижтимоий омиллар, жамиятдаги ижтимоий-иқтисодий вазият инсон капиталининг шаклланишига катта таъсир кўрсатади, бу ўз навбатида аҳоли даромадларининг ўсишига ва инсон капитали шаклланиш жараёнларининг ижобий тус олишига замин яратади[8]; бир қатор иқтисодчи олимларнинг фикрича, иқтисодий агентлар ўзларининг ижтимоий мавқеини мустаҳкамлашга интилиш асносида инсон капитали ривожланишининг юқори даражасини талаб қиладиган йўналишларни танлашни ва шу йўналишларда иш кўришни афзал биладилар;

- **солиқ сиёсати** - Ben-Poret, 1967; Boskin, 1974; Lukas, 1990 каби иқтисодчилар даромад солиғининг юқори даражаси инсон капиталининг шаклланиши ва ундан фойдаланишга салбий таъсир кўрсатиши мумкинлигини ва инсон капиталига йўналтирилаётган инвенстициялар рентабеллигининг пасайишига олиб келишини уктирадилар[9];

- **маданий ва мафкуравий омиллар** - маданий ва ахлоқий меъёрлар; жамият мафкураси, жамият аъзоларининг умуммиллий ва умуминсоний қадриятларга бўлган муносабати; жамият аъзоларининг юксак маданий савияси миллий иқтисодиётда меҳнат унумдорлигининг ўсишига, янги билимларни яратиш, уларга асосланган янгиликлар ва маҳсулотлар яратилишининг тезлашишига олиб келади, бу эса ўз навбатида мамлакатда йиллик иқтисодий ўсиш суръатларини жадаллаштиради;

Инсон капиталининг шаклланишига демографик, ижтимоий, иқтисодий, техник-технологик институционал, маданий каби бир қатор омиллар инсон капиталининг шаклланишига ва унинг сифатига таъсир кўрсатади, деган хулосани беришимиз мумкин бўлади.

Инсон капиталини шакллантириш ва унинг сифатига таъсир кўрсатувчи салбий омиллар гуруҳига самарасиз ташкил қилинган касб-ҳунар таълими тизими, фан-таълим-ишлаб чиқариш интеграциясининг яхши йўлга қўйилмаганлиги, корхона-ташкилотларда ходимларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш масалаларига етарлича эътибор қаратилмаслиги ва бунга масъул ходимларнинг бугунги кун талабларига жавоб бера олмаслиги, самарасиз ижтимоий ва бандлик сиёсати, "ақлли бошларнинг чиқиб кетиши" каби омилларни киритишимиз мумкин.[10]

Мамлакатда мавжуд институтлар ва бошқарув усул-воситаларининг эскирганлиги, аҳоли турмуш даражасининг пастлиги, таълим, тиббиёт ва инновацион инфратузилма

[8] Maria Rosaria Carillo. Human capital formation in the new growth theory: the role of 'social factors' [Электронный ресурс] / Maria Rosaria Carillo. - Режим доступа: http://www.econ.tuwien.ac.at/hanappi/AgeSo/rp/Carillo _2002.pdf
[9] Theo Eicher. Effects of differential taxation on factor accumulation and growth [Text] / Theo Eicher, Stephen Turnovsky, Maria Carme Riera i Prunera. - Barcelona: Department of Econometrics, Statistics and Spanish Economics, 2002.
[10] https://review.uz/post/prioritet-obrazovaniya-v-uzbekistane-obzor-reform

самарадорлигининг пастлиги каби омиллар ҳам инсон капиталини шакллантириш ва ундан самарали фойдаланиш жараёнларига салбий таъсир кўрсатиши мумкин. Юқорида тилга олиб ўтилган жиҳатларнинг барчаси билимларнинг қадрсизланиши, амалий кўникмаларга талабнинг пасайишига олиб келади, бу ўз навбатида инсон капиталидан самарали фойдаланишни шубҳа остига қўяди ва унинг иқтисодий-ижтимоий қимматини пасайтиради. Мамлакатда яширин иқтисодиёт кўламининг юқорилиги инсон капитали сифатининг пастлигини кўрсатади. Бундай шароитда жамиятда коррупцион ҳолатларнинг кучайиши, кўрсатилаётган ижтимоий хизматлар сифатининг пасайиши, бир сўз билан айтганда жамиятда инқирозли вазият вужудга келиши кузатилади[11].

Юқорида тилга олиб ўтилган инсон капиталининг шаклланишига таъсир кўрсатувчи омилларни тизимлаштириш, ижобий таъсир кўрсатиш хусусиятига эга бўлган йўналишларни аниқлаштириб олиш, мамлакат иқтисодиётининг инновацион ривожланишига замин яратади. Бошқача айтганда, инсон капиталига таъсир кўрсатувчи ижобий омилларни рағбатлантириш асносида жамият аъзоларининг саводхонлик даражаси ва касбий маҳоратининг ошиши, ижодий ва инновацион фаолликнинг ўсиши каби ижобий жараёнлар кузатилади.

Шу билан бир қаторда, инсон капитали шаклланишига таъсир кўрсатувчи салбий омиллар тўғридан-тўғри (бой берилган фойда, йўқотишлар, қўшимча инвестицияларга бўлган эҳтиёж) ва билвосита иқтисодий харажатлар (мутахассисларни тайёрлаш сифатининг пастлиги ва бошқалар) кўламининг ортишига олиб келади.

Инсон капитали шаклланишига таъсир кўрсатувчи омиллар инсон ҳаётийлик циклининг ҳар бир даврида кузатилади. Салбий омилларнинг кўлами бевосита давлат томонидан амалга оширилувчи ижтимоий сиёсатга боғлиқдир. Шу боис, инсон капиталини шакллантириш ва ушбу жараёнда давлатнинг ўрни билан боғлиқ жиҳатларни тадқиқ этиш бугунги куннинг долзарб вазифаларидан бири ҳисобланади.

Инсон капиталини шакллантиришнинг муҳим субъекти ва жамиятнинг асоси сифатида оила инсон капиталини такрор ишлаб чиқаришнинг асосий бўғини саналади, унда фарзандлар тарбия топади, уларни ўқитиш ва кейинчалик ижтимоийлашуви учун шарт-шароитлар, қобилиятларни жамғариш ва ривожлантириш борасида ижобий муҳит яратилади.[12]

Неоклассик ёндашув доирасида уй хўжалиги ички функцияларининг тақсимланиши "инсон капитали" тушунчасидан фойдаланиш эвазига янгича мазмун касб этади. Кенг маънода мазкур тушунча инсоннинг бутун ҳаёти давомида

Инсон капиталининг дастлабки жамғарилишида нафақат уй хўжаликлари, балки давлат ҳам бирдек иштирок этади, бунда давлат ўз ташкилот ва муассасалари орқали давлат бюджети ҳисобидан бепул таълим ва тиббиёт хизматларини кўрсатади. Бугунги кунда Ўзбекистон Республикасининг давлат бюджети харажатлари таркибида ижтимоий харажатлар улуши қарийб 60 фоизни, таълим харажатлари эса ЯИМнинг 10-12 фоизидан ошиқроқ кўрсаткични ташкил қилади.

---

[11] Убайдуллаева Р.А. Роль и значение социальных императивов в инновационном развитии страны. XXVI международные Плехановские чтения. Материалы международной научно-практической конференции. М.: 2013. С.107-108.

[12] Ящук, А.И. Роль семьи в формировании человеческого капитала [Текст] / А.И. Ящук // Проблемы управления. - 2011. - № 4(41).

Мулкчилик шаклидан қатъий назар иқтисодиёт тармоқ ва соҳаларида фаолият кўрсатувчи корхона-ташкилотлар инсон капиталини шакллантириш ва унинг сифатини ошириш билан шуғулланувчи субъектлар орасида муҳим ўрин тутади, чунончи иқтисодий фаолият билан шуғулланувчи субъектлар ўз фаолиятларининг натижаси ўларок, бюджет тушумларини шакллантиришда солиқ тўловчи сифатида иштирок қиладилар, ўз навбатида мазкур тушумлар давлат зиммасига юкланган ижтимоий мажбуриятларни молиялаштиришга сарфланади.

Шу билан бир қаторда, мамлакатда тадбиркорлик фаолиятини кенг кўламли қўллаб-қувватлаш орқали, иқтисодиёт тармоқ ва соҳаларида ишчи ва хизматчиларга талаб яратилади ва бандлик муаммоси юмшатилади.

Ушбу иқтисодий муносабат субъектлари бир нечта моделларга - иқтисодий фаровонликка ҳисса қўшиш ва меҳнат жамоасининг эҳтиёжларини қондириш ёки ижтимоий инвестицияларни қисқартиришга (имтиёзлар, кафолатлар бериш, касбий қайта тайёрлаш, пенсия ва уй-жой шароитларини яхшилаш) асосланган ҳолда инсон капиталини шакллантиришда иштирок этадилар.

Хулоса қилиб айтганда миллий иқтисодиётнинг ривожланишига инсон капиталининг таъсири ўзига хос тавсифга эга бўлиб, трансформацияни тезлаштирувчи ёки секинлаштирувчи омил сифатида ҳаракат қилади; инсон капитали аҳолининг фаровонлиги ва инновацион фаоллигининг ўсишига ҳисса қўшган ҳолда, таълим ва касбий даражани оширишга маблағ сарфлашни янада самаралироқ йўналиш сифатида белгилаб олиш имконини беради.

**REFERENCES**

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 14 июлдаги “Аҳоли бандлигини таъминлаш борасидаги ишларни такомиллаштириш ва самарадорлигини ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-3856 сон Қарори.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 7 июндаги “Ҳар бир оила-тадбиркор” дастурини амалга ошириш тўғрисида ПҚ-3777 сон Қарори.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Умумий ўрта, ўрта махсус ва касб-ҳунар таълими тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида” ги 25.01.2019 йилдаги УП-5313-сонли Фармони:http://lex.uz/docs/3523198
4. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимига киришиш тантанали маросимига бағишланган Олий Мажлис палаталарининг қўшма мажлисидаги нутқи // Халқ сўзи, 2016 йил 15 декабрь.
5. Абдурахмонов К.Х. Ўзбекистонда инсон омили ва манфаатлари – энг олий қадрият. – Т.: “Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи” 2017. – 346 б.
6. Абдувохидов А.А. ва бошқ. Инновациялар иқтисодиёти. Олий ўқув юртлари учун ўқув қўлланма.-Т.”Мумтоз сўз” 2020.-630 б.

7. Абдураҳмонов Қ.Х. Ўзбекистонда инсон тараққиёти: эришилган ютуқлар, мавжуд муаммолар ва уларни ҳал этиш йўллари. / Ўзбекистоннинг меҳнат салоҳияти: ҳозирги ҳолати ва ундан фойдаланиш истиқболлари. Республика илмий-амалий анжуман тезислари тўплами. Т.: 2011.
8. Абулқосимов Ҳ.П. Шаклланаётган бозор иқтисодиётида инсон омили ва уни фаоллаштириш йўллари. – Т.: ТМИ, 2005. – 182 б.
9. Amanov, O.A. (2018) “INNOVATIVE ACTIVITIES IN THE RURAL LABOR MARKET”, *Economics and Innovative Technologies*: Vol. 2018: No. 5, Article 17. Available at: https://uzjournals.edu.uz/iqtisodiyot/vol2018/iss5/17

# ИҚТИСОДИЙ ЎСИШ МАКРОИҚТИСОДИЙ БАРҚАРОРЛИКНИНГ ПИРОВАРД НАТИЖАСИ СИФАТИДА

**Мамажанова Саида Воҳабжоновна**
Гулистон давлат университети катта ўқитувчиси
**Шарафиддинов Нозим Ўктам ўғли**
Гулистон давлат университети талабаси
**Убайдуллаева Гўзалхон Муродқосим қизи**
Гулистон давлат университети талабаси

https://doi.org/10.5281/zenodo.7540181

***Аннотация.*** *Иқтисодий ўсишни таъминлашда миллий иқтисодиётнинг макродаражадаги барқарорлиги асосий омил ҳисобланади.Ушбу мақолада макроиқтисодий барқарорликнинг назарий жиҳатлари, макроиқтисодий барқарлорликка эриш йўллари, иқтисодий ўсишни таъминлаш масалалари очиб беришга ҳаракат қилинган.*

***Калит сўзлар:*** *иқтисодий мувозанатлик, иқтисодий ўсиш, иқтисодий барқарорлик, ишлаб чиқариш унумдорлиги, иқтисодий ўсиш турлари.*

# ЭКОНОМИЧЕСКИЙ РОСТ – КОНЕЧНЫЙ РЕЗУЛЬТАТ МАКРОЭКОНОМИЧЕСКОЙ СТАБИЛЬНОСТИ

***Аннотация***. *В обеспечение экономического роста основным фактором является макроэкономические стабильности национальной экономики. В данной статье основное внимание уделено на раскрытые теоретические аспекты макроэкономической стабильности пути достижения макроэкономической стабильности, решения проблемы обеспечения экономического роста.*

***Ключевые солова:*** *экономические равновесия, экономический рост, экономическая стабильност, производственая производительность, виды экономического роста.*

# ECONOMIC GROWTH IS THE END RESULT OF MACROECONOMIC STABILITY

***Abstract.*** *Macroeconomic stability is the main factor of ensuring economic growth. Theoretical aspects of macroeconomic stability, problems of ensuring economic growth, ways of reaching macroeconomic stability are discussed in the given article.*

***Key words:*** *Economic equilibrium, economic growth, economic stability, efficiency of production, types of economic growth.*

Бозор амал қилаётган қандай мамлакатда иқтисодий ўсишни таъминлаш хўжалик юритиш шаклларининг олиб борилаётган иқтисодий ислоҳотлар талабига қай даражада жавоб бериши билан ҳамда амал қилиши билан узвий боғлиқдир. Миллий иқтисодиётни барқарорлиги ва уни иқтисодий жиҳатдан ривожланиши энг аввало макроиқтисодиёт даражасида иқтисодий мувозанатликка эришишни талаб этади.

Иқтисодий мувозанатлик эса миллий иқтисодиётнинг амал қилиш шакли бўлиб, унинг ҳаракат даражалари ва кўлами турлича бўлади. Иқтисодий ўсишнинг муҳум омили сифатида иқтисодий мувозанатлик бизнинг фикримизча, шундай иқтисодий жараёнки, бунда хўжалик юритувчи субъектларнинг асосий қисми ўз иқтисодий фаолиятларидан қониқиш ҳосил қилишиб, уни ўзгартиришга иқтисодий сабаб қидирмайди. Аммо бизнинг фикримизча, бундай ҳолат қисқа муддатлидир, чунки бу ҳолда ишлаб чиқарувчи

субъектлар ўртасида иқтисодий рақобатни чуқурлаштиришга, ўзоқ муддатга мўжалланган стратегик режалар, дастурлар тузишга ҳамда уларни амалга оширишга мажбур қилади. Демак, ҳар қандай шаклдаги иқтисодий мувозанат нисбий характерига эга бўлиб, уларни макродаражада узоқ муддат ичида сақланиши иқтисодий барқарорлик категорияси билан ифодаланади.

Иқтисодий барқарорлик тушунчасини мазмуни узвий боғланган икки жараён ўртасидаги мувозанатнинг қисқа давр ичида, сақланиб туришини ифодалайди. Макродаражадаги иқтисодий барқарорлик энг аввало ялпи талаб ва ялпи таклиф ўртасидаги мувозанат оркали эришилади. Ҳамда улар ўртасидаги мувозанат бошқа иқтисодий мувозанатни таъминлашга асос яратади ва таъсир кўрсатади. Бундай мароиқтисодиёт даражасидаги мувозанатларга ишлаб чиқариш билан исътемол, ишлаб чиқариш билан жамғарма, аҳолининг шахсий пул даромадлари билан аҳоли исътемол таварлари ва хизматлари, бозордаги инвестицион товарлар билан аҳоли исътемол товарлари, номинал иш ҳақи билан реал иш ҳақи, ишлаб чиқариш омилларининг сарфланиш натижалари билан даромадларнинг тақсимланиши ўртасидаги мувозатликлар киради. Бир ҳолатини инобатга олиш зарур яъни, иқтисодий мувозанатларни амалдаги куринишларидан хўжалик юритувчи субъектларни қаноатланиши ҳамда ижтимоий ишлаб чиқаришнинг ривожлантиришнинг муҳим шарти ҳамдир. Шу билан биргаликда у макро ва микро иқтисодиёт миқёсида иқтисодий ўсишни муҳим омили бўлиб, хизмат қилади. Бизнинг фикримизча масаланинг иккинчи томони ҳам бор, яъни иқтисодий фаолияти билан шуғулаётганларни мавжуд иқтисодий шароит қаноатлантирса ҳамда иқтисодий фаолиятининг бундан кейинги ҳаракатидан манфаатдорлиги, қизиқишни ортишига ёрдам беришига шароит яратилса, ўшандагина иқтисодий ўсиш рўй бериши мумкин. Агар, жамиятда вужудга келган иқтисодий мувонатлик ҳолати иқтисодий субъектлар манфаатига, қизиқишга зид келса, жамият мавжуд иқтисодий ресурсларидан самарали фойдалана олмайди, иқтисодий ўсиш суръати, аҳоли турмуш даражаси пасайиб ва иқтисодиётда танглик аломатлари пайдо бўла бошлайди.

Иқтисодий фаолият субъектларини жамиятдаги мавжуд иқтисодий шарт-шароитдан қониқиши, уларни ташабускорлигининг ўзаро уйғунлашуви, иқтисодий мувозанатликда ўз ифодасини топади. Бу ҳолда иқтисодий мувозанат ишлаб чиқаришнинг шакли ва туридан қатъий назар бозор субъектларининг фаолиятининг фаолаштиришга ундаши лозим.

Иқтисодий ривожланиш ҳақида сўз юритганда нафақат маҳсулот ишлаб чиқариш ҳажмининг ўсиши, балки ишлаб чиқариш билан боғлиқ бўлган бошқа иқтисодий кўрсаикичлар, яъни хўжаликнинг устав капитали ошиши, даромади фойда миқдорининг купайиши, хўжаликда ишлайдиганларнинг сони иш ҳақи миқдори, капитал сиғими ва қайтими каби кўрсаткичларнинг ижобий тамонга ўзгаришнинг қамраб олади.

Демак, иқтисодий ўсиш деганда, қисқа давр давомида реал ишлаб чиқаришнинг кўпаийишини эмас, балки ўзоқ давр ичида, иқтисодий имкониятларидан келиб чиқан ҳолда, реал ишлаб чиқаришнинг иқтисодий ресурслар билан биргаликда ўзгариши ёки ўзоқ вақт оралиғида ишлаб чиқариш салоҳиятини бир мувозанатлик ҳолатидан иккинчи мувозанатлик ҳолатига ўтиши тушуниши лозим. Иқтисодий ўсишини ўрганишда асосий эътиборини унинг суръатларига бериш лозим. Шу сабабли реал иқтисодий ўсишини таҳлил қилганда нафақат унинг жўшқинлигини белгиловчи омилларини, балким

макроиқтисодиёт даражасида тармоқлараро ва институционал таркибий ўзгаришларини, ҳамда давлатнинг бу йўналишда олиб борилаётган ички ва ташқи иқтисодий сиёсатини ҳам ўрганиш ҳам зарур.

Маълумки, реал иқтисодий ўсиш ўз ифодасини иқтисодий ресурсларининг чекланганлиги билан эҳтиёжларини чексизлиги ўртасидаги зиддиятининг такрорланиши ва ечимини топади. Ушбу зиддиятни ечиш, бизнинг фикримизча икки усулда амалга оширилади: Биринчидан, бу ишлаб чиқариш имкониятларин купайтириш бўлса, иккинчидан, мавжуд ишлаб чиқариш имкониятидан самарали фойдаланиш йўл-йўриқларини излаб топишдан иборатдир. Лекин, ҳар иккала усулнинг амал қилиши мобайнида янги эҳтиёжлар вужудга келаверади.

Ишлаб чиқариш имкониятларини кенгайиши нафақат ижтимоий эҳтиёжларининг миқдор жиҳатдан ўсишга, балки таркибий ўзгаришига ҳам бевосита боғлиқдир. Реал ҳолатда аҳолини қайси бир қисми, қандай товарни қисқа вақт ичида афзал кўриши тез ўзгариб, ишлаб чиқариш ресурслари ва ишлаб чиқаришнинг таркиби унга тез мослаша олмайди, яъни эҳтиёжлари ўзгариши суръати билан уларни қондириш имконияти вақтида бир-бирига мос келмайди.

Ҳозирги вақтда иқтисодий ўсишга икки ёқлама ёндашиш кенг тарқалмоқда. Биринчи йўналиш бу иқтисодий фаолиятнинг натижаси сифатида қабул қилинган реал ялпи миллий маҳсулот, ялпи ички маҳсулот ёки реал миллий даромад ҳажмининг ўсиш суръати, иккинчиси эса, бу реал миллий махсулот ва реал миллий даромаднинг жон бошига тўғри келишидир. Биринчи йўналишдаги иқтисодий ўсишни аниқлаш кўп ҳолларда давлатнинг такрор ишлаб чиқариш салоҳиятини аниқлаш мақсадида ишлатилса, иккинсичиси эса, жамият аъзоларининг турмуш даражаси динамикасини ҳамда бу кўрсаткичларни бошқа мамлакатлар билан тақозлаш учун ишлатилади.

Реал ишлаб чиқаришнинг ҳажми унинг таркибий жамиятда мавжуд бўлган институционал ўзгаришлар билан биргаликда ҳамоҳанг олиб борилиши лозим. Бу масала ҳам мвозанатнинг муҳим масаласи бўлиб, уни эътибордан четда қолдириш мумкин эмас.

Бундай шароитда мувозанатли иқтисодий ўсишни таъминлашда бозор механизмларидан ташқари давлат механизмларининг роли ошиб бораверади. Иқтисодиёт назариясига оид бўлган адабиётларда кенг ёритилган Э.Домар ва Р.Харроднинг иқтисодий ўсиш назариялари мавжуд бўлиб ўрганиш ва ҳисобга олиш фойдадан ҳоли эмас. Масалан Э.Домар моделида узоқ муддатли иқтисодий ўсишга аҳолининг тўла бандлик муаммоси ҳисобига олинган бўлса, Р.Харрод моделида эса, иқтисодий ўсиш нафақат тенгламалар асосида уларнинг нисбатлари балки уларнинг функционал алоқалари ҳамда тадбиркорлигини психологик мотивлари ҳам ҳисобига олинади. Албатта, бу шароитларнинг ҳисобига олиниши қисқа ва ўзоқ муддатларга мўжалланган иқтисодий мувозанатликни таъминлашда ва унинг тенденциясини аниқлашда катта аҳамият касб этади.

Иқтисодий ўсиш назариясида иқтисодий ўсиш ўзоқ ва ниҳоятда ўзоқ муддатли даврларга бўлиб ўрнатилади. Лекин, шуни айтиш керакки муддат жиҳатдан иқтисодий ўсишнинг “узоқ ва ниҳоятда узоққа” бўлиниши асосан ўзининг концептуал муҳимлигига сифат жиҳатдан янги ҳодиса ёки жараённинг вужудга келишигача бўлган иқтисодий ўсишни ўз ичига олади. Неокейнсчилар ва неоклассик иқтисодий ўсиш назариясининг

тарафдорлари узоқ даврга мўжалланган иқтисодий ўсиш муддатини асосий капиталнинг амал қилиш циклига тенг, деб ҳисоблайди.

Реал ҳаётда шундай иқтисодий жараёнлар бўладики, ўзоқ ва ниҳоятда ўзоқ муддатга мўжалланган иқтисодий ўсишларни таъминлайдиган таркиби, институционал ва функционал ўзгаришлар ўзоқ вақтдаги ўзгаришларга нисбатан олдинроқ, яъни, мўжалдаги вақтдан олдин содир бўлиши мумкин. Лекин, шунга қарамасдан ниҳоятда ўзоқ муддатдаги иқтисодий ўсишни таҳлил этганда, бизнинг фикримизча, нинг икки хусусиятини ҳисобга олиш зарур.

Биринчидан, иқтисодий ўсиш иқтисодий ривожланишнинг таркибий элементи, таркибий қисми сифатида қаралиб, таҳлил қилиниши лозим. Сабаби, маълум қисқа давр ичидаги иқтисодий усиш иқтисодий цикллини келтириб чиқаришга ўз таъсирини кўрсатса, маълум бир қисқа давр ичидаги иқтисодий ўсиш иқтисодий циклнинг натижаси сифатида намоён бўлади. Бундан шундай хулоса чиқардикки, узоқ давр ичидаги иқтисодий усиш таҳлил қилинганда эътиборни унинг шу даврдаги ўсиш суръатига эмас, балки иқтисодиётдаги глобал ўзгаришлар, барқарор тенденциялар ва қонуниятларга қаратиш лозим бўлади.

Иккинчидан, иқтисодий ривожланишнинг макроиқтисодий асослари, яъни тадбиркорликни ривожлантириш муаммолари, ишлаб чиқарувчилар ва истеъмолчилар манфаатларининг тўқнашиши билан боғлиқ бўлган зиддиятлар ҳамда ташқи муҳитнинг ўзгариши шароитида янги иқтисодий таркибининг ташкил топиши, иқтисодиётнинг самарадорлигини ошириш ва бу масалаларни ҳал қилишда давлат институтлари ролининг ўзгариши каби масалалар таҳлил қилинади. Демак, макро микро даражадаги иқтисодий ўсиш қисқа, ўзоқ ва ниҳоятда ўзоқ давр ичида бўладими, бундан қатъий назар унинг ўз олдига қўйган пировард мақсади аҳолини моддий маънавий эҳтиёжларини тўликроқ қондириш, халқ фаровонлигини ошириш ва хавфсизлигини таъминлашдир.

Иқтисодий ўсишдан кўзланган мақсади қўйидагилардан иборат:

- Аҳоли жон бошига тўғри келадиган реал миллий даромадни кўпайтириш;
- Иқтисодий фаолият иштирокчилари ва аҳолининг бўш вақтини кўпайтириш;
- Реал миллий даромаднинг тақсимланиши ва қайта тақсимланишини такомиллаштириб, жамият аъзоларининг, жумладан, меҳнатга лаёқатли ва лаёқатсиз ишсизларга тегадиган маҳсулот ҳиссасини ошириб бориш, ижтимоий ҳимоялаш, жамиятда ижтимоий адолат тамойилларни қарор топтириш;

Юқоридагилардан кўриниб турибдики, иқтисодий ўсишдан кўзланган мақсад, жамият аъзоларининг моддий ва маънавий эҳтиёжларини тўлароқ қондириб, уларни фаровонлигини оширишдир.

Иқтисодий ўсиш билан иқтисодий мувозанатнинг ўзаро боғлиқлигини таҳлил қилганда, бизнинг фикримизча, иқтисодий ўсишнинг иқтисодий мувозанатликка таъсирини ва акс таъсирини таҳлил қилиш зарур.

Бу таъсир ва акс таъсир йўллари қўйидагилардан иборат:

Биринчидан, иқтисодий ўсиш мамлакат ичида ва мамлакатаро рақобат шароитида амалга ошганлиги сабабли, у товарлар ва хизматлар сифатини оширишни ва уларнинг ички ва ташқи бозорлардаги рақобатбардошлигини кучайтиришни тақозо этади;

Иккинчидан, қондирилмаган эҳтиёжларни янги товарлар ишлаб чиқариш эвазига қондиришга шароит яратади;

Учинчидан, ишлаб чиқариш ресурсларнинг халқ хўжалиги тармоқлари, соҳалари ва минтақалари бўйича тақсимланишини такомиллаштириш эвазига уларни самарадорлигини оширади;

Тўртинчидан, ишлаб чиқариш омилларининг унумдорлигини ошириш билан боғлиқ бўлган чора тадбирлар, усуллар такомиллаштирилади ва инсон омилига эътибор, унга сарфланадиган инвестиция ҳажми кўпаяди;

Бешинчидан, бозор иқтисодиёти ўзининг табиатига кўра, жамиятининг баъзи бир ижтимоий масалаларига салбий муносибатида бўлишига қарамасдан, иқтисодий ўсиш, жамиятдаги ишсизларни камайтириш, хавфсизлигини таъминлаш ва уларни ижтимоий ҳимоя қилишига ундайди;

Олтинчидан, иқтисодиётда мутаносиблик ва мувозанатлик таъминланган шароитдагина иқтисодий ўсиш рўй беради ва ўзига хос вазифаларини бажара олади.

Бу ерда ўсиш турли даражада иқтисодий мувозанатликнинг якуний натижаси сифатида юзага чиқади. Сабаби, иқтисодий мувозанатлик таъминланганини ифодалайдиган асосий кўрсаткичлар ЯММ ва ЯИМнинг ошиши ва аҳоли жон бошига тўғри келадиган даромад ҳажмининг кўпайишидир.

Иқтисодий микро, макро ва ҳудудий мувозанатликнинг қарор топганлигини ифодаловчи ва тақсимловчи муҳим интеграл кўрсаткич сифатида юзага чиқади.

Жамият томонидан иқтисодий ўсишни таъминлашда юқорида келтирилган икки усулининг ҳиссаси қай даражада эканлигини аниқлаш ялпи миллий маҳсулот (ЯММ), ялпи ички маҳсулот (ЯИМ) ёки соф миллий маҳсулот (СММ)нинг таркибий қисмларига қараб аниқланади.

Ишлаб чиқарилган маҳсулот ҳажмининг кўпайиши суръати билан уни ишлаб чиқаришда иштирок этган омиллар ҳажми ўртасидаги мутаносибликка ва иқтисодий ўсиш турига боғлиқ. Маълумки, иқтисодий ўсишнинг экстенсив ва интенсив типлари мавжуд. Иқтисодий ўсишнинг экстенсив турига моддий неъматлар ва хизматлар ҳажми қўшимча харажатлар, яъни қўшимча меҳнат воситалари ва ресурсларни кўп жалб этиш эвазига амалга оширилса, интенсив типда эса ишлаб чиқаришнинг ҳажми ишлаб чиқариш омилларини сифат жиҳатидан такомиллаштириш, пргрессив технологияни жорий этиш, меҳнат унумдорлигини ошириш асосида эришилади. Бу типдаги иқтисодий ўсиш жараёнида ишлаб чиқаришнинг реал ҳажмини ўсиши жами реал харажатлар ҳажмининг ўсишига қараганда тез суръатлар билан ривожланади.

Маълумки, иқтисодий ўсишнинг экстенсив ва интенсив кўриниши реал ҳаётда соф ҳолда учрамайди. Ҳамма вақт иқтисодий ўсиш омилларнинг фан техника тарақиёти асосида миқдор жиҳатидан такомиллашуви ҳар доим ишлаб чиқариш воситаларига, ишчи кучига, ишлаб чиқариш ресурсларига кўп инвестициялар сарфлашни тақозо этади ва шу сабабли ишлаб чиқариш ресурсларини сифати ўзгариб боради. Шундай экан, иқтисодий ўсишнинг экстенсив ва интенсив кўринишлари ўзаро уйғунликда амал қилади.

**REFERENCES**

1. Мирзиёев Ш.М. "Инновацион ғояларни илм-фан ва саноатга кенг татбиқ этиш-ислоҳотлар самарадорлигининг бош мезони"Халқ сўзи, №107 (7337). 2019 йил 29 май.
2. 2.Каримов И.А. мавжуд имконият ва ресурслардан оқилона фойдаланиш-тараққиёт

омили. Тошкент Ўзбекистон 2004йил

3. Каримов.И.А. “Жаҳон молиявий-иқтисодий инқирози, Ўзбекистон шароитида уни бартараф этишнинг йўллари ва чоралари”. Т.: Ўзбекистон, 2009 йил.
4. 4.Ахмедов Д.Қ., Ишмухамедов А.Э., Жумаев Қ.Х., Джумаев З.А. Макроиқтисодиёт. - Т.: «Ўзбекистон ёзувчилар уюшмасининг Адабиёт жамғармаси нашриёти», 2004
5. Мэнкью Н.Г. Принципы макроэкономики: 4-е изд./ Пер.с анг. – СПб.: Питер, 2009.
6. Самуэльсон, Пол Э., Нордхаус, Вильям Д. Макроэкономика,18-е изд.: пер. с англ,- М.: ООО «И.Д. Вильямс», 2009.

# РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТНИ ШАКЛЛАНТИРИШДА ЗАМОНАВИЙ ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИНГ ҚЎЛЛАНИЛИШИ ВА УНИНГ АҲАМИЯТИ

**Қодирова Дилафруз**
Гулистон давлат университети ўқитувчиси
**Шарафиддинов Нозимжон**
Гулистон давлат университети талабаси

https://doi.org/10.5281/zenodo.7540214

***Аннотация.*** *Ўзбекистоннинг халқаро савдо тизимига интеграциялашувида, маҳсулот ва товарлар импорти ва экспортнинг ўсиб боришида ахборотлаштириш соҳасидаги технологиянинг ривожи янгича даврни бошлаб бермоқда. 3D-технологиясининг иқтисодиёт соҳасида кенг қўлланилиши тадбиркорларнинг янги синфининг вужудга келишига ва тадбиқ этиш жиҳатлари ёритилган.*

***Калит сўзлар:*** *рақамли иқтисодиёт, ахборот, WiMAX технологияси, интеллект, нейрон тўрлар, бизнес, банк, молия, биржа.*

# ПРИМЕНЕНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ И ЕГО ЗНАЧЕНИЕ В ФОРМИРОВАНИИ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ

***Аннотация.*** *Развитие технологий в сфере информатизации открывает новую эру интеграции Узбекистана в систему международной торговли, роста импорта и экспорта продукции и товаров. Широкое использование 3D-технологий в экономике привело к появлению нового класса предпринимателей, освещены аспекты его применения.*

***Ключевые слова:*** *цифровая экономика, информация, технология WiMAX, интеллект, нейронные сети, бизнес, банковское дело, финансы, фондовая биржа.*

# APPLICATION OF MODERN TECHNOLOGIES AND ITS SIGNIFICANCE IN FORMING THE DIGITAL ECONOMY

***Abstract.*** *The development of technology in the field of informatization is beginning a new era in the integration of Uzbekistan into the international trade system, the growth of import and export of products and goods. The widespread use of 3D technology in the economy has led to the emergence of a new class of entrepreneurs, and the aspects of its application are highlighted.*

***Keywords:*** *digital economy, information, WiMAX technology, intelligence, neural networks, business, banking, finance, stock exchange.*

Глобаллашув шароитида миграция, туризм, халқаро савдо, чет эл инвестициялари ҳамда коммуникация воситаларининг ривожланиши ҳар қандай миллий иқтисодиётнинг ўсиш даражасига ўз таъсирларини ўтказади.Ўзбекистон бугун халқаро ҳамжамиятнинг ва глобал молиявий- иқтисодий бозорнинг ажралмас таркибий қисми ҳисобланади. Бунинг тасдиғини ташқи дунё билан алоқаларимиз тобора кенгайиб бораётганида, тараққий топган етакчи давлатлар кўмагида иқтисодиёт тармоқларини ривожлантириш, модернизация қилиш, техник ва технологик қайта жиҳозлаш бўйича дастурларнинг амалга оширилаётганида, Ўзбекистоннинг халқаро савдо тизимига интеграциялашувида, махсулот ва товарлар импорти ва экспортнинг ўсиб боришида ва бошқа мисолларда яққол кўришимиз мумкин. Бозор муносабатларига ўтиш жамият ижтимоий-иктисодий ҳаётининг барча соҳаларига ахборотлаштириш соҳасида эришилган энг сўнгги ютуқларни тадбиқ этиш суръатларини ғоятда тезлаштириб юборди.

Республикамизда 2022 йилда қабул қилинган Тараққиёт стратегиясини амалга ошириш шароитида мамлакатнинг рақобатбардошлигини ошириш, иқтисодий салоҳиятини юксалтириш, инновацияларни кенг жорий этиш ва шулар асосида ресурслардан оқилона фойдаланиш рақамли иқтисодиётни шакллантириш омилларидандир. Чунки бошқарувда рақамли технологияларни кенг қўллаш, мамлакатимизда электрон ҳукумат тизимини жорий этиш муаммоси ижтимоий ривожланишнинг кўп вариантлиги ва муқобиллигини эътироф этишга асосланган.

Жисмоний меҳнатни илм, маърифат, рақамли ахборот билан алмаштириш меҳнат фаолиятини ижодкорлик, инновациялар, ғояларни ишлаб чиқиш бўйича янги фаоллик турига алмаштиришда мумкинлиги ҳақида гапиришга асос беради. Бу ерда гап ахборот тўплаш ва уни қайта ишлаш бўйича тан олинган ҳамда маънавий йўналтирилган фаолият – интеллектуал фаоллик ҳақида бормоқда.

“Рақамли Ўзбекистон – 2030” Концепциясидан кўзланган асосий мақсад сифатли ва қиммат бўлмаган интернет ва мобил алоқасини жорий этиш, шаҳар ва қишлоқ ўртасидаги рақамли тафовутни камайтириш,электрон ёзувлар устуворлиги ва коррупцияга қарши курашишни кучайтиришдан иборат. Стратегия мамлакатнинг рақамли иқтисодиётини тезкор ривожлантириш ва уни шакллантириш, инновацион маҳсулотларга қулай муҳитни яратиш, давлат бошқаруви самарадорлигини ошириш, аҳоли ва тадбиркорларга қулай давлат хизматларини амалга ошириш учун ишлаб чиқилади ва жорий этилади.

Жамиятнинг қанча кўп аъзоси янги рақамли, юқори технологик маҳсулотларни эгалласа, уларнинг харидоргирлиги ва қиммати шунча ортади, яъни истеъмол кўламининг синергетик самараси намоён бўлади. Натижада иқтисодий ривожланиш салоҳияти янада ошади.

Мамлакатда Интернет тармоғидан жамоавий фойдаланиш шаҳобчалари сони ортиб бормоқда (ЖФШ). Интернет тармоғида уланиш учун Wi-Fi технологиясидан фойдаланиш ҳам кенгаймоқда.

Тажриба тариқасида фойдаланиш натижаларига кўра, Давлат радиочастоталар комиссияси томонидан республикада WiMAX технологияси бўйича кенг тармоқли симсиз фойдаланиш тармоқларини ривожлантириш мақсадида ҳар бир опреторга частоталар тармоқли ажратиб берилган эди. Бу катта ҳудудларни қамраб олиш билан бирга симсиз тармоқларни яратиш имконини беради (50 километргача).

Бунда маълумотларни узатиш тезлиги 32 дан 135 Мбит/с гачани ташкил этади. Шу билан бирга Wi-Fi технологияси бўйича симсиз фойдаланиш тармоқларини ривожлантириш учун частоталар ажратиб берилган. Улар симсиз локал (офис ичидаги) тармоқларни яратишга ва Интернет тармоғига маълумотларни узатиш тезлиги 54 Мбит/с бўлган юқори тезликка эга симсиз уланишларни вужудга келтиришга мўлжалланган.

Wi-Fi технологиясидан фойдаланилган ҳолда Интернет тармоғига уланиш ҳудуди кенгайтирилмоқда. Натижада Wi-Fi фойдаланиш нуқталари сони ортади.

Сунъий интеллект ҳақидаги тасаввур ва бу соҳадаги изланишлар — «ақлий машиналар» ишлаб чиқаришга илмий ёндошиш биринчи бўлиб Станфорд

университетининг (АҚШ) профессори Джон Маккарти ташаббуси асосида 1956 йили ташкил топган илмий тугаракда пайдо бўлган.[13]

«Интеллект» сўзи лотинча «intellectus» сўзидан келиб чиккан бўлиб, у билиш (аниқлаш), тушуниш ёки фахмлаш (ақл) маъносини беради.

Сунъий интеллектли тизимларга: ахборот-кидирув тизимлари (савол-жавоб тизимлари), хисоб-мантиқ тизимлари ва эксперт тизимлари киради.

Хар қандай интеллектуал тизим, унинг каерда кулланишига боғлик бўлмаган холда, одам-машина тизимидир.

Тизимнинг вазифаси — охирги фойдаланувчига у ёки бу масалани ечишда унинг касби фаолияти доирасида малакали мутахассис (эксперт) ларнинг йиллар давомида орттирган билимларидан фойдаланиш учун имконият яратишдан иборат. Бунинг учун ЭХМ таркибига билимлар манбаи ва интеллектуал интерфейс кириши керак.

Билимлар манбаида характерли бўлган масалаларни ечиш усуллари ҳақидаги ахборотлар сақланади. Интеллектуал интерфейс масалани ечиш жараёнида охирги фойдаланувчи ва тизим ўртасидаги ўзаро муносабатни (харакатни, ишлашни) таъминлайдиган сунгги фойдаланувчининг хамма воситаларини уз ичига олади.

Муаммони хал қилишга каратилган, охирги йилларда яратилган эксперт тизимларининг тахлили шуни курсатадики, яратувчиларнинг асосий куч-гайрати, саноат ва конструктор-технологик корхоналарда самарали қўлланувчи системалар яратишга каратилган.

Маълумки инсон мияси катта хажмдаги ахборотни тез қайта ишлай олади. Бунга сабаб миллионлаб мия нерв хужайралари - нейронларнинг параллел ишлашидир.

Сунъий нейронларнинг ғоявий асоси хам биологик нейрон хужайралари хисобланади.

Нейрон дейилганда сунъий нейрон аникроғи, компьютер дастурини назарда тутилади.

Бугун нейрон тўрлар ўта чукур ўрганилмаган бўлишига қарамасдан қуйидаги соҳаларга қўлланилиб ижобий натижаларга эришилмоқда:

- бизнес – нейрон тўрларнинг бу соҳага тадбиқи 1984 йилда адаптив канал эквалайзери яратилиши билан бошланди. Бу қурилма жуда содда бўлиб, битта нейрондан ташкил топган. У узоқ масофадаги телефон линияларида овозни стабиллаштириб сифатини оширганлиги сабабли катта иқтисодий мувафақият қозонган;

- банк молия – кўчмас мулкни бахолашда, кредит беришда рискларни хисоблаб мижоз танлашда, қарзларни бахолашда, кредитларнинг ишлатилишини анализ қилишда, савдо портфели программаларида, молиявий анализ қилишда, валюта қийматини прогнозлашда;

- биржа – валюта ва акция курсларини прогнозлашда, бозорни прогнозлашда, корхоналар келажагини бахолашда;

- ишлаб чиқариш – жараёнларни бошқаришда, махсулотлар дизайни ва анализида;

[13] David Poole Alan Mackworth *Artificial Intelligence: Foundations of Computational Agents, Cambridge University Press, 2010*

- медицина – ўпка раки хужайраларини анализ қилишда, ДНК анализида, протез лойилашда, трансплантация вақтларини оптимизациялашда, шифохона харажатларини камайтиришда ва сифатини оширишда, шошилинч ёрдам хоналарини текширишда;

- робототехника – траектория қуришда, харакатни бошқаришда, манипуляторларни бошқаришда, тасвир анализи ва кўришда, шакллар ва фигураларни танишда, овоз анализи ва синтезида;

- транспорт – маршрутларни оптимал лойихалашда, вақт жадвалларини режалаштиришда, юк машиналари тормоз системаларининг анализида;

- автомобиль – автоматик бошқариш тизимларида, автоматик харита тизимларида, кафолат билан боғлиқ ишлар текширувида;

- космос – юқори самарали автопилотлар яратишда, учиш траекторияси иммитацияси тизимларида, учар жисмларни бошқариш тизимларида, учар жисмларининг камчилик ва бузуқликларини топиш ва бартараф қилишда;

- мудофаа – товуш, радар, инфрақизил сигналларни тахлил қилишда, ахборотларни умумлаштиришда, автоматик қурилмаларни бошқаришда;

- телекоммуникация – тасвир ва овозни зичлаш, шифрлаш ва бошқача қайта ишлаш жараёнларида, автоматлаштирилган ахборатлаштиришда, турли тилларга синхрон таржима тизимларида ва хоказоларда.

Нейрон тўрларнинг афзалликларини ва мавжуд компьютер дастур пакетларининг қулайлик ва самарадорлигини хисобга олиб уни инновация жараёнларида қўллаш истиқболли эканлигини хулоса қилиш қийин эмас.[14]

“D” атамаси инглизча “dimensions” сўзидан олинган бўлиб, “ўлчамлар” маъносини беради. Таъкидлаш жоизки, 3D технологияси тасвирни визуал ва товушли узатиб беришнинг дунёдаги энг илғор усулидир.

3D принтерлар - уч ўлчамли чизмалар асосида нарса-буюмлар "чоп этувчи" принтерлардир. Ҳозирча бу каби ишланмалар тор доирада амалга оширилаётган бўлса, яқин келажакда бемалол уй шароитида 3D-принтердан масалан бир жуфт кроссовка, кийим ёки рўзғор буюми чиқариб олишнинг имкони бўлади.

Ҳозирги кунда уч ўлчамли ҳайкаллар, йирик объектларнинг кичрайтирилган моделлари (машиналар, самолётлар, бинолар), шунингдек, турли илмий ишланмалар моделларини ясаш имконияти мавжуд. Мисол учун, Lockheed Martin корпорацияси учувчисиз бошқариладиган " Polecat " самолёти учун жиҳозларнинг катта қисмини тезкор уч ўлчамли босма технологияси асосида чиқармоқда.

Уч ўлчамли чоп этилаётган маҳсулотларнинг нархи пасайишини инобатга олсак, ушбу технологияга талаб ошмоқда. Бугунги кунда Boeing компанияси ўз самолётларининг 200 дан ортиқ деталларини 3D-чоп этиш технологияси асосида ишлаб чиқмоқда.

3D-принтерларда нарса-буюм ясаш концепцияси, бизга яна бир бор "учинчи олам"нинг мўъжизалардан иборат эканлигини кўрсатмоқда.

АҚШ нинг Organovo va Invitech компаниялари инсон органларини чоп этувчи биопринтер яратишди.

[14] D. Kriesel . A Brief Introduction of Neural Networks, Bonn, Gwermany, 2011

Ушбу принтер чоп этувчи икки қисмдан иборат бўлиб, биринчи қисми чоп этилувчи орган шаклини яратувчи гелни сепади, иккинчиси эса шаклни табиий тўқималар асосида яратилган ҳужайралар билан тўлдиради.

Cricut Cake принтери ширинликлар яратишда ижодкорликка имкон яратиб беради. Ушбу принтернинг нархи 400 АҚШ долларида баҳоланмоқда.

3D-принтерлар қаторида бугунги кунда жаҳон бозорида 3D дисплейлар фаол илгари сурилмоқда.

3D дисплей – кўзойнак ёки бошқа қўшимча қурилмаларсиз инсон томонидан ҳажмдор сифатида идрок этилувчи тасвирни чиқара олишга қодир қурилмадир.

3D технологиялар соҳасида яна бир янгилик- 3Doodler- уч ўлчамли тасвир яратадиган ручкадир.

Одатда биз қўлимизга ручка олиб, қоғозга икки ўлчамли тасвирларни чизамиз. Сиз қанчалик истеъдодли рассом бўлманг, суратингиз фақат узун ва баланд бўлиши мумкин, аммо ҳажмли бўлмайди.

3Doodler-”WobbleWorks” америка компанияси томонидан яратилган ручкадир.

3D- ручкада сиёҳ ўрнига пат остидан чиққан 270 даражагача қиздириладиган махсус пластикдан фойдаланилади. Чизилган тасвир эса ўша ондаёқ совийди ва қотиб қолади. Шу тариқа уч ўлчамли моделларни яратиш мумкин бўлади. Ручка ёрдамида ҳайкаллар, тақинчоқлар, болалар учун ўйинчоқлар каби буюмларни яратиш мумкин.

3D технологиялари бугунги кунда реклама амалиётида ҳамда маркетинг тизимида кенг қўлланилмоқда.

3D- рекламалардан Coca-Cola, Adidas, Cavalli, Ferrero, McDonalds каби таниқли фирмалар кенг фойдаланмоқдалар.

Мутахассисларнинг фикрича 3D технологиялар товар ишлаб чиқаришда революцияга олиб келади.

Ушбу технологиянинг ривожи янгича даврни бошлаб бермоқда. Масалан, Японияда 3D-технологиянинг кенг қўлланилиши тадбиркорларнинг янги синфининг вужудга келишига олиб келди. Ушбу соҳада фаолият юритаётган янги компаниялар сони 15 тадан 2300 тага етди.

Аммо халқаро миқёсда уч ўлчамли технология бозорида АҚШ ва Германия компаниялари етакчилик қилмоқдалар.

Wholers Associates консалтинг агентлиги аналитикларининг башоратига кўра 3D-технологиялар глобал бозори 2012 йилдаги 2 млрд. доллардан 2021 йилда 11 млрд. долларгача ошади.

IBusiness.ru сайти маълумотларига кўра эса 3D- технологиялар 2025 йилда жаҳон иқтисодиётига 550 млрд. долларгача фойда олиб келиши кутилмоқда.

Айрим экспертларнинг фикрича яқин 30 йил ичида ҳар бир хонадонда 3D-принтерлар мавжуд бўлиши ва фойдаланувчи онлайн-магазин орқали керакли буюм макетини сотиб олиб ўзи чоп этиши мумкин. Бу эса иқтисодиётни ҳам инсон ҳаётини ҳам буткул ўзгартириши табиий.

**REFERENCES**

1. Cordella, F. Iannacci Information systems and organisations Published by: University of London Press ,2011
2. Stephen B. Harsh Management information systems. Department of Agricultural Economics Michigan State University harsh@msu.edu
3. Laudon, K.C. and J.P. Laudon Management Information Systems: Managing the Digital Firm. (Harlow: Pearson Education, 2012) twelfth edition
4. Мирзиёев Ш.М. “Инновацион ғояларни илм-фан ва саноатга кенг татбиқ этиш-ислоҳотлар самарадорлигининг бош мезони”Халқ сўзи, №107 (7337). 2019 йил 29 май.

# TEXNOLOGIYA FANI O'QITUVCHILARINI TAYYORLASH JARAYONIDA INNOVATSION YONDASHUV ASOSIDA INTERFAOL METODLARNI QO'LLASH

**Do'syorova Ziragul Abdurazzaqovna**
TerDUPI magistranti

***https://doi.org/10.5281/zenodo.7540630***

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada texnologiya fanining ahamiyati, ushbu fanga zamonaviy yondashuvlar va texnologiya fani o'qituvchilarini tayyorlashda mustaqil ta'limning innovatsion shakl va metodlaridan foydalanish hamda axborot texnologiyalar asosida qo'llanilishi haqida so'z brogan.*

***Kalit so'zlar:*** *texnologiya, pedagogika, axborot texnologiyalar, elektron darslik, pedagoglar, metod.*

# ПРИМЕНЕНИЕ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ НА ОСНОВЕ ИННОВАЦИОННОГО ПОДХОДА В ПРОЦЕССЕ ПОДГОТОВКИ УЧИТЕЛЕЙ ТЕХНОЛОГИЙ

***Аннотация.*** *В данной статье говорится о значении технологической науки, современных подходах к этой науке и использовании инновационных форм и методов самостоятельного образования в подготовке учителей технических наук, а также использовании информационных технологий.*

***Ключевые слова:*** *технология, педагогика, информационные технологии, электронный учебник, педагоги, метод.*

# APPLICATION OF INTERACTIVE METHODS BASED ON AN INNOVATIVE APPROACH IN THE PROCESS OF TRAINING TECHNOLOGY TEACHERS

***Abstract.*** *This article talks about the importance of technology science, modern approaches to this science, and the use of innovative forms and methods of independent education in the training of technology science teachers, as well as their application based on information technology.*

***Key words:*** *technology, pedagogy, information technology, electronic textbook, pedagogues, method.*

Respublikamizda olib borilayotgan ta`lim-tarbiya islohotlari, mutaxassis kadrlar salohiyotini oshirishga qaratilgan bo'lib, oliy o'quv yurtlarida pedagoglarning metodik mahoratini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'qituvchilarimiz bu vaziyatdan chiqishda ularni o'z faoliyatiga tanqidiy yondashib, psixologik jixatdan qayta ko'rib chiqib, ularni yangi sharoitda bolalarga samimiy munosabatda bo'lish, ularni rivojlantirishda shaxsiy yondashuv, hamkorlik, hamijodkorlik, individuallashish asosida, ularni ta`lim - tarbiya jarayoniga motivatsiya hosil qilish orqali ta`lim jarayonida faol ishtirokini ta`minlashga barcha kuchlarini va e`tiborlarini qaratishni talab etadi.

Agar o'qituvchi o'zining faoliyatni kuzatib borsa, tahlil qilsa, o'ziga baho bera olsa, o'z faoliyatiga tuzatishlar, yangiliklar kirita olish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Shu sababli ham respublikamizda interfaol metodlarni o'quv jarayoniga qo'llash keng joriy etilmog'i kerak. Bu o'z navbatida o'quv jarayonini insonparvarlashtirish, demokratiyalashtirish, liberilizatsiyalashni tashkil etishni taqozo etmoqda. Qisqa qilib aytganda, o'quv jarayoni

markazida o'quvchi shaxsi, uning extiyoji bo'lmog'i lozim. O'quv jarayoni uning hoxish, istagiga qaratilgan, yo'naltirilgan bo'lmog'i talab etiladi. SHaxsga qaratilgan ta`lim o'quvchini o'quv – biluv faoliyatini tashkil etishning harakatlantiruvchi, qiziqish, extiyojini, hoxish, istaklarini ro'yobga chiqaruvchi kuch bo'lib xizmat qiladi.

**Innovatsiya:**

- Yangilanish, o'zgarish;
- Biror – bir yangilikni kiritish;
- Yangilikni o'zlashtirish jarayoni.

**Innovatsiya** – (inglizcha Innovation – yangilik kiritish) – tizim ichki tuzilishini o'zgartirish, amaliyot va nazariyaning muhim qismi. Innovatsion jarayonning mazmuniy tomonini o'z ichiga oladi (ilmiy g'oyalar va ularning texnologiyalarini amaliyotga kiritish).

Demak, faqatgina innovatsion jarayonlarni pedagogik tizimga bog'lash yoki kiritish orqaligina ta`limda yuqori darajalarga erishish mumkin. Bunda yangiliklarni sekinlik bilan, bosqichma – bosqich kiritish, uni qanchalik foyda keltirishini atroflicha o'ylab, o'lchab amalga kiritish maqsadga muvofiqdir. Innovatsiyalarni pala – partish, tartibsiz, oldindan natija olishni mo'ljallamay amalga oshirish zarar keltirishi ham mumkin.

Zero, innovatsiya chuqurroq bilim olish, o'rganish, o'zlashtirish, keng hajmdagi bilimlarni olishga qaratilmog'i yaxshi natijalar berishi mumkin.

Bular doimiy pedagogik muammo bo'lib kelayotgan: o'quv – tarbiyaviy faoliyat motivatsiyasini oshirish, dars jarayonlarida o'quv materialni hajmini oshirish, o'quv jarayonini jadallashtirish, vaqtni tejash, ko'proq ilg'or metodlardan foydalanish, o'quv – tarbiyaviy ishlarda interfaol usullardan foydalanish, ilg'or texnologiyalarni qo'llash, axborot – kommunikatsion texnologiyalarni joriy qilishdan iborat. Yuqori natijalar beradigan yangi g'oyalar, yangi nazariy bilimlar beruvchi, insonni rivojlanishiga olib keluvchi, tom ma`nodagi innovatsiyalarni yaratish, izlash, joriy etish talab etiladi.

Ko'plab umumiy va xususiy loyihalarni tahlil etib, pedagogik nazariya va amaliyotga tadbiq etilish xususiyat va holatlarini o'rganish asosida umum pedagogik innovatsiyalarni shunday ko'rinishda bo'lishini belgilash mumkin:

- Juda yangi bo'lmasada, doimiy faol bo'lgan, o'zining g'oyasi – ahamiyati jixatdan eskirmagan, o'quv – tarbiya jarayoni texnologiyalarini, o'quv jarayonini optimallashtirish nazariyasi va amaliyotini;
- Gumannistik pedagogika va uning nazariy va amaliy jihatlari texnologiyalarini;
- Pedagogik tizim jarayonidagi boshqaruvlarni yangi g'oya, yondashuvlar asosida tashkil etilishi;
- Yangi g'oyalarga asoslangan texnologiyalar, axborot vositalari va ommaviy kommunikatsiyalarga suyanish kabilar kiradi.

Innovatsiyani (yangiliklarni) bosh va asosiy yo'nalishlari qilib pedagogik sistemadagi:

- Pedagogik sistemaning bir butunligiga;
- O'quv muassasalari;
- Pedagogik nazariya;
- O'qituvchi;
- Ta`lim oluvchilar;
- Pedagogik texnologiya;

- Mazmun;
- SHakl, metod, vosita;
- Boshqaruv;
- Maqsad va natijalarni ko’rsatib o’tish mumkin.

CHuqur o’zgarishlarni amalga oshirish orqali pedagogik tizimga ta`sir etish asosida innovatsiyani amaliyotga joriy qilish mumkin.

Rus olimi YU.K.Bobanskiyning keyingi 10 yilliklar orasida fanda yangi va muhim yo’nalish bo’lib, innovatsion jarayon va novatsiyalar nazariyasi paydo bo’ldi, deydi. Bu nazariya o’qituvchining bevosita mehnat faoliyatiga bog’liqdir.

O’quv – tarbiyaviy ishlarni takomillashtirishning yana bir yo’li o’quv jarayonini **insonparvarlashtirishdir**.

Darsni insonparvarlashtirish:
- Hamkorlik;
- O’quvchiga g’amxo’rlik;
- O’quvchini hurmat qilish;
- E`zozlash;
- Kechirimli bo’lish;
- O’z – o’zini rivojlantirishga muhit yaratish;
- Psixologik sog’lom muhit yaratish;
- Ijodiy muhit;
- Do’stona munosabatda ish yuritish;
- O’quvchini extiyoji, qiziqishi, shaxsiy fazilati, iqtidorini, ichki imkoniyatlarini ishga solish.

Umuman o’quv jarayonida pedagogik munosabatlarni insonparvarlashtirish, demokratlashtirish, liberizatsiya etishni.

- O’zining shaxsiy – kasbiy sifatlari va fazilatlarini tahlil qilishi, bu boradagi kamchiliklarni aniqlashi va ularga barham berish yo’llarini izlashi;
- Pedagogik jarayonda do’stona, samimiy muhit, hamkorlik, hamijodkorlik va g’amxo’rlik vaziyatda ish faoliyatini olib borish;
- O’quvchi, talaba shaxsini xurmat qilish va e`zozlash yo’llarni egallashi, o’qitish jarayonida ijodiy va qulay ijtimoiy – psixologik muhitni yaratish ko’nikma va malakalarini egallagan bo’lishi;
- O’quvchilarni rag’batlantirish va uni yangi metodlarini qo’llash ko’nikmalarini;
- O’zining pedagogik va o’quvchilarning bilish faoliyatidagi kamchiliklarga barham berishning samarali usullarini egallagan bo’lishi kerak.

Albatta, yuqoridagi ishlarni amalga oshirish ta`lim sifati va samarodorligi oshirishni kafolatlaydi.

Buning uchun o’qituvchilarning bilimlarini va pedagogik mahoratlarini takomillashtirib borishlari doimiy, uzluksiz holda olib borilishi talab etiladi.

Innovatsion faoliyatda ish yuritish uchun yuksak madaniy – insonparvarlik asosida ta`limga yondashishi talab etiladi.

Insonparvarlik pedagogikasi shaxs va uni rivojlanishiga qaratilgandir. Uning belgilari: ma`lumotlarni egallab olish va ma`lum doiradagi mahorat va ko’nikmalar hosil qilish uchun texnik, jismoniy, aqliy rivojlanishiga diqqatni qaratilishidir. Mustaqil fikrlovchi va harakat

ISSN:
2181-3906
International scientific journal
«MODERN SCIENCE AND RESEARCH»
VOLUME 1 / ISSUE 3

qiluvchi shaxsni shakllantirishga qaratilgan kuchlarni to'plash, har qanday hayotiy va o'quv vaziyatlarda asoslangan qarorlarni tanlay olib, qaror qabul qila olishdir. O'quv jarayonini qayta qurish va yo'naltirishga zaruriy tashkiliy sharoitlarni yaratish.

O'quv jarayonini insonparvarlashtirish yondashuvi asosida haqiqiy insoniy munosabatlarni o'rnatish orqali avtoritar pedagogikadan voz kechib borish demakdir. SHaxsga shunday muhit, sharoit yaratish kerakki, u yuqori sifatli bilim, ko'nikma, malaka olsin va ma`naviy – ma`rifiy, tarbiyaviy ishlarga befarq qolmasligi kerak.

Insonparvar pedagogika maktabni o'quvchiga moslashuvi, qulay sharoit, ijodiy muhit yaratib, "psixologik himoya" bilan ta`minlashni talab etadi.

Insonparvarlik maktabi amaliyotini innovatsion faoliyatning aniq uslublarini ishlab chiqishni taqozo etadi. Ular:

1. O'quv – tarbiya jarayonini differentsiyalash;
2. O'quv – tarbiya jarayonlarini har bir shaxs xislat – qobiliyatlariga qarab muvofiqlashtirish;
3. Har bir tarbiyalanuvchini uning qiziqishini rivojlantirish uchun kerakli sharoitlarni yaratib berish;
4. Gotogen sinf, sinflar va shunga o'xshashlarni tashkil etish;
5. O'quv – tarbiya faoliyatni qulayligi;
6. Psixologik xavfsizlik, o'quvchilarni himoyalash;
7. O'quvchilarning kuchiga va imkoniyatlarga ishonish;
8. O'quvchini qanday bo'lsa, shunday qabul qilish;
9. Ta`lim – tarbiya muvaffaqiyatini ta`minlash;
10. Maktab yo'nalishini maqsadga qarab o'zgartirish;
11. Insonparvarlik ta`limini kuchaytirish.

Innovatsion, interfaol ta'lim o'qituvchi va o'quvchiga doimiy ijodiy izlanish, uzluksiz o'z shaxsini rivojlantirish, takomillashtirish imkonini beradi.

Yuqorida aytganimizdek, o'quvchi shaxsiga, uning qiziqish, hoxish, istagiga, extiyojiga qaratilmog'i kerak. Ya`ni ta`limni individuallashtirishga qaratilmog'i talab etiladi. Endi ta`limni individuallashtirish deganda nimani tushunish kerak? degan savolga javob beraylik.

Demak, ta`lim – tarbiya sifati va samaradorligi o'quvchining ta`lim mazmunini o'zlashtirishga yo'naltirilgan mustaqil mutoala bilan samarali shug'ullanishi, mustaqil fikr yuritishi va tafakkur faoliyati bilan bog'liq.

Interfaol metodlarda dars jarayonini olib borishda o'quvchilarda quyidagi xususiyatlarning rivojlanishini ko'rsatish mumkin:

O'quvchi o'qitilibgina qolmay, mustaqil o'qish, o'rganish, ishlashga, o'zlashtirishga o'rgatiladi.O'quvchilarni mustaqil ravishda tahlil qilish orqali o'zlashtirishga, ijodiy mulohaza yuritishga, shaxsiy xulosalar asosida erkin fikr yuritishga o'rgatiladi. Bizga yot fikrlarga qarshi fikr yurita olish, o'z nuqtai nazarini himoya eta olish ko'nikmalari shakllantiriladi.O'quvchiga bilimlar tayyor holda berilmasdan, bilimlarni darsliklardan, axborot – resurs markazlaridan, internetdan, turli boshqa manbalardan izlash, topish, qayta ishlash orqali ijodiy mushohada yuritish imkoniyati yaratiladi. O'quvchining darsliklar bilan ishlash, o'qish, o'rganish, konspekt yozish, qo'shimcha adabiyotlar va manbalardan foydalanib, mustaqil o'zlashtirish ko'nikmalarini egallashga o'rgatiladi.

Sinfdagi barcha o'quvchilarni o'z qobiliyatlari darajasida o'zlashtirishlari kafolatlanadi. O'quvchining o'zlashtirganligini, olgan bilimlarini kundalik hayotda, amaliy faoliyatda foydalana olish ko'nikma va malakalari bilan belgilanadi.

O'qituvchi - o'quvchilar interfaol metodlar asosida ishlashni o'rganib, uni o'z o'quv - biluv faoliyatlariga olib kira olsalar, barcha o'quvchilar deyarli bir xil natijalarga erishadilar.

Interfaol metodda dars jarayoni tashkil etilganda:

- O'quvchilarning o'zaro faolligi oshadi, hamkorlik, hamijodkorlikda ishlash ko'nikmalari shakllanadi.
- O'quv reja, dastur, ta`lim mazmuni, darslik, standart, me`yor, qo'llanmalar bilan ishlash malakalari shakllanadi.
- Ta`lim mazmunini, matnini mustaqil mutoala qilish, ishlash, o'zlashtirish kundalik shaxsiy ishlariga aylanadi.
- O'quvchi erkin fikr bildirish, o'z fikrini himoya qilish, isbotlay olish, tasdiqlay olishga odatlanadi.
- Eng muhimi o'quv jarayonida didaktiv motivlar vujudga keladi.

YA`ni o'quvchining extiyoji, hoxish, istagi qondiriladi, dars qiziqarli kechayotganligi sababli, vaqt o'tayotganini bilmay qoladi. O'quv – biluv jarayonida o'quvchining shaxsiy manfaatdorligi oshadi. Bu holat o'quvchini o'quv maqsadlariga intilishi va erishishida yuqori bosqichga ko'taradi.

## REFERENCES

1. Каримов И.А. Баркамол авлод-Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори.-Т.: Ўзбекистон, 1997.
2. Каримов И.А. Юксак маънавият енгилмас куч.-Т.: Маънавият, 1993
3. Ўзбекистон Республикасининг «Таълим тўғрисида»ги қонуни.-Т.: Шарқ, 1997.
4. Муслимов Н.А., Қўйсинов О.А. Касб таълими ўқитувчиларини тайёрлашда мустақил таълимни ташкил этиш. –Т.: Низомий номидаги ТДПУ, 2006.
5. Бабанский Ю.К. Ҳозирги замон умумий таълим мактабида ўқитиш методлари. -Т.: Ўқитувчи, 1990.
6. 8. Азизхўжаева Н.Н. Педагогик технология ва педагогик маҳорат.-Т.: ТДПУ, 2003.
7. 9. Ишматов Қ. Педагогик технология асослари (Илғор педагогик технологиялар) ўқув қўлланма.- Наманган: НамМПИ, 2003.
8. 10. Голиш. Л.В. Таълимнинг фаол усуллари: мазмуни, танлаш, амалга ошириш.-Т.: Ўрта махсус, касб-хунар таълимини ривожлантириш институти нашриёти, 2001.

# MATEMATIKA FANINI O'ZLASHTIRISHDAGI TALABALAR O'RGANISH QOBILIYATINING TIPOLOGIK XUSUSIYATLARI HAQIDA

**Mahmudova Mohlaroyim Abduvalijon qizi**
**Mamajonova Hayotxon Hasanboy qizi**
Andijon davlat pedagogika instituti Aniq va tabiiy fanlar fakulteti Matematika va informatika yo'nalishi 203-guruh talabalari

https://doi.org/10.5281/zenodo.7543763

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqola matematika fanini o'zlashtirishdagi talabalar o'rganish qobiliyatining tipologik xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlangan.*

***Kalit so'zlar:*** *o'rganganlik, o'rganganlik darajasi, o'rganish qobiliyati, idrok qilish, ob'ektivlik, yaxlitlik, barqarorlik, toifalilik, mazmunlilik.*

# О ТИПОЛОГИЧЕСКИХ ХАРАКТЕРИСТИКАХ ОБУЧАЕМОСТИ СТУДЕНТОВ В ОБУЧАНИИ МАТЕМАТИКЕ

***Аннотация.*** *Данная статья посвящена исследованию типологических характеристик способности школьников к обучению математике.*

***Ключевые слова:*** *обучаемость, степень обучаемости, обучаемость, восприятие, объективность, целостность, устойчивость, категоризация, осмысленность.*

# ABOUT TYPOLOGY CHARACTERISTICS OF STUDENTS' LEARNING ABILITY IN MASTERING MATHEMATICS

***Abstract.*** *This article is devoted to the study of typological characteristics of students' ability to learn mathematics.*

***Key words:*** *learnedness, degree of learning, learnability, perception, objectivity, integrity, stability, categorization, meaningfulness.*

Pedagogikada "o'rganganlik" tushunchasining aniq talqini yo'q. Pedagogik lug'atda o'rganganlik "hozirgi kungacha mavjud bo'lgan bilimlar zaxirasini va ularni egallashning belgilangan usullari va texnikasini o'z ichiga olgan ta'lim natijasi" sifatida tafsiflanadi. Shunday qilib, o'rganganlik har bir bosqichda keyingi ta'lim olish va ta'lim natijalari uchun asosiy komponent hisoblanadi.

S. I. Arxangelskiy fikriga ko'ra, o'rganganlik quyidagicha tavsiflanadi: "talabaning muayyan o'quv materiallari bo'yicha izlanishlarida olingan nazariy va amaliy masalalarni hal qilishda bilim va ko'nikmalar bilan ishlash qobiliyatini aks ettiruvchi muhim fazilatlaridan biri. Faoliyatning o'zgaruvchan vaziyatlarida mazmunan va shaklan xilma-xil bo'lgan o'quv materiallari uning ongi va amaliyotidan qancha ko'p o'tsa, bu qobiliyat shuncha ko'nikmalarga boy, kuchliroq, umumlashgan va faoliyatida mobilroq bo'ladi".

Talabalarning o'rganganligi yuqori, o'rta va past darajalar bilan farqlanadi. O'rganganlik darajasi (O' D) ning xususiyatlarini keltiramiz:

1) Yuqori O' D - talaba o'quv materiallari va konseptual apparatlarning mazmunini chuqur va to'liq egallaydi; nazariyani amaliyot bilan bog'lashi, misollar keltirishi mumkin. Belgilangan masalalarni tez va oqilona hal qiladi, berilgan savollarga aniq va qisqacha javob beradi; belgilangan masala bo'yicha o'z xulosalarini asoslashni biladi. Javoblari mustaqil

2) O'rtacha O' D - talaba o'quv materiallari va konseptual apparatlarning mazmunini chuqur va to'liq egallaydi; nazariyani amaliyot bilan bog'lashi, misollar bilan ifodalashi mumkin, ammo javobning mazmuni nazariy va amaliy materiallarni taqdim etishda alohida noaniqliklarga

(ahamiyatsiz xatolar) ega, u kamroq aniqlik va to'liqlik bilan tavsiflanadi; yo'l qo'yilgan xatolar o'qituvchining qo'shimcha savollaridan keyin talaba tomonidan tuzatiladi.

3) Past O' D - talaba o'quv materialining asosiy qoidalarini to'liq bo'lmagan bilim va tushunishda ochib beradi, tushunchalar va asosiy formulalarni aniqlashda noaniqliklar va muhim xatolar qiladi, o'zining xulosalarini qanday asoslashni bilmaydi va taqdimot mantiqining buzilishi kuzatiladi. Javob mustaqillik darajasi pastligi bilan ajralib turadi.

O'rganganlik - bu bizga o'quvchining kerakli bilim, ko'nikma va malakalarga ega ekanligi haqida to'liq tasavvur beradigan murakkab mezondir, ammo bu mezon O'D ning kamchiliklari sababi nima ekanligi haqida ma'lumot bermaydi. O'quvchining o'quv jarayonida qiyinchiliklarga duch kelishining sabablari va O'D ning kamchiliklari haqida ma'lumot beruvchi mezon - o'rganish qobiliyatidir

Psixologik lug'atda o'rganish qobiliyati insonning o'quv jarayonidagi bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish tezligi va sifatining individual ko'rsatkichlari sifatida ta'riflanadi.

Z.I.Kalmykova o'rganish qobiliyatini aqliy rivojlanishning asosiy ko'rsatkichlaridan biri sifatida talqin qilib, uni aqliy faoliyatning samaradorligiga bog'liq bo'lgan aqlning intellektual sifatlari tizimi sifatida tushunadi (dastlabki minimal bilim, o'qishga ijobiy munosabat va boshqalar)

O'rganish qobiliyatining asosini quyidagilar tashkil etadi:

1) sub'ektning bilish jarayonlarining rivojlanish darajasi-idrok, tasavvur, xotira, tafakkur, diqqat, nutq;

2) uning sohalari rivojlanish darajasi -motivatsion - irodaviy va emotsional;

3) ulardan kelib chiqadigan o'quv faoliyati tarkibiy qismlarini rivojlantirish - o'quv materialining mazmunini bevosita va bilvosita tushuntirishlardan anglash, materialni faol foydalanish darajasiga o'zlashtirish.

O'rganish qobiliyati asosida yotuvchi tipologik xususiyatlarni ko'rib chiqamiz. Birinch navbatda, o'quvchining anglash jarayonlari rivojlanishining bunday xususiyatini idrok qilish sifatida ko'rib chiqamiz

Idrok qilish (lotin tilida- perceptio) – pedagogika nuqtai nazaridan, bu dunyoning sub'ektiv tasvirini shakllantiradigan anglash jarayonidir

Tasvirning idrok qilish jarayonida va natijasida paydo bo'ladigan asosiy xususiyatlari - ob'ektivlik, yaxlitlik, barqarorlik, toifalilik, mazmunlilik.

Ob'ektivlik - idrok etish ob'ektivligining o'ziga xos xususiyati shundaki, biz ma'lum bir ob'ektga e'tiborimizni qaratganimizdan so'ng, butun qabul qilingan makon bir zumda ob'ektning o'zi va berilgan ob'ektni o'rab turgan makon tasviriga bo'linadi.

Yaxlitlik- ob'ektning alohida xususiyatlarini aks ettiruvchi hissiyotlardan farqli o'laroq, idrok qilish uning yaxlit qiyofasini beradi.

Barqarorlik-idrokning o'zgaruvchan fizik sharoitlariga bog'liq bo'lmagan holda, predmetlarni shakli, rangi, o'lchami va boshqa bir qator parametrlariga nisbatan qabul qilish qobiliyati

Inson idrokining toifaliligi uning umumlashganligida namoyon bo'ladi. Idrok qilinayotgan ob'ekt nomlanadi, demak u ma'lum bir toifaga nisbatan tasniflanadi. Ob'ekt bir xil toifadagi boshqa narsalar bilan umumlashtiriladi.

Idrokning mazmunliligi. Insonlardagi idrok tafakkur bilan chambarchas bog'liq. Ob'ektni ongli ravishda idrok qilish- uni aqlan nomlash, ya'ni ma'lum bir guruh, sinfga kiritish va uni so'z

bilan umumlashtirish demakdir. Hatto noma'lum ob'ekt oldida ham biz uning tanish ob'ektlarga o'xshashligini o'rnatishga harakat qilamiz

O'qituvchining talabalar bilan har qanday faoliyati, albatta idrokni faollashtirishning turli usullaridan iborat bo'lishi kerak. Dars materiali doskaga yoziladi yoki darslikda bo'ladi, yozish paytida eng muhim formulalar ostiga chizish bilan ajratiladi - bu o'rganilayotgan ma'lumotni umumiy oqimdan, ya'ni ob'ektivlikdan ajratishning bir usulidir. Masalalarni yechishda, barcha mumkin bo'lgan variantlarni ko’rish kerak. Masalan, ekstremum va monotonlik bo’yicha funksiyani o'rganishda barcha ekstremum nuqtalar qidiriladi va shunga ko'ra ushbu tadqiqot natijasida olingan ma'lumotlar to'liq bo'ladi.

Har bir mavzu, albatta, o'rganilayotgan predmet bo'yicha bir nechta masalalarni o'z ichiga oladi. Shuning uchun, bir xil turdagi ob'ektlar, masalan, ekstremum nuqtalar, turli funktsiyalar uchun alohida qidirilada, ularning soni va xarakteri o'zgaradi, ba'zi funktsiyalar uchun ular yo'q bo'lishi ham mumkin.

Bu yerda idrokning barqarorlik va toifalilik kabi xususiyatlari o'zini namoyon qiladi. Har bir mavzuni o'rganish natijasi har bir talabaning nafaqat yechimlarni mustaqil ravishda topish, balki masalarni yechish usullarini ham topa olish qobiliyatidir, ya'ni o'rganilayotgan ob'ektning muhim xususiyatlarini mustaqil ravishda tanlab, ularni mavjud ierarxiya (masalan, uzilish nuqtalari klassifikatsiyasi yoki differentsial tenglamalar yechimlarining turlari kabilar) bilan bog'lash, bu o'rganilayotgan materialni idrok etishning mazmunliligini anglatadi.

O'rganilayotgan ob'ekt atrof-muhitdan yaxlit, to'liq tasvir sifatida ajratilganidan so'ng, boshqa shunga o'xshashlar bilan bog'lanadi va tasniflanadi. So’ngra olingan ma'lumotlar saqlanishi kerak. Ma'lumotni xotirada saqlanadi. Xotirani bilish jarayoni deb qaraladi.

## REFERENCES

1. Андреев В.И. Педагогика творческого саморазвития. – Казань, 2012
2. Осмоловская И.М. «Дидактика: Учебное пособие для вузов» Издательство: Академия 2006г. И.М.
3. Зотова И. В. Формирование коммуникативных умений у студентов в образовательном процессе // Проблемы и перспективы развития образования: материалы V междунар. науч. конф. (г. Пермь, март 2014 г.). — Пермь: Меркурий, 2014. — С. 202-204.
4. Чередов И.М. Процесс обучения: методы, формы. Монография. Омск: Изд-во Ом ГПУ, 1997.
5. Калмыкова, Зинаида Ильинична.
6. Продуктивное мышление как основа обучаемости / З. И. Калмыкова. - М. Педагогика, 1981. - 200 с. : ил.; 20 см.

# MATEMATIKA DASRLARIDA O‘QUVCHILAR TA’LIMI HAQIDA TUSHUNCHALAR

**Kayumova Sadoqat Nosirbek qizi**
**Jumaboyeva Roziya**
Andijon davlat pedagogika instituti Aniq va tabiiy fanlar fakulteti Matematika va informatika yo‘nalishi 203-guruh talabalari
https://doi.org/10.5281/zenodo.7543875

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada matematika darslarida o‘quvchilar ta’limi haqida ilmiy qarashlar ilgari suriladi. Ilmiy fikrlar faktlarga asoslanib xulosalanadi.*

***Kalit so‘zlar:*** *Matematika, dars, o‘quvchi, kun, mustaqil, mantiq, qonuniyat, tasdiq.*

# КОНЦЕПЦИИ ОБРАЗОВАНИЯ СТУДЕНТОВ НА МАТЕМАТИЧЕСКИХ КЛАССАХ

***Аннотация.*** *В данной статье выдвигаются научные взгляды на воспитание учащихся на уроках математики. Научные мнения основаны на фактах.*

***Ключевые слова:*** *Математика, урок, ученик, день, самостоятельный, логика, закон, подтверждение.*

# CONCEPTS OF STUDENT EDUCATION IN MATHEMATICS CLASSES

***Abstract.*** *In this article, scientific views on the education of students in mathematics lessons are put forward. Scientific opinions are based on facts.*

***Key words:*** *Mathematics, lesson, student, day, independent, logic, law, confirmation.*

Bizga ma'lumki, matematika darslarida o'quvchilar o'qishning dastlabki kunlaridanoq mustaqil ravishda xulosa chiqarishga o'rganadilar. Ular avvalo kuzatishlar natijasida, so'ngra esa mantiqiy tafakkur qilish natijasida xulosa chiqaradilar. Ana shu chiqarilgan xulosalar matematik qonuniyatlar bilan tasdiqlanadi.

Matematika o'qituvchisining vazifasi o'quvchilarda mustaqil mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish bilan birga ularda matematikaning qonuniyatlarini o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini tarbiyalashdan iboratdir. O'quvchilarda matematik tafakkurni va matematik madaniyatni shakllantirish. Matematika darslarida o'rganiladigan har bir matematik xulosa qat'iylikni talab qiladi, bu esa o'z navbatida juda ko'p matematik tushuncha va qonuniyatlar bilan ifodalanadi. O'quvchilar ana shu qonuniyatlarni bosqichmabosqich o'rganishlari davomida ularning mantiqiy tafakkur qilishlari rivojlanadi, matematik xulosa chiqarish madaniyatlari shakllanadi. O'quvchilarni biror matematik qonuniyatni ifoda qilmoqchi bo'lgan fikrlarni simvolik tilda to'g'ri ifodalay olishlari va aksincha simvolik tilda ifoda qilingan matematik qonuniyatni o'z ona tillarida ifoda qila olishlariga o'rgatish orqali ularda matematik madaniyat shakllantiriladi.

O'rta maktablarda matematika o'qitishning maqsadi quyidagi uch omil bilan belgilanadi:

1. Matematika o'qitishning umumta'limiy maqsadi.
2. Matematika o'qitishning tarbiyaviy maqsadi.

Matematika o'qitishning umumta'limiy maqsadi o'z oldiga quyidagi vazifalarni qo'yadi:

a) O'quvchilarga ma'lum bir dastur asosida matematik bilimlar tizimini berish. Bu bilimlar tizimi matematika fani to'g'risida o'quvchilarga etarli darajada ma'lumot berishi, ularni matematika fanining yuqori bo'limlarini o'rganishga tayyorlashi kerak. Bundan tashqari, dastur

asosida o'quvchilar o'qish jarayonida olgan bilimlarining ishonchli ekanligini tekshira bilishga o'rganishlari, ya'ni isbotlash va nazorat qilishning asosiy metodlarini egallashlari kerak.

b) O'quvchilarning og'zaki va yozma matematik bilimlarini tarkib toptirish. Matematikani o'rganish o'quvchilarning o'z ona tillarida xatosiz so'zlash, o'z fikrini aniq, ravshan va lo'nda qilib bayon eta bilish malakalarini o'zlashtirishlariga yordam berishi kerak. Bu degan so'z o'quvchilarning har bir matematik qoidani o'z ona tillarida to'g'ri gapira olishlariga erishish hamda ularni ana shu qoidaning matematik ifodasini formulalar yordamida to'g'ri yoza olish qobiliyatlarini atroflicha shakllantirish demakdir;

v) O'quvchilarni matematik qonuniyatlar asosida real haqiqatlarni bilishga o'rgatish. Bu erda o'quvchilarga real olamda yuz beradigan eng sodda hodisalardan tortib to murakkab hodisalargacha hammasining fazoviy formalari va ular orasidagi miqdoriy munosabatlarni tushunishga imkon beradigan hajmda bilimlar berish ko'zda tutiladi.

Bunday bilimlar berish orqali esa o'quvchilarning fazoviy tasavvur qilishlari shakllanadi hamda mantiqiy tafakkur qilishlari yanada rivojlanadi.

Matematika o'qitishning tarbiyaviy maqsadi o'z oldiga quyidagilarni qo'yadi:

a) O'quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish. Bu g'oya bilish nazariyasi asosida amalga oshiriladi.

b) O'quvchilarda matematikani o'rganishga bo'lgan qiziqishlarni tarbiyalash.

Matematika o'qitishning amaliy maqsadi o'z oldiga quyidagi vazifalarni qo'yadi:

a) Matematika kursida olingan nazariy bilimlarni kundalik hayotda uchraydigan elementar masalalarni echishga tadbiq qila olishga o'rgatish. Bunda asosan o'quvchilarda nazariy bilimlarni amaliyotga bog'lay olish imkoniyatlarini tarkib toptirish, ularda turli sonlar va matematik ifodalar ustida amallar bajarish malakalarini shakllantirish va ularni mustahkamlash uchun maxsus tuzilgan amaliy masalalarni hal qilishga o'rgatiladi.

b) Matematikani o'qitishda texnik vosita va ko'rgazmali qurollardan foydalanish malakalarini shakllantirish. Bunda o'quvchilarning matematika darslarida texnika vositalaridan, matematik ko'rgazmali qurollar, jadvallar va hisoblash vositalaridan foydalana olish malakalari tarkib toptiriladi.

v) O'quvchilarni mustaqil ravishda matematik bilimlarni egallashga o'rgatish. Bunda asosan o'quvchilarni o'quv darsliklaridan va ilmiy-ommaviy matematik kitoblardan mustaqil o'qib o'rganish malakalarini shakllantirishdan iboratdir.

**REFERENCES**

1. Farberman V. «Ilg‘or pedagogik texnologiyalar». T. «Fan» 2000 yil.
2. Ishmatov Q. «Pedagogik texnologiya». Namangan 2004 yil
3. Yuldashev Z.Kh., Ashurova D.N. Innovative-didaktic program complex and new formalized model of educftion. Malaysian Journal of Mathematical Sciences 6(1):, 2012, 97-103 p.

# TEACHING METHODOLOGY BY COMPARING ENGLISH GRAMMAR TO NATIVE LANGUAGE GRAMMAR

**Abdurakhmanova Odila Gayratillayevna**
11th School of Almalyk city of Tashkent region
English language teacher

***https://doi.org/10.5281/zenodo.7543955***

***Abstract.*** *This article tried to provide information on teaching English grammar by comparing it to native language grammar.*

***Keywords:*** *group of English languages, morphological stage, grammar system, word order.*

# МЕТОДИКА ОБУЧЕНИЯ ПУТЕМ СРАВНЕНИЯ ГРАММАТИКИ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА С ГРАММАТИКОЙ РОДНОГО ЯЗЫКА

***Аннотация.*** *В этой статье мы попытались предоставить информацию о преподавании английской грамматики, сравнивая ее с грамматикой родного языка.*

***Ключевые слова:*** *группа английских языков, морфологический этап, грамматическая система, порядок слов.*

As you know, English and Uzbek languages belong to separate language groups. While English belongs to the group of Germanic languages of the Indo-European language family, Uzbek belongs to the group of Turkic languages. But if the grammar systems of these languages are compared with each other, then at their stages we will witness similar phenomena on the one hand and different on the other. In the morphological stage, analogies between the grammar system of both languages are found in nouns in the suffixes of numbers, conjugation, and in verbs in the suffixes of the categories tense, ratio, declination, person and number.

The same should be noted separately that grammatical means in these categories are very few in English. At the same time, we also find significant differences in the expression and meaning of these categories. Although the expression of the number category in English and Uzbek, for example, is made by adding suffixes, significant different places in this category cause many difficulties to arise.

Example:

Five books-five books,

Ten students-ten students

The word is considered a phenomenon typical of the English language by making a plural form by changing the vowel in its core.

Despite the fact that the noun word category in English and Uzbek has a conjugate category, the number of conjugate suffixes is not the same in both comparable languages. There are 6 cache suffixes in Uzbek, and in English there are only two of them.

In the syntactic part of both languages, on the one hand, we encounter similar signs, and on the other hand, we come across phenomena that are characteristic only of one language itself. For example: the syllabic, interrogative and non-divisive forms of sentences are considered a syntactic phenomenon characteristic of both languages. But if we analyze the word order in darak sentences, we will witness that the word order in the sentence in English is much more strict than in the Uzbek language. In Uzbek, the word order in a sentence is considered more free than in English.

Taking into account the language experience of students when teaching grammar. From methodological literature, we know that teaching a foreign language at school is carried out in bilingual conditions. Streamers will have language experience in their native language and Russian language until they learn a foreign language.

They acquire many grammatical terms, phenomena, rules and qualifications regarding their native language and the Russian language. This experience in them should be taken into account by the teacher who is teaching English in this class, in the group, and teach them to use students in the required places. When teaching students many phenomena of the morphology of the English language, it is possible to carry out a positive transfer from the experience of the native language and the language of the Russian language acquired by them. For example, prepositions in English are a difficult material for students to master, the reason for which is that, firstly, there are no prepositions in Uzbek. Second prepositions as a word series represent preachy (abstract) concepts, so students have many difficulties in mastering them.

It is V preposition in sentences. When explaining prepositions, it is advisable to take into account the experience of the Russian language. The use of linguistic experience in the Russian language is not without benefit, even when introducing or explaining structures that have the form of a future tense in the English language. In teaching some grammatical phenomena in the first and second stages of teaching English, language experience related to English grammar is also used, which is mastered by student students. For example, if the student students studied the functions of the infinitive in the sentence, then the experience acquired by relation to the infinitive is taken into account at the time of study by them.

**REFERENCES**

1. Alimov SH. S. Intensive techniques, interactive techniques, unconventional course transition methods, didactic games. Andijan 2009
2. Jalalav J.C, S.T Inkamava, Sh.English language teaching ‘s Ashurov
3. Tashkent-2015 Publishing House’ Science and technology ’methodology
4. Hashimov A’, Yagubov I.’ Methods of teaching the Inliz language", chief editor of the Oriental publishing company tatbaa Joint-Stock Company Tashkent-2003.
5. Jalalav J.J foreign philology on the stage of modern conceptual renewal of World linguodidactics. Language Literature Education (30) 2009

# BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING MATEMATK TAFAKKURINI OSHIRISHDA MATEMATIK ERTAKLARNING AHAMIYATI

**Sulaymanova Shoxira O'tkirovna**
Olmaliq shahar 11 - maktab Boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi

https://doi.org/10.5281/zenodo.7543991

***Annotatsiya.*** *Darslarda ertaklardan foydalanish yangi o'rganishning usullaridan biridir. Ertaklar oddiy ko'zga ko'ringan tarzda matematik tushunchalar va aloqalarni aks ettiradi. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida matematika darslarini o'qitish sifatini oshirishdagi matematik ertaklarning ahamiyati haqida ma'lumotlar keltirilgan.*

***Kalit so'zlar:*** *matematika, boshlang'ich ta'lim, majoziy ertaklar, Dangasa raqam, Savdogarning donoligi, Savol va vazifalar.*

# ЗНАЧЕНИЕ МАТЕМАТИЧЕСКИХ СКАЗОК В СОВЕРШЕНСТВОВАНИИ МАТЕМАТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

***Аннотация.*** *Использование сказок на уроках является одним из методов обучения новому. Сказки иллюстрируют математические понятия и отношения, казалось бы, простым способом. В данной статье представлена информация о значении математических рассказов в повышении качества уроков математики для учащихся начальной школы.*

***Ключевые слова:*** *математика, начальное образование, метафорические сказки, Ленивое число, Мудрость купца, Вопросы и задания.*

# THE IMPORTANCE OF MATHEMATICAL FAIRY TALES IN IMPROVING THE MATHEMATICAL THINKING OF PRIMARY CLASS STUDENTS

***Abstract.*** *The use of fairy tales in lessons is one of the methods of new learning. Fairy tales illustrate mathematical concepts and relationships in a seemingly simple way. This article presents information about the importance of mathematical stories in improving the quality of mathematics lessons for elementary school students.*

***Key words:*** *mathematics, elementary education, metaphorical tales, Lazy number, Wisdom of the merchant, Questions and tasks.*

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezdentining "Ta'lim–tarbiya va kadrlar tayyorlash tizimini isloh qilish, barkamol avlodni voyaga yetkazish to'g'risida"gi Farmoni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da matematika o'qitishning sifatini oshirish bilan birga o'quvchilarning tafakkuri va shaxsiy sifatlarini, matematik savodxonligini shakllantirish hamda ijodiy qobiliyatlarini oshirish masalalari berilgan. Shu fikrlardan kelib chiqqan holda aytish mumkinki hozirgi kunda bolalarda matematik tasavvurlarni o'stirishda ertaklarda ifodalangan matematik tushunchalar orqali bolaning matematika darslarini o'qitish sifatini oshirishdagi matematik ertaklarning ahamiyati uning tafakkur dunyo qarashi va matematik tasavvurini o'stirish matematika ta'limining keyingi bosqichlari uchun bolalarni tayyorlaydi va komtensiyasini rivojlantiradi. Matemetik ertaklar orqali noodatiylikka yondashilgan holda boshlang'ich sinf o'quvchilarining matematika darslari samaradorligi oshirish mumkin.

Majoziy ertaklarda majoz poetik vosita sifatida hal qiluvchi hisoblanadi. Qatnashuvchi personajlar faqat hayvonlar bo'lib, doimo inson tilida so'zlab, o'zaro munosabatda bo'ladilar. Hayvonlarning o'zaro to'qnashuvi orqali insoniy munosabatlar ochiladi. Shunday ekan ertaklar orqali bolaning insoniylik fazilatlarini ham tarbiyalab boramiz va darslarda

qo’llanilgan matematik ertaklarning ahamiyati juda katta ahamiyat kasb etadi. Demak, quyida bir nechta matematik ertaklarni keltiramiz:

**Dangasa raqam.**

Raqamlar bir kuni sayr qilib yurib natural mamlakatiga borib qolshibdi. U yer sehrli mamlakat ekan, kirish darvozada ularni tartib bilan kirgizishibdi. Ular kirib bo’lgach qarashsa nol (0) raqami tashqarida uxlab qolibdi va eng ohirida kiribdi shunda ular tartibli ketma - ketlik bilan yana davom ettirishibdi va natural sonlarni hosil qilishibdi. Shundan keyin natural sonlar 1 dan boshlanadigan bo’libdi. Endi bolajonlar keeling ertagimizning bazi bir savollariga javob berib olamiz:

Savollar:

1) Dangasa son qaysi?

2) 1 raqamidan keyin qaysi son keladi?

3) 3 raqamidan oldin qaysi son turadi?

**Savdogarning donoligi.**

Bir savdogarnig 3 ta ishchisi bor ekan. Uchchalasi ham bir hil vazifa bajarar lekin savdogar 1-ishchiga 1 oltin tanga, 2-ishchiga 5 oltin tanga, 3-ishchiga esa 10 ta oltin tanga maosh berar ekan.

Kunlardan bir kuni ishchilari orasida nizo chiqibdi va savdogarga arz qilishibdi. 1-ishchi Janobi savdogar biz uchala ishchingiz bir xil vazifa bajarsak lekin nega menga 1, 2-ishchiga 5, 3-ishchiga esa 10 ta oltin tanga maosh berasiz debdi. Savdogar o’ylanib turib uzoqdan bur karvonga ko’zi tushibdi va ishchilariga menga o’sha karvon haqida malumot to’plab keling debdi.

1-ishchi karvonboshining yoniga borib qayerdan kelayotganlarini so’rabdi. Karvonboshi uzoq Rumdan deb javob beribdi. Ishchi ho’p deb orqasiga qaytibdi.

Navbat 2-ishchiga kelibdi, u ham borib karvonboshidan qayerdan kelayotganlarini va nimalar olib kelayotganlarini so’rabdi. Karvonboshi: 32 ta quloq 16 ta oyoq, ularga hamroh quloqlar yarmicha to’p ipak gazlama, oyoqlarning 1/4 qismicha chit gazlama va ipak gazlama va chit gazlama yig’indisining yarmicha to’p shoyi mato olib kelayotganlarini aytibdi. 2-ishchi o’ylanib turib 32 ta oyoq va 16 ta quloq demak: 32:4=8, 16:2=8, demak 8 ta tuya bor. Quloqlarning yarmi 16:2=8 to’p ipak, oyoqlarrning 1/4 16:4=4 to’p chit. Ular yig’indisining yarmi 8+4=12, 12:2=6 to’p shoyi mato bor ekan deb orqasiga qaytibdi. Endi navbat 3-ishchiga kelibdi, u ham oldingi ishchilar bergan savollarni beribdi. Javobni olgach gazlamalarning narhini so’rabdi. Karvonboshi 1 to’p ipak 12 tanga, chit undan 2 marta arzon, shoyi esa ipak va chitning narxlari yig’indisidan 3 marta arzon ana endi o’zing top matolarning narhini debdi. Ishchi o’ylanib ipak 12 tanga, chit undan 2 marta arzon 12÷2=6, shoyi esa ipak va chitning narhlari yig’indisidan 3 marta arzon, 12+6=18 18÷3=6 deb javoblarni topibdi. va matolarni arzon narhda sotib olish uchunn kelishibdi.

Ishchilarning hammasi kelib javoblarini savdogarga aytishibdi savdogar esa ana endi bildingizmi nega har hil maosh olishingizni debdi.

Xulosa shuki har bir ishda dangasalik qilmaslik va ishning ko’zini bilmoqlik insonni mehnatsevarlikka undaydi. Endi bolajonlar keling ertagimizning bazi bir savollariga javob berib olamiz:

Savol va vazifalar:

1. Savdogarning eng yaxshi ishchisi kimva ular qancha maosh olishar edi?

2. Savdogar ishchilariga qanday topshiriq berdi?
3. Ertakda berilgan topshiriqlarning javobini toping?
4. Savdogar 3-ishchiga qancha maosh berdi?

Darslarda ertaklardan foydalanish yangi o'rganishning usullaridan biridir. Ertaklar oddiy ko'zga ko'ringan tarzda matematik tushunchalar va aloqalarni aks ettiradi. Ertaklarni tinglashda va o'qiyotganda, har bir kishi o'z hayolida bo'lgan sarguzashtlarni boshdan kechiradi, ertak qahramonlari, ular duch keladigan turli xil vaziyatlar, ular nima bo'lishini kuzatishadi va qahramonlar ishlatadigan iboralarni, turli vaziyatlarni hal qilishni eslashadi. Bu esa o'quvchilarni shu bilan bir qatorda matematikadan qo'rqmaslikka keng fikrlay olishlikni va kreativ yondashishliklariga yordam beradi, matematik bilimlar orqali adabiyotga bo'lgan qiziqishlarini ham yanada kuchaytiradi.

**REFERENCES**

1. O'zbekiston Respublikasi "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi".Toshkent: 1997.
2. O'zbek xalq ertaklari.
3. Through fairy-tales tomath in the lessons: https://www.researchgate.net/publication/26629435

# MODAL VERB THEORY IN ENGLISH

**Madrakhimova Dilrabo Jobilovna**
11th School of Almalyk city of Tashkent region
English language teacher

***https://doi.org/10.5281/zenodo.7544080***

***Abstract.*** *This article contains information on the theory of modal verbs in modern English.*

***Keywords:*** *Modal verbs, analysis, determination of lexical meanings, syntactic-semantic aspect, theoretical and Practical Grammar of the English language.*

# ТЕОРИЯ МОДАЛЬНЫХ ГЛАГОЛОВ В АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ

***Аннотация.*** *Данная статья содержит информацию по теории модальных глаголов в современном английском языке.*

***Ключевые слова:*** *модальные глаголы, анализ, определение лексических значений, синтаксико-семантический аспект, теоретическая и практическая грамматика английского языка.*

Modern English modal verbs are a comprehensive study of theoretical and practical aspects, as well as syntactic-semantic. To implement this goal, we set ourselves the solution of the following tasks:

1. Review and react to cases of “can” and “to able” in modern English;

2. To study their theoretical and practical meanings, taking a creative approach to existing points of view;

3. to have to give recommendations on their structure based on the study of the modal verb “must “by analogy with independent and auxiliary verbs;

4. Determining the role and place of modal verbs in sentence construction;

5. A thorough study of the syntactic and semantic properties of modal verbs using examples from works of art by modern English and American writers.

The methodological basis of the scientific work is that if there is a comparative and Comparative Study of modal verbs here with each other, the method of study is to state that in modern English and mainly in American English, modal verbs are used through comprehensive abbreviations. It is the science of the study to identify its various lexical meanings through analysis and to find alternative variants of their Uzbek language when translating the statements in which these statements are involved. The practical significance of this scientific work the materials given for the subjects of theoretical and Practical Grammar of the English language have scientific value, which can be used to write scientific articles on the topic of modal verbs in different directions for example: poetry, story, work, informative, English grammar can be used in practical training on this topic.

The novelty of this scientific work is that it shed light not only on probability, necessity, but also on the fact that in modern English, especially in colloquial language, modal verbs are spoken in the current American English language, adapting them to abbreviations or dialects. Being able to use each of the Modal verbs at a time in which they lie a fundamental meaning, has also given wide coverage of learning them, not replacing their place with each other. A special place among the equivalents of Modal verbs is occupied by research “Can”, “Could”, “To able to”, “Need”, “May”, “Might”, “Must”, “Should”, “to have to”. Kaushanskaya touches on the

following: “Modal verbs are used to show the speaker's attitude Award the action or state indicated by the infinitive, I, e, they show that the action indicated by the infinitive is agreed as possible, impossible, probable, improbable, obligatory, necessary, advisory, doubtful or uncertarn, etc. The modal verbs are: can (could), may (might), must, should, ought, shall, will, would, need, dare. The modal expressions to be+infinitive and to have+infinitive also belong here”. “Modal verbs are called defensive because all of them (except “dare” and need) lack verbals and analytical forms” (I.e. compound lenses, analytical forms of the subjunctive Mood, The Passive Voice)”“ J. In his textbook book “Grammar of the English language”, stormov also separately touches on the features of modal verbs: in his opinion, it is impossible to make an adjective form out of modal verbs. New verbs are not made from modal verbs using suffixes or prefixes, since modal verbs themselves are not made from other words using the word-formation method. Verbs that express compulsion, possibility, necessity, confidence, desire or permission, assumption, hypothesis, hand-to-hand and other similar meanings according to the meaning they mean are called modal verbs. Modal verbs differ semantically from other verbs due to the fact that they do not indicate action.

Modal verbs are always used together with the main verbs in the infinitive form, adding modal meaning to the main verbs. Gordon describes modal verbs as follows: “Modal verbs are defensive verbs since they many forms a modal compound predicate. They lack-s in the third person singular in the Present tense and have no verbs, so they have no analytical forms, some of them lack the form of the low tense”.

In conclusion, the teaching of modal verbs is considered significant from the point of view of today. For this reason, in today's scientific work, we tried to scientifically illuminate modal verbs.

**REFERENCES**

1. ASS-Australian short stories. M. Progress Publishers, 1975.-290b.
2. Jeromy K.J. “Three men in a Boat”, 1974.-355b.
3. CPD-Parker G “The Darkness of the Morning” M: Progress Publishers, 1978.-289b.
4. EFG-Elizabeth I “Speech to the Troop”,1920.-150b.
5. FCS-Cooper F. G. “The spy” M: Progress Publishers, 1975.-265b.
6. HEM-Hemingway E “To have or have not” M: 1979.-310b.
7. JSG-Swift J. Gulliver’s Traveles-M, 1979.-300b.
8. TGL-Galsworthy J. “To let”-M; 1989.-356b.

# BOSHLANG'ICH SINF DARSLIKLARIDAGI MAVZULAR VA ULARNING O'QUVCHI YOSHIGA MOSLIK DARAJASI

**Choriyeva Zulfiya Bahodirovna**
TerDUPI magistranti

*https://doi.org/10.5281/zenodo.7544399*

***Annotatsiya.*** *Mazkur maqolada boshlang'ich sinf darsliklaridagi mavzularning o'quvchi yoshiga moslik darajasi yoritib berilgan. Maqola davomida mavzu doirasidagi fikr va mulohazalar hamda tahlillar keltirilgan. Maqola so'nggida xulosa va takliflar keltirilgan.*

***Kalit so'zlar:*** *o'quv faoliyati, darsliklar, tahlil, mulohaza, mavzular.*

# ТЕМЫ В УЧЕБНИКАХ ДЛЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ И СТЕПЕНЬ ИХ СООТВЕТСТВИЯ ВОЗРАСТУ УЧЕНИКА

***Аннотация.*** *В данной статье описывается уровень соответствия тем в учебниках для начальной школы возрасту школьника. На протяжении всей статьи мнения, комментарии и анализы представлены в рамках темы. Выводы и предложения даны в конце статьи.*

***Ключевые слова:*** *учебная деятельность, учебники, анализ, рассуждение, темы.*

# TOPICS IN PRIMARY SCHOOL TEXTBOOKS AND THEIR LEVEL OF SUITABILITY FOR THE STUDENT'S AGE

***Abstract.*** *This article describes the level of appropriateness of topics in primary school textbooks to the age of the student. Throughout the article, opinions, comments and analyzes are presented within the scope of the topic. Conclusions and suggestions are given at the end of the article.*

***Keywords:*** *educational activity, textbooks, analysis, reasoning, topics.*

Ta'lim jarayonidagi asosiy qiyinchiliklar o'quv faoliyatining shakllanmaganligi bo'lib, u yashirin psixologik qiyinchiliklarga tegishlidir. O'quvchi bu holatni sezadi, lekin u nima uchun shunday bo'layotganligini tushunmaydi va ifodalab bera olmaydi, shu sababli kattalarga yordam so'rab murojaat qila olmaydi. Bunday qiyinchiliklar mavhum bo'lib, ularning tabiati tushunarsiz dir.

Bunday holatlarda ota-onalar va o'qituvchilar o'quvchiga yordam ko'rsatmasliklari achinarli holatdir, chunki ularning o'zlari ham o'quv faoliyati va uning tarkibiy tuzilmasining psixologik aspektlari bilan tanish emaslar. Bu nuqsonlarning yorqin belgilari – dangasalikda, qobiliyatning yo'qligida va boshqalarda nomoyon bo'ladi.

O'quv faoliyatining shakllanmaganligi ayniqsa to'rtinchi-beshinchi sinflarda, ya'ni ta'lim murakkabroq darajaga ko'tarila boshlaganda va o'zlashtiriladigan materialning o'sishi bilan ko'zga tashlana boshlaydi. O'quvchi, bu holatda qandaydir noma'lum to'siqqa duch kelganday bo'ladi.

Shu sababli boshlang'ich ta'limda o'quvchi yangi bilimlarni o'zlashtirishga ko'mak beruvchi o'ziga xos o'quv usullariga erishishi uchun, eng zarur shart-sharoitni yaratish, ya'ni o'quvchiga o'qishni o'rgatish lozim.

Bu vaqtga kelib, darsliklarda o'quvchidan zarur umumlashtirishlarni amalga oshirishi, ya'ni ma'nosiga ko'ra guruhlarga ajrata olish shakllangan bo'lishi kerak. To'rtinchi sinfga kelib, ulardan erkin foydalana bilishi lozim.

Barcha yangi-yangi talablar, yangi qoidalar, predmetlar harakatlarining yangi normalari obektlarning shu paytgacha noma'lum bo'lgan qonuniyatlarini ochib beradi. Dunyo o'quvchi o'zlashtirishi kerak bo'lgan ilmiy bilimlar va tushunchalar tizimi bilan tartiblashtirilgan. O'quvchining tafakkuri ana shu yuqorida qayd etilganlarga hamda insonlar va buyumlar bilan o'zaro harakat tajribasiga yo'naltiriladi.

Masalan, oy osmonda bola harakat qilgani uchun harakatlanadi degan mulohoza bolaning hayotiy tajribasi asosida, tafakkurning vositasi sifatida so'zlardagi ifodasidir. Predmetlardagi o'xshashliklar va farqlar so'zlarda, nutqda aks etadi. Uni bola bevosita kuzatish orqali aniqlaydi.

O'quvchi ilmiy tafakkurlashni umumiy o'rta ta'lim maktabida egallaydi, ilmiy tafakkur qilish bolani umummadaniy namunalarga, normalarga, etalonlarga, atrofdagi olam bilan bo'ladigan munosobatlar qonuniyatlariga yo'naltiradi. Son tushunchasi, so'z, badiiy obraz va boshqalar, ilmiy tafakkur asosini tashkil etuvchi obyektiv dunyo xususiyatlari bilan yangi harakatlar, munosobatlar bolaning shaxsiy tajribasi jarayonida ilgari egallanmaganlarini egallashga imkon beradi.

Mavzuning dolzarbligi qator faktorlar natijasida kelib chiqqan. Birinchidan, o'quv jarayonining intensifikatsiyasi o'quvchilarda tafakkur faoliyatining turli tomonlarini rivojlantirish uchun vositalarni izlash vazifasini qo'yadi. Bu vazifani yechishning samarali vositasi – o'quv o'yinlari hisoblanadi.

Ikkinchidan, umumiy o'rta ta'lim maktabi tajribasini kuzatishlar, ko'pchilik o'qituvchilar o'yinlar metodini o'zlashtirgan emaslar, ular boshqa o'qituvchilarda o'zining ijobiy tomoni bilan nomoyon bo'lgan o'yinlar amaliyotidan foydalanmaydilar.

O'yinlar metodi maktab yoshigacha bo'lgan bolalarni ular uchun odat tusiga kirgan o'yin faoliyatidan o'quv faoliyatiga asta-sekinlik bilan o'tishni amalga oshiradi, bu o'tish jarayonini u unchalik sezilarlisiz va hech qanday qiyinchiliksiz o'tishiga yordam beradi. Boshqa muhim jihatlar bilan birgalikda didaktik o'yinlarni o'tkazish metodikasini mukammallashtirishga va ta'lim jarayonida turli ko'rinishdagi qiziqarli o'yinli mashqlardan foydalanishga ham alohida e'tibor qaratish zarur bo'ladi. Har bir o'qituvchi har bir o'yinning nima uchun mo'ljallanganligini, uning mazmunini yaxshi tushunishi, o'yinni har bir dars uchun mavzuni o'zlashtirishdagi aniq vazifalarini hisobga olgan holda tashkil qilishni, metodikasini o'ylab chiqishi zarurdir.

Bolaning ruhiy sog'lomligining o'ziga xosligi - uning bilimga nisbatan faolligidir.

Bola qiziquvchanligi doimo o'rab turgan atrofimizdagi olamni va dunyo tuzilishini bilishga yo'naltirilgandir. Bola o'ynab turib, tajribasida sabab-oqibat va ular o'rtasidagi bog'liqliklarni aniqlashga harakat qiladi. Masalan. uning o'zi qanday predmetlar cho'kishini, qanday predmetlar suzishini fahmlashi mumkin. Bolaning aqliy munosobatlari qanchalik faol bo'lsa, u shunchalik ko'p savollar beradi va bu savollar turlicha bo'lib boradi. Bola dunyodagi barcha narsalar bilan qiziqishi mumkin: okeanning chuqurligi qancha? Hayvonlar qanday nafas oladi? Nima uchun tog'larning tepasida qor saqlanadiyu pastda erib ketadi?

Bola har doim bilishga intiladi, bilimlarni o'zlashtirish esa ko'p sondagi "nimaga?", "qanday, "qanday qilib", "nima uchun" kabi savollarga javob olishi orqali amalga oshadi.

U o'zida bor bilimlaridan foydalanishga majbur holda, holatni tasavvur qiladi va savolga javob topish uchun mumkin bo'lgan yo'lni topishga harakat qiladi. Bola haqiqiy holatni tasavvur qilib, o'z xayolida unda harakatlanadi. Ichki obrazli harakatlar natijasida masalani yechimini amalga oshish tafakkuri ko'rgazmali-obrazli deb ataladi. Obrazli tafakkur – kichik maktab

yoshida tafakkurning asosiy ko‘rinishidir. Albatta, boshlang‘ich ta’lim yoshida bola mantiqiy fikrlaydi, lekin bu yoshda ular ko‘pincha ko‘rgazmalilikka tayanadilar.

Psixologlar tomonidan tafakkur ikkita turi o‘rganilgan – empirik va nazariy.

Nazariy tafakkur quyidagilar bilan tavsiflanadi:

- refleksiya, ya’ni bola tomonidan o‘z harakatlari va ularni masala shartlariga mos kelishini anglanishi;

- masala mazmunini umumiy yechimni topish maqsadida tahlil qilinishi, so‘ngra boshqa shunga o‘xshash masalalar sinfiga tadbiq etish uchun o‘tkazilishi;

- ularni rejalashtirish va ongda bajarish uchun ichki harakat rejasini tuzish[3, B.72].

Tadqiqotlar natijasida aniqlanganki, maktabda ta’lim olish jarayonida bolaning bilim olishi boshqa ko‘rinishdagi tafakkur natijasida amalga oshishi mumkin va u empirika nomini olgan. Empirik tafakkur asosida bilimlarni o‘zlashtirish, atrof-olamdagi predmet va hodisalarning tashqi o‘xshashliklarini taqqoslash, umumiy belgilari aniqlash natijasida amalga oshiriladi.

O‘quvchilarda empirik va nazariy tafakkurning o‘ziga xosligi qanday nomoyon bo‘ladi, qanday aniqlanadi, kichik maktab yoshidagi bolalarda tafakkurning rivojlanishi qaysi yo‘ldan boradi?

Masalan, boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtiriladigan muhim matematik amallar qo‘shish, ayirish, ko‘paytirish va bo‘lish amallari hisoblanadi. Bu amallar o‘zlashtirilganligidan so‘ng, ularni mustahkamlanganligi odatda ko‘p sondagi bir xil ko‘rinishdagi matematik masalalarni yechish orqali tekshiriladi.

Nazariy tafakkurning shakllanganligini aniqlash uchun ikki qismdan iborat bo‘lgan tajriba-sinov holati tuziladi.

Birinchi qismda o‘quvchilarga ketma-ket bir nechta masalalar taklif etiladi, ular shunday tanlanganki, bir xillari ifodalanishiga ko‘ra, ikkinchi xillari javoblariga ko‘ra o‘xshashdir, lekin ularning matematik yechilish usullari turlicha bo‘lishi mumkin.

1-masala. Daraxtga uchta qush kelib qo‘ndi. Ularga yana bitta qush kelib qo‘shildi. Daraxtda nechta qush qo‘nib turibdi?

2-masala. Daraxtda 17 ta qush qo‘nib turibdi. 13 ta qush uchib ketdi. Daraxtda nechta qush qoldi?

3-masala. 18 ta qush 3ta teng to‘daga bo‘lindi. Har bir to‘dada nechtadan qush bor?

4-masala. Bolaga 7 ta olma va 2ta nok berishdi. Bolaga nechta meva berishdi? (Yechish usuli birinchi masala bilan umumiy).

Taqdim qilingan masalalar muvaffaqiyatli yechilgandan so‘ng, o‘quvchilarga ularni tasniflash (gruppalash) taklif etiladi.

Berilgan masalalarni yechishda o‘quvchi qanday belgilarga qarab mo‘ljal olganligiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, bu yerda ikkita asosiy tasniflash varianti bo‘lishi mumkin: o‘quvchining masalani muhim bo‘lmagan, tashqi belgilariga qarab mo‘ljalni olganligi (empirik yondashuv) va o‘quvchining masalaning muhim belgilariga, amallarning matematik usullariga qarab mo‘ljalni olishi (nazariy yondashuv).

O‘quvchining keyingi variantni tanlashi, masalani yechish davomida u nafaqat oxirgi natijani oldi, balki mos ko‘rinishdagi masalalar to‘plami uchun umumiy usulni ham ajratdi.

Yechilgan masalalarni tasniflash chog‘ida bolalar turlicha yondashdilar: masalalarni javobiga, bayon qilinish shakliga hamda yechilish usuliga qarab gruhlarga ajratishdi.

Nazariya jihatidan umumlashtirish tahlilining o‘ziga xosligi o‘quvchilar tomonidan murakkablik darajasi o‘sib borish tartibidagi bir xil tipli masalalarni yechish davomida aniqlanishi mumkin. Lekin, bunday masalalarni yechilish tasnifiga qarab, o‘quvchilarda nazariy tahlilning bor yoki yo‘qligi haqida mulohoza yuritish mumkin.

Masalan, quyidagi topshiriq beriladi: har bir taqdim etilayotgan qatorda sonlar ketma-ketligini buzmasdan, ular orasiga arifmetik amallarni (qo‘shish, ayirish, ko‘paytirish va bo‘lish) va qavslarni shunday joylashtiringki, bu amallar natijasida har bir qatorda bir soni hosil bo‘lsin:

1) 123 = 1
2) 1234 = 1
3) 12345 = 1
4) 123456 = 1
5) 1234567 = 1
6) 12345678 = 1 va boshqalar.

Agar o‘quvchi har bir masalani o‘zi uchun yangi masaladek, ulardagi tuzilish umumiy prinsipini ajratmasdan yechadigan bo‘lsa, u holda bola tashqi, muhim bo‘lmagan belgilarga e’tibor qaratganidan darak beradi. Bu holda yechish xatolar va ularni tekshirib ko‘rish metodi orqali olib borilayoganligini bildiradi. Agar bola bir yoki ikkita masalani yechish davomida uning umumiy yechish prinsipini kashf etadigan bo‘lsa, demak u daslabki masalalarni yechishni tahlil qilgan va boshqalarini yechishda ulardan chiqargan xulosa hamda shartlariga tayangan bo‘ladi.

**REFERENCES**

1. O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.-T.: O’zbekiston, 2012 y.-46b.
2. O‘zbekiston Respublikasining «Ta'lim to‘g'risida»gi Qonuni. Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: 1998. B. 20-29.
3. Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi. Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: Sharq, 1998. B. 31-61.
4. Ahmedova M., Abdurahmonova N., Jumayev M. Matematika 1-sinf uchun darslik. “Turon-Iqbol” 2014.
5. Abdurahmonova N., O’rinboyeva L. Matematika 2-sinf uchun darslik. “Yangiyo’l Poligraf Servis”. 2014y
6. Burxonov Sh., Xudoyorov U. Matematika 3-sinf. “Sharq” nashriyoti. 2014. 206-b.
7. Bikbayeva N.U., Yangibayeva E., Girfanova K.M. Matematika 4-sinf. “O‘qituvchi” nashriyoti. 2013, 206-bet.
8. Гурова Л.Л. Психология мышления. – М.: ПЕР СЭ, 2005. – С. 47.

# UMUMTEXNIKA FANLARINI O‘QITISHDA MASALALAR YECHISHNING O‘RNI VA AHAMIYATI

**Xaydarqulov Otabek**
TDPI magistranti

https://doi.org/10.5281/zenodo.7544485

***Annotatsiya:*** *Mazkur maqolada bugungi kunda ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan umumtexnika fanlarini o‘qitishda masalalar yechishning o'rni haqida so'z yuritar ekanmiz, masala yechish bu har qanday fan to'g'risida so'z yuritilganda ahamiyatli bo'lgan vositadir.*

***Kalit so'zlar:*** *Umumtexnika, masala, faktlarni taqqoslash, nazariya, kompetentlik, texnik mexanika;*

# МЕСТО И ЗНАЧЕНИЕ ЗАДАЧИ РЕШЕНИЯ В ОБУЧЕНИИ ОБЩИМ ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ

***Аннотация.*** *В данной статье речь идет о роли проблемного решения в преподавании общетехнических наук, направленного на повышение качества образования на сегодняшний день.Решение проблемного вопроса является важным инструментом при разговоре о любом предмете.*

***Ключевые слова:*** *общее машиностроение, задача, сопоставление фактов, теория, компетенция, техническая механика;*

# THE PLACE AND SIGNIFICANCE OF PROBLEM SOLVING IN TEACHING GENERAL TECHNICAL SCIENCES

***Abstract****. In this article, we are talking about the role of problem solving in the teaching of general technical sciences aimed at improving the quality of education today. Problem solving is an important tool when talking about any science.*

***Key words:*** *General engineering, problem, comparison of facts, theory, competence, technical mechanics;*

## Kirish

Hech kimga sir emaski , yurtimiz mustaqillikka erishgandan keyin uning obro’yini xalqaro miqyosda oshirih uchun xalqaro ta’lim standartlarining talablariga javob beruvchi milliy kadrlar va xalqaro andozalar talabiga javob beruvchi mahsulotlar ishlab chiqarish davlat ahamiyatiga ega bo’lgan masalardan biriga aylandi.

Ma’lumki, bugungi kunda dunyo hamjamiyatini o’zida qamrab olayotgan zamonaviy integratsiyalashuv jarayonlari ta’lim tizimiga ham ta’sir qilmasdan qolmadi.

## Asosiy qism

Ma'lumki masalalarni yechish bu umumtexnika fanlarini o’qitishning muhim tarkibiy qismidir. Umumtexnika fanlarida masalalarni yechmasdan fanni o’zlashtirishni mutlaqo tasavvur qilib bo’lmaydi.

Umumtexnika fanlarini o‘qitishda masalalar yechish nazariyani amaliyotga tadbiq etishning eng yaxshi va ravon yo’lidir. Faqatgina quruq matematik nazariya, uning tadbiqlarisiz uzoqqa bora olmaydi.

Lekin shuni alohida ta’kidlash kerakki matematika fanining har bir mantiqiy qoidasining albatta amaliyotdagi o’rni mavjud.

Bu mavjudlikni tadbiqlari faqatgina matematik masalalar yordamida yuzaga chiqadi. Sodda va murakkab masalalar, bilimlarni o’zlashtirishga, olingan bilimlarni mustahkamlash va mukamallashtirishga xizmat qiladi.

Matematik masalalar bolalarning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishning foydali vositasi bo’lib, odatda o’z ichiga “yashirin informatsiya” ni oladi. Bu muamoni hal etish masala yechuvchidan taklif, tahlil va sintez, mustaqil murojaat qilish, faktlarni taqqoslash, umumlashtirish va boshqalarni talab etadi.

Shu borada umumtexnika fanlarini o‘qitishda masalalar yechishning ahamiyati , ustaqilik, erkinlik, talabchanlik, mehnatsevarlik, maqsadga intilish kabi xislatlarni rivojlantiradi. Shuningdek, masalalar o’quvchilarning fikr doirasini kengaytirishga yordam bergan holda , texnik uslublarni tezda bajara oladi.

Ularni o’z shahrining, qishlog’ining, fermer dehqon xo’jaliklarining hayoti bilan, kishilarning ishlab chiqarish va qishloq xo’jaligidagi mehnatlari bilan tanishtiradi.

Umumtexnika fanlarini o‘qitish jarayonida politexnik va didaktik prinsiplar asosida o'quvchilarning o‘zlashtiradigan kompetentligi (amaliy ko‘nikma va malaka)ni quyidagicha ifodalash mumkin.

Texnik mexanika fanidan o'quvchilar bilimini umumlashtirishning asosiy vazifasi har bir shaxsning aqliy va jismoniy faoliyati va kundalik hayoti uchun zarur bo‘lgan umummuhandislik fanlarini o‘rganish va bilim olishni davom ettirish uchun yetarli kompetentligi(amaliy ko‘nikma va malaka)ning mustahkamligini taminlashdan iborat.

Ma’lumki o’quvchining mantiqiy tafakkurini o’stiradigan izlanish faoliyati bir qancha bosqichlardan iborat. Masalan, har qanday masalani yechish uning sharti va savoli bilan tanishtirishdan boshlanadi.

O’quvchi o’zidagi bilim va tajribaga tayanib masala shartidagi ma’lumotlarga tayanib masala shartidagi ma’lumotlarning o’zaro munosabatlarni topishga harakat qiladi, ya’ni mantiqiy mushohada yuritiladi.

Unda masalani yuritish haqida mulohaza vujudga keladi. Shu bilan o’quvchilar yangi bilim oladilar. Bu bilimlardan shunga o’xshagan masalani yechishda foydalanadilar.

Ko’pgina masala va mashqlarda o’quvchilarni mustaqil izlanishga da’vat etadigan «savol tuzing», «teskari masala tuzing», «taqqoslang», «xulosa yasang» kabi ko’rsatmalari berilgan. Biroq tajribadan ma’lumki bunday ko’rsatmalar umumiy xarakatlarda bo’lgani sababli o’quvchilar mustaqilligini va dars samaradorligini oshirishi uchun yetarli emas.

Shuning uchun matematik masalalar yechishda o’quvchilar fikrlashini yo’naltirib ularga yo’l-yo’riq ko’rsatib masalada misollarni yechish usullaridan foydalanish muvofiq bo’ladi.

**REFERENCES**

1. Jumayev M.E. Matematika o’qitish metodikasidan praktikum - Toshkent.: O’qituvchi, 2004.
2. Bibitov N. “Texnik mexanika”, o‘quv qo‘llanma. T.O‘qituvchi-2008 .
3. Abdullayeva B. S. “ Fanlararo aloqadorlikning metodologik-didaktik asoslari”. Ped. fan. dok. … dis. – Toshkent., Uz PFITI. 2006.-164 b
4. Jabborova M. Sh. Tikuvchilik texnologiyasi. Darslik.–Toshkent. O’zbekiston. 1994.

International scientific journal
«MODERN SCIENCE AND RESEARCH»
VOLUME 1 / ISSUE 3

5. D.Baxritdinova. Texnologiya fanlari samaradorligini oshirishda integratsiyaning ahamiyati. Kasb hunar ta’limi. 2019.

## BIOLOGIYA FANINI O'QITISHDA ZAMONAVIY INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH SAMARASI

**Annamuratova Zuhra Bazorovna**
Xorazm viloyati, Xiva tumani 26 - umumiy o'rta ta'lim maktabi
biologiya fani o'qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7544533

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada biologiya fanini o'qitishda zamonaviy interfaol metodlardan foydalanish samarasi borasida ma'lumotlar o'z aksini topadi.*

***Kalit so'zlar:*** *Ta'lim-tarbiya jarayoni, Aqliy hujum", "Insert", "B.B. B", "FSMU", "Rolli o'yinlar", "Keys stadi", "Evrika".*

## ЭФФЕКТ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ СОВРЕМЕННЫХ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ В ПРЕПОДАВАНИИ БИОЛОГИИ

***Аннотация.*** *В данной статье отражены сведения об эффективности использования современных интерактивных методов в обучении биологии.*

***Ключевые слова:*** *Учебный процесс, Мозговой штурм», «Вставка», «Б. Б», «ФГМУ», «Rolly Games», «Киз Стэдиум», «Эврика».*

## THE EFFECT OF USING MODERN INTERACTIVE METHODS IN BIOLOGICAL TEACHING

***Abstract.*** *In this article, information about the effectiveness of using modern interactive methods in teaching biology is reflected.*

***Key words:*** *Educational process, Brainstorming", "Insert", "B.B. B", "FSMU", "Rolly Games", "Keys Stadium", "Eureka".*

Har bir dars o'quvchi uchun yangi axborotdir. O'quvchilarga yangi bilimlarni berish va olingan yangi bilimlar asosida ko'nikmalarni shakllantirish uchun kichik guruhlarda ishlash, mustaqil ijodiy ishlash, o'yin mashqlari va rolli o'yinlar kabi noan'anaviy ta'lim metodlaridan foydalanish yaxshi samara beradi. Ayniqsa, yangi o'quv materiali orqali o'quvchilarni bilim va ko'nikmalarini shakllantirish asosiy ta'lim sifatini ta'minlovchi omildir. Mana shularni hisobga olgan holda, ta'lim jarayonini samarali tashkil qilish borasida bugungi kunda juda ko'plab amaliy ishlar amalga oshirilmoqda.

O'quv jarayonining markazida o'quvchi shaxsi va qadri, ma'naviyati turar ekan, har bir o'qituvchi bu jarayonni samarali va qiziqarli qilib tashkil qila olishi kerak. Shuni e'tiborda turish kerakki, shaxsga qaratilgan ta'lim, o'quvchining o'quv-biluv mehnatini tashkil etishni harakatlantiruvchi, uning qiziqish, xohish, talab-istaklarini ro'yobga chiqaruvchi kuch bo'lib xizmat qiladi. O'quvchi shaxsiga qaratilgan ta'lim, o'quvchining faolligini oshirish, mustaqil, ijodiy fikrlashga o'rgatish, mustaqillligi va erkinligini ta'min etish, qiziqishlari asosida ish yuritish, ichki imkoniyatlarini ishga solish, o'z qiziqishlari orqali qo'shimcha ta'lim olishga yo'llash, o'z-o'zini rivojlantirishni o'z ichiga oladi.

Aynan mana shu jarayonda katta natijalarga erishish maqsadida hozirgi davr ta'lim taraqqiyoti yangi yo'nalish-innovatsion pedagogikani maydonda olib chiqdi. Hozirgi kunda biologiya fanida zamonaviy darslarni tashkil etishda quydagi interfaol medodlarda "Aqliy hujum", "Insert", "B.B. B", "FSMU", "Rolli o'yinlar", "Keys stadi", "Evrika" kabi medolardan foydanilmoqda.

Biologiyani o'qitishda lokal darajadagi pedagogik texnologiyalardan «Keys», «Aqliy

hujum»,«Kichik guruhlarda ishlash», «Atamalar zanjiri», «Atamalar varag‘i», tezkor o‘yinlar va o‘yin mashqlaming turli shakllaridan foydalanish tavsiya etiladi.

Biologiya kursi mazmunidagi muammoli masalalami o‘qitishda «Keys»dan foydalanish yuqori samara beradi. «Keys» — case studies ingliz tilidan olingan bo‘lib, jarayon yoki vaziyat degan ma’noni beradi. Biologiyani o‘qitishda dastur mazmunidagi evolutsion tushunchalar yetakchilik qilgan, shuningdek, munozarali «o‘simliklarning paydo bo‘lishi va rivojlanishi», «hayvonot olamining paydo bo‘lishi va rivojlanishi» kabi mavzulami o‘qitishda foydalanish mumkin.

Ta’lim-tarbiya jarayonida keysdan foydalanish uchun o‘qituvchi: dastur mazmunidagi muammoli mavzulami aniqlashi, shu mavzularni o‘qitish uchun muammoli savoltopshiriqlar tuzishi; dars davomida muammoli savol - topshiriqlaming qiyinchilik darajasiga ko‘ra yakka tartibda yoki o‘quvchilarning kichik guruhlarida mustaqil ishlami tashkil etilishini aniqlashi; o‘quvchilarning bilish faoliyatini mazkur muammolarni hal etish, o‘quv munozaralari orqali bahsda qatnashtirish yo‘llarini rejalashtirishi; muammoli savol-topshiriqlar asosida tashkil etilgan o‘quv munozaralarida yakuniy fikrni vujudga keltirishi lozim.

Dastur mazmunidagi faqat faktik materiallarni o‘rganish nazarda tutilgan mavzularda Insertdan foydalanish tavsiya etiladi. Insert — lokal darajadagi pedagogik texnologiya bo‘lib, o‘quvchilar tomonidan o‘quv materialidagi asosiy g‘oya va faktik materiallarni anglashiga zamin yaratish maqsadida qo‘llaniladi. O‘quvchilarni Insert yordamida ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun ularga o‘rganiladigan o‘quv materiallari va maxsus jadval tarqatiladi. O‘quvchilar har bir jumlani o‘rganib chiqib, maxsus jadvalga muayyan simvollar yordamida belgilash tavsiya etiladi. Agar jumlada berilgan ma’lumot shu kungacha o‘zlashtirgan bilimlariga mos kelsa, «Bilaman» - V, agar ma’lumotlar tushunarli va yangi bo‘lsa, u holda «Ma’qullayman» +, agar ma’lumotlar o‘quvchilar o‘zlashtirgan bilimlariga mos kelmasa, u holda «o‘rganish lozim» o‘quvchilar o‘quv materiallarini o‘zlashtirishda qiyinchilik his etsa, u holda «Tushunmadim» ? belgisini qo‘yadi.

Insert bilan ishlashning afzallik tomoni aval kichik guruh a’zolari o‘rtasida kichik guruhlar bilan o‘zaro o‘quv bahsi o‘tkazilishi, bahsda o‘quvchilar tomonidan yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarni to‘ldirish, bilimidagi bo‘shliqlarni to‘ldirish yuzasidan o‘qituvchi tomonidan berilgan axborot ta’lim samaradorligiga xizmat qiladi.

Bugungi kunga kelib, ta’limning bunday noan’anviy usullarni qo‘llash dars jarayonida kompyuter va texnik a vositalaridan katta samara berayotgani va bu ta’lim – tarbiya usullarining bosh mezoni sifatida tan olingani hech kimga sir emas. Ta’limda axborot texnalogiyalarini qo‘llanilishi tarbiyachilarninig mavzular yuzasidan tayyorgalik ko‘rishlarida erkinlik va tezkorlikga erishishlarga asos bo‘lishi bilan birgalikda tarbiyalanuvchilarga mavzularning tez va oson yetib borishi hammda qiziqishlarining ortishga sabab bo‘ladi.

Chunki darslarning axborot texnalogiyalari va qo‘shimcha internet ma’lumotlaridan qo‘shimcha manbalaridan foydalinilgan holda olib borilishi bolalarning hozirgi tezkor axborot davrida bir xildagi va zerikarli mashg‘ulotlardan farqli ravishda mavzuni aniq va maqsadli tarzda o‘zlashtirib olishlariga imkon yaratadi. Internetdan olingan qo‘shimcha manbalarni biologiya darslarida qo‘llasak, darslarimiz yanada sifatli bo‘ladi. Masalan quyidagi internet ma’lumotida shafof jonzotlar to‘g‘risida so‘z boradi. Dunyo ilm- fan mo‘jizalarga boy, bu borada biologiya fani yetakchilardandir. Nma deb o‘ylaysiz shaffof jonzotlar to‘g‘risida eshitganmisiz yoki ko‘rganmisiz. Dunyo mo‘jizalarga boy desak, bir o‘ylab ko‘ring-chi, bularning bunday

bo‘lishlariga sabab nima? Balki bu hayvonlarning yashash muhiti atrof muhit ekologiya sababdir, balkim bu jonzotlar evolyutsiyada o‘z turlarini saqlab qolish dushmanlaridan himoyalanish uchun shunday tuzilishga yashashga majburdirlar, bu jonzotlarning aksariyati suvda yashaydi, qizig‘i shunda-ki ular shaffofdir bu hayvonlar quydagilar.

Umumta’lim maktablarida o‘quvchilar biologiya fanidan laboratoriyao mashg‘ulotlarini o‘tkazish jarayonida mashg‘ulot maqsadini bilishi,asboblarni tanlay olishi,yig‘ishi va ulardan foydalanishi tajribani amalga oshirish sharoiti va natijalarini yozishiva xulosalay olishi kerak. Biologiya fanlarini nazariy bilimlarga asoslangan holda amaliyot asosida kengroq o‘rganish muhimdir.barcha bo‘limlar bo‘yicha mashg‘ulotlarni o‘tkazishning muvaffaqqiyati uning mazmuni va tashkil etilishi ko‘p darajada o‘qituvchiga bog‘liq.

Ta’lim sohasida respublikamizda amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi hozirgi ilmiy texnika davrida ijtimoiy munosabatlarga kirisha oladigan,faol ma’naviy yetuk har tomonlama bilimdon komil insonni tarbiyalashdan iborat.

Biologiya tabiiy fanlarning bir tarmog‘i bo‘lib,insoniyatni borliq,jonli tabiat bilan tanishtiradi.O‘quvchilarni tabiatni sevishi, tabiiy borliqni tushunib yetishi,tabiatdan o‘rinli foydalanib uni ezozlashga tabiiy boyliklarni muhofaza qilishga o‘rgatadigan fanlardan biridir. Biologiya darslarida virtual va visual labaratoriya mashg‘ulotlarini o‘tkazishda multimedia vositalaridan foydalanish o‘quvchilarda tayanch kompitensiyalarni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda o‘qituvchilarning darslarda qo‘shimcha manbalardan foydalanishi va ularning amalda samarali qo‘llay olishi bo‘yicha tayyorgaliklarini zamonaviy talablar darajasida muntazam oshirib borishdan iborat.

**REFERENCES**

1. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoev 2019 yil 29 aprel Toshkent. PF- 5712- son.
2. “Maktabda biologiya”- ma’naviy-ma’rifiy ta’limiy jurnal 2018 yil 8-son.
3. Mo'minov A.K." Pedagogik texnologiyalar" T.- 2014

# BOSHLANG'ICH TA'LIMDA SINF RAHBARINING PEDOGOGIK MAHORATI

**Úsenova Elmira Japbar qizi**

Qoraqalpog'iston Respublikasi, Chimboy tumani 39-sonli maktabning Boshlanģich sinf óqituvchisi

***https://doi.org/10.5281/zenodo.7544579***

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada boshlang'ich ta'limda sinf rahbarining ish tartibi, pedagogik mahorati va o'quvchi bilan ishlash tartibi haqida yoritib berishga harakat qilindi.*

***Kalit so'zlar:*** *Tarbiya, sinf, o'quvchi, ta'lim-tarbiya, metod.*

# ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ НАВЫКИ РУКОВОДИТЕЛЯ В НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ

***Аннотация.*** *В данной статье предпринята попытка пролить свет на трудовой распорядок, педагогическое мастерство и трудовой распорядок руководителя класса в начальных классах.*

***Ключевые слова:*** *Обучение, класс, ученик, обучение, метод.*

# PEDAGOGICAL SKILLS OF THE CLASS HEAD IN PRIMARY EDUCATION

***Abstract.*** *In this article, an attempt was made to shed light on the work order, pedagogical skills and work order of the class leader in primary education.*

***Key words:*** *Education, class, student, education, method.*

So'nggi yillarda sinf rahbarining faoliyati turli shakl va metodlar bilan boyitildi. Tarbiyaviy ishlarni tashkil etish va o'tkazishda o'quv yurti jamoat tashkilotlarining roli tobora oshirildi. Ushbu ishni tayyorlashdan maqsad o'quv yurtining sinf rahbariga hozirgi vaqtda mamlakatda uzluksiz ta'limning yagona tizimini yaratish borasidagi ish uslublarini har tomonlama keng joriy qilish va metodik yordam ko'rsatishdan iboratdir. Ideologik muassasalar sifatida o'quv yurti oldiga muhim tarbiyaviy vazifalar qo'yilgan, bu esa ayni vaqtda har bir sinf rahbarining asosiy vazifalaridan biri xisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining bundan keyingi rivojlanishi bevosita ta'lim-tarbiya natijasiga bog'liqligi barchaga ayon. Ta'lim-tarbiyani takomillashtirmay, ma'naviy boy barkamol insonni tarbiyalash mushkul. Bu haqda O'zbekiston Respublikasining Ta'lim to'g'risidagi Qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturida belgilab berilgan ijtimoiy vazifalardan kelib chiqib yosh avlod ta'lim-tarbiyasini tashkil etishni kundalik hayotning o'zi talab qilmoqda. Jamiyatda o'qituvchi, birinchidan, o'sib kelayotgan avlodni tarbiyalash, ularga har tomonlama bilim berishdan iborat bo'lgan faxrli hamda ma'sul vazifalarni bajaradi.

Yurtboshimiz ham ta`lim-tarbiyani dolzarb masala sifatida ko`tarmoqda. Ya`ni, mustaqil dunyoqarashga ega, ajdodlarimizning bebaho merosi va zamonaviy taffakurga tayanib yashaydigan barkamol shaxs – komil insonni tarbiyalashdan iborat degan fikrlari yana bir bor boshlang`ich ta`lim o`qituvchilariga ma`suliyat yuklaydi va vazifalarni ado etish pedagogning alohida ijtimoiy roli va uning jamiyatdagi faxrli o'rnini belgilaydi. Jamiyatda o'qituvchi faoliyati yuksak baholanmoqda va uning obro'si yuksaltirilmoqda.

Sinf rahbarining muhim vazifalaridan biri-bu o'quvchining o'qishga bo'lgan havasi, e'tiqodi va bilim, qobilyatini rivojlantirish, kasb-hunarga bo'lgan layoqatini, yosh va ruhiy xususiyatlar asosida rivojlantirish, har bir o'quvchining bo'lg'usi hayoti rejalarini amalga oshirish, o'quvchilarning salomatligini muhofaza qilishdan iborat. Faollarga ishonish, ularning sinf jamoasi orasida obro'sini ko'tarish, o'z vaqtida ularga tegishli yordam ko'rsatish sinf

rahbarining bevosita asosiy vazifasidir. Shuningdek, sinf rahbarining tashkilotchilik funksiyasi tarbiya jarayonida muhim vosita sanaladi. Chunki, tashkilotchilik tushunchasining o'zi keng ma'noga ega. Maxsus bir maqsadni ko'zlab u yoki bu ishni tadbiriy choralarni tashkil etish sinf rahbaridan katta malaka va maxsus mahoratni talab qiladi. Tashkilotchilik funksiyasi bir necha elementlarga bog'liqdir:

A. O'tgan ishlarni tashkil qilish, uning muvaffaqiyati yoki muvaffaqiyatsizligi sabablarini belgilab olish.

B. Sinfda o'tkaziladigan barcha ishlar tarbiyaviy harakterga ega bo'lib, ma'lum maqsadni ko'zlab o'tkazilishi va sinf rahbari turli tarbiyaviy ishlarni o'tkazishda oldin shu ishning modelini tuza bilish lozim.

D. Sinf rahbari oldiga qo'yilgan maqsadga yetishish uchun o'z oldiga aniq vazifa qo'ya bilish lozim.

E. Sinf rahbari har bir tadbiriy choralarni amalga oshirishda o'qituvchi va o'quvchilarning qobiliyatlariga qarab, vazifalarni taqsimlash, ma'lum reja asosida tarbiyaviy tadbirlarning o'tazish o'rni, vaqti, soati, javobgar shaxslar va tizimligini aniqlash lozim.

Tarbiyaning maqsadlari, vositalari va natijalari o'rtasida, shuningdek, tarbiyalanuvchi va tarbiyachi tafakkuri, motivlari o'rtasida g'oyat murakkab bog'liqlik bor. Kattalarning maqsadi, odatda, yoshlarning maqsadlari (hatto strategik maqsadlari) bor. O'quvchining rivojlanish mantiqi, uning tafakkuri, harakatlari bitta nuqtai nazarda, tarbiyachining mantiqi boshqa nuqtai nazarda turishi mumkin. Bunday variantda hech qanday tarbiyaviy ta'sir ko'rsatib bo'lmaydi. Tarbiyaviy ishlarning sifat va samaradorligi, avvalo tarbiyachining g'oyaviy ishonchiga va siyosiy ongining darajasiga bog'liq.

Sinf rahbari o'zining g'oyaviy-siyosiy ongini oshiradi. Bu sinf rahbariga bolalarni onglilik ruhida tarbiyalashga, ular orasiga begona ideologiya va yomon xulqning kirib borishiga qarshi kurasha olish imkoniyatini bera oladi. Sinf rahbarining axloqiy obro'si g'oyat darajada yuqori bo'lishi ham bu o'rinda muhimdir. Sinf rahbari ana shundagina tarbiyaviy ta'sir kuchiga ega bo'ladi. Tarbiyachining shaxsiy fazilatlari, ma'naviy qiyofasi o'quvchilar ongining va xulqining shakllanishida katta ta'sir ko'rsatadi. Sinf rahbari uchun kasbiy malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishning o'zi yetarli emas. O'z tarbiyaviy faoliyatida yuksak darajadagi fuqarolik fazilatlari, intizomi va odamiyligi, axloqiy sifatlari bilan ham ta'sir o'tkazadi.

Tarbiyachilik texnikasi sinf rahbarining asosiy qurolidir. Chunki tarbiyachilik talanti juda ko'p sifatlarni chuqur bilish, keng fikr doirasi, ishga jon dildan ko'ngil qo'yish bolalarga bo'lgan cheksiz muhabbat, muomalada nazokatlilik, qalb yoshligi, serzavq, temperament, aql va odoblilik namunasi, aloqada nazokat va sipolik, vazminlik va kamtarlik kabi fazilatlarning bo'lishini taqozo qiladi. Bunda yana tarbiyachilik texnikasi qo'shilsa ishda muvaffaqiyat ta'minlanishi tabiiydir.

Pedagogik faoliyatda vositalar, maqsadlar va natijalarning nisbatini doimo tashkil qilib borish zarur. Ular uzviy birlikni tashkil etadi, bir – biriga bog'liq bo'ladi va alohida tarzda amalga oshirilmaydi. Maqsadni amalga oshirish usuli – bo'lajak natijadir. Natija yangi vositalarni tanlash, yangi maqsadlarni qo'yish uchun amaliy asos hisoblanadi. Tajribada ma'lum darajada qo'llanilgan har qanday vosita natija beradi, hatto biror sababga ko'ra maqsad aniq ifodalanmagan bo'lsa ham natija bervermaydi.

Tajribada mavjud bo'lgan pedagogik vositalarning ikkitasini ko'rib chiqamiz.

Birinchisi: har qanday pedagogik vosita hamisha bir qator boshqa vositalar, usullar,

shartlar bilan bog'liq bo'ladi, ular pedagogik jarayoning muayyan bosqichida ta'sir ko'rsatish natijasini belgilab beradi. Masalan rag'batlantirish bir xil jarayonlarni tezlashtirish va boshqarishga to'siqnlik qilish, turli salbiy va ijobiy hissiyotlarning turli – tuman ko'rinishlarini vujudga keltirishi mumkin.

Ikkinchi: ayrim vositalarni qo'llanish pedagogning ular ta'sirini, mumkin bo'lgan o'zgarishini anglash qobiliyatlariga butunlay bog'liq bo'ladi. Jamoa muomala sharoitida vositalarni qo'llash minut sayin o'zgarib turadigan vaziyatni hisobga olish zarurligini taqazo qiladi.

Pedagoglarda biz albatta oliyjanoblik hissini tarbiyalashimiz shart. Oliyjanoblik qalbning o'ziga xos holatidir. Bu holat insonda sokinlik, hurmat, mehr, g'urur hislarining qo'shilishidan hosil bo'ladi. Pedagogning o'quvchilarga bo'lgan munosabati mehr, hayrihohlikdan iborat bo'lishi kerak. Ma'lumki rivojlanish uchun yordam berish murakkab jarayon bo'lib, o'quvchilar oldgiga qo'yib o'zi chetda qarab turishi va faqat shu talablar qanday bajarilayotganligini kuzatib borishi yetarli degan xulosaga kelgan pedagoglar katta xatoga yo'l qo'yadilar.

**REFERENCES**

1. Mavlonova R., B. Normurodova, N. Rahmonqulova, Tarbiyaviy ishlar metodikasi.- T.:"Tib-kitob", 2010.

# PIRLS - MATNNI O‘QISH VA TUSHUNISH DARAJASINI BAHOLASHNING METODIK TAMOYILLARI

**Qilichova Gulnoza**

Sirdaryo viloyati, Guliston tumani 31 - umumiy o'rta ta'lim maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchisi

**Eshonqulova Lobar**

Sirdaryo viloyati, Guliston tumani 31 - umumiy o'rta ta'lim maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchisi

https://doi.org/10.5281/zenodo.7544635

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga pirls dasturi asosida ta’lim berish borasida ma’lumotlar keltirilgan.*

***Kalit so’zlar:*** *Xalqaro o’qish savodxonligining yutuqlari, TIMSS, PIRLS, xalqaro tadqiqotlar, zamonaviy uslublar, og’zaki muloqot.*

# ПИРЛС - МЕТОДИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ ОЦЕНКИ УРОВНЯ ЧТЕНИЯ И ПОНИМАНИЯ ТЕКСТА

***Аннотация.*** *В этой статье представлена информация об обучении учащихся начальной школы по программе pirls.*

***Ключевые слова:*** *достижения в области международной грамотности чтения, TIMSS, PIRLS, международные исследования, современные методы, устное общение.*

# PIRLS - METHODOLOGICAL PRINCIPLES OF ASSESSING THE LEVEL OF READING AND COMPREHENSION OF THE TEXT

***Abstract.*** *this article provides information on teaching primary school students based on the pirls program.*

***Keywords:*** *achievements of International Reading Literacy, TIMSS, PIRLS, International Studies, modern methods, oral communication.*

Mamlakatimizda ta‘lim-tarbiya tizimini mutlaqo yangi bosqichga ko‘tarish, pedagogik kadrlar tayyorlash jarayonlari sifat darajasini umume‘tirof qilingan xalqaro talablar va standartlarga muvofiq tubdan yaxshilash bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Respublika xalq ta‘limi tizimida ta‘lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish, xalqaro aloqalarni o‘rnatish, o‘quvchi- yoshlarning ilmiytadqiqot va innovaciya faoliyatini, eng avvalo, yosh avlodning ijodiy g‘oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash hamda rag‘batlantirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 12 dekabrda ―Xalq ta‘limi tizimida ta‘lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida‖gi 997-son qarori qabul qilindi hamda PIRLS, TIMSS, PISA, TALIS xalqaro baholash dasturlari mazmun va mohiyati, Xalqaro baholash dasturlarining standartlarida (FrameWork) qayd etilgan kompetenciyalar, o‘tgan yillarda o‘tkazilgan xalqaro baholash dasturlarida taqdim etilgan topshiriqlar tahlili, xalqaro baholash dasturlarini o‘zida mujassamlashtirgan innovacion metodlari asosida dars ishlanmalarini ishlab chiqish qo‘nimalarini shakllantirish (matematika o‘qitish metodikasi yo‘nalishi uchun) kabi masalalar bilan tanishtirishdan iborat.

Progress in International Reading and Literacy Study (PIRLS) — boshlang‘ich 4-sinf o‘quvchilarining matnni o‘qish va tushunish darajasini baholash uchun. PIRLS – bu turli ta‘lim tizimiga ega bo‘lgan davlatlarda kitobxonlik sifati monitoringini tadqiq qilishdir. Turli

ISSN:
2181-3906
International scientific journal
«MODERN SCIENCE AND RESEARCH»
VOLUME 1 / ISSUE 3

davlatlardagi boshlangʻich sinf oʻqivchilarining oʻqish sifati va matinni tushinish darajasini, shuningdek, har xil davlatlar taʻlim tizimidagi oʻzgarishlarni taqqoslash va namoyon qilish imkonini beruvchi tadqiqot metodaliri bulib hisoblanadi. PIRLS tadqiqotida 50 dan ortiq davlatlar ishtirok etib kelmoqda.

Mazkur xalqaro tadqiqotning maqsadi turli xil taʻlim tizimidan iborat boʻlgan davlatlardagi boshlangʻich maktab oʻquvchilarining matnni oʻqish va qabul qilish boʻyicha tayyorgarligi hamda oʻquvchilarning har xil yutuqlarga erishishga sabab boʻluvchi taʻlim tizimidagi oʻziga xos xususiyatlarni aniqlash va baholashdan iborat. Albatta bunday tadqiqot xalq taʻlimi sohasidagi ishchilar, olimlar, metodistlar, oʻqituvchilar, ota-onalar va jamoat vakillari uchun katta ahamiyatga egadir. Savodxonlik soʻzi oʻquvchilarning kelajakda oʻz rejalarini amalga oshirishda, yaʻni bilim olishni davom ettirish, mehnat faoliyatiga tayyorgarlik koʻrish, ijtimoiy hayot va mehnatda ishtirok etishda asosiy vositasi sifatida savodxonlarcha oʻqish koʻnikmasini egallashdagi muvaffaqiyatini anglatadi.

Tushunchaning mohiyatini anglatuvchi belgilari anglash, tahlil qilish, fikrlash, mushohada yuritish, hayotga tatbiq etishdan iborat. Yozma matn deganda bosma, qoʻlda yozilgan, displeyda tasvirlangan, tabiiy til ishlatilgan matnlar nazarda tutiladi. Bunday matnlar diagramma, rasmlar, karta, jadvallar, grafika koʻrinishidagi vizual tasvirlardan iborat boʻlishi mumkin. Filmlar, teletasvirlar, multiplikaciyalar, soʻzsiz rasmlarni kiritish bundan mustasno, chunki ular idrok etishning boshqacha yoʻlini talab qiladi. Vizual tasvirlar kiritilganda matnlarni yaxlit (bunday tasvirlarsiz) va yaxlit boʻlmagan (tasvirlar bilan) matnlarga boʻlish mumkin. Matnlarni mukammal darajada toifalarga ajratib boʻlmaydi.

Tadqiqot maqsadlari uchun matnlarning quyidagi umumiy xususiyatlari juda muhim deb topilgan: bayonning ravonligi va izchilligi, ularning realligi, faktlarni tahlil qilmay tavsiflanishi va toʻqimaligi, badiiyligi (badiiy publicistik va boshqa matnlar) ularning yaxlit va noyaxlit xususiyati. Bunda matnlarning barcha turlaridan jumladan, hech bir kategoriyaga mos kelmaydigan matnlardan foydalaniladi. Oʻquvchilarning har xil turdagi matnlarni oʻqish qobiliyatidagi farqlarni aniqlash tadqiqotning maqsad vazifasiga kirmaydi. Tadqiqotdan maqsad oʻquvchilarga oʻqib tushunishi uchun hayotda koʻproq ishlatiladigan matnlarni taklif qilish bilan ular uchun umumiy va ahamiyatli boʻlgan natijalarni aniqlashdir. Oʻqish savodxonligining barcha jihatlari bir-biri bilan oʻzaro bogʻliq.

Ikkinchi jihatining muvaffaqiyatli ado etilishi birinchisining toʻgʻri bajarilishiga bogʻliq. Matnni toʻliq tushunish oʻquvchilarni har bir jihat boʻyicha chuqur bilimga egalik darajasini koʻzda tutadi. Matn mazmunini nimaga qaratilganligini aniqlash va uning maʻno butunligini tushunish uchun bosh mavzuni umumiy maqsadini yoki matndan koʻzlangan maqsad nimaligini aniqlash lozim. Matnning mazmuni 9-10 yoshdagi oʻquvchilarning yosh xususiyatlariga mos kelishi kerak. Ayrim madaniyatlarga juda xos boʻlgan mavzulardan chetlanmoq kerak. Matn shu yoshdagi maktab oʻquvchilari uchun qiziqarli va zavqli boʻlishi kerak. Yaxshi yozilgan va unchalik tanish boʻlmagan boʻlishi lozim.

Buning uchun oʻquvchining oʻziga matnga sarlavha oʻylab topish, matnning umumiy maʻnosini anglatuvchi tezis tuzish, matnda koʻrsatilgan yoʻl-yoʻriqlar tartibini tushuntirish, grafik yoki jadvallarning asosiy tarkibiy qismlari nimalardan iboratligini aniqlash, karta yoki rasmning maqsadini aniqlash kabi vazifalar beriladi. Umuman matnni tushungan-tushunmaganini aniqlashga qaratilgan topshiriqlar oʻquvchilarga matnning bir qismi va savol koʻrinishidagi umumiy gʻoyasi oʻrtasidagi moslikni, matn qismi va muallif tomonidan berilgan

o‘ziga xos izoh o‘rtasidagi moslikni aniqlash uchun berilishi mumkin.

Matn g‘oyasining berilgan ta‘riflar orasidan umumiyrog‘i, asosiyrog‘ini tanlashni taklif qilish o‘quvchining asosiy g‘oyani ikkinchi darajasidan ajrata olish mahoratini ko‘rsatadi. Topshiriqlarni bajarish uchun o‘quvchi matnning tuzilishi, janr xususiyatlari haqidagi bilimga, matndagi istehzo, yumor so‘z ifodalangan ma‘no nozikliklarini payqashi, muallif fikrini anglashi va tasvirlanganvoqea hodisaga muallif bergan bahoni farqlay olish qobiliyatiga ega bo‘lishi kerak. Savodxonlik atamasi aynan o‘quvchilarning olgan bilimlarini kundalik hayotga tadbiq eta olish mahoratini ta‘kidlash uchun qo‘llaniladi.

**REFERENCES**


1. SH.M. Mirzieyov. Erkin va Faravon. Demokratik Uzbekiston Davlatini Birgalikda Barpo Etamiz.
2. Xalqaro tadqiqotlarda boshlang’ich sinf o’quvchilarining o’qish savodxonligini baholash (Boshlang’ich sinf o’qituvchilari, metodistlar va soha mutaxassislari uchun metodik qo’llanma). Ta’lim inspeksiyasi huzuridagi Ta’lim sifatini baholash bo’yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi. Toshkent, 2019-yil.
3. O‘quvchilarning savodxonligini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqot dasturi haqida Qo‘llanma.

# BIOLOGIYA FANINI O'QITISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINI O'RNI VA AHAMIYATI

**Mahkamov Muhriddin Olimjonovich**
Namangan viloyati Chust tumani 63 - umumiy o'rta ta'lim maktab

***https://doi.org/10.5281/zenodo.7544699***

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada biologiya o'qitish metodikasida axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, ularni sinfxonaga tadbiq etish va dars jarayonini yanada qiziqroq tashkillashtirish uchun axborot texnologiyalari bilan birga ish olib borish ko'rib chiqiladi. Yangi online platformalar orqali darslarda unumli viktorinalar o'tkazish kabi qo'shimchalar ko'rsatilgan.*

***Kalit so'zlar:*** *biologiya, axborot texnologiyalari, o'qitish, viktorina, online platformalar, internet, metodlar.*

# ИНФОРМАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В ПРЕПОДАВАНИИ БИОЛОГИЧЕСКИХ НАУК МЕСТО И ЗНАЧЕНИЕ

***Аннотация.*** *В данной статье рассматривается использование информационных и коммуникационных технологий в методике преподавания биологии, их применение на уроках, а также совместная работа с информационными технологиями для того, чтобы сделать учебный процесс более интересным. Показаны такие дополнения, как эффективные викторины в классах через новые онлайн-платформы.*

***Ключевые слова:*** *биология, информационные технологии, обучение, викторина, онлайн-площадки, интернет, методы.*

# INFORMATION TECHNOLOGY IN BIOLOGICAL SCIENCE TEACHING PLACE AND SIGNIFICANCE

***Abstract.*** *This article examines the use of information and communication technologies in the methodology of teaching biology, their application in the classroom, and working together with information technologies to make the lesson process more interesting. Additions such as effective quizzes in classes through new online platforms are shown.*

***Key words:*** *biology, information technology, teaching, quiz, online platforms, internet, methods.*

Hozirgi kunda kompyuter va internet inson hayotida muhim o'rin egallaydi. Har bir sohalarda o'z o'rniga ega va sohaning rivojllanish omillaridan biri bo'lib qolmoqda.Biologiyani axborotga texnologiyalari bilan birlashtirishdan avval, axborot texnologiyalari nima? "Axborot" so'zi lotincha informatio so'zidan olingan bo'lib, tushuntirish, biror narsani bayon qilish yoki biror narsa yoxud hodisa haqidagi ma'lumot ma'nosini anglatadi.

Inson yashaydigan dunyo turli moddiy va nom oddiy obyektlar, shuningdek, ular o'rtasidagi o'zaro aloqa va o'zaro ta'sirlardan, ya'ni jarayonlardan tashkil topgan. Sezgi a'zolari, turli asboblar va hokazolar yordamida qayd etiladigan tashqi dunyo dalillari ma'lumotlar deb ataladi. Ma'lumotlar aniq vazifalami hal etishda zarur va foydali deb topilsa, axborotga aylanadi.

Demak, ma'lumotlarga u yoki bu sabablaiga ko'ra foydalanilmayotgan yoxud texnik vositalarda qayta ishlanayotgan, saqlanayotgan, uzatilayotgan belgilar yoki yozib olingan kuzatuvlar sifatida qarash mumkin. Agar bu ma'lumotlardan biror narsa to'g'risidagi mavhumlikni kam darajaga keltirish uchun foydalanish imkoniyati tug'ilsa, ma'lumotlar

axborotga aylanadi. Demak, amaliyotda foydali deb topilgan, ya’ni foydalanuvchining bilimini oshirgan ma’lumotlarmigina axborot deb atasa bo'ladi. Masalan, qog'ozga telefon raqamlarini ma’lum tartibda yozib, birovga ko'rsatsangiz, u buni biror axborot bermaydigan ma’lumot sifatida qabul qiladi.

Biroq har bir telefon raqami qarshisiga muayyan korxona yoki tashkilot nomi, uning faoliyat turi yozib qo'yilsa, avvalgi ma’lumot axborotga aylanadi. Ma’lum vazifalami hal etish natijasida yangi ma’lumotlar - bilimlar, ya’ni tizimlashtirilgan haqqoniy yoki sinovdan o'tgan xabarlar paydo bo'ladi. Ular qonunlar, nazariyalar ham da tasavvur va qarashlam ing boshqa majmuyi sifatida umumlashgan bo'lgan. Keyinchalik bu bilimlar o'zga vazifalami hal etish yoki oldingisini aniqlashtirish uchun zarur bo'lgan ma’lumotlar tarkibiga kiradi.

Inson o‘z hayotida tug'ilgan kunidan (ta’bir joiz bo'lsa, hatto ona qornida dastlab paydo bo'lgan kundan) boshlab doimo ma’lumotlar bilan ish ko'radi. Ularni o'zining sezgi a’zolari orqali qabul qiladi. Axborotga ishlov berish texnologiyalari bugungi kunda hayotimizning hamma sohalarini qamrab olgan. Informatikaning asosiy resursi - axborotdir. Azaldan axborot deganda atrof-muhit obyektlari va hodisalari, ularning o‘lchamlari, xususiyatlari va holatlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar tushuniladi.

Keng ma’noda axborot - insonlar o‘rtasida ma’lumot ayirboshlash, odamlar va sun’iy qurilmalar o‘rtasida signal ayirboshlashni ifoda etadigan umummilliy tushunchadir. Ma’lumki, jamiyat rivojlangani sari iqtisodiyot, fan, texnika, texnologiya, madaniyat, san’at, tibbiyot kabilaming turli masalalari haqidagi mavjud ma’lumotlar, axborot zaxiralaridan foydalanishni tashkil etish intellektual va iqtisodiy hayotga tobora ko'proq ta’sir ko'rsatadi. Demak, axboriy jarayonlar ko‘p qirrali jarayon ekanligi ayon bo'lmoqda.

Axborot kommunikatsiya texnologiyalari biologiya o’qitish metodikasi bilan ham uzliy bog’liq jihatlari mavjud. Biologiya tabiiy fanlar sirasiga kirganligi sababli, ushbu fanda ham texnologiyalardan foydalanish orqali katta yutuqlarga erishish mumkin.

Biroq, hozirgi kunda maktablarimizda o’quvchilar uchun mobil telefonlaridan foydalanish taqiqlanadi. Bu esa raqamli ta’lim (digital learning) rivojlanshiga salbiy ta’sir ko’rsatadi. Ta’lim muassasasida raqamli muhitni ta’minlash uchun va dars sifatini oshirish uchun, biz sinfxonada foydalanishimiz mumkin bo’lgan texnologiyalar va online platormalar haqida ma’lumotlar bilan tanishamiz.

Birinchi navbatda texnik qismlar bilan ko’rib chiqamiz. Bilamizki ushbu fanni o’qitishda ko’rgazmalar va taqdimotlar alohida o’rinni egallaydi. PowerPointda taqdimot qilish biroz zerikarliva ko’p foydalanilgani uchun yangi platforma haqida gaplashamiz. Bu *Prezi* platformasi**.** Ushbu platformadan online foydalanishingiz va taqdimotingiz bitgach shu platformani o’zida taqdim etishingiz mumkin. Sifatli va kamyob animatsiyalardan foydalanib dars

jarayonida o’quvchilarni e’iborini tortishingiz mumkin.

Biologiyani o’qitish uchun ham bizga E-learning yani elektron ta’limyordamga keladi. Elektron ta’lim bu online platformalar, ochiq kurslar va boshqa biror bir online saytlar orqali nimanidir o’rganish demakdir. Biologiya fanini o’qitish uchun ham chet el tajribasini orttirish uchun dunyoning mashxur universitetlarining professorlari tomonidan o’qilgan ma’ruzalar va ta’lim beriladigan platformalar ham mavjud. Ular MOOC (Massive online open courses) Ommaviy online ochiq kurslar tizimiga kiradi.

Misol uchun eng sifatlilarini keltirib o’tamiz.

*EdX* - Massachusets Texnologiya Instituti (MIT) va Garvard universiteti o'rtasida dunyodagi millionlab odamlarga sertifikat bilan onlayn universitet kurslarini taklif qilish uchun onlayn ta'lim sohasida o'zgaruvchan hamkorlik. Bugungi kunda bir nechta boshqa jahon darajasidagi universitetlar edX-da onlayn kurslarni taklif qilmoqdalar.

*Udemy* - ushbu platformada veb-ishlab chiqish, biznesga oid kurslar, dizayn, IT va dasturiy ta'minot, marketing, turmush tarzi, fotosuratlar, sog'liqni saqlash va fitnes, musiqa, o'qitish va akademik kabi ko'plab kurslar mavjud.

Bundan tashqari, bitta ajoyib narsa Udemy boshqa elektron o'quv platformalariga nisbatan ularning kurslari uchun narxlar juda maqbuldir. Udemy- ning yana bir yaxshi tomoni shundaki, ular mavjud bo'lgan barcha kurslar uchun bitiruv sertifikatini taqdim etishadi.

*Microdcopy* – bu online platforma aynan biologlar uchun yaratilgan desa ham bo’ladi. Mikroskoplar bilan ishlashni o’rgatuchu online ta’lim platformasi. Ushbu platformada o’rganish uchun ro’yxatdan online kursga yoziliishingiz mumkin. Bu platformaning foydali jihatlaridan biri *“recorded courses”* yozib olingan online kurslar irasiga kiradi. Shuning uchun siz hohlagan vaqtingiz hohlagan joyingizda bularda foydalanishingiz mumkin. Kursda yangiliklar ko’p, online mikroskopdan ham foydalanish uchun ko’rsatmalar berilgan.

Sinf xonasida darsni qiziqarli tashkil etish uchun yaxshi axborot texnologiyalaridan foydalanishingiz mumkin. O’tilgan darsni takrorlash uchun online platformalarda test tuzing va o’quvchilarniviktorinada qatnashishlarin ta’minlang. Pastda eng qiziqarli viktorina tashkil etish uchun online platformalar keltirilgan.

*Viktorinalar* - ushbu sayt o’qituvchilar uchun maxsus platforma bo’lib, o’tilgan mavzu yoki o’zingiz istagan savollar bilan, o’quvchilaringiz o’rtasida musobaqa o’tkazishingiz mumkin. O’qituvchi testlarni o’zi tuzib chiqadi va tog’ri variantlarni saytga taqdim etadi va musobaqa ssilkasini olib o’quvchilarga ulashadi. Ssilka ulashishda eng qulay yo’l Telegram ijtimoiy tarmog’ini tavsiya qilaman. Ushbu saytdan ro’yxatdan o’tish va udan foydalanish haqida ma’lumotlarni YouTube dan ko’rib o’rganishingiz mumkin. Bu saytning ijobiy tomonlari shundaki, siz uyushtirgan musobaqa haqida to’liq statistik ma’lumotlar bilan tanminlaydi. Qancha miqdordagi qatnashilar to’g’ri javob berdi, qanchasi xato, kimlar ko’proq to’g’ri javob topmoqda va uni javob yo’llash tezliginiyam inobatga olgan holda Top reyting yaratadi.

O’quvchilar bu platformada test ishlab, musobaqada qatnashganida qiziqqonlik bilan harakat qiladi va o’qiganlari yodida qoladi.

*Kahoot* – ushbu platforma ham viktorina ko’rinishida musobaqa tashkil etish uchun sayt. Bu platformani mobile versiyasi ham bor. Google Play orqali yuklab olishingiz mumkin. O’qituvchi, talaba va mustaqil o’rganuvchilar uchun alohida bo’limlar mavjud.

Xulosa qilib aytganda, ta’lim tizimini riivojlantirish, biologiya va boshqa fanlarga o’quvchilarni qiziqishlarini orttirish uchun sifatli metodikalar zarur. Bularni sinfxonasiga olib kirishda esa axborot kommunikatsiya texnologiyalari yordamchi bo’la oladi. Dunyo ta’lim muassasalarida ko’plab o’qitish metodikalari va texnologiyalari qo’llaniladi. Bular uchun alohida platformalar ham ko’p. Ulardan unumli foydalangan holda yangi muhit yaratish mumkin.

**REFERENCES**

1. M. Aripov. B. Begalov. U. Begimquloy. U. Mamarajabov. "Information technology". Tashkent. Noshir - 2009.
2. K. Ismanova. Organize hands-on activities using innovative methods.
    - Journal of
3. Educational Problems. Issue 2, 2012
4. D. R. Garrison “E-Learning in the 21st Century”. Textbook. –New York. 2017.
5. Islamova, M. Sh. "Fundamentals of Forming a Professional Worldview." Science and Education 2.Special Issue 1 (2021): 78-87.

ISSN: 2181-3906

International scientific journal
«MODERN SCIENCE AND RESEARCH»
VOLUME 1 / ISSUE 3

# ONA TILINI SAMARALI O'QITISH METODIKASI

**Halimova Nilufar Komilovna**

Surxondaryo viloyati Termiz shahar 19 - maktab ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

***https://doi.org/10.5281/zenodo.7545216***

***Annotatsiya.*** *Maqolada o'zbek tilini samarali o'qitishda metodika sohasining zamonaviy pedagogik texnologiyalari, til o’rganishning usullari haqida fikrlar bayon etilgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *islohot, innovatsiya, pedagogika, tajriba, darslik.*

## МЕТОДОЛОГИЯ ЭФФЕКТИВНОГО ОБУЧЕНИЯ РОДНОМУ ЯЗЫКУ

***Аннотация.*** *В статье описаны современные педагогические технологии и методы изучения языка в сфере эффективного обучения узбекскому языку.*

***Ключевые слова:*** *реформа, инновации, педагогика, опыт, учебник.*

## METHODOLOGY OF EFFECTIVE MOTHER LANGUAGE TEACHING

***Abstract.*** *The article describes modern pedagogical technologies in the field of methodology, methods of language learning in the effective teaching of the Uzbek language.*

***Key words:*** *reform, innovation, pedagogy, experience, textbook.*

Barchamizga ma’lum mustaqillik sharofati bilan o‘zbek diyorida ham yangilanish, rivojlanish davri boshlanib, ijtimoiy hayotimiz umumjahon andozalariga mos taraqqiyot yo’nalishlariga jadal sur’atlar bilan kirib bormoqda. Xalq xo'jaligining barcha sohalari, shu jumladan, ta’lim sohasida ulkan islohotlar amalga oshirilmoqda. Mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq mamlakatimizda yosh avlod tarbiyasiga jiddiy e’tibor berila boshlandi.

O‘zbek tili o‘qitish metodikasi —fani hozirgi kungacha boy tajriba to’pladi. U pedagogika fanlari sistemasidagi mustaqil fan sifatida shakllandi, rivojlandi, rivojlanishda davom etmoqda. Uning mazmuni ona tili ta’limining izchil sistemasini ishlab chiqish, ona tili darslarini tashkil qilishga oid metodik tavsiyalarni tanlash va amaliyotga joriy etishgina emas, balki metodika sohasining zamonaviy pedagogik texnologiyalar, til o’rganishning interaktiv metodlarini o’zida ifodalagan ilmiy asoslarini ishlab chiqish hamdir.

O‘zbek tili o’qitish metodikasi, birinchi navbatda, falsafa va umumiy tilshunoslik hamda tilshunoslikning nazariy asoslari bilan chambarchas bog’liqdir. Yaxshi bilamizki, til va nutq ajralmas yaxlitlikni tashkil etadi. Shunga qaramay, ular ayni bir xil hodisa ham emas. Ular nutqiy faoliyatning asosini tashkil qiladi. Insonning nutqiy faoliyati zimmasidagi vazifalar nihoyatda ko‘p. Shulardan biri kommunikativlik vazifasidir.

Bu uning kishilar orasidagi aloqa, munosabat — muomalani ta ’minlashi bilan bogiliq. Bunda axborotlarni boshqalarga yetkazish, o‘zaro fikr almashish amalga oshadi. Hozirgi kunda o‘zbek tili o‘qitish metodikasi fani yangi yutuqlar bilan boyitilmoqda, yangi avlod darsliklari va o‘quv qo‘llanmalari yaratilmoqda. Uzluksiz ta’lim muassasalarida o’zbek tili darslarida kompyuter, kodoskop va videoko‘z singari o ‘quv texnikasidan samarali foydalanish mumkin. Chunonchi, kodoskop yordamida slayd- jadvallami maxsus ekranga tushirish mumkin bo‘lsa, videoko‘z barcha tasvirli yozuvlami, test topshiriqlaridan insho matnlarigacha tele(multi) ekranga chiqarib berishi mumkin.

Ta’limdan asosiy maqsad bolalarga bilim berishgina emas, balki bilim olish yo‘llarini o‘rgatish, ulami ta’lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirish demakdir. Yangicha ijtimoiy, iqtisodiy sharoitda o’zbek tilini o ‘qitish mazmunini takomillashtirish, darslami jahon andozalariga mos ravishda tashkil qilish o’quvchi faolligini oshiradigan muhim omillardan

hisoblanadi. Nutqiy faoliyatda har bir til hodisasining o‘z o‘rni, o‘z vazifasi bor. Yoshlar til imkoniyatidan vaziyatga qarab foydalanish malakasiga ega bo‘lishlari, o‘z fikrini aniq ifodalashga, zarur bo‘lgan so‘z va gap shakllari, ibora va tasviriy ifodalami tanlay va qo‘llay bilishlari davr talabidir.

Buning uchun ona tili o‘qituvchisi o‘z ixtisosini puxta bilishi, ilg‘or pedagogik texnologiya hamda zamonaviy o‘quv — texnik vositalaridan yaxshi xabardor bo‘lishi lozim. Shundagina ta’lim samarasi ham, o‘qitish darajasi ham yuqori bo‘ladi.

Ona tilidan dars beruvchi o‘qituvchi haqiqiy ijodkor bo‘lishi, ta’lim jarayonida o ‘quvchining mavzuni tinglash, anglash, erkin va mustaqil fikrlash, qiyoslash, farqlash, alohidaliklarga ajratish va tasnif etishga yo‘naltirilgan faoliyatini rag‘batlantirishi, o‘z fikri, g‘oyalarini o‘zgalarga yetkaza olish ko‘nikma va malakalarining shakllanishini nazorat qilishi, boshqarishi darkor. U yoshlarning axloqiy-ma’naviy tarbiyasi bilan shug‘ullanishi, ularga sharqona muloqot odobi, milliy an’analarimizga hurmat, ona-Vatanga muhabbat tuyg‘usi kabi zaruriy xislatlami singdira olishi lozim.

Maktablarda o’zbek tili darslarini samarali tashkil etish uchun o‘qituvchilar quyidagi jihatlarga e’tiborli bo‘lishlari darkor:

1. Darsni 8-12, 15-20 kishidan iborat guruhlarda tashkil etish.

2. O‘qitishda zamonaviy texnik vositalar (video-magnitofon, kompyuter va boshqa audiovizual jihozlar) dan foydalanish.

3. Til o‘rgatishda, shuningdek, fan bo’yicha darslik, o‘quv qo‘llanma, uslubiy qo‘llanma, mavzular bo’yicha uslubiy ko‘rsatma va ishlanmalardan mustaqil ravishda foydalanish.

4. O‘quv mashg‘ulotlarini tashkil etishda tilni nazariy jihatdan o‘rganishga, yangi nutqiy ko‘nikmalar hosil qilishga e’tibor qaratish.

Bundan tashqari, tilini o‘rgatishda to‘g‘ri talaffuz qilish ko‘nikmasini shakllantirish va so‘z boyligini muntazam ravishda oshirib borish muhim ahamiyatga ega.

O’zbek tilini o‘rganishda mustaqil ishlash (matn ustida) ta’lim sifatini ta’minlaydigan eng muhim shartlardan biri bo‘lib, u o‘quvchilarni o‘zlari o‘rganayotgan tilda fikr-mulohazalarini mustaqil va erkin bayon qila olish ko‘nikmalarini takomillashtirish bilan belgilanadi. Mustaqil ishlashda belgilangan mavzu asosida amaliy ish (mavzu bo’yicha mashqlar) bajarish hamda muayyan mavzu asosida izlanishlar olib borish maqsadga muvofiqdir.

Ayniqsa, umumta’lim maktablarida til ma’nolarini (leksik, grammatik, morfemik, sintaktik ma’nolarini) tushunish tamoyillarini o‘qitishni yangicha talqinda tashkil etish lozim. So‘zni, morfemani, so‘z birikmasini, gapni tushunish borliqdagi ma’lum voqeahodisalar o‘rtasidagi bog‘lanishni aniqlash demakdir. Til ma’nolarini tushunish tamoyiliga amal qilishning sharti tilning hamma tomonlarini, tilga oid barcha fanlar (grammatika, leksika, fonetika, orfografiya, uslubiyat)ni o‘zaro bog‘langan holda o‘rgatish hisoblanadi.

Masalan, morfologiyani sintaksisga tayangan holdagina o‘rgatish, o‘zlashtirish mumkin. Sintaksisni o‘rganishda esa morfologiyaga suyaniladi, orfografiya fonetika, grammatika so‘z yasalishiga suyanadi va hokazo. So‘zni morfemik tahlil qilish uning ma’nosini tushunishga yordam beradi. Tilning hamma tomonlari bir-biri bilan o‘zaro bog‘langan bo‘lib, o‘qitishda buni albatta hisobga olish kerak.

Xulosa qilib aytganda, ona tili fanini o‘rgatuvchi mutaxassis o‘qituvchi o‘z darslarini yangi pedagogik texnologiyalar asosida o‘qitishga katta e’tibor qaratishi lozim. Maktablarda ona tili darslarini samarali tashkil etish kelajakda tilimiz rivoji uchun ham muhim ahamiyatga ega.

Tilni sistemali o'rganish o’quvchilarni mustaqil va ijodiy fikrlashga o‘rgatish, ularning lug’at boyligini oshirish, o’zgalar nutqini tinglay va anglay olish, fikrni aniq, ixcham ifodalash, so‘z tanlash va uni o‘rinli qo’llash, og'zaki va yozma nutq malakalarini shakllantirish, fikr ifodalashda shakl va mazmun uygiunligiga, mantiqiy mukammallikka erishish, “o’quvchi — ta’lim — o’qituvchi” munosabatlarini to’g‘ri tashkil etish — ta’lim samaradorligini oshirishning muhim omili ekanligini nazariy va amaliy jihatdan asoslab berishga xizmat qiladi.

**REFERENCES**

1. N.Sattarova. Ona tili va adabiyot faniga ixtisoslashgan maktablarda o‘quvchilarni tahlil qilishga o‘rgatish usullari. 2016 y.
2. K.Usmonova. Adabiy ta’limda ilg‘or pedagogik texnologiyalar. Toshkent, 2015 y.

# PIRLS XALQARO BAHOLASH TADQIQOTLARIDA IJOBIY NATIJAGA ERISHISHING METODIK TAMOYILLARI

**Madrimova Sevara Umidbekovna**
Xorazm viloyati, Xiva tumani 26 - son maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchisi
**Iskandarova Muyassar Kadam qizi**
Xorazm viloyati, Xiva tumani 26 - son maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchisi

https://doi.org/10.5281/zenodo.7545246

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqola umumiy o'rta maktab o'quvchilarining xalqaro PIRLS dasturi asosida matnni o'qish va tushunish qobiliyatini rivojlantirish haqida.*

***Kalit so'zlar:*** *Ta'lim, PIRLS dasturi*, Harakatlar strategiyasi.

# ПИРЛС МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ ДОСТИЖЕНИЯ ПОЛОЖИТЕЛЬНОГО РЕЗУЛЬТАТА В МЕЖДУНАРОДНЫХ ОЦЕНОЧНЫХ ИССЛЕДОВАНИЯХ

***Аннотация.*** *Данная статья посвящена развитию умения читать и понимать текст у учащихся общеобразовательной школы на основе международной программы PIRLS.*

***Ключевые слова:*** *образование, программа PIRLS, стратегия действий.*

# METHODOLOGICAL PRINCIPLES OF ACHIEVING A POSITIVE RESULT IN PEARLS INTERNATIONAL EVALUATION RESEARCH

***Abstract.*** *This article is about the development of the ability to read and understand the text of general high school students based on the international PIRLS program.*

***Key words:*** *Education, PIRLS program, Action strategy.*

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi 2017-yil 7- fevraldagi PF -4947-sonli farmoni bilan tasdiqlangan "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi" doirasida O'zbekistonda ta'lim sifatini baholashda yangicha 59 monitoring tizimini xalqaro baholash dasturlari yordamida aniqlash va qiyoslashga asoslangan tizim shakllantirilmoqda. Ma'lumki, o'zgarishlar davrida ta'lim tizimi ijtimoiy jarayonlardan kelib chiqqan holda shiddat bilan rivojlanishni taqozo etadi. Ta'lim orqali jamiyatda kelajakdagi vazifalarni bajarishga qodir bo'lgan yangi avlod shakllantiriladi.

Mamlakatimiz innovatsion rivojlanish yo'lida shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir davrda kelajagimiz davomchilari bo'lmish yoshlarni, ularning bilim va ko'nikmalarini xorijiy ta'lim standartlari asosida shakllantirish, zamonaviy aniq mezon va talablar asosida baholash tizimini takomillashtirish muhim ahamiyatga egadir.

O'quvchilarning bilim va malakasini umumiy ravishda tahlil qilish mamlakatdagi ta'lim sifati darajasini belgilaydi. Shu maqsadda o'quv yili davomida har bir ta'lim muassasasida ichki va tashqi monitoring o'tkazib boriladi. Uning natijasiga ko'ra, eng namunali maktablar ketma-ketligi, o'qituvchilar salohiyati va o'quvchilarning o'zlashtirish darajasi aniqlanadi. Bu jarayon ta'lim taraqqiyotini belgilovchi muhim mezon bo'lgani uchun Xalq ta'limi vazirligi tashabbusi

bilan umumiy oʻrta taʼlim maktabi oʻquvchilari bilimini baholash boʻyicha xalqaro dasturlarni amaliyotga joriy etish maqsadida ilk qadamlar tashlandi.

Taʼlim sifatini baholash boʻyicha xalqaro tajribalarni oʻrganish, mavjud tizimni qiyosiy va har tomonlama tahlil qilish, tegishli yoʻnalishdagi xalqaro va xorijiy tashkilotlar, agentliklar, ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan yaqindan hamkorlik qilish, taʼlim sifatini baholash boʻyicha xalqaro loyihalarni amalga oshirish, zamon talablariga javob beradigan munosib milliy baholash tizimini takomillashtirish muhim ahamiyatga egadir.

Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrdagi 997- son “Xalq taʼlimi tizimida taʼlim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi [2; 5-b.] qarori bilan Xalq taʼlimi tizimida taʼlim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish, xalqaro aloqalarni oʻrnatish, oʻquvchi-yoshlarning ilmiy-tadqiqot va innovasiya faoliyatini, eng avvalo, yosh avlodning ijodiy gʻoyalari va ijodkorligini har tomonlama qoʻllab-quvvatlash hamda ragʻbatlantirish maqsadida Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Taʼlim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasining Taʼlim sifatini baholash boʻyicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markazi tashkil etildi.

Oʻz navbatida, taʼlim sifatini baholash boʻyicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markaziga taʼlim tizimida oʻqish, matematika va tabiiy fanlardan savodxonlik darajasini rivojlantirishning innovatsion metodlarini ishlab chiqish va 60 joriy etishga yoʻnaltirilgan ilmiy izlanishlar olib borish, taʼlim sifatini baholash sohasida xalqaro aloqalarni oʻrnatish, xalqaro loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish va boshqa vazifalar yuklatildi.

Mazkur vazifalarning amaliy ifodasi sifatida Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi taʼlim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi bilan Xalqaro hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti oʻrtasida oʻquvchilar savodxonligini baholash boʻyicha xalqaro dasturda (Agreement for participation programme for international student assessment PIRLS 2021) ishtirok etish toʻgʻrisidagi kelishuvga erishildi.

PIRLS (Programme for International Student Assessment) oʻquvchilarning savodxonligini baholash boʻyicha xalqaro tadqiqot dasturi boʻlib, dasturning asosiy maqsadi oʻn besh yoshli oʻquvchi yoshlarning oʻqish, matnni tushunish, matematika va tabiiy fanlar boʻyicha savodxonlik darajalarini hamda ijodiy fikrlash koʻnikmalarini turli xil testlar koʻrinishida baholashdan iboratdir.

Ushbu loyihalar oʻquvchi yoshlarning ijodiy va tanqidiy fikrlashlariga, olgan bilimlarini hayotda qoʻllay olish qobiliyatlariga baho berish va keyinchalik bu koʻnikmalarni rivojlantirishga undaydi.

Har uch yilda amalga oshiriladigan PIRLS dasturi mamlakatlarga taʼlim tizimi yutuq va kamchiliklari haqida oʻz vaqtida axborot berish, tegishli dasturlarning taʼsirini tahlil qilish imkoniyatini yaratib, taʼlim siyosati sohasidagi qarorlar qabul qilishni qoʻllab-quvvatlaydi.

Taʼlim sifatini baholashga yoʻnaltirilgan PIRLS kabi xalqaro tadqiqotlar Oʻzbekiston taʼlim tizimi uchun ilk marta oʻtkazilayotganligi sababli ularni toʻgʻri, samarali va obyektiv oʻtkazish muhim ahamiyat kasb etadi.

**REFERENCES**

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 8 dekabrdagi “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.
2. Abdullayeva I. Boshlang‘ich ta’limda o‘qitish sifatini yaxshilashda zamonaviy yondashuv // Zamonaviy uzluksiz ta’lim muammolari: innovatsiya va istiqbollar: Xalqaro ilmiy konferensiya. 2018 yil 27 aprel. – 1 qism. – T., 2018. – B. 36.

ISSN: 2181-3906

International scientific journal
«MODERN SCIENCE AND RESEARCH»
VOLUME 1 / ISSUE 3

# SHAHAR SUV TA'MINOTI TIZIMINING GIDRAVLIK HISOBLASH HAQIDA TUSHUNCHALAR

**Sayfullayeva Muxlisa Iskandar qizi**

Qashqadaryo viloyati G'uzor tumani 1 - son kasb hunar maktabi o'qituvchisi

https://doi.org/10.5281/zenodo.7545293

***Annotatsiya.*** *Tizimda gidravlik hisoblardagi kamchiliklarga yo'l qo'yilayotgani vabaholini tez sur'atda o'sishi va bular natijasida quvurlar tez ishdan chiqishiga olib kelmoqda. Suv ta'minotidagi ushbu muommolardan zamonaviy dasturlar yordamida yechish yo'llariga aniq hulosalar berildi.*

***Kalit so'zlar:*** *Epanet, interfeys, kompyuter texnologiyalari.*

# ПОНЯТИЯ О ГИДРАВЛИЧЕСКОМ РАСЧЕТЕ СИСТЕМЫ ГОРОДСКОГО ВОДОСНАБЖЕНИЯ

***Аннотация.*** *Дело в том, что в системе имеются недостатки в гидравлических расчетах и быстрый рост населения, в результате чего приводит к быстрому выходу из строя трубопроводов. Даны четкие выводы о путях решения этих проблем в водоснабжении с помощью современных программ.*

***Ключевые слова:*** *Epanet, интерфейс, компьютерные технологии.*

# CONCEPTS ON HYDRAULIC CALCULATION OF URBAN WATER SUPPLY SYSTEM

***Abstract.*** *Inadequacies in hydraulic calculations are allowed in the system, and the rapid growth of the population, as a result, leads to rapid failure of pipelines. Clear conclusions were given on ways to solve these problems in water supply with the help of modern programs.*

***Key words:*** *Epanet, interface, computer technologies.*

Zamonaviy yirik shahar suv ta'minoti tizimlari maxsus operatsion shart-sharoitlarni talab qiladi, quvurlar holatini hisobga olgan holda tarmoqlangan va uzun quvur tarmoqlarida suv oqimi taqsimotini nazorat qiladi. Shaharlarda suv ta'minoti tarmoqlarini boshqarish va rivojlantirish samaradorligini oshirish uchun suv ta'minoti tizimining gidravlik modellari qo'llaniladi. Kompyuter texnologiyalarining zamonaviy darajasi va maxsus dasturlar matematik hisob - kitoblarni tezkorlik bilan amalga oshirish va simulyatsiya natijalarini jadval va grafik ko'rinishda ko'rsatish, texnologik jarayonlarni boshqarish va nazoratni amalga oshirish imkonini beradi.

Epanet gidravlik simulyatsiya dasturi

Epanet kompyuter dasturi nasos stantsiyalari, tanklar va o'chirish va nazorat qilish klapanlari bilan bosimli suv ta'minoti tarmog'idagi gidravlik rejimni simulyatsiya qilish imkonini beradi. 90-yillarning oxirida AQSh atrof-muhitni muhofaza qilish agentligi tomonidan ishlab chiqilgan Epanet butun dunyo bo'ylab texnologlar va dizaynerlar tomonidan suv tarmoqlarini hisoblash uchun deyarli 15 yil davomida ishlatilgan.

Ushbu dastur grafik interfeysga ega va suv ta'minoti tarmoqlarining oqim taqsimotini tahlil qilish uchun keng imkoniyatlarni beradi.

Epanet dasturi bosimli quvurlar tarmoqlarini gidravlik tahlil qilish, shuningdek, suvdagi kimyoviy birikmalarning o'zgarishi jarayonlarini modellashtirish uchun mo'ljallangan..

EPANET dasturiy ta'minot to'plami ma'lum bir davr uchun suv sifatini aniqlash, tarmoqdagi suv holatini boshqarish strategiyasini tanlash, suv ta'minoti manbasini tanlash,

nasos stantsiyalari, suv omborlari, suvni tozalash va tozalashning ish rejimlarini o‘zgartirish imkonini beradi.

Gidravlik modellashtirishda suv taqsimlash tarmog‘ining hajmiga hech qanday cheklovlar yo‘q. Dasturiy ta’minot to‘plami Darsi-Veysbax, Xazen-Vilyams yoki shezy-Manning formulalari yordamida bosim yo‘qotilishini hisoblash imkonini beradi. Mahalliy bosim yo‘qotishlari quvur liniyasi va o‘chirish va nazorat qilish quduqlari aniqlanadi, bu esa gidravlik hisobni aniqlashtirishga imkon beradi.

Bentley WaterGEMS avtomatlashtirilgan dastur ma’lumotlarni qo‘lda kiritish, suv ta’minoti tizimining halqasimon tarmog‘ini loyihalash, tarmoq bo‘limlariga o‘rnatish va tartibga soluvchi uskunalarni o‘rnatish joyini aniqlash, nazorat qilish omborlarini joylashtirish, nasoslarni aniqlash imkonini beradigann xususiyatlari va rejimlari mavjud.

Suv ta’minoti tarmoqlaridagi bosim yo‘qotishlar formulalar bilan aniqlanadi: Darsi-Veysbax, Xazen-Vilyams, shezy-Manning formulasiga ko‘ra, bosim yo‘qotishlar quvurlardagi tekis oqimlar vaqtida bo‘lishi nazarda tutiladi.

Darsi-Veysbax formulasi barcha suyuqliklar uchun va barcha oqim rejimlari uchun ishlatiladi, suv quvurlarida mahalliy bosim yo‘qotish va tarmoq uzunligi bo‘yicha bosim yo‘qotishlarni aniqlash.

Avtomatlashtirilgan WaterGEMS dasturi kunning har bir soati uchun suv iste’molining dinamik o‘zgarishini hisobga olgan holda tarmoqni kunning turli vaqtlarida bog‘lashi mumkin.

Bu suv ta’minoti tarmog‘ining turli tugunilarida turli iste’molchilarning tayinlanishiga to‘sqinlik qilmaydi. Bu iste’molchilarning har biri o‘z rejimiga ko‘ra suv olishlari mumkin.

Dastur yordamida suv ta’minoti tizimining ishlashi uchun bir nechta senariylar yaratish mumkin. Suv ta’minoti tizimining ba’zi qismlaridagi quvurlarning turli parametrlari bilan rekonstruktsiya yoki dizayn uchun optimal variant belgilanadi.

Shunday qilib, Bentley WaterGEMS dasturiy ta’minoti to‘plami to‘planishi, tahlil qilishi va foydalanuvchiga taqdim etishi mumkin yirik shaharlarning suv ta’minoti tarmoqlari haqida katta hajmdagi ma’lumotlar keltirilgan.

Masalan, po‘lat quvurlarda suv oqimi ko‘rsatkichlari va bosim yo‘qotishlari, tarmoq tugunidagi erkin va piezometrik bosim, shahar tarmog‘ining quvurlarida sarflarning yo‘nalishini aniqlash mumkin; setka tuguni va kunning soatiga turli qiymatlarning bog‘liqlik grafiklari, piezometrik profillar qurilishi mumkin.

Bundan tashqari, WaterGEMS yordamida quvurlarda bosim taqsimotining ikki o‘lchamli sxemalarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri shahar suv ta’minoti tarmog‘ining rejasiga asosan qurish, shuningdek shahar suv ta’minoti tarmog‘ining turli bo‘limlaridagi bosimqiymatlarini grafik ifodalash mumkin.

Bundan tashqari, shaharning suv ta’minoti tizimidagi kritik bosim nuqtalarini aniqlash imkoni - Rang belgilari, jadvallar, grafiklar va diagrammalar bilan xaritalarni o‘z ichiga olgan turli hisobotlarni ko‘rish mumkin.

## REFERENCES

1. Todjiboyev R.K., Ulmasov A.A., & Muxtorov Sh. (2021). 3M structural bonding tape 9270. Science and Education, 2 (4), 146-149.

2. Toshkoziyeva, Z., & Muxtorov, S. (2022). DESIGN ANALYSIS FOR THE PRODUCTION OF PLATE HANDLES FOR CAR WINDSHIELDS. *Journal of Integrated Education and Research*, *1*(1), 164–172. Retrieved from https://ojs.rmasav.com/index.php/ojs/article/view/34
3. Toshkoziyeva, Z., & Muxtorov, S. (2022). ANALYSIS OF THE REQUIREMENTS FOR MODERN HEAT EXCHANGERS AND METHODS OF PROCESS INTENSIFICATION. *Journal of Integrated Education and Research*, *1*(1), 140–149. Retrieved from https://ojs.rmasav.com/index.php/ojs/article/view/30

# BOSHLANG'ICH SINF ONA TILI DARSLARIDA INTERFAOL DIDAKTIK O'YINLARDAN FOYDALANISH

**Egamkulova Xilola Ergashaliyevna**
Toshkent viloyati, Olmaliq shahar 11 - umumiy o'rta ta'lim maktabi Boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi

https://doi.org/10.5281/zenodo.7545321

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada boshlang'ich sinf ona tili darslarida qo'llaniladigan interfaol didaktik o'yinlar hamda didaktik o'yinlarning dars samaradorligini oshirishdagi ahamiyati haqidagi ma'lumotlar berilgan.*

***Kalit so'zlar:*** *Didaktik o'yinlar, fonetika, bilagon boshliqlar o'yini, "Zarur harfni topib qoy" o'yini, ,,Sehrli kvadratlar"o'yini, "Zarur harfni topib qoy" o'yini.*

# ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНТЕРАКТИВНЫХ ДИДАКТИЧЕСКИХ ИГР НА УРОКАХ РОДНОГО ЯЗЫКА В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

***Аннотация.*** *В данной статье представлена информация об интерактивных дидактических играх, используемых на уроках родного языка в начальных классах, и о значении дидактических игр в повышении эффективности урока.*

***Ключевые слова:*** *Дидактические игры, фонетика, игра-головоломка, игра «Найди нужную букву», игра «Волшебные квадраты», игра «Найди нужную букву».*

# USE OF INTERACTIVE DIDACTIC GAMES IN PRIMARY CLASS MOTHER LANGUAGE LESSONS

***Abstract.*** *This article provides information on the importance of interactive didactic games and didactic games in improving the effectiveness of the lesson, used in primary school mother tongue classes.*

***Key words:*** *Didactic games, phonetics, puzzle game, "Find the necessary letter" game, "Magic squares" game, "Find the necessary letter" game.*

Hozirgi kunda boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning yosh xususiyatlari, savodxonlik darajalari, shaxsiy tabiatiga ko'ra didaktik o'yinlar orqali, evristik va suhbatlar loyihalashtirish asosidagi metodlar keng qo'llanilmoqda. Agar o'qitish jarayonida har bir o'quvchi o'zining o'zlashtirish imkoniyati darajasida topshiriqlar olib ishlaganida, u yuqori sifat va samaradorlikni ta'minlagan bo'lar edi.

Didaktik o'yinli metodlar o'quvchi faoliyatini faollashtirish va jadallashtirishga asoslangan. Ular o'quvchi shaxsidagi ijodiy imkoniyatlarni ro'yobga chiqarsih va rivojlantirishning amaliy yechimlarini aniqlash va amalga oshirishda katta ahamiyatga ega.

Didaktik o'yinlarning asosiy turlari: intelektual (aqliy) va harakatli hamda aralash o'yinlardan iborat. Bular o'quvchilarda aqliy, jismoniy, axloqiy, ma'naviy, ma'rifiy, psixologik, estetik, badiiy, tadbirkorlik, bunyodkorlik, mehnat, kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Bu metod o'quvchini ichki imkoniyatlarini ishga tushirishga, o'ylashga, erkin fikr yuritishga, muloqotga, ijodkorlikka yetaklaydi. Ayniqsa, unda atrof-muhit, hayotni bilishga qiziqish ortadi, uchragan qiyinchilik, to'siqlarni, qanday yengish va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantiradi.

Ta'lim-tarbiya jarayonida asosan o'quvchilarda ta'lim olish motivlarini, ularni turli yo'nalishlardagi qobiliyat va qiziqishlarini oshiradigan, biror kasbga moyilliklarini ko'rsatadigan, didaktik o'yinlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Didaktik o'yinlar nazariy, amaliy, jismoniy, rolli, ishchanlik, va boshqa yo'nalishdagi turlarga ajratiladi. Ular o'quvchilardagi tahlil qilish, mantiqiy fikrlash, tadqiq qilish, hisoblash, o'lchash, yasash, sanash, kuzatish, solishtirish, xulosa chiqarish, mustaqil qaror qabul qilish, guruh yoki jamoa tarkibida ishlash, nutq o'stirish, til o'rganish, yangi bilimlar olish faoliyatlarini rivojlantiradi.

Shuningdek, boshlangich sinf o'quvchilariga ona tilidan grammatik bilimlar berishda ham didaktik o'yinlardan foydalanish samarali natija beradi. Chunki kichik maktab yoshidagi bola hali o'yin faoliyatidan ajralmagan bo'ladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchisi fonetikadan bir qator bilimlarni egallaydilar. Unli, undosh tovushlarni talaffuz qilish va taqqoslash asosida farqlaydilar. Undosh tovushlarning jarangli va jarangsiz talaffuz etilishi, jufti bor va jufti yoq jarangli va jarangsiz tovushlar haqida amaliy bilim oladilar. Bu borada boshlangich sinflarda qollaniladigan tekshirish metodi tovushlarning jarangli yoki jarangsiz ekanligini anglab olish imkonini beradi.

Bu o'z navbatida tog'ri yozishda qo'l keladi. Shuningdek bu sinflarda bog'in va uning turlari, urg'uli va urg'usiz bo'g'inlar, tovushlarning bir biriga ta'siri haqida amaliy bilim oladi. Bularning barchasini o'zlashtirib olish bir qator murakkabliklar tug'diradi. Shu tufayli boshlang'ich sinflarda fonetikaga oid didaktik o'yinlardan foydalanish qo`l keladi.

**"Bilag'on boshliqlar" o'yini**

Bu o'yin ham orfografik o'yinlar turiga kiradi. O'quvchilar odatdagiday ikki guruhga bo'linadi. Har bir guruhning sardori belgilanadi. Ana shu guruh boshliqlari xattaxtaga chiqariladi. Guruh boshliqlari odatda a'lochi o'quvchilar bo'lishadi. O'yinda o'quvchilarning ana shu tomoni hisobga olinib, o'nta so'z xattaxtaga yoziladi: Katta, mukammal, minnatdor, tanaffus, arra, mitti, ikki, tabassum, xokkey, tennis.

Yuqorida berilgan so'zlarni har bir boshliq ustun shaklida yozadi. So'zlarning yozilishi kuzatiladi. Xatolar guruh boyicha hisoblanadi. Har bir guruhning boshlig'i yo'l qoygan xatolarni sanaydi. Birinchi guruh boshlig'i o'nta so'zdan ikkita xatoga yo'l qo'ygan bo'lsa, unga sakkiz ball beriladi. Har ikkala guruh boshliqlari so'zlarni tekshirib xatolarni sanab boradilar. To'g'ri yozilgan har bir so'z uchun ball beriladi. Oxirida g'olib guruh aniqlanadi va rag'batlantiriladi.

**"Zarur harfni topib qo'y" o'yini**

O'yinning ikkinchi bosqichi bir oz murakkab bolib, o'quvchilarning turli xil tovushlardan bittasini tanlab olishlari talab qilinadi.

da. . . . tar (a, o, s, f, k)-daftar,
ma. . . . don (o, y, sh, k, g, l) maydon,
Qu. . . . on (y, o, sh, q, r) –quyon
fo. . . . . us (m, n, s, l)-fonus,
ma. . . . ematika (a, o, u, t, i)-. . . . . ,
o'q. . . tuvchi (s, u, i, a)-. . . . . ,
O'yindan o'yin o'ylab topish o'yinini bajarish.
-rabot va -obod qoshimchali so'zlar yozish o'yini.
2. Qo'shrabot 2. Xalqobod 3. Toshrabot 3. Chinobod 4. Oqrabot 4. Dehqonobod

**„Sehrli kvadratlar"o'yini**

Kvadratlar ichiga shunday harflar teringki, yotiq o'qilganda ham, tik o'qilganda ham so'z hosil bo'lsin.

a s, a l, s, a m o, a m i, r, l, o r, d kabi...

**"So'zdan so'z tuz" o'yini**.

Bu o'yinda ham so'zni ikki tomondan o'qib so'z hosil qilinadi. Ammo bu o'yinda o'ngdan va chapdan o'qiganda so'zning bir xil ma'no anglatishi shart emas. Aksincha so'zni chapdan o'ngga o'qiganda bir ma'no, o'ngdan chapga o'qiganda boshqa lug'aviy ma'no anglatuvchi so'z hosil bo'ladi. Ushbu o'yin bolalarning kuzatuvchanligini oshiradi. Shu tufayli bunday o'yinni ikki o'quvchi bilan, guruh-guruh bo'lib ham, kichik guruhlarga topshiriq berib o'tkazish ham mumkin. Bunda ham so'zlardagi harflar soni hisobga olinadi. Qaysi guruh ozi ishlatgan so'zda ko'p harf qatnashgan bo'lsa o'sha g'olib bo'ladi.

I guruh

1. sut-tus-3
2. qo'y-yo'q-3
3. amin-nima-4
4. kalit-tilak -5

II guruh

mol-lom-3

Kon-nok -3

qori-iroq -4

Bobur-rubob-5

III guruh

G'oz-zog'-3

ota-ato-3

lekin-nikel-5

alak-kala-4

Xulosa qilib aytganda bu kabi didaktik o'yinlar o'quvchilarni fanni o'rganishga qiziqish uyg'otish bilan birga ularda olgan bilimlarni uzoq vaqt xotirada saqlashga xizmat qiladi.

**REFERENCES**

1. R. Safarova va boshqalar darsligi 1-sinf ―Alifbe‖ ―Ma'naviyat‖ nashriyoti –2019

2. G'afforova T. , Nurullayeva Sh. Boshlang'ich sinflar ona tili darslarida didaktik o'yinlar va mustaqil ishlar. –Qarshi: Nasaf, 2003.

3. G'afforova T. , Nurullaeva Sh. , Haydarova O. Boshlang'ich sinflar uchun ona tili va o'qishdan didaktik materiallar. –Toshkent: Ilm ziyo, 2004.

4. Yunusov Q. Ona tili darslarida zamonaviy pedagogik texnologiya . Andijon, 2006.

5. Yunusov Q. Ona tilidan ta'limiy o'yinlar. Andijon, 2005.

6. Bo'ri Ziyamuhammedov, Mamarajab Tojiyev. Pedagogik texnoloyazamonaviy o'zbek milliy modeli. Toshkent. 2009

# BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARI NUTQINI RIVOJLANTIRISH USULLARI

**Bobozoda Nargis Mirzoyevna**
Toshkent viloyati Olmaliq shahar 11-maktab
Boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7545349

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada boshlang'ich sinfda o'quvchilar nutqini o'stirishning o'ziga xos metodlari borasida ma'lumotlar beriladi.*

***Kalit so'zlar:*** *"Hikoya", nutq, tahlil, sintez, so'z ustida ishlash, insonparvarlashtirish, ijtimoiylashtirish va demokratlashtirish.*

## МЕТОДЫ РАЗВИТИЯ РЕЧИ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

***Аннотация.*** *В данной статье представлена информация о конкретных методах развития речи учащихся начальных классов.*

***Ключевые слова:*** *«Рассказ», речь, анализ, синтез, работа над словом, гуманизация, социализация и демократизация.*

## METHODS OF SPEECH DEVELOPMENT OF PRIMARY CLASS STUDENTS

***Abstract.*** *This article provides information on the specific methods of developing students' speech in primary school.*

***Key words:***

O'quvchi nutqini rivojlantirish murakkab jarayon bo'lib, unga monelik qilayotgan omillar ham faqat ta'lim mazmuni yoki o'qituvchigagina bog'liq emas. Barcha imkoniyatlar to'laligicha ishga solinsagina fikrni og'zaki va yozma ravishda to'g'ri, ravon ifodalashga o'rgatish jarayoni oson kechadi.

Yaxshi rivojlangan nutq jamiyatda kishi faoliyatining muhim vositalaridan biri sifatida xizmat qiladi. O'quvchi uchun esa nutq maktabda muvaffaqiyatli ta'lim olish qurolidir.

Yozma nutqni rivojlantirish og'zaki nutqqa qaraganda ancha murakkab jarayon sanaladi. Chunki u o'quvchilardan grammatik va mazmun jihatidan to'g'ri jumla qurishni, har bir so'zni o'z o'rnida to'g'ri qo'llashni, fikrni ixcham, izchil, ifodali, uslub jihatidan sodda va ravon ifodalashni, bayon qilingan fikrlar sosida xulosalar chiqarishni talab etadi.

Bu nutqning murakkab tabiati yana shundaki, u imlo, tinish belgilari va uslub bilan bog'liq. So'zni to'g'ri yozish, tinish belgilarini o'rinli qo'llash, fikrni uslub talabiga muvofiq bayon qilish o'quvchidan katta mas'uliyatni talab etadi. Shu sababli nutqning bu turi ancha sekin va murakkab kechadi. Yozma nutqning o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri uni tekshirish, tuzatish, takomillashtirish mumkinligidir.

Bu jihatdan u og'zaki nutqqa qaraganda ancha qulay imkoniyatlarga ega. O'quvchi yozma nutqdagi xato va kamchiliklar ustida ishlaydi, ularni bartaraf etadi, keyingi ishlarida bu xato va kamchiliklarga yo'l qo'ymaslikka intiladi.

O'qituvchi shuni ham unutmaslik lozimki, ko'pincha o'quvchilar yozma ishlarda imlo va tinish belgilariga katta e'tibor berib, matnning mazmuni ustida yetarli ish olib bormaydilar.

Matnlarda ko'pincha mavzuga aloqasi bo'lmagan fikrlar ustunlik qilib, asosiy fikr e'tibordan chetda qoladi.

Shuning uchun ona tili mashg'ulotlarida o'quvchilar diqqati faqat imlo va tinish belgilariga emas, balki bayon qilinayotgan fikrning asosli dalillarga ega bo'lishi, materialning to'g'ri

joylashtirilishi, fikrning nutq sharoitiga mos holda to'g'ri bayon qilinishiga ham qaratilishi lozim.

Bizga ma'lumki, o'quvchilar bir xillikdan zerikadi. Shuning uchun ularni nutqini o'stirishda doimo har xil metod va o'yinlardan foydalanish lozim. Quyida shulardan ba'zilarini misol tariqasida keltiramiz.

**"Hikoya"** O'qituvchi xattaxtaga bir nechta so'z yozib qo'yadi. Masalan: Nafisa, soat, yomg'ir, kitob kabi. O'quvchilar mustaqil ravishda shu so'zlar ishtirokida hikoya tuzadilar.

**"O'zaro bog'liqlik"** O'quvchilarga rasmli kartochkalar tarqatiladi. Ular kartochkalar bilan tanishib chiqqach, o'quvchi rasmdagi predmet haqida gapirib beradi.

Masalan: "Bu olma. Olma bog'da o'sadi va mevalarga kiradi. Uni o'quvchilar juda yaxshi ko'rishadi". Keyin ikkinchi bola ham o'zidagi predmet haqida gapiradi va o'zidagi predmet bilan birinchi o'quvchidagi predmetni o'zaro bog'liqligini aytishi kerak.

Masalan: "Bu quyosh. Quyosh chiqsa havo isiydi. Uni o'quvchilar yaxshi ko'rishadi. Quyosh isitib tursa, olma va boshqa mevalar pishadi". Keyin uchinchi o'quvchi o'zidagi predmet haqida gapiradi va ikkinchi boladagi predmet bilan o'zidagi predmet orasidagi bog'liqlikni topishi kerak. O'yin shu tartibda davom etadi.

**"Umumiylikni izlash"** O'quvchilar aylana qurib o'tiradilar. Olib boruvchi o'quvchilardan biriga to'pni otayotib, bir-biri bilan bog'lanmagan ikkita so'zni aytadi.

Masalan: maktab va o'quvchi, kitob va javon, quyosh va gul... To'pni tutib olgan o'quvchi so'z juftligi orasidan umumiy belgini aytib to'pni qaytaradi.

**"Safar"** O'quvchilarga maktabdan yoki uylaridan ma'lum bir joygacha bo'lgan yo'lini tasvirlash topshirig'i beriladi. O'quvchilar bir necha kun davomida "obyekt"ni mustaqil kuzatadilar va uni og'zaki tasvirlab beradilar. Sinchkovlik, ziyraklik, kuzatuvchanlik, atrof-muhitga diqqat-e'tibor talab etiladigan bu o'yin vositasida Vatanni sevish, tabiatga muhabbat, chor-atrofga e'tiborli bo'lish hislarini tarbiyalash mumkin.

Bundan tashqari, mazkur o'yinlardan foydalanganda o'quvchilarning nutqi rivojlanadi, lug'at boyligi yanada ortadi, mustaqil fikrlash malakasi shakllanadi.

Yuqorida keltirilgan ta'limiy o'yinlar o'quvchilarning darsda faolligini oshirish bilan birga bilimlarni o'zlashtirish jarayonini yengillashtirish va mustahkamlash, nutq o'stirishga yo'naltirilgan har bir mashg'ulotni qiziqarli tashkil etishga xizmat qiladi.

Jamiyatimizni erkinlashtirish g'oyasi bevosita ta'lim jarayonida o'z ifodasini topib, uni yangidan tashkil qilish va mazmunini o'zgartirish, yanada insonparvarlashtirish, ijtimoiylashtirish va demokratlashtirish asosida ta'minlanadi.

## REFERENCES

1. Karimova V.M., Sunnatova R.I., Tojiboyeva R.N. Mustaqil fikrlash. – T.:Sharq, 2000. 110-bet
2. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – T.: TDPU, 2003.
3. Ishmuhamedov R.J. Innovatsiya texnologiyalari yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. – T.: TDPU, 2004.

# O‘QITUVCHILARNING PEDAGOGIK MAHORATI TAJRIBASIDA TA’LIM METODLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH

**Sidiqova Tojinisa Sotiboldiyevna**
Toshkent viloyati Parkent tumani 10 - maktab texnologiya fani o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7545372

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada o‘qituvchilarning pedagogik mahorati tajribasida ta’lim metodlari samaradorligini oshirish borasida ilmiy jihatdan ochib berildi.*

***Kalit so‘zlar:*** *Metod, usul, dars, o‘qituvchi qobilyati, ta’lim usullari, ta’lim tamoyillari, pedagogik yondoshuv, pedagogik mahorat.*

# ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ МЕТОДОВ В ОПЫТЕ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО УМЕНИЯ УЧИТЕЛЕЙ

***Аннотация.*** *В данной статье научно выявлено, как повысить эффективность воспитательных методов на опыте педагогического мастерства педагогов.*

***Ключевые слова:*** *метод, метод, урок, учитель.*

# INCREASING THE EFFICIENCY OF EDUCATIONAL METHODS IN THE EXPERIENCE OF TEACHERS' PEDAGOGICAL SKILLS

***Abstract.*** *In this article, it was revealed scientifically about the improvement of the effectiveness of educational methods in the experience of pedagogical skills of teachers.*

***Key words:*** *method, method, lesson, teacher.*

Ma’lumki, pedagogik mahoratdan ko‘zlangan maqsad darsning sifati va samaradorligini oshirishdan iborat bo‘lib, u ta’lim beruvchining kasbiy – ijodiy faoliyatidir. Bunda ta’lim beruvchining mahorati ta’lim oluvchilar ichida kimga nimadir tushunarsiz bo‘lganligini tezda (o‘z vaqtida) ilg‘ay olish qobiliyatiga bog‘liq bo‘ladi.

Pedagogik mahorat – ta’lim beruvchining ustoz – murabbiylik fazilatlari, o‘qituvchilik kasbining sirlarini chuqur egallaganligi, insoniylik va iste’dodi hamda intellektual salohiyati va shu kabilar asosida undagi kasbiy ta’lim, tushuncha, ko‘nikma va malakalarning mukammal shakllangan kasbiy faoliyati.

Pedagogik mahoratlik o‘qituvchida kamida quyidagi qobiliyatlar mujassam bo‘lmog‘i lozim:

•o‘qituvchi dars materialini aniq va ravshan bayon qila olishi kerak;

•o‘qituvchi o‘z ta’lim oluvchilarini iloji boricha o‘rganilayotgan mavzu bo‘yicha bir xil fikrga keltira olishi kerak;

•o‘qituvchi mavzu mohiyatini to‘liq ochib bera olishi kerak va kerak bo‘lganda ularga bu mavzuning o‘z kasbiy faoliyatidagi o‘rni va roli haqida tushuncha bera olishi kerak;

•dars davomida befarq holda qatnashayotgan ta’lim oluvchini tezda dars mazmunini o‘rganishga jalb qila olishi kerak;

•o‘qituvchining darsni yana davom ettirishini xohlovchi ta’lim oluvchilar soni auditoriyadagi jami ta’lim oluvchilarning qancha qismini tashkil etishini baholab berish va bu orqali o‘z dars o‘tish texnologiyasini takomillashtirib borish imkoniyatiga ega bo‘lish;

•o‘qituvchining dars maqsadiga erishganligini baholay bilishi va xulosalash qobiliyati va shu kabilar.

O‘qituvchining pedagogik mahorati tajribasida va uning natijasida ta’lim metodlari samaradorligi oshishi yo‘llari asosiy e’tiborda bo‘ladi va ular ta’lim jarayoniga nisbatan turli usul, tamoyil, yondashuv va qarorlar hamda pedagogik qobiliyatlari yordamida amalga oshiriladi.

Ta’limning muammoni qidiruv usuli – ta’lim oluvchilarning bilimini mustaqil ravishda izlab topishga yo‘naltirilgan ta’limiy faoliyat yo‘li. Ushbu usulda o‘qituvchilarning pedagogik mahoratining asosiy mazmunini ta’lim oluvchilarga berishni so‘z orqali ifodalash, ko‘rgazmali va amaliy usullar yordamida amalga oshirishlar tashkil etadi.

Shuningdek, o‘qituvchining pedagogik mahorati oshishi va uning natijaviyligini ta’minlashdan muammoli ma’ruza ifodasi (izohi) orqali mulohaza yuritish, isbotlash, umumlashtirish, dalillarni tahlil qilish va rejaga mos tizimlashtirish, ta’lim oluvchini ushbu mavzudagi ma’lumotlarni o‘zlashtirishi bo‘yicha o‘z ortidan ergashtirish bilan birga uni faolroq qilish kabi usullardan foydalanishlar ko‘zda tutiladi;

•Texnologik yondashuv – bu ta’limning aniq kutilgan natijalariga ega bo‘lgan uzluksiz jarayondir. Uning komponentlari quyidagilardan iborat: tizimli yondashuv asosida o‘quv jarayonini loyihalash; o‘quv maqsadini mumkin qadar aniqlashtirish; ta’lim oluvchilarni ularning hatti – harakatlari asosida o‘qitish; teskari aloqa; bilim, ko‘nikma va malakalarning to‘la o‘zlashtirilishi rejalashtirilgan maqsadlarga erishishini kafolatlashi; o‘qitishning samaradorligiga erishishi.

•Ta’limning mulohazalarga asoslangan qarori – bu mazkur qarorni amalga oshirishdagi o‘qituvchi va ta’lim oluvchi o‘rtasidagi vazifalarni belgilash va taklif – mulohazalarni hisobga olish hamda amaliyotda foydalanishga tavsiyalash ishlab chiqish natijasi. Mazkur jarayon o‘qitishga har tomonlama mos tushuvchi ta’lim texnologiyalarini yaratishda, ilg‘or axborotli ta’lim texnologiyalarini hayotga joriy etishda, qarorlarni qabul qilish bo‘yicha ta’lim oluvchilar vazifalarini belgilashda, qarorni joriy etishda, taklif va mulohazalarni yig‘ishlarda mukammal qarorlar qabul qilishga didaktik asos bo‘la oladi.

•Pedagogik qobiliyat – bu o‘qituvchining pedagogik faoliyatga xos bo‘lgan zaruriy xususiyatlari majmuasidan iborat bo‘lib, unda shu xususiyatlar negizida pedagogik faoliyat bilan mohirona shug‘ullana olishlik layoqatining shakllanganligining muayyan darajasidir.

•Ta’lim tamoyillari. Bu o‘qish va o‘qitish jarayonida obektiv mavjud bo‘lgan va uni bir butun qilib turgan qismlari orasidagi zaruriy bog‘liqlikdan kelib chiqib, odamlar tomonidan ishlab chiqilgan va ta’lim jarayonida amal qilishlikka tavsiya etilgan harakatlar tarkibidir.

Demak, ta’lim tamoyillari – bu o‘qituvchining faoliyatini va ta’lim oluvchining bilish faoliyatini xususiyatini belgilovchi asosdir. U ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchi faoliyatining muhim ichki tomonlarini aks ettiradi hamda turli normada, turli mazmunda va har xil yo‘sinda tashkil etiladigan ta’limning samaradorligini belgilaydi. Ana shuning uchun ham mazkur jarayonda o‘qituvchining pedagogik mahorati juda zarur va unda ta’lim berishning muhim ob’ktiv qonuniyatlarini ta’lim tamoyillari o‘zida aks ettiradi.

Pedagogikada o‘qituvchining pedagogik mahoratini oshirishga imkon beruvchi ko‘pgina umumiy tamoyillar mavjud. Ular: onglilik va faollik; ko‘rgazmalilik; tizimlilik va muntazamlilik; mustahkamlik; tushunarlilik; ilmiylik; nazariya bilan amaliyot birligi; ta’lim – tarbiyaning birligi; ta’lim – tarbiya tizimi va uning uzunligi; pedagogik texnologiya tamoyillari.

**REFERENCES**

1. Mavlyanov A va boshq. Pedagogik texnologiya tamoyillari asosida dars mashg‘ulotlarini olib borish texnologiyasi “VORIS-Nashriyot”- T.: 2010. 112 b.
2. Azizxodjaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. –T.: Fan, 2006.

# BOSHLANG'ICH MATEMATIKA DARSLARIDA NOSTANDART MASALALAR BILAN ISHLASH

**Tursunova Sadoqat Abdumajidovna**
Toshkent viloyati Olmaliq shahar 11 - maktab Boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi
***https://doi.org/10.5281/zenodo.7545383***

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada boshlang'ich sinf matematika darslarida nostandart masalalar bilan ishlash metodi va usullari haqida faktlar krltirib o'tildi.*

***Kalit so'zlar:*** *boshlang'ich ta'lim, matematika, matematik masala, nostandart masalalar, Savoli ifodalanmagan masalalar.*

# РАБОТА С НЕСТАНДАРТНЫМИ ЗАДАЧАМИ НА НАЧАЛЬНЫХ УРОКАХ МАТЕМАТИКИ

***Аннотация.*** *В данной статье были рассмотрены факты о методах и приемах работы с нестандартными задачами на уроках элементарной математики.*

***Ключевые слова:*** *начальное образование, математика, математическая задача, нестандартные задачи, задачи с неопределенными вопросами.*

# WORKING WITH NON-STANDARD PROBLEMS IN PRIMARY MATHEMATICS LESSONS

***Abstract.*** *In this article, the facts about the methods and methods of working with non-standard problems in elementary mathematics lessons were discussed.*

***Key words:*** *elementary education, mathematics, mathematical problem, non-standard problems, problems with undefined questions.*

Matematika bilan shug'ullanish to'g'ri va izchil fikrlashga, mulohaza yuritishga o'rgatadi. Matematika bizni ortiqcha qayta-qayta sanashlardan xalos etadi, ma'lum narsa yordamida ilgari noma'lum bo'lgan narsalarni topishimizga yordam beradi.

Hozirgi kunda boshlang'ich matematika darsliklarida bir necha mantiqiy savollar, qiziqarli boshqotirmalar, jumboqli misollar orqali mavzular keng doirada yoritilib berilmoqda. Buning sababi nostandart masalalar aqlni charxlashning eng asosiy usulidir.

Murakkab shartlar va savollar orqali berilayotgan masalalarning o'ziga xos jihati shundaki, unda birgina tushuncha asosiy rol o'ynamay, balki unda birdaniga o'quvchilar bir nechta tushuncha haqida ma'lumotga ega bo'lib o'tish imkoniyatiga ega bo'lishlaridadir.

Natijada esa o'qituvchilar o'quvchilar ustida, o'quvchilar esa o'z ustida ko'p vaqt ishlaydilar, bu esa matematikani o'rganish uchun albatta yaxshi turtki bo'lib hizmat qiladi.

O'quvchilarga notanish masala topshirilsa, ba'zan ularda e'tiroz bo'ladi.

Buning sababi shuki, ular ko'proq bir xil tipdagi masalalarni yechishga odatlanganlar.

O'quvchilar u yoki bu masalani nima maqsadda yechilganlini, undagi ma'lum va noma'lumlar orasida qanday bog'lanish mavjudligini ongli ravishda tushunib olishlari kerak. Shuni e'tiborga olib, o'quvchilar o'xshash bo'lmagan masalalar yechish malakalarini shakllantirishga qaratilgan masalalarni ko'ramiz.

Har qanday matematik masalaning savoli asosiy elementlaridan biri hisoblanadi. Krutetskiyning ilmiy izlanishlarida o'quvchilarning masalalar orqali tafakkurni oshirishga savoli ifodalanmagan masalalar va mazmuni o'zgaruvchi masalalar masalalarga ajratadi.

**I. Savoli ifodalanmagan masalalar.**

Ayrim turdagi masallarda masalada nimani topish kerakligi bevosita yoki bilvosita yol bilan ifoda etilmaydi, bu topshiriq matnda berilgan matematik munosabatlardan mantiqiy ravishda kelib chiqadi.

Bunday masalalarni yechishda o'qituvchi avval o'quvchilar bilan suhbat o'tkazishi, masalani tahlil qilish va masala savol qismini aniqlashtirishi kerak bo'ladi.

Masalan, (qavs ichida ifodalanmagan savol keltirilgan):

1. 285 m uzunlikda 5 va 8 m li 25 ta truba yotqizilgan (har bir turbadan nechta yotqizilgan ?)

2. Ikkita kitob javionida 130 ta kitob bor Agar birinchi javondan 25 ta kitob olib, uni ikkinchisiga qoyilsa u holda ikkala javonda kitoblar soni teng boladi (har bir javonda nechtadan kitob bolgan?).

3. Sutkaning oxirigacha uning 5/8 qismi (hozir soat necha?).

4. Velosapedchi A puktdan dan B gacha bolgan masofani 18 km/soat, qaytishdagi masofani esa 12 km/soat tezlik bilan bosib otda. (vilosapedchining butun yolda ortacha tezligi qanchaga teng?).

5. Avtomobil 900 km yo'lni soatiga x km tezlik bilan otdi ( u bu yolga qacha vaqt sarf qilgan?).

**II. Mazmuni o'zgaruvchi masalalar.**

Bir masala va uning ikkinchi varianti beriladi. Ikkinchi variantda birinchiga nisbatan berilganlardan biri o'zgaradi, lekin tashqi ko'rinishdan bu o'zgarish uncha muhim bo'lmagandek tuyuladi.

Natijada uning yechilishi amallar ancha o'zgaradi.

Masalan:

1.Yengil avtomashina uchun 100 km masofaga yoqilg'i yoz vaqtida 10 litr, qish vaqtida esa 11 litr sarflanishi ma'lum bo'lsa qishda yozdagidan necha foiz ortiq sarflangan?

Ikkinchi usulda yozda necha foiz kam sarflangan?

2. Ot belgilangan vaqtning yarmida soatiga 12 km tezlik bilan yurdi. Qolgan vaqtda esa soatiga soatiga 4 km tezlik bilan yurdi. Otning o'rtacha tezligini toping.

Ikkinchi usulda yo'lning yarmini soatiga 12 km tezlik bilan, qolgan qismini esa soatiga 4 km yurdi.

Blym taksonomiyasi bo'yicha talabalarning bilishga oid o'quv maqsadiga erishganlik darajasini nazopat qilish va baholashda foydalaniladigan nostandart test topshiriqlari ham o'quvchilarni matnli masalalarni tahlil qilib yechish ko'nikmalarini shakllantiradi.

Masala turlarini aniqlang va jadvaldagi har bir rasmga mos raqam yozing:

1.Rasm asosida masala tuzing

2.Qisqa yozuv bo'yicha masala tuzing

3.Rasm va qisqa yozuv asosida masalani yeching

4. Rasm asosida masala tuzing yeching:

ISSN:
2181-3906

International scientific journal
«MODERN SCIENCE AND RESEARCH»
VOLUME 1 / ISSUE 3

| | |
|---|---|
|   | |
|   | |
| Rustamda – 3 ta quyon<br>Saidda–? , 2 ta quyon кam | |
|   | |

2) Onasi 3 ta ko‘ylak tikdi. Qizi esa undan 2 ta ortiq ko‘ylak tikdi. Qizi nechta ko‘ylak tikdi? Masala turlarini aniqlang va jadvalga har bir rasmga mos raqam yozing.

1. Qisqa yozuv ko’rinishida
2. Shartli rasm, chizma
3. Masala shartini chizma yordamida tasvirlash
4. Masala shartini kesma yordamida tasvirlash

Matematik ta’lim jarayonini tashkil etishda uning asosiy sub’ektlaridan biri hisoblangan o’quvchilarning yosh hususiyatlari, qiziqishlari, tasavvuri, tafakkuri, fikrlashi kabilarni hisobga olish muhim hisoblanadi**.** Nostandart ko’rinishdagi masalalarni yechish orqali o’quvchilarning bunday qobiliyatlarini rivojlantiriladi, kundalik turmushda turli vaziyatlardagi masalalarni hal etish uquvini shakllantiradi

**REFERENCES** ‘

1. Bikbayeva N.U., Sidelnikova R.I ., Adambekova G.A.”Boshlang’ich sinflarda matematika o’qitish metodikasi” darslik.”O’qitivchi”.Toshkent-1996.
2. Jumayev M.E., “Matematika o’qitish metodikasidan praktikum” o’quv qo’llanma.”O’qituvchi”.Toshkent-2004.
3. Abdullaeva B.C.Sadikova A.V.,Xamedova N.A.,Toshpo‘latova M.I. Boshlang‘ich matematika kursi nazariyasi //- T., “Tafakkur bo‘stoni”.2018- B. 498
4. Tojiyev M., Bapakaev M. Matematika o‘qitish metodikasi. - T.: “Fan va texnologiyalar”, 2017, b.328

# ПРИМЕНЕНИЯ ВЫЧЕТОВ ДЛЯ А - АНАЛИТИЧЕСКИХ ФУНКЦИИ

**Аноров Обиджон Умаралиевич**
Ассистент. Ташкентский государственный транспортный университет
www.anorovobidjon6@gmail.com
**Султанова Фатимахон Эргашевна**
Ассистент. Ташкентский государственный транспортный университет.
www.Fatimakhon75@mail.ru
https://doi.org/10.5281/zenodo.7545412

***Аннотация.*** *В статье рассматривается использование вычетов для А-аналитических функций. Примеры и анализ даны на протяжении всей статьи.*

***Ключевые слова:*** *функции, пример, анализ, результат, остаток.*

## APPLICATIONS OF RESIDUES FOR A-ANALYTIC FUNCTIONS

***Abstract.*** *The article considers the use of residues for A-analytic functions. Examples and analysis are given throughout the article.*

***Key words:*** *functions, example, analysis, result, remainder.*

Пусть $A-$антианалитическая, $\partial A=0$, в области $D\subset C$ и такая, что $\left|A(z)\right|\le C<1,\ \forall z\in D.$ Положим

$$D_A=\frac{\partial}{\partial z}-\bar{A}(z)\frac{\partial}{\partial\bar{z}},\quad \bar{D}_A=\frac{\partial}{\partial\bar{z}}-A(z)\frac{\partial}{\partial z}\ .$$

**Определение 1.** Функция $f\in C^1(D)$ называется $A$-*аналитической* в $D$, если для всех $z\in D$

$$\bar{D}_A f(z)=0.$$

Тогда согласно (1) класс аналитических функций $f(z)\in O_A(D)$ характеризуется тем, что $\bar{D}_A f(z)=0.$ Так как антианалитическая функция является бесконечно гладкой, то вытекает (см.[1]), что $O_A(D)\subset C^\infty(D).$

Так как область $D-$односвязная и $\bar{A}(z)-$голоморфная функция, то интеграл $I(z)=\int\limits_{\gamma(\xi,z)}\bar{A}(\tau)d\tau$ не зависит от пути интегрирования; он совпадает с первообразной $I'(z)=\bar{A}(z).$ Функция $\psi(z,\xi)=z-\xi+\overline{\int\limits_{\gamma(\xi,z)}\bar{A}(\tau)d\tau}$ является $A-$*аналитической* в области $D$, имеет единственный простой ноль в точке $z=\xi$. Она осуществляет внутреннее отображение. В частности, множество

$$L(\xi,r)=\left\{z\in D:\ \left|\psi(z,\xi)\right|=\left|z-\xi+\overline{\int\limits_{\gamma(\xi,z)}\bar{A}(\tau)d\tau}\right|<r\right\},\ r>0,$$

представляет собой открытое множество в $D$. Для достаточно маленьких $r$ оно компактно принадлежит $D$ и содержит точку $\xi$. Такое множество называется $A-$

*лемнискатой, с центром в точке* $\xi$ и обозначается как $L(\xi,r)$. $A-$лемниската является односвязной областью (см. [2]).

**Определение 2.** Точка $a \in \mathbb{C}$ называется *изолированной особой точкой функции* $f(z)$, если существует такая проколотая окрестность лемниската этой точки (т. е. множество $0<|\psi(z,a)|<r$), если точка $a$ конечна, или множество $R<|z+A\bar{z}|<\infty, A\equiv const, |A|<1$ если $a=\infty$ , в которой функция $f(z)$- $A-$ аналитическая.

**Определение 3.** Изолированная особая точка $a$ функции $f(z)$ называется

1) *устранимой точкой*, если существует конечный

$$\lim_{z\to a} f(z)=B$$

2) *полюсом*, если существует

$$\lim_{z\to a} f(z)=\infty$$

3) *существенно особой точкой*, если $f(z)$ не имеет ни конечного, ни бесконечного предела при $z\to a$.

**Теорема 1.**

**Теорема 2.** (*разложение в ряд Лорана, см.* [3]). *Пусть* $f(z)-A$ *аналитическая в кольце из лемнискат:* $f(z)\in O_A(L(a,R)\setminus L(a,r))$, $r<R$. *Тогда в этом кольце* $f(z)$ *разлагается в ряд Лорана:*

$$f(z)=\sum_{k=-\infty}^{\infty} c_k\psi^k(z,a), \qquad (1)$$

*где коэффициенты ряда определяются по формуле*

$$c_k=\frac{1}{2\pi i}\int_{\partial L(a,\rho)}\frac{f(\xi)}{[\psi(\xi,a)]^{k+1}}\left(d\xi+A(\xi)d\bar{\xi}\right), r<\rho<R,\ k=0,\pm1,....$$

*Ряд (5) сходится равномерно внутри кольца*

$$L(a,R)\setminus\overline{L(a,r)}=\{z\in D:\ r<|\psi(z,a)|<R\}.$$

**Теорема 3.** (см. [5]) *Если точка* $a$ *является нулем* $A$- *аналитической функции* $f(z)$, *не равной тождественно нулю ни в какой окрестности* $L(a,r)$, *то существует такое натуральное число* $n$, *такое что*

$$f(z)=\left(z-a+\overline{\int_{\gamma(z,a)}\overline{A(\tau)}d\tau}\right)^n\varphi(z),$$

*где функция* $\varphi(z)$ *является* $A$- *аналитической в точке* $a$ *и отлична от нуля в некоторой окрестности этой точки.*

ISSN: 2181-3906

International scientific journal
«MODERN SCIENCE AND RESEARCH»
VOLUME 1 / ISSUE 3

*Изолированная особая точка* $a \in \mathbb{C}$ *функции* $f(z)$ *является устранимой в том и только том случае, если Лорановское разложение* $f(z)$ *в окрестности* $a$ *не содержит главной части:*

$$f(z)=\sum_{k=0}^{\infty} c_k \left( z-a+\overline{\int_{\gamma(z,a)} \overline{A(\tau)}d\tau} \right)^n .$$

*Изолированная особая точка* $a \in \mathbb{C}$ *функции* $f(z)$ *является полюсом в том и только том случае, если главная часть Лорановского разложения* $f(z)$ *в окрестности точки* $a$ *содержит лишь конечное (и положительное) число отличных от нуля членов:*

$$f(z)=\sum_{n=-N}^{\infty} c_n \left( z-a+\overline{\int_{\gamma(z,a)} \overline{A(\tau)}d\tau} \right)^n .$$

Пусть $D$ область у которой $\partial D$-гладкая или кусочно-гладкая и $f \in O_A\left(D \setminus \{a_1,...,a_n\}\right) \cap C\left(\bar{D}\right)$ , где $a_1,...,a_n$ конечные числа изолированной особой точки. Пусть $G_r=\left\{z\in D: \inf\limits_{\xi\in\partial D}|z-\xi|>r\right\}\subset D$ и $r$ удовлетворяет следующие условия: $L(a_k,r)\cap L(a_j,r)=\varnothing$ и $\bigcup\limits_{k=1}^{n} L(a_k,r)\subset G_r$ . Тогда $\partial G_r$ -произвольный кусочно-гладкий замкнутый контур, содержащий внутри себя точки $a_1,...,a_n$ и целиком лежащий в области $D$ . Так как функция $f$ является **A** -аналитической в каждой точке замкнутой области, ограниченный сложным контуром $G_r \setminus \left(\bigcup\limits_{k=1}^{n} L(a_k,r)\right)$, то по теореме Коши имеем равенство

$$\oint_{\partial G_r} f(\xi)\left(d\xi+A(\xi)d\bar{\xi}\right)=\sum_{k=1}^{n}\oint_{\partial L(a_k,r)} f(\xi)\left(d\xi+A(\xi)d\bar{\xi}\right)$$

**Определение 4.** Интеграл от функции $f(z)$ по достаточно малой *A*-лемнискатой $L(a,r)$ , деленный на $2\pi i$ называется вычетом $f(z)$ в точке $a$ для А-аналитической функции

$$\operatorname*{res}_{z=a}{}_A f(z)=\frac{1}{2\pi i}\oint_{\partial L(a,r)} f(\xi)\left(d\xi+A(\xi)d\bar{\xi}\right). \qquad (2)$$

Тогда имеет место следующий аналог теоремы Коши о вычетах для *A*- аналитических функции.

**Теорема 4 .** Пусть функция *f*(*z*) является *A*-аналитической всюду, за исключением изолированного множества особых точек и области $G \subset\subset D$ а ее граница $\partial G$ не содержит особых точек, тогда

$$\oint_{\partial G_r} f(\xi)\left(d\xi + A(\xi)d\bar{\xi}\right) = 2\pi i \sum_{k=1}^{n} \underset{z=a_k}{res_A} f(z)$$

**Теорема 5.** Вычет функции $f(z)$ в изолированной особой точке $a \in D$ равен коэффициенту при минус первой степени $\psi(z,a)$ в ее Лоранском разложении в окрестности точки $a$ с $A$–лемнискатой $L(a,r)$ :

$$\underset{z=a}{res_A} f(z) = c_{-1}$$

*Доказательство*. Мы знаем, что

$$\oint_{\partial L(a,r)} \psi(z,a)^n \left(d\xi + A(\xi)d\bar{\xi}\right) = \begin{cases} 2\pi i, n = -1 \\ 0, n \in Z \setminus \{-1\} \end{cases}$$

Тогда из равенства 2 интегрируемой по границе $\partial L(a,r)$ и по мере $d\xi + A(\xi)d\bar{\xi}$ получаем, что $\oint_{\partial L(a,r)} f(\xi)\left(d\xi + A(\xi)d\bar{\xi}\right) = 2\pi i c_{-1}$.

**Теорема 6**. Для мероморфной функции $R(x,y)$ и множества $L(a,r) \subset\subset D$ имеет место равенство

$$\int_0^{2\pi} R(\sin t, \cos t)dt = 2\pi \sum_{a_k \in L(a,r)} \underset{z=a_k}{res_A} \frac{R\left(\dfrac{\psi(z,a)^2 + r^2}{2r\psi(z,a)}, \dfrac{\psi(z,a)^2 - r^2}{2ir\psi(z,a)}\right)}{\psi(z,a)}.$$

*Доказательство*. Рассмотрим границу $L(a,r)$ . На границе $\partial L(a,r)$ имеет место следующее равенство

$$\psi(z,a) = re^{it}, \overline{\psi(z,a)} = re^{-it}, d\psi(z,a) = d\xi + A(\xi)d\bar{\xi} = rie^{it}dt = i\psi(z,a)dt$$

Отсюда следует, что $dt = \dfrac{d\psi(z,a)}{i\psi(z,a)}$,

$$\cos t = \frac{e^{it} + e^{-it}}{2} = \frac{\dfrac{\psi(z,a)}{r} + \dfrac{r}{\psi(z,a)}}{2} = \frac{\psi(z,a)^2 + r^2}{2r\psi(z,a)},$$

$$\sin t = \frac{e^{it} - e^{-it}}{2i} = \frac{\dfrac{\psi(z,a)}{r} - \dfrac{r}{\psi(z,a)}}{2i} = \frac{\psi(z,a)^2 - r^2}{2ir\psi(z,a)}$$

По теорему 4 имеем

$$\int_0^{2\pi} R(\sin t, \cos t)dt = \oint_{|\psi(z,a)|=r} \frac{R\left(\dfrac{\psi(z,a)^2 + r^2}{2r\psi(z,a)}, \dfrac{\psi(z,a)^2 - r^2}{2ir\psi(z,a)}\right)}{i\psi(z,a)} d\psi(z,a) =$$

$$=2\pi\sum_{a_k\in L(a,r)}\underset{z=a_k}{res_A}\frac{R\left(\frac{\psi(z,a)^2+r^2}{2r\psi(z,a)},\frac{\psi(z,a)^2-r^2}{2ir\psi(z,a)}\right)}{\psi(z,a)}$$

Теорема доказано.

После такого изменения вышеуказанная теорема будет справедлива и для случая $a=\infty$ и $A=const$. Этот результат можно получить при помощи замены переменного $z=\frac{1}{w}$. Если обозначить $f(z)=f\left(\frac{1}{w}\right)=g(w)$ то, очевидно, $\lim\limits_{z\to\infty}f(z)=\lim\limits_{w\to\infty}g(w)$ и поэтому $g$ имеет в точке $w=0$ ту же особенность, что $f$ в точке $z=\infty$. Например, в случае полюса $g$ имеет в $V=\left\{0<\left|z+A\bar{z}\right|<r\right\}$ разложение

$$g(w)=\frac{c_{-N}}{\left(z+A\bar{z}\right)^N}+\ldots+\frac{c_{-1}}{z+A\bar{z}}+c_0+c_1\left(z+A\bar{z}\right)+c_2\left(z+A\bar{z}\right)^2+\ldots$$

заменяя здесь $w=\frac{1}{z}$, получим разложение в кольце лемнискате $V'=\left\{\frac{1}{r}<\left|z+A\bar{z}\right|<\infty\right\}$

$$f(z)=\ldots+\frac{b_{-2}}{\left(z+A\bar{z}\right)^2}+\frac{b_{-1}}{z+A\bar{z}}+b_0+b_1\left(z+A\bar{z}\right)+\ldots+b_N\left(z+A\bar{z}\right)^N$$

где $b_n=c_{-n},b_N\neq0$. Дадим определение вычета в бесконечности.

**Определение 5.** Пусть функция $f$ имеет в точке $a=\infty$ свою изолированную особую точку. *Вычетом в бесконечности* называется данная величина

$$\underset{z=\infty}{res}\,f(z)=\frac{1}{2\pi i}\oint_{\left|z+A\bar{z}\right|=R}f(z)\left(dz+Ad\bar{z}\right),$$

где лемниската достаточно большого радиуса, проходящая по часовой стрелке.

**Аналог леммы Жордана**. Пусть $f:D\to\mathbb{C}$ А-аналитическая в области $D=\left\{z\in C:\left|z+A\bar{z}\right|>0\right\}$ всюду, за исключением изолированного множества особых точек, и $M(R)=\sup\left\{\left|f(z)\right|:\left|z+A\bar{z}\right|=R,\operatorname{Im}\left(z+A\bar{z}\right)\geq0\right\},\lim\limits_{R\to\infty}M(R)=0$. Тогда для любого $\lambda>0$ имеет место равенство

$$\lim_{R\to\infty}\int_{\gamma_R}f(z)e^{i\lambda(z+A\bar{z})}\left(dz+Ad\bar{z}\right)=0,$$

где $\gamma_R=\left\{z\in\mathbb{C}:\left|z+A\bar{z}\right|=R,\operatorname{Im}\left(z+A\bar{z}\right)\geq0\right\}$.

*Доказательство*. Обозначим через $\gamma'_R=\left\{z+A\bar{z}=\operatorname{Re}^{it},0\leq t\leq\frac{\pi}{2}\right\}$ и $\gamma''_R=\left\{z+A\bar{z}=\operatorname{Re}^{it},\frac{\pi}{2}\leq t\leq\pi\right\}$. По неравенстве Жордана (т.е. $\sin t\geq\frac{2}{\pi}t,\forall t\in\left[0;\frac{\pi}{2}\right]$) и по равенстве $\left|dz+Ad\bar{z}\right|=\left|d\left(z+Ad\bar{z}\right)\right|=Rdt$ имеем

$$\left|\int_{\gamma'_R} f(z)e^{i\lambda(z+A\bar{z})}(dz+Ad\bar{z})\right| \le \int_{\gamma'_R} |f(z)|\left|e^{i\lambda(z+A\bar{z})}\right||dz+Ad\bar{z}| = \int_0^{\frac{\pi}{2}} |f(z)|e^{-\lambda R\sin t}Rdt \le$$

$$\le RM(R)\int_0^{\frac{\pi}{2}} e^{-\lambda R\frac{2}{\pi}t}dt = M(R)\frac{\pi}{2\lambda}\left(1-e^{-\lambda R}\right)\xrightarrow[R\to\infty]{}0.$$

По неравенстве Жордана $\sin(\pi - t) \ge \frac{2}{\pi}(\pi - t)$ для всех $t \in \left[\frac{\pi}{2}, \pi\right]$. Тогда аналогично можно показать, что

$$\left|\int_{\gamma'_R} f(z)e^{i\lambda(z+A\bar{z})}(dz+Ad\bar{z})\right| \le M(R)\frac{\pi}{2\lambda}\left(1-e^{-\lambda R}\right)\xrightarrow[R\to\infty]{}0.$$

Значит

$$\left|\int_{\gamma_R} f(z)e^{i\lambda(z+A\bar{z})}(dz+Ad\bar{z})\right| \le \left|\int_{\gamma'_R} f(z)e^{i\lambda(z+A\bar{z})}(dz+Ad\bar{z})\right| + \left|\int_{\gamma''_R} f(z)e^{i\lambda(z+A\bar{z})}(dz+Ad\bar{z})\right| \le$$

$$\le \frac{\pi M(R)}{\lambda}\left(1-e^{-\lambda R}\right)\xrightarrow[R\to\infty]{}0$$

Лемма доказано.

**Теорема 7**. Если $f \in O(\mathbb{C} \setminus \{a_1, a_2, ..., a_n\})$, $f|_{\mathbb{R}}$ -действительная функция и $\lim\limits_{R\to\infty} R \max\limits_{|z+A\bar{z}|=R} |f(z)| = 0$, то имеет место равенство

$$\int_{-\infty}^{+\infty} f(x)dx = 2\pi i \sum_{a_k \in \{\mathrm{Im}(z+A\bar{z})\ge 0\}} \underset{z=a_k}{res_A} f(z+A\bar{z})$$

*Доказательство*. Функция $f(z+A\bar{z})$ А-аналитическая в области $D = \{z \in C : |z+A\bar{z}| > 0\}$ всюду, за исключением изолированного множества особых точек. По теореме 4

$$\int_{-R}^{R} f(x)dx + \int_{\gamma_R} f(z+A\bar{z})(dz+Ad\bar{z}) = \oint_{\Gamma_R} f(z)(dz+Ad\bar{z}) = 2\pi i \sum_{a_k \in \{\mathrm{Im}(z+A\bar{z})\ge 0\}} \underset{z=a_k}{res_A} f(z+A\bar{z})$$

где $\Gamma_R = \{z \in \mathbb{C} : |z+A\bar{z}| = R, \mathrm{Im}(z+A\bar{z}) \ge 0\} \cup \{z \in \mathbb{C} : |z+A\bar{z}| \le R, \mathrm{Im}(z+A\bar{z}) = 0\}$. Теперь мы покажем, что $\int_{\gamma_R} f(z+A\bar{z})(dz+Ad\bar{z})\xrightarrow[R\to 0]{}0$.

$$\left|\int_{\gamma_R} f(z+A\bar{z})(dz+Ad\bar{z})\right| \le \int_{\gamma_R} |f(z+A\bar{z})||dz+Ad\bar{z}| \le M(R)\int_0^{\pi} Rdt = \pi RM(R)\xrightarrow[R\to 0]{}0$$

Теорема доказана.

**Следствие**. Если $P, Q$ -многочлен и $\deg Q \ge \deg P + 2$, то имеет место равенство

$$\int_{-\infty}^{+\infty} \frac{P(x)}{Q(x)}dx = 2\pi i \sum_{a_k \in \{\mathrm{Im}(z+A\bar{z})\ge 0\}} \underset{z=a_k}{res_A} \frac{P(z+A\bar{z})}{Q(z+A\bar{z})}.$$

**REFERENCES**

1. Векуа И.Н. Обобщенные аналитические функции, М., «Наука», 1988, 512 с.
2. Жабборов Н.М., Отабоев Т.У. Аналог интегральной формулы Коши для $A$-аналитических функций, Узбекский математический журнал, 2016, №4, стр. 50-59.
3. Sadullaev A.,Jabborov N.M. On a class of A-analytic functions, Siberian Federal University, Maths&Physics, 2016 y 9(3), c. 374-383.
4. Шабат Б.В. Введение в комплексный анализ, М. Наука, 1976г.

# BOSHLANG'ICH SINF DARSLARINI SAMARALI TASHKIL ETISHDA QO'LLANILADIGAN INTERFAOL METODLAR

**Mirvohidova Fotima Abbosovna**
Toshkent shahar Mirzo Ulug'bek tumani
286 - sonli maktab Boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7545430

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada boshlang'ich sinf darslarini samarali tashkil etishda qo'llaniladigan metodlar va ularning ahamiyati borasida ma'lumotlar o'z aksini topadi.*

***Kalit so'zlar:*** *Interfaol metodlar va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llash, o'yin-topshiriq, mustaqil fikrlash, ijodiy izlanish va mantiqiy fikrlash.*

## ИНТЕРАКТИВНЫЕ МЕТОДЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ В ЭФФЕКТИВНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ ЗАНЯТИЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

***Аннотация.*** *В данной статье отражена информация о методах, используемых в эффективной организации занятий в начальной школе и их значении.*

***Ключевые слова:*** *использование интерактивных методов и информационных технологий в учебном процессе, игровое задание, самостоятельное мышление, творческое исследование и логическое мышление.*

## INTERACTIVE METHODS USED IN EFFECTIVE ORGANIZATION OF PRIMARY CLASS LESSONS

***Abstract.*** *In this article, information about the methods used in the effective organization of primary school classes and their importance is reflected.*

***Keywords:*** *use of interactive methods and information technologies in the educational process, game - assignment, independent thinking, creative research and logical thinking.*

Ma'lumki, ta'limda ilg'or pedagogik va yangi axborotlar texnologiyalarini tatbiq etish o'quv mashg'ulotlarining samaradorligini oshiribgina qolmay, ilm-fan yutuqlarini amaliyotda qo'llash orqali mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, har tomonlama barkamol yuksak ma'naviyatli shaxsni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol metodlar va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda. Bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchilar faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish esa ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topish, mustaqil o'rganish va fikrlash, tahlil qilish, hatto yakuniy xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishga o'rgatadi.

Dars mashg'ulotlarida o'yin-topshiriqlarni takrorlash yoki mustahkamlash darslarida foydalanilsa ijobiy natija beradi. O'yin-topshiriqning qaysi bir turini tanlash darsning turiga, sinf o'quvchilarining o'yin-topshiriqlarni bajarishga o'rgatilganlik darajasi, ularning bilim saviyasi, mustaqil ijodiy ishlash imkoniyatlari, o'rganilganlarni xotirada tez tiklay olishi, ijodkorlikning qay darajada shakllanganiga ham bog'liq bo'lishi kerak.

Ta'limda o'quvchi shaxsini fikrlashga, o'zgalar fikrini anglash va shu fikrni og'zaki hamda yozma shaklda savodli bayon eta olishga o'rgatish masalasiga e'tibor qaratilgan bo'lib, mustaqil fikrlaydigan, nutq madaniyati rivojlangan savodxon shaxsni kamol toptirish asosiy o'rin egallaydi. Millatning turmush tarzi, madaniy yaratuvchanligi uning boy tarixiy merosi asosida o'rganiladi.

Bugungi kun o'qituvchidan ilg'or pedagogik va yangi axborotlar texnologiyalaridan o'quv jarayonida foydalanishni talab etmoqda. Yuqoridagilardan kelib chiqib, tajribalarimiz asosida dars mashg'ulotlarida interfaol metodlarni qo'llash orqali ta'lim-tarbiya berish yo'llariga doir fikrlarimizni bayon etamiz. O'ylaymizki, u o'quv mashg'ulotlari samaradorligini oshirishda hamkasblarimizga amaliy yordam beradi.

Shuningdek, o'quvchilarni o'z yo'nalishini tanlash va mustaqil hayotga tayyorgarlik ko'nikmalarini shakllantirishdek mas'uliyatli vazifani bajarishda ularning yaqin ko'makchilardan biriga aylanadi. Quyida sinflar kesimida ayrim mavzular asosida o'qitishning zamonaviy usullarini tatbiq etish bo'yicha tavsiyalar beramiz.

Siz undan ijodiy yondashgan holda foydalanasiz va birinchi prezidentimizning: «Har qarichi muqaddas bo'lgan ona yerimizga nisbatan farzandlarimizda g'urur va iftixor, sadoqat tuyg'ularini uyg'otish uchun biz bugun nima qilyapmiz, degan savolga javob izlab ko'raylik» - degan fikrlariga javoban ta'lim va tarbiya berishning zamonaviy usullarini tatbiq etish orqali ko'zlangan maqsadga erishishga o'z hissangizni qo'shasiz degan umiddamiz.

**"Kamalak jilosi"** metodini boshlang'ich sinflar uchun qo'llash maqsadga muvofiqdir. Mazkur metoddan ona tili, matematika va o'qish darslarida ham foydalanish mumkin. Masalan: ona tili darslarida so'zlarni turkumlarga ajratishda qo'g'irchoq, mashina, kuldi, yig'ladi, sariq, katta, kichik, to'qqiz kabi so'zlarni turkumlarga ajratish va ot so'z turkumiga doir so'zlarni ko'k rangli chiziqqa joylashtirish, sifat so'z turkumidagi so'zlarni havo rang chiziqqa joylashtirish vazifasi beriladi.

Matematika darsida sonlarni xona birliklariga ajratish davomida ushbu metodni qo'llash mumkin. Ya'ni, kamalakning birinchi rangini bir xonali son deb oladigan bo'lsak, ikkinchi qatordagi rangi ikki xonali songa misol bo'la oladi.

"Kamalak jilosi" metodi orqali bolalarda quyidagi bilim, ko'nikma, malakalar va sifatlar shakllanadi:

- o'quvchi ranglar orqali so'zlarning qaysi turkum doirasiga kirishini eslab qoladi;
- o'quvchida tabiat hodisalari haqidagi tasavvurlar paydo bo'ladi, ularda atrofmuhit va tabiatga muhabbat, uni asrab-avaylash ko'nikmalari shakllanadi;
- o'quvchilarning dunyoqarashi va tasavvur doirasi kengayadi, diqqatni jamlash, fikrlash, zehnlilik va topqirlik qobiliyatlari rivojlanadi.

**"Krossvord"** metodi avvaldan qo'llanilib kelinayotgan metodlardan biri bo'lib, uni har bir sinfning far bir darsligida uchratishimiz mumkin. Krasswordlarni tayyorlashda, asosan, axborot-kommunikatsiya texnologiya vositasi bo'lgan kompyuterning Microsoft Word dasturidan foydalaniladi. Ammo, kompyuterning Microsoft Excell dasturi orqali tayyorlangan krasswordlar avvalgilariga qaraganda, samaraliroq natija berishini ko'rish mumkin.

To'g'ri, Microsoft Excell dasturi biroz murakkab hamda formulalar asosida ishga tushiriladi, biroq, o'qituvchilarning axborot - kommunikatsiya texnologiyalari doirasidagi bilimlarni egallagan bo'lishlari davr talabidir.

Boshlang'ich sinflarda interfaol metodlar va ta'limiy o'yinlardan, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, ijodiy izlanish va mantiqiy fikrlash doiralarini kengaytirish bilan birga ularni darslarda o'rganganlarini hayot bilan bog'lashga, qiziqishlarini oshirishga yordam beradi. O'qituvchilarning bunday zamonaviy talablar asosida yaratilgan sharoitlardan samarali foydalanib, darslarni ilg'or

pedagogik hamda axborot kommunikatsiya texnologiyalari asosida tashkil etilishi ta'lim-tarbiya jarayonini sifatini kafolatlaydi.

## REFERENCES

1. Shadrikov, V.D. Qobiliyatlarning rivojlanishi // Boshlang'ich maktab. -№5, 2004 yil.
2. Davydov, V.V. Ta'limni rivojlantirish muammolari / V.V. Davydov. - M., 2016 yil.
3. G'. Yo'ldoshev, S.A. Usmonov. Pedagogik texnologiya asoslari. — T.: O'qituvchi, 2004.

# ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИГР НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

**Мусаева Дилором Бегматовна**
Учитель русского языка 11 школ города Алматы Ташкентской области
https://doi.org/10.5281/zenodo.7545443

***Аннотация.*** *В этой статье анализируется игры на уроках русского языка и литературы.*

***Ключевые слова:*** *новейшие технологии, умение, навык, активное мышление, логика, мышление, речь, внимательность.*

# USE OF GAMES IN RUSSIAN LANGUAGE AND LITERATURE LESSONS

***Abstract.*** *This article analyzes the games in the lessons of the Russian language and literature.*

***Keywords:*** *latest technologies, skill, skill, active thinking, logic, thinking, speech, mindfulness.*

Применение новейших технологий в преподавании русского языка – это необходимость, так как они способствуют совершенствованию практических умений и навыков, повышают интерес к урокам рус-ского языка. Основная задача каждого учителя русского языка – добиться активного мышления, заинтере-совать детей к своему предмету. Ведь ученик учится с удовольствием до тех пор, пока ему интересен урок. Учителя не должны дублировать свои уроки. А для этого нужно, чтобы учитель сам знал и любил свой предмет, вносил в него новые элементы.

Игра для ребенка является привычной формой деятельности. Использование игр развивает у детей логику, мышление, речь, внимательность, учит их дружбе, воображению, наблюдательности. Игра на уроке может стать очень серьезным занятием. В этом случае за внешней кажущейся легкостью использо-вания элементов игровых технологий на уроке стоит кропотливая подготовительная работа учителя.

Игра наряду с трудом и ученьем – один из основных видов деятельности человека. Большинству игр присущи четыре главные черты:

– свободная развивающая деятельность, предпринимаемая лишь по желанию ребенка, ради удо-вольствия от самого процесса деятельности, а не только от результата;

– творческий, в значительной мере импровизированный, очень активный характер этой деятельно-сти;

– эмоциональная приподнятость деятельности, соперничество, состязательность, конкуренция;

– наличие прямых или косвенных правил, отражающих содержание игры, логическую временную последовательность ее развития.

По форме использования на уроке и содержанию игры делятся на дидактические, интеллектуаль-ные, подвижные и так далее. Игра является основой познания мира детьми. Поэтому нужно включать в уроки игровые моменты, которые помогут в непринужденной форме изучить материал. Интерактивные игры на уроках русского языка используются с успехом для учащихся любых возрастов. Но, а для более качественного освоения материала по русскому языку можно использовать дидактические игры, которые помогают учителю ввести в урок элемент соревнования, а также служит необходимым ресурсом для наглядного усвоения нового материала или закрепление пройденного.

ISSN:
2181-3906

International scientific journal
«MODERN SCIENCE AND RESEARCH»
VOLUME 1 / ISSUE 3

На уроках русского языка можно использовать и применять дидактические материалы, иллюстра-ции, картинки, загадки, карточки, ребусы. Задавая тот или иной вопрос, можно учить детей дать полный и точный ответ, что развивает словарный запас учащихся.

Некоторые дидактические игры и игровые приёмы, которые можно использовать на уроках рус-ского языка:

Кто чей ребенок? Указать стрелками:

Лошадь цыпленок

Корова жеребенок

Курица теленок

Игра **“Найди букву”,** например: б.н.н (банан), т… кв.(тыква), ш.о.л.(школа). и т.д.

Игра **“Путаница”** -рабуз-арбуз, онкфеты-конфеты, калей-лейка, бейрово-воробей; фельтроп(порт-фель), мальбо(альбом), мигазиян(гимназия), динаро(Родина), цояй(яйцо)

Игра **“Наборщик”** – на каждую букву записать по одному слову;

Книга: к – кошка; н – нос; и-иголка; г – гусь; а – арбуз;

Составить слова из слогов: мо, ко, ло; (молоко); а, син, пель (апельсин); ре, за, бе (береза); ко, ло, яб (яблоко); ведь, мед (медведь) и т.д.

Отгадай слова: BLGEUCRHA – ВЕСНА; SDYFVTRKLA – УТКА: ГWUPZУШFA-ГРУША; такие игры развивают наблюдательность, внимательность, учат различать и находить “лишние” буквы;

Исправь ошибки:

верблют(д), каза(о), ачки(о), званок(о), агарот(о, о, д), загатка(д), даска(о), сонце(л), гарох(о), вну-шка(ч), ана(о), крушка(ж);

Усложненные виды заданий: “Анаграмма” путем перестановки букв образовать новые слова. Здесь дети узнают новые слова

Лес – сел; ложка-жалко; насос-сосна; банка-кабан; крот-корт; лама-мала, Казан – наказ;

“Кто где живет?” соотнести стрелками:

Медведь нора

Белка берлога

Лиса дупло

Такого рода игры, головоломки, ребусы развивают словарный запас учащихся и расширяют их кру-гозор. Откаждого такого урока они несутвсебеогромный эмоциональныйзарядэнергии. У нихразвивают такие качества как инициатива, настойчивость и самое главное целеустремлённость.

В коллективных играх формируется такое качество как нравственность. В ходе игры дети учатся быть одной командой, учатся помогать товарищу, у каждого появляется чувство ответственности перед всем классом.

Воспитывается воля к победе, открывается другое мировоззрение, а главное – интерес и любовь к русскому языку. Игры на уроках русского языка применяются как средство обучения и отлича-ются от других средств тем, что вызывают у детей живой интерес и активное участие. Применение таких игр на уроках является методом оправданным, поскольку они выполняют ряд важных учебных и развива-ющих функций.

**REFERENCES**

1. Брандвик М. Л. и Макнайт К. С. Руководство по выживанию учителя английского языка: готовые к использованию методики и материалы для 7-12 классов. Джосси-бас-гитара
2. Сэндфорд Р., Уличак М., Фейсер К. и Радд Т С использованием коммерческого готового компьютера. игры в формальном образовании". Восстановлено 28-10-2011 из http://www2.futurelab.org.uk/resources/documents/project_reports/teaching_with_games/TWG_report.pdf>, 2005.
3. Харнад С., Ланкастер Дж. Б. и Стеклис Х. Д. "Индукция, оценка и подотчетность", Происхождение и эволюция языка и речи. Нью-Йорк: Нью-Йоркская академия наук, 1976
4. Хейлз, Н.К. "Электронная литература: новые горизонты для литературоведения". Нотр-Дам: Университет 1. Издательство Нотр-Дам Пресс, 2008.

# ЭРКАК / АЁЛ НУТҚИДАГИ ЭМОТИВ ЖУМЛАЛАР

**Боймуродов Ғолиб**
мустақил тадқиқотчиси

https://doi.org/10.5281/zenodo.7229271

***Аннотация.*** *Ушбу мақолада эркак ва аёл нутқининг назарий жиҳатдан ҳар қандай ҳис-туйғуларни ҳар қандай коммуникатив йўналиш ифодаси ёрдамида ифодаланиши ва эмотив гапларнинг умумий хусусияти бу – ёзувда ундов белгиси билан етказилган ўзига хос интонацияси, ҳамда ёзма нутқнинг ундов гаплардаги ҳиссиётлилиги борасида қисқача ёритилган.*

***Калит сўзлар****: эркак ва аёл нутқи, ҳис-туйғулар, коммуникатив йўналиш, ёзма нутқ, ундов гаплар, ҳиссиётли, жумла, дарак, ундовчи, сўроқ гаплар, эмотив, таҳлил қилиш, ҳис-туйғулар, журналистик интервьюлар таҳлили, тилшунослар.*

# ЭМОЦИОНАЛЬНЫЕ ПРЕДЛОЖЕНИЯ В МУЖСКОЙ/ЖЕНСКОЙ РЕЧИ

***Аннотация.*** *В данной статье теоретически выражение любых чувств в речи мужчин и женщин с помощью выражений любой коммуникативной направленности, а общей чертой эмотивных предложений является специфическая интонация, передаваемая восклицательным знаком на письме, и эмоциональность кратко поясняется письменная речь в восклицательных предложениях.*

***Ключевые слова:*** *мужская и женская речь, эмоции, коммуникативная направленность, письменная речь, восклицательные предложения, эмоциональный, предложение, образ, восклицательные, вопросительные предложения, эмотив, анализ, эмоции, анализ журналистских интервью, лингвисты.*

# EMOTIVE SENTENCES IN MALE / FEMALE SPEECH

***Abstract.*** *In this article, the theoretical expression of any emotion in any communicative direction is expressed in male and female speech, and the general feature of emotive sentences is the specific intonation conveyed by exclamation marks in writing, as well as the emotionality of written speech in exclamation sentences.*

***Key words:*** *male and female speech, emotions, communicative direction, written speech, exclamatory sentences, emotional, sentence, image, exclamatory, interrogative sentences, emotive, analysis, emotions, analysis of journalistic interviews, linguists.*

## КИРИШ

Синтактик даражадаги эмотив муаммосини кўриб чиқаётиб, замонавий тилшунослик ундов гапларни бошқа коммуникатив турдаги гаплар – дарак, ундовчи, сўроқ гаплар билан бир қаторда қўймаслигини эслатиб ўтамиз. Назарий жиҳатдан ҳар қандай ҳис-туйғуларни ҳар қандай коммуникатив йўналиш ифодаси ёрдамида ифодалаш мумкин. Эмотив гапларнинг умумий хусусияти бу – ёзувда ундов белгиси билан етказилган ўзига хос интонациядир. Тадқиқотимиз ёзма нутқ асосида олиб борилганлиги боис, ундов белгиси жумланинг ҳиссиётлилиги борасида асосий белги бўлиб хизмат қилди. Эмотив жумлаларни таҳлил қилишда биз турли хил ҳис-туйғулар ва реакцияларни ифодаловчи эмотив дарак гап жумлаларини (улар шартли равишда oui, pop, si сўз бирикмаларини ҳам ўз ичига олади) ва илтимоснинг турғунлигини, бақувват мурожаатни ифодаловчи эмотив ундовчи жумлаларни ажратдик.

Эҳтимол, аёл нутқида ҳиссий жумлалар эркакникига қараганда кўпроқдек. Бироқ, биринчи бўлимда келтирилган маълумотлар, ҳиссиётнинг вазиятли шартлиликка тўла боғлиқлигини кўрсатади. Эслатиб ўтамиз, Г.Каннинг "Француз карикатурасида аёл" китобида эркак ташаббускорлар томонидан таклиф қилинган эмотив таклифлар сони баланд эди: 8 тага қарши 12. Бошқача қилиб айтганда, аёл камдан-кам ҳоллардагина эркак билан суҳбатни экскламатив сўзлар билан бошлайди. Шу билан бирга, репликаларнинг бутун ҳажмидаги (эркаклар – 52, аёллар – 51) ҳиссий баёнли жумлаларнинг умумий сони аёлларда сал кўп: аёллар – 19, эркаклар – 14. Шундай қилиб, деярли барча "эркак" ҳиссий жумлалар бир вақтнинг ўзида ташаббускор, “аёл” эмотив жумлалар эркакларнинг сўзига жавоб сифатида қаралиши мумкин:

Аёлларда эмоционал рағбатлантирувчи жумлалар сони эркакникига нисбатан икки баравар кам: 8 нисбатан 4. Бу, табиийки, эркакларнинг жамиятдаги мавқеи хусусиятлари билан боғлиқ.

Журналистик интервьюлар таҳлили шуни кўрсатдики, аёлларнинг жавобларида 50 та, эркакларнинг жавобларида 31 та эмотив жумлалар бор, яъни, 1,6 баравар кам. Аммо бу ҳолатдаги асосий фарқ бу – жавобдаги эмотив сўзнинг позициясидир: аёл нутқида, ҳаяжонли жумла журналистнинг саволига биринчи жавоб вазифасини бажаради, эркаклар нутқи учун бу ҳиссий гапнинг позицияси одатий эмас. Аёллардаги 50 та эмотив жумланинг ярмидан кўпи (27) жавоб ибора-репликалардир, эркакларда эса – атиги 4. Шундай қилиб, аёлларнинг жавобларида эмоционал реакция рационал баҳодан устун туради.

Тилшунослар таъкидлашларича, нутқнинг ҳиссий бойлиги ошгани сайин, иборанинг предмет-мантиқий мазмуни камроқ аниқланади, таркибий қисмлари орасидаги синтактик алоқалар заифлашади. Шу билан бирга, ундов сўзлари ва синтактик сегментация сўзловчи томонидан бошдан кечирилган юқори ҳис-туйғуни ифодалайди (Веденина, 1988:104). Аёлларнинг баъзи ҳиссий жавоблари бу жумланинг юқори даражада бўлинмаслиги билан тавсифланади:

Адабий асарларни таҳлил қилиш аёлларнинг ҳиссиётлари фойдасига аниқ жавоб бера олмайди. Юқорида таъкидлаб ўтилганидек, муаммо алоқанинг вазият шароитларини ҳисобга олишда. Шу билан бирга, аёл характерларида ҳиссиётли иборалар сони кўпроқ (адабий асарларнинг бутун ҳажмида): 808 га нисбатан 952. Биз эркак нутқида ҳиссий рағбатлантирувчи жумлаларнинг устунлигини топа олмадик (сўзловчининг устувор мавқеи кўрсатгичи сифатида). Бизнинг маълумотларга кўра, уларнинг 115 таси аёллар нутқида, 87 таси эркак нутқида. Шундай қилиб, таҳлил натижалари социолингвистик тадқиқотларда ситуацион хусусиятларнинг аҳамиятини таъкидлайди.

**REFERENCES**

1. Akhrorova R.U. Semantic analysis of phraseological units representing “youth” in French and Uzbek languages. Theoretical & Applied Science, – 2021. № 7. – P. 122-126.
2. Akhrorova R.U. Semantic analysis of phraseological units representing age periods in French and Uzbek languages. Theoretical & Applied Science, – 2020. № 3. – P. 186-189

# TARIX DARSLARINI TASHKIL ETISHDA INAVATSION USULLARDAN FOYDALANISH METODIKASI

**Xo'jakeldiyeva Maxsuda Sindarovna**
Toshkent viloyati, Quyi Chirchiq tumani, 28 - maktab, tarix fani o'qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7545448

***Annotatsiya.*** *Ushbu metodik tavsiyada, tarix darslarini tashkil etishda inavatsion usullardan foydalanish metodikasi haqida ma'lumotlar yoritib berilgan.*

***Kalit so'zlar:*** *Tarix, o'rta maktab, fanlar aro uzviylik, tamoyillar, uzviylik va uzluksizlik tamoyli.*

# МЕТОДИКА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНДИВИДУАЛЬНЫХ МЕТОДОВ ПРИ ОРГАНИЗАЦИИ УРОКОВ ИСТОРИИ

***Аннотация.*** *В данной методической рекомендации приведены сведения о методике использования инновационных методов в организации уроков истории.*

***Ключевые слова:*** *история, общеобразовательная школа, межпредметность, принципы, принцип связности и преемственности.*

# METHODOLOGY OF USING INDIVIDUAL METHODS IN ORGANIZING HISTORY LESSONS

***Abstract.*** *In this methodological recommendation, information about the methodology of using innovative methods in the organization of history lessons is provided.*

***Key words:*** *History, secondary school, interdisciplinarity, principles, principle of coherence and continuity.*

Mustaqillikning birinchi kunlaridan ijtimoiy - gumanitar fanlarda tub oʻzgarishlar davri boshlandi. Tarix fanini tadqiq etish va oʻqitishda yangi metodologiya kirib keldi. Jahon tarixi fanida e'tirof etilgan xolisiylik, ilmiylik, tarixiylik va muqobillik tamoyillari tarixni tadqiq etish va oʻqitishda tadbiq etila boshlandi. Tarix ta'limi mazmun-mohiyatini zamon ruhida oʻquvchilarga yetkazish uchun oʻquv-metodik majmua yangilandi. Oʻrta maktab uchun tarix fanidan yangi darsliklar yaratildi. Bugungi kunda oʻrta maktab tarix oʻqituvchisi samarali ta'lim berishi uchun nazariy va amaliy jihatdan yetarli bilim va malakaga ega boʻlishi lozim.

Shuningdek, bugungu kunga kelib, tarix fanining maktab kursi, asosan uchta vazifani bajarishga qaratilganligini ko'rishimiz mumkin, ya'ni:

- oʻquvchilarga tarixiy bilimlarning asoslarini berish, ularning chuqurligi va mustahkamligini ta'minlash;
- oʻquvchilarda tarixni ilmiy tushunishning shakllanishi va milliy tarix, xorijiy mamlakatlar va xalqlar tarixiga hurmat munosabatida boʻlishni ta'minlashga;
- oʻquvchilarda tarixiy ong, tarixiy xotira, tarixiy tafakkurni rivojlantirish va oʻquvchilarning bilimlarini mustaqil oʻzlashtirish va qoʻllashga oʻrgatishdir.

Oʻquvchilarning tarixiy tafakkuri ularning umumiy dunyoqarashining shakllanishi bilan birgalikda boradi. Oʻquvchilarning dunyoqarashida tarixiy tafakkurning rivojlanishi uning amaliy faolligini ta'minlaydi. Ya'ni, tarixan dunyoda mavjud boʻlgan fan-texnika yangiliklarini oʻzlashtirishi bilan oʻz faoliyatida yangilikka intilish oʻzida yaratuvchanlik faoliyatini shakllantiradi. Oʻquvchi tarix fanidan bilimlar asosini oʻzlashtirganda millatimiz va boshqa xalqlarning oʻtmish, kecha va bugungi taraqqiyoti toʻgʻrisida tushunchaga ega boʻladi. Tarix ta'limi har bir odamga etnomilliy, umummilliy va umuminsoniy qadriyatlarni oʻzlashtirishga

yordam berishi lozim. Bu oʻquvchini shaxs, fuqaro, inson sifatida shakllanishiga asos boʻladi. Oʻquvchilar Oʻzbekiston tarixi fanini oʻrganish davomida umuminsoniy qadriyatlarni oʻzlashtirib boradi. Tarix darslari oʻquvchilarga tarixiy bilimlarni yetkazib beruvchi vositagina emas, balki ularning ma’naviy-axloqiy jihatdan shakllanib borishlarini ta’minlovchi kuchli ta’sirga ega boʻlgan omil hamdir. Maktab tarix ta’limining zamonaviy konsepsiyasi tarixni tizimli oʻrganishni saqlab qoladi. Lekin tarix uning tamoyillari asosida oʻrganiladi. Tarix oʻquv fani oʻrta maktabda gumanitar fanlarning rivojlanishi uchun metodologik shart-sharoit yaratadi. Tarix fanining ma’lumotlari, tushunchalari, atamalari va tamoyillari boshqa fanlarda ham keng qoʻllaniladi, oʻz navbatida tarix fanida boshqa fanlardagi tushuncha, atamalardan foydalaniladi.

Ta’lim klasterida, ta’lim mazmuni integratsiyasi tarix o’qitishda fanlar aro uzviylikni ta’minlash muhim bo’lib, ta’lim mazmunining fanlar aro uzviyligi vositasida ta’lim samaradorligini oshirish uchun quyidagi tamoyillar muhim sanaladi:

**1. Tarixni fanlar aro bog’lab o’rganishning o’quvchilar yoshi, psixologik xususiyati va saviyasiga mosligi tamoyili.**

Bu tamoyil tarixiy ma’lumotlarni o’quvchilar tomonidan to’liq o’zlashtirishlari nuqtai nazardan ularning individual va yosh xususiyatlari, bilim darajasi doirasidan kelib chiqib ish olib borishga imkon beradi. Chunonchi, 11 - 13 yoshli bolalar aqliy faoliyatida bilishning zaruriy shart-sharoitlaridan biri hisoblangan aniq tarixiy obraztasavvur ustunlik qilishi pedagogik kuzatishlarda aniqlangan. Ayniqsa, 7, 8 - sinf o’quvchilari induktiv, deduktiv xulosalar chiqarishini yaxshi uddalay oladilar. Shu bilan birga mustaqil mantiqiy xulosalar chiqarish qobiliyatlari cheklangan bo’lishini hisobga olib, tarixiy materialini bog’lab o’rganishda ular saviyasini yuksaltirib borishning didaktik tamoyillariga amal qilishni taqozo etadi. Binobarin, ikkala tarix kursidagi tarixiy shaxslar va dalillarni yorqin obrazlar bilan bog’lab olib borish, tarixiy bilimlarni ongli va puxta o’zlashtirish, o’quvchilarda ijobiy hissiyotlar uyg’otish shartlaridan biridir. Bu esa o’z navbatida tahlilning abstrakt mushohadaga o’tib borishi uchun shart-sharoit yaratadi.

Abstraktsiyalash orqali, ya’ni hodisalarning umumiy belgilarini fikran ajratilib, shu hodisaning muhim bo’lmagan xususiyatlari va belgilaridan ayrim holda tasavvur etish yo’li bilan sintezlashning oliy shakli – umumlashtirish sari boriladi.

Belgilar va xususiyatlarni umumlashtirish asosida tarixiy tushunchalar tarkib topadi. Tushunchalar esa tarixiy hodisalarning umumiy, muhim xususiyatlari, bog’lanish va munosabatlarning inson ongida aks etishidir. Bular darsda foydalanish zarur bo’lgan tarixiy manba, atama, tushunchalarni tanlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

**2. Uzviylik va uzluksizlik tamoyli. Tarix ta’limining uzviyligi va uzluksizligi tamoyili tarix o’quv fani mazmunining uzviyligini o’rnatishda muhim o’rin tutadi.**

Bu tamoyil didaktikaning muhim tamoyili – oddiydan murakkabga, noma’lumdan ma’lumga qarab borishda va oldingi o’zlashtirilgan bilimlarga tayangan holda keyingilarini o’zlashtirishga tayyorlash omili sifatida kirish, umumlashtiruvchi- takrorlash darslarini o’tkazishga mas’uliyatni oshiradi. U DTS, o’quv rejalari, dasturlar, darsliklarda materiallarning bir-biri bilan mantiqiy bog’liq bo’lishini, ta’limning har bir bosqichida ma’lum darajada bilim ko’nikma va malakalarni shakllantirishni talab qiladi hamda yoshlar tarixiy ongining shakllanishiga muvofiq tarzda fan yutuqlarini o’zlashtirib borishni ta’minlaydi. Ma’lumki, umumiy o’rta ta’lim maktablarida har bir davr tarixi bir marta o’qitilib, yuqori bosqichlarda takrorlanmaydi. Bundan mustasno holda 5-sinf tarixdan hikoyalar kursida esa qadimgi davrdan

hozirgi kungacha bo'lgan muhim tarixiy voqealar fan asoslari sifatida emas, balki epizodik (voqeaband) hikoyalar tarzida o'rganilishi sababli undagi mavzular xronologik izchillikka uncha asoslanmaydi. Umuman, tarixiy materialni xronologik izchillikda bayon qilinishi o'quvchilar tarixiy bilimlarini tizimlashtirib, uning uzviyligini ta'minlash bilan birga yangi tarixiy faktlarni yaxshiroq o'zlashtirishga xizmat qiladi. Shuningdek, tarixiy jarayondagi yangi faktning o'rnini aniqlashga, uni tarix bilimlari tizimiga kiritishga yordam beradi. Bu tamoyil ikkita tarix kursini o'zaro aloqadorlikda o'rganishda tarixiy materiallar bir-birini takrorlamagan holda, bir-birini to'ldirishini nazarda tutadi.

**3. Ilmiylik va xolislik tamoyili.**

Jahon tarixi va O'zbekiston tarixini o'qitishda integratsion yondashishning eng muhim tamoyillaridan biri ilmiylik, xolislik, tarix haqiqatining ustivorligi tamoyilidir. Bu tamoyilga amal qilinmasa tarixiy voqea va hodisalarni to'g'ri idrok qilib bo'lmaydi. Natijada o'quvchilarning tarixiy bilimi soxtalashadi. Ma'lumki, sovet tarixshunosligi hukmron kommunistik mafkura bilan qurollanib butun o'tmishimizni soxtalashtirib yuborgan. Moziyni asosan urush va xunrezlikdan iborat qilib ko'rsatish bilan tarixiy ilmiy haqiqat ataylab buzib tashlangan edi. Shuning uchun o'rganiladigan tarixiy material ilmiy asoslangan, ishonchli va aniq bo'lishi, voqea-hodisalar o'zaro bog'lanish va rivojlanishda yoritilishi zarur. Binobarin, tarix haqiqati bu aniq voqealar, hodisalar va munosabatlar majmuidan iborat bo'lib, tarixda ro'y bergan voqea qanday yuz bergan bo'lsa, uni shunday yoritish kerak. Bu tamoyil haqqoniy tarixni bilish asosida o'zlikni anglashga undaydi.

**4. Ilmiy dunyoqarashni shakllantirish tamoyili.**

Dunyoqarash insoning dunyoni ma'lum darajada tushinishi, anglashi, bilishi, baholashi va shular asosida amaliy o'zlashtirishi bo'lib, u insonni dunyoni bir butun yoki turli-tuman holda ko'rishi, idrok etishi, tasavvur qilishi, insonning dunyodagi o'z o'rin va rolini belgilashidir. Jamiyatning rivojlanib borishi bilan insonning amaliy bilish faoliyati ham rivojlanib boradi. Dunyoqarash butun insoniyat hayoti sharoitini anglab olishini, butun qadriyatlar tizimini, o'tmish obrazlari, hozirgi realliklarni, kelajakning mo'ljallarini ham o'z ichiga oladi. Har bir insonning o'z hayotiy faoliyati va taraqqiyotida ma'lum dunyoqarash shakllanib, to'liq tashkil topgan paytdagina u shaxs bo'la oladi. O'zbekistonning yangilangan ta'limi mustaqil fikrlaydigan, yetuk shaxs, komil insonni shakllantirishga qaratilgan. Zotan, o'zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanar ekan, o'quvchilarda dunyoni, insoniyat jamiyati taraqqiyotini tushunish, ya'ni yaxlit ilmiy dunyoqarash jahon va O'zbekiston tarixini qiyoslab, bir-biriga bog'lagan holda, o'zaro aloqadorlikda o'rganish orqali shakllanadi.

**5. Tarixiylik tamoyili.**

Ta'lim jarayonining qonuniy bog'lanishlari jamiyat ehtiyoji, ijtimoiy jarayonlar bilan bog'liq ravishda sodir bo'ladi. Tarixiylik tamoyili ta'lim jarayonining asosiy qonuniyati, ya'ni ta'limni jamiyat ehtiyojiga bog'liqligi qonuniyatidan kelib chiqadi. Unga amal qilish natijasida o'quv materiali boyitiladi va o'quvchilarning ilmiy dunyoqarashi shakllanib, axloqiy sifatlari tarbiyalanadi. Mazkur tamoyil har bir narsa yoki hodisaga tarix nuqtai nazaridan yondashish ko'nikmasini hosil qiladi. Bu tamoyilni faqat bir mamlakat tarixini o'qitib, tarixiy davrni o'rganish bilan o'quvchilarda shakllantirib bo'lmaydi. Buning uchun maxsus savol va topshiriqlar vositasida doimo o'quvchida voqealarni ko'rilayotgan davr bilan solishtirish talab qiladigan vaziyatni hosil qilish muhimdir. Shuning uchun fanlar aro bog'lanishni qo'llash bilan o'qituvchi birinchidan o'quvchilarga tarixiy davrni qanchalik taqqoslash lozimligini ko'rsatsa,

ikkinchidan bir tarixiy davr doirasida bir mamlakatning boshqasidan farqi, o'ziga xos xususiyati e'tiborga olinishini uqtiradi. Bu tamoyilni fanlar aro asosda qo'llashga madaniyatning rivojlanishi kabi dars mavzularini o'rganish misol bo'lishi mumkin.

**6. Tarixni insonparvarlashtirish tamoyili**

Ushbu tamoil, o'tmishga nisbatan g'ayrinsoniy qarashlarga chek qo'yib, o'quv materialini umuminsoniy xarakterdagi mazmun bilan boyitish, ma'lum, jamiyat (jumladan, O'zbekiston) tarixini jahon sivilizatsiyasining tarkibiy qismi deb qarash, insonni tarix sub'ekti sifatida o'rganishga yanada chuqur, keng va atroflicha yondashish, o'quvchi-yoshlar shaxsi, axloqiy sifatlarini shakllantirish bilan insoniy fazilatlarini kamol toptirishni ko'zda tutadi. Chunki, "...tarix inson orqali vujudga keladi va inson orqali abadiyatga aylanadi. Inson ongi va tafakkuri, qalbi va tuyg'ulari orqali yuzaga kelgan hodisa sifatida qadriyatga aylanadi.".

**7. Tarixni o'rganishda o'quv materialining ta'lim-tarbiyaviy jihatdan eng muhimlarini ajratish tamoyili.**

O'quvchilarning bilish faoliyatini rivojlantiruvchi hamda tarbiyaviy jihatdan eng muhim hisoblangan tarixiy dalil, tushuncha, voqea, jarayon, yetakchi g'oyalarnigina ajratib olish ko'nikmasini shakllantirish ularda tarix faniga bo'lgan qiziqishlarini kuchaytirib, tarixiy bilimlarni integratsion tarzda puxta o'rganishlariga yordam beradi. O'quvchilardan muhim fikrni muhim bo'lmagan fikrdan ajratish ko'nikmasini shakllantirish bir qator didaktik sharoitlar:

- o'qituvchining ushbu faoliyat tarzi, mohiyati, tuzilishi va mezonlari bo'yicha mavjud bilimlari;
- o'quv materiali va dars maqsadining xususiyatlari;
- o'quvchilarning o'quv-biluv imkoniyatlari bilan bog'liqdir.

Bu tamoyil o'quvchilarni insoniyatning hozirgi ulkan bilimlar ummonida oqilona to'g'ri yo'l tutishga tayyorlashda muhim o'rin tutadi.

Chunki, bunday o'qitish o'quvchilarni ortiqcha o'quv yukidan holi qilish bilan birga tegishli ma'lumotni ular xotirasida uzoq saqlash qobiliyati hamda darslik matni bo'yicha oddiy reja tuzish malakasini rivojlantiradi.

**8. Tarix o'qitishning milliy asosga qurish (milliy yo'naltirilganligi) tamoyili**.

Ushbu tamoil tarix fanini O'zbekistonning ko'hna tarixini o'rganishdan boshlash, o'quvchilarning jahon xalqlari o'tmish taraqqyotini o'rganishda Vatan tarixidan olgan bilimlari asos bo'lib xizmat qilishi, ikkala tarixni qiyoslab o'rganish asosida xalqlar tarixidagi mushtarakliklar, o'ziga xos xususiyatlar, umuminsoniy qadriyatlar, har bir xalqning unga qo'shgan hissasini chuqur anglab, boshqa xalqlarning tarixi va madaniyatini hurmatlash, ta'limni milliy tarix, madaniy meros, xalq an'analari bilan uzviy uyg'unligini, tariximizni milliy taraqqiyotning muhim omili, millat murabbiysi sifatida e'tirof etishdan iboratdir. Zero, "o'zini bilmagan, o'z o'tmishini bilmagan hech kimni bilmas". Ushbu tamoyil uzluksiz ta'limni tashkil etish va rivojlantirish tamoyillaridan biri– ta'limning milliy yo'naltirilishi talablariga mos ravishda "O'zbek xalqi va davlatchiligi tarixi kontseptsiyasi"ning yetakchi g'oyalarini ro'yobga chiqarishga yordamlashadi.

**9. Tarix ta'limiga tabaqalashtirilgan tarzda yondashish tamoyili.**

O'quvchilarning qobiliyatlari va imkoniyatlariga muvofiq ravishda tarixga bo'lgan qiziqishlarini oshirish va u bilan shug'ullanishning o'ziga xos yo'llarini rivojlantirish fanlar aro uzviylikni ta'minlashda muhim o'rin tutadi. O'quvchilarning bilim olishga bo'lgan ehtiyojlarini yanada to'liqroq qondirishga yo'naltirilgan didaktik choralardan biri tarix ta'limi mazmunini

tabaqalashtirish, deb hisoblash mumkin. Tabaqalashtirilgan yondashuv asosida o'quvchilar tarixiy bilimlarining uzviyligini ta'minlash uchun fanlar aro bog'lanishga oid amaliy topshiriqlarni bajarishda turli tayyorgarlikka ega bo'lgan bolalarning har birida mavjud bo'lgan o'quv imkoniyatlari hisobga olinishi zarur. O'z bilimlarini qo'llash orqali individual yutuqlarga erishgan o'quvchilarni rag'batlantirish ko'zda tutilishi lozim. Bu sohada tarixdan olib boriladigan sinfdan tashqari ishlar ham o'qitishni tabaqalashtirish uchun katta imkoniyatlarni ochib beradi.

**10. Ta'lim va tarbiya birligi tamoyili.**

O'quvchilarda vatanparvarlik va milliy g'urur hissini tarbiyalashda tarix ta'limining o'rni beqiyosdir. Vatanimiz umumjahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri bo'lib, ajdodlarimizning hamma jabhadagi yaratuvchanlik faoliyati dillarni g'ururga to'ldiradi. Zero, insonni o'z tarixi va madaniyati bilan faxrlanish asnosida milliy iftixor hissi yuksalib, ma'naviy barkamol shaxs bo'lib shakllanishida o'lka tarixini o'rganishda muhim o'rin tutadi. DTS va o'quv dasturi talablari tarix materiallarini o'rganish va ulardan o'rinli foydalanish masalasini o'qituvchining o'zi hal etishini ko'zda tutadi. U o'quvchilarda Ona o'lkaga muhabbatni tarbiyalash bilan birga, ularni mustaqil izlanish, tadqiqot ishlariga o'rgatadi. Masalan, "Buyuk ipak yo'li"ning jahon xalqlari taraqqiyotidagi ijobiy rolini o'rganar ekanlar, o'z o'lkalari hududidan o'tgan bu yo'l tarmog'ining tarixini tiklash orqali Vatanimizning ushbu yo'l harakatda bo'lgan davrida qo'shni mamlakatlar va xalqlar moddiy va ma'naviy madaniyatiga qilgan xizmatini teranroq anglay boshlaydilar. Binobarin, mamlakatimizning hozirgi kunda Sharq va G'arb iqtisodi va madaniyati o'rtasida "Oltin ko'prik" bo'lgan bu qadimiy yo'lni tiklash borasidagi sa'yharakatlarining ahamiyatini ham chuqur idrok qiladilar. O'quvchilar o'lkadagi tarixiy shaxslar, madaniyat arboblari bilan bog'liq qadamjolarni o'rganishlari, shubhasiz ular bilimini yangi ma'lumotlar asosida yanada boyitadi. Ta'lim va tarbiya uzviyligiga amal qilgan holda bunday faoliyat yurgizish O'zbekiston tarixini jahon tarixida tutgan o'ziga xos o'rnini aniq va ravshan ifodalashga xizmat qiladi.

**11. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligini shakllantirish tamoyili**

Bu tamoil tarixiy voqea va hodisalarga milliy va umumbashariy g'oyalarning umumiy uyg'unligidan kelib chiqib baho berishga o'rgatadi. Zero, o'zbek xalqining ko'pgina milliy xususiyatlari umuminsoniy qadriyatlar bilan bog'lanib, uning shakllanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Jumladan, ajdodlarimizning aql zakovati va qalb qo'ri bilan yaratilgan dunyo madanyatining noyob durdonasi bo'lmish "Avesto"da bayon etilgan ilmiy va hayotiy tushunchalar nafaqat Markaziy Osiyo, balki butun dunyo ilmu fan va falsafasi rivojiga salmoqli hissa bo'lib qo'shilgan. Shuninndek, O'rta Osiyoda IX-XII va XIV-XV asrlardagi madaniy yuksalish Yevropa Renessansining asosiy shartsharoitlarini vujudga keltirgan. Milliy istiqlol g'oyasi, milliy mafkuraning asosiy manbai - bu haqqoniy yoritilgan tarix bo'lib, ikkala tarixni uzviy bog'lab o'rganish o'quvchilar ongida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirishning qudratli omilidir.

**12. Ta'lim beruvchi, tarbiyalovchi, rivojlantiruvchi ta'lim tamoyili**

Ushbu tamoil esa, tarix kurslariaro aloqalardan maqsadga muvofiq, muntazam foydalanish, o'qitishning ta'lim beruvchi, tarbiyalovchi va rivojlantiruvchi vazifalarini chambarchas bog'liq holda olib borishga xizmat qiladi. O'qitishning ta'lim beruvchi vazifalari o'quvchilar qanday bilim, fakt, hodisa, tushuncha va xulosalarni o'zlashtirshlari zarurligini belgilasa, tarbiyalovchi vazifalar o'quvchi shaxsining ma'lum e'tiqod va axloqiy sifatlarini shakllantirishga

Umuman olganda, dastlabki aylanishlarda yelkalarning I harakatining ko'rsatkichlari uch va to'rt burilishdan uloqtirishda, mashg'ulotlarda, unga nisbatan, ozgina o'zgaradi. Ammo shuni ta'kidlash kerakki, bu erda ham charchoq natijasida, o'rganilayotgan bo'g'in harakatining vaqtinchalik ritmining ma'lum bir qayta tuzilishi sodir bo'ladi, bu harakatning ushbu ko'rsatkichlarini tahlil qilishda aniqlanganga o'xshaydi. tos suyagi. Bu o'qni qo'lga olish uchun zarur bo'lgan I ni kamaytirish va uni tortib olish uchun orqaga tortilgan I ni oshirishdan iborat. Bu 6 kg og'irlikdagi bosqon ni to'rt burilishdan uloqtirish misolida yaqqol ko'rinib turibdi, bunda elkalar harakati VT1 dan NT2 gacha 8% ga oshdi va NT2 dan BT2 ga 4% ga kamaydi. Burilishlarni bajarishda uch burilishdan uloqtirishda mashg'ulotlarda to'rttadan uloqtirishga nisbatan elkalarining o'zgarishida ma'lum farqlar mavjud.

Ko'proq darajada, bu farqlar oxirgi burilishlarning OD fazalarida namoyon bo'ladi. Shunday qilib, (Og'irlik bo'yicha o'rganilgan barcha bosqonlarni) elkalaridan uch burilishdan uloqtirishda mashg'ulot biroz kuchayadi. To'rt burilishdan uloqtirish da, aksincha, uning ishlashida biroz pasayish kuzatiladi. Masalan, ODZda yelkadan uch burilishdan 6 kg bosqon ni uloqtirganda mashg'ulotda uning ga nisbatan 37% ga oshgan, to'rt burilishdan esa 0,05 da 24% ga kamaygan. Navbatdagi elkalardagi bu o'zgarishlar yuqorida aytib o'tilganidek, yaqinlashib kelayotgan charchoq natijasida yuzaga keladigan uch va to'rt burilishdan uloqtirish paytida uning dastlabki aylanishlarning ko'payishining turli xil ta'sirining natijasidir. FINni bajarish paytida (snaryadni qo'yib yuborish vaqtida) elkadan mashg'ulotda uning ko'rsatkichiga qaraganda bir oz kamroq.

Umuman olganda, bu og'irlik bo'yicha o'rganilgan barcha qobiqlarni uch va to'rt burilishdan uloqtirish da qayd etiladi, ammo bu og'irlikdagi bosqonni uloqtirishda ko'proq namoyon bo'ladi. Xuddi shu nomdagi fazalar uchun elkalarning o'zgarishini tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, og'irlik bo'yicha o'rganilgan barcha qobiqlar mashg'ulotda uch va to'rt burilishdan tashlanganida, bu ko'rsatkichlarning foiz o'sishi asosan sodir bo'ladi. Bu DWda ham, OD fazalarida ham kuzatiladi, garchi ko'proq darajada OD fazalarida ko'rib chiqilgan pasayish ustunlik qiladi. Masalan, standart raketani yelkadan uch burilishdan uloqtirganda (H) ODZda mashq qilish OD2 ga nisbatan 29% ga, esa atigi 1% ga oshdi. Farqi 0,05 da 28% ni tashkil etdi. Xuddi shu nomdagi fazalar bo'ylab glechlarning ko'payishining kamayishi mashg'ulotda charchoqning boshlanishi tufayli bu bo'g'inning navbat bilan harakatlanish ritmining o'zgarishi natijasidir.

***Bilak dejektsiyasining fazoviy - vaqt va temporal tuzilishidagi o'zgarishlar.***

Mashg'ulotning va bilaklarning dinamikasini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, snaryadning dastlabki tezlashuvi bosqichlarida og'irlik bo'yicha o'rganilgan barcha bosqon larni uch va to'rt burilishdan uloqtirganda u ortadi. trening. Bu yengil snaryadlarni uloqtirganda sezilarli bo'ladi va HT2 daqiqalarida juda barqaror. Masalan, mashg'ulotda bilaklardan uch burilishdan 6 kg bosqon uloqtirganda, nisbatan, NT2 da u 57% ga, to'rt burilishdan uloqtirish da esa 13% ga oshgan (Ilova jadvaliga qarang). Bu haqiqat mashg'ulotlarida charchoqning boshlanishi ta'sirida sportchilar uloqtirish kabelining kerakli tarangligini ushlab turish uchun uloqtiruvchi tanasining yuqori bo'g'inlari harakatini faollashtirishi natijasidir.

Dastlabki aylanishlarda bilaklarning I harakatining dinamikasi ko'rsatkichlari uloqtiruvchining mashg'ulot paytida olgan yuki natijasida ham o'zgaradi. Ularning o'zgarishi VT, NT va VX momentlari orasidagi bilaklar harakatining vaqtinchalik munosabatlarini qayta qurishdan iborat. Bu tabiiy ravishda (barcha tekshirilgan snaryadlarni) to'rt burilishdan uloqtirishda namoyon bo'ladi.

Shunday qilib, mashg'ulotlarida BT1-HT2 va BT2-BX yo'llari bo'ylab bilaklarning I harakatining ortishi kuzatiladi, ammo shunga mos ravishda uning HT2-BT2 yo'li bo'ylab pasayishi. Masalan, mashg'ulotida standart o'qni uloqtirishda I, bilaklarning BT1-HT2 yo'li bo'ylab harakati 15% ga, BT2-BX yo'li bo'ylab 24% ga, HT2-BT2 yo'lida esa kamaydi. 17% ga p 0, 05 da. Bilakchalar harakatining vaqtinchalik ritmidagi bu o'zgarish snaryadni olib tashlashga sarflangan I ning ko'payishi va uni qo'lga olish uchun ajratilgan miqdorning kamayishi tufayli yuzaga keladi. Uch burilishdan (barcha o'rganilgan snaryadlarni) uloqtirganda, bilak harakatlarining vaqtinchalik munosabatlaridagi o'zgarish kamroq ahamiyatga ega. mashg'ulotlarida burilishlar qilish jarayonida, standart va nostandart qobiqlarni gunoh va to'rtta burilish bilan uloqtirganda, bilaklardan ham LW, ham OD fazalarida sezilarli o'sish kuzatiladi. Misol uchun, standart o'qni to'rt burilishdan uloqtirganda, bilaklardan mashq qilish uning nisbatan DV1 da 12% o ga va OD1da 0,05 da 22% o'sdi.

Bu shuni ko'rsatadiki, mashg'ulotlarda navbatma-navbat snaryad simining zarur tarangligini ushlab turish uchun uloqtiruvchi o'z tanasining snaryad bilan bevosita aloqada bo'lgan yuqori bo'g'inlarining harakatini ko'proq faollashtiradi. FINda, shuningdek, navbat bilan, bilaklardan barcha o'rganilgan qobiqlarni (uch va to'rt burilishdan) uloqtirishda mashg'ulotlar biroz oshadi. Misol uchun, og'irligi 7,260 kg bo'lgan bosqonni bilaklardan uchta burilishdan uloqtirganda, u 4% ga, to'rttadan esa 16% ga oshgan.

mashg'ulotida bir xil nomdagi fazalar uchun bilaklardan foiz o'zgarishi, uning nisbatan, asosan (o'rganilgan barcha o'qlarni uch va to'rt burilishdan uloqtirganda) OD fazalari orasida namoyon bo'ladi. Bu erda, mashg'ulotda snaryadning dastlabki tezlashuvida ushbu bo'g'inning harakat tezligining oshishi natijasida birinchi burilishlarning OD fazalari o'rtasida bilaklardan ko'tarilish va bir oz pasayish kuzatiladi. oxirgi burilishlarning bir xil fazalari orasidagi pasayish. Misol tariqasida uch burilishdan standart snaryadni uloqtirish mumkin, bunda mashg'ulotlarda OD1 va OD2 o'rtasida bilaklardan o'sish 15% ga oshdi va OD2 va ODV o'rtasida 10% ga kamaydi.

**REFERENCES**

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 5 мартдаги ПФ-5368-сонли фармони ―Жисмоний тарбия

2. ва спорт соҳасида давлат бошқаруви тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида‖ги
3. Фармони. (Халқ Сўзи. 2018 йил 5- март.)
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПФ 5924-сонли фармони ―Ўзбекистон Республикасида жисмоний
5. тарбия ва спортни янада такомиллаштириш ва оммалаштириш чора-тадбирлари тўғрисида‖ги. Фармони
6. (Халқ сўзи 2020 йил 24-январ).
7. Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПҚ 3031-сон қарори ―Жисмоний тарбия ва спортни янада
8. ривожлантириш чора тадбирлари тўғрисида‖ги (Халқ сўзи 3 июн 2017 йил)
9. Soliev I.R, Khaydrov B.SH, Mirzatillayev I.I, Khujamkeldiyev G.S, Ziyayev F.CH. Functional training level of
10. runners student-athletes sprinters. // International Journal of Psychosocial Rehabilitation,Vol.24,Issue 05,2020,
11. http://www.psychosocial.com/article/PR201878/17061/ 46-50 бетлар.
12. ziyayev f. c. et al. yengil atletika sport turini rivojlantirishda umumiy o'rta t'alim maktablarining jismoniy tarbiya darslarida yengil atletika turlarini o 'rgatish metodikasini takomillashtirish samaradorligi //central asian research journal for interdisciplinary studies (carjis). – 2021. – т. 1. – №. 3. – с. 348-355.
13. xo'jamkeldiyev g. s. et al. kichik razryadli o'rta masofalarga yuguruvchilarning musobaqa oldi tayyorgarligi //central asian research journal for interdisciplinary studies (carjis). – 2021. – т. 1. – №. 3. – с. 270-274.
14. ziyayev f. c. et al. o 'rta masofaga yuguruvchi yengil atletikachilarni musobaqa oldi tayyorgarligi samradorligini oshirish //central asian research journal for interdisciplinary studies (carjis). – 2021. – т. 1. – №. 4. – с. 78-90.
**15.** каримов ф. м. и др. бошланғич ихтисослик гуруҳидаги узунликка сакровчи қизларнинг депсиниш кучини ривожлантириш //central asian research journal for interdisciplinary studies (carjis). – 2021. – т. 1. – №. 4. – с. 119-125.

# O`ZBEKISTONDA BIATLON SPORT TURI BO`YICHA O`TKAZILGAN 2021 - 2022 - YILGI O`ZBEKISTON CHEMPIONATI MUSOBAQALARINING TAHLILI

**R.U.Memetov**
O`zDJTSU "Murakkab – texnik sport turlari nazariyasi va uslubiyati"
kafedrasi o`qituvchisi
E-mail: memetovrustam532@gmail.com
***https://doi.org/10.5281/zenodo.7547276***

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada O`zbekiston Respublikasida biatlon sport turidan o`tqazilgan o`zbekiston chempionatidagi ishtrokchilarning masofalarni bosib o`tish voqtlari va o`q otish maydonidagi yo`qotilgan vaqtlari qisqacha yoritib berilgan.*

***Kalit so`zlar.*** *Biatlonda birinchi, ikkinchi va finish oldi aylanalari, biatlonda o`q otish maydoniga sarflangan voqt, biatlonchilarni yurak urushini nazorat qilish.*

# АНАЛИЗ СОРЕВНОВАНИЙ ЧЕМПИОНАТА УЗБЕКИСТАНА 2021 - 2022 ГГ ПРОВЕДЕННЫХ В УЗБЕКИСТАНЕ ПО ВИДАМ БИАТЛОНА

***Аннотация.*** *В данной статье кратко освещены пройденные дистанции и потерянное время на огневом рубеже участников чемпионата Узбекистана по биатлону, проводимого в Республике Узбекистан.*

***Ключевые слова:*** *Первый, второй и предфинишный круги в биатлоне, время нахождения на огневом рубеже в биатлоне, мониторинг пульса биатлонистов.*

# ANALYSIS OF THE 2021-2022 UZBEKISTAN CHAMPIONSHIP COMPETITIONS HELD IN UZBEKISTAN IN THE TYPE OF BIATLON SPORT

***Abstract.*** *In this article, the distance covered times and the time lost on the shooting range of the participants of the biathlon championship of Uzbekistan, held in the Republic of Uzbekistan, are briefly described.*

***Key words:*** *The first, second and pre-finish laps in biathlon, the time spent on the shooting range in biathlon, monitoring the heart rate of biathletes.*

Barchaga ma'lumki, hech bir narsa mamlakatni dunyoga sportchalik tez tanita olmaydi. Shu munosabat bilan bizni mamlakatimizda ham keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda, ya'ni aholini sog'lomlashtirishga qaratilgan „Besh ming qadam'' kabi tadbirlar o'tkazilib kelinmoqda. Aholi salomatligi hamda o`sib kelayotgan yoshlarni sportga bo`lgan mehrini yanada rivojlantirish maqsadida Davlat rahbari tomonidan ko`plab qaror va farmonlar imzolanmoqda. Misol tariqasida (PQ 253 son, 28.04.2021 y) qarori bilan „Sog'lom turmush tarzi'' platformasi faoliyatini tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizom va shu kabi qarorlar tasdiqlandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev sport sohasiga har tomonlama juda katta e'tibor qaratmoqda. Yoshlar o'rtasida sport sohasini rivojlantirish va shug'ullanish uchun barcha shart sharoitlar yaratib berilmoqda, albatta bu imkoniyatdan yoshlar unumli foydalanib kelmoqda. Sportchilarni rag'batlantirish hamda natijalarini yanada yaxshilash uchun turli musobaqalar o'tkazib kelinmoqda. Biz misol tariqasida O'zbekistonda o'tkaziladigan musobaqalarni aytib o'tishimiz mumkin. Biz 2021-2022 yillarda biatlon musobaqalarini natijalari asosida tahlil qildik.

Ushbu yil ham 16.03.2022-yil O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligiga ko`maklashuvchi "Vatanparvar tashkiloti" Biatlon bo'yicha erkaklar va ayollar o'rtasida O'zbekiston kubogini o'tkazdi. Ushbu musobaqani tahlil qilish maqsadida ayrim turlaridagi bahslarni kuzatdik.

Bu musobaqa sportchilar o'rtasida bahslarga boy tarzda bo'lib o'tdi deb aytsam xato bo'lmaydi. Musobaqada umumiy 118 nafar sportchilar ishtirok etdi. Shulardan 72 nafari erkak, 46 nafari ayol sportchilarni tashkil etadi.

Musobaqaning dasturi quyidagicha:

Erkaklar

1) 4000 metr masofaga yugurish.
2) 6000 metr masifaga yugurish
3) 7000 metr masofaga yugurish

Bu yilgi musobaqani o'tgan yillardagi bo'lib o'tgan musobaqalar bilan taqqoslaydigan bo`lsak juda katta farqni ko'rishimiz mumkin bo'ladi.

Albatta bu farqlardan biz faqatgina sportchilarimizning natijalarini qisman o'sayotganligini ko'rishimiz mumkin.

Misol tariqasida oladigan bo'lsak 4000 metr masofaga o`q otib yugurish natijalarida o'zgarishlarni ko'rishimiz mumkin. 2021-yil erkaklar o'rtasida 4000 m masofaga o`q otib yugurish bahslarida eng yaxshi natija Fayzullo Po`latxo`jayev 16:27 bo'lgan bo'lsa 2022-yilda esa eng yaxshi natija Begzod Boymatov tomonidan 16:08 ga yangilandi.

Albatta bu natijalar pandimiyadan keying holat. Pandimiya ham sportchilarimizga o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmadi. Endi qizlarimizga keladigan bo'lsak, qizlarimizda ham natijalari o'zgargan 2021-yil qizlar o'rtasida 3000 m masofaga yugurish bahslarida eng yaxshi natija Tamila Qo`chqorova tomonidan 19:06 natijasi eng yaxshi deb olingan.

2022-yil hisobidan oladigan bo'lsak bu yilgi eng yaxshi natija Inobat Tajiboyeva tomonidan 18:50 natija qayd etildi.

Sportchilarimizning birgina biatlonning qisqa masofa turidagi natijalarni oladigan bo'lsak ko'zga ko'rinarli o'zgarishlar bo'lgan ,bu o'zgarishlar albatta sportchilar orasida do'stona raqobatni kelib chiqishga sabab bo'ladi. Albatta raqobat bor joyda o'sish bo'ladi, biz sportchilarimizdan faqat yaxshi natijalar kutib qolamiz.

Natijalarning o`sishi biatlonning boshqa masofalarida ham ko`zga ko`rinarli darajada farq qilganini ko`rishimiz mumkin misol uchun: Erkaklarda 6000 metr masofaga 2021-yilda 27:20 natija qayd etilgan bo`lsa 2022-yilga kelib shu masofaga 27:03 ga o`zgarganini ko`rishiz mumkin.

Qizlar o`rtasida 5000 metr masofaga o`q otib yugurish bahslarida 2021-yilda ko`rsatilgan natija 29:03 ni tashkil etgan bo`lsa shu masofada 2022-yilga kelib 28:34 ni ko`rsatmoqda, ushbu natijalar albatta yil sayin biatlon sport turini rivojlanib kelayotgani hamda sport turiga uyushmagan yoshlarni qiziqishini ortishiga sabab bo`lmoqda.

**Erkaklar**

| start | F.I.Sh. | Sport toifasi | Start voqti | 1333 metr | 1333 metr | 1333 metr | Marra ga kirish voqti | jarima | jarima | Toza voqti | Yotib otishga sarflangan voqt | Turib otishga yo`qotilgan voat |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | Birinchi o`q otish maydoniga kirish voqti | Ikkinchi o`q otish maydoniga kirish voqti | Uchunchi masofani bosib o`tish voqti | | yotib | turib | | | |
| 1 | **Fayzullo Po`latxo`jayev** | | 00.30 | 4:20 | 4:34 | 4:10 | 16:57 | 0 | 1 | 16:27 | 1:45 | 1:38 |
| 2 | **Begzod Boymatov** | | 01.00 | 4:25 | 4:58 | 4:20 | 17:08 | 0 | 2 | 16:08 | 1:17 | 1:09 |

Bo`lib o`tgan ushbu musobaqada sportchilarni yugurib kelib nishonga yotib o`q orish va yugurib kelib turgan holatda o`q otishdagi ko`rsatkichlari jadvalda shakillangan, birinchi sportchi Po`latxo`jayev startdan birinchi o`q otish maydoniga kelgunigacha bo`lgan voqt 4:20 ni tashkil qildi, ikkinchi sportchi esa birinchi o`q otish maydoniga kirgunicha bo`lgan vaqt esa 4:34 soniyani tashkil qildi, sportchining ikki aylanadagi o`q otishlarni xissobga olmaganda yugurishdagi vaqti umumiy 9:32 soniyani tashkil qildi, finishga tashlanish vaqti esa 16:27 soniyani tashkil qildi, sportchi shunda o`q otish maydoniga sarflagan vaqti yotib otish uchun 1:45 soniya, turib otish uchun 1:38 soniya vaqt sarflagan bo`lsa oxirgi aylana uchun 4:10 soniya sarflagan. Ikkinchi sportchi Begzod Boymatov birinchi aylanani 4:25 soniyada bsoib o`tgan bo`lsa ikkinchi aylanani esa 4:58 soniyada bosib o`tgan o`q otish maydoniga sarflagan vaqti esa yotib otishga 1:17 soniya, turib otish uchun esa 1:09 soniya vaqt sarflangan shunda oxirgi finishgacha bo`lgan aylanada sarflangan vaqt 4:20 soniyani tashkil qilgan, yuqorida ko`rsatilgan sportchilarning natijalarini taxlil qiladigan bo`lsak birinchi ishtrikchi Po`latxo`jayev aylanalarni ikkinchi ishtokchi Boymatovga nisbatan tez voqt ichida bosib o`tganiga qaramay Boymatovga soniya xissobida yutqazganligini ko`rishimiz mumkin bunda sportchi aylanalarni bosib o`tish xissobida yutgan lekin o`q otish maydonida yo`qotilgan voqtni ko`p sarflaganligidur.

**XULOSA**

Xalqaro arenalardagi sport natijalariga mutaxassis biatlonchilarimizning natijalarini taqqoslaydigan bo`lsak hozirda amalda ko`rsatilayotgan natijalar pas ekanini ko`ramiz. Natijalarni yaxshilash uchun respublikamizda yosh murabbiylarni malakasini oshirish bo'yicha ishlar olib borilishi zarur, hamda saralash ishlarini to`g`ri yo`lga qo`yiladigan bo`lsa biatlon sportchilarini yaqin yillarda yuqori arenalarga olib chiqamiz, albatta yuqorida jadvalda natijalari taxlil qilingan sportchilarning texnik xatolari, birinchi sportchida o`q otish maydonidagi pulsni va nishonni boshqara olmasligi, ikkinchi ishtrokchi sportchi o`q otish maydonida ustunligiga qaramasdan uning masofa bo`ylab yugurishidagi chidamkorligidagi kamchiliklar natijaning past

bo`lishiga tasir qilmoqda, bunda sportchilarni mashg`ulot davrida pulsga bog`lab o`q otishlarni ko`paytirish maqsadga muvofiq bo`ladi.

**REFERENCES**

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 5 мартдаги ПФ-5368-сонли фармони ―Жисмоний тарбия
2. ва спорт соҳасида давлат бошқаруви тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида‖ги
3. Фармони. (Халқ Сўзи. 2018 йил 5- март.)
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПФ 5924-сонли фармони ―Ўзбекистон Республикасида жисмоний
5. тарбия ва спортни янада такомиллаштириш ва оммалаштириш чора-тадбирлари тўғрисида‖ги. Фармони
6. (Халқ сўзи 2020 йил 24-январ).
7. Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПҚ 3031-сон қарори ―Жисмоний тарбия ва спортни янада
8. ривожлантириш чора тадбирлари тўғрисида‖ги (Халқ сўзи 3 июн 2017 йил)
9. Soliev I.R, Khaydrov B.SH, Mirzatillayev I.I, Khujamkeldiyev G.S, Ziyayev F.CH. Functional training level of
10. runners student-athletes sprinters. // International Journal of Psychosocial Rehabilitation,Vol.24,Issue 05,2020,
11. http://www.psychosocial.com/article/PR201878/17061/ 46-50 бетлар.
12. ziyayev f. c. et al. yengil atletika sport turini rivojlantirishda umumiy o’rta t’alim maktablarining jismoniy tarbiya darslarida yengil atletika turlarini o ‘rgatish metodikasini takomillashtirish samaradorligi //central asian research journal for interdisciplinary studies (carjis). – 2021. – т. 1. – №. 3. – с. 348-355.
13. xo‘jamkeldiyev g. s. et al. kichik razryadli o’rta masofalarga yuguruvchilarning musobaqa oldi tayyorgarligi //central asian research journal for interdisciplinary studies (carjis). – 2021. – т. 1. – №. 3. – с. 270-274.
14. ziyayev f. c. et al. o ‘rta masofaga yuguruvchi yengil atletikachilarni musobaqa oldi tayyorgarligi samradorligini oshirish //central asian research journal for interdisciplinary studies (carjis). – 2021. – т. 1. – №. 4. – с. 78-90.
15. каримов ф. м. и др. бошланғич ихтисослик гуруҳидаги узунликка сакровчи қизларнинг депсиниш кучини ривожлантириш //central asian research journal for interdisciplinary studies (carjis). – 2021. – т. 1. – №. 4. – с. 119-125.

# MATEMATIKA FANINI O‘QITISH JARAYONIDA KOMPYUTER DASTURLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI

**Mamatqulova Nilufar Ulug'bekovna**
Toshkent viloyati Olmaliq shahar 11 - umumiy o'rta ta'lim maktabi
Matematika fani o'qituvchisi

https://doi.org/10.5281/zenodo.7549722

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada matematika fanini o'qitish jarayonida kompyuter dasturlaridan foydalanishga misollar va uning samaradorligi haqida ma'lumotlar keltirildi.*

***Kalit so'zlar:*** *Matematik tushunchalar, axborot va kommunikatsiya texnologiyalari, Microsoft offise Power point, Ispring, Avtoplay.*

# ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ КОМПЬЮТЕРНЫХ ПРОГРАММ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ МАТЕМАТИКЕ

***Аннотация.*** *В данной статье приведены примеры использования компьютерных программ в процессе обучения математике и сведения о ее эффективности.*

***Ключевые слова:*** *Математические концепции, информационные и коммуникационные технологии, Microsoft Office Power Point, Ispring, Autoplay.*

# EFFECTIVENESS OF USING COMPUTER PROGRAMS IN MATHEMATICS TEACHING PROCESS

***Abstract.*** *In this article, examples of the use of computer programs in the process of teaching mathematics and information about its effectiveness were presented.*

***Keywords:*** *Mathematical concepts, information and communication technologies, Microsoft office Power point, Ispring, Autoplay.*

Barchamizga ayonki, inson qalbiga yo‘l ta’lim-tarbiyadan boshlanadi. Farzandlarimizning nafaqat jismoniy va ma’naviy sog‘lom o‘sishi, balki ularning eng zamonaviy intellektual bilimlarga ega bo‘lishi hamda barkamol insonlar bo‘lib voyaga yetishi uchun matematika fanini o‘rganish muhim hisoblanadi.

Har bir o‘qituvchi o‘z darsning samarali bo‘lishini istaydi. O‘tgan mavzu yuzasidan o‘quvchi tegishli tushuncha va bilimga ega bo‘ldimi, yo‘qmi? - degan savollar o‘qituvchi yuragida hamisha ko‘ndalang bo‘lib turadi. Bu savollarga ijobiy javob olish ko‘p jihatdan o‘qituvchining samarali faoliyatiga bog‘liq.

Matematik tushunchalarni o‘quvchilarning shaxsiy tajribalari asosida shakllantirish o‘qitish maqsadlariga qo‘yiladigan birinchi talab bo‘lib, o‘qish jarayoni o‘quvchilarning turmush bilan amaliy faoliyati bog‘liq bo‘lishi tamoyilidan kelib chiqadi.

Hozirgi paytda ta’limga axborot texnologiyalarini jadal tadbiq etish, ta’lim jarayonini kompyuterlashtirish yetakchi pedagogik g‘oyaga aylangan. Darhaqiqat, 2002-yil 30-mayda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish to‘g‘risida”gi Farmoni, ushbu farmonni amalga oshirish yuzasidan Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 6-iyundagi “2002-2010 yillarda kompyuterlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish dasturi” to‘g‘risidagi qarori fikrimiz dalilidir.

Axborot va kommunikatsiya texnologiyalari o‘quvchining fanga bo‘lgan qiziqishini va mustaqil fikrlash qobiliyatini yanada oshiradi, uning bilim olishi erkinlashadi. O‘quvchi internetdan ham kerakli mavzu bo‘yicha qiziqarli ma’lumotlarni olib, bilimini rivojlantirishi

hozirgi zamon, davr talabidir. Darsning mazmun-mohiyatiga qarab suhbat, savol - javob, interfaol usullarni qo‘llash, kompyuter, audio-video vositalaridan foydalanish ham muhimdir.

Matematika ta’limi tizimida zamonaviy axborot texnologiyalari o‘quvchi so‘z boyligini oshirish, fikrni og‘zaki va yozma to‘g‘ri, ravon ifodalash mahoratini shakllantirish va rivojlantirishda o‘qituvchining beqiyos yordamchisiga aylandi.

Matematika fani o‘qituvchisi o‘z fanining saralanib, o‘quvchilar nazaridan chetda qolib ketmasligiga erishishi uchun ta’limning psixologik asoslari, muammolariga ham e’tibor qaratishi, o‘quvchilar diqqatini yo‘lga solishi juda muhimdir. “Darslarda ko‘rgazmali qurollardan, texnik va kompyuter vositalaridan foydalanish ta’lim oluvchida ixtiyorsiz diqqatni yuzaga keltiradi”.

Dars uchun zarur materiallar, topshiriqlar, tarqatma materiallar, har xil rasmlar, jadvallar kompyuterda sifatli tayyorlanib o‘quvchilarga havola qilinishi mumkin. Microsoft offise Power point, Ispring, Avtoplay dasturlari yordamida o‘quvchilarni qiziqtiradigan rebus, krossword tarzidagi o‘yinlar tashkil etish mumkin. Vazifalarni bajarish davomida to‘g‘riligini inobatga olish va o‘quvchini rag‘batlantirgan holda “Barakalla!”, “Qoyil!”, “Biroz adashdingiz”, “Yana o‘ylab ko‘ring”, “Topshiriqni qayta bajaring”, “Mavzuni takrorlashingizga to‘g‘ri keladi” kabi yozuv va mos ravishda ovoz yordamida o‘quvchi bilan muloqot o‘rnatilishi maqsadga muvofiqdir.

Matematikada masala yechish jarayonida “standart” (qolip) va “nostandart” iboralarini ishlatamiz. Boshlang‘ich sinf matematika darsliklaridagi aksariyat masalalar standart yechim yo‘liga ega masalalardir. Ya’ni berilgan masala qaysidir tur (tip)ga taalluqli bo‘lib, uning o‘ziga xos belgilariga ko‘ra yechim yo‘li mavjud. Masalan, songa yig‘indini qo‘shishga doir yoki sondan yig‘indini ayirishga doir masalalarning yechim yo‘llari aniq qoida (xossa)ga bo‘ysunadi. Bunday masalalarning yechilish usullari turlicha bo‘lgan taqdirda ham masala turi (tipi)ga qarab yechish usullari aniq yo‘l - yo‘riq (qoida)ga ko‘ra bajariladi.

Nostandart yechim yo‘liga ega bo‘lgan masala-topshiriqlarda esa yechim biror aniq yo‘l-yo‘riq asosida izlanmaydi, balki masala mazmunidan kelib chiqib, masalaning “yangi”, “original” yechim yo‘li izlanadi. Uning nostandartligi ham shunda.

Nostandart yechim yo‘liga ega bo‘lgan o‘quv topshiriqlari matematika darsliklarida ko‘zda tutilgan umumiy topshiriqlarning 0,5% ini tashkil etadi.

Bunday o‘quv topshiriqlarining afzalligi shundaki, ular o‘quvchining mantiqiy tafakkurini o‘stiradi, mustaqil fikr yuritish ko‘nikmasini tarkib toptiradi, matematika faniga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, masala yechimini izlash jarayonidagi qiyinchilik, mashaqqatni yechish tuyg‘usini, maqsadga intilish, sabr-matonat, topqirlik kabi xislatlarni tarbiyalash vazifasini bajaradi.

O‘quvchining ayrim geometrik shakllarni chizishi bilan bog‘liq quyidagi topshiriqni qaraymiz:

1-topshiriq: Qalamni daftardan uzmagan holda bir chiziqdan ikki marta o‘tmaslik sharti bilan

a) uchburchak; b) to‘rtburchak; v) bitta diagonalli to‘rtburchak g) ikki diagonalli to‘rtburchak; d) ochiq konvert ko‘rinishidagi geometrik shakllarni chizing.

Bu topshiriq tarkibida 5 ta topshiriq bo‘lib, ular ma’lum tizimni tashkil qiladi. Unda topshiriqlar oddiydan murakkabga qarab keltirilgan. 1-sinf o‘quvchisida chizg‘ich yordamida ma’lum uzunlikdagi kesmalarni yasash, uchburchak tomonlarini chizg‘ich yordamida

o‘lchash kabi ko‘nikmalar tarkib topgach, o‘quvchini dastlab varaqda (bir to‘g‘ri chiziqda yotmagan) 3 ta nuqtani belgilashni (bu ishni o‘qituvchi doskada bajarib ko‘rsatadi), belgilangan nuqtalarni chizg‘ich bilan ketma-ket tutashtirib uchburchak yasashni o‘rgatadi. O‘quvchida uchburchak yasash malakasi hosil bo‘lgach, varaqda chizg‘ichsiz 3 ta nuqtani belgilashni va ularni ketma-ket kesmalar yordamida (qalamni varaqdan uzmasdan) tutashtirishni o‘rganishadi. Bu yerda o‘qituvchi o‘quvchidan uchburchak chizayotgan paytda qaysi nuqtadan boshlashdan qat’iy nazar, shu uch nuqtadan o‘tuvchi uchburchak chizish mumkinligini aytishi joiz. Tekis qog‘oz varag‘ida (qalamni varaqdan uzmagan holda) uchburchakni chizib bilgan o‘quvchi, varaqda (dastlab iloji boricha katakli varaq olingani maqsadga muvofiq) to‘g‘ri to‘rtburchakni mustaqil ravishda (qalamni varaqdan uzmagan holda) chiza oladi. Bu topshiriqni bajarishda qiynalgan o‘quvchiga o‘qituvchi topshiriqni bajarishga doir ko‘rsatma berishi mumkin: “Varaqda 4 ta nuqtani shunday belgilaginki, 2 ta nuqta bir ustunda, 2 ta nuqta bir satrda joylashsin. Bu nuqtalardan biriga qalam uchini qo‘yib, qalamni daftardan uzmasdan ikkinchi nuqta bilan tutashtir, keyin 3-nuqta bilan va yana qo‘lni uzmagan holda 4-nuqta bilan tutashtir”.

Yoki matematika darslarida o‘quvchilarga mustaqil ishlashlari uchun beriladigan misollarni sayohat shaklida amalga oshirib, slaydlarda namoyish qilib borilsa bo‘ladi. Bunda beriladigan misollar ham o‘quvchilar uchun qiziqarli bo‘ladi.

Demak, matematika darslarida kompyuterlardan, multimedialardan foydalanish o‘quvchiga amaliy yo‘l bilan ko‘rgazmali tarzda masalaning yechimini topishga yordam beradi. Shuningdek, multimedia orqali taqdimot va slaydlarni qayta ko‘rib chiqish mumkin. Bu esa matematika darslarida matnli masalalar, murakkab misollarni yechish jarayoni va o‘xshash tushunchalarining ta’riflanish holatini takroran ko‘rish imkoniyatini beradi.

**REFERENCES**

1. Abdullayeva B.S., Rajabov F., Masharipova S. Oliy matematika asoslari. Darslik. T.: Iqtisod-Moliya, 2011, 392 b.
2. Бобоева М.Н. Олий математика фанида ҳосила мавзусини ўқитишда АКТ дан фойдаланиш. Илм-фан, таълим-тарбия ва инновацион ғоялар. Бухоро, 2018 й, 345-347 б.
3. Boboyeva M.N., Qutliyeva Z.O. Formation of elementary mathematical concepts in preschool children. Journal of Global Research in Mathematical Archives. 11:6 (2019), p. 10-12.

# FIZIKA FANIDA MEXANIKANING AHAMIYATI

**Isaqova Shoira Ikromovna**
Toshkent viloyati Olmaliq shahar 11 - umumiy o'rta ta'lim maktabi
Fizika fani o'qituvchisi

***https://doi.org/10.5281/zenodo.7549736***

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada fizika fanida hamda texnalogiyalarning rivojlanishida mexanikaning ahamiyati, Nyuton mexanikasi qonunlari to'g'risida ma'lumotlar keltirib o'tilgan.*

***Kalit so'zlar:*** *mexanika, mexanika qonunlari, klassik mexanika, kvant mexanikasi, Impul.*

# ЗНАЧЕНИЕ МЕХАНИКИ В ФИЗИКЕ

***Аннотация.*** *В данной статье приводятся значение механики в науке о физике и развитии технологий, законы ньютоновской механики.*

***Ключевые слова:*** *механика, законы механики, классическая механика, квантовая механика, Импульсы.*

# IMPORTANCE OF MECHANICS IN PHYSICS

***Abstract.*** *In this article, the importance of mechanics in the science of physics and the development of technologies, the laws of Newtonian mechanics are given.*

***Key words:*** *mechanics, laws of mechanics, classical mechanics, quantum mechanics, Impuls.*

Mexanika fizikaning asosiy bo'limlaridan biridir. Inson har doim uni o'rab turgan olam bilan murakkab o'zaro ta'sirda bo'ladi. Bu o'zaro ta'sirning namoyon bo'lishi olamni o'rganish hisoblanadi. Atrofimizdagi tabiat bir qator fanlarda o'rganiladi, uning umumiy nomi tabiatshunoslikdir. Bu fanlar orasida fizika muhim o'rin egallaydi. O'z navbatida, fizikada mexanika muhim o'rin egallaydi. Mexanikaning bunday o'rin tutishiga asosiy sabablar quyidagilar: birinchidan inson o'zini o'rab turgan olamni bilishining dastlabki bosqichlarida mexanik hodisalarni o'rganish muhim o'rin egallaydi. Ikkinchidan, fizikaning barcha keyingi bo'limlari mexanika bazasida yuzaga keladi, bu bo'limlarda mexanikada ishlab chiqilgan metod va tushunchalardan foydalaniladi.

Fizika fan sifatida ijtimoiy ishlab chiqarish talablari natijasida yuzaga keldi. Bunda tegishli talablar paydo bo'lishi bilan birin-ketin ijtimoiy ishlab chiqarish tarmoqlari yuzaga kela boshladi. Mexanika bugungi kunda kosmonavtika, aviatsiya suv usti va osti transporti, mashinasozlik, qurilish, mudofaa va tibbiyot texnikasining ilmiy asosidir. Hozirgi kunda hech bir ishlab chiqarish korxonasi yo'qki, uning uchun mexanika bilimlari kerak bo'lmasin. Mexanika va tabiatni bilish. Tabiatning hech bir hodisasini uning mexanik tomonlarini bilmay turib, har tomonlama bilish mumkin emas. Buning ajablanarli joyi yo'q: bizni o'rab turgan dunyoda ko'p hodisalar mexanik harakat bilan bo'g'langan. Quyosh, yer va boshqa sayyoralarning harakati, suv va havo harakati, jismlarning tushishi, odamlar, hayvonlarning ko'chishi-bularning hammasini mexanika bilimlarisiz tushuntirib bo'lmaydi.

Mexanikaning asosiy qonunlari Nyuton tomonidan uning 1687 yilda chop etilgan "Natural falsafaning matematik asoslari" nomli kitobida (o'sha vaqtda fizikani shunday atashgan) ifodalangan edi.

Nyuton, o'zigacha mexanika sohasida erishilgan hamma yutuqlarni umumlashtirib, mexanika fanining mustahkam binosini qurdi. Nyuton mexanikasi ko'pincha klassik mexanika

deb ataladi: “klassik” so’zi uning asoslari va bunyodkorga hurmat yuzasidan qo’shilgan. Klassik mexanika asosini uchta qonun tashkil qilgan va ushbu uchta qonun quyidagilardir:

Birinchi qonun — har qanday jismga tashqi kuch ta’sir qilmaguncha u oʻzining tinch holatini yoki toʻgʻri chiziqli tekis harakatini saklaydi.

Ikkinchi qonun — harakat miqdori (jism massasi bilan tezlanishi koʻpaytmasi) ning oʻzgarishi jismga ta’sir qiluvchi kuchga proporsional, yoʻnalishi esa ta’sir etadi.

Uchinchi qonun—ikki jismning oʻzaro ta’sir kuchi bir-biriga teng, yoʻnalishi esa qarama-qarshi boʻladi. Nyutonning mexanika qonunlari G.Galiley, X.Gyuygens, hamda Nyutonning oʻzi oʻtkazgan koʻplab kuzatishlar, tajribalar va nazariy tadqiqotlar natijasida paydo boʻlgan.

Kvant mexanikasi, toʻlqin mexanikasi — nazariy fizikaning juda kichik o'lchamli zarralar (elementar zarra, atom, molekula va h.k.) harakat qonunlarini oʻrganuvchi boʻlimi hisoblanadi. XX asr boshida qator omillar — atomlarning turgʻunligi, fotoeffekt, radioaktivlik, qora jismning nurlanishi singari hodisalarni klassik mexanika va klassik elektrodinamika asosida tushuntirib berish imkoni boʻlmay qolganligi kvant mexanikasini paydo boʻlishiga olib keldi.

M.Plank, A.Eynshteyn va N.Bor kabi olimlarning ishlari kvant mexanikasining yaratilishiga asos boʻldi. Fizikaning boshqa sohalari kabi, kvant mexanikada ham zarrachaning holatini va bu holat o’zgarishini ifodalovchi dinamik kattaliklarning bir qator saqlanish qonunlari fundamental ahamiyatga egadir. Shunday saqlanish qonunlari qatoriga energiya, Impuls va Impuls momenti saqlanish qonunlarini va ulardan tashqari faqat kvant mexanikaga xos bo’lgan juftlikning saqlanish qonunini ham kiritish mumkin.

Klassik mexanikada vaqtning bir jinsliligidan energiyani saqlanish qonuni, fazoning bir jinsliligidan impulsning saqlanish qonuni va fazoning izotropligidan impuls momentining saqlanish qonuni kelib chiqadi.

Shunday qilib, yorug’lik tezliklaridan kichik tezliklar bilan harakatlanuvchi mikroskopik jismlar harakatini to’gri tavsiflaydi. Albert Eynshteyn Nyutonning klassik mexanika qonunlarini quyidagi tarzda baholaydi: “Hech kim Nyutonning buyuk kashfiyotini nisbiylik nazariyasi yoki qandaydir boshqa nazariya yo’q qilib yuboradi deb o’ylamasin. Nyutonning aniq va ravshan g’oyalari doimo bizning zamonaviy fizik tasavvurlarimiz tayangan abadiy zamin bo’lib qoladi”.

## REFERENCES

1. A.G. G’aniyev, A.K. Avliyoqulov, G.A. Almardonov. “Fizika”. I-qism. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun darslik. “O’qituvchi”, Toshkent. 2005 yil
2. Nabijonovich J. A. Renewable energy sources in Uzbekistan //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2020. – Т. 10. – №. 11. – С. 769- 774. 3. Хантўраев И. М., Жуманов А. Н. ЭЛЕКТР ТАРМОҚЛАРИДА ҚУВВАТ ИСРОФЛАРИНИ ҲИСОБЛАШ //Academic research in educational sciences. – 2021. – Т. 2. – №. 5. – С. 330-337
3. Курбанов А. А. Ў., Жуманов А. Н., Муродқосимов Ж. Т. Ў. 0, 38 КВ КУЧЛАНИШЛИ ТАРМОҚНИ ЭЛЕКТР ЭНЕРГИЯ ИСРОФИНИ ҚИЙМАТИНИ АНИҚЛАШ //Academic research in educational sciences. – 2021. – Т. 2. – №. 5. – С. 300-306.
4. M.M.Musaxanov, A.S.Raxmatov, Kvant mexanikasi – T., 2011-y.

# МЕСТО И ЗНАЧЕНИЕ ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ПРОИЗВЕДЕНИЙ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

**Гильданова Ралия Рамиловна**
Учитель начальных классов
Ташкентская область город Алмалык
***https://doi.org/10.5281/zenodo.7549768***

***Аннотация.*** *В данной статье даны рекомендации по изучению художественных произведений в начальных классах по их жанровым признакам.*

***Ключевые слова:*** *устное народное творчество, рассказ, стихотворение, сказка, притча, пословица, Былина, повествование, загадка.*

## PLACE AND SIGNIFICANCE OF ART WORKS IN THE PRIMARY SCHOOL

***Abstract.*** *This article provides recommendations for the study of works of art in primary school according to their genre features.*

***Keywords:*** *oral folk art, story, poem, fairy tale, parable, proverb, Bylina, narration, riddle.*

На уроках чтения начальных классов, хотя и не с научной точки зрения, на практике изучаются произведения, относящиеся к разным жанрам. Уроки чтения включают в себя произведения, в основном в таких жанрах, как рассказы, стихи, сказки, притчи, пословицы, былины, повествования и загадки. Кроме этого, преподаются научно-популярные труды.

Методика чтения сказки. Одной из причин того, что сказочный жанр в устном народном творчестве хорошо воспринимается и с интересом читается детьми, является выразительность, острота, значимость и близость языка сказки к народному. В большинстве сказок образ реальной жизни сочетается с авантюрными элементами.

Острый, интересный сюжет сказки, необыкновенно удивительная ситуация в развитии рассказа очаровывают детей, привлекают в нем отважных, сильных, находчивых, смелых, ловких героев, идейная направленность сказки, в которой всегда торжествует Сила добра — добра. Принятой в сказке формой повествования является многократное повторение одних и тех же слов и словосочетаний, мелодичность, выразительность языка, живость средств выражения, увлекательность для детей. Участники сказки часто изображаются милосердными, щедрыми, справедливыми, а также злыми, скупыми, жадными людьми, которые являются их отражением.

Педагогическая ценность сказки заключается в том, что читатели радуются тому, что в ней торжествует правильность, честность, бедняки избавляются от невзгод, то есть добро, добро сбываются, а зло, зло обречено. Они хотят, чтобы так было всегда и в жизни.

Из опыта школы известно, что младшие школьники прекрасно знают, что животные в сказке не разговаривают, лиса и журавль не ходят друг к другу в гости, а воспринимают сказочный мир как историю из жизни. При чтении и анализе сказки вся работа направлена на хорошее восприятие ее содержания, правильное представление о развитии сюжета, поведении, взаимодействии действующих лиц. В этом большое значение имеет выборочное чтение и пересказ. Например, легко ли быть вежливым?(А. Для усвоения содержания сказки Абиджан) можно использовать следующие задания:

1. Прочтите разговор мыши с ее матерью. Мышь что нужно делать, чтобы быть вежливым? расскажите, как ее мать ответила на вопрос: “почему?”

2. Найдите место, где мышь встречает кошку, и прочитайте его. Почему зло в глазах “шум Барака” внезапно исчезает?

3. Почему коза, мышь,молится “не меньше”? Найдите это место и читайте дальше.

На заключительном этапе анализа сказки “найдите и прочтите то место сказки, которое вам очень понравилось” скажите, почему вам понравилось именно это место были ли в вашей жизни события, похожие на события в сказке? с помощью таких вопросов-заданий достигается понимание читателями сказочного заключения.

Помимо сказок о животных, ученики начальных классов также читают бытовые сказки, такие как “государство”, “наука предпочтительнее”, “хитрость”, “человек без ремесла близок к смерти”. В таких сказках народ рассказывает о своей жизни, поэтому читатели, прочитав сказку, узнают прошлую народную жизнь, мысли и мечты.

Анализ таких сказок организован в стиле художественного повествования. Дети под руководством воспитателя оценивают поведение, отдельные поступки участников сказки, рассказывают об их отношении друг к другу и на их основе делают выводы об отдельных образах, составляют план сказки, читают сказку по ролям.

При работе над сказкой важно научить детей не только читать сказку, но и рассказывать ее. Рассказывание сказок развивает устную речь, обогащает речь детей новыми словами и словосочетаниями.

Чтобы научить учащихся свободно пользоваться языком сказки уже в 1 классе, при первом знакомстве со сказкой ее может рассказать учитель.

В языке сказок есть такие слова и выражения, которые оказывают на ребенка особое влияние. Например, в сказке “Тигр, лиса и волк”, “горный козел пусть будет ты нашим великим”, “Кролик пусть будет утренним завтраком нашего короля”, “олень пусть будет твоим вечерним обедом, а овца пусть будет твоим дневным постельным бельем”, необходимо обратить внимание читателей на выделенные слова в предложении и добиться их использования в речи при рассказе сказки.

В процессе работы с текстом сказки важное значение приобретает и работа над используемыми в ней художественными средствами: одушевлением, метафорой, преувеличениями.

**REFERENCES**

1. Т.Гаффорова, Г.Эштурдиева 1 класс уроки обучения грамоте.
2. Ходжабоев А. Хусанов Л. Методика профессионального обучения. Т.: Наука и технологии, 2007.

# ZAMONAVIY AXBOROT TEXNALOGIYALARDAN FOYDALANGAN HOLDA KIMYO FANIDA LABARATORIYA ISHLARINI TASHKIL ETISH

**Yusupova Gulnoza To'xtaboyevna**
Toshkent viloyati Olmaliq shahar 11 - umumiy o'rta ta'lim maktabi
Kimyo fani o'qituvchisi

https://doi.org/10.5281/zenodo.7549982

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada, umumta'lim maktablarida kimyo xonasi, laboratoriya mashg'ulotlari o'tkaziladigan xona va reaktivlar saqlanadigan preparatxonadan foydalanishning qonun va qoidalari haqida fikr - mulohazalar bilan bir qatorda, kimyo fanidan amaliy mashg'ulotlarni tashkil qilishda o'quvchilar bilimidagi bo'shliqlarni bartaraf etish uchun qo'llash mumkin bo'lgan tavsiyalar keltirilgan.*

***Kalit so'zlar:*** *Kimyoviy moddalar, laboratoriya, shtativi, probirkalar, shisha tayoqcha, menzurka, amaliy mashg'ulot, tajriba, reaktiv, didaktika, kichik guruh.*

# ОРГАНИЗАЦИЯ ЛАБОРАТОРНОЙ РАБОТЫ ПО ХИМИИ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ СОВРЕМЕННЫХ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

***Аннотация.*** *В данной статье, помимо комментариев о законах и правилах пользования кабинетом химии, помещением, где проводятся лабораторные занятия, и аптекой, где хранятся реактивы, при организации практических занятий по химии даны рекомендации по знаниям студентов. даются, которые можно использовать для закрытия пробелов.*

***Ключевые слова:*** *Химические вещества, лаборатория, штатив, пробирки, стеклянная палочка, химический стакан, практические занятия, эксперимент, реагент, дидактика, малая группа.*

# ORGANIZING LABORATORY WORK IN CHEMISTRY USING MODERN INFORMATION TECHNOLOGIES

***Abstract.*** *In this article, in addition to comments on the laws and rules of using the chemistry room, the room where laboratory exercises are held, and the pharmacy where reagents are stored, in the organization of practical classes in chemistry, students' knowledge recommendations are given that can be used to close the gaps.*

***Key words:*** *Chemical substances, laboratory, tripod, test tubes, glass rod, beaker, practical training, experiment, reagent, didactic, small group.*

Ma'lumki kimyo fani tabiiy fanlar qatoriga kiradi va u kimyoviy moddalar ularning bir-biriga aylanishi va o'zgarishlarni o'rganadigan fan hisoblanadi. Fanni o'zlashtirishda nazariy ma'lumotlar bilan bir qatorda amaliy-laboratoriya ishlarini ham o'rni benihoya kattadir. Amaliy ishlar nazariyani to'ldirishga tasavvurlarni yanada kengaytirishga yordam qiladi. Laboratoriya ishlari, amaliy ishlar asosan laboratoriyalarda xususan o'rta umumiy ta'lim muassasasida kimyo xonalarida amalga oshiriladi.

O'rta umumiy ta'lim maktablarida kimyo kabineti laboratoriya mashg'ulotlari o'tkaziladigan xona va reaktivlar saqlanadigan preparatxonadan iborat bo'ladi. Laboratoriya xonasida turli asbob va reaktivlar saqlanadigan shkaflar, o'quvchilar mashg'ulot o'tkazadigan stollar, turli xil maketlar va stendlar bo'ladi. O'quvchilarning stollar va o'qituvchi tajriba ko'rsatadigan stol xar bir darsning mazmuniga ko'ra jihozlanadi. O'qituvchi tajriba ko'rsatadigan stol yonida vodoprovod jo'mragi va gaz gorelkasi albatta bo'lishi shart.

O'quvchilar esa spirt lampasidan foydalanadilar. O'quvchilar stolida laboratoriya shtativi, probirkalar qo'yilgan shtativ, 100 yoki 250 mlli kolba, 2 yoki 5 millilitrli pipetka, 25 sm uzunlikda shisha tayoqcha, menzurka, voronka va chinni stakan quyilgan bo'ladi. Tuz, kislota hamda asoslarning har xil kontsentratsiyali eritmalari laborant xonasida (preparatxonada) turadi va zarur bo'lganda o'quvchilarga laborantning o'zi quyib beradi. Bundan tashqari, laboratoriya xonasida bir chekkada va olish qulay bo'lgan joyda yong'inga qarshi kurash vositalari (qum solingan yashiq, o't o'chirgich va boshqalar) hamda aptechka bo'lishi kerak.

Kimyo darslarida o'qitishning faol usullaridan foydalanish, darslarning asosi qilib ko'rsatiladigan tajribalarga va laboratoriya mashg'ulotlariga katta e'tibor berib, ularni to'g'ri uyushtirish, qilib ko'rsatiladigan tajribalarga o'quvchilarning butun diqqat e'tiborini jalb qilish, har bir hodisaga o'quvchilarning tadqiqototchi sifatida yondashishlariga erishish kerak.

Amaliy mashg'ulotdan ko'zda tutilgan asosiy maqsad butun o'tilgan mavzularga oid nazariy bilimlar naqadar puxta o'zlashtirilganligini bilib olishdan iborat. Bunday mashg'ulotni o'tkazishda barcha zaruriy asbob-jihozlar va reaktivlar oldindan taxt qilib qo'yilgan bo'lishi lozim. Shu sababli mashg'ulot o'tkazilishidan bir necha kun oldin o'qituvchi laborantga qanday tayyorgarlik ishlari ko'rish lozimligini aytib, laborantning ish jurnaliga yozib qo'yadi.

Shuningdek, har bir darsda va ayniqsa, amaliy mashg'ulotlar vaqtida o'qituvchi o'quvchini zamonaviy fan-texnika yangiliklari bilan tanishtirib, imkon qadar ularga ana shu yangiliklar bilan bog'liq tajribalarni ko'rsatib borishi zarur. Yangi axborot texnologiyalaridan an'anaviy darslarda, jumladan, kimyo fanidan amaliy mashg'ulotlarda, laboratoriya ishlarini, namoyish tajribalarini samarali qo'llash mumkin. O'quv jarayonida eng yangi axborot texnologiyalari vositalaridan foydalanish samaradorligi ko'p jihatdan axborot mazmuni bilan bog'liq uslubiy vazifalarni muvaffaqiyatli hal etishga bog'liq.

Har doim ham o'qituvchi o'zi xohlagan tajribani bajara olmasligi mumkin, chunki kabinetning moddiy bazasi har doim ham zamonaviy kimyo kabinetining talablariga javob bermaydi. Shuning uchun bu yerda kompyuter vositalaridan foydalanish ushbu muammoni samarali hal qilishga yordam bera oladi. O'quvchilarning dasturiy ta'minot bilan ishlash afzalligi shundaki, bunday faoliyat tadqiqot va ijodiy faoliyatni rag'batlantirish uchun xizmat qiladi.

AKT kimyo darslarida va darsdan tashqari ishlarda faol o'quv jarayonini qo'llab-quvvatlash uchun ishlatilishi mumkin. Shuning uchun, kimyo ta'limida virtual tajribalarning quyidagi afzalliklari mavjud, masalan:

- Maktab kimyo laboratoriyasida mavjud bo'lmagan eksperimentlarni o'tkazish;

-masofaviy seminarlar va laboratoriya ishlari, shu jumladan cheklangan imkoniyatlarga ega bolalar va hududiy masofaviy maktab o'quvchilari bilan o'zaro aloqalar;

-ish tezligi, reagentlarni tejash;

-maktab o'quvchilarining bilim olishga bo'lgan qiziqishini kuchaytirish.

- har bir darsdan oldin barcha o'rnatishni qayta to'plashning hojati yo'q, asboblarni tekshirish uchun vaqt sarflash, ularni joyiga qo'yish;

- xavfsizlik texnikasi normal sharoitdan ko'ra ancha yuqori;

- qisqa vaqt ichida turli xil bir nechta eksperimentlar o'tkazishingiz, so'ngra natijalarni umumlashtirishingiz va xulosalar chiqarishingiz mumkin;

- namoyish vaqtini sekinlashtirish yoki tezlashtirish mumkin.

Ushbu jarayon o'ta muhim ekanligiga qaramasdan, shu ham inobatga olish lozimki, kimyo fani o'qituvchilari haqiqiy amaliy ishlardan butunlay voz kecha olmaydilar, chunki ularda fanni

oʻqitishda vizual fikrlash uslubdan koʻra koʻproq rivojlangan va kelajakda oʻquvchilarni oʻqitish jarayonini umumlashtirishning nazariy darajasiga asoslangan boʻlsa, oʻquvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantiradigan kompyuter modellaridan foydalanish mumkin.Shuni ta'kidlashni istardimki, oʻta aniqlik asosida bajarilgan tajriba oʻrganilayotgan mavzuni tezroq va chuqurroq oʻzlashtirish imkonini beradi, idrok qilish qiyin boʻlgan masalalarni tushunishga yordam beradi, mavzuga qiziqishni oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, oʻquvchi nima sababdan tajriba bajarilayotganligi va qanday muammoni tajriba asosida aniqlash mumkinligini bilishi kerak. Oʻquvchidan moddalarni asboblar va indikatorlar yordamida oʻrganadi va natijada tajriba natijalaridan unga oid nazariy kontseptsiyalari asosida xulosa chiqara bilish kerak.

**REFERENCES**

1. Asqarov I.R. Mamasoliyev M.M., A.X. Majidov. ―Maktabda kimyodan amaliy mashgʻulotlar. Toshkent. ―Oʻqituvchi. 1992.
2. Asqarov I.R, Gʻopirov K.Gʻ. Rustamov A. Rahimov. M. ―Kimyodan test‖. Toshkent. ―Oʻqituvchi. 1994.
3. A.E. Yangibayev, M.Ergasheva "Umumiy oʻrta ta'lim maktablarida kimyo fanidan laboratoriya ishlarini tashkil etish va oʻtkazish" Qoʻllanma. Toshkent – 2010.
4. T.S.Nazarova, A.A.Grabetskiy, V.N.Lavrova. Maktabda ximiyadan tajriba oʻtkazish. T. "Oʻqituvchi". 1992.

# BOSHLANG'ICH TA'LIMDAGI BAHOLASH TIZIMI, MUAMMO VA YECHIMLAR.

**Djurayeva Nilufar Raxmatovna**
Toshkent viloyati Olmaliq shahar 11 - maktab
Boshlang'ich sinf o'qituvchisi

https://doi.org/10.5281/zenodo.7550002

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada boshlang'ich ta'limdagi baholash tizimi, mavjud muammolar, xalqaro tadqiqot dasturining o'rni hamda ularning yechimlari haqida fikr yuritilgan.*

***Kalit so'zlar:*** *PIRLS, PISA, TIMSS, TALIS, xalqaro baholash dasturi, milliy ta'lim tizimi, o'qish savodxonligi.*

# СИСТЕМА ОЦЕНКИ В НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ, ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ.

***Аннотация.*** *В данной статье рассматривается система оценивания в начальном образовании, существующие проблемы, роль международной исследовательской программы и пути их решения.*

***Ключевые слова:*** *PIRLS, PISA, TIMSS, TALIS, международная программа оценивания, национальная система образования, читательская грамотность.*

# ASSESSMENT SYSTEM IN PRIMARY EDUCATION, PROBLEMS AND SOLUTIONS.

***Abstract.*** *This article discusses the assessment system in primary education, existing problems, the role of the international research program and their solutions.*

***Key words:*** *PIRLS, PISA, TIMSS, TALIS, international assessment program, national education system, reading literacy.*

Boshlang'ich ta'lim – ta'limning poydevori deb bejiz aytilmagan. O'quvchilarning kelajakda komil inson bo'lib voyaga yetishini ta'minlovchi muhim bosqich hisoblanadi. Yurtimizda boshlang'ich ta'limni rivojlantirish borasida qator yutuqlarga erishildi. Jumladan, boshlang'ich ta'lim bosqichi uchun zamon talablariga javob beradigan yangi davlat ta'lim standartlari, o'quv dasturi, shu jumladan, darsliklarning multimedia ilovalari, darsliklar va o'quv qo'llanmalari ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etildi. Ilg'or pedagogik texnologiyalar va o'qitishning interfaol usullaridan keng foydalanilmoqda.

Modernizatsiyalashgan ta'lim talablariga muvofiq tarzda yangilangan "Boshlang'ich ta'lim konsepsiyasi"da ta'kidlanishicha, "Shaxsga yo'naltirilgan hamda kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan boshlang'ich ta'lim jamiyat taraqqiyoti bilan baravar rivojlanib, takomillashib boruvchi ta'lim nazariyasiga tayangan holda muntazam tarzda rivojlantiriladi va shaxsni jamiyat talablari asosida yuksaltirishga xizmat qiladi".

Shuningdek, mazkur konsepsiyaning 6 - bandida ta'lim jarayoniga innovatsion pedagogik texnologiyalarni va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tatbiq etishning mexanizmlari ko'rsatilib, boshlang'ich ta'limni takomillashtirishda ilg'or pedagogik va mediata'lim texnologiyalarining o'rni ko'rsatib o'tilgan. Shunga ko'ra maqsadimiz — boshlang'ich ta'limning sifatini jahon talablari darajasiga ko'tarishga erishish, bo'shliqlarni aniqlash va to'ldirishdir. Bu ishlarni samarali amalga oshirishda boshlang'ich sinf o'qituvchisining yuqori

kasbiy salohiyati va ma'lumot darajasi, bolalar psixologiyasi hamda hozirgi zamon boshlang'ich ta'lim metodikasini chuqur bilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

So'ngi yillarda mamlakatimiz ta'lim tizimida xususan boshlang'ich ta'limda keng qamrovli ijobiy ishlar amalga oshirildi. Ta'lim sifatini oshirish uchta eng asosiy tarmoqlarning birdek takomillashuviga bog'liq bo'lib, ular umumta'lim muassasalarining moddiy texnika bazasini rivojlantirish, uni o'quv metodik adabiyotlar bilan ta'minlash, o'quv jarayonida zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarni tadbiq etishdan iborat.

Boshlang'ich ta'limda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarni qo'llashda o'qituvchining didaktik o'quv materiali, dars ishlanmalari kabilar kiradi. Ta'lim tizimida ilg'or xalqaro tajriba va jamiyatning zamonaviy talablariga muvofiq sifatli ta'lim olish imkoniyatlarini yaratish, xalq ta'limi muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va byudjetdan mablag' bilan ta'minlashning samaradorligini oshirish, yoshlar ta'lim-tarbiyasi uchun qo'shimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan choratadbirlarni amalga ooshirish bo'yicha izchil islohotlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga umumiy o'rta ta'lim muassasalarining mavjud holati ularning faoliyatidagi tizimli muammolar va kamchiliklarni tezkor bartaraf etish mexanizmlarini yaratish, qishloq va shahar maktablarining moddiy-texnik ta'minoti va ta'lim berish sifatidagi tafovutni qisqartirish hamda o'quvchi-yoshlarning ta'lim olishlari uchun teng sharoitlar yaratish zarurligini ko'rsatmoqda.

**PISA** – o'quvchilarni ta'limiy yutuqlarini baholash xalqaro dasturi; PIRLS –matnni o'qish va tushunish darajasini aniqlovchi xalqaro tadqiqot; TIMSS – maktabda matematika va aniq fanlar sifatini tadqiq qiluvchi xalqaro monitoring; TALIS – turli mamlakatlarda tashkil etiladigan pedagogik jarayonlarning xalqaro qiyosiy tahliliga asoslangan tadqiqot - kabi bir qator xalqaro dasturlar mavjud bo'lib, ular rivojlangan davlatlardagi ta'lim sifatini yanada oshirishdagi mezon sifatida keng qo'llanilmoqda.

**PISA** (inglizcha - Programme for International Student Assessment) – turli davlatlarda 15 yoshli o'quvchilarning savodxonligini (o'qish, matematika, tabiiy fanlar) hamda bilimlarini amaliyotda qo'llash qobiliyatini baholovchi dastur. Bu dastur 3 yilda bir marotaba o'tkaziladi. Dastlab 1997-yilda ishlab chiqilgan va 2000-yilda birinchi marta qo'llanilgan. PISAda o'quvchilarning bilim sifati monitoringi 5 ta yo'nalish bo'yicha aniqlanadi.

Xalqaro tadqiqotlar ta'lim sohasidagi milliy tadqiqotlarni sifatli o'tkazishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. So'nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida ulkan iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlariga erishilayotganligi barcha sohalarda malakali kadrlar va yetuk mutaxassilarga bo'lgan talabni yanada oshirmoqda. Bu o'zo'zidan o'quvchilarimizning darslarga qiziqish xususiyatini oshirish va o'qituvchilarning har tomonlama ta'limtarbiyaga e'tiborini kuchaytirishni talab etadi.

Yuqoridagi talablarning ta'lim tizimi uchun juda muhim ekanligi, aksariyat xorijiy davlatlardagi kabi ta'lim va fan sohalari rivojlanishini baholash va monitoring qilish orqali ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan ilg'or tajribalarni sohaga jalb qilish kerakligini anglatadi. ta'lim va fan sohalari rivojlanishini baholash va monitoring qilish orqali ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan ilg'or tajribalarni sohaga jalb qilish kerakligini anglatadi.

Boshlang'ich ta'lim pedagoglari oldida turgan dolzarb muammolardan biri, o'quvchilarni xalqaro baholash dasturiga psixolgik tayorlashdir. Ularning ota-onalar ongini o'stirish va bu haqida tushunchalar berishdir. Bugungi kunda, qayd etilgan ishlarning davomi sifatida,

qo'shimcha o'quv-metodik qo'llanmalar, topshiriqlar to'plami, axborotnoma, videodars va videoroliklar yaratish, shuningdek, tajriba-sinov jarayonlari uchun maxsus nazorat materiallarini tayyorlash ishlari olib borilmoqda.

**REFERENCES**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 27 iyundagi "Yoshlar – kelajagimiz" Davlat dasturi to'g'risida"gi PF-5466-son Farmoni. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi 15.08.2018 y., 07.18.3907/1706-son.
2. Xalqaro tadqiqotlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini baholash. (Boshlang'ich sinf o'qituvchilari, metodistlar va soha mutaxassislari uchun metodik qo'llanma) «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati. Toshkent-2019.
3. https://www.gazeta.uz/oz/2020/09/14/education/
4. https://lex.uz/docs/-4097073

# BOSHLANG'ICH SINFLARNI XALQARO BAHOLASH TADQIQOTLARI DASTURLARIGA TAYYORLASHNING DOLZARB MUAMMOLARI

**Mirzayeva Mashhura Sadullayevna**
Toshkent viloyati Chirchiq shahar 8 - umumiy o'rta ta'lim maktabi Boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi
**Abdumajitova Dilnoza Abdumajitovna**
Toshkent viloyati Chirchiq shahar 8 - umumiy o'rta ta'lim maktabi Boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi

*https://doi.org/10.5281/zenodo.7550162*

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada, bugungi kunda boshlang'ich sinflarni xalqaro baholash tadqiqotlari dasturlariga tayyorlashning dolzarb muammolari, ularning ahamiyati, hamda dunyo hamjamiyati tomonidan ta'lim sifatini baholovchi va monitoring qiluvchi qator dasturlar – PIRLS, TIMSS, PISA, TALIS haqida ma'lumotlar keltirib o'tildi.*

***Kalit so'zlar:*** *Boshlang'ich ta'lim, xalqaro baholash dasturlari, IEA, PIRLS, TIMSS, PISA, TALIS.*

# СЛОЖНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ПОДГОТОВКИ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ К МЕЖДУНАРОДНЫМ ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИМ ПРОГРАММАМ ОЦЕНКИ

***Аннотация.*** *В данной статье рассматриваются актуальные на сегодняшний день проблемы подготовки младших школьников к международным оценочным исследовательским программам, их значение, а также ряд программ оценки и мониторинга качества образования со стороны мирового сообщества - PIRLS, TIMSS, PISA, TALIS. представили, спросили.*

***Ключевые слова:*** *начальное образование, международные программы оценивания, IEA, PIRLS, TIMSS, PISA, TALIS.*

# CHALLENGING PROBLEMS OF PREPARING PRIMARY CLASSES FOR INTERNATIONAL ASSESSMENT RESEARCH PROGRAMS

***Abstract.*** *In this article, today's current problems of preparing elementary school students for international assessment research programs, their importance, as well as information about a number of programs that evaluate and monitor the quality of education by the world community - PIRLS, TIMSS, PISA, TALIS.*

***Key words:*** *Primary education, international assessment programs, IEA, PIRLS, TIMSS, PISA, TALIS.*

Boshlang'ich ta'lim o'quvchilarning kelajakda komil inson bo'lib voyaga yetishini ta'minlovchi muhim bosqich hisoblanadi. Yurtimizda boshlang'ich ta'limni rivojlantirish borasida qator yutuqlarga erishildi. Jumladan, boshlang'ich ta'lim bosqichi uchun zamon talablariga javob beradigan yangi davlat ta'lim standartlari, o'quv dasturi, shu jumladan, darsliklarning multimedia ilovalari, darsliklar va o'quv qo'llanmalari ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etildi. Ilg'or pedagogik texnologiyalar va o'qitishning interfaol usullaridan keng foydalanilmoqda.

So'ngi yillarda mamlakatimiz ta'lim tizimida xususan boshlang'ich ta'limda keng qamrovli ijobiy ishlar amalga oshirildi. Ta'lim sifatini oshirish uchta eng asosiy tarmoqlarning birdek takomillashuviga bog'liq bo'lib, ular umumta'lim muassasalarining moddiy texnika bazasini rivojlantirish, uni o'quv metodik adabiyotlar bilan ta'minlash, o'quv jarayonida

zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarni tadbiq etishdan iborat. Boshlang'ich ta'limda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarni qo'llashda o'qituvchining didaktik o'quv materiali, dars ishlanmalari kabilar kiradi.

Ta'lim tizimida ilg'or xalqaro tajriba va jamiyatning zamonaviy talablariga muvofiq sifatli ta'lim olish imkoniyatlarini yaratish, xalq ta'limi muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va byudjetdan mablag' bilan ta'minlashning samaradorligini oshirish, yoshlar ta'lim-tarbiyasi uchun qo'shimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish bo'yicha izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga umumiy o'rta ta'lim muassasalarining mavjud holati ularning faoliyatidagi tizimli muammolar va kamchiliklarni tezkor bartaraf etish mexanizmlarini yaratish, qishloq va shahar maktablarining moddiy-texnik ta'minoti va ta'lim berish sifatidagi tafovutni qisqartirish hamda o'quvchi-yoshlarning ta'lim olishlari uchun teng sharoitlar yaratish zarurligini ko'rsatmoqda.

Bugungi kunda dunyo hamjamiyati tomonidan ta'lim sifatini baholovchi va monitoring qiluvchi qator dasturlar shakllangan. Bu dasturlarning ayrimlari:

**1. PIRLS** – (The Progress in International Reading Literacy Study) – 4-sinf sinf o‘quvchilarining matnni o‘qish va tushunish darajasini baholovchi xalqaro dastur (2021-yil 5-14-aprelda O‘zbekiston ilk marotaba ishtirok etdi, bunda 180 ta maktabning 6000 yaqin 4-sinf o‘quvchisi qatnashdi);

**2. TIMSS** – (Trends International Mathematics and Science Study) – 4- va 8-sinf o‘quvchilarining matematika va tabiiy fanlardan savodxonligini baholovchi xalqaro dastur (O‘zbekiston 2023-yilda bu dasturga ishtirok etadi);

**3. PISA** – o'quvchilarni ta'limiy yutuqlarini baholash xalqaro dasturi;

**4. TALIS** – turli mamlakatlarda tashkil etiladigan pedagogik jarayonlarning xalqaro qiyosiy tahliliga asoslangan tadqiqot - kabi bir qator xalqaro dasturlar mavjud bo'lib, ular rivojlangan davlatlardagi ta'lim sifatini yanada oshirishdagi mezon sifatida keng qo'llanilmoqda.

Har besh yilda o'tkaziladigan PIRLS dasturi 4-sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini xalqaro darajada baholaydi. 2016-yildan boshlab qo'shimcha tanlov asosida PIRLS tizimi joriy qilingan bo'lib, u o'quvchilarning onlayn o'qish savodxonligini baholashga mo'ljallangan. Internet o'quvchilar uchun ma'lumotlar olishning boshlang'ich yo'li, hamda maktab fanlari doirasida izlanishlar olib borish uchun markaziy manba hisoblanadi.

PIRLS dasturida qatnashuvchi mamlakatlar soni yildan yilga ko'payib bormoqda. Masalan, dasturda 2001-yilda 35 ta mamlakat qatnashgan bo'lsa, 2006- yilda 40 ta, 2011-yilda 45 ta, 2016-yilda 50 ta mamlakat va navbatdagi 2021-yilda o'tkazilgan tadqiqotda 60 ta mamlakat ishtirok etdi. 2016-yilda tadqiqotga Rossiya Federatsiyasining 42 ta hududidan 206 ta umumiy o'rta ta'lim maktabi va 4577 ta boshlang'ich sinf o'quvchilari jalb etilgan bo'lib, tadqiqot natijalariga ko'ra Rossiya Federatsiyasi dunyo bo'yicha birinchi o'rinni egallagan. O'qish savodxonligi o'quvchilarning ilmiy va shaxsiy muvaffaqiyatini o'sishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi, shuningdek, PIRLS ta'lim sohasida olib borilayotgan siyosatning muvaffaqiyatga ta'sirini baholash uchun qimmatli vosita hisoblanadi.

PIRLS 2021 xalqaro tadqiqoti qog'oz shaklidan raqamli shakliga o'ta boshladi va ishtirokchi mamlakatlarning qariyb yarmi, tadqiqotning raqamli shaklidan, qolgan yarmi esa an'anaviy qog'oz shaklidan foydalandi. Har ikkala baholash shakllari o'rtasidagi muvofiqlikni ta'minlash uchun, raqamli va qog'oz shaklidagi PIRLS dasturlarida o'qib tushunishga oid beriladigan matnlar va savollarning bir xilligiga e'tibor beriladi, ammo PIRLS tadqiqotida

qog'oz, an'anaviy shakldagi baholash jarayonida qo'llash mumkin bo'lmagan imkoniyatlar va topshiriqlar mavjud. PIRLS tadqiqotlarida darsda o'quvchilar tomonidan eng ko'p qo'llaniladigan o'qishning quyidagi ikki turi o'rganiladi:

1. Adabiy kitobxonlik malakasini egallash maqsadidagi o'qish.
2. Mazmunni tushunish va amalda foydalanish maqsadidagi o'qish.

O'quvchilarga ikki xil topshiriq beriladi:

- Adabiy o'qish tajribasini o'rganish;
- Axborotni ishlab chiqish va undan foydalanish.

O'qish savodxonligining asosi matnlar bilan to'liq ishlash uchun zarur bo'lgan o'qish qobiliyatlarini shakllantirishdir. Bu o'quvchi tomonidan kerakli ma'lumotlarni topish va tarqatish, matnning ma'lum qismi bo'yicha xulosalar chiqarish, asosiy belgilarning harakatlarini sharhlash, matn namunalari va matn tuzilishini dastlabki tahlil qilish bilan tasdiqlash. PIRLS o'rganish monitoringi bo'lganligi va uning asosiy vazifalaridan biri o'qish sifati dinamikasini o'rganish bo'lganligi sababli, o'qish uchun zarur shart bu har bir qismda matnlar va ularga berilgan topshiriqlarning bir qismini qayta ishlatishdir.

Tadqiqot ishtirokchilarining o'quv va o'qishdagi yutuqlarini baholash o'quvchilarning o'qish ko'nikmalarining muayyan darajalariga asoslangan holda maktab ta'limi sifatini baholash sohasidagi xalqaro ekspertlarning ko'rsatmalariga muvofiq amalga oshiriladi. Ushbu darajalar ishda taklif qilingan matn bilan ishlashda turli murakkablikdagi o'quvchilarning o'quv faoliyatini tavsiflaydi. Aniq darajadagi mezonlar sizga bolalarning natijalarini statistik jihatdan alohida guruhlarga ajratish imkonini beradi, ularning tayyorgarligini o'qish savodxonligi jihatidan ma'lum darajani tavsiflovchi aniq vazifalar yordamida tasvirlash mumkin.

Bajarilgan ishlarni baholash tizimi sifatli va miqdoriy baholashni birlashtiradi. PIRLSni baholash 1000 balli shkala bo'yicha amalga oshiriladi (asosan davlatlar natijalari 300 dan 700 ballgacha). O'rtacha qiymat - 500 ball, standart og'ish - 100 ball. Har bir topshiriq uchun topshiriqning qiyinligiga qarab ma'lum ball beriladi. Xalqaro ekspertlar o'qish savodxonligini badiiy va axborotli matnlarni o'qish sifatini va o'qish qobiliyatining individual guruhlarini baholash ko'lamiga muvofiq baholaydilar. PIRLS tadqiqotlarida xalqaro miqyosda hammasi bo'lib, to'rtta daraja ko'rsatilgan:

1. Eng yuqori daraja 625 ball
2. Yuqori daraja 550 ball
3. O'rtacha daraja - 475 ballga
4. Past daraja - 400 ballga to'g'ri keladi

Mana shu darajalar orqali o'quvchilarning o'qish savodxonligi baholanadi. Ularning fikrlash qobiliyati, mantiqiy tafakkuri, ijodkorlik qobiliyati, mustaqil g'oyaga ega ekanligi qolaversa, matnni to'g'ri, tushunib o'qiy olishlari muhim ahamiyat kasb etadi. Biz bilamizki, to'rtta o'qib tushunish jarayonlari bor. Bular: tez o'qish, ongli o'qish, ifodali o'qish. O'qish savodxonligini baholash jarayonlarida bu tushunish jarayonlari asosida o'quvchining qay darajada salohiyatga ega ekanliklarini anialaydi. Bundan tashqari, dastur ichida baholash daftarlari ham beriladi. Moslashtirilgan baholash tartibi nisbatan yuqori o'zlashtirish ko'rsatkichiga ega bo'lgan mamlakatlarda ko'proq murakkab baholash daftarlarini tarqatish va nisbatan pastroq o'zlashtirish ko'rsatkichiga ega bo'lgan mamlakatlarda esa ko'proq oson baholash daftarlarini tarqatish orqali har bir ishtirokchi mamlakat o'quvchilarining qobiliyati va savollarning murakkablik darajasi o'rtasidagi tafovutni muvofiqlashtiradi. Mos ravishda,

yangicha baholash tartibi vaqt me’yorlari va mavjud tartiblariga imkoni boricha kam o’zgartirishlar kiritgan holda baholash natijalarida ko’proq ma’lumotlar qo’lga kiritiladi. Guruhlarga ajratilgan baholash tartibi savollarning murakkablik darajasi va mamlakatdagi o’quvchilarning qobiliyati o’rtasidagi muvofiqlikni ta’minlash maqsadida ishlab chiqilgan bo’lsada, agar ishtirokchi mamlakat o’quvchilarning o’zlashtirish ko’rsatkichida sezilarli darajada farq qiladigan o’quvchilar qo’shimcha guruhlari aniqlansa, mazkur tartib mamlakat ichida ham joriy etilishi mumkin.

Shuningdek, boshlang’ich sinf o’quvchilarining tabiiy fanlar xususida savodxonligini oshirishda TIMSS Xalqaro baholash dasturining o’rni beqiyosdir. TIMSS xalqaro baholash dasturida 4- va 8-sinf oʻquvchilarining matematika va tabiiy fanlar boʻyicha egallagan bilim darajasi va sifatini solishtirish hamda milliy ta’lim tizimidagi farqlarni aniqlash bilan bir qatorda, qoʻshimcha ravishda maktablarda matematika va tabiiy fanlar boʻyicha berilayotgan ta’lim mazmuni, 404 oʻquv jarayoni, ta’lim muassasasining imkoniyatlari, oʻqituvchilar salohiyati, oʻquvchilarning oilalari bilan bogʻliq omillari oʻrganiladi.

TIMSS dasturi oʻzining birinchi tadqiqotini 1995-yilda boshlagan boʻlib, 2019- yilga qadar har toʻrt yilda 1999, 2003, 2007, 2011, 2015 va 2019-yillarda tashkil etib kelindi. Navbatdagi 8-davriylik 2023-yilda amalga oshirilishi rejalashtirilgan. TIMSS xalqaro tadqiqoti har 4 yil davomida 4- va 8-sinf o’quvchilarining ta’lim yutuqlariga baho berib boriladi va shu bilan birga, nafaqat ularining bilim va ko’nikmasi, balki ularning ushbu fanlarga bo’lgan munosabati, qiziqishi, hamda ta’limga bo’lgan motivatsiyasini solishirishga imkon beradi. Tadqiqotning asosiy rejasi: 4 yil davomida 4-sinf o’quvchisi 8-sinfga yetgunga qadar uning matematika va tabiy fanlar bilimining natijalari kuzatib boriladi. Shu yo’sinda maktabning boshlang’ich va yuqori sinf o’quvchilarining bilim yutuqlarining monitoringi amalga oshiriladi. Matematika va fanga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirish ko’plab mamlakatlarda ushbu fanlarning, o’quv dasturlarining eng muhim maqsadlaridan biridir.

Uyda topshiriqlar bajarish o’quvchilarga maktabda o’’rganilgan materialni mustahkamlash imkonini beradi va o’qituvchilar uchun mavzu bo’yicha o’’qitish vaqtini uzaytiradi. Natijada ko’p miqdorda uy vazifasi olgan yoki umuman olmagan o’quvchilarga qaraganda yuqori natijalarga erishishi kutiladi. Uy vazifasini bajarish an’analari ko’p mamlakatlar tomonidan keng tarqalgan. Ba’zi mamlakatlarda 4-sinfda ular kamdan-kam hollarda uyda, asosan tuzatuv maqsadlarida, individual o’quvchilarni o’zlarining tengdoshlari bilan materiallarni o’zlashtirib olishlariga imkon berish uchun so’raladilar. Umuman olganda, uy vazifasining katta miqdori o’quvchilarning ta’lim yutiqlari sifatiga salbiy ta’sir ko’rsatadi.

Tabiiy fanlar bo’yicha savodxonlik deganda shaxsning tabiiy fanlarga oid g’oyalarni bilishi, faol fuqaro sifatida tabiiy fanlar bilan bog’liq muammolarni hal qila olishi tushuniladi. Tabiiy fanlar bo’yicha savodxon bo’lgan shaxs tabiiy fanlar va texnologiyalarga oid muammolarni ilmiy dalillarga asoslangan holda muhokama qilishda ishtirok eta oladi. O’quvchilarning tabiiy fanlar bo’yicha savodxonligini rivojlantirishda dars va darsdan tashqari o’qish soatlarida, to’garak mashg’ulotlarida, takrorlash darslarida yuqorida qayd etilgan topshiriqqa o’xshash vazifalardan foydalanish muhim omil sanaladi.

**XULOSA**

Xulosa qilib aytganda, Xalqaro tadqiqotlar ta’lim sohasidagi milliy tadqiqotlarni sifatli o’tkazishga ijobiy ta’sir ko’rsatadi. So’nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan

islohotlar natijasida ulkan iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlariga erishilayotganligi barcha sohalarda malakali kadrlar va yetuk mutaxassilarga bo'lgan talabni yanada oshirmoqda. Bu o'z-o'zidan o'quvchilarimizning darslarga qiziqish xususiyatini oshirish va o'qituvchilarning har tomonlama ta'lim-tarbiyaga e'tiborini kuchaytirishni talab etadi. Yuqoridagi talablarning ta'lim tizimi uchun juda muhim ekanligi, aksariyat xorijiy davlatlardagi kabi ta'lim va fan sohalari rivojlanishini baholash va monitoring qilish orqali ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan ilg'or tajribalarni sohaga jalb qilish kerakligini anglatadi.

Boshlang'ich ta'lim pedagoglari oldida turgan dolzarb muammolardan biri, o'quvchilarni xalqaro baholash dasturiga psixolgik tayorlashdir. Ularning ota-onalar ongini o'stirish va bu haqida tushunchalar berishdir. Bugungi kunda, qayd etilgan ishlarning davomi sifatida, qo'shimcha o'quv-metodik qo'llanmalar, topshiriqlar to'plami, axborotnoma, videodars va videoroliklar yaratish, shuningdek, tajriba-sinov jarayonlari uchun maxsus nazorat materiallarini tayyorlash ishlari olib borilmoqda.

**REFERENCES**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 27 iyundagi "Yoshlar – kelajagimiz" Davlat dasturi to'g'risida"gi PF-5466-son Farmoni. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi 15.08.2018 y., 07.18.3907/1706-son.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 8 dekabrdagi "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 997-sonli qarori
3. Xalqaro tadqiqotlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini baholash. (Boshlang'ich sinf o'qituvchilari, metodistlar va soha mutaxassislari uchun metodik qo'llanma) "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati. Toshkent-2019.
4. PIRLS 2021 Baholash qamrov doirasi. Ina V.S.Mullis va Mechael O. Martin Toshkent-2021 UNESCO. (2012). International Standard Classification of Education ISCED 2011. 2.Retrieved from uis.unesco.org/sites default/files/documents/international-standard-classification-ofeducation-isced-2011-en.pdf.
5. "Xalqaro tadqiqotlarda o`quvchilarning matematik savodxonligini baholash" "Sharq" NMAK Toshkent 2019. 6. Xalqaro tadqiqotlarda o'quvchilarning matematik savodxonligini baholash. (Matematika fani o'qituvchilari, metodistlari va soha mutaxassislari uchun metodik qo'llanma) "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati. Toshkent- 2019

ISSN: 2181-3906

International scientific journal
«MODERN SCIENCE AND RESEARCH»
VOLUME 1 / ISSUE 3

# MAKTABDA BOSHLANG‘ICH SINFLARNI O‘QITISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH

**Saparova Karligash Valixanovna**

Toshkent viloyati Bo‘stonliq tumani 28 - maktabning boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

***https://doi.org/10.5281/zenodo.7550203***

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf dars jarayonida interfaol metodlardan foydalanish borasida ma’lumotlar keltirib o’tilgan.*

***Kalit so’zlar:*** *Interfaol metod, so‘zlashish, vazifa, usul, metod, o‘yin, xotira, sinf, masala, guruh, o’quvchi.*

# ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ В ОБУЧЕНИИ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ В ШКОЛЕ

***Аннотация.*** *В данной статье представлена информация об использовании интерактивных методов в ходе занятий в начальной школе.*

***Ключевые слова:*** *Интерактивный метод, говорение, задание, метод, метод, игра, память, класс, задача, группа, ученик.*

# USE OF INTERACTIVE METHODS IN TEACHING PRIMARY CLASSES AT SCHOOL

***Abstract.*** *This article provides information on the use of interactive methods in the primary classroom.*

***Key words:*** *Interactive method, speaking, task, method, method, game, memory, class, issue, group, student.*

Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda ta’lim - tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash borasida katta tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritilmoqda. Interfaol ta‘lim metodlari hozirda eng ko‘p tarqalgan va barcha turdagi ta‘lim muassasalarida keng qo‘llanayotgan metodlardan hisoblanadi. Shu bilan birga, interfaol ta‘lim metodlarining turlari ko‘p bo‘lib, ta’lim - tarbiya jarayonining deyarlik hamma vazifalarini amalga oshirish maqsadlari uchun moslari hozirda mavjud.

Amaliyotda ulardan muayyan maqsadlar uchun moslarini ajratib tegishlicha qo‘llash mumkin. Bu holat hozirda interfaol ta‘lim metodlarini ma‘lum maqsadlarni amalga oshirish uchun to‘g‘ri tanlash muammosini keltirib chiqargan.

Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, ta‘lim beruvchi tomonidan ta‘lim oluvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta‘lim jarayonida faolligi muttasil rag’batlantirib turilishi, o‘quv materialini kichik-kichik bo‘laklarga bo‘lib, ularning mazmunini ochishda aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, bahs - munozara, muammoli vaziyat, yo‘naltiruvchi matn, loyiha, rolli o‘yinlar kabi metodlarni qo‘llash va ta‘lim oluvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi.

Interfaol metod biror faoliyat yoki muammoni o‘zaro muloqotda, o‘zaro bahsmunozarada fikrlash asnosida, hamjixatlik bilan hal etishdir. Bu usulning afzalligi shundaki, butun faoliyat o‘quvchi-talabani mustaqil fikrlashga o‘rgatib, mustaqil hayotga tayyorlaydi. O‘qitishning interfaol usullarini tanlashda ta‘lim maqsadi, ta‘lim oluvchilarning soni va imkoniyatlari, o‘quv muassasasining o‘quv-moddiy sharoiti, ta‘limning davomiyligi, o‘qituvchining pedagogik mahorati va boshqalar e‘tiborga olinadi.

Interfaol metodlar deganda – ta'lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta'lim jarayonining markazida ta‟lim oluvchi bo‟lgan metodlar tushuniladi. Bu metodlar qo'llanilganda ta'lim beruvchi ta'lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Ta'lim oluvchi butun jarayon davomida ishtirok etadi.

Ta'lim oluvchi markazda bo'lgan yondashuvning foydali jihatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

ta'lim samarasi yuqoriroq bo'lgan o'qish-o'rganish;
ta'lim oluvchining yuqori darajada rag'batlantirilishi;
ilgari orttirilgan bilimlarning ham e'tiborga olinishi;
ta'lim jarayoni ta'lim oluvchining maqsad va ehtiyojlariga muvofiqlashtirilishi;
ta'lim oluvchining tashabbuskorligi va mas'uliyatining qo'llab-quvvatlanishi;
amalda bajarish orqali o'rganilishi;
ikki taraflama fikr - mulohazalarga sharoit yaratilishi.

Shunday qilib, fanlarni o'qitish jarayonida interfaol metodlardan foydalanish o'ziga xos xususiyatga ega. Ta'lim amaliyotida foydalanilayotgan har bir interfaol metodni sinchiklab o'rganish va amalda qo'llash o'quvchi - talabalarning fikrlashini kengaytiradi hamda muammoning to'g'ri echimini topishlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'quvchi-talabalarning ijodkorligini va faolligini oshiradi. Turli xil nazariy va amaliy muammolar interfaol metodlar orqali tahlil etilganda o'quvchi - talabalarning bilim, ko'nikma, malakalari kengayishi va chuqurlashishiga erishiladi.

O'qitish mazmunini yaxshi o'zlashtirishga olib keladi. O'z vaqtida o'quvchi - o'qituvchi - o'quvchilar orasida ta`limiy aloqalar o'rnatiladi. O'qitish usullari ta`lim jarayonida turli xil ko'rinishlarda kechadi (yakka, juft, guruh, katta guruh). O'quv jarayoni o'qish ehtiyojini qondirish bilan yuqori motivatsiyaga ega bo'ladi.

O'zaro axborot berish, olish, qayta ishlash orqali o'quv materiali yaxshi esda qoladi. O'quv jarayonida o'quvchining o'zi o'ziga baho berishi, tanqidiy qarashi rivojlanadi. O'quvchi uchun dars qiziqarli o'qitilayotgan predmet mazmuniga aylanadi. O'qish jarayoniga ijodiy yondashuv, ijobiy fikr namoyon bo'ladi. Har bir o'quvchining o'zi mustaqil fikr yurita olishiga, izlanishga, mushohada qilishga olib keladi. Interfaol usulda o'tilgan darslarda o'quvchi faqat ta`lim mazmunini o'zlashtiribgina qolmay, balki o'zining tanqidiy va mantiqiy fikrlarini ham rivojlantiradi.

## REFERENCES

1. N.N. Azizxojayeva. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. O'quv qo'llanma. — T.: 2003, TDPU.
2. Davydov, V.V. Ta'limni rivojlantirish muammolari / V.V. Davydov. - M., 2016 yil.

# ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ПРИ ПРОВЕДЕНИИ УРОКОВ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ.

**Рыскильдина Гульниса Фасхитдиновна**
Школа № 11 города Алмалык Ташкентской области
Учитель начальных классов
https://doi.org/10.5281/zenodo.7550233

***Аннотация.*** *В статье основное внимание уделяется совершенствованию знаний учащихся начальных классов, организации урока с использованием широко применяемых сегодня компьютерных технологий и, как следствие, обеспечению эффективных знаний.*

***Ключевые слова:*** *Начальное образование, информационные технологии, компьютер, урок.*

# THE USE OF INFORMATION TECHNOLOGIES WHEN TAKING LESSONS IN THE PRIMARY SCHOOL.

***Abstract.*** *The article focuses on improving the knowledge of primary school students, organizing a lesson using computer technologies that are widely used today and, as a result, providing effective knowledge.*

***Key words:*** *Primary education, information technology, computer, lesson.*

Стремительное развитие современных информационных технологий, стремительное их проникновение в сферу образования, а также то, что они становятся важными в нашей жизни, требуют соответствующего формирования наших знаний и умений в этом отношении. Поэтому было рекомендовано обучать работе с компьютерами в младших классах. Одним из важных достижений учебного процесса стало создание программных средств, обеспечивающих использование компонентов вычислительной техники. Эти программные средства имеют особое значение, особенно в организации учебного процесса. Электронные учебники, пособия и презентации, созданные для учащихся начальных классов, широко используются в учебном процессе. Использование электронных презентаций в качестве демонстрационного и наглядного материала на уроке очень помогает учителю. Представление учебного материала в виде анимации в электронной презентации облегчает понимание рассматриваемой темы и повышает наглядность. Демонстрационные слайды также могут быть предоставлены учащимся в качестве раздаточного материала. Электронный учебник может быть использован для самостоятельного обучения и всестороннего эффективного усвоения учебного материала.

Практически все общеобразовательные школы нашей страны оснащены современными компьютерными и телекоммуникационными технологиями. А это, в свою очередь, требует новых подходов учителей начальных классов к своей трудовой деятельности. Занятия в начальных классах основаны не на внедрении новых технологий в учебный процесс, вытеснении учителя техническими средствами, а на изменении его функции и роли за счет нового подхода, превращающего педагогическую деятельность в профессию, основанную на более плодотворном, творческом и творческом подходе. При организации процесса урока с помощью современных информационных технологий учитель изначально:

- цель урока;
- пути достижения цели;

- методы представления учебных материалов;
- методы обучения;
- виды учебных заданий;
- вопросы для обсуждения;
- способы организации дебатов и дебатов;
- необходимо будет определить такие факторы, как способы взаимодействия и коммуникации.

В учебно-воспитательном процессе важную роль играет использование компьютерных и информационных технологий в воспитании учащихся как умственно и духовно зрелых людей, в развитии у них знаний, умений и навыков по существу наших национальных традиций, ценностей, в изучении богатого духовного наследия наших великих предков. С помощью средств вычислительной техники и информационных технологий педагогический персонал, а также учащиеся получают доступ к огромному количеству информации, ее поисковой обработке и усвоению. Безусловно, внедрение новых педагогических и информационных технологий в образовательных учреждениях. Проведение учебных занятий с использованием новых интерактивных методов, современных средств, то есть средств информационных технологий, включая использование мультимедиа на уроках, использование сети Интернет, несомненно, принесет свои плод.

Используя современные компьютерные технологии, педагог может реализовать ряд следующих задач:

- ➢ а благодаря применению мультимедийных технологий в начальных классах у учащихся развивается интерес к науке;
- ➢ а такой способ обучения активизирует мыслительные способности учащихся, и эффективность усвоения учебного материала в дальнейшем возрастает;
- ➢ а позволяет моделировать и видеть процессы, которые трудно или сложно продемонстрировать;
- ➢ а усвоение учебного материала эффективно не только по уровню, но и по степени логики и восприятия, которых достигают учащиеся;
- ➢ а студентам предоставляется возможность выполнять определенные исследовательские работы путем поиска, поиска материалов и ответов на проблемные вопросы посредством независимого исследования;
- ➢ а создаются условия для быстрого освоения учащимися новой темы, решения примеров, самостоятельного ознакомления с учебным материалом в работе по написанию эссе, высказываний, отбора и анализа информации и данных.

Внедрение современных информационных технологий в начальное образование не только повышает эффективность обучения, но и через практическое применение достижений науки приобретает важное значение в воспитании самостоятельной и логически мыслящей, всесторонне развитой высокодуховной личности.

Каждый учитель должен быть креативным, он должен входить в каждый учебный час тщательно подготовленным и инновационным, потому что повторяющееся единообразие на каждом уроке ослабляет интерес ученика к уроку и предмету, что приводит к снижению эффективности урока.

Значимыми аспектами информационных технологий как для учителя, так и для ученика являются: концентрация внимания ученика; расширение представления об информации; восприимчивость, креативность и вступление в самостоятельную деятельность; самооценка. Роль уроков с использованием информационных технологий в деятельности учителя отражается на: правильном распределении времени; обеспечении яркости и убедительности содержания учебного материала; увеличении объема предоставляемой информации; расширении видов учебного задания; создание здоровой конкуренции, творческой атмосферы; регулярное повышение профессиональной квалификации.

Сегодня в Узбекистане также формируется специализированный рынок программ, используемых в качестве дидактического инструмента в образовательном процессе. В настоящее время в интернете размещено множество программ, которые можно использовать в общеобразовательных классах. К ним можно отнести, прежде всего, электронные учебники. Компьютерные технологии дают возможность использовать задания различного интерактивного характера. Например, учащиеся смогут узнать, как они выполняли такие задания, как размещение событий в хронологическом порядке, правильная интерпретация терминов и понятий, связанных с наукой, или отображение терминов и их значения в правой и левой строках со стрелкой соответственно, или заполнение ключевых слов по заданной теме, выполнение тестовых заданий, решение кроссвордов и т. д., сравнивая их с ответами, снятыми с помощью мультимедиа на большом экране.

Таким образом, использование современных информационных технологий в начальных классах помогает учащимся мыслить самостоятельно, расширять творческий поиск и логическое мышление, а также связывать то, что они узнали на уроках, с жизнью и повышать интерес к уроку. Организация уроков на основе передовых педагогических и информационно-коммуникационных технологий с эффективным использованием педагогами условий, созданных на основе современных требований, гарантирует качество учебно-воспитательного процесса.

## REFERENCES

1. Толипов У.К., Шарипов Ш.S. Педагогические основы развития творческой деятельности личности воспитанника. – Т., Наука, 2012
2. Юлдашев Дж. G., Усманов С.А. Внедрение в практику современных педагогических технологий. - Т: Наука и техника, 2008.
3. http://uz.infocom.uz/2012/10/30/boshlangich-sinflarda-akt/

# O'YIN TEXNALOGIYALARIDAN FOYDALANGAN HOLDA INFORMATIKA DARSLARINI TASHKIL ETISHNING AHAMIYATI

**Xudayberganova Sabohat Muradovna**
Xorazm viloyati Xonqa tumani 1 - son kasb-hunar maktabi maxsus fan (Informatika va AT) o'qituvchisi
**Sultanova O'g'iljon Rustam qizi**
Xorazm viloyati Xonqa tumani 1 - son kasb-hunar maktabi maxsus fan (Informatika va AT) o'qituvchisi
**Otajonov Ulug'bek Yusupboyevich**
Xorazm viloyati Xonqa tumani 1 - son kasb-hunar maktabi maxsus fan (Informatika va AT) o'qituvchisi

https://doi.org/10.5281/zenodo.7550262

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada, umumta'lim maktablarining informatika darslarida o'yin texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyatiga haqida.*

***Kalit so'zlar:*** *informatika, o'yinli texnologiya, axborotni uzatish, shaxsiy kompyuter, monitor.*

# ВАЖНОСТЬ ОРГАНИЗАЦИИ КОМПЬЮТЕРНЫХ УРОКОВ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ИГРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

***Аннотация.*** *В данной статье речь идет о важности использования игровых технологий на уроках информатики в общеобразовательных школах.*

***Ключевые слова:*** *информатика, игровые технологии, передача информации, персональный компьютер, монитор.*

# THE IMPORTANCE OF ORGANIZING COMPUTER LESSONS USING GAME TECHNOLOGIES

***Abstract.*** *This article is about the importance of using game technologies in computer science classes of general education schools.*

***Key words:*** *informatics, gaming technology, information transfer, personal computer, monitor.*

Bugungi kunda ta'lim mazmunini modernizatsiyalash, ta'lim sifatini oshirish, ta'limda innovatsion texnologiyalarni keng joriy etishga yo'naltirilgan ko'plab innovatsiyalar yaratilmoqda va amaliyotga joriy etilmoqda. Mazkur innovatsiyalarning samaradorligi ko'p jihatdan ta'lim muassasasida amalga oshirilayotgan innovatsion faoliyatning to'g'ri tashkil etilganligiga bog'liqdir. Ta'lim jarayonini zamonaviylashtirish, jahon talablariga mos mutaxassislarni tayyorlash, ta'lim berish jarayonida ta'lim oluvchini o'z ortidan ergashtira olish uchun o'qituvchida ham pedagogik ham innovatorlik mahorati yuqori darajada bo'lishi lozim.

Pedagogika sohasidagi eng dolzarb vazifalardan biri har tomonlama kuchli, bilimli, mustaqil fikrlaydigan shaxsni tarbiyalashdir. Bunda darsda va amaliy mashg'ulotlarda mustaqil ishlarning tashkil etilishi muhim ahamiyatga ega. Axborot oqimi va bilimlar doirasi tez sur'atlar bilan kengayib borayotgan hozirgi sharoitda barcha ma'lumotlarni faqat dars mashg'ulotlarida o'quvchilarga yetkazish qiyin, albatta. Shuning uchun ham o'qituvchilar o'quvchilarning mustaqil ishlarini to'g'ri tashkil etishga alohida ahamiyat qaratishi lozim.

Informatika darslarida o'yinli texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati katta. O'yinli texnologiyaning asosiy talablarini faollashtiruvchi va jadallashtiruvchi faoliyat tashkil etadi.

Informatika darslarida o'yin texnologiyalarini qo'llashning bir nechta samarali tomonlarini olimlar quyidagicha tahlil etishgan, yani mehnat va o'qish bilan birgalikda faoliyatning asosiy turlaridan biri hisoblanadi.

Psixologlarning ta'kidlashlaricha, o'yinli faoliyatning psixologik mexanizmlari shaxsning o'zini namoyon qilish, hayotda o'z o'rnini barqaror qilish, o'zini o'zi boshqarish, o'z imkoniyatlarini amalga oshirishning fundamental ehtiyojlariga yondashadi.

Informatika darslarida o'yin ijtimoiy tajribalarni o'zlashtirish va qayta yaratishga yo'nalgan vaziyatlarda faoliyat turi sifatida belgilanadi va unda shaxsning o'z xulqini boshqarishi shakllanadi va takomillashadi. O'yinli faoliyat muayyan funksiyalarni bajarishga bag'ishlangan bo'ladi, ular o'z navbatida quyidagi parametrlarni qamrab oladi.

❖ Maftunkorlik
❖ Kommunikativlik
❖ O'z imkoniyatlarini amalga oshirish
❖ Davolovchilik
❖ Tashxis
❖ Millatlararo muloqat
❖ Ijtimoiylashuv

O'yin texnologiyalarini darslarda qo'llanilishining afzallik taraflari shuni ko'rsatadiki, o'quvchi yoshlarda avvalombor, har bir qo'yilgan mavzuni chuqur tahlil etib keyin davom ettirishi shakllantiriladi.

Informatika darslarida tadbirkorlik o'yinlaridan foydalanish, yangi texnologiya sifatida mohiyati quyidagilardan iborat bo'ladi.

• Ishlab chiqarish imitatsion modeli sifatida taqdim etilgan o'quv materiali mazmunining izchilligi.

• O'yinli o'quv modelida kelgusidagi kasbiy faoliyati tarkibiy qismlarini yaratish.

• O'quv jarayoni tarzini bilimlarga ehtiyojlarni to'ldirish va ularni amalda qo'llashning real sharoitlariga yaqinlashtirish.

• O'yin olib boruvchi o'qituvchining bilimdonligi. O'yin texnologiyalarini darslarga qo'llashning yana bir nechta afzallik taraflari mavjud bo'lib, bunda o'quvchilarning berilayotgan axborotlarni qanday ko'rinishda aniglab etishlarini kuzatish mumkin, buni qo'yidagi misol orqali ko'rib o'tishimiz mumkin.

Masalan: O'quvchi kompyuter bilan muloqat qilishdan oldin muloqat qilish qonun qoidalarini bilishi kerak bo'ladi.

1. Monitor tomonidan ishlab chiqarilgan elektromagnit nurlanish inson tanasiga ta'sir qilishi mumkin, shuning uchun zararli maydonni zararsizlantirish uchun ehtiyot bo'lish va ba'zi choralarni ko'rish kerak.

2. Agar kompyuterdan foydalanmasangiz, monitorni va tizim blokini uzoq vaqt yoqmang. Bu birinchi qarashda noqulay bo'lib tuyulishi mumkin, ammo bu tavsiyani e'tiborsiz qoldirmang, chunki mos kelmaslik narxi juda yuqori bo'lishi mumkin;

3. Kompyuterni xonaning burchagiga yoki u ishlamaydiganlarning yonida yoki orqasida bo'lmasligi uchun joylashtiring. Monitorning yon va orqa tarafidan chiqadigan elektromagnit nurlanish (bu joylarda uning darajasi eng yuqori) foydalanuvchi va boshqalarning sog'lig'iga zarar yetkazmasligi uchun zarurdir.

4. Ishlash paytida maxsus himoya ekranidan foydalaning, bu kompyuter ekranidan chiqadigan elektromagnit maydonning faolligini sezilarli darajada kamaytiradi;

5. Monitorni o'zingizdan uzoqroq joyda joylashtiring; O'yin texnologiyalarining yana bir tarafi shundan iboratki, o'quvchilar har bir mavzuda berilayotgan ma'lumotlarni o'zlari kompyuterlardagi o'yin dasturlari orqali tahlil etib borishadi.

O'quvchilarda har bir mavzu ko'rsatmalar asosida amalga oshirib borilsa bunday holatda, o'quvchilar kompyuterlar bilan ishlash vaqtida shu narsalarga to'g'ri kelganda to'g'ridan to'g'ri bunday masalalarni yechish imkoniyatiga ega bo'lishadi. Masalan: quyidagi ko'rgazmalar orqali o'quvchilar turli axborotlarni tahlil etish texnologiyalarini o'rganib borishadi.

O'yin texnologiyalarini qo'llash orqali o'quvchilar bilim saviyasi quyidagi uchta parametr bo'yicha tahlil etilgan holda ushbu jarayon yaxshi natijalar bergan.

Bular quyidagilardir:

1. Bajarilayotgan jarayonni ko'rish orqali
2. Bajarilayotgan jarayonni sezish orqali
3. Bajarilayotgan jarayonni eshitish orqali

Bu uch ko'rsatkich orqali o'quvchilar berilayotgan mavzuning mazmunmohiyatini turlicha tahlil etishadi.

Masalan: Ko'rish orqali berilgan axborotning 75% ini, sezish orqali berilgan axborotning 12% ini, eshitish orqali berilgan axborotning 13% ini o'zlashtirishi mumkin bo'lar ekan.

Shuni e'tiborga olib, har bir o'tilishi kerak bo'lgan mavzuni, turli o'yinli qismlarini qidirib topish maqsadga muvofiq bo'ladi.

## REFERENCES

1. Boymurodov A. X. (2020). Umumta'lim maktablari va oliy o'quv yurtlarining integrasiyasi pedagogik ta'limning innovasion klasteridagi ta'lim muassasalari. Evropacha Ta'lim fanlari bo'yicha tadqiqotlar va mulohazalar jurnali, 8(8), 1-5.
2. Boymurodov A. X. (2019). Umumiy O'rta ta'lim tizimida Informatika va axborot Texnologiyalari Fanny Klaster modellari axborot manbalarini yashratish. Zamonaviy taulim, 10( 10), 43-51.
3. Informatika o'qitish metodikasi. Toshkent-2013-yil.

# NEMIS SHARQSHUNOS OLIMLARINING AYRIM QARASHLARIGA DOIR

**Munira Karimova**
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti 3 - kurs talabasi

https://doi.org/10.5281/zenodo.7550545

***Annotatsiya.*** *Maqolada sharqshunoslik masalalarining nemis olimlari tomonidan davom etib kelayotgan talqinlari o'rganilgan. Gyote, Zigred Klaymixel Ingeborg Baldauf kabi olimlarning izlanishlariga aohida e'tibor qaratilingan. Muallif fiklari ilmiy jihatdan asoslangan. Foydalanilgan adabiyotlardan o'rinli foydalanilgan.*

***Kalit So'zlar:*** *sharqshunoslik, fan, jamiyat, islom, yevropacha tafakkur, mintaqa madaniyati, talqin, tarjima.*

## О НЕКОТОРЫХ ВЗГЛЯДАХ НЕМЕЦКИХ ВОСТОКОВЕДОВ

***Аннотация.*** *В статье рассматриваются современные интерпретации востоковедения немецких ученых. Особое внимание уделялось исследованиям таких ученых, как Гёте, Зигфрид Климмихаэль и Ингеборг Бальдауф. Мнения автора научно обоснованы. Используемая литература используется по назначению.*

***Ключевые слова:*** *востоковедение, наука, общество, ислам, европейская мысль, региональная культура, интерпретация, перевод.*

## ON SOME VIEWS OF GERMAN ORIENTALISTS

***Abstract.*** *The article examines the ongoing interpretations of Oriental studies by German scientists. Special attention was paid to the researches of such scientists as Goethe, Siegfried Klimmichael and Ingeborg Baldauf. The author's opinions are scientifically based. The used literature is used appropriately.*

***Keywords:*** *oriental studies, science, society, Islam, European thought, regional culture, interpretation, translation.*

**KIRISH**. Sharqshunoslik - butun Osiyo va unga qo'shni hududlarni qamrab olgan asl ma'noda sharqning ma'naviy va moddiy madaniyati bilan bir qatorda tillarni o'rganish bilan shug'ullanadigan ilmiy fan. Sharqshunoslik fanining asl kelib chiqish manbasi Yevropa mamlakatlari bo`lib, keyinchalik bu ilm sharqning o`zida ham keng yoyilgan. Yevropaliklarning Sharqqa bo`lgan qiziqishlari tarixan ma`lum. Bu qiziqishlar zamirida ma`lum siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy maqsadlar borligiga qaramay sharqning Yevropa davlatlari tomonidan atroflicha tadqiq qilinishi sharqshunoslik olamiga ulkan yutuq bo`lganini ta`kidlash o`rinlidir.

**ASOSIY QISM.** 1996-yilda Germaniyada “Zamonaviy sharqshunoslik markazi” tashkil etildi[15]. Ushbu markaz Yaqin Sharq, Afrika, Janubiy va Janubi-Sharqiy Osiyoni qiyosiy o`rganishga bag`ishlangan yagona nemis tadqiqot institutidir. Hozirgi tadqiqotlari asosan musulmon jamiyatlarining o`zaro ta`siri va musulmon bo`lmagan qo`shnilar bilan munosabatlariga qaratilgan. Direktori zamonaviy O`rta Sharq tarixchisi, professor Ulrike Freitag hisoblanadi. Bugungi kunda markazning ilmiy tadqiqot dasturida 7 ta fanlararo loyihalar mavjud bo`lib, XVIII asrdan beri sharqning turli xil madaniy va tarixiy jihatlari ustida ish olib boradigan 20 ta tadqiqotchi bor[16].

---

[15] A. Vohidov. Sharqshunoslikka kirish. Toshkent 2010
[16] Sufism and Formative Period of German Orientalism” (Saeed Zarrabi-Zadeh). Berlin 1982

Yana bir yirik sharqshunoslik markazi sifatida Germaniyaning Gumbold nomidagi universiteti tarkibiga kiruvchi Osiyo va Afrika tadqiqotlari instituti (Institut fur Asien und Afrika Wissenschaften) ni ko`rsatish mumkin. Ushbu institut talabalari ilmiy ishlariga o`z mintaqalariga yaqindan yondashgan holda kirishadilar.

Shu o`rinda nemis sharqshunosi Iogann Volfgan Gyote to`g`risida fikr yuritishni lozim topdik. Gyote sharq mamlakatlari tarixi, madaniyati, adabiyotini chuqur o`rganadi. Firdavsiy, Farididdin Attor, Nizomiy, Sa`diy, Hofiz, Jomiy kabi shoirlar ijodi bilan tanishadi. Gyote sharqni o`rganish borasida islom dini bilan ham yaqindan tanishadi.

Umri mobaynida islom diniga nisbatan turli ko`rinishlarda o`z hurmatini izhor etgani olimlar tomonidan ta`kidlanadi. Gyotening islom diniga bunday munosabatiga asosiy sabab u atrof muhitdagi barcha hodisalarga katta qiziqish va ibrat nazari bilan qaraganligida edi. Islom dinidan esa u qiziqqan barcha savollarga to`laligicha javob topa olardi desak, to`g`ri bo`ladi[17]. Chunki islom dini to qiyomat kuniga qadar insonlarni hidoyat yo`liga boshlab, ularga to`g`ri yo`lni ko`rsatib turishi sababidan benazirdir. Katerina Mommsenning “Gyote va islom” asari M.Umarxo`jayev va I. Jabborov tomonidan o`zbek tiliga o`girilgan. Gyote sharq she`riyatidan ilhomlangan holda “Mag`ribu mashriq” [18]devonini yozadi.

XX asr oxiri va XXI asr boshiga kelib ham nemis sharqshunoslarining sharqqa bo`lgan qiziqishlari so`ngani yo`q. Aksincha bu qiziqish yana bir karra oshgan, sharqni o`rganishga bo`lgan talab kuchaygan, desak mantiqan to`g`ridir. Misol tariqasida shuni ayta olamizki, bugungi kunda Gumbold universiteti sharqshunoslari Zigred Klaymixel hamda Ingeborg Baldauf xonimlar aynan Markaziy Osiyo sharqshunosligi bilan shug`ullanib kelishmoqda.

Z. Klaymixel o`z ilmiy izlanishlari mobaynida Alisher Navoiy hamda turk shoiri Oshiq Poshsho asarlarini qiyosan o`rgangan, A.Qodiriy ijodini tadqiq qilgan, 1910-1934- yillar o`zbek adabiyoti bilan shug`ullangan. “Farg`onada otinoyi, Xorazmda xalfalar” nomli yirik monografiya muallifidir.

I.Baldauf XX asr o`zbek adabiy til siyosatini o`rgangan. Jadidchilikning yorqin namoyondalari bo`lmish Behbudiy, Qodiriy, Cho`lpon ijodini chuqur tadqiq qilgan. Shuningdek, Shukrulloning “Kafansiz ko`milganlar”, U.Nazarovning “Chayon yili” va boshqa o`zbek adiblari asarlarini nemis tiliga mahorat bilan tarjima qilgan. Baldauf xonimning o`zbek tilida “XX asr o`zbek adabiyotiga chizgilar” (2001-yil) nomli kitobi nashr etilgan[19].

Olimaning ilmiy izlanishlari nafaqat nemis sharqshunosligiga balki o`zbek sharqshunoslik ilmi hamda o`zbek tili va adabiyotining Yevropada o`z mavqeyini mustahkamlashida ko`mak vazifasini o`tamoqda.

2009-yilda Nyu Yorkda Ursula Vokokning “Nemis sharqshunosligi: 1800-1945-yillardagi Yaqin Sharq va Islomni o`rganish” nomli kitobi nashr etildi. Bu kitob nemis sharqshunoslik olami haqida bir qator foydali ma`lumotlarni o`zida mujassam etgan. Muallif Sharq filologiyasining paydo bo`lishiga aloqador mavzular, somiy tillarini o`rganish hamda islomshunoslikning qisman tashkil topishi haqida qizg`in bahs yuritadi. Shuningdek XIX asrning

---

[17] “Восток” журнал литературы, науки и искусства. Москва, 1923

[18]Gyote va islom. K.Mommsen ; Shtutgard, 1964

[19] B. Qosimov. “Professor I. Baldauf mutolaalari” / “Tanlangan asarlar”. Toshkent. “G`afur G`ulom” NMIU. 2002. 267-bet.

20-yillarida Germaniya universitetlari sharqshunoslik bo`yicha mintaqada yetakchi o`rinlarda bo`lganligini ta`kidlab o`tadi.

**XULOSA**. Nemis sharqshunosligining boshqa Yevropa davlatlari sharqshunosligidan farqli ayrim jihatlarini yuqorida o`rgandik. Xulosa o`rnida shuni aytish joizki, bundan bir necha asr avval Germaniyada vujudga kelgan sharqshunoslik bir qator sharq mamlakatlari bilan Germaniyaning har tomonlama aloqa o`rnatishiga zamin yaratdi. Natijada, ko`plab asarlar ikki tomonlama tarjima qilindi. Xalqlar o`rtasidagi madaniy-ma`rifiy hamda ilmiy aloqalar rivojlandi.

**REFERENCES**

1. A. Vohidov. Sharqshunoslikka kirish. TDSHI.Toshkent. 2010
2. B. Qosimov. “Professor I. Baldauf mutolaalari” / “Tanlangan asarlar”. Toshkent. “G`afur G`ulom” NMIU. 2002.
3. Saeed Zarrabi-Zadeh. Sufism and Formative Period of German Orientalism. 1982
4. “Восток” журнал литературы, науки и искусства. Москва. 1923.
5. K.Mommsen . Gyote va islom. Shtutgard .1964.

# ЎҚУВЧИ - ЁШЛАРНИНГ БУЗҒУНЧИ ҒОЯЛАРИНИ ОЛДИНИ ОЛИШНИНГ ПЕДАГОГИК АСОСЛАРИ

**Утебаев Тажибай**
Проф.
Ажинияз номидаги НДПИ
“Умумий педагогика ва психология” кафедра мудири
**Жубатканова Ханым Расуловна**
Ажинияз номидаги НДПИ Бошланғич таълим 2 - курс талабаси
https://doi.org/10.5281/zenodo.7556457

***Аннотация.*** *Юртимизда ижтимоий-маънавий ва диний вазиятнинг барқарорлигини таъминлаш, турли диний экстремистик оқимларга, терроризмга қарши курашни экстремизм, ақидапарастли, маънавий ахлоқсизлик, ижтимоий тармоқларда ўз урнини кўрсатмоқда. Мазкур макалода ўкувчи ёшларнинг бузғунчи ғояларини олдини олиш босқичлари ёритиб берилган.*

***Таянч сўзлар:*** *бузгунчи ғоя, диний экстремизм, терроризм, глобаллашув.*

## СТУДЕНЧЕСКО - ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПРОФИЛАКТИКИ ДЕСТРУКТИВНЫХ ИДЕЙ МОЛОДЕЖИ

***Аннотация.*** *Обеспечивая устойчивость социально-душечной и религиозной ситуации в нашей стране, борьба с терроризмом выполняется в экстремизме, фанатичной, духовной безнравственности, социальных сетях. Стадии предотвращения разрушительных представлений о молодых людях, которые учатся в этой модели, были выделены.*

***Ключевые слова:*** *разрушительная идея, релегиозный экстремизм, терроризм, глобализация,*

## STUDENT - PEDAGOGICAL BASIS OF PREVENTING DESTRUCTIVE IDEAS OF YOUTH

***Abstract.*** *Providing the stability of the socio-foolish and religious situation in our country, the fight against terrorism is carried out in extremism, fanatical, spiritual immorality, and social networks. Stages of preventing destructive ideas about young people who study in this model were highlighted.*

***Key words:*** *destructive idea, religious, extremism, terrorism, globalization.*

Ҳозирги кунда ёшларимиз орасида салбий фикрлайдиганлари ҳам йуқ эмас. Бугунги кунда бундай ёшларимиз турли хил салбий қарашлари, салбий фикрлари билан ўзларини намоён қилиб келмоқталар. Бундай нотуғри қарашлар, диний экстремизм, ақидапарастли, маънавий ахлоқсизлик, ижтимоий тармоқларда ўз урнини кўрсатмокда. Дунёда кенг тарқалган терроризм ҳамда диний экстремизм жуда катта ўрин эгалламокда.

Президентимиз Ш.Мирзиёев айтқанларидек “Диний экстремизм, терроризим, гиёхвантлик, одам савдоси, ноонуний миграция, оммавий маданият каби таҳдидлар қанчадан-қанча ойлалар, мамлакатлар бошига оғир кульфатлар олиб келмокта. Ёшларимизни Ватанига қарши қуйиб, уларни хаётига зомин булмокда”[1]. Ёшларимизга ахборот маълумотларини олишларини тақиқлаш билан муаммони ижобий ҳал этиб булмайди. Инсоният аввалги даврларда тубдан фарқ қиладиган ўта мураккаб бир замонда яшамоқтамиз. Давлат арбоблари, файласуфлар ва жамиятшунос олимлар, шарқловчилар

ва журналистлар бу даврни турлича таърифлаб, ҳар хил номлар билан атамоқталар. Кимдир уни юксак технологиялар замони деса, кимдирлар таффакур асри, яна биров уни ахборотлашув даври сифатида келтирмоқта. Аммо, бу давр купчиликнинг онгини глобаллашув даври тариқасида таасурот уйғотмоқта. Бундай таъриф, менимча, кўп томондан масаланинг моҳиятини туғри ифодалайди. Нега десангиз, ҳозирги пайтда ер юзининг қайси чеккасида қандайдир бир воқеа юз бермасин, одамзот бу хақида дунёнинг бошқа чеккасида бўлса ҳам зудлик билан хабар топиши хеш кимга сир эмас.

Юртимизда ижтимоий-маънавий ва диний вазиятнинг барқарорлигини таъминлаш, турли диний экстремистик оқимларга қарши курашни янада фаоллаштириш ҳамда ёшларни бузгунчи ғояларга қўшилиб кетишининг олдини олиш мақсадида диний соҳа ходимлари қуйидагиларга аҳамият қаратиши зарур ҳисоблайдилар:

- жойларда ёшларимиз ичида дин билан боғлиқ жараёнлардан доимий равишда бохабар булиб юриш, вазиятнинг барқарорлигини таъминлаш бўйича мутасадди ташкилот ва идоралар билан амалий ҳамкорликни янада мустаҳкамлаш;

- ўқув муассасалари, маҳалла йиғинлари, кархона ва ташкилотларда ёшларни дунёвийлик, ватанпарварлик руҳида тарбиялашга қаратилган амалий чора-тадбирлар ва маънавий-маърифий ишларнинг таъсирчанлигини ошириш;

- таълим муассасаларида «Тинчлик энг олий неъмат», «Исломда экстремизм ва терроризмга ўрин йўқ», каби мавзуларда давра суҳбати ва семинар-машғулотлар сон ва сифатини ошириш, тадбирларда диний экстремистик ва террористик гуруҳларнинг асл қиёфасини фош этувчи, жиноятлари акс этган видеотасвирлардан фойдаланиш;

- маҳаллаларда ҳушёрлик ва огоҳликни таъминлаш, ёшларнинг тарбиясида оила маъсулиятини оширишга қаратилган тадбирлар уюштириш ва бу каби ишларда фаол иштирок этиш, меҳнат мигрантлари билан уларни жиҳодий жамоалар таъсирига тушиб қолиши олдини олишга қаратилган суҳбатларда иштирок этиш;

Биринчи Президентимиз Ислом Каримовнинг “Юксак манавият – енгилмас куч” китобида очиб берилган: “Ватанимизнинг келажаги, халқимизнинг эртанги куни, мамлакатимизнинг жаҳон ҳам жамиятидаги обру-эътибори аввалам бор фарзандларимизнинг униб-усиб, улғайиб, қандай инсон булиб ҳаётга кириб боришига боғликдир. Биз бундай уткир хақиқатни хеш қачон унутмаслигимиз керак”[4]. Бугунги кунга келиб дунё миқёсида, шунингдек, Узбекистон Республикасида ҳам бузгунчи ғоялар ёйилишининг олдини олиш, тарқалишини тухтатиш, зарарсизлантириш, дин масалаларини тушунтиришта ҳолисликни таъминлаш, турли ниятлар билан бузиб талқин қилишларнинг олдини олишга қаратилган маърифий ишлар тизими яратилди. Зеро, республикамизда, эътиқод эркинлигини таъминлаш масаласида барча имкониятлар яратиб берилган бир пайтда, маккор ва купорувчи, найрангбоз кучлар, диний мутаассиб гуруҳлар ўз кабих режаларини амалга ошириш йулида халқ ичида, хусусан, ёшлар орасида бузғунчи ғояларни таркатишга ўринишди.

Диний экстремизм- баъзи диний ташкилотлар ёки айрим диндорларнинг жамият қонун-қоидаларига мос келмайдиган мафкураси ва фаолияти. Диний экстремизм дунёдаги деярли барча мамлакатларда шахс, жамият ва давлатнинг хаётий мухим манфааатларига тахдид солиб келмоқда. Жумладан, диний экстремистик оқим таркибига кириб қолган шахс:

- оиласи, қариндош-уруғлари ва яқин инсонларидан маҳрум булади;

- жамиятдаги ижтимоий мавқеаини йуқотади, чукур илм олиш, яхши касб эгаси булиш ва ҳаётда муносиб ўрин эгаллаш имкониятларидан айрилади;

- умри қамоқда ёки ўзга юртларда хор-зор ва саргардонликда утади.

Айрим сиёсатшунос олимлар, терроризим юзага келганига ҳали икки юз ийл хам булмаган деб хисоблайдилар. Масалан, В.Жаринов терроризм камида бир ярим асирни ўз ичига олади деб хисоблайди.[2] Е.И.Степанов терроризмнинг бошланиши, одатда XVIII асрдаги француз революциясига ҳамда 1917 йилда Россияда содир булган революциядан бошланади, деб хисоблайдилар. Аслида терроризм жуда эски замонлардан бошланган.

Терроризмда бошқа фикрлар ҳам мавжуд. Масалан, Н.Неймарк ҳозирги терроризмнинг келиб чиқишини Напалеондан кейинги тикланиш даври билан боғлайди. Терроризм тадкиқотчилари орасида бу ҳодисани Библия яратилган даврлар билан боғлайдиганлар ҳам йуқ эмас, улар ўз биродари Ҳобилни ўлдирган Қобилни дастлабки террорчи деб атайдилар (масалан, М. Иорданов). И. Александер, В. Чаликов каби мутахассислар терроризмни мутлақо XX аср охири феномени деб ҳисоблайдилар.[2,3]

“Терроризм – муайян сиёсий мақсадларда, жамиятда беқарорлик келтириб чиқариш ва аҳолининг кенг қатламларида ваҳима ва қўрқув уйғотиш учун зўравонлик ишлатиш ёки зўравонлик ишлатиш билан қўрқитиш”.

Глобаллашув жараёни ҳаётимизга тоборо тез ва чуқур келаётганининг асосий омили ва сабаби хусусида гапирганда шуни объективтан олиш керак – бугунги кунда ҳар қайси давлатнинг тараққиётини ва равнақи нафақат яқин ва узоқ қушнилар, балки жаҳон миқёсида бошқа минтақа ва худудлар билан шундай чамбарчас боғланиб боряптики, бирон мамлакатнинг бу жараёндан четда туруши ижобий натижаларга олиб келмаслигини тушуниш қийин эмас.

Глобаллашув - бу аввало ҳаёт суръатларини беқиёс даражада тезлашуви демакдир. Глобаллашув жараёнида ҳам ижобий ва салбий томони мавжуд. Ҳозирги пайтда унинг ғоят уткир ва кенг камровли таъсирини деярли барча соҳаларда куриш, ҳис этиш мумкин. Айни пайтда ҳает хакиқати шуни кўрсатадики, ҳар қандай таракиёт маҳсулидан икки хил мақсадда фойдаланиш мумкин- эзгулик ва ёвузлик йулида. Таффакур ривожини куздан кечирадиган бўлсақ, ҳаётда инсонни камолатга, юксак марраларга чорлайдиган эзгу ғоя ва ёвуз ғоялар ўртасида азалдан кураш мавжуд бўлиб келганини ва бу кураш бугунга қадар давом этаётганини куришимиз мумкин.

Глобаллашув жараёнининг яна бир ўзига хос жиҳати шундан иборатки, у таъсир ўтказишнинг нихоятта ўткир куролига айланиб, ҳар хил сиёсий кучлар ва марказларнинг манфаатларига хизмат килаётганини ҳам кузатиши мумкин.[4]

Экстремистик оқимлар ўз сафига ёшларни жалб этишда интернетдаги ижтимоий тармоқлардан кенг фойдаланмокда. Баъзи ёшларимиз “Интернет” оркали ўзини “Ислом давлати”деб атаётган террорчи ташкилот ақидапараст гуруҳлар таъсирига тушиб қолиши. Диний экстремизм ҳақидаги маърузаларини дискда ёки қўл телефони хотирасида сақлаб, тинглаб юриш ҳолатлари мавжуд. Айниқса, сунгги вақтда ҳатто ўсмир ёшларимиз ҳам Сурия, Ирок каби мамлакатлардаги жанггариларнинг фаолиятини тарғиб қилувчи материалларини телефонда кулма-кул қилаётганлари кузатилмокта.

Ахборот технологияларни, радиотелеведение, матбуот, уяли телефон тизимини тез ва кенг ривожланиб бориши, айниқса ҳали дунёқараши тўлиқ шаклланмаган ёшларимизнинг ҳаётий тарзига кириб бораёткаллиги жиддий таҳдид солмокта. БМТ

маълумотига кўра, ҳозирда интернет тармоғида болалар порнографиясини тарғиб қилаётган сайтларнинг сони 4 млрддан ортиқ экан.

Бугунги кунда мамлакатимизда уяли-мобил алоқа абонентларининг сони салкам 15 миллионга етган.[5] Халқимиз бу жараённи бир томондан ижобий баҳолайди, шунингдек ёшларимиз ҳаётидан замонавий ахборот технологиялари ютуқлари тобора ўрин эгаллаётганлигига қувонарли ҳодиса деб қараш мумкин. Аммо масаланинг иккинчи томони ҳам мавжуд. Телефонларга кўчирилган ва интернет тизими орқали эфирга узатилиётган видеолар ва ахборотларда тарқатилиётган минглаб ёшларимизнинг ахлоқий, ғоявий тарбиясига салбий таъсир кўрсатаётгани, бу борадаги тарбиявий ишларни пухта йулга қуйиш, "Оммавий маданият"тажавузларига қарши мунтазам ва муросасиз курашишни, хушёр ва огоҳ,бўлишни тақозо қилади.

Масаланинг жиддийлиги шундаки, компьютер вируслари билан бир каторда, инсонинг маданияти, маърифати, одоб-ахлоки учун бутинлай зид булган "маънавий-ахлокий" вирусларни хам "хакер"лар орқали ёшлар онгига узатмоқта. Бундай вирусларни таркатувчи "хакерлар" тўғридан-тўғри инсон онгини, инсон қалбини вайрон қиладилар. Мақсад:

-ёшларни рухий маънавий қашшоқ қилиш, интелектуал салаҳиятини йуққа чиқариш, шахсни шахс сифатида ривожланишига йул қуймаслик, бунинг замирида одамлар, миллатлар ўртасидаги эзгулик инсонийлик ва ўзаро дустлик, қариндошлик муносабатларининг ўрнига ёвузлик, душманлик уруғларини сепиштан иборат.

Хулоса ўрнида шуни айтиш жойизки ёш авлоднинг тўғри таълим ва тарбия олишида педагогика ва унинг турлари катта аҳамиятга эга. Ўқувчи шахсининг ёш даврларини ҳисобга олган ҳолда ўргатилиб борилади. Буларга;

- Мактабгача таълим педагогикаси- боланинг соғлом, ҳар томонлама камол топиб шаклланишини таъминлайди, унда ўқишга интилиш ҳиссини ўйғотади, уни мунтазам таълим олишга тайёрлайди ҳамда бола олти-етти ёшга етгунча мактабгача таълим муассасаларида болаларга тасвирий санъат, мусиқа, тил саводхонлигин ўргатиш орқали болада ўкишга қизиқиш юзага келади.

- Мактаб педагогикаси- педагогиканинг тамойиллари асосида ўқувчилар барча фанлар бўйича мунтазам билим-олишлари, уларда билим олиш ёхтиёжининг юзага келиши, атроф муҳитга онгли муносабатда бўлиш шу Билан бирга тарбия турлари ҳам бериб борилади.

- Ҳарбий педагогика- ёш авлодни миллий туйғуда тарбия етишда ҳарбий педагогиканинг ҳам ўзига хос ўрни катта ҳисобланади. Асосан ўқувчи ёшларга она ватанга содиқ миллий истиқлол ғоялари руҳида тариялайди. Дунё шиддат билан ўзгариб бораётган бугунги замонда, халқимизнинг маънавий қадриятлари, маданияти ва урф-одатларига содиқ қолишга тариялайдиган таълим тури ҳисобланади.

**REFERENCES**

1. Ш.Мирзиёв Халкимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган олий баходир. Т. "Ўзбекистон"
2. Жаринов. В. Терроризм и террористы. – Минск: Харвест, 2010.
3. Будницкий О.В. Терроризм глазами историка. Идеология терроризма / Вопросы философии. 2014.

4. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т.: «Маънавият», 2008.
5. Телефон тажавузга айланмасин. Кўз илғамас тахдид. “Хукуқ ва бурч”

# IJODKOR SHAXS - GENDER XUSUSIYATLARINING BADIIY ASARDA AKS ETISHI VA UNING LINGVISTIK EKSPERTIZASI.

**Mengliyev B. R**
Ilmiy rahbar
**Eraliyeva Sarvinoz Oybek qizi**
Chirchiq davlat pedagogika universiteti filologiya fakulteti o'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 2 - bosqich magistranti
+998 99 999 21 90

https://doi.org/10.5281/zenodo.7556477

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada ijodkor shaxs-gender xususiyatlarining badiiy asarda qay tarzda aks etishi lingvistik ekspertizadan o'tkazildi. Tahlil A.Navoiy va Nodirabegimning badiiy matnlari asosida amalga oshirildi. Badiiy matn leksik-semantik, stilistik jihatdan o'rganildi.*

***Kalit so'zlar:*** *lingvistik ekspertiza, amaliy tilshunoslik, ijodkor shaxsi, shaxs-gender xususiyatlar, badiiy matn, subyektiv munosabat, leksema.*

# ТВОРЧЕСКАЯ ЛИЧНОСТЬ - ОТРАЖЕНИЕ ПОЛОВЫХ ПРИЗНАКОВ В ПРОИЗВЕДЕНИИ ХУДОЖЕСТВА И ЕГО ЯЗЫКОВОЙ ОПЫТНОСТИ.

***Аннотация.*** *В данной статье было проведено лингвистическое исследование того, как характеристики творческой личности-пола отражаются в художественном произведении. Анализ проводился на основе художественных текстов А. Навои и Нодирабегим. Художественный текст исследовался лексико-семантически и стилистически.*

***Ключевые слова:*** *лингвистическая экспертиза, прикладная лингвистика, личность творца, личностно-половые характеристики, художественный текст, субъектное отношение, лексема.*

# CREATIVE PERSON - REFLECTION OF GENDER CHARACTERISTICS IN A WORK OF ART AND ITS LINGUISTIC EXPERTISE.

***Abstract.*** *In this article, a linguistic examination of how the characteristics of the creative person-gender are reflected in the artistic work was carried out. The analysis was carried out on the basis of the artistic texts of A. Navoi and Nodirabegim. The artistic text was studied lexically-semantically and stylistically.*

***Key words:*** *linguistic expertise, applied linguistics, personality of the creator, personality-gender characteristics, artistic text, subjective attitude, lexeme.*

Kirish.

Lingvistik ekspertiza amaliy tilshunoslikning yangi yo'nalishlaridan biri bo'lib, u yozma va og'zaki nutqni lingvistik jihatdan tahlil etib tekshiradi. Ya'ni lingvistik ekspertizada tilshunoslik amaliy vazifa bajaradi: lingvistik bilimlar dolzarb ijtimoiy muammolarni yechishga yo'l ochadi.

Badiiy matnni lingvistik tahlil qilish asnosida muallif ruhiyati, badiiy maqsad va g'oyasi kabi masalalarga oydinlik kiritiladi. Tahlil jarayonida tadqiqotchi va ushbu tadqiqot bilan tanishgan kishida badiiy matn muallifi xususida umumiy fikr, muayyan xulosa yuzaga keladi. Badiiy matnning leksik-semantik, grammatik, stilistik xususiyatlari lingvistik ekspertiza jarayonida tahlil etiladi.

Til katta tuzilishga ega va ko'p qirrali butunlik. Til sistemasida mavjud imkoniyatlar va o'ziga xosliklarni hamma ham birday anglashi , to'g'ri talqin qilishi qiyin masala. Tilda turli nozikliklar nutq aktini ekspert orqali tahlil etilishida ko'rinadi. Nutq muallifi va uning psixologik holati haqida tushuncha va umumiy xulosalar obyekt sifatida olingan matnni maxsus filologik bilimlar orqali o'rganish, tub moohiyatini ko'ra olish asosida kelib chiqadi. Bizning tadqiqotimiz esa ilodkor shaxs-gender xususiyatlarining badiiy asarda qay tarzda aks etishini o'rganishga yo'naltirilgan.

Tahlil va natijalar

Ijodkor shaxs- gender xususiyatlarining badiiy asarda qay tarzda aks etishi uning, avvalo, jinsi hamda yoshi, qaysi davrda qanday ruhiyatda yashab, ijod etganiga bevosita bog'liq. Mana shu omillar ijodkor "men"ining, ya'ni shaxsiyatidagi barcha fazilat-u qusurlarning shakllanishiga sabab bo'ladi. Har bir ijodkor bu bir alohida odam va olam. U ijod jarayonida ilohiy his tuyg'ular girdobida bir lahzaga moddiy dunyodan ajralsa-da, ijoddan tashqari holatda barchamiz kabi yaxshi va yomon jihatlariga ega shaxsga aylanadi. Mana shu ijobiy va salbiy xususiyatlari ixtiyorsiz ravishda uning qalamidan bunyod bo'lgan badiiy matnda ham o'z aksini topadi.

Badiiy matnnig umumiy va xususiy tomonlarini inobatga olgan holda biz ijodkor shaxsiyatidagi gender xususiyatlarni ochib bera olamiz. Badiiy matnning umumiy jihatlari bu ijodkorning leksik, grammatik, stilistik imkoniyatlarini aniqlash va baholash degani. Badiiy matnning xususiy jihatlarini esa ijodkorning o'ziga xos so'z boyligi, so'z va iboralarni qay tarzda qo'llay olish san'atidan kelib chiqib fonologik va grammatik tomondan qaysi hudud nutqiga xoslik, o'zga tillar ta'siri kabi holatlarda kuzatishimiz mumkin.

Erkak va ayol ijodkorlar badiiy asarda o'z ijodiy niyatini amalga oshirishda turlicha leksemalardan foydalanadi. Ayol jinsiga mansub ijod ahli xoh nasr, xoh nazmda bo'lsin ( ular ko'proq nazmni sevadilar va she'riy janrlarda faolroq) imkoni boricha nozik iboralar, ayollarga xos qochirimlar-u tashbehlar, fusunkor so'zlarni qo'llaydilar. Bu bilan erkak yozuvchi-shoirlar dag'al va g'aliz yozadilar degan fikrdan yiroqmiz. Erkak jinsidagi badiiy so'z ustalari ijod namunalari orasida ayol ijodkorlardan-da yuksak tarzda bitilgan eng nozik dil pardalarini chertib yuboruvchi satrlar behisob. Demoqchimizki, har qanday badiiy asarning mutoalasiga kirishgan kitobxon unig muallifi erkak yoki ayol ekanligini his etib turadi. Buning boisi: badiiy asarda bo'y ko'rsatgan badiiy rux talqini; badiiy voqelikka bo'lgan muallifning subyektiv munosabati aks etilishi, tanlangan leksemalarga ijodkor gender xususiyatlarining tabiiy ravishda suratlanib qolishidir.

Oraz-u xoling bila xatting xayolidin erur
Ko'zlarimning ollida davron qizil, sorig', yashil.

Buyuk mutafakkir A. Navoiyning "Xil'atin to aylamish jonon qizil, sorig', yashil" mat'lali g'azalidan olingan ushbu baytda qizil, sariq va yashil kabi rang-tus bildiruvchi sifat so'z turkumiga oid leksemalardan shu darajada mohirona foydalanilganki, baytda ular shunchaki rang emas, lirik qahramon---oshiq-u beqarorning ruhiy holatini butunligicha ifodalab beruvchi zaruriy vositaga aylangan. Ya'ni ushbu rang-tus bildiruvchi sifatlar yuqoridagi she'riy matnda gap kesimi vazifasida kelgan va o'ziga xos badiiy yuk olgan: ma'shuqa vasli xayolida bo'lgan oshiqning umri muhabbat ranglariga burkanib, olam ham ko'z o'ngida turfa jilva sochmoqda. Navoiy shaxsiyatidagi borliqni teran anglay olish qobiliyati, chuqur mushohadaga egalik, takrorlanmas badiiy mahorat bo'y ko'rsatib turgan ushbu baytdagi "qizil", "sorig'", "yashil" sifatlari badiiy qahramon ruhiy kechinmalaridagi eng nozik, go'zal holatni yorqin ifoda etmoqda.

Bu yerda badiiy qahramon erkak kishi va murojaat ayol kishiga (yorga) yo'llanganligi yaqqol bilinib turibdi. Shu nuqtayi nazardan qarasak, bu badiiy matnda ham aksariyat mumtoz g'azallarda kuzatganimiz singari mahbuba hajrida yonib kuygan oshiq (erkak kishi)ga xos samimiyat, kamtarinlik ortidagi ajib ulug'vorlik, ayollarni alqash va nozik jins vakillariga nisbatan cheksiz mehr ufurib turibdi. Lekin bu holat barcha mumtoz she'rlarda uchramaydi. Chunki ijod ahli faqat erkak kishilardan va badiiyat ham faqat erkak kishi ruhiyatini aks ettiruvchi leksemalardangina iborat emas. Badiiy ijodda ayol jinsiga mansub qalam sohibalarining o'zgacha ovozi, monerasi borligini unutmaslik joiz.

Keling endi mumtoz adabiyotimizning ayol ijodkor vakilasi Nodirabegimning "Fido" radifli g'azalidan olingan ushbu baytga e'tibor qarataylik.

Kel, senga ey shahi jahon, mamlakati jahon fido,
Diydalarimga qo'y qadam, har qadamingga jon fido.

Bu yerda "yor" obrazi mumtoz she'riyatda an'anaviy tarzda kuylangan nozik, gul yuzli, uzun zulfli, kiprigi xanjar "yor"ga o'xshamayapti. Baytdagi "yor" bu "shahi jahon", ya'ni u erkak kishi. Demak oshiq--- lirik qahramoni ayol kishi bo'lgan g'azallarda yor ham o'z navbatida erkak jinsiga mansub bo'ladi. Ruhiy holat ifodasi shu tariqa ayol ijodkorlar iste'molida ko'proq qo'llaniladigan so'zlar zamirida yuzaga keladi. O'zbek ayollari nutqida azaldan ko'p uchraydigan "qadamlaringizga jon fido bo'lsin", "qadamlaringizdan aylanay" kabi iboralar mavjud hamda ular orqali turkiy xalqlar qadriyatiga xos bo'lgan ayollar tomonidan erkak kishini ulug'lash, erkaklardan o'zni bir pog'ona past qo'yish kabi betakror odatlar ifoda etiladi. Bu yerda esa bunday an'ana eng yuqori cho'qqisida bo'y ko'rsatadi. Ya'ni mahbuba o'z yoridan uyiga emas, ko'zlariga qadam qo'yishini so'rayapti. "diyda" leksemasi hozirgi "ko'z" leksemasining eski varianti bo'lib, bugun ham badiiy iste'molda foydalaniladi. Yuqoridagi baytda "diydalarimga" tarzida -lar ko'plik qo'shimchasini o'ziga qabul qilgan holda qo'llangan ushbu so'z liirik qahramonning his-tuyg'ulari qanchalar kuchli ekanligini ifodalashga xizmat qilmoqda. Inson tana a'zolarini atab kelgan ot so'z turkumidagi so'zlar o'ziga ko'plik qo'shimchasini ma'noni kuchaytirish, ta'kidlash uchun qabul qiladi, bu yeda ham shoira o'z lirik qahramonining kechinmalarini ko'rsatib berish uchun to'g'ri yo'ldan borgan.

Furqat ichra tushdi savdoi Zulayho boshima,
Qimmati Yusuf baho topti xaridorimg'a, ayt.

"Ayt" radifli g'azaliga mansub yuqoridagi baytda ham oshiq endi har doimgidek Yusufga emas Zulayhoga tenglashtirilgan. Bu yerda oshiqning mahbuba ekanligi va ishqiy murojaat ham an'anaviy ayol jinsidagi yorga emas, erkak kishiga yo'llanganligini guvohi bo'lamiz. Ushbu murojaatda biz "Yusufday qimmatli" yorga nisbatan ayollarga xos samimiyat, joziba, sadoqat, sabr va bardoshga yo'g'rilgan qaln nolasini tinglaymiz.

Mohlaroyim Nodiraning "Farhod agar ursa menga lofi muhabbat,'' deb boshlanuvchi g'azalidan olingan navbatdagi baytida ham shunday holatni kuzatishimiz mumkin.

Gar bo'lsa Zulayhoda mening zarracha ishqim,
Qolmas edi Yusufni firoqida salomat.

Yuqoridagi baytda ham oshiq va yor obrazi hamda ularga tenglashib kelayotgan Yusuf va Zulayho o'rtasidagi munosabat, murojaatda o'zgachalik yaqqol ko'rinib turibdi. Ishq bobida o'zini Zulayhodan-da ziyoda tutayotgan lirik qahramon aslida shoiraning ruhiyati, his-tuyg'ulari aks etgan oyina xolos. Nodiraxonim shaxsiyatidagi faqat malikalarga xos bo'lgan ajib ulug'vorlik, o'z qadrini baland qo'yish va shu bilan birga buyuk insonlargina sazovor bo'luvchi

oliy muhabbat ko'yida yonish kabi holatlarga guvoh bo'lamiz. Bu yerda shoiraning ulkan qanoat sohibasi ekanligiga, ishq yo'lida barcha qiyinchiliklarga shay turishi va metin bardosh egasi ekanligiga guvoh bo'lamiz.

Baytda Nodirabegim shaxsiyatiga xos teran fikrlash, donolik, keng dunyoqarashga egalik xususiyatlar ko'rinadi. O'z davri adabiy muhitida katta o'rin tutgan ijodkor o'zigacha bo'lgan adabiyot tarixi, badiiy asarlar bilan yaqindan tanish bo'lganini ham kuzatishimiz mumkin.

Xulosa

Har qanday badiiy asar o'zida yaratuvchisining imzosini aks ettirib turadi. Aynan mana shu jihat tadqiqotchi uchun dasturi amal bo'lib xizmat qiladi.

Badiiy matn ekspert tomonidan leksik-semantik, grammatik, morfologik, sintaktik va uslubiy tomonlama tahlil etiladi.

Ijodkor shaxs- gender xususiyatlari badiiy matnning semantik yo'nalishi, ekspressivligi va hissiyligi hamda til imkoniyatlaridan qay darajada foydalanganiga ko'ra aniqlanadi.

Ekspert o'z tadqiqotida badiiy matn muallifi haqida ma'lumot tashuvchi matndagi barcha holatlarni tekshiradi. Biz ham ushbu maqolamizda shu yo'ldan bordik va ko'zlangan maqsadga oz bo'lsada erishdik deb o'ylayman.

**REFERENCES**

1. Musulmonova K. O'zbek tili yozma matnlarini lingvistik ekspertizadan o'tkazish jarayoni, bosqichlari, metotodlari. PHD diss.
2. To'rayeva D. O'zbek tilidagi shaxsiy yozishmalarda noadabiy unsurlarning hududiy xoslanishi. PHD diss.
3. To'rayeva D. Nutqda shaxs ruhiy holatining namoyon bo'lishi. Mag…diss

# GLOBALLASHUV SHAROITIDA MA’NAVIY TARG‘IBOTNING ZARURIYATI VA O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

**Murodaliyev Baxtiyor Xolmirzayevich**
Termiz davlat universitetining Pedagogika instituti magistranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.7556631

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada globallashuv jarayonida ma’naviy targ‘ibotning zaruriyati, o‘ziga xosligi haqida fikr yuritilgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *globallashuv, ma’naviy targ‘ibot, zaruriyat, sur’at, destruktiv o‘zgarishlar, individualizm, egoizm, egotsentrizm, milliy-ma’naviy meros.*

# НЕОБХОДИМОСТЬ И ОСОБЕННОСТИ ДУХОВНОЙ ПРОГРАММЫ В ГЛОБАЛИЗАЦИИ

***Аннотация.*** *В данной статье рассматривается необходимость и своеобразие духовной пропаганды в условиях глобализации.*

***Ключевые слова:*** *глобализация, духовная пропаганда, необходимость, скорость, деструктивные изменения, индивидуализм, эгоизм, эгоцентризм, национально-духовное наследие.*

# THE NEED AND SPECIFIC CHARACTERISTICS OF SPIRITUAL PROPAGATION IN GLOBALIZATION

***Abstract.*** *This article discusses the necessity and uniqueness of spiritual propaganda in the process of globalization.*

***Key words:*** *globalization, spiritual propaganda, necessity, speed, destructive changes, individualism, egoism, egocentrism, national-spiritual heritage.*

Globallashuv jarayoni hayotimizga tobora tez va chuqur kirib kelayotganining asosiy omili va sababi xususida gapirganda, shuni obektiv tan olish kerakki, bugungi kunda har qaysi davlatning taraqqiyoti va ravnaqi nafaqat yaqin va uzoq qo‘shnilar, balki jahon miqyosida mintaqa va hududlar bilan chambarchas bog‘lanib boryapti, biror mamlakatning bu jarayondan chetda turishi ijobiy natijalarga olib kelmasligini tushunish, anglash qiyin emas. Shu ma’noda, globallashuv bu avvalo, hayot sur’atlarining beqiyos darajada tezlashuvi demakdir.

XX asrning ikkinchi yarmi — XXI boshida jahon taraqqiyotida shakllangan yangi umumsayyoraviy tartibot, tamadduniy bosqich mazmun mohiyati, davlatlar va kishilar o‘rtasida o‘zaro aloqalarning kengayishi va murakkablashishi, dunyo miqyosida axborot makoni, kapital, tovar hamda ishchi kuchi bozoridagi integratsiyalashuv, atrof muhitga texnogen ta’sirning kuchayishi, ommaviy madaniyat namunalarining keng tarqalishi, informatsion-mafkuraviy va diniy-ekstremistik xurujlar xavfining ortib borishini ifoda etadigan global jarayondir. Globallashuvning turli xil g‘oya va mafkuralar bilan bog‘liqligi hamda milliy g‘oyaga ehtiyojning zarurati madaniyat, hatto shaxsiy turmush tarzini qamrab olgan globallashuv jarayoni bilan bog‘lanmoqda.

1985 yilda taniqli amerikalik olim R.Robertson “Globalization” iborasini ilmiy muomalaga kiritib, bu tushuncha “odamlar ongida sayyoramizning torayishi hamda dunyoning yaxlit tarzda anglanishi”ni aks ettirib, “dunyoning birlashuvi va kishilar o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarining kuchayishini” ifoda etadigan jarayon sifatida talqin etadi. XX asrning 70 yillarigacha dunyo mamlakatlarining iqtisodiy – ijtimoiy hamda siyosiy taraqqiyoti har bir davlatning o‘z hududi doirasidagi rivojlangan sur’atlari yoxud ularning o‘zaro munosabatlari darajasidan iborat jarayon

sifatida talqin etilar edi. Globallashuv davriga kelib esa taraqqiyot borasida oʻzgacha qarash voqea hodisalarni makon va zamondan ajratmagan xolda, sinxron tarzda talqin etish tamoyili koʻzga tashlana boshladi.

Globallashuvning turli mamlakatlarga oʻtkazayotgan ta’siri ham turlicha. Bu hol dunyo mamlakatlarining iqtisodiy, axborot, ma’naviyat salohiyatlari va siyosati bilan bogʻliq. Dunyoda yuz berayotgan jarayonlarning har bir mamlakatga oʻtkazayotgan salbiy ta’sirini kamaytirish va ijobiy ta’sirini kuchaytirish uchun shu hodisaning mohiyatini chuqurroq anglash, uning xususiyatlarini oʻrganish lozim. Bu hodisani chuqur oʻrganmasdan turib, unga moslashish, kerak boʻlganda, uning yoʻnalishini tegishli tarzda oʻzgartirish mumkin emas.

Globallashuv yana shunday jarayonki, uni chuqur oʻrganmaslik, undan foydalanish strategiyasi, taktikasi va texnologiyasini ishlab chiqmaslik mamlakat iqtisodi va madaniyati, ma’naviyatini shiddatli selning kuchiga boshqaruvchisiz qayiqni topshirish bilan barobardir. Jamiyatning ma’naviy yangilanishi bevosita an’anaviy negizlarini asos qilib olgan holda, zamonaviylikni targʻib qilish va uni qabul qilish, uning mohiyatini keng ommaga etkazib berish bugun globallashuv jarayonlari avjiga mingan zamonda alohida ahamiyat kasb etadi.

Avvalo, bu jarayonda har bir axborot va ma’lumotlarni etarli asoslab berishga qaratilishi jarayonni bir yoʻnalishda rivojlanishini ta’minlaydi. Turli ta’sirlarga moyil va qiziquvchan xususiyatga ega va hali hayotning “achchiq” tajribalaridan bexabar yoshlarni chidamli, oʻz fikriga va dunyoqarashiga ega qilib tarbiyalash milliy gʻoya targʻibotining asosiy vazifalaridan biridir. Aynan yosh avlodimizni milliy gʻoyani asrovchilari va keyingi avlodga yetkazuvchi ekanliklari bu jarayonni nechogʻlik muhim ekanligini yana bir bor isbotlab beradi. Mustaqillik yillarida mamlakatimiz olimlari oʻtkazgan va oʻtkazayotgan tahlili bu sohada ishlar endigina boshlanganidan dalolat beradi.

Globallashuv milliy ma’naviyatga ham ta’sirini oʻtkazadi. Buning uchun milliy ma’naviyatlar oʻzini asrab qolishi va global ta’sirlarga javob bera olishi uchun oʻzining hozirgi zamonda erishilayotgan yutuqlari bilan yanada boyitib borishi muhim ahamiyatga ega. Uning ta’siri kirib kelgan jamiyatning barcha sohalari tez boʻlmasa-da, ammo asta sekinlik bilan boʻlsada, oʻz “iz”larini qoldiradi. Bunday turdagi “ta’sirlar”ga eng beriluvchan, uni oldida hali zaifroq boʻlgan kuch bu yoshlar hisoblanadi.

Shulardan kelib chiqqan holda, globallashuv jarayonida turli gʻoya va mafkuralarni aynan yoshlar orqali “koʻprik” sifatida foydalanishlariga yoʻl qoʻymasliklari uchun, millatparvar, xalqchil, umuminsoniy tamoyillarga asoslangan milliy gʻoya asosida qurollantirish bugun ushbu masalaning qanchalik muhimlik darajasini belgilab beradi. Mamlakatimizning jahon maydonida olib borayotgan siyosati koʻproq samara va muvaffaqiyat keltirishini istasak va eng avvalo, yosh avlodni kelajakda davlatimizni tayanchi sifatida tarbiyalashga qaratilgan ishlarni kuchaytirishimiz, globallashuvning mohiyati, yoʻnalishlari, xususiyatlarini chuqurroq tadqiq va tahlil qilish zarur.

Aynan shu jarayonni chuqurroq tahlil etish orqali siyosatchilar uchun toʻgʻri yoʻl tanlashi va qarorlar qabul qilinishi uchun imkoniyat yaratilishi mumkin. Yoshlarda axborot xavfsizlikni ta’minlovchi omillar: ta’lim va tarbiyaning davlat siyosati darajasiga koʻtarilishi alohida bu jarayonga mazmun kasb etadi; yoshlarga tegishli muammolarni bosqichma-bosqich hal etilishi, mehnatni taqsimlash, mahsulot ishlab chiqarish mehnat bozorini engillashtirish muammolarini birin-ketin bartaraf etishi natijasida yoshlarning siyosiy va ijtimoiy faolligi oshib boradi; ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning mazmun-mohiyati yoshlar muammosini bartaraf etishga

qaratilganligini kiritish mumkin. Insoniyatning keyingi taraqqiyot yillari globallashuv sharoitida shaxsning ijtimoiy ongi, yo‘naltiruvchi maqsadlari, qadriyatlari, hayotiy tushunchalari, dunyoqarashi va oxir-oqibat uning jamiyat bilan munosabatlarida qanday o‘zgarishlar sodir bo‘layotganligiga bog‘liq.

Globallashuv davrida: turli xil mafkuralar o‘rtasida kurash; ma’naviy tahdidlar; “ommaviy madaniyat” ko‘rinishlari; odam savdosi; diniy eksteremizm va halqaro terorrizm; giyohvandlik, narkobiznes xavfi yanada kuchayadi. Bu mafkuraviy kurashlar mamlakatning geosiyosiy maqsadlariga qarshi yo‘naltirilganligi bilan o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Shuning uchun, ijtimoiy va gumanitar fanlar globallashuvining jamiyat hayotining iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, madaniy sohalariga ta’siri masalalariga katta e’tibor qaratilmoqda.

Globallashuvning inson va postindustrial jamiyatlar hayotidagi o‘rni hamda roli haqidagi alohida qarashlar shakllanmoqda. Globallashuv turli xil g‘oya va mafkuralar bilan bog‘liq. Unda ezgu, bunyodkor g‘oyalarni hamda aksincha jaholatga undaydigan tajovuzkor, buzg‘unchi g‘oyalar ham mavjudligini hisobga olish lozim. Bu jarayonlar inson tafakkuri va ma’naviy dunyosiga ta’siri masalasiga etarli darajada e’tibor berishni taqazo etadi. Globallashuv sharoitida inson tafakkuri va ma’naviy dunyosida sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar quyidagi holatlar bilan belgilanadi:

- globallashuv shaxsni shakllantiruvchi jamiyatning madaniy-ma’naviy sohalariga ta’sir o‘tkazib, muayyan o‘zgarishlarga olib keladi, an’anaviy qadriyatlar tizimiga ham turli xil ta’sir etishi mumkin;
- globallashuv ta’sirida ro‘y bergan o‘zgarishlar insonning ma’naviyaxloqiy, psixologik qiyofasiga ham jiddiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin va hozirgi zamon jamiyatining qiyofasini ham muayyan tarzda o‘zgartiradi;
- globallashuvning ijobiy jihatlari bilan bir qatorda, uning ta’sirida ijtimoiy va individual ongda destruktiv o‘zgarishlar ham qayd etilgan. Bu holat individualizm, egoizm, egotsentrizm insonparvarlik tamoyillarining evrilishi, axloqiy tushkunlik, hayotiy ayrim maqsadlar va tasavvurlarning buzilishi kabi hodisalarda namoyon bo‘lmoqda.
- Globallashuv jarayoni milliy-ma’naviy meros va umuminsoniy qadriyatlarni uyg‘un rivojlanishini taqazo etadi, aks holda ma’naviy tahdidlar kuchayadi. “Ma’naviyatga tahdid – o‘zligimizga va kelajagimizga tahdid” ekanligini hisobga olishimiz lozim. Milliy g‘oya targ‘ibotida xalqimizning tabiati, irodasi, orzu intilishilarini ifodalaydigan quyidagi milliy-madaniy xususiyatlarni zamon talablari asosida yanada boyitishni nazarda tutadi:

- xalqimiz hayotida qadim-qadimdan jamoa bo‘lib yashash ruhining ustunligi;
- jamoa timsoli bo‘lgan oila, mahalla, el-yurt tushunchalarining muqaddasligi;
- ota-ona, mahalla-kuy, umuman jamoatga yuksak hurmat-e’tibor;
- millatning ulmas ruhi bo‘lgan ona tiliga muhabbat;
- kattaga - hurmat va kichikka - izzat;
- mehr-muhabbat, go‘zallik va nafosat, hayot abadiyligining ramzi – ayol zotiga ehtirom;
- sabr-bardosh va mehnatsevarlik;
- halollik, mehr-oqibat va hakazo.

Milliy g‘oya targ‘ibotida quyidagi umumbashariy qadriyatlar e’tirof etiladi va ulardan oziqlanadi:

- qonun ustuvorligi;
- inson haq-huquqlari va xurfikrlik;
- turli millat vakillariga hurmat va ular bilan bahamjihat yashash;
- diniy bag‘rikenglik;
- dunyoviy bilimlarga intilish, ma’rifatparvarlik;
- o‘zga xalqlarning ilg‘or tajribalari va madaniyatini o‘rganish.

Milliy g‘oya targ‘iboti vositalarining har biri o‘z yo‘nalishida:

1) milliy madaniy merosga tayanishi uchun asrab-avaylash va rivojlantirishga alohida ahamiyat berishi muhim;

2) Milliy-madaniy xususiyatlarni inkor etmagan holda, umumbashariy tamoyillarga sodiq qolgan holda targ‘ibot ishlarini olib borish milliy g‘oya maqsadlarini O‘zbekiston xalqining ishonch va e’tiqodiga, hayotiy qadriyatiga aylanib borishiga xizmat qiladi.

Milliy g‘oya targ‘iboti texnologiyalarida bu uyg‘un tarzda doimo ifodasini topib borishi, mamlakatda ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot qurishga xizmat qiladi. Shuning uchun ham, yoshlarda milliy g‘oyaga daxldorlik hissini shakllantirish va rivojlantirish taraqqiyotning muhim sharti hisoblanadi.

**REFERENCES**


1. Mirziyoyev Sh.”Jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo‘lsa,uning joni va ruhi ma’naviyatdir”.Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari bo‘yia videoselektor yig‘ilishidagi ma’ruzasi. 2021-yil 19-yanvar. http://uza.uz/posts/235451
2. Abdulla Avloniy Turkiy guliston yoxud axloq. Toshkent “O‘qituvchi” 1992.13-14 sahifa, bet 62.
3. Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushunchalar va tamoyillar. –T.: “O‘zbekiston”, 2000, B49-50.
4. Ma’naviyat asosiy tushunchalar izohli lug‘ati. G‘ofur G‘ulom. T.: 2010. 292 b.
5. O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonunining 5- moddasi. Xalq so‘zi. 2016 yil 15 sentyabr

# YUKSAK MA’NAVIYAT VA DAXLDORLIK HISSI FUQAROLIK JAMIYATINING MUHIM OMILI

**Turobov Akram Ural o‘g‘li**
Termiz davlat pedagogika instituti magistranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.7556641

***Annotatsiya.*** *Maqolada Ma’naviyat va daxldotrlik hissi va uning fuqarolik jamiyati, ma’naviy tiklanish va yuksalishda tutgan o‘rni haqida fikr yuritilgan, ma’naviyatni shakllantiruvchi mezonlar, ma’naviy tahdidlar, fuqarolik jamiyatini rivojlanishida inson omili, fuqarolik jamiyati negizlari, milliy ma’naviy meros va qadriyatlar tahlil qilinadi.*

***Kalit so‘zlar:*** *“Ma’naviyat”, “yuksak ma’naviyat”, fuqarolik jamiyati, daxldorlik hissi, ma’naviy tiklanish va yuksalish, ma’naviyatni shakllantiruvchi mezonlar, globallashuv, ma’naviy tahdidlar, fuqarolik jamiyatini rivojlanishida inson omili, fuqarolik jamiyati negizlari, milliy ma’naviy meros va qadriyatlar, demokratik umuminsoniy prinsiplar.*

# ВЫСОКАЯ ДУХОВНОСТЬ И ЧУВСТВО ОБЩЕНИЯ – ВАЖНЫЙ ФАКТОР ГРАЖДАНСКОГО ОБЩЕСТВА

***Аннотация.*** *В статье рассматриваются духовность и чувство сопричастности и ее роль в гражданском обществе, духовное возрождение и рост, критерии, формирующие духовность, нравственные угрозы, человеческий фактор в развитии гражданского общества, основы гражданского общества, национальное духовное анализируются наследие и ценности.*

***Ключевые слова:*** *«Духовность», «высокая духовность», гражданское общество, чувство сопричастности, духовное обновление и рост, критерии формирования духовности, глобализация, духовные угрозы, человеческий фактор в развитии гражданского общества, основы гражданского общества, национальное духовное наследие. и ценности, демократические общечеловеческие принципы.*

# A HIGH SPIRITUALITY AND SENSE OF COMMUNICATION IS AN IMPORTANT FACTOR OF CIVIL SOCIETY

***Abstract.*** *The article discusses spirituality and the sense of belonging and its role in civil society, spiritual revival and growth, the criteria that shape spirituality, spiritual threats, the human factor in the development of civil society, the foundations of civil society, national meaning spiritual heritage and values are analyzed.*

***Key words:*** *"Spirituality", "high spirituality", civil society, sense of belonging, spiritual renewal and growth, criteria forming spirituality, globalization, spiritual threats, human factor in the development of civil society, foundations of civil society, national spiritual heritage and values, democratic universal principles.*

Inson aqli qanchalik o‘tkir va teran bo‘lmasin, fikrlash doirasi tor va tuban bo‘lsa, bu aql va zakovat vayronkor kuchga aylanadi. Shu ma’noda, ma’naviyat inson tafakkuri, aql-zakovati, butun faoliyatini tizginlab turadi. Bunda ma’naviyatning o‘rni ustunlik qiladi. Ma’naviyat bor joyda faqat umuminsoniy qadriyatlar inson aql-zakovati, kuch-qudratini bunyodkorlik sari yo‘naltirishi mumkin. Shuning uchun ham qayerda hushyorlik va jonkuyarlik, yuksak aql-idrok va tafakkur hukmron bo‘lsa, o‘sha yerda ma’naviyat qudratli kuchga aylanadi. Ma’naviyat inson va jamiyat hayotidagi o‘ziga xos qadriyatdir. Usiz na jamiyat va na inson hayotini tasavvur etish

mumkin. Tarix va madaniyat rivoji shuni ko‘rsatadiki, madaniyat va ma’naviyati yuksak xalq, millatgina o‘zligini anglaydi, o‘zgalar bilan insoniy munosibatda bo‘la oladi.

Ma’naviyat — insoniy munosabatlarda, jamiyat hayotida o‘zini tuta bilish va o‘zgalar nazdida kim ekanligini namoyon qilishdir. Unda mehr-muhabbat, ezgulik, insonni anglash, uni tushuna bilish, kechirimli, iboli va hayoli bo‘lish, boshqalarga yaxshilik qilish fazilatlari mujassam. Insoniy fazilatlarni yuksaltirishda mudom amaliy, hayotiy tajribaning, chuqur nazariy bilimning adabiyot va ma’rifatga tayanadi va ma’naviy e’tiqodingizning yanada mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

Jamiyat hayotida yashab, uning ma’naviyatidan bebahra bo‘la olmaymiz. Shunday ekan, fuqarolik jamiyati insoniy fazilatlar, yuksak ma’naviyatli, o‘z haqhuquqi va ta’rixi, urf-odati, an’analarini hurmat qilgan, ularga sodiq qolib, bugungi globallashuv jarayoniga o‘zining bilimi va ma’rifati, ma’naviyati bilan javob bera oladigan yoshlar jamiyati hamdir. Mamlakatimizda barkamol avlodni voyaga yetkazish maqsadida ta’lim tizimini isloh qilish borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Zero, erkin fikrga ega bo‘lgan komil insonlarni tarbiyalash fuqarolik jamiyati rivojlanishining o‘zagini tashkil etadi.

Fuqaro daxldorligi — biror-bir faoliyatga, jarayonga aloqadorlik, sheriklikdir. Har bir fuqaro Vatan taqdiriga shaxsiy daxldorlik tuyg‘usi bilan yashasa, uning jamiyat oldidagi burchi va mas’uliyati ham kuchayib boradi. Daxldorlik hissi insonlarni birlashtiradi. Shuning uchun daxldorlik va mas’uliyatni kundalik faoliyatiga aylantirgan inson haqiqiy ma’naviyatli inson hisoblanadi. Ota-bobolarimizdan qolgan boy moddiy va ma’naviy merosni asrab-avaylab kelgusi avlodlarga yetkazish uchun shu yurtda yashovchi har bir fuqaro mas’uldir. Bugun mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar samarasining oshirilishi, davlat va jamiyatning har tomonlama hamda jadal rivojlanishida har bir fuqaroning shaxsiy mas’uliyati va daxldorligi yotadi.Ma’naviyat va daxldorlik hissi inson va jamiyat hayotida, uning yangilanish hamda demokratik fuqarolik jamiyati maqsad va vazifalarini amalga oshirishda muhim omil hisoblanadi.

Mustaqillik O‘zbekiston jamiyati yangilanishida yangi davrni boshlab berdi. Jamiyat rivojlanishini bir tomonlama tushunish ya’ni moddiy omilni mutloqlashtirishga barham berildi. Jamiyat hayotida “ma’naviy va moddiy hayot” uyg‘unligi nuqtayi nazardan yondoshish o‘ziga xos qonuniyatdir. Bu moddiy ehtiyojlarini insonning ruhiy olamiga qarama-qarshi qo‘yishlarga barham berdi. Jamiyat rivoji ma’naviy va moddiy omillarning o‘zaro bog‘liqligiga asoslanadi. Bu fuqarolik jamiyatining ijtimoiy, iqtisodiy asoslarini, bozor iqtisodi qonunlarini to‘g‘ri tushunishga imkoniyat beradi. Chunki hamma narsa davlat mulki bo‘lgan eski tuzumda xususiy mulkka ega bo‘lish, tadbirkorlik va kichik biznes bilan shug‘ullanish bizga begona bo‘lgan tushunchalar sifatida baholangan edi.

Bugungi kunda esa xususiy mulk tushunchasiga nisbatan munosabat qanday o‘zgarib, hayotimizdan qanchalar chuqur joy olib bormoqda. Ma’naviyat insonni ulg‘ayish va kuch quvvat manbayidir. Bu insonning ruhiy poklanish va qalban ulg‘ayishi bilan bog‘liq. Hayotda har xil odamlar uchraydi. Ularning ma’nan halol, pok yashaydigan odamlarga hamda aksincha ma’nan zaif, halol va pok yashamaydigan odamlar ham mavjud. Ammo ma’naviyatni barqarorligi ham ana shunday halol-pok niyatli insonlarning borligi tufaylidir.

Fuqarolik jamiyatini qurish va rivojlantirish ezgu maqsad. U fuqarolarning davlat va jamiyat hayotida faol ishtiroki bilan uzviy bog‘liq. Fuqarolik jamiyati ana shunday odamlarning

yuksak ma'naviyati, daxldorlik hissiga, oliy maqsadlariga tayanadi. Bunday odamlar o'zlarining ezgu g'oya va amallari bilan fuqarolik jamiyati institutlarida faol ishtirok etadi.

Bu institutlar:

1) NNT,

2) jamoat birlashmalari;

3) turli xil jamg'armalar;

4) mahalla; 5) oila;

6) OAV;

7) turli xil ijtimoiy harakatlar va b.

Fuqarolik jamiyati institutlari manfaatlar muvozanatini ta'minlashga ko'maklashadi, unga xizmat qiladi. Bu bilan bog'liq turli xil qonunlarning ijrosini ta'minlaydi. Bunga yuksak ma'naviyat, ta'lim-tarbiya va chuqur daxldorlik hissi orqali erishish mumkin. Ilm-fan, adabiyot, san'at, xalqimizning boy ma'naviy merosi, qadriyatlarini o'rganish va hurmat qilish orqali fuqarolik jamiyati milliy-ma'naviy va umuminsoniy negizlarining o'zaro mushtarak holda rivojlanishini ta'minlash mumkin. Bu yuksak ma'naviyat va daxldorlik hissini shakllantirishda oilaning o'rni beqiyosdir. Oila esa fuqarolik jamiyatining muhim bo'g'inidir Mustaqillik yillarida “Kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyati sari” konseptsiyasi amalga oshirildi.

Kuchli fuqarolik jamiyati:

1) inson manfaatlarining ustuvorligiga;

2) insonlarning yuksak ma'naviyatiga;

3) qonun ustuvorligiga;

4) davlatning bosh islohotchilik roliga;

5) siyosiy plyuralizmga;

6) mafkuraviy plyuralizmga;

7) fikrlar xilma-xilligiga;

8) demokratik saylov prinsiplariga va boshqalarga asoslanadi.

Bu fuqarolardan yuksak mas'uliyat, daxldorlik hissi, demokratik ong va tafakkur talab etadi. Globallashuv davrida ma'naviy tahdidlarning oldini olish mamlakatimizda belgilangan fuqarolik jamiyatini rivojlantirish maqsadalariga to'g'ri keladi. Bunda fuqarolarning yuksak ma'naviyatini shakllantirish orqali ularning milliy-ma'naviy qadriyatlariga, tarixiy merosimizga, demokratik qadriyatlarga bo'lgan ishonch va e'tiqodini mustahkamlash orqali zararli g'oyalarning oldini olish mumkin.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, yuksak ma'naviyat va daxldorlik hissi ma'naviyatni inson va jamiyat hayotida, fuqarolik jamiyati qurilishi maqsad va vazifalarini tushunishda muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Yuksak ma'naviyat va fuqarolik jamiyatining o'zaro bog'liqligini quyidagi yo'nalishlar orqali ko'rish mumkin: ma'naviyat insonga xos xususiyat, ma'naviyatni tushunish uchun insonni bilish zarur; insonning ma'naviyat darajasi uning daxldorlik hissini belgilaydi. insonning ma'naviyati hamda daxldorlik hissi qancha yuqori bo'lsa, uning fuqarolik jamiyati mas'uliyatini, maqsad va vazifalarini tushunishi hamda ishtiroki shuncha yuqori bo'ladi; inson ma'naviyatli va daxldorlik hissi yuqori bo'lsa, milliy-ma'naviy meros va qadriyatlarni hurmat qiladi, unga sodiq bo'ladi.

Bu fuqarolik jamiyati uchun muhim negizdir; insonning qonunlarni hurmat qilishi, amal qilib, uning ijrosini ta'minlashi ham yuksak ma'naviyatihamda daxldorlik hissi mezonidir; milliy g'oya maqsadlari bilan fuqarolik jamiyati maqsadlari mushtarak; yuksak ma'naviyatli shaxs

ozod va erkin shaxs ma’naviyatidir. Ozod va erkin shaxs esa fuqarolik jamiyatining faol ishtirokchidir, bunyodkordir; ma’naviy tahdidlar – insonning o‘zligiga, ma’naviyatiga tahdiddir. Shuning uchun ham insonni uning har qanday ko‘rinishidan himoya qilish fuqarolik jamiyati rivojlanishining ustuvor maqsadlariga to‘g‘ri keladi. Daxldorlik hissining yuqori bo‘lishi insonlarga xos muhim fazilatdir.

**REFERENCES**

1. Mirziyoyev Sh.M. Jismoniy va ma’naviy yetuk yoshlar-ezgu maqsadimizga yetishda tayanchimiz va suyanchimizdir // "Xalq so‘zi" gazetasi, 2017 yil/1 iyul.
2. Abdumalikov A. Fuqarolik jamiyatida shaxs informatsion madaniyatini shakllantirish: monografiya. -T.: Fan, 2016. -B.60.
3. Ma’naviyat: asosiy tushunchalar va izohli lug‘at. -T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyotmatbaa ijodiy uyi, 2009. -B.546-547.
4. Buyanov B.C. Sushnost globalizatsii // Globalizatsiya Uchebnik -M.: Izd-vo RAGS, 2008.
5. Ergashev I. va boshq. Milliy istiqlol g‘oyasi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim bakalavriat bosqichi uchun darslik. -T.: Akademiya, 2005, 3-30-betlar.

# YADRO ITQITUVCHILARNI TEZKOR - KUCH SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH

**I.D. G‘aniboyev**
Ilmiy rahbar
**G‘.Xo‘jamkeldiyev**
Ilmiy maslahatchi
**O.Tojimamatov F.Toirov**
2 bosqich magistrantlari
E-mail: gafur.xujamkeldiyev@mail.ru
https://doi.org/10.5281/zenodo.7556651

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada yadro itqituvchilarni tezkor - kuch sifatlarini rivojlantirish tamoyillari borasida ma’lumotlar keltirib o‘tilgan.*

***Kalit so’zlar:*** *Besh tashabbus olimpiadasi, yadro itqituvchilar, tezkor - kuch sifatlari, jismoniy tayyorgarligining dinamikasi.*

# РАЗВИТИЕ БЫСТРОЭНЕРГЕТИЧЕСКИХ КАЧЕСТВ ЯДЕРНЫХ ИССЛЕДОВАТЕЛЕЙ

***Аннотация.*** *В данной статье представлена информация о принципах развития быстросиловых качеств ядерных тренажеров.*

***Ключевые слова:*** *Олимпиада пяти инициатив, основная подготовка, быстросиловые качества, динамика физической подготовленности.*

# DEVELOPMENT OF FAST - POWER QUALITIES OF NUCLEAR RESEARCHERS

***Abstract.*** *In this article, information is given on the principles of development of quick-strength qualities of nuclear trainers.*

***Key words:*** *Olympiad of five initiatives, core training, quick-strength qualities, dynamics of physical fitness.*

**Dolzarbligi.** Mamlakatimizda mustaqillik yillarida aholining, ayniqsa, yosh avlodning jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan muntazam shug‘ullanishi uchun zamon talablariga mos shart-sharoitlar yaratildi, sport musobaqalari orqali yoshlarda o‘z irodasi, kuchi va imkoniyatlariga bo‘lgan ishonchni mustahkamlash, mardlik va vatanparvarlik, ona Vatanga sadoqat tuyg‘ularini kamol toptirish, ular orasidan iqtidorli sportchilarni saralab olish va maqsadli tayyorlash ishlarini tizimli tashkil etish borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi. Yurtimizda yoshlar o‘rtasida tobora ommalashib borayotgan, navqiron o‘g‘il - qizlarimiz uchun chinakam chiniqish va mahorat maktabiga, katta hayot yo‘liga parvoz maydonchasiga aylanib ulgurgan “Besh tashabbus olimpiadasi musobaqalarini o‘zida mujassamlagan 5 bosqichdan iborat yaxlit tizim yaratildi.

Mazkur tizim orqali bugungi kunda nufuzli xalqaro maydonlarda Vatanimiz bayrog‘ini baland ko‘tarib kelayotgan mashhur sportchilar yetishib chiqmoqda. Eng muhimi, ushbu musobaqalar yoshlarimizni ommaviy tarzda sportga, sog‘lom turmush tarziga oshno qilish vositasiga aylandi.

Yurtimizda joriy etilgan “Besh tashabbus olimpiadasi”da jami 9 ta sport turidan iborat bo’lib, yengil atletika sport turi ham o’rin egallagan. Yengil atletikaning yadro itqitish turi Respublikamizda ommalashgan tur hisoblanib, Osiyo davlatlari orasida yetakchilar qatorida o’rin egallab kelishmoqda. Ammo, jaxon miqyosidagi natijalar biroz ortda qolayotganligi, bu bo’yicha murabbiylar va soxa mutaxassislari oldida turgan dolzarb masalalardan biri sanaladi.

**Ishning maqsadi.** Yadro itqituvchilarni tezkor-kuch sifatlarini rivojlantirishda noan’anaviy usullarda rivojlantirishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

Tadqiqot oldiga qo’yilgan maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilab olindi.

1.O‘quvchilarining jismoniy rivojlanganlik darajasini aniqlab olish;

2. O‘quvchilarining ma’lum bir testlar orqali masofalarga yugurishda sport natijasini aniqlash.

3. Mashg‘ulotlarda qo‘llaniladigan samarador mashq va uslublarni saralash.

4. O‘quvchilarining tezlik sifatini tarbiyalashda samarali vositalarni ta’sirini aniqlash.

**Tadqiqotni tashkil qilish va o‘tkazish.** Tadqiqotlar tabiiy sharoitlarda Toshkent shahridagi 218 sonli umumiy o’rta talim maktabi yuqori sinf o‘quvchilarining yengi atletika to’garagida 1yil davomida o‘tkazildi.

Tadqiqot boshida jami 24 nafar o‘quvchilardan nazorat teslarini olib, ularni tahlil qilib ikki guruhga nazorat va tajriba guruhlariga bo‘lib chiqdik. Nazorat guruhida 12 o‘quvchi va tajriba guruhida 12 o‘quvchi ishtirok etishdi.

Guruhlarga bo‘lish davomida ularning antropometrik va jismoniy holatlariga qarab bir xil qilib umumiy ko‘rsatkichlari teng ravishda ishni olib bordik.

Nazorat guruhiga dastur bo‘yicha mashg‘ulot jarayonlarini olib boradigan bo‘lsak tajriba guruhida ilmiy usulubiy adabiyotlarga tayanib o‘zimiz ishlab chiqqan dastur asosida mashg‘ulotlarni olib bordik.

**Tadqiqot natijalari va uning muhokamasi.** Olingan ma’lumotlarga ko‘ra tezlik-kuch, kuch yo‘nalishidagi testlarning hamda tanlangan tur bo‘yicha sport ko‘rsatkichlari keltirilgan (o‘rtacha) tahlili quyidagi xulosaga keltiradi.

Tezkorlikni o‘rganish asosida yadro itqituvchilar jismoniy tayyorgarligining dinamikasini tadqiq etsak: yugurib kelib 30 m yugurish natijalariga ko‘ra bu ko‘rsatkich ancha o‘sganligini isbotladi. Masalan, o‘smirlarda o‘rtacha 4,7 sek.dan 4,5 sek.gacha yaxshilandi (pasaydi). Mazkur fakt boshqa tadqiqotchilar tomonidan ham qayd etilgan (V.P.Filin). Faqat shug‘ullantiruvchi omillar emas, balki sportchilarning yoshi (12-16 yosh) bilan ham izohlanadiki, bu davrda tezkorlik sifati o‘z rivojining cho‘qqisiga yetadi.

Bizga ma’lumki, chidamlilik sifati yadro itqituvchilarning sport natijasi bilan o‘zaro aloqador emas, biroq BO‘SM dasturi talab etadigan har tomonlama tayyorgarlik uchun bu sifat zaruriy sanaladi. Olgan ma’lumotlarga ko‘ra, sinaluvchilar – qizlar ham, yigitlar ham – 12 daq. (K.Kuper – chidamlikni aniqlovchi test) davomida a’loga baholanadigan masofani yugurib o‘tdilar. Yigitlarning ko‘rsatkichlari 3400 m dan 4000 m gacha, qizlarda esa 2900 m dan 3200 m gacha.

Biz guruhda shug‘ullanuvchilarni antropometrik, ya’ni bo‘y, vazn o‘lchovlarini va jismoniy tayyorgarlik holatini o‘rganish uchun nazorat-sinov mashqlaridan o‘tkazdik va olingan natijalarni 1-chi jadvalda ko‘rishingiz mumkin. Ikki yil o‘quv-trenirovka jarayonida qanchalik o‘zgarganligini bilish uchun 2021 y. natijalarini 2022 y. ko‘rsatkichlari bilan tahlil qildik.

Bo‘y-vazn ko‘rsatkichlariga qarab ishonch hosil qilish mumkinki, tajriba guruhiga mansub tarbiyalanuvchilarini yaxshi saralab olgan. Bunga ahamiyat berilishi bejiz emas, biz bilamizki, snaryadning gorizontga nisbatan uchib chiqish nuqtasi ham sport natijasiga katta ta’sir ko‘rsatadi, demak, balandroq bo‘yli sportchilar ustunroq hisoblanadilar.

Negaki, itqitish texnikasi to‘g‘ri ijro etilsa, snaryadning qo‘ldan uchib chiqish nuqtasi balandroq bo‘ladi, demak, uchish trayektoriyasi ham uzoqroq bo‘ladi. Bizning tekshiriluvchilarimizdan yigitlarning bo‘yi o‘rtacha hisobda 180 sm dan 20202 y. 188 sm gacha, qizlarda esa 170-171 sm atrofida, bu kishini xursand qiladi, chunki bunday bo‘yga egalar kelajagi bor hisoblanadi, chunki yadroni chiqish nuqtasi yuqori bo‘ladi, vaznlari esa – yigitlarda 73-90 kg oralig‘ida, qizlarda 72-90 kg oralig‘ida.

Tezlik-kuch sifatlarining rivojlanish darajasi ko‘rsatkichlariga qaraganda, ta’kidlash joizki, yadro itqituvchilarda sakrash mashqlarida natijalar ancha o‘sgan. Masalan, joyidan turib uzunlikka sakrash bo‘yicha tekshiriluvchilarning natijalaridagi o‘sish 9 dan 12 sm gacha bo‘lgan. Yadroni (5 kg) ikki qo‘llab pastdan oldinga va bosh ustidan orqaga tashlashda ham shunga o‘xshash siljishlar yuz bergan. Ular muvofiq ravishda o‘smirlarda yadroni oldinga tashlashda 13

m 96 sm dan 14 m 26 sm ga o‘sgan, bosh ustidan orqaga tashlashda 15 m 91 sm dan 16 m 15 sm ga va qizlarda oldinga 9 m 96 sm dan 10 m 03 sm ga, orqaga esa 13 m 00 sm dan 13 m 20 sm ga ortgan.

**Xulosa** qilib, o‘tkazilgan tadqiqotlar yadro itqituvchilarning, bizning nazarimizda, nazariy ahamiyatga ega bo‘lgan yetakchi jismoniy sifatlari dinamikasini aniqlashgagina imkon berib qolmay, mashg‘ulotning vosita va usullarini takomillashtirish yo‘llarini belgilab olish uchun sharoit yaratdi, chunki tekshiriluvchilarning musobaqa natijalarida ham ijobiy siljishlar yuz berdi. Demak, tajriba guruhining mashg‘ulot darslarida qo‘llanadigan usul hamda vositalar to‘g‘ri, bu esa amaliyotda jiddiy ahamiyatga ega.

Izlanishda ishtirok etgan yadro itqituvchilar o‘z yoshida yetuk ilg‘or yadro itqituvchilar deb hisoblanadi. Ularning erishgan yutuqlarini respublika miqyosida o‘tkazilgan musobaqa natijalari va ularga taqdim etilgan diplomlar orqali bilib olish mumkin (ilova qilinadi).

Yuqorida aytilganlarni tasdiqlash uchun respublika miqyosidagi musobaqalarning g‘olib va sovrindorlariga berilgan tegishli darajadagi diplomlarni qo‘lga kiritganligi tasdiqlaydi.

**REFERENCES**

1. O’zbekiston Respublikasining 2015-yil 4-sentabrdagi “Jismoniy tarbiya va sport to’g’risida” gi Qonuni.
2. Озолин Н.Г. Настольная книга тренера: наука побеждать. АСТ: Астрель, - М.: 2008. - 863 с.
3. Rafiyev X.T., Olimov M.S., Xo’jamkeldiyev G’.S. va boshqalar. Yakkakurash, kordinatsion va siklik sport turlari (Yengil atletika). Darslik. T.: Ilmiy texnika axboroti press nashryoti, 2018 y.-376 b.
4. Rafiyev H.T., Yengil atletika va uni o‘qitish metodikasi. Darslik – T.: 2012y.
5. Qudratov R.Q., G’aniboyev I.D., Soliyev I.R., Baratov A.M. Yengil atletikachilarning maxsus mashqlari. O’quv qo’l-ma. T., O’zDJTI, 2011.-64 b.
6. G’aniboyev I.D., Xo’jamkeldiyev G’.S. Yakkakurash, koordinatsion va siklik sport turlari "Yengil atletika" / O'quv qo'llanma. Ch: O’zDJTSU nashryoti, 2019. -178 b.

ISSN:
2181-3906

International scientific journal
«MODERN SCIENCE AND RESEARCH»
VOLUME 1 / ISSUE 3

# СТРАТЕГИЧЕСКИЙ МЕХАНИЗМ ПО ПОВЫШЕНИЮ ПРЕСТИЖА ПЕДАГОГА В УЗБЕКИСТАНЕ

**Абдуллаева Барно Сайфиддиновна**
док.пед.наук., профессор,
Академик Турона, академик МАНПО,
Проректор по наука Ташкентского государственного
Педагогического университета имени Низами

https://doi.org/10.5281/zenodo.7556676

***Аннотация.*** *В данной статье представлена информация о стратегический механизм по повышению престижа педагога в узбекистане.*

***Ключевые слова:*** *стратегический механизм, мировой цивилизации, Традиция, «учитель-ученик».*

# STRATEGIC MECHANISM TO INCREASE THE PRESTIGE OF THE TEACHER IN UZBEKISTAN

***Abstract.*** *This article provides information about the strategic mechanism to increase the prestige of a teacher in Uzbekistan.*

***Key words:*** *strategic mechanism, world civilization, Tradition, "teacher-student".*

*Повышение престижа профессии учителя является*
*важной основой достижения всех благих надежд.*
***Президент Шавкат Мирзиёев***

Республика Узбекистан одна из колыбелей мировой цивилизации. Традиция «устоз-шогирд» («учитель-ученик») имеет на нашей земле свою древнюю историю. На этот счёт существует множество пословиц и поговорок. К примеру, в нашем народе говорят «устоз – отангдай улуг» («учитель свят как отец»). Но с приходом к власти нового руководства во главе с Президентом Узбекистана Ш.М.Мирзиёевым эта тема приобрела важнейший характер. Так, к примеру руководитель республики не только неоднократно подчеркивал, что крайне важно сейчас повышать престиж педагогов, но и сделал для этого конкретные шаги. Во-первых, заработная плата педагогических работников всей структуры непрерывного образования с 1 сентября 2022 года повысилась уже на сто пятьдесят процентов. В масштабах страны это весомая цифра. Далее, если воспитатели дошкольных образовательных учреждений, учителя общеобразовательных школ, академических лицеев, профессиональных колледжей, преподавателей вузов, работников институтов переподготовки и повышения квалификации педагогических кадров, Домов Милосердия, центров «Баркамол авлод», Детских и юношеских спортивных школ, а также всех других подразделений системы непрерывного образования ранее могли привлекаться к различного рода работам, типа перепись населения, выборы депутатов в районные, городские, республиканские органы, присутствие в виде фонового атрибута на различного рода собраниях и т.д., то теперь привлечение педагогов к таким мероприятиям строго-настрого запрещается и в случае нарушений, которые, к сожалению, имели место в первое время после принятия нормативного документа, наказывается.

Третьим, на наш взгляд, немаловажным изменением в повышении престижа педагога является предоставление им ряда льгот. К примеру, педагогам в числе первых предоставляются земельные участки под постройку жилья и выдаются новые

комфортабельные квартиры. Удивительным стало то, что в образовательные учреждения потоком вернулись представители мужского пола, которые в своё время из-за небольшой заработной платы были вынуждены заниматься другими делами, чтобы обеспечить свою семью всем необходимым. Такой кардинальный перелом в образовании совсем скоро даст свои плоды. Поскольку, если воспитанием в учебных заведениях занимались в основном представители женского пола, то и нашим детям не хватало мужского влияния и даже мальчики не были такими мужественными, благородными, как хотелось бы всем нам.

В-четвёртых, предоставляется возможность всем желающим педагогам повысить свой профессиональный уровень путём обучения в вузе. Это произошло после принятия постановления главы государства о образовании заочных и вечерних отделений обучения. Статистика приёма документов воодушевляет всех сотрудников вузов, потому что желающих получить высшее образование огромное количество. При этом удивительно то, что абитуриентами также хотят стать люди пред пенсионного возраста.

В-пятых, педагогам предоставляется огромная возможность для участия в государственных выборных органах, количество награждённых орденами и медалями республики возросло в 2.2-2,5 раз.

Исходя из перечисленного выше стоит дальнейшая задача по выработке стратегического механизма повышения престижа педагога в нашем обществе. Реализация задач по выбранной стратегии заключается в том, что сегодня учитывается своеобразие педагогической профессии, которая состоит в том, что она по своей природе имеет гуманистический, коллективный и творческий характер. Кроме того, существует три взаимосвязанных пространства, без которых нельзя говорить о личности педагога и подойти к достижению намеченной цели. Этими пространствами следует считать личность учителя, его деятельность и педагогическое общение. Эти три пространства объединены единой глобальной задачей развития личности ученика. Они не накладываются друг на друга, не повторяются, не дублируются, а вступают в сложные диалектические отношения, при этом каждое из них в процессе труда учителя выступает то предпосылкой, то средством, то результатом развития.

Педагог как личность призван быть центральной фигурой учебно-воспитательного процесса, организатором деятельности учащихся. Именно он является личностью, создающей условия для самореализации личности каждого ученика. Значит, исходя из разработки в республике стратегического механизма по повышению престижа педагога, считаем, что учитель новой формации – это духовно развитая, творческая личность, обладающая способностью к рефлексии, профессиональными навыками, педагогическим даром и стремлением к новому.

Формирование престижа педагога новой формации является ведущим фактором реализации поставленных задач в соответствии с современными тенденциями развития современного образования в Узбекистане.

***В Ташкентском государственном педагогическом университете имени Низами повышение престижа педагога осуществляется в следующих направлениях:***

Среднегодовая учебная нагрузка понижена до 750 часов, что даёт больше возможностей профессорско-преподавательскому составу работать над повышением своего научного потенциала, заниматься учебно-методической деятельностью (создавать учебники, учебные и методические пособия, научные статьи, писать диссертации).

В ТГПУ имени Низами активно приглашаются ведущие специалисты из-за рубежа, что способствует расширению кругозора, формированию нового педагогического мировоззрения профессорско-преподавательского состава, отвечающего современным общемировым требованиям. Это ведущие специалисты из престижных ВУЗов Российской Федерации, Южной Кореи, США, Малайзии, Белоруссии, Китая.

Впервые в истории независимого Узбекистана на базе ТГПУ им. Низами открыт факультет Инновационной педагогики совместно с Белорусским Государственным университетом имени М. Танка, осуществляющий свою деятельность по подготовке специалистов по трём направлениям: Дошкольное образование, Логопедия, Психология. Таким образом идёт активный обмен педагогическим опытом между профессорско-преподавательским составом двух государств.

Появились широкие возможности для повышения квалификации, стажировки, учёбы в докторантуре в ведущих зарубежных вузах посредством фондов «Истеъдод», «Эл юрт умиди». Так, два преподавателя успешно окончили магистратуру в Белорусском Государственном университете, в настоящее время работают преподавателями на факультете «Методики начального образования». Мирзаев Косимбой поступил в докторантуру в Петербургский государственный университет. Данный список преподавателей ещё можно было бы продолжить. Посредством фонда «Эрасмус плюс» преподаватели выезжают на стажировку, научные семинары в дальнее зарубежье. В 2019-2020 учебном году преподаватели английского и русского языков при содействии данного фонда ездили в Турцию, в университет города Эски Шехер. В 2021-2022 учебном году преподаватели и магистранты отделений английского и русского языков ездили в Норвегию для участия в гуманитарной акции «Мир без наркотиков».

Профессорско-преподавательский состав ТГПУ имени Низами принимает активное участие в международных научно-практических конференциях. Ряд преподавателей и докторантов нашего вуза ездили на подобную конференцию в Мальту. Миразизов Алишер, Магдиева Саодат, Корзун Александр принимали участие в международной конференции в России (Саратовская государственная юридическая академия). Старший преподаватель Корзун А.В. руководил секцией «Научное исследование литературы».

Многие преподаватели участвуют в международных и республиканских грантах, что даёт им возможность научной самореализации и дополнительного материального стимулирования.

Повышение престижа педагога осуществляется и в рамках духовно-просветительской деятельности. Так, проводятся такие конкурсы, как «Лучший куратор года», «Лучший руководитель кружка», «Лучший руководитель кружка», «Лучший председатель женского совета», «Лучшая кафедра по духовно-просветительской работе». Номинанты данных конкурсов получают материальное и духовное поощрение, в том числе лучшие кураторы получают надбавку к зарплате 25%. Также профессорско-преподавательский состав имеет возможность для полноценного досуга, посредством выделения путёвок профсоюзом ТГПУ им. Низами в зону отдыха «Хумсон», а также в ряд других оздоровительно-профилактических санаториев нашей республики. В рамках развития внутреннего туризма 100 преподавателей в 2019-2020 учебном году посетили город Самарканд. В 2021-2022 учебном году в соответствии с утверждённым планом посетят Бухару.

Очевидно, что всем перечисленным выше требованиям может удовлетворить далеко не каждый педагог, а лишь тот, кто имеет, помимо базового педагогического образования, еще и тенденцию к саморазвитию, творческому поиску, а также развитую способность к рефлексии, личностной импровизации. Исходя из этого, определяя собственные приоритеты, учитель должен: стремиться к познанию инновационных процессов, стремиться к анализу педагогических фактов, явлений и процессов, стремиться к максимальной самореализации профессионально-педагогической деятельности, осмыслить новую парадигму развития общества, воспринимать тенденции развития системы среднего образования, участвовать в процессе реализации новых идей в системе образования, моделировать систему собственной деятельности, овладевать познанием педагогических законов, принципов, категорий, работать на экспериментальных площадках.

Исчерпав все эти ресурсы, приходим к конечному результату, определённому социальным заказом общества, а именно, получаем личность, имеющую лингвистическую компетентность, обладающую прочными знаниями, всесторонне развитую, с хорошей эрудицией и вкусом, раскованную и трудолюбивую, целеустремлённую и любознательную, честную, добрую, внимательную, милосердную, профессионально направленную личность с развитыми творческими способностями, личность, умеющую принимать решения с учётом жизненных обстоятельств и реализовывать свои способности наиболее выгодными для себя и окружающих способами, стремящуюся к постоянному успеху.

**REFERENCES**

1. Указ Президента Республики Узбекистан Ш.М.Мирзияева “О государственной программе по реализации стратегии действий по пяти приоритетным направлениям развития Республики Узбекистан в 2017-2021 годах в “Год активного инвестиций и социального развития”. Учитель Узбекистана. – Т., 2019. -№ 3(2554). – 18 января. – С. 1-3
2. Постановление Президента Республики Узбекистан Ш.М.Мирзияева “Об организации специальных заочных отделений по педагогическим направлениям в высших образовательных учреждениях”. Учитель Узбекистана. – Т., 2017. -№ 32(2479). – 11 августа. – С. 1-3
3. 2019 – год активных инвестиций и социального развития. Народное слово. – Т., 2018.-№ 270-271 (7198-7199). 29 декабря. – С. 1-4
4. Новикова Г.П. Теоретико-методические аспекты подготовки педагога в системе развивающего образования на современном этапе // Сборник научных статей по материалам IX международной научно-практической конференции «Инновационная деятельность в образовании» 14 апреля 2015 года. – В 2 ч. – Ч. 1. – Ярославль-Москва: Канцлер, 2015, - С.130-138.

ISSN: 2181-3906
International scientific journal
«MODERN SCIENCE AND RESEARCH»
VOLUME 1 / ISSUE 3

# KIMYO FANINI O'QITISHDA O'YINLARNING AHAMIYATI

**Maxmudova Ra'noxon Maxsudovna**
Farg'ona viloyati Oltiariq tumani 13 - umumiy o'rta ta'lim maktabi
Kimyo fani o'qituvchisi
**Mirzahakimova Mulkijahon Xoliqnazar qizi**
Farg'ona viloyati Oltiariq tumani 13 - umumiy o'rta ta'lim maktabi
Kimyo fani o'qituvchisi

https://doi.org/10.5281/zenodo.7559568

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada kimyo fanini o'qitishda didaktik o'yinlarning o'rni haqida so'z brogan, bunda bir qator didaktik masalalar muhokama qilinadi, tasnifi, tanlash talablari va mezonlari ko'rsatib o'tilgan, kimyo darsining turli bosqichlarida didaktik o'yinlardan foydalanish variantlari taklif etiladi.*

***Kalit so'zlar:*** *Dars jarayoni, pedagogik tajriba, kimyo, didaktik o'yin, o'yin shakllari, o'yin turlari.*

## ЗНАЧЕНИЕ ИГР В ОБУЧЕНИИ ХИМИИ

***Аннотация.*** *В данной статье говорится о роли дидактических игр в обучении химии, обсуждается ряд дидактических вопросов, указывается классификация, требования и критерии отбора, дидактический ход на разных этапах урока химии, предлагаются варианты использования инь.*

***Ключевые слова:*** *Учебный процесс, педагогический опыт, химия, дидактическая игра, игровые формы, виды игр.*

## THE IMPORTANCE OF GAMES IN TEACHING CHEMISTRY

***Abstract.*** *This article talks about the role of didactic games in the teaching of chemistry, a number of didactic issues are discussed, classification, selection requirements and criteria are indicated, and the use of didactic games at different stages of the chemistry lesson. options are offered.*

***Key words:*** *Lesson process, pedagogical experience, chemistry, didactic game, game forms, game types.*

O'qituvchi uchun dars jarayonini samarali tashkil qilishda va o'z oldiga qo'ygan maqsadiga to'laqonli erishishida yordam bera oladigan eng muhim omillardan biri pedagogik amaliyotda mavjud, aynan mavzuga mos bo'lgan yondashuvlardan foydalanish, uzoq yillar mobaynida qo'llanib kelinayotgan texnologiyalarni takomillashtirish, ijodiy yondashuvga asoslangan holda, yangilarini yaratish va amaliyotda qo'llab borishdir. Dars jarayoni uchun tanlanadigan metodlar majmuaviy vazifalarni yechishga yo'naltirilgan bo'lishi, o'qituvchi va o'quvchilarning ta'lim berish va berilgan bilimlarni sifatli holda o'zlashtirish maqsadida birgalikdagi hamkorlikni ta'minlab berishi lozim.

Uzoq vaqt davomida nazariya va amaliyotda didaktik o'yin o'qitish usuli sifatida ko'rib chiqilgan va darslarning bir qismi yoki o'rganish bilan bog'liq bo'lmagan o'yin faoliyati sifatida mavjud edi. Oxirgi tadqiqotlar didaktik o'yinlarni o'rganish shakli sifatida qo'llash imkonini beradi.

Pedagogik tajriba shuni ko'rsatadiki, aqliy faollikni oshirish va intellektual salohiyatni rivojlantirish vositalaridan biri didaktik o'yindir.

Didaktik o'yinlar ularning birligida fikrlash va nutqni rivojlantirish uchun alohida ahamiyatga ega. O'yinning mazmuni va qoidalari bolalarni ob'ektlarni aniq va to'g'ri nomlash va tavsiflashga, nutqning grammatik tuzilishini o'zlashtirishga o'rgatish imkonini beradi.

Turli mazmundagi ob'ektlar orasida umumiy xususiyatni hisoblash qobiliyati murakkab analitik-sintetik faoliyatni talab qiladi. Didaktik o'yin ham o'quvchilarda bunday faollikni keltirib chiqaradi - tahlil qilish, turli xususiyatlarni o'zaro bog'lash, umumlashtirish, amaliy harakatlarni tashkil qilish qobiliyati.

Aqliy tarbiyada o'yinlarning o'rni katta bo'lib, ular ba'zi ob'ektlar yoki xususiyatlarni boshqalar bilan taqqoslashni, o'xshashlik va farqlarni aniqlashni talab qiladi. Ular orasida: "Nima etishmayapti?", "Nima bir xil va nima farq qiladi?", "Keraksizini toping" kabi o'yinlar. Ushbu o'yinlar nafaqat fikrlash jarayonlarini, balki reproduktiv tasavvurni ham rivojlantirishga qaratilgan.

Didaktik o'yinning funktsiyalari:

• didaktik o'yin o'quvchilarning aqliy faoliyatini faollashtirishga yordam beradi, bolalarda katta qiziqish uyg'otadi va o'quv materialini o'zlashtirishga yordam beradi;

• o'yin texnologiyalari maktab o'quvchilarida kognitiv jarayonlarni rivojlantiradi, ularning bilim, ko'nikma va malakalarini mustahkamlaydi;

• rivojlantiruvchi o'yinlar jamoaviy, o'qituvchi rahbarligidagi sinfdagi o'quv faoliyatini tashkil etish shaklidir;

• didaktik o'yinlarda bola ob'ektlarni kuzatadi, taqqoslaydi, yonma-yon qo'yadi, ma'lum mezonlarga ko'ra tasniflaydi, unga tahlil va sintezni taqdim etadi, umumlashtirishlar qiladi; o'quvchilarda e'tibor va xotira kabi intellektual jarayonlarning individualliklari shakllanadi;

• o'yin texnologiyalari o'quvchilarda zukkolik, topqirlik, zukkolikni rivojlantiradi;

• o'yin ixtiyoriy harakatlarni rag'batlantiradi: tashkilotchilik, chidamlilik, yaratilgan qoidalarga rioya qilish, o'z manfaatlarini jamoa manfaatlariga bo'ysundirish.

O'yin - bu raqobat, raqib bilan yoki o'zi bilan kurash. Bu nisbatan qisqa vaqt ichida o'z qobiliyatlarini namoyon qilish imkonini beradi: aqlning fazilatlari, reaktsiya tezligi.

Kimyoni o'rganishda didaktik o'yinlardan foydalanish quyidagi vazifalarni hal qilish imkonini beradi:

• fanni o'rganishga qiziqish uyg'otish;

• talabalarning ortiqcha yuklanishini kamaytirish;

• o'quvchilarning o'quv va kognitiv faoliyatini faollashtirish.

Fakultativ bosqichlarda mashg'ulotlarning o'yin shakli o'quvchilarni kimyoviy faollikka undash, rag'batlantirish vositasi bo'lib xizmat qiladigan o'yin texnikasi va vaziyatlar yordamida yaratiladi.

O'yin texnikasini amalga oshirish quyidagi asosiy yo'nalishlarda amalga oshiriladi:

• o'quvchilar oldiga o'yin topshirig'i shaklida didaktik maqsad qo'yiladi;

• o'quvchilarning o'quv faoliyati o'yin qoidalariga bo'ysunadi;

• o'quv materiali o'yin vositasi sifatida ishlatiladi;

• o'quv faoliyatiga dialektik vazifani va o'yinni tarjima qiladigan raqobat elementi kiritiladi;

• didaktik topshiriqning muvaffaqiyati o'yin natijasi bilan bog'liq.

Didaktik o'yinning o'ziga xosligi, uning muhim xususiyati nimada?

Ikkinchidan, o’yin boshqa faoliyatdan farq qiladigan o’zining barqaror tuzilishiga ega. Umumiy o’yinlardan farqli o’laroq, didaktik o’yin muhim xususiyatlarga ega:

• aniq belgilangan o’quv maqsadining mavjudligi;

• pedagogik natija.

O’yin tushunchasi, qoida tariqasida, o’yin nomida ifodalanadi, o’quv jarayonida hal qilinishi kerak bo’lgan didaktik vazifaga kiritilgan, savol sifatida ishlaydi, go’yo bilimga nisbatan ma’lum talablarni loyihalashtiradi. Qoidalar o’yin davomida o’quvchilarning xatti-harakatlaridagi harakatlar tartibini belgilaydi, darsda ish muhitini yaratishga yordam beradi. O’yin harakatlari o’yin qoidalari bilan tartibga solinadi, o’quvchilarning kognitiv faolligiga hissa qo’shadi, ularga o’z qobiliyatlarini namoyon qilish imkoniyatini beradi.

Ko’pgina didaktik o’yinlar o’quv jarayoniga hech qanday yangilik keltirmaydigan ko’rinadi, lekin ular o’quvchilarni yangi sharoitlarda bilimlarni qo’llash yoki aqliy vazifani qo’yishga undashi bilan juda foydali.

Bundan tashqari, kimyo fani xulq-atvorida didaktik o’yinlardan foydalanish darslarni qiziqarli va rang-barang qiladi.

Didaktik o’yinlar an’anaviy ta’lim shakllarini to’liq almashtira olmaydi, lekin ular ularni to’ldiradi va bunday kombinatsiya maktabning o’quv jarayonini sifatli tashkil etish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda kimyo fani propedevtik kurslarini o’tkazish jarayonida didaktik o’yin imkoniyatlaridan keng foydalanish mumkin. Ushbu kurslar davomida o’yin kimyo faniga qiziqishni rivojlantirishi va o’rganilayotgan materialning ular uchun qulayroq bo’lishi uchun bolalarga uning dastlabki tushunchalarini o’zlashtirishga yordam beradi.

**REFERENCES**

1. Данченко Т. Игровые технологии в начальной школе / Т. Данченко // Учитель. – 2007. – № 6. – С. 44 – 46.
2. 2.Татьяченко Д.В. Развитие общеучебных умений школьников. / Д.В. Татьяченко, С.Г.Воровщиков // Народное образование. – 2003. – № 8 – С. 115 – 126.
3. 3.Павлова Н.С., Обучающие игры на уроках химии//Химия в школе. - 2000. - № 6.- С.35
4. 4.Акимова Т.А. Интеллектуальные игры с химическим содержанием// Химия в школе.- 1996.- №5. - С.71.
5. 5.Габриелян О.С. Теория и практика элективных курсов.// Химия в школе.- 2006. - №4. – С. 2-4.

# SELEKSIYA VA BIOTEXNOLOGIYA ASOSLARI

**Shavazov Qodirjon Ochilovich**
"Toshkent irrigatsiya va qishloq xo`jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" Milliy tadqiqot universiteti "Qishloq xo`jaligini mexanizatsiyalash" fakulteti dekani
**Uraimova Xonzodabegim Mirzaaziz qizi**
"Toshkent irrigatsiya va qishloq xo`jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti"
Milliy tadqiqot universiteti 2 - bosqich talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7559587

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada seleksiya sohasi bo`yicha tushunchalarga ega bo`lasiz. Seleksiya va biotexnologiya fanlari hayot uchun kerakli fan sohalari ekanligi bu soha bizni kelajakda yangi nav, zot va shtammlarni yaratishimizga hizmat qiladigan fan va bu fanni rivojlantirish to`g`risidagi bilimlarga ega bo`lasiz.*

***Kalit so`zlar:*** *seleksiya, shtamm, zot, mutagenez, gomozigotizatsiya, inbriding, biotexnologiya.*

# ОСНОВЫ СЕЛЕКЦИИ И БИОТЕХНОЛОГИИ

***Аннотация.*** *В этой статье вы получите представление о поле селекции. Селекция и биотехнология – области науки, необходимые для жизни, и эта сфера поможет нам в будущем создавать новые сорта, породы и штаммы, а вы будете знать о развитии этой науки.*

***Ключевые слова:*** *селекция, штамм, порода, мутагенез, гомозиготизация, инбридинг, биотехнология.*

# FUNDAMENTALS OF BREEDING AND BIOTECHNOLOGY

***Abstract.*** *In this article, you will have an understanding of the field of selection. Breeding and biotechnology are science fields that are necessary for life, and this field will help us to create new varieties, breeds and strains in the future, and you will have knowledge about the development of this science.*

***Key words:*** *selection, strain, breed, mutagenesis, homozygotization, inbreeding, biotechnology.*

Seleksiya — inson uchun foydali xususiyatlarga ega bo‘lgan yangi o‘simliklar navlarini, hayvonlar zotlarini, mikroorganizmlar shtammlarini keltirib chiqarishga yoki mavjudlarini yanada takomillashtirishga asoslangan fandir. Navlar, zotlar va shtammlar insonlar tomonidan yaratilgan, ma’lum genofondga, morfologik, fiziologik va mahsuldorlikka ega bo‘lgan o‘simliklar, hayvonlar, mikroorganizmlar populyatsiyasidir. Seleksiya va biotexnologiyadan insonlar qadimgi zamonlardan beri foydalanib kelishgan. Masalan, insonlar hayvonlarni xonakilashtirish, o‘simliklarni madaniylashtirishda, non yopishda, vinochilikda bu soha inson uchun juda dolzarb mavzu bo`lgan. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab seleksiya va biotexnologiya tez sur’atda rivojlana boshladi va insoniyat rivojlanishiga juda katta hissa qo‘shdi. Seleksiya fanining vazifalari:

1. O`simliklar navlari, hayvonlar zotlari, mikroorganizmlar shtammlari mahsuldorligini oshirish.
2. Seleksiya maqsadida foydalanishi mumkin bo‘lgan o ‘simliklar, hayvonlar va mikroorganizmlar xilma-xilligini o`rganish.
3. Duragaylanish va mutagenezda irsiy o`zgaruvchanlik qonuniyatlarini o`rganish.

4. Organizmlar rivojlanishida muhitning rolini aniqlash.

5. Sun’iy tanlash usullarini takomillashtirish.

6. Kasalliklarga va iqlim sharoitlariga chidamli navlar va zotlarni yaratish.

Seleksiyaning nazariy asosi genetika hisoblanadi. Seleksiyada evolyutsion ta’limot, molekulyar biologiya, molekulyar genetika, biokimyo, hujayra biologiyasi va boshqa fanlar yutuqlaridan ham keng foydalaniladi. Seleksiyaning asosiy metodlari: tanlash, duragaylash, mutagenez, hujayra injeneriyasi, gen injeneriyasi. Hujayra injeneriyasi va gen injeneriyasi XX asrning ikkinchi yarmida qo‘llanila boshlagandi va biologiyaning yangi sohasi biotexnologiyaning asosini tashkil qildi.

Biotexnologiya — bu insonlar uchun foydali va zarur bo‘lgan majsulotlarni, mikroorganizmlarni, o‘simliklar va xayvon hujayralari va to‘qimalari yordamida sanoat miqyosida olishdir. Seleksiya asosida Ch. Darvin tomonidan ishlab chiqilgan sun’iy tanlash yotadi. Insonlar qadim zamonlardanoq sun’iy tanlashdan onisiz foydalanib kelishgan. Ular o‘zlari tushunmagan holda hayvonlar va o‘simliklarning foydali belgiga ega bo‘lganlarini saqlab qolib, boshqalarini ovqat uchun ishlatishgan. Metodik tanlashda inson ongli ravishda o‘zi uchun foydali belgiga ega organizmlarni tanlab oladi va ulardan yangi nav va zotlarni keltirib chiqarishda foydalaniladi. Sun’iy tanlashning ikki xili mavjud:

1. Yoppasiga yoki yalpi tanlash - foydali belgili organizmlar guruhi ajratib olinadi. Bunday organizmlar irsiy jihatdan xilma-xil bo‘lgani uchun ko‘payish jarayonida avlodlarda ajralish kuzatiladi. Shuning uchun tanlash bir necha avlod davomida olib boriladi.

2. Individual tanlash - foydali sifatga ega ayrim shaxslar tanlab olinadi. Ularning o‘simliklarda o‘z-o‘zidan changlantirish, hayvonlarda yaqin avlodlarni chatishtirish yo‘llari bilan sof liniyalarni keltirib chiqariladi. Sof liniyalar — seleksiya uchun foydali belgilarga ega bo‘lgan irsiy jihatdan bir xil organizmlar guruhlaridir.

Duragaylanish ikki xil bo‘ladi:

1. Yaqin qarindoshlar orasida — retsessiv genlarning gomozigot holda o‘tishiga ya`ni gomozigotizatsiya olib keladi.

2. Begonalar orasida — har xil shakllardagi foydali belgilar genlarini bir organizmda to‘planishga imkon beradi.

Inbridingda — gomozigotalar chastotasi ortib boradi. Natijada ko‘p marta takrorlanuvchi inbriding avlodlar xususiyatlarining tobora yomonlashib, kuchsizlashib borishida olib keladi. Parrandachilikda tovuqlarni liniyalararo duragaylash natijasida geterozis jo‘jalar — broylerlar olinadi. Lekin geterozis effekti keyingi avlodda kamayib ketadi. Insonlar orasida autbriding (begonalar orasida) nikohlar geterozigotalikni oshirgani uchun populyatsiyaning tibbiy-genetik holatini yaxshilashga imkon beradi. Chetdan duragaylash ancha qiyinchilik bilan amalga oshiriladi. Chunki bunda irsiy nomoslikni maxsus metodlar bilan bartaraf etishga to‘g‘ri keladi. Gametogenez jarayonlari buzilgani uchun turlararo duragaylar bepusht bo‘ladi. Lekin bunday duragaylarda xo‘jalik uchun foydali belgilar namoyon bo‘lishi mumkin.

Masalan, ot va eshakni chatishtirish natijasida olingan xachirlar bepusht bo‘lishiga qaramasdan chidamli, kuchli va uzoq yashash qobiliyatiga ega bo‘ladi. Bir o‘rkachli va ikki o‘rkachli tuyalar duragaylari — norlar ham juda chidamli bo‘ladi. Ko‘rsatilgan an’anaviy seleksiya usullari organizm genotiplari orasidagi farqlar tufayli ancha qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Hozirgi davrda tez sur’atlar bilan rivojlanayotgan hujayra va gen injeneriyasi usullari yangi, hatto tabiatda uchramaydigan irsiy belgilarga ega organizmlarni yaratishga imkon beradi. Hujayra injeneriyasi hujayralar va to‘qimalarga sun’iy ozuqa muhitlarida o‘stirishga asoslangan. Bunday sun’iy o‘stirilgan hujayralardan duragay hujayralar ya`ni gibridomalar olishda, inson

uchun foydali mahsulotlarni sintezlashda foydalaniladi. Har xil to'qimalar yoki har xil organizmlar hujayralarini maxsus metodlar yordamida ishlov berib sun'iy o'stirilganda yangi duragay hujayrani yaratish mumkin. Duragay hujayralarning xususiyatlari ota-onalar xususiyatlaridan farq qilishi, yoki ularning har ikkalasining xususiyatlarini o'zida mujassamlantirishi mumkin. Masalan, rak hujayralari bilan limfotsitlarni sun'iy o'stirish natijasida olingan gibridomalar rak hujayralariga o'xshab tinimsiz bo'linib ko'payishi, limfotsitlarga o'xshab antitelolarni sintezlash xususiyatiga ega bo'ladi.



I duragay koloniya, II duragay koloniya, III duragay koloniya

Gen injeneriyasi — kerakli genlarni bir organizmdan ikkinchisiga ko'chirib o'tkazish usulidir. Bu usul bilan yangi genotipga ega organizmlar yaratiladi, organizmlar orasidagi irsiy farqga qaramasdan yangi genetik konstruksiyalar yaratishga imkon beradi. Bu usul olimlar bashoratiga ko'ra juda istiqbolli usul bo'lib, insonlarga kelajakda organizmlar irsiyatini yaxshilashga, foydali biologik faol moddalarini sintezlashga imkon beradi. Ammo bu usulning ham ayrim kamchiliklari mavjud, gen injeneriyasi usuli bilan insonlar uchun o'ta xavfli organizmlar yaratilishi, bular esa insoniyat uchun juda katta hatar keltirib chiqarishi mumkin.

## REFERENCES

1. Nishonboyev K.N., Hamroyeva F.N., Eshonqulov O.E. Tibbiyot genetikasi. - T.: «Abu Ali ibn Sino», 2000.
2. Вавилов Н.И. Теоретические основы селекции. - М.: «Наука», 1987.
3. Мусаев Д.А. Генетическая коллекция хлопчатника. - Т.: «Фан», 1979.
4. Мусаев Д.А., Алматов А.С., Турабеков Ш, и др. Генетический анализ признаков хлопчатника. - Т.: Национальный университет Узбекистана, 2005.
5. D. A. Musayev, Sh. Turabekov, A. T. Saidkarimov, A. S. Alraatov A. K. Rahimov. "Genetika va seleksiya asoslari" - T.: «Voris-nashriyot», 2012

ISSN: 2181-3906

International scientific journal
«MODERN SCIENCE AND RESEARCH»
VOLUME 1 / ISSUE 3

# ZAMONAVIY SIYOSATDA BOSHQARUVCHILAR ELITASI FAOLIYATIDA MAKS VEBER SIYOSIY QARASHLARINING O`RNI

**Nosirbekov Kozimbek Sunnatbek o'g'li**
O`zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti
"Siyosatshunoslik" yo`nalishi talabasi

https://doi.org/10.5281/zenodo.7559595

***Annotatsiya.*** *Har bir sohaning fundamental asoschilari va davomchilari bo`lgandek, siyosiy sohaning ham yetakchilari mavjud. Shu o`rinda, taniqli nemis sotsiologi va siyosiy fanlar sohasida o`zining mustahkam o`rniga ega bo`lgan shaxs Maks Veberning hayot yo`li va faoliyatini qiyos qilib olish, siyosiy fanlarni chuqur o`rganish hamda tadqiq etishning asosiy omilidir. Necha yuz yillar mobaynida davom etib kelayotgan siyosiy jarayonlarning asnosida Maks Veberning qarashlari va g`oyalarini isbot tariqasida kuzatishimiz mumkin. Hozirgi kunda davlatlar o`rtasida olib borilayotgan ikki va ko`p tomonlama siyosat prinsiplarida ham olimning o`z ilmiy ishlari hamda kitoblarida bayon etgan bashoratlarining haqiqiy siyosiy hayotga taalluqli ekanligini ko`rishimiz mumkin. Maks Veberning hayot bosib o`tgan hayot yo`lini esa siyosiy elita a`zolarini tarbiyalash va ularni siyosiy faoliyatda to`g`ri qaror qabul qilish uchun yo`naltirishning asosi sifatida baholash zarurdir. Bugungi kunga kelib, tarixiy-siyosiy shaxslar hayoti va real asosga ega bo`lgan siyosiy jarayonlarni tadqiq etish, soha rivoji uchun muhim ahamiyatga ega.*

***Kalit so`zlar:*** *Siyosat, siyosiy jarayon, siyosiy elita, yetakchi, siyosiy faoliyat, tarixiy shaxslar, Maks Veber.*

# РОЛЬ ПОЛИТИЧЕСКИХ ВЗГЛЯДОВ МАКС. ВЕБЕРА В ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРАВЯЩЕЙ ЭЛИТЫ В СОВРЕМЕННОЙ ПОЛИТИКЕ

***Аннотация.*** *Так же, как есть фундаментальные основатели и последователи каждой области, есть также лидеры политической области. Здесь жизненный путь и деятельность Макса Вебера, известного немецкого социолога и человека, имеющего прочные позиции в области политической науки, является главным фактором для глубокого изучения и исследования политической науки. Взгляды и идеи Макса Вебера мы можем наблюдать как свидетельство в ходе политических процессов, продолжающихся уже несколько сотен лет. Мы видим, что предсказания ученого в его научных трудах и книгах применимы к реальной политической жизни даже в принципах двусторонней и многосторонней политики, проводимой между государствами. Необходимо оценить жизненный путь Макса Вебера как основу для воспитания представителей политической элиты и направления их к принятию правильных решений в политической деятельности. На сегодняшний день для развития направления важно исследование жизни историко-политических деятелей и политических процессов с реальной основой.*

***Ключевые слова:*** *Политика, политический процесс, политическая элита, лидер, политическая деятельность, исторические личности, Макс Вебер.*

# THE ROLE OF MAX WEBER'S POLITICAL VIEWS IN THE ACTIVITY OF THE RULING ELITE IN MODERN POLITICS

***Abstract.*** *Just as there are fundamental founders and successors of every field, there are also leaders of the political field. Here, a comparison of the life path and activities of Max Weber, a well-known German sociologist and a person who has a strong position in the field of political science, is the main factor for deep study and research of political science. We can*

*observe the views and ideas of Max Weber as evidence during the political processes that have been going on for several hundred years. We can see that the predictions of the scientist in his scientific works and books apply to real political life even in the principles of bilateral and multilateral policies conducted between the states. It is necessary to evaluate Max Weber's life path as a basis for educating members of the political elite and directing them to make the right decisions in political activity. To date, researching the lives of historical and political figures and political processes with a real basis is important for the development of the political field.*

***Keywords:*** *Politics, political process, political elite, leader, political activity, historical figures, Max Weber.*

Taniqli nemis sotsiologi, siyosiy fanlar hamda siyosat va uni anglash bo`yicha nodir qo`llanmalar, g`oyalar asoschisi Maks Veber ta`limotini o`rganish, doimiy ravishda tahlil qilish ilm-fanni, siyosiy sohani chuqurroq egallash uchun amaliy qo`llanma ham hisoblanadi. Maks Veberning ijtimoiy holati, uning prinsiplari va g`oyalarini tahlil qiladigan bo`lsak, bevosita davlat hokimiyatining tuzulishi, boshqaruv formatini o`rganish uchun chuqur yondashilganligi ma`lum bo`ladi. Eng avvalo, Maks Veberning kelib chiqishi, umuman olganda personalizatsiyasi ham boshqalarnikiga qaraganda biroz farq qiladi. Karl Emil Maksimilian Veber 1864-yil 21-aprelda Erfurtda (Turingiya) boy burjua oilasida tug'ilgan. Kichkina Veber ota-onasi tufayli bolaligida o'sha davrdagi nemis intellektual elitasi vakillari bilan uchrashdi. Uyga otasining tanishlari va do'stlari, masalan tarixchi va siyosatchi Geynrix fon Zibel, tarixchi Geynrix Treitschke, psixologiyaning asoschisi Vilgelm Diltey, shuningdek, Qadimgi Rimning taniqli tarixchisi Teodor Mommsen tashrif buyurib siyosiy faoliyat va jarayonlar haqida bir muddat suhbat qurib, muhokamalar olib borar edilar va bu esa Maks Veberning bevosita siyosiy sohani o`rganish hamda uning bir qismiga aylanish potensialini oshishiga sabab bo`ldi. U huquqshunoslik bo'yicha Göttingen universitetiga o'tib, uch yildan so'ng "O'rta asrlarda savdo jamiyatlari tarixi to'g'risida" nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi. Uning ushbu asari darhol ilmiy jamoatchilik e'tiborini tortdi. Ota-onasiga moddiy qaram bo'lmaslik uchun Maks advokat yordamchisi sifatida ish topdi va Germaniya advokatlar uyushmasining a'zosi bo'ldi. Veber hali ham siyosat va ilm o'rtasida ikkilanib, ikkala variantni iloji boricha uzoqroq saqlashga harakat qildi. Qanday bo'lmasin, shunchaki advokatdan siyosatchiga aylanish eng katta maqsadga aylanib ulgurgan edi. Maks otasining izidan yurib, hatto Milliy Liberal partiyaga qo'shildi. 1891-yilda Veber Berlin universitetida dotsent lavozimini egalladi. Uning tarixiy qiziqishlari doirasi O'rta asrlardan Antik davrga o'tishni boshladi. Shu bilan birga, u ijtimoiy siyosat ittifoqi va islohotchi Yevangelist Ijtimoiy Kongressi bilan hamkorlik qilishni boshladi. Ushbu tashkilotlarning vazifasi kapitalistik jamiyatning eng ashaddiy ijtimoiy qarama-qarshiliklarini yumshatish edi.

Kongress rahbarlari, shuningdek, kapitalistlarni nasroniy buyruqlarini bajarish uchun o'z daromadlarining bir qismini ixtiyoriy ravishda ajratishga ishontirishga umid qilishdi. Ushbu tashkilotlarning vakili sifatida yosh olim juda amaliy ahamiyatga ega bo'lgan bir nechta tadqiqotlar o'tkazish imkoniyatiga ega bo'ldi. U Elba shaharchasining sharqiy qismida qishloq xo'jaligi ishchilari o'rtasida o'tkazilgan so'rovda qimmatli statistik ma'lumotlar taqdim etdi. Ushbu ma'lumotlarga murojaat qilib, Ijtimoiy siyosat ittifoqi, fermer xo'jaliklari mehnat ahvolini biroz yengillashtirishga yordam beradigan choralarni ko'rishga erishdi. Veberning o'zi "millatchilik ruhiga ega bo'lgan agrar mutaxassis" sifatida obro'-e'tibor qozondi, ammo bunday

amaliy ish uning uchun qoidadan ko'ra ko'proq istisno edi. Shunga qaramay, Antik va O'rta asrlarni o'rganib, u bu davrlarda zamonaviy kapitalizmning bir-biridan o`zgacha xususiyatlarini topdi. 1894-yilda Veber Orenburg universitetida siyosiy iqtisod professori lavozimini egalladi va tadqiqot ishlarini olib borish bilan bir qatorda, o`zining ilmiy jamoasini shakllantirishga juda jiddiy kirishdi. U o'z tanlovini shunday asoslab berdi: «Aslida men olim emasman; ilmiy faoliyat men uchun shunchaki bo'sh vaqtlarda dam olish... Menga faol amaliy faoliyat hissi kerak va umid qilamanki, professor lavozimining tadqiqotchilik tomoni mening bu ehtirosli istagimni qondiradi. "

Frayburgda u sof iqtisodiy xarakterga ega ikkita risola yozdi: "Birja va birja bitimlari" va "Birja va uning ahamiyati", bu uning Rossiyada tarjima qilingan birinchi asarlari bo'ldi. Bundan ko`rinib turibdiki Maks Veberning ijtimoiy faolligidan tashqari, umumiy birlik hamda iqtisod sohasiga ham bosh qo`shgani va bu orqali kapitalizmning to`liq shakllantiruvchi belgilarini tahlil qilish va siyosiylashtirish uchun yetarlicha asos bor edi. Shu boisdan, Maks Veber odamlarning sotsial notengligida iqtisodiy omillarning muhimligini inkor etmagan holda sotsial mansublikni aniqlash uchun sotsial nufuz (sotsial maqom) va hokimiyatga daxldorlik (hokimiyat resurslaridan foydalanish imkoniyati va qobiliyati) kabi qo'shimcha mezonlarni kiritdi. M.Veberning fikricha, sotsial nufuz doimo ham boylik va hokimiyatga bog'liq emas. Masalan, olimlar, huquqshunoslar, ruhoniylar, jamoat arboblari nisbatan kam daromadga ega bo'lishi mumkin, lekin, shu bilan birga, ko'plab boy tadbirkorlar yoki yuqori darajali mansabdorlardan yuqori nufuzga ega bo'lishi mumkin.

Umumiy huquq, davlat va hokimiyatning o`rganish tajribasiga tayanib Veber har xil xalqlarning tarixi davomida topilishi mumkin bo`lgan hokimyatning ideal kontseptsiyasini ilgari suradi. Tarixiy jihatdan birinchi hokimyat - bu patriarxat ilk davlat shakllanishidagi to`da, urug boshligi hokimyatidir. Keyingi tur hokimiyati - bu xarizmatik hokimiyat bo`lib, u hukmdorning xudo tomonidan berilgan sifatlari va o`zining iqtidori bilan olgan boshqarish imkoniyatlarini nazarda tutadi. Eng zamonaviy va istiqbolli hokimyat bu ratsional-legitim hokimiyatdir. Bu hokimiyatlarning eng asosiy elementlari, ularning konstruksiyasini yaratuvchi professional byurokratiya hisoblanadi. Byurokratiya idora xizmatchilarining hokimyati Veber tomonidan an'anaviy emas, nazorat qilinuvchi va ratsional qoidalarga asoslanadigan legalistik boshqariluvchi va nazorat qilinuvchi qonunlarga, xarakterga va ahamiyatga ega hukmronlik turiga o`xshatiladi.

Byurokratiyaning kelajakdagi bardavom roli haqida Veber shunday degan edi: "Hamma demokratiyaning ijtimoiy va davlat faoliyatidagi aniq istiqboli total byurokratiya deb hisoblaydi. Aynan bunday istiqbollarni kapitalizm bilan almashinuv kuchida yoki sotsializmda emas, balki, jamiyatni ratsional boshqaruv maqsadidagi byurokratlashuv kuchidi deb hisoblashi zarur." Bu fikr zamonaviy menedjer revolyutsiyasi va postindustrial jamiyat nazariyotchilari tomonidan davom ettirildi va rivojlantirildi. M.Veber Yevropa tarixidagi kapitalizm davrini XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlangan deb fikr yuritadi. U kapitalizmni xo`jalik yuritishning alohida tipini ifodalovchi sof iqtisodiy tushuncha deb bildi. Bunday holda kapitalizm har qanday davr iqtisodiyoti uchun xos bo`lgan hodisa sifatida namoyon bo`ldi va biron bir davrda uning rivojlanganlik darajasi haqida fikr yuritish qiyin masala edi. Maks Veber kapitalizmini har qanday davr uchun qo`llash mumkin bo`lgan ideal tip sifatida ko`rsatadi.

XX asr boshlariga kelib liberal kapitalizmdan davlat-monopolistik kapitalizmiga o`tilishi bilan inson huquqi va erkinliklari har tomonlama o`rgana boshlandi. Bu cheklanmas siyosat, fan

va madaniyat sohalarida ham yaqqol sezilib qoldi. O`zgargan sharoitda xodimdan faollik, tashabbuskorlik, energiya, tavakkalchilik emas, balki ijrochilik talab etiladi degan konseptsiyalar ham ilgari surila boshlandi.

Hozirgi kunga kelib ma`lum bo`lgan kapitalistik jarayonlar va konseptsiyalar davlatlarning iqtisodiy faoliyatini hamda siyosiy pozitsiyasining to`liq ishlab chiqilishi va faoliyat turining belgilanishi uchun ham umumiy qo`llanma sifatida foydalaniladi.

Maks Veberning fikricha, hozirgi zamon kapitalizmi ratsionallik orqali aql bilan ish ko`rishni yaratdi. Ratsionallik kapitalizmning harakatlantiruvchi kuchidir. U kapitalizm moddiy va ma'naviy madaniyatini qamrab oladi. U iqtisodiyotning davlat va siyosat bilan umuman jamiyatni boshqarish bilan tobora qo`shilib ketayotganligini alohida ta'kidlab, ishlab chiqarish, fan va byurokratiyani bir-birini taqazo etuvchi yaxshi sistema sifatida ko`rsatdi. Ratsional huquq, davlat, xo`jalik va ilmiy faoliyatining barcha sohalaridagi boshqarishning hozirgi zamon kapitalizmining shart-sharoitidir deb ta`kidladi.

Qoloq mamlakatlar iqtisodiyoti nihoyatda konservativ bo`lib, ishlab chiqarishni kengaytirishga intilishsiz deb baholaydi. Veber zamonaviy davlatni quyidagicha ta'riflaydi: "zamonaviy davlat hukmronlik ittifoqi tashkiloti turida tashkil etilgan bo'lib, u muayyan soha ichida legitim jismoniy kuch ishlatishni monopollashtirishni hukmronlik vositasi sifatida namoyon etib yutuqlarga erishgan, va ana shu maqsadda korxonalarning moddiy vositalarini o'z rahbarlari qo'lida birlashtirgan, ilgari zo'rligi bilan vakolatlariga ega bo'lga tabaqaviy funktsionerlarni ag'darib, ularning o'rnida eng oliy pozitsiyani egallagan tashkilot bu - davlatdir." Veber siyosatni "davlatlar o'rtasidami, yoki davlat ichidagi odamlar guruhlari o'rtasidami o'zini namoyon etgan hokimiyatda ishtirok etishga yoki hokimiyatni taqsimlashga ta'sir ko'rsatishga intilishdir" deb ta'riflaydi.

Veber o'z tahlillaridan kelib chiqib, siyosatni korxonaga aylantirish natijasida ijtimoiy funktsionerlarni ikkita kategoriyaga bo'lish mumkin, degan xulosaga keladi:

1."Mansabdor-mutaxassislar" – ilgari qobiliyatga ega bo'lmaganlar ichidan boshqarish uchun tanlab olingan, lekin mustaqil ravishda korxonadagi texnikaviy rahbarlikni amalga oshira olmaydigan qatlam.

2. "Siyosiy" mansabdorlar – odatda tashqi tavsiflarga binoan har qanday vaqtda o'zboshimchalik bilan ularni boshqa ishga o'tkazish yoki ishdan bo'shatish mumkin bo`lgan qatlam vakillari.

Doimiy ravishda kurashda bo`lish har bir siyosiy soha vakili hamda uni ushlab turuvchi siyosat sohasi uchun juda muhim xislatlardan hisoblanadi. Shu boisdan uning eng asosiy bildirgan fikrlaridan biri bu kurash bo`lgan.

Kurash – siyosatchining tabiati, ayniqsa siyosiy yo'lboshchi kurashlarda toblanadi degan fikri esa siyosatning qanchalik shiddatli va kurashlarga boy soha ekanligini ifodalab bergan. Siyosatchi qanday qaror qabul qilsa ham o'z mas'uliyati ostida qiladi, shaxsiy mas'uliyatga ega bo'ladi, uning nufuzi ana shunga bog'liq bo'ladi.

Hozirgi kunga kelib zamonaviy dunyoning rivojlanish bosqichi va Maks Veberning ta`sir etish doiralarining kengayishi doimiy tarzda davlatlarning siyosiy faolligini oshirish, yanada izchillikda ishlash hamda siyosat olib borishga ko`maklashuvchi aniq manba hisoblanadi. Davlat siyosati, boshqaruv shakli undagi bo`ladigan va sodir bo`lishi kutiladigan voqeyliklarning eng asosiy formatlarini oldindan ko`rish hamda tahlil etish uchun zarur bo`ladigan barcha prinsiplarning barqarorlashuviga ta`sir ko`rsatadi. Bu esa doimiy va maqbul tarzda Maks

Veberning siyosat uchun zarur deb bilgan xislatlari hamda xususiyatlarining o`zlashtirib borilishi bilan belgilanadi.

**REFERENCES**

1. Вебер Макс Политика как призвание и профессия - Москва, Берлин: Директ-Медиа, 2014.-С.120
2. Вебер М. Основные социологические понятия //Западно-европейская социология XIX - начала XX веков. - М., 1996.-С.476-477.
3. Вебер Макс "Объективность" социально-научного и социально-политического познания - Москва: Директ-Медиа, 2010.-С.120
4. Max Weber's: Theory of the Modern State Origins, Structure and Significance. Andreas Anter Professor, Staatswissenschaften, University of Erfurt. New York, NY 10010. PALGRAVE MACMILLAN PRESS, 2014.-P.121
5. https://www.cambridge.org/highereducation/books/weber-political-writings/overview

# TYPES OF REHABILITATION

**Khairulla Toshnazarovich Ortikov**
The teacher of the Armed Forces Academy of the Republic of Uzbekistan
https://doi.org/10.5281/zenodo.7559605

***Abstract.*** *Rehabilitation is a process aimed at restoring a person's ability to function in a social environment, as a technology, it promotes a set of measures aimed at rehabilitation at the medical, household, professional, and personal levels. It is a type of activity aimed at the social adjustment of the child in society, restoration of his social status, restoration of lost relationships, and includes a set of measures aimed at restoring the ability of a person to function in a social environment.*

***Key words:*** *Rehabilitation, organism, nervous system, pneumonia, recovery, physiotherapy, hypertension, physical activity, mental recovery.*

# ВИДЫ РЕАБИЛИТАЦИИ

***Аннотация.*** *Реабилитация – это процесс, направленный на восстановление способности человека функционировать в социальной среде, как технология, она способствует комплексу мероприятий, направленных на реабилитацию на медицинском, бытовом, профессиональном и личностном уровнях. Это вид деятельности, направленный на социальную адаптацию ребенка в обществе, восстановление его социального статуса, восстановление утраченных отношений, и включает в себя комплекс мероприятий, направленных на восстановление способности человека функционировать в социальной среде.*

***Ключевые слова:*** *Реабилитация, организм, нервная система, пневмония, восстановление, физиотерапия, гипертоническая болезнь, двигательная активность, психическое восстановление.*

After the independence of our republic, the attention to the medical field and the preservation of people's health increased even more. For example, the first President of the Republic of Uzbekistan I.A. Karimov's decree "For a healthy generation" adopted in 1993, as well as the adoption of many other laws aimed at maintaining the health of the population, achieving physical fitness of the republic's population, and ensuring the inextricable connection between physical and spiritual culture, " The year of healthy generation, the year of patrons and doctors, the year of appreciation of the elderly, the year of mother and child, the year of rural development and well-being, and the year of the perfect generation.

A clear example of this is the modernization of the country, the further improvement of medical and social services, and the implementation of major reforms in the education system.

The positive effect of physical education and sports on the human body has been known in medicine since ancient times.

The great Hakim Abu Ali ibn Sino said, "There is no need to treat a body that is constantly moving." Great attention is paid to the development of physical education and sports in the Republic of Uzbekistan. The Law "On Physical Education and Sports" adopted on January 14, 1992 stipulates that every member of the community should be engaged in physical education, that children should be involved in it, that they should be well-rounded, strong and healthy in all aspects. It is emphasized that it is important. Currently, special attention is paid to the development of physical education and sports in the Republic of Uzbekistan. Real professional

athletes are being trained for the republic in various circles and sections, as well as in sports schools.

The word "rehabilitation" is derived from the Latin language and means "to restore oneself". This term was introduced by ancient doctors and healers, and it means that a doctor should not only help and treat a person in case of illness or injury, but also help his organism to recover its functional activity after illness and injury. For example: let's say a person has a lung disease - pneumonia. On the basis of this disease, the unit of the lung stroma (structure) is damaged, the alveoli are damaged, that is, they become inflamed. Gas exchange takes place in the alveoli. The inflamed alveolus is filled with pus, and the passage of oxygen to the alveolar capillaries becomes difficult or completely destroyed.

As a result, body tissues and CNS (central nervous system) are not adequately supplied with oxygen. This leads to disruption of brain function and cardiovascular system. Pneumonia is treated with antibiotics, expectorants, expectorants, anti-inflammatory drugs, and vitamins. For the functional recovery of the lung organ, rehabilitation procedures last from two weeks to two years (depending on the type of disease, severity level). During this time, special physiotherapeutic procedures - electrophoresis, massage, physical therapy exercises and special breathing exercises should be used.

A patient's recovery, physical and mental recovery after an illness depends more on the care, attention, courtesy and passion of a medical and social worker.

Duties of a medical and social worker in the field of rehabilitation:

- perform all the procedures ordered by the doctor to the patient safely and on time; - providing general patient care and sanitary-hygienic procedures;

- to be extremely attentive and patient in the care of bedridden patients;

- to be kind and courteous;

- able to explain to the patient why the prescribed procedures are necessary (based on medical knowledge);

- participation in sanitarium-whitening work: to be able to inform the population about the disease and teach its prevention measures, to be able to explain what complications the disease causes;

- being able to provide assistance to patients with serious illnesses in social care departments

There are two main types of medical rehabilitation: general rehabilitation and private rehabilitation. General rehabilitation refers to the strengthening and restoration of the human body's general activity, general condition, and health with the help of procedures that affect all systems. In order to restore the functioning of diseased organs in the patient's body, special treatments are widely used along with natural factors.

Functional rehabilitation means a set of procedures and factors used to restore the function of a body part whose activity is limited or impaired due to complications of an illness or injury. In addition to medical rehabilitation, there are several types of rehabilitation: mental rehabilitation, social rehabilitation, etc. Medical social worker has a great role in medical rehabilitation. In this field, a high level of knowledge, patience, love for the patient, sympathy and responsibility are required from the employee.

Among the diseases, the most common are diseases of the cardiovascular system, including angina pectoris, myocardial infarction, ischemic heart disease, congenital and acquired heart

diseases (defects), as well as acute and chronic respiratory diseases. diseases (bronchitis, asthma, bronchial asthma, lung gangrene and abscess, pulmonary tuberculosis, etc.). In addition, diseases of the digestive system are common.

Among them are acute and chronic gastritis, stomach ulcer disease, colitis and enterocolitis, chronic liver diseases, etc. Patients with these diseases need special, individual and general treatment, as well as rehabilitation measures.

Rehabilitation procedures are determined depending on the type of disease, severity and general condition of the patient. For such patients, treatment complexes, prophylactics and sanatoriums-resorts have been established in the territory of a hospital or polyclinic for the purpose of rehabilitation.

In recent years, therapeutic physical therapy, massage, reflexology and other procedures are widely used for the purpose of rehabilitation after conservative treatment in patients suffering from acute and chronic circulatory failure, hypertension, etc.

Special physical exercises are determined depending on the functional state of the circulatory system. It is always necessary to follow one principle (rule): exercises are gradually increased from simple to complex, and their amplitude from light to active.

Sanatorium treatment is important in the rehabilitation of cardiovascular system diseases. The main task of this method is to widely use the influence of natural factors to restore the activity of diseased members, in particular, members of the YUQTS.

In such a situation, the accurate diagnosis of the patient, the stage of the disease, the degree of its potential are important, as well as determining the effectiveness of the natural healing agent. This method of treatment uses a special routine - active rest, special diet, diet, physical therapy, walks and positive effects of weather, physiotherapeutic procedures.

Physical rehabilitation - restoring or compensating physical ability and mental ability, increasing and improving the functional state of the body, physical education tools and methods, sports elements, sports training, massage, physiotherapy and natural factors to improve the physical ability of the human body, mental and emotional stability and is a system of measures to improve adaptive reserves.

In mental rehabilitation, the main focus is on the correction of the patient's mental state, as well as on the formation of the correct approach to his treatment, doctor's recommendations, and the implementation of rehabilitation measures. In this direction, it is necessary to create the necessary conditions for patients to mentally adapt to life activities that have changed as a result of the disease.

In vocational rehabilitation, the issues of rehabilitation, vocational training and retraining, determination of patients' ability to work are solved or considered.

Socioeconomic rehabilitation focuses on restoring economic independence and social excellence to the injured patient. These tasks should be solved not only by medical institutions, but also by social welfare bodies.

Physiotherapy is a branch of nature that studies the physiological and therapeutic effects of natural and man-made physical factors, develops new methods for the prevention and treatment of disease, as well as therapeutic methods, while in turn applies them to life.

**Conclusions and suggestions**

In conclusion, rehabilitation methods should be aimed at achieving a high result. Continuous consultation of patients helps in its implementation. Social rehabilitation allows

them to adapt to changing family and social life conditions. They are activities aimed at improving the quality of life, creating equal opportunities for full participation in society. Thus, we must understand that psychological recovery of a person plays an important role along with medical treatment. Don't ignore it.

**REFERENCES**


1. Ahmedov A., Sodikova Z. Normal anatomy and physiology. T., 2000.
2. Ganiyev S. V. Fundamentals of traumatology and orthopedics.
3. Ilkhojayeva K.E., Khudoyberganova B.T. Physiotherapy and medical rehabilitation. T., 2004.
4. Muradov N.N. Healing spaces of the trade union of Uzbekistan. T., 1995.
5. Studenkin M.Ya. Directory of pediatricians.
6. Haydarov S.O. Internal diseases.
7. Yuldashev K.E. Physiotherapy. T., 1990
8. EVERAOH.COM

# SPORTCHA YURUVCHILARNI MASHG'ULOTLARINI REJALASHTIRISHDA YUKLAMALARNI TAQSIMLASH SAMARADORLIGI

**I.D. G'aniboyev**
Ilmiy rahbar
**G'.Xo'jamkeldiyev**
Ilmiy maslahatchi
**J.Murodqulov**
2 bosqich magistranti
E-mail:gafur.xujamkeldiyev@mail.ru
https://doi.org/10.5281/zenodo.7560263

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada sportcha yuruvchilarni mashg'ulotlarini rejalashtirishda yuklamalarni taqsimlash samaradorligi haqida fikr yuritilgan.*

***Kalit so'zlar:*** *sportcha yurish, Jaxon chempionati, yengil atletika sport jamoasi, jismoniy tayyorgarlik darajasi.*

# ЭФФЕКТИВНОСТЬ РАСПРЕДЕЛЕНИЯ НАГРУЗКИ ПРИ ПЛАНИРОВАНИИ ТРЕНИРОВКИ СПОРТСМЕНА ХОДКЕРА

***Аннотация.*** *В данной статье рассматривается эффективность распределения нагрузки при планировании тренировок легкоатлетических бегунов.*

***Ключевые слова:*** *спортивная ходьба, чемпионат мира, легкоатлетическая спортивная команда, уровень физической подготовленности.*

# EFFECTIVENESS OF LOAD DISTRIBUTION IN PLANNING THE TRAINING OF ATHLETE WALKER

***Abstract.*** *This article discusses the effectiveness of load distribution in planning the training of athletes.*

***Key words:*** *athletic walking, World Championship, athletics sports team, level of physical fitness.*

**Dolzarbligi:** Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng hukumatimiz tomonidan jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirishga asos bo'luvchi eng muhim tadbirlar amalga oshirilmoqda. Buning yaqqol namunasi sifatida 2015-yil 4-sentabrda yangi tahrirda qayta qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida" gi qonuni barcha aholining sog'ligini mustahkamlash, ularning jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanuvchilariga shart-sharoitlar yaratib berishni kafillika oladi. Hozirgi kunda yurtimizda ham sportcha yuruvchilarni tayyorlash bo'yicha murabbiylar va soxa mutaxassislari tomonidan ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda. Buning isboti sifatida 2021 yil sportcha yurish bo'yicha Jaxon chempionatida O'zbekiston tarixida birinchi marta sportcha yuruvchimiz sihtiroki hamda o'zining shaxsiy rekordini yangilagani yengil atletika sport jamoasiga kata yutuqdir. Sportchi yuruvchilarni mashg'ulot jarayonlarida jismoniy tayyorgarligidagi mavjud xato kamchiliklar sport natijalariga o'z ta'sirini ko'rsatishi ehtimoldan holi emas. Yurtimizda yengil atletikaning sportchi yurish turi aholi o'rtasida ommalashmaganligi bu sport faoliyatida mashg'ulotlar olib borishda biroz qiyinchiliklar tug'dirmoqda. Shu boisdan biz tanlagan mavzu sportchi yuruvchilar tayyorlash tizimida o'ta dolzarb muammolardan sanaladi.

**Ishning maqsadi:** BO'SMlarda sportcha yuruvchilar mashg'ulotlarini rejalashtirishda yuklamalarni samarali taqsimlash orqali umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlikni oshirish.

ISSN: 2181-3906

International scientific journal
«MODERN SCIENCE AND RESEARCH»
VOLUME 1 / ISSUE 3

**Tadqiqot natijalari va uning muhokamasi**. O’quv mashg’ulot davrida sportcha yuruvchi o‘g‘il bolalarni tayyorlashda ko‘p yillik o‘quv mashg‘ulotlar jarayonining birinchi siklida asosiy maqsadimiz – shug‘ullanuvchilarning har tomonlama jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirish va jismoniy sifatlarini rivojlantirishdir.

Sportcha yuruvchilar chidamlilikka ega bo‘lishini bugungi kunda talab qilinmoqda. Zamonaviy sportcha yuruvchilardan jismoniy sifatlarining doimo rivojlanishini va har doim yangi darajaga ko‘tarilishini talab qiladi.

Sportcha yuruvchilarni o’quv mashg’ulot guruhi davrida shug‘ullanuvchilarga o‘quv mashg‘ulotlarda asoslangan holda saboq berib borish lozim va amaliyotda nazorat qilish zarur. Ya’ni har bir o‘quv mashg‘uloti oldiga qo‘yilgan maqsad va vazifalar ularni qaysi uslubiyat va vositalar yordamida amalga oshirish zarurligi bilan tanishtirib borish maqsadga muvofiqdir.

Respublikamiz terma jamoalariga zaxira tayyorlashni to‘g‘ri rejalashtirishimiz kelajakda xalqaro musobaqalarda raqobatbardosh sportcha yuruvchilar chiqishiga imkoniyat yaratgan bo‘lamiz.

Sportcha yurish texnikasini takomillashtirishda quyidagi vosita va usullardan foydalanishni tavsiya etamiz:

1. Har xil tezlikda sportcha yurish ( yengil, o’rta, tez ).
2. Burilishda, tekis yo’lakda ( pastga, yuqoriga ) sportcha yurish.

Sportcha yurish texnikasida nimalarga e’tibor berish kerak:

a) gavda va boshning holati;
b) yumshoqlik, tana, oyoq va qo’l harakatining tarangligi;
c) kerakli qadam uzunligi, oyoqning yurish erkinligiga, tovonning yerga tegishliligiga;
d) o’z vaqtida ( erta emas ) oyoq kaftining yerdan uzulishiga;
e) hamma harakatning umumiy yig’indisiga.

Yurishda tananing ortiqcha vertikal va yonboshga tebranishidan qochish kerak. Yurish masofasini sekinlik bilan oshirish kerak, 400 - 800 va undan yuqori masofalargacha.

Sportcha yurish texnikasini har qanday o’rganuvchi, murabbiy yordami bilan o’ziga yurish tempining qulayligini, nafas sonining me’yori va qadamning sonini va boshqalarni belgilab olishi kerak.

O’rganuvchini e’tibordan qoldirmaslik va tanbeh bermaslik kerak, unga u yo bu topshiriqni mustaqil bajarishga qo’yib berish kerak.

Qiya yo’llarda yurishda o’rganuvchi o’zining gavdasi holatini qulay holda tutish kerak. Tog’ga ko’tarilishda umumiy gavda holatini oldinga, pastga tushayotganda gavda holatini orqaga egish (tutish) kerak.

Ba’zi sportchilar oyoqni to’liq bukolmaydi. Bunday holatda quyidagilar tavsiya etiladi:

1. tog’dagi yurishda oyoqlar tizza bo’g’imidan bukilmaslik kerak.
2. yurishda gavdaning oldinga egilishi, albatta oyoqlarni qo’llar yordami bilan to’g’rilash.
3. yurishda har bir qadam gavdani oldinga egishi bilan hosil bo’ladi, agar chap oyoq oldinda bo’lsa, uning tovoniga o’ng qo’l to’g’ri kelishi kerak, o’ng oyoqqa chap qo’l to’g’ri keladi.

Xatoni to’g’rilash uchun “oyoqni yerga ishqalab yurish”, boldir muskullarini mustahkamlashda quyidagi mashqlarni bajarish kerak:

1) oyoq keng qadamda, orqadagi oyoq to’liq ko’tarilishi kerak ( oyoq uchida), oldinda turuvchi oyoq kaftda turishi kerak

2) gimnastik o'rindiqga oyoqni devordan 60 – 70 sm oraliqda ip bilan biriktirib va qo'l yordamisiz butun tanani orqaga tashlash, gavdani devorga tayanguncha og'dirish. Keyin yana oldingi holatini egallaydi.
3) Oyoq kaftining oyoq uchiga birdan o'tishi bilan yurish.
4) Yumshoq tuproqda yurish.

Sportcha yurish texnikasini har qanday o'rganuvchi, murabbiy yordami bilan o'ziga yurish tempining qulayligini, nafas sonining me'yori va qadamning sonini va boshqalarni belgilab olishi kerak.

O'rganuvchini e'tibordan qoldirmaslik va tanbeh bermaslik kerak, unga u yo bu topshiriqni mustaqil bajarishga qo'yib berish kerak.

**Xulosalar.**

1. Boshlang'ich bosqichda sportcha yurish bo'yicha maktab sharoitini hisobga olib, o'quv mashg'ulotlarini rejalashtirish o'z samaradorligini ko'rsatdi.
2. Tajriba guruhi shug'ullanuvchilarining maktab sharoitida sportcha yurish bilan shug'ullana boshlashiga barcha imkoniyatlar mavjudligi aniq dalillar bilan isbotlandi.
3. Boshlang'ich bosqichda sportcha yuruvchilar mashg'ulotlarini rejalashtirishda me'yorlarni samarali taqsimlanishi umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlikning oshirilishini ta'minladi.

**REFERENCES**

7. O'zbekiston Respublikasining 2015-yil 4-sentabrdagi "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida" gi Qonuni.
8. Озолин Н.Г. Настольная книга тренера: наука побеждать. АСТ: Астрель, - М.: 2008. - 863 с.
9. Rafiyev X.T., Olimov M.S., Xo'jamkeldiyev G'.S. va boshqalar. Yakkakurash, kordinatsion va siklik sport turlari (Yengil atletika). Darslik. T.: Ilmiy texnika axboroti press nashryoti, 2018 y.-376 b.
10. G'aniboyev I.D., Xo'jamkeldiyev G'.S. Yakkakurash, koordinatsion va siklik sport turlari "Yengil atletika" / O'quv qo'llanma. Ch: O'zDJTSU nashryoti, 2019. -178 b.

# TALABA YOSHLARNI ULOQTIRISH TEXNIKASIGA O‘RGATISHDA SAMARALI USLUB VA VOSITALARIDAN FOYDALANISH

**Ziyayev F.Ch.**
O‘ZDJSU O‘qituvchi
**N.B.Normuradov**
O’ZDJTSU assistent o`qituvchi

https://doi.org/10.5281/zenodo.7560330

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada talaba yoshlarni uloqtirish texnikasiga o‘rgatishda samarali uslub va vositalaridan foydalanish uloqtirish vaqtida texnikasini o`zgarishi natijasiga ta’siri qay darajada ekanligi, butun mashg'ulotning boshida va oxirida qilingan urinishlarning qiyosiy biomexanik tahlili o'tkazilgan.*

***Kalit so`zlar:*** *aylanish, oyoq kafti, tos suyagi, yelka harakati, bilaklarning, dinamikasini, joy, talaba.*

# ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ЭФФЕКТИВНЫХ ПРИЕМОВ И СРЕДСТВ В ОБУЧЕНИИ МОЛОДЕЖИ СТУДЕНТОВ ТЕХНИКЕ ПЕРЕДАЧИ

***Аннотация.*** *В данной статье использование эффективных методов и средств в обучении технике метания младших школьников оказывает влияние на результат смены техники во время метания, и проводится сравнительный биомеханический анализ попыток, выполняемых в начале и конце всей было проведено учебное занятие.*

***Ключевые слова:*** *вращение, ладонь стопы, таз, движение плеча, запястья, динамика, место, студент.*

# USING EFFECTIVE TECHNIQUES AND TOOLS IN TEACHING YOUTH STUDENTS IN THE TECHNIQUE OF TRANSMISSION

***Abstract.*** *In this article, a comparative biomechanical analysis of the attempts made at the beginning and the end of the entire training was made, to what extent the use of effective methods and tools in teaching young students to throw technique has an effect on the result of changing the technique during throwing.*

***Key words:*** *rotation, foot palm, pelvis, shoulder movement, wrists, dynamics, place, student.*

**Kirish.** Mustakilik sharoitida har tomonlama komil insonni tarbiyalash davlatimiz siyosatining ustuvor yo‘nalishi hisoblanadi. Komil insonni tarbiyalash bugun paydo bo‘lgan muammo emas. Bu masala milliy merosimizda xar tomonlama asoslab berilgan.

Mustakillik sharoitida erkin, ozod mustaqil fikrlovchi shaxni tarbiyalashda biz uchun milliy merosimiz nazariy poydevor roliki o‘ynaydi. Insonni m’anan, axloqan va jismoniy barkamol qilib tarbiyalashda buyuk pedagog Abdulla Avloniy faoliati va ilmiy merosi katta ahamiyatga ega.

Men, - deb ta’kidlagan edi O‘zbekiston respublikasining birirnchi prezident I. Karimov, Abdulla Avloniyning «Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot yo halokat, saodat-yo falokat masalasidir» degan fikrini ko‘p mushohida qilaman.

Buyuk ma’rifatparvarning bu so‘zlari asrimiz boshida millatimiz uchun kanchalar muxim va dolzarb bo‘lgan bo‘lsa, hozirgi kunda xam biz uchun shunchalik, balki undan ham ko‘ra muhim va dolzarbdir». Abdulla Avloniy pedagogik merosi uning «Tureskiy guliston yoxud axloq» asarida o‘zining nazariya, Abdullo Avloniy fikricha, sog‘lom  fikr yaxshi axloq, ilm-

ISSN: 2181-3906
International scientific journal
«MODERN SCIENCE AND RESEARCH»
VOLUME 1 / ISSUE 3

ma'rifatga ega bo'lishi uchun badanni tarbiya qilish zarur. «Badanning samoga va kuvvatli bo'lmog'i insonga eng kerakli narsadir. Chunki o'qimok va o'rgatmok uchun insonga kuchli, kasalsiz jasad lozimdir degenlar».

Mutafakkir, bolani sog'lom qilib tarbiyalashda dastlab oqil, ota-onalaga murojaat kiladi. Bolaning sog'ligi yomonlashsa, kasal bo'lgan taqdirda tabib yoki shifokorga ko'rsatishni taklif qiladi. Abdulla Avloniyning sog'lom tanaga ega bo'lish uchun kishining jismoniy rivojlanishiga zararli tasir narsalardan saqlanishni tavsiya qiladi.

Uning bu boradagi fikrlari hozirgi kunda yoshlar urtasida tez tarqalayotgan ichkilikka, boylikka ruju qo'yish, narkotik moddalarni qabul qilish oqibatida Turli xunrezlik yo'liga kirishga qarshi kurash nuqtai nazaridan ham juda chunonchi u ichkilik, ko'knor, nasha, afyun, chilim, nos, papiros kabi badanning salomatligiga zararli narsalardan qochmoq, saqlanmoq, lozimdur».

Abdulla Avloniy badan tarbiyasida, bolani sog'lom qilib o'stirishda eng avvalo uning o'zi keyin ota- onalariga murojaat qiladi. Bolani fikriy tomonidan tarbiyalashda o'kituvchi faoliyatiga yuksak baho beradi. Inson salomatligi o'z-o'zidan emas, balki kishining harakati tufayli mustahkamlanadi. Sog'likka ega bo'lmagan inson o'ziga yuklangan vazifalarni bajara olmaydi. «Sog' badanga ega bo'lmagan. insonlar amallarida, ishlarida, fikrlarida kamchilik qilurlar.

Abdulla Avloniy inson xulqini tarbiyalashda qatiy tartib, intizom, rejim katta axamiyatga ega ekanligini uqtiradi. U intimomni inson xulqini tarbiyalovchi, mukammalashtiruvchi vosita deb biladi.

Shuning uchun har kim, har ishda unga doimiy rioya qilishi muhimdir. ishlarimizning xar birini o'z vaqtida tartibi bilan qilish zarur. Agar yer yuzasida intizom bo'lmasa edi, insonlar bir daqiqa qolmas edilar».

Avloniy talkinida intizom insoniyat jamiyati uchun qanchalik muxim ahamiyatga ega bo'lsa, har kishi ayniksa, yoshlar uchun ham shuchanik zarur. Yoshlarni intizomga rioya qilib, zamonaviy nizom va tartiblarga Muvofik yashashga chakiradi.

Bu esa kishi ruhiga va jismoniy rivojiga ham har tomonlama foydalidir. Intizom vijdonni tarbiyalaydi, vijdon esa o'z burchini halol bajarishdir.

O'z navbatida bular inson xayotiga katiy tartib o'rnatilib, o'zini jismoniy va ruhiy salomatligi tugrisida o'ylab, sog'lom turmush tarzi uchun zamin tayyorlaydi. Insonning jismoniy jihatdan salomatligining asosi jismoniy tarbiyadir.

Badan tarbiyasi faqat salomatlik uchun zarur emas, balki insonning butun faoliatining sohalari uchun ham muhimdir. Badan tarbiyasining fikr tarbiyasiga ham yordami bordir.

**Tadqiqot ishning dolzarbligi.** Jumladan, talaba yoshlar o'quv dasturiga kiritilgan uloqtirish mashqlarining texnika asoslariga o'rgatishni ilmiy-uslubiy asoslash shu yoshdagi o'g'il va qizlarning dasturdagi mezonlarni bajarishlariga juda katta yordam beradi, aks holda ular umumiy oliy ta`limni bitirish oldidan ham uloqtirish mezonlarini talab darajasida bajara olmasliklari mumkin.

Dastlabki o'rgatish jarayonida harakat faoliyati malakasini shakllantirishdan kelgusida tarkib topadigan stereotipni sindirib tashlashni talab qilmasdan, balki uloqtirishning boshqa turlarini granata, nayza, disk, bosqon, yadro o'rgatish va takomillashtirishda foydalanish katta ahamiyatga ega. Hozirga qadar talaba yoshlarni uloqtirish asoslariga o'rgatishning samaradorligini oshirish masalasi kam o'rganilgan.

Mavjud ilmiy izlanishlarda asosiy e’tibor uloqtiruvchi qo‘lni keyingi final kuchlanishiga va yugurib borishdan sakrashga o‘tishning turli xil usullarini o‘rgatishga qaratilgan.

Shu boisdan talaba yoshlarni jismoniy tarbiya darslarida kichik to‘pni uloqtirish mashqlari texnika asoslariga o‘rgatishning eng samarali uslublarini aniqlash dolzarb masalalardan biridir.

Shuning uchun ham jismoniy tayyorgarlik masalasi ko‘pchilik olimlar tomonidan (T.S.Usmonxo‘jayev, Arzumanov G.G, va boshqalar) nazariy jihatdan o‘rganilgan bo‘lsa, ba’zi tadqiqotchilar G.V.Goshupkin, T.S.Usmonxo‘jayev, G.Yu.Fokin, Arzumanov G.G, Zenchinko va boshqalar)ning ilmiy izlanishlarida I–IV sinf o‘quvchilarini turli xil sport mashqlari umumiy texnika asoslariga o‘rgatishning maqsadga muvofiqligi va uning imkoniyatlari masalasi tadqiq qilingan.

Bir qator tadqiqotchilar - E.R.Andris, R.Q.Qudratov, N.D.Ivanov, K.M.Mahkamjonov, K.T.Shakirjonova, Qodirov G.Sh. va boshqalarning ilmiy ishlarida katta yoshdagi sportchilar uchun (granata, nayza, bosqon, disk, yadro) uloqtirishning uslubiy asoslari yetarli darajada ishlab chiqilgan bo‘lsa-da, kichik yoshdagi o‘quvchilarni kichik to‘pni uloqtirishga o‘rgatish bo‘yicha tadqiqot ishlari olib borilmagan.

Natijada, kichik yoshdagi o‘quvchilarga kichik to‘pni uloqtirish mashqlarining texnika asoslarini o‘rgatishda kamchilik va xatolar yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, mazkur ishning dolzarbligi kichik maktab yoshidagi bolalarni jismoniy tarbiya darslarida uloqtirish mashqlarining texnika asoslariga dastlabki o‘rgatish jarayonini optimallashtirish orqali dastur materiallarining to‘liqligicha o‘zlashtirilishiga erishish, shu bilan birga ularni kelgusida granata, nayza, bosqon, disk, yadro uloqtirishga tayyorlashdan iborat.

**Tadqiqotning maqsadi.** Talaba yoshlarni kichik to‘pni uloqtirish harakati texnikasi asoslariga o‘rgatish uslublarini asoslash.

**Talaba yoshlarning tajribadan keyingi jismoniy tayyorgarligi**

| № | Testlar | Jinsi | Talabalar | | | | | Talabalar | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | n | Tajriba guruhi X±m | Nazorat guruhi X±m | T | P | n | Tajriba guruhi X±m | Nazorat guruhi X±m | t | P |
| 1. | 30 m masofaga yugurish (soniya) | O‘ | 17 | 7,0±0,08 | 5,7±0,12 | 9,2 | <0,001 | 22 | 6,6±0,24 | 5,3±0,20 | 4,9 | <0,01 |
| | | Q | 18 | 7,1±0,32 | 6,4±0,15 | 2,0 | >0,05 | 23 | 6,7±0,35 | 5,4±0,24 | 3,10 | <0,01 |
| 2. | 4x10 m mokisimon yugurish (soniya) | O‘ | 17 | 13,9±0,18 | 12,6±0,20 | 5,0 | <0,01 | 22 | 13,5±0,24 | 12,2±0,23 | 3,94 | <0,01 |
| | | Q | 18 | 14,2±0,15 | 13,0±0,22 | 4,54 | <0,01 | 23 | 14,3±0,18 | 13,0±0,20 | 1,98 | >0,05 |
| 3. | Turnikda tortilish (marta) | O‘ | 17 | 2,0±0,25 | 3,5±0,31 | 4,00 | <0,01 | 22 | 3,1±0,35 | 4,8±0,31 | 3,7 | <0,01 |

| | | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | o‘rindiq ustida qo‘l-larni bukib-yozish (marta) | Q | 18 | 3,1±0,63 | 5,2±0,60 | 2,41 | <0,05 | 23 | 6,1±0,73 | 7,7±0,60 | 1,7 | >0,05 |
| 4. | 1 kg og‘irlashtirilgan to‘pni o‘tirgan holatda boshdan oshirib ikki qo‘llab otish (metr, sm) | O‘ | 17 | 4,7±0,2 | 5,6±0,22 | 3,10 | <0,01 | 22 | 3,7±0,12 | 5,1+0,21 | 6,33 | <0,001 |
| | | Q | 18 | 3,7±0,12 | 4,1±0,21 | 1,82 | >0,05 | 23 | 3,3±0,12 | 4,7+0,16 | 2,0 | >0,01 |
| 5. | Kichik to‘pni 10 metrdan 10 marta nishonga uloqtirish (m, marta) | O‘ | 17 | 6±0,34 | 7±0,32 | 5,3 | <0,001 | 22 | 7±0,34 | 8±0,15 | 2,77 | <0,05 |
| | | Q | 18 | 7±0,27 | 5±0,44 | 0,2 | >0,05 | 23 | 6±0,34 | 7±0,24 | 2,5 | <0,05 |

**XULOSALAR**

1. talaba yoshlarning kichik to‘pni uloqtirish natijasiga pedagogik ta’sir ko‘rsatishning asosiy omillaridan biri texnik tayyorgarlikga o‘rgatish ekanligi belgilandi:

2. Kichik yoshdagi o‘quvchilarning kichik to‘pni uloqtirishida qiyshiq shakldagi aylanma tartibsiz harakat qayd qilindi. Bu esa o‘quvchilarning kichik to‘pni uloqtirish texnikasini to‘g‘ri bajara olmasliklarini ko‘rsatdi:

3.Tajribadan keyin tajriba va nazorat sinfidagi o‘quvchilarning uloqtirish natijalari ham oshdi. Tajriba sinflari natijalari o‘g‘il bolalarda 2,1 m ga, qiz bolalarda 2 m ga yaxshilandi.

Kichik to‘pni, to‘ldirma to‘pni uloqtirish, joyidan turib uzoqlikka sakrash va texnik tayyorgarlik bo‘yicha hamma sinflarda, tajriba sinfida statistik farq borligi aniqlandi.

Tajribadan keyin kichik to‘pni uloqtirishda talaba yoshlar o‘rtasida farqli ravishda statistik natijalarning (t = 9,2 dan 35,5: R<0,01) o‘sishi kuzatildi.

4. Pedagogik tajriba o‘rgatish samaradorligini ko‘tarishda asosiy uloqtirish harakatlari, oyoqning ketma–ket harakati, gavda va uloqtiruvchi qo‘lning tayanch bilan bir–biriga bog‘liq faol harakati zarurligini tasdiqladi.

**REFERENCES**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 martdagi PF-5368-sonli farmoni ―Jismoniy tarbiya
2. va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida‖gi

3. Farmoni. (Xalq So‘zi. 2018 yil 5- mart.)
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF 5924-sonli farmoni ―O‘zbekiston Respublikasida jismoniy
5. tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida‖gi. Farmoni
6. (Xalq so‘zi 2020 yil 24-yanvar).
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ 3031-son qarori ―Jismoniy tarbiya va sportni yanada
8. rivojlantirish chora tadbirlari to‘g‘risida‖gi (Xalq so‘zi 3 iyun 2017 yil)
9. Soliev I.R, Khaydrov B.SH, Mirzatillayev I.I, Khujamkeldiyev G.S, Ziyayev F.CH. Functional training level of
10. runners student-athletes sprinters. // International Journal of Psychosocial Rehabilitation,Vol.24,Issue 05,2020,
11. http://www.psychosocial.com/article/PR201878/17061/ 46-50 betlar.
12. Ziyayev F. C. et al. YENGIL ATLETIKA SPORT TURINI RIVOJLANTIRISHDA UMUMIY O’RTA T’ALIM MAKTABLARINING JISMONIY TARBIYA DARSLARIDA YENGIL ATLETIKA TURLARINI O ‘RGATISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH SAMARADORLIGI //Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS). – 2021. – T. 1. – №. 3. – S. 348-355.
13. Xo‘jamkeldiyev G. S. et al. KICHIK RAZRYADLI O’RTA MASOFALARGA YUGURUVCHILARNING MUSOBAQA OLDI TAYYORGARLIGI //Central Asian Research Journal For Interdisciplinary Studies (CARJIS). – 2021. – T. 1. – №. 3. – S. 270-274.
14. Ziyayev F. C. et al. O ‘RTA MASOFAGA YUGURUVCHI YENGIL ATLETIKACHILARNI MUSOBAQA OLDI TAYYORGARLIGI SAMRADORLIGINI OSHIRISH //Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS). – 2021. – T. 1. – №. 4. – S. 78-90.
15. Karimov F. M. i dr. BOSHLANG‘ICh IXTISOSLIK GURUHIDAGI UZUNLIKKA SAKROVCHI QIZLARNING DEPSINISH KUCHINI RIVOJLANTIRISH //Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS). – 2021. – T. 1. – №. 4. – S. 119-125.

# XALQARO BAHOLASH TIZIMINING ASOSIY XUSUSIYATLARI VA TA’LIM SOHASIDAGI AHAMIYATI

**Siddiqov Ravshan Berdimuratovich**
Ilmiy rahbar
**Shomirzayev Sherzod Toshqulovich**
O‘zbekiston Milliy Universitet tarix fakultet davlat va fuqarolik jamiyati institutlari boshqaruvi magistri 2 - kurs talabasi

***https://doi.org/10.5281/zenodo.7567495***

***Annotatsiya.*** *Mazkur maqolada xalqaro baholash dastur talablari va ta"lim tizimiga joriy etish tamoyillari haqida so"z yuritish bilan birga, PISA, PIRLS xalqaro baholash dasturlarining muhim belgilari xorijiy olimlar fikrlariga, ilmiy-tadqiqot ishlariga tayangan holda ochib berilgan.*

***Kalit so’zlar:*** *xalqaro baholash dasturlari, PISA, PIRLS, xorijiy tajribalar, ta"lim sifatini baholash milliy markazi, kasbiy kompetentlik, o`qish savodxonligi, tushunish darajasi, ta"lim tizimi.*

# КЛЮЧЕВЫЕ ОСОБЕННОСТИ МЕЖДУНАРОДНОЙ СИСТЕМЫ ОЦЕНКИ И ЕЕ ЗНАЧЕНИЕ В ОБРАЗОВАНИИ

***Аннотация.*** *В статье рассматриваются требования к международной программе оценивания и принципы ее внедрения в систему образования, а также важные особенности международных программ оценивания PISA, PIRLS, основанные на мнениях зарубежных ученых, исследовательской работе.*

***Ключевые слова:*** *международные программы оценки, PISA, PIRLS, зарубежный опыт, Национальный центр оценки качества образования, профессиональная компетентность, грамотность чтения, уровень понимания, система образования.*

# KEY FEATURES OF THE INTERNATIONAL EVALUATION SYSTEM AND THE IMPORTANCE IN EDUCATION

***Abstract.*** *This article discusses the requirements of the international assessment program and the principles of its introduction into the education system, as well as the important features of the international assessment programs PISA, PIRLS, based on the views of foreign scientists, research work.*

***Keywords:*** *international assessment programs, PISA, PIRLS, foreign experience, National Center for Educational Quality Assessment, professional competence, reading literacy, level of understanding, education system.*

## KIRISH

So'nggi yillarda yurtimizda yuz berayotgan keskin yangilanish va tub o`zgarishlar insoniyat hayotidagi barcha sohalarni globallashuv va integratsiyalashuv jarayonlari nuqtai nazaridan yangicha qarashlar, tushunchalar va munosabatlar bilan qayta ko`zdan kechirishni taqazo etmoqda. Hozirgi kunda butun dunyo bo`ylab har bir sohada globallashuv va integratsiya jarayonlari o`z aksini ko`rsatmoqda. Shu qatorda ta'lim ham davlat siyosatining ustuvor sohasiga aylandi va ushbu sohada ta'limni yangicha innovatsion g`oyalar asosida rivojlantirish bo`yicha islohotlar amalga oshirila boshlandi. Jamiyat va hayotda sodir bo`layotgan yangilanishlar ta'lim tizimiga ham yangicha innovatsion yondashuvni, ta'lim, fan va ishlab chiqarish o`rtasidagi integratsiya jarayonlarini yanada tezlashtirishga zamin yaratadi, natijada yangicha

innovatsiyalarni ta'lim jarayoniga tatbiq etish dolzarb masalalar qatoridan joy oldi. Ta’lim sifati va samaradorligini oshirishda xorij tajribalarni o`rganish, tizimga xalqaro standartlar talablarining joriy etilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tajribalarni o‘rganish, mavjud tizim bilan qiyosiy, xalqaro va xorijiy tashkilotlar bilan yaqindan hamkorlik qilish, tizimda ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro loyihalarni joriy qilish, zamon talablariga javob beradigan munosib milliy baholash tizimini takomillashtirish muhim sanaladi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi «O`zbekiston Respublikasi Xalq ta‟limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to`g`risida» gi 5712-son Farmonida 2030-yilga kelib PISA xalqaro dasturi reytingida jahonning birinchi 30 ta ilg`or mamlakatlari qatoriga kirishiga erishish hamda xalq ta‟limi tizimida ta‟lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro Pedagogik ta’lim klasteri: muammo va yechimlar tadqiqotlarni tashkil etish asosida ta‟lim sifatini baholashning milliy tizimini yaratish vazifalari belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarini tashkil etish chora tadbirlari to'g'risida"gi 997-sonli qarorida eng ustuvor vazifa qilib quyidagilar olindi: - xalqaro tadqiqotlar natijalariga asoslangan holda o'qish; - PISA, PIRLS, baholash dasturi yo'nalishidagi savollar milliy bazasini yaratish va o'quv dasturlariga integratsiya qilish. O`zbekiston Respublikasida xalq ta’limi tizimida olib borilayotgan amaliy ishlar, ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarning tashkil etilishi to`g`risida hukumat qarorining qabul qilinishi ta’lim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasidek (IEA) nufuzli tashkilot bilan hamkorlik aloqalarining yo`lga qo`yilishi ta‟lim tizimida muhim ahamiyat kasb etadi.

NATIJALAR PISA - o`quvchilarni ta'lim sohasidagi yutuqlarini jahon davlatlaridagi maktab o`quvchilarining bilimi va ularni amaliyotda qo`llay olish mahoratini baholash bo`yicha xalqaro dastur bo`lib, asosiy maqsadi - 15 yoshli o`quvchilarning o‘qish savodxonligi, matematika, tabiiy fanlar bo‘yicha savodxonlik darajalarini turli xil testlar ko‘rinishida baholashdan iboratdir. Ushbu loyihalar o‘quvchilarning ijodiy va tanqidiy fikrlashlariga, olgan bilimlarini hayotda qo‘llay olish qobiliyatlariga baho berish va keyinchalik bu ko‘nikmalarni hosil qilishga undashdir. Ushbu dastur 1997 yilda joriy etilgan bo‘lib, har uch yilda bir marta o‘tkazib kelinadi.

PISA dasturi ta'lim sohasidagi davlat siyosatiga ta'sir ko‟rsatib, har bir davlat o`tkazgan tadqiqot natijalari asosida o`zining ta'lim sohasidagi yutuq va kamchiliklarini aniqlab, boshqa davlatlarga nisbatan mavqyeini taqqoslaydi. Ta'lim tizimini takomillashtirish va rivojlantirishda o‟z strategiyasini belgilab oladi.

PIRLS (Progress in International Reading and Literacy Study) boshlang’ich sinf o‟quvchilarining matnni o‟qib tushunish darajasini baholash bo’yicha xalqaro tadqiqot dasturidir. PIRLS - tadqiqotida 50 dan ortiq davlatlar ishtirok etib kelmoqda. Mazkur xalqaro tadqiqotning maqsadi turli xil ta'lim tizimidan iborat bo`lgan davlatlardagi boshlang`ich maktab o`quvchilarining matnni o`qish va qabul qilish bo`yicha tayyorgarligi hamda o`quvchilarning har xil yutuqlarga erishishga sabab bo`luvchi ta'lim tizimidagi o`ziga xos xususiyatlarni aniqlash va baholashdan iborat. Pedagogik ta’lim klasteri: muammo va yechimlar MUHOKAMA PIRLS dasturi 2001-yilda Ta’lim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasi tomonidan tashkil etilgan. Har besh yilda o’tkaziladigan PIRLS dasturi 4-sinf o’quvchilarining o’qish savodxonligini xalqaro darajada baholaydi. O’qish savodxonligi o‟quvchilarning ilmiy va

shaxsiy muvaffaqiyatini o’sishi uchun asos bo‟lib xizmat qiladi. So`nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida ulkan iqtisodiy o`sish ko`rsatkichlariga erishilayotganligi barcha sohalarda malakali kadrlar va yetuk mutaxassilarga bo`lgan talabni yanada oshirmoqda. Bu o`z-o`zidan o`quvchilarimizning darslarga qiziqishlarini oshirish va o`qituvchilarning har tomonlama ta’lim tarbiyaga e’tiborini kuchaytirishni talab etadi.

**XULOSA**

Yuqoridagi talablarning ta’lim tizimi uchun juda muhim ekanligi, aksariyat xorijiy davlatlardagi kabi ta’lim va fan sohalari rivojlanishini baholash va monitoring qilish orqali ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan ilg`or tajribalarni sohaga jalb qilish kerakligini anglatadi. Davlatimizga ta’lim sifatini baholash xalqaro tadqiqotlarida ishtirok etish tadqiqotlarda olingan natijalar mamlakatdagi ta’lim sifati va uning xalqaro standartlarni hisobga olgan holda egallagan o`rni to`g`risida xulosalar chiqarish imkonini beradi. O`quvchilarni xalqaro PISA, PIRLS baholashning asl mohiyati o‟quvchilarda tafakkur uyg`oqligi, ularni ixtirochi, ijodkorlikka o`rgatishning asosiy belgisi hisoblanadi. O‟zbekistonda ta’lim tizimiga xalqaro tajribadan kelib chiqqan holda o`quvchilarning bilim darajasini baholash va monitoring qilishning ”Milliy dasturi”ni yaratish hozirgi kun talabiga mos keladi. Yana shuni aytish joizki, ushbu dastur zamon bilan hamnafas qadam tashlaydi hamda o`zining baholash mezonlarini zamonaviy talablarga muvofiq ravishda takomillashtirib boradi.

**REFERENCES**

1. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining ―O`zbekiston Respublikasi Xalq ta„limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to`g`risidagi‖ 2019-yil 29-apreldagi PF-5217 sonli Farmoni
2. 2017-2021 yillarda O`zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo`nalishi bo`yicha Harakatlar strategiyasi. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947 sonli Farmoni. Pedagogik ta’lim klasteri: muammo va yechimlar Pedagogical Education Cluster: Problems and Solutions Кластер педагогического образования: проблемы и решения Chirchik, Uzbekistan 1429 International Conference
3. Assessing Reading, Mathematics and Scientific Literacy: A framework for PISA 2009. OECD, 2009

# YANGI MEHNAT KODEKSI MEHNAT MUNOSABATLARIGA QANDAY O‘ZGARISHLAR OLIB KIRADI?

**M.R.Abdunazarova**
Jizzax viloyati yuridik texnikumi “Xususiy-huquqiy fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi
***https://doi.org/10.5281/zenodo.7567515***

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqola yangi qabul qilingan Mehnat kodeksi asosida kiritilayotgan yangiliklarga bag‘ishlanadi. Maqolada mehnat munosabatlarining muhim qismi bo‘lgan mehnat ta’tillari tushunchasi, turlari va ulardan foydalanish tartibi yoritib berilgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *Mehnat kodeksi, mehnat ta’tillari, ijtimoiy ta’tillar, qo‘shimcha mehnat ta’tillari, uzaytirilgan mehnat ta’tili.*

# КАКИЕ ИЗМЕНЕНИЯ ВНЕСЕТ НОВЫЙ ТРУДОВОЙ КОДЕКС В ТРУДОВЫЕ ОТНОШЕНИЯ?

***Аннотация***. *Данная статья посвящена нововведениям, внесенным на основании вновь принятого Трудового кодекса. В статье описаны понятие, виды и порядок использования отпусков, которые являются важной частью трудовых отношений.*

***Ключевые слова:*** *Трудовой кодекс, трудовые отпуска, социальные отпуска, дополнительные трудовые отпуска, удлиненный трудовой отпуск.*

# WHAT CHANGES WILL THE NEW LABOR CODE BRING TO LABOR RELATIONS?

***Abstract.*** *This article is devoted to the innovations introduced on the basis of the newly adopted Labor Code. The article describes the concept, types and procedure of using vacations, which are an important part of labor relations.*

***Key words:*** *Labor Code, labor holidays, social holidays, additional labor holidays, extended labor leave.*

Ma’lumki, 1995-yil 21-dekabrda qabul qilinib, 1996-yil 1-aprelda kuchga kirgan amaldagi Mehnat kodeksi bugungi kun talablariga, bozor munosabatlariga to‘la javob bera olmay qoldi. Shuning uchun, mehnat sohasidagi qator muammolarni, mehnat bozoridagi vaziyatni inobatga olib, bozor iqtisodiyoti talablaridan kelib chiqqan holda, qonuniy hal qilishda huquqiy asos bo‘lib xizmat qiluvchi yangi Mehnat kodeksi 2022-yil 30-oktabrda qabul qilindi va 6 oy muddat o‘tgach kuchga kirishi belgilandi. Yangi Mehnat kodeksi 2 qism, 34 bob va 621 moddadan iborat bo‘lib, mehnatga oid munosabatlarni tartibga solishga xizmat qiladigan asosiy qonun hisoblanadi.

Xususan, yangi Mehnat kodeksida xodimlarning asosiy huquqlaridan biri bo‘lgan-mehnat ta’tillari bo‘yicha quyidagi qoidalar belgilanishi nazarda tutilmoqda:

Ta’tillarning turlari Mehnat kodeksda ish beruvchi bilan tuzilgan mehnat shartnomasi asosida mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan xodimlar uchun ta’tillarning quyidagi turlari nazarda tutilgan: har yilgi mehnat ta’tili; ijtimoiy ta’tillar; ish haqi qisman saqlanadigan ta’til; ish haqi saqlanmaydigan ta’til.

**Xodimning ta’til olish huquqini ta’minlash kafolatlanadi**. Ish beruvchi: xodimlarga qonunchilikda kafolatlangan ta’tillar berishi; xodimlarga davomiyligi qonunchilikda kafolatlanganidan kam bo’lmagan ta’tillar berilishini ta’minlashi; ta’tillar berish tartibiga rioya etishi; xodimlarga jamoa kelishuvlarida, shuningdek jamoa shartnomasida va mehnat haqidagi

boshqa huquqiy hujjatlarda yoxud mehnat shartnomasida nazarda tutilgan ta'tillar sohasidagi qo'shimcha huquq va kafolatlarni berishi shart.

Ta'tilda bo'lgan davrda xodimning ish o'rni (lavozimi) saqlanib qoladi va xodim bilan tuzilgan mehnat shartnomasini ish beruvchining tashabbusiga ko'ra bekor qilishga yo'l qo'yilmaydi. Ta'til davrida xodimning ish o'rnini (lavozimini) saqlab qolish va xodim bilan tuzilgan mehnat shartnomasini bekor qilishga yo'l qo'yilmasligi to'g'risidagi qoidalar mehnat shartnomasi: ish beruvchining tashabbusiga ko'ra ushbu Kodeks 161-moddasi ikkinchi qismining 1-bandiga muvofiq; ish beruvchining tashabbusi bilan bog'liq bo'lmagan asoslarga ko'ra bekor qilinganda qo'llanilmaydi.

216-moddada- **Har yilgi mehnat ta'tili** tushunchasi va turlari mustahkamlangan bo'lib, unga muvofiq har yilgi mehnat ta'tili dam olish va ishlash qobiliyatini tiklash uchun ish o'rni (lavozimi) hamda o'rtacha ish haqi saqlab qolingan holda xodim ishdan ozod etiladigan, xodimga har yili ish yili davomida beriladigan vaqt davridir. Barcha xodimlar, shu jumladan o'rindoshlik asosida ishlaydigan xodimlar har yilgi mehnat ta'tiliga chiqish huquqiga ega. Har yilgi mehnat ta'tilining turlari quyidagilardan iborat: asosiy mehnat ta'tili (har yilgi asosiy eng kam yoki har yilgi asosiy uzaytirilgan); ushbu Kodeksning 222-moddasida nazarda tutilgan tartibda asosiy eng kam yoki asosiy uzaytirilgan ta'til bilan jamlab hisoblanadigan qo'shimcha mehnat ta'tilidan iborat.

217-moddaga ko'ra, endilikda har yilgi asosiy eng kam mehnat ta'tilining davomiyligi yigirma bir kalendar kunni tashkil etadi. Amaldagi Mehnat kodeksiga ko'ra bu muddat o'n besh ish kunidan kam bo'lmagan muddatni tashkil etar edi.

**Har yilgi asosiy uzaytirilgan ta'til** esa quyidagilarga yoshi va sog'lig'ining holati hisobga olingan holda beriladi:

-o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan shaxslarga –o'ttiz kalendar kun;

-I va II guruh nogironligi bo'lgan xodimlarga – o'ttiz kalendar kun.

-Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari xodimlariga davomiyligi yigirma yetti kalendar kun bo'lgan har yilgi asosiy uzaytirilgan ta'til beriladi, bundan davlat xodimlarining ayrim toifalari uchun qonunda har yilgi asosiy uzaytirilgan ta'tilning uzoqroq davomiyligi belgilangan hollar mustasno.

**Har yilgi asosiy uzaytirilgan ta'tillar** ayrim toifadagi xodimlar uchun ham ular mehnat vazifalarining o'ziga xos jihatlari va xususiyatlariga hamda boshqa holatlarga qarab belgilanadi. Bunday ta'tillar olish huquqiga ega bo'lgan xodimlarning ro'yxati va ushbu ta'tillarning davomiyligi qonunchilikda belgilanadi. Qonunchilikda belgilanganidan tashqari, har yilgi asosiy uzaytirilgan ta'tillar berish, shuningdek har yilgi asosiy uzaytirilgan ta'tilning davomiyligini uning qonunchilik bilan kafolatlangan davomiyligiga nisbatan ko'paytirish jamoa kelishuvlarida, shuningdek jamoa shartnomasida, ichki hujjatlarda, mehnat shartnomasida nazarda tutilishi mumkin.

**Har yilgi qo'shimcha ta'tillar**: mehnat sharoitlari noqulay ishlarda band bo'lgan xodimlarga; noqulay tabiiy-iqlim sharoitlarida ish bajarayotgan xodimlarga; bitta tashkilotda yoki tarmoqda ko'p yillik ish stajiga ega bo'lgan xodimlarga (Amaldagi Mehnat kodeksida nazarda tutilmagan); qonunchilikda, jamoa kelishuvlarida, shuningdek jamoa shartnomasida, ichki hujjatlarda, mehnat shartnomasida nazarda tutilgan boshqa hollarda beriladi.

Bitta tashkilotda yoki tarmoqda ko'p yillik ish staji uchun beriladigan har yilgi qo'shimcha mehnat ta'tili xodimga u bitta tashkilotda yoki tarmoqda ishlagan har besh yil uchun

davomiyligi ikki kalendar kun boʻlgan, biroq jami sakkiz kalendar kundan koʻp boʻlmagan har yilgi qoʻshimcha mehnat taʼtili beriladi. Ushbu qoida qonunchilikda oʻziga ish staji uchun har yilgi uzoqroq qoʻshimcha mehnat taʼtillari berilishi nazarda tutilgan ayrim toifadagi xodimlarga nisbatan tatbiq etilmaydi. Qonunchilikda, jamoa kelishuvlarida, shuningdek jamoa shartnomasida, boshqa ichki hujjatlarda yoki mehnat shartnomasida har yilgi qoʻshimcha mehnat taʼtilini olish huquqini beruvchi ish stajiga boshqa ish beruvchidagi yoxud boshqa tarmoqdagi ish stajini kiritish nazarda tutilishi mumkin. Agar xodim ish beruvchining taklifiga koʻra ishga qabul qilingan boʻlsa, ushbu har yilgi qoʻshimcha mehnat taʼtilini olish huquqini beruvchi ish stajiga boshqa ish beruvchidagi ish staji kiritiladi.

Bundan tashqari, bugungi kunda mavjud boʻlgan ish beruvchi xodimning ishlash darajasidan qat'i nazar, uning pensiya yoshiga toʻlishi munosabati bilan mehnat shartnomasini bekor qilishi holatlari Xalqaro mehnat tashkilotining Mehnat va bandlik sohasidagi kamsitishlarni bartaraf etish toʻgʻrisidagi konvensiyasiga mos kelmasligi nuqtai nazaridan kelib chiqib, yangi Mehnat kodeksida xodimning pensiya yoshiga toʻlishi munosabati bilan mehnat shartnomasini bekor qilish asosi chiqarib tashlanmoqda.

Shuningdek, moslashtirilgan ish vaqti rejimi belgilanayotgani ham kodeksning muhim jihatlaridan biri boʻlib, bu ma'lum bir xodimlar yoki tashkilotning tarkibiy boʻlinmalaridagi xodimlar guruhlari uchun ish kunining boshlanishi, tugashi va umumiy ish kuni muddatini xodimning oʻziga tartibga solishga ruxsat etgan holda ish vaqtini tashkil etish usuli hisoblanadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, qabul qilingan yangi Mehnat kodeksi mehnat munosabatlarini toʻla qamrab olishiga, xodimlar huquqlarining chin maʼnodagi ifodachisi boʻlishiga ishonch bildiramiz.

**REFERENCES**

1. Oʻzbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 16.10.2018- y., 03/18/498/2051-son).
2. Oʻzbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi // Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1996-y., 1-songa ilova; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.05.2019-y., 03/19/542/3177-son.
3. Oʻzbekiston Respublikasi yangi Mehnat kodeksi. T. 28.10.2022 OʻRQ-798
4. 4.Mehnat huquqi. Mualliflar jamoasi. Darslik. T.: TDYU nashriyoti, 2019.

# TARIX FANINI O'QITILISHIDA TARIXIY - BADIIY ASARLARDAN FOYDALANISH

**Xoshimov Lochinbek Jumaboy o'g'li**
Andijon viloyati Shahrixon tumani 35 - maktab
Tarix fani o'qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7567879

***Annotatsiya.*** *Tarix o'qitilishida tarixiy - badiiy adabiyotdan foydalanish ko'rgazmali vositalar bilan birga tarixiy voqealarni lo'nda va yorqin tushuntirish zarur. Ushbu maqolada, tarix fanini o'qitilishida tarixiy - badiiyasarlardan foydalanishning o'rni va ahamiyati ochib berildi.*

***Kalit so'zlar:*** *Tarix, tarixiy - badiiy adabiyot, "Bibliotarix", "Shiroq", "Singan setor", "Jayhun ustida bulutlar" qissasi.*

# ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИСТОРИЧЕСКИХ ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ПРОИЗВЕДЕНИЙ В ПРЕПОДАВАНИИ ИСТОРИИ

***Аннотация.*** *В преподавании истории необходимо использовать историческую и литературную литературу, наряду с наглядными пособиями, для ясного и яркого объяснения исторических событий. В данной статье раскрыта роль и значение использования историко - художественных произведений в преподавании истории.*

***Ключевые слова:*** *история, историко-литературная литература, «Библиоистория», «Широк», «Разбитый сетор», повесть «Облака на Джейхуне».*

# USE OF HISTORICAL ARTISTIC WORKS IN THE TEACHING OF HISTORY

***Abstract.*** *It is necessary to use historical and literary literature in the teaching of history, along with visual aids, to clearly and vividly explain historical events. In this article, the role and importance of using historical - artistic works in the teaching of history has been revealed.*

***Key words:*** *History, historical and literary literature, "Bibliohistory", "Shirok", "Broken Setor", short story "Clouds on Jayhun".*

Tarix fanining dolzarb muammolarini hal etishda bugungi kun talablari, ya'ni o'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiya bilan uyg'unlikda olib borishni, tahlil qilishni talab etadi. Bu muammolarni, bo'lib o'tgan voqeliklarni o'quvchilarga yetkaza olish o'qituvchining kasbiy mahoratiga bog'liq.

Ma'lumki, milliy va umummadaniy kompetensiyaning shakllantirishda tarix darslarida o'quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ulardagi og'zaki nutq va siyosiy voqealarni to'g'ri baholay olish orqali ishonch hissini tarbiyalash, tarix fani o'qituvchisi oldidagi muhim vazifadir.

Xo'sh, ushbu kompetensiya talablarini amalga oshirishda o'qituvchi darslikda berilgan ma'lumot bilan yuqoridagi ko'zlangan maqsadlarga qanday erisha oladi?

Yillar davomida darslikdagi mavzular hajmi, ma'lumotlari qisqarib, ba'zida o'zgarib kelmoqda, shu bois ham o'qituvchi qo'lida xrestomatiya va qo'shimcha ma'lumotlar bazasi shakllangan. Darslarda mavzu yuzasidan qo'shimcha ma'lumotni yana qaerdan olish mumkinligini aytib o'tish, o'quvchilarni axborotlar bilan ishlash kompetensiyasini shakllanishiga ma'lumotlar bazasini yarata olish, asosiylarini tanlay olish va tahlil qila bilishiga yordam beradi. **"Bibliotarix" metodi** hisoblangan ushbu yo'nalishda o'quvchiga tushuncha berish, mavzuga doir tarixiy badiiy asarni targ'ib qilishga erishiladi.

Eng muximi ko’rsatib o’tilgan ushbu kitobni o’quvchilardan jilla qursa 5 - 6 o’quvchi topib o’qib chiqgan bo’lsada, olingan ta’surotlarini tengdosh - tengdoshga tamoyili asosida sinfdosh do’stlariga tavsiya etsa, o’qib ko’rib o’rtoqlashsa, biz ko’zlagan maqsadimizga erishgan bo’lardik.

Tarixdek soxasi keng qamrovli fanni o‘rgatishda pedagog, fanlararo uzviy bog‘lanishdan unumli foydalansa bo‘ladi. Adabiyot o‘qitilishida nasr va nazm yo‘nalishida ko‘plab tarixiy ma’lumotlar berilishi va umumta’lim darsliklarida majmua turkumida o‘qitilishi, so‘nggi yillarda maktabda axborot resurs markazining takomillashuvi, yuqorida aytilgan barcha kompetensiya talablarini amalga oshirishda tarix fanida badiiy adabiyotlardan foydalanish imkoniyatini beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev ta’kidlaydilar: “Men shunga aminmanki, kitobsiz taraqqiyotga, yuksak ma’naviyatga erishib bo‘lmaydi. Kitob o‘qimagan odamning ham, millatning ham, kelajagi yo’q”.

Darhaqiqat, kitobxonlik inson ma’naviyatini, dunyo qarashini o‘sishiga, tarixiy voqea-hodisalarni daliliy va tahliliy o‘rganishga imkoniyat beruvchi vositadir.

O‘quvchi biror bir tarixiy voqea- hodisani o‘rganish jarayonida o‘sha voqeani bilishining o‘zi kifoya qilmaydi, balki hodisani tahlil qila bilish yo‘li orqali jamiyat rivojlanishi yoki uning tanazzulining sabab oqibatlarini o‘rganishi zarurdir.

Bu yo‘nalishda maqsadga erishish uchun tarix darslariga o‘quvchini qiziqishini oshiradigan yagona mezon mutloqo lektorning – o‘qituvchining chiroyli va ta’sirli nutqiga bog‘liq. O‘qituvchining nutq madaniyati yuksak bo‘lishi ko‘proq so‘z boyligi bilan belgilanadi. Buning uchun albatta badiiy adabiyotni - tarixiy badiiy asarlarni o‘qib chiqqan bo‘lishi kerak.

Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyevning “Kitob maxsulotlarini chop etish va kitob mutolasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ibot qilish” bo‘yicha komissiya tuzish to‘g‘risidagi farmoyishi pedogoglarga o‘ziga xos kompetensiyaviylikni talab qiladi.

Tarix o’qitilishida tarixiy - badiiy adabiyotdan foydalanish ko‘rgazmali vositalar bilan birga tarixiy voqealarni lo‘nda va yorqin tushuntirish zarur. Masalan: 7 - sinf “O‘zbekiston tarixi” fanidan “Muhammad Xorazmshoxning mamlakat mudofasiga oid tadbirlari va uning oqibatlari” mavzusini olaylik. Darsning tarbiyaviy maqsadiga erishishda o‘quvchilarni vatanparvarlik, tinchliksevarlik, insonparvarlik, do‘stlik, jasorat va mardlik kabi hislarini tarbiyalashuchun imkoniyatlar mavjud.

O‘quvchi mavzuni o‘zlashtira olgani bilan, ularda yuqoridagi aytilgan his tuyg‘ular rivojlantirilmasa, o‘qituvchi o‘zoldiga qo‘ygan maqsadiga erisha olmaydi. Buning uchun o‘qituvchi Mirkarim Osimning tarixiy asari “O‘tror”dan foydalanishi mumkin, yoki Baxtiyor Abdug’afforovning “Sulton Jaloliddin Manguberdi” asaridan parcha o‘qib berishi yoki diskka yozilgan parchani eshittirishi mumkin. Parcha g‘oyat ta’sirli his-tuyg‘u va hayajonlar bilan o‘qilgan bo‘lishi zarur. O’qituvchi “Jaloliddin Manguberdi – vatan qaxramoni” mavzusi haqida gapirar ekan, Mirkarim Osimning “Singan setor” asarining 49-betidagi quyidagi parchani keltirishi mumkin

Amaldagi bu kabi tadbirlar “Bibliotarix” metodini tengdosh-tengdoshga tamoyili asosida tavsiya etilayotgan asarlarni ommalashishiga sabab bo’ladi. Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyev: “Jaxolatga qarshi ma’rifat bilan kurashish, yosh avlodni gumanistik g‘oyalar, milliy g‘urur va iftixor ruxida tarbiyalash zarur”, deb ta’kidlaganidek, o‘quvchilarda mafkuraviy

immunitetni xosil qilishda, ma’rifatli shaxs etib tarbiyalashda tarixiy voqealarni badiiy talqini orqali, tarixiy shaxslar hayotini yorqin ranglarda ochib berish bilan, farzandlarimizda mintalitetimizni chuqurroq anglab yetish, vatan taqdirini o‘z taqdiri deb bilish ko‘nikmasini xosil qilishga erishamiz. Tarix fanini o’qitilishida badiiy adabiyotlardan foydalanishda yana quyidagi tartibga amal qilish kerak: foydalanilayotgan asar, roman, she’r yoki ilmiy - ommabop nashrning, iloji boricha darsgaolib kirib ko‘rsatilishi va tavsiya etilayotgan kitob maktab kutubxonasida mavjudligiga e’tibor berilishi kerak. Shu ma’noda mavjud kitoblardan kelib chiqib, mavzu yuzasidan quyidagi kitoblardan foydalanish tavsiya etiladi.

Quyida davlat ta’lim standartlari asosida tuzilgan o’quv rejasi mavzulariga mos ba’zi tarixiy asarlardan parchalar va ularga qisqacha izoh berib o’tamiz.

6-sinf Tarix fanida “O‘rta Osiyoda ahmoniylarning bosqinchilik yurishlari”. “Shiroq”. Tarixiy qissasida ayni mavzuni keng yoritgan parcha bo’lib, asar shu tarixiy voqea haqidagi eng ishonarli qo’shimcha afsona va bo’rtirishlarsiz yozilgan tarixan aniq dalillar asosidagi qissa bo’lib, o’quvchiga u o’zi turli adabiyotlardan va bolalar ro’znomalarida o’qigan hikoyalari orasida siz tarixchi sifatida aynan shu adabiy talqini – eng to’g’risi deb tavsiya berishingiz mumkin. Shuning o’zi o’quvchida o’tmish haqidagi kitoblarni tarix nuqtai nazaridan bohalab borish, kerakligini tushunish va bu borada tanlovni to’g’ri tashkillash malakasini yuzaga kelishiga sabab bo’ladi.

7-sinf “O‘zbekiston tarixi” darsligidagi ”Mavoraunnhr va Xorazmning madaniy hayoti“ mavzusida Ibn Sinova Abu Rayhon Beruniy haqidagi Mirkarim Osimning “Jayhun ustida bulutlar” qissasi orqali ham ko’plab ma’lumotlarni olishimiz mumkun.

6-sinf: Tarix darsligidagi “Eng qadimgi odamlarning rivojlanish bosqichlari” mavzusida “Diniy e’tiqodni vujudga kelishi”, “totemizm” haqidagi rejalariga tushuncha berishda bu aqidalar Chingiz Aytmatovning “Oq kema “ asaridan qirg’iz xalqida hozirgacha saqlanib kelayotganini misol qilib ko’rsatish mumkin

**REFERENCES**

1. “Shiroq”, “To’maris” M. Osim. ToshkenT. :35-bet M. Osim 2. “Oq kema” Chingiz Aytmatov. Toshkent T. :78-bet.
2. “Sulton Jaloliddin Manguberdi” Baxtiyor Abdug’ofurov. “Yangi asr avlodi” 4. “Amur Temur-rivoyat va haqiqat” Nazrulla Axmedov. Qomuslar bosh
3. tahririyati. 1996yil.
4. “Ulug‘bek xazinasi" OdilYoqubov. Toshkent. 1994y 102-bet.
5. “Singan setor’kitobidagi”’Jayhun ustida bulutlar”qissasi M. Osim. 2012 yil.
6. “Ulug‘bek xazinasi" OdilYoqubov. Toshkent. 1994y 102-bet.
7. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida” va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to‘g‘risida”gi qonunlari;Lex. uz.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 sentyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida”gi PQ-3304-son qarori; Lex. uz.

# ZEBO MIRZAYEVA IJODIDA ISHQ VA OTA OBRAZI

**Isakulova Nafisa Maxmudovna**
TerDu Adabiyotshunoslik yo'nalishi 2 - kurs magistranti
+998-99-717-27-89
**Isaqulova Charosxon Maxmud qizi**
Sho'rchi tumani, 8 - sonli umumta'lim maktabi ona tili va adabiyoti
fani o'qituvchisi

https://doi.org/10.5281/zenodo.7567896

**Annotatsiya.** *Maqolada hozirgi zamonaviy o'zbek shoiralarining vakilasi, Zebo Mirzo she'riyati, yangilanayotgan o'zbek she'riyati, undagi badiiy tafakkurning ifoda shakli, lirik qahramon kechinmalari, ruhiy olamidagi evrilishlar, ko'ngil ehtiyojlari haqida to'xtalamiz. Shoira Zebo Mirzo ijodida badiiy tafakkur, obrazlar uyg'unligi, ijodidagi asosiy ramzlar- sevgi, yurak, yillar, lahza, tun, baxt, tong, yomg'ir, shamol, nur, olov, xayol kabi obrazlardan unumli foydalanadi. Obraz, badiiy obraz – voqelikni faqat san'atga xos usulda o'zlashtiradigan va o'zgartiradigan xarakterlovchi estetik kategoriya. Keng ma'noda obraz ijodkorning fikr-tuyg'ulari singdirilgan hayot manzarasidir. Badiiy obraz esa inson badiiy taffakkuri mahsulidir (tafakkur – bu narsalar mohiyatini ochib beruvchi g'oyalar harakati. Uning quroli nutq). Ijodkor badiiy obraz orqali dunyoni anglaydi.*

**Kalit so'zlar:** *ishq, yomg'ir, tun, tong, tabiat, obraz, ota, qahramon, muhabbat.*

# ОБРАЗ ЛЮБВИ И ОТЦА В ТВОРЧЕСТВЕ ЗЕБО МИРЗАЕВОЙ

**Аннотация.** *В статье речь пойдет о представителе современных узбекских поэтов, поэзии Зебо Мирзо, обновленной узбекской поэзии, форме выражения в ней художественного мышления, переживаниях лирического героя, эволюции духовного мир и потребности души. Поэт Зебо Мирза использует в своем творчестве художественное мышление, гармонию образов, основные символы - любовь, сердце, годы, миг, ночь, счастье, утро, дождь, ветер, свет, огонь, воображение. Образ, художественный образ есть характеризующая эстетическая категория, осваивающая и преобразующая действительность уникальным для искусства способом. В широком смысле образ – это сцена жизни, в которую вложены мысли и чувства творца. Художественный образ - продукт художественного мышления человека (мышление - движение идей, раскрывающих сущность вещей. Его орудие - речь). Художник познает мир через художественный образ.*

**Ключевые слова:** *любовь, дождь, ночь, утро, природа, образ, отец, герой, любовь.*

# THE IMAGE OF LOVE AND A FATHER IN THE WORKS OF ZEBO MIRZAYEVA

**Abstract.** *In the article, we will focus on the representative of modern Uzbek poets, the poetry of Zebo Mirzo, the updated Uzbek poetry, the form of expression of artistic thinking in it, the experiences of the lyrical hero, the evolution of the spiritual world, and the needs of the soul. Poet Zebo Mirza uses artistic thinking, harmony of images, the main symbols in her work - love, heart, years, moment, night, happiness, morning, rain, wind, light, fire, imagination. An image, an artistic image is a characterizing aesthetic category that assimilates and transforms reality in a way unique to art. In a broad sense, an image is a scene of life in which the thoughts and feelings of the creator are embedded. An artistic image is a product of human artistic thinking*

*(thinking is the movement of ideas that reveal the essence of things. Its tool is speech). The artist understands the world through an artistic image.*

***Key words:*** *love, rain, night, morning, nature, image, father, hero, love.*

Kirish. Badiiy taffakkur doim yangilanishga muxtoj. Hozirgi davr she'riyati vakillari ijodida u doimo yangilanib, o'zgacha ruh kasb etmoqda. Shu o'z ruhiy olamlaridan kelib chiqqan holda, hayot haqiqatini izlamoqdalar. Bu haqiqatlar esa har birimizning ichki olamimizda yashaydi. Shuning uchun ham bir xil rangda yoki qiyofada emas. Bugungi o'zbek she'riyatida ayollar ham munosib o'rin tutmoqda. Ayni damda Zulfiyaxonim va Halimaxonim izdoshlari: Halima Ahmedova, Farida Afro'z, Guljamol Asqarova, Hosiyat Rustamova, Zebo Mirzo, Nodira Afoqova, Go'zal Begim, Rislig'oy Hotamova, Mehrinoz Abbosova kabi shoiralarimiz ijodida o'ziga xoslik va takrorlanmas ranglar jilosini ko'ramiz. She'riyat shunday bir olamki, o'quvchini o'z olamiga tortib ketadi. Badiiy bir go'zal olamki, unda sen ruhiy olaming bilan xuddi bir egizaklar misol yonma-yon kezasan.

Zebo Mirzayeva ijodiga o'quvchining nazari tushar ekan, eng birinchi ishq olovida charsillab yonayotgan yurakni ko'radi. Darhaqiqat dunyo yaralibdiki, inson muhabbatga talpinib yashaydi. Har bir adabiyot vakili uni qalamga oladi. Uning turli qiyofalarini ular asarlarida ko'rasiz. Har safar yangi tug'ilgan chaqaloq misol insonni hayajonga soladi. To'g'ri shoira faqat ishq haqida emas, boshqa mavzularda ham qalam tebratadi. Ammo shu she'rlarida ham muhabbatning otashin taftini sezasiz. Shoira ijodining yana bir xususiyati shuki, insonga xos har bir xususiyat tabiat orqali namoyon bo'ladi.

Har bir davr vakilining o'z olami, o'z xarakter xususiyati, o'z so'zi bor. Zulfiyani o'qisangiz sog'inchni tuyasiz, Halimaxonimda esa ayollar ozru va armonlari, mehribon ona timsolini ko'rasiz. Zebo Mirzo ijodida oshiq ayol qalbini ko'rasiz. O'zganiki emas, faqat o'ziga tegishli bo'lgan hislarni tuyasiz. Bir paytlar shoirlar o'z hislarini qalbiga ko'mib, „o'zgalar'' hislarni kuylagan bo'lsa, hozirgi davr she'riyat vakillari o'z „men''idan kelib chiqqan holda ijod qilmoqdalar. Bu yaxshi albatta, biroq hozirda intim mavzudagi asarlarga ko'proq e'tibor bermoqdalar. Balki bu ham bizdan oldingi davr oqibatidir. Axir endi ular kuylagan, orzu qilgan davr kelganligi buning asosiy sababi bo'lishi ham mumkin. Mana, endi ular asrlar davomida bo'g'zida bo'g'lib qolgan o'zligiga turli odimlar bilan kirib kelmoqdalar. Shunday ijodkorlardan biri Zebo Mirzodir.

Muhabbat - qadim tuyg'u. U asrlar davomida turli davrlarda, turli shakllarda kuylanib kelgan. U har safar qaytadan tug'iladi. Yosharadi va kuchga to'ladi. Muhabbat bu – ulkan dard va ayni damda shirin hamdir. Yaratgan ham uni sig'dira olishi uchun insonga ulkan qalbni ato etgan. Shoirlar o'z dardlarini o'quvchi qalbiga so'zlar orqali yetkazadilar.

Demak, she'r ulkan dardning obrazli so'zlar bilan ifodalanishi ekan. Uning o'zi bu dard bilan yonmas ekan, o'zgalarni ham yondirolmaydi. Qalbi otash bo'lmasa, o'zga qalblarni isita olmaydi. Shunday ekan bu his-tuyg'ular tirik bo'lishi kerak. Shu ma'noda, she'r – ko'ngil suratini so'zlar orqali ifodalanishidir.

Musavvirlar ko'zlari bilan ko'rgan olamni tasvirlaydilar, shoirlarning bu boradagi qalami so'z deyish mumkin. U bilan hatto peyzajni ham tasvirlay olasiz. Ularni ritmga soladi. Ijodkor ohang va so'zlar qo'llash mahorati orqali o'quvchi ruhiy olamini zabt etadi. She'riyatda ko'ngil suratini chizgan shoira – Zebo Mirzo ijodini ham o'quvchi muhabbatsiz tasavvur eta olmasa kerak.

Axir qadim-qadimdan bu mavzuni kuylamagan ijodkor bo'lmasa kerak. Zebo Mirzayeva ijodida ishq yangilanadi. Go'yo shoira butun umri davomida faqat ishq yo'lidan yurayotgan yo'lovchi misoli. Olam va odam haqidagi o'y-kechinmalarini badiiy obrazlar orqali tasvirlaydi. Shoira qalb tug'yonlarini kuylash barobarida, ba'zan ortga boqib kimdandir uzr so'raydi. Dunyo dunyo bo'libdiki, ota farzandi uchun qalqon, suyanguvchi tog'dir. Ota mehrini ko'rsata olmaydi, ammo qalbi ummon uning. Quyidagi she'ri orqali shoira lirik qahramoni otasi oldida o'zini gunohkor sezadi:

Uni xafa qildim, bora olmayman,
Nazdimda u qahri qattiq, bardoshli.
Hech kimdan so'ramas, hech kimsa ko'rmas,
Bilaman, yo'l poylar ko'zlari yoshli...

Shu birgina to'rtlikni o'qish jarayonida, lirik qahramonning qalb iztiroblari, tavba-iqrorlarini guvohi bo'lasiz. She'r boshida „ota'' so'zi ishlatilmaydi, ammo birinchi misralardan kimga atalganliginianglaysiz. Qahramon nazdida u „qahri qattiq'', lekin uning yo'lga mushtoqligini „gunohkor'' kutayotganini, xafa bo'lsa-da qalbida ulkan mehr ummoni borligini „yoshli ko'zlar'' o'xshatishi orqali ifodalaydi shoira. Keyingi misrada

Men ham ko'rsatmadim, ichimga yutdim,
Yuragimga oqqan ko'ksim qonini.
Hech kimsa, hech kimsa bila olmadi
Ammo uning kabi jismim jonini!

deydi u. Ayni shu yerda qahramon qalbi ham azobda ekanligi namoyon bo'ladi. O'zigagina ayon emas bu pushaymonlik, buni „qahri qattiq'' bo'lgan inson boshqalarga nisbatan ko'proq biladi. Chunki ularni qalb mehri bir butun. Farzandi oyog'iga tikon kirsa, onadan ham ko'proq joni qiynaladigan inson har safar sizni himoya qiladi. Keyingi misralarda shoira bu holatni juda ta'sirli o'quvchi qalbini larzaga keltirar darajada ifodalaydi:

Dunyo sellariga borolmasdi tik,
Qalbimga bermasa edi hur qonni!
Axir, u do'raxning og'zini yopib,
Ko'tarib turibdi to'qqiz osmonni.

Farzand ota-onasidan kuch olib yashaydi. Inson taqdirning har qanday sinoviga bardosh berishida uni suyaydigan, dardini oladigan kishi bo'lmas ekan u albatta dovdiraydi. Kishi yuragini asrayotgan inson uni pok holatda ham saqlaydi va uni shunga undaydi. Shu sababli ham shoira „u do'zaxning og'zini yopib, Kutarib turibdi to'qqiz osmonni'' deyayotgandir. Axir ular bizga yaxshi va yomon narsalardan xabar beradi, tarbiyalaydi. Va so'ngida shunday deydi:

Payga'mbar emas yo avliyo emas,
Ammo men uchun u eng buyuk inson.
Oriyatday ulug', mehrday baland –
Hazrati Otam u, Hazrati Otam!

So'nggi misralar qahramon dilidan go'yoki hayqiriqday otiladi nazarimda. Otaday buyuk zotga ta'zim qilish kerak. Har bir farzand uchun ota bir ideal shaxs hisoblanadi. Uning ori farzand, u esa buni oqlashi kerak. Ota farzand uchun namunadir. Shuning uchun ham u matonat va qudrat timsolidir. Ha, bu she'rda o'quvchi uchun shoiraning yana bir qirrasi ochiladi. Har safar shoiraning ishqiy mavzudagi she'rlariga o'rgangan o'quvchi uning istedodiga yana bir bor tan beradi. Aslida, uning she'rlarida yoniq Ruhni ko'rasiz. Inson botinidagi tug'yonlar,

purtanalar guvohi bo'lasiz. Botiniy hislarini ifoda etishda u o'zgacha yo'ldan, ishq yo'lidan boradi. Hamma haqiqatlarni kaliti ISHQ deyayotgandek. Inson qalbida bu tuyg'uga joy yo'q ekan, demak, u o'zini va asl haqiqatlarni anglashga qodir emas.

O'zbekiston xalq shoiri Xurshid Davron „Ishq'' to'plamiga so'zboshi yozar ekan shunday deydi: „Shoira she'rlari ko'z bilan emas, qalb bilan idrok etib mutolaa qilishni talab etadi'', - deydi deydi. Darhaqiqat shoira she'rlarini mutolaa qilar ekansiz, avval quloqlaringizga, so'ngra qalbingizga olislardan hazin kuyning sadosi kirib keladi. Devona ruh shu mungga monand raqsga tushayotganiga guvoh bo'lasiz.

Tuni bilan yoqqan yomg'irlar
Yuvib o'tdi tonglar yuzini.
Men izladim
o'zim uchun sir
bo'lgan baxtning yorug' yuzini...

Ijodkor tabiat bilan bir butunlikda ta'sirchan obrazlar yaratadi. Tabiat, tun, yomg'ir, tong obrazlarini ko'z oldiga keltirish bilan o'quvchi yo'lini inson qalbi, botiniga buradi. Badiiy qahramon bilan birga BAXTni izlab yo'lga tushadi. Yuqoridagi yomg'ir obrazi orqali qahramon ruhiyatini ko'rish mumkin. Uning ruhiyatidagi ga'm-alamlar(tun)ni yuvib o'tadi. Ayni tasvirlar uning tafakkuri kuchi mahsulidir. Shoirani musavvir deb atasak, so'zlar uning mo'yqalami. So'z olamida san'at asarlarini yaratadi. Uni faqat yurak qo'li bilan paypaslash, qalb ko'zi bilan kuzatish mumkin. Shoira she'rlarida YOMG'IR obraziga bot-bot murojat qiladi:

Yomg'ir yog'ar
Nurlar yomg'iri,
Kulib, yig'lab ochiladi kun.
Yuragingni qiynar ishq siri,
Derazaga qaraysan mahzun.

Yomg'irdan so'ng tabiat tozalanadi. Inson ham tabiatning bir bo'lagi, shoiraning insoni tabiat. Bu ayni inson ruhiyati bilan bog'liqdir. Qahramon ruhiyatidagi g'uborlar yomg'ir obrazi orqali yuviladi, tabiatda yomg'irdan keyingi holat tozalanish, qahramon qalbida ham ro'y beradi. Lirik qahramon qaytadan dunyo yuzini ko'radi. Endi u qalbiga nazar soladi, uning haqiqati bilan yashaydi. Yomg'irlar orqali barchasi g'am-tashvishlari yuviladi.

Nafasim tiqildi:
- Men boray, - dedim,
Ketish yo'qlik edi,
Qolmoqlik – o'lim.
Behush kalovlanib chiqdim-u, qotdim,
Eshikka osilib yig'ladi qo'lim.

Ijodkor she'rlarini mutolaa qilar ekansiz, ulkan qalbni, uning otash haroratini sezasiz. U ishq gadosi. Shoira yuragida Shirin shijoati, Layli sadoqati yashaydi. Uning uchun muhabbat hamma narsa, ishqsizlik o'lim. Ta'sirchanlikni esa o'z o'rnida qo'llangan metafora bajargan. Baxtni izlaydi. Baxt aslida nimada, sevmoqdami yoki sevilishda? Shoira uchun sevmoqlik muhim. Sevolmaslik baxtsizlikdir asli. Shoira qalbidagi mitti haqiqat bag'rida ulkan, oliy haqiqatlar ulg'aymoqda. Shuning o'zi baxtdir u uchun.

Xulosa. Zebo Mirzayeva ko'ngil odami, uning she'rlari yuragida dunyoga keladi. Haqiqatda oshiq bo'lgan insongina shunday yozadi. Boshqacha yozolmaydi. She'rlarida

tuyg'ular tasvirni chizadi. „Bekajon'' jurnalining 2004-yil, 39-sonida shoira bilan suhbat jarayonida „she'r, sizning ta'rifingizda, nima'', - savolga, shunday javob beradi: „ She'r – eng katta ozodlik. Ko'ngil ozodligi, ruhning ozodligi...'',- deb javob beradi shoira. So'zda erkinlik bor, unda ruh bor, unda kuch bor. Shoira shu kichik olamida katta olam yaratadi. Shuning uchun ham shoira she'rlari TIRIK.

**REFERENCES**

1. Zebo Mirzayeva. She'r – eng katta ozodlik// Bekajon. 2004. – 39-son
2. Zebo Mirzayeva. Ishq. – Toshkent: Akademnashr, 2011. – 126 b.
3. Hamdamov U. Yangilanish ehtiyoji. – Toshkent: Fan, 2007. –
4. Hamdamov U. Badiiy tafakkur tadriji. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2002. –

# INFLUENCE OF RUMI'S WORK "MASNAVI MA'NAVI" ON UZBEK LITERATURE

**Raximjonova Safarmo**
(graduate student of Termiz State University)

***https://doi.org/10.5281/zenodo.7567650***

***Abstract***. *Masnavi Ma'navi is one of the masterpieces of Maulana Jalaluddin Muhammad bini Bahauddin Walad Balhi Rumi, and this book is described as one of the great works in Eastern and Western literature. In this article, Jalaluddin Rumi's concept of "perfect man" and his influence on Uzbek literature are philosophically analyzed and studied. First of all, in the scientific research of Maulana Rumi and his legacy, it is always necessary to keep in mind his brilliant personality.*

***Keywords:*** *Holy Qur'an, Masnavi spiritual, perfect human, Arabic-Persian, Valad Ozbudak, A. Schimmel.*

# ВЛИЯНИЕ ПРОИЗВЕДЕНИЯ РУМИ "МАСНАВИ МА'НАВИ" НА УЗБЕКСКУЮ ЛИТЕРАТУРУ

***Аннотация.*** *Маснави Ма'нави является одним из шедевров Мауланы Джалалуддина Мухаммада бини Бахауддина Валада Балхи Руми, и эта книга описывается как одно из великих произведений восточной и западной литературы. В данной статье философски анализируется и исследуется концепция Джалалуддина Руми о «совершенном человеке» и его влияние на узбекскую литературу. Прежде всего, в научных исследованиях Мауланы Руми и его наследия всегда необходимо иметь в виду его яркую личность.*

***Ключевые слова:*** *Священный Коран, Маснави духовный, совершенный человек, арабо-персидский, Валад Озбудак, А. Шиммель.*

When talking about the influence of Maulana Rumi's work "Masnaviy Ma'naviy" on Uzbek literature, it is known to us that a great spiritual heritage is being inherited. This work, consisting of six large volumes, contains 26,840 verses (51,370 verses), contains 70% of the meaning of the Qur'an, and the work contains comments on 690 hadiths and 270 stories on various topics.

This book was created over a period of ten years and was completed in 1269, four years before the death of Maulana. During the previous ten years, there were interruptions (660 and 662 AH, 1241 and 1244 AD), sleepless nights (there is information about this in verses 1807-1808 of volume 1 in Masnavii Ma'navii), open - there are cases such as being satisfied with a spiritual morsel despite being full (bytes 3990-3994 of the 1st volume).

This work, written in the form of a masnavi, in the style of an Arab-Persian epic, incorporates other styles. For example, scholars call Masnavi's spiritual work a didactic epic (Yevgeny Bertels), a complex of epic poems (T. Purnomdarian), a mystical book (P. Nicholson), a mystical encyclopedia (A. Schimmel) and want to define its genre uniqueness. Were

Hundreds of books have been written commenting on Masnavi's spiritual work. Authors of such books, such as Sultan Valad, Ahmed Aflaqi, Faridun Sipahso, Sham'i (1000), Sarvari (1001), Ismail Anqaravi (11th century), and Maulana Shibli Numani (1326) "Bahr ul-ulum" ", Abdualida (13th century) in Urdu, Hanifa Abdulhakim's commentaries in Urdu and English were published. "Masnaviyi Sharif" was translated from Persian to Turkish by Suleiman Nahifi in his weight (1150), Obiddin Pasha, Valad Ozbudak, Mithat Bahari Baitur, and translated it in prose. In Europe, Joseph Hammer Purgstal, Friedrich Ruckert (through this same translation Hegel got

to know "Rumi"), German Ete translated into German, and Clemens Hoard into French. Haydar Khorazmi's work "Javahir ul-asrar" and Boborahim Mashrab's "Mabdayi Nur" were written in Uzbek language in the form of "Masnavii Ma'navi" commentaries. Also, Askar Mahkam's review of the translation "Masnaviy Ma'naviy" has seen the world

Masnavi, a unique poetic interpretation of the Holy Qur'an and hadiths, consists of the comments and interpretations of the Sharifs, as the mawlana himself explained in the sermon of this work: "It is a salve for hearts, dispelling sorrows, great, obedient mirzas (angels), other than pure people.

It is a book that is forbidden to touch, that does not come before or after (any) falsehood, provides abundant sustenance, purifies and improves morals, and discovers the meanings of the Holy Qur'an.

It is emphasized that almost every verse in this work is based on a Qur'anic verse or a hadith, or, on the contrary, the meaning of a verse or a hadith is revealed with the help of an event, event, or narration, and many quotes from the holy book for Muslims are taken. In Masnavi, verses of the Qur'an are quoted 760 times, in 745 places, 690 hadiths are used.

A certain king, Majnunnig, became curious about the reason why he was wandering in the desert. He orders them to find Laila and bring her to him. When the king saw Laila, he was shocked. Because in front of him was a dark, ordinary girl. The king asked:

"Put the madman in these waters, Layli, are you still there?" It's amazing, you don't have an extraordinary beauty! You don't look any different from ordinary women. Why did Majnun fall so in love with you?

Without hesitation, Lily answered:

"My king, excuse me." You are not a Madman, you must have the eyes of a Madman and look at me through his eyes to see the beauty in me. The king could not say anything in response to these righteous words, he remained silent ("Masnaviyi Ma'naviy", volume 1, verse 407)

Another copy of Masnavi is a work written in Turkestan. This work was written in 1490 by the calligrapher Muhammad's son Katip Hasan. Meanwhile, this work was donated to the museum in 1981 on behalf of Nasrullah Yasa.

The book has a brown leather cover, tree and flower patterns on the covers, and animal figures such as a lion, a rabbit, and a dragon are depicted in the middle. The text is written in four columns. Each column has 23 rows[9].

Written on black leather of Masnavi, this copy was donated by Nechmeddin Okyay to Rumi's "Mavlano Museum" in 1976. The paper is dark straw color without watermarks, the text is written in Nesih calligraphy, its illuminations are geometric and floral patterns, there are 25 lines per page and two stanzas per line.

**REFERENCES**

1. Commentary on Masnavi 40 narrations. Tashkent "Navroz" publishing house, 2019. ISBN 998-9943-56-428-2.
2. Jalaluddin Rumi. I can't fly without wings. Narratives and stories (translated from Persian by Jamal Kamal) — Tashkent: 1994. Page 29
3. Jalaluddin Rumi. Masnavi Spiritual. With translation commentary. Translator Askar Mahkam. Tashkent: "Sharq" publishing house, 1999.

4. Reference to the Qur'an. With the hands of great, obedient mirzas (i.e., angels) (probably copied from Lavhul Mahfuz). (Surat al-Abasa, verse 15-16)
5. Reference to the Qur'an. Only those who are ablutions and pure can catch it. (Sura Al-Waqya verse 79).
6. Reference to the Qur'an. Neither before it nor after it, (no) falsehood will come (that is, no book or document can come and invalidate the Holy Qur'an, because it was) revealed by the Lord of wisdom and praise. (Surah Fusillat, verse 42).
7. Stories from Masnavi. Tashkent. Muharrir Publishing House, 2007.
8. Comments on "Masnavi Ma'navi" stories. Nainoma. Third edition: Tashkent 2019.
9. Museum in Konya, Turkey
10. Karim Zamani. Masnavi is spiritual. Comment. Manuscript.

# IJTIMOIY SIYOSAT – O‘ZBEKISTONDA DAVLAT SIYOSATINING MUHIM USTUVOR YO‘NALISHI

**Samadov Jahongir Rustamqul o’g’li**
Mirzo Ulug’bek nomidagi Òzbekiston Milliy Universiteti. Tarix fakulteti. Davlat va fuqarolik jamiyati institutlari boshqaruvi yònalishi 2 - kurs magistri

https://doi.org/10.5281/zenodo.7568280

***Annotatsiya.*** *Mazkur maqolada ijtimoiy siyosat – o‘zbekistonda davlat siyosatining muhim ustuvor yo‘nalishi ekanligi haqida ma’lumot keltirilgan.*

***Kalit so’zlar:*** *tashqi siyosat yuritish, inson huquq va erkinliklarini ta’minlash, millatlararo totuvlik, ijtimoiy barqarorlik, “temir daftar”, “ayollar daftari”, “yoshlar daftari”.*

# СОЦИАЛЬНАЯ ПОЛИТИКА – ВАЖНОЕ ПРИОРИТЕТНОЕ НАПРАВЛЕНИЕ ГОСУДАРСТВЕННОЙ ПОЛИТИКИ В УЗБЕКИСТАНЕ

***Аннотация.*** *В данной статье представлена информация о том, что социальная политика является важным приоритетом государственной политики в Узбекистане.*

***Ключевые слова:*** *ведение внешней политики, обеспечение прав и свобод человека, межнациональное согласие, социальная стабильность, «железная тетрадь», «женская тетрадь», «молодежная тетрадь».*

# SOCIAL POLICY IS AN IMPORTANT PRIORITY DIRECTION OF STATE POLICY IN UZBEKISTAN

***Abstract.*** *This article provides information about the fact that social policy is an important priority of state policy in Uzbekistan.*

***Key words:*** *conducting foreign policy, ensuring human rights and freedoms, international harmony, social stability, "iron notebook", "women's notebook", "youth notebook".*

Avvalo, shuni ta’kidlash kerakki, biz mamlakatimiz yangilanish davriga qadam qo‘ygan birinchi kunlardan boshlab ochiq, pragmatik va amaliy tashqi siyosat yuritish, dunyodagi barcha taraqqiyparvar mamlakatlar, ayniqsa, qo‘shni davlatlar bilan yaqin do‘stlik va hamkorlik munosabatlarini mustahkamlashga ustuvor ahamiyat qaratmoqdamiz.

O‘zbekiston bugun o‘zining uzoqni ko‘zlagan siyosati bilan mintaqamiz va jahondagi siyosiy jarayonlarning faol ishtirokchisiga aylandi.

Inson huquq va erkinliklarini ta’minlash, so‘z va diniy e’tiqod erkinligi, gender tenglik bo‘yicha erishayotgan yutuqlarimiz nufuzli xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda izchil mustahkamlanib bormoqda. O‘zbekiston XDPning ijtimoiy adolat va ijtimoiy himoyaga muhtoj kishilar manfaatlarini himoya qilishga bel bog‘lagani uning mamlakat siyosiy kuchlari so‘l qanoti bo‘lishini belgilaydi. Ijtimoiy sohani rivojlantirish bo‘yicha kompleks tadbirlar, birinchi navbatda, fuqarolarni ijtimoiy himoya qilish va sog‘lig‘ini saqlashni kuchaytirish, aholini arzon va sifatli dori vositalari bilan ta’minlash, fuqarolarning bandligi va real daromadlarini oshirish, arzon ijtimoiy uy-joylar qurilishini kengaytirish, nogironligi bo‘lgan shaxslarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlashga qaratilmoqda.

O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasi O‘zbekistonning mustaqilligini asrash va mustahkamlash, vatanimizning gullab-yashnashini ta’minlash, mamlakatda fuqarolik va millatlararo totuvlik, ijtimoiy barqarorlik, har bir oila va butun xalq farovonligiga erishish kabi umummilliy manfaatlarni o‘z mafkurasi va siyosiy faoliyatining poydevori, deb biladi.

Ijtimoiy siyosat mamlakatimizda davlat siyosatining eng muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolmoqda. Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning aniq manzilli xususiyatga ega ekani har bir muhtoj insonga uning real ehtiyojini hisobga olgan holda yordam ko‘rsatish imkonini bermoqda. Bunda ushbu toifaga mansub hech bir inson e’tibordan chetda qolmasligiga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Shu asosda jamiyatimizning ijtimoiy manzarasi butunlay o‘zgarmoqda, samarali boshqaruvning natijadorligi oshmoqda, eng muhimi, odamlarning hayotga, mehnatga, o‘zining taqdiri va ertangi kunga ishonchi ortmoqda. Yurtimizda ijtimoiy muammolarni hal etishning mutlaqo yangi va o‘ziga xos tizimi yaratildi. Keyingi paytda “temir daftar”, “ayollar daftari”, “yoshlar daftari”, “mahallabay” va “xonadonbay” ishlash usullari aynan shu maqsadda joriy etilmoqda. Shu asosda muammoga oid mavhum ko‘rsatkichlar emas, balki yordam va ko‘makka muhtoj har bir oila va fuqaroning, xotin-qizlar, yoshlarning muammolari o‘z joyida aniq o‘rganilmoqda, ular vaqtida va samarali hal etilmoqda.

Bugungi kunda xalq farovonligini, odamlarning hayot darajasini har tomonlama oshirish, buning uchun yangi ish o‘rinlari, daromad manbalarini yaratish, kambag‘allikni qisqartirish, qishloq va shaharlarimizni obod qilish iqtisodiy strategiyamizning eng muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolmoqda. Keksalar, nogironlar, og‘ir ahvolga tushib qolgan insonlarni qo‘llab-quvvatlash, ularga mehr va muruvvat ko‘rsatish kabi ezgu an’analar bugungi kunda yangicha ma’no-mazmun, amaliy harakatlar bilan boyib, takomillashib bormoqda.

Bu borada, ayniqsa, “Obod qishloq”, “Obod mahalla”, “Besh muhim tashabbus”, “Har bir oila – tadbirkor”, “Yoshlar – kelajagimiz” kabi dasturlar o‘z ijobiy natijasini bermoqda. Birgina “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlari doirasida 2021 yilda barcha shahar va tumanlardagi jami 8 mingga yaqin qishloq va mahallada qurilish, ta’mirlash va obodonlashtirish ishlari amalga oshirilmoqda.

Ta’kidlash kerakki, milliy tariximizda qishloq va mahallalarimizni obodonlashtirishga hech qachon bunchalik katta mablag‘ ajratilmagan, eng muhimi, ularning rivojiga bu qadar jiddiy e’tibor berilmagan. Muhtoj fuqarolarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri, aniq maqsad bilan moddiy qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirishda asosiy e’tibor aholining kam ta’minlangan qatlamlariga dotatsiya berish emas, balki ularga daromad topish uchun zarur sharoit va imkoniyatlar tug‘dirishga qaratilmoqda. Keyingi besh yilda oliy ta’limga qabul kvotasi 3 barobar oshirilib, joriy yilda 182 ming nafar yoshlar uchun talaba bo‘lish imkoniyati yaratildi. Bu – umumiy qamrov 28 foizga yetdi. Bizga ma’lumki, bundan 4 yil avval bu raqam atigi 9 foizni tashkil etardi.

Bu borada davlat grantlari 21 mingtadan 47 mingtaga ko‘paytirildi ehtiyojmand oilalarga mansub 2 ming nafar qizlarga hamda nogironligi bo‘lgan shaxslarning ham 2 ming nafariga bu yil oliygohlarga kirish uchun alohida grantlar ajratildi. 2030 yilga qadar bitiruvchilarni oliy ta’lim bilan qamrab olish darajasini 50 foizga yetkazish reja qilinmoqda. Mamlakatimizda uzluksiz milliy ta’lim-tarbiya tizimining barcha bosqichlarini uyg‘un va mutanosib rivojlantirishga alohida e’tibor berilmoqda. Oxirgi 5 yilda bolalarimizni maktabgacha ta’lim bilan qamrab olish darajasi ilgarigi 27,7 foizdan 2 barobar ortib, 60 foizga yetgan, bog‘chalar soni esa 3 marta ko‘payib, 14 mingdan oshdi. Qishloqlarda ishsiz yoshlarni bandligini ta’minlash maqsadida ularga 10 sotixdan 1 gektargacha yer maydonlari ajratish boshlandi.

Yoshlar o‘rtasida kambag‘allikni kamaytirish, ularni o‘zini o‘zi band qilishga rag‘batlantirishda “Yoshlar daftari”, yoshlar dasturlari doirasida amalga oshirilmoqda. Jumladan, “Temir daftar”dagi oilalar farzandlari bo‘lgan 2 mingdan ziyod talabaning kontrakt pullari to‘lab

berildi. Yurtimizda ota-onasidan ajragan, mehrga muhtoj bolalarni qo‘llab-quvvatlash, ularning ta’lim-tarbiya olishi, ish joyi va uyiga ega bo‘lishi, jamiyatda munosib o‘rin topishi, “Mehribonlik uylari”, maxsus maktab-internatlar va “Bolalar shaharchasi”ning moddiy-texnik bazasi, kadrlar salohiyatini mustahkamlashga jiddiy e’tibor berilmoqda.

“Mehribonlik uylari” va maxsus maktab-internatlarda ta’lim-tarbiya samaradorligini oshirish bo‘yicha yangi tizim joriy etildi. Ana shunday o‘quv-tarbiya muassasalari tarbiyalanuvchilarining muammolarini o‘rganish hamda hal etish, ularning orzu-istaklarini ro‘yobga chiqarish bo‘yicha yangi tizim – “Mehr daftari” joriy etildi. Shuningdek, yetim va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni uy-joy bilan ta’minlash tartibi belgilandi. Unga ko‘ra, o‘ziga biriktirilgan uy-joyga ega bo‘lmagan va turar joyga muhtoj sifatida hisobda turgan ana shunday bolalarga ular 18 yoshga to‘lgan yili umumiy maydoni 25 kvadrat metrdan kam bo‘lmagan 1 xonali, voyaga yetgan bolalar o‘rtasida nikoh tuzilgan holatlarda esa 50 kvadrat metrdan kam bo‘lmagan 2 xonali kvartiralar ajratiladi.

Mamlakatimizda ehtiyojmandlarga ijtimoiy yordam ko‘rsatishning keng qamrovli mexanizmi yo‘lga qo‘yilmoqda. Prezident farmoniga muvofiq, ijtimoiy yordamning barcha turlarini bir xil mezon va bir xil hujjatga muvofiq taqdim etish imkonini beradigan “Yagona ijtimoiy reyestr” yaratilmoqda. Yil oxiriga qadar tizim barcha hududlarda bosqichma-bosqich joriy etiladi. Bu tizim orqali ma’lumotlarni tizimlashtirish har bir ijtimoiy yordam oluvchining ehtiyoj darajasini hisobga olgan holda amalga oshiriladi. U oila a’zolarining daromadlari, mol-mulki, bank hisoblari, olingan kreditlar va avtomobillar to‘g‘risidagi turli idoralarning tegishli bazalarida mavjud bo‘lgan ma’lumotlar asosida aniqlanadi.

Istiqbolda “Yagona ijtimoiy reyestr” dasturining to‘liq ishga tushirilishi inson omilini sezilarli darajada minimallashtiradi va natijada ijtimoiy yordamni taqsimlashdagi korrupsiya holatlarini imkon qadar bartaraf etadi. Shuni ham ta’kidlash kerakki, aholining eng kambag‘al qatlamlarini ijtimoiy himoya qilish va qo‘llab-quvvatlash siyosati ehtiyojmand oilalarga beriladigan yordam pullari bilan cheklanib qolmasdan maqsad — aholining iqtisodiy farovonligi darajasini oshirish uchun sharoit yaratishdir.

Odatda kambag‘allikka tushib qolishdan ko‘ra, undan chiqish anchayin mushkul hisoblanadi. Shu bois davlat tomonidan ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash odamlarni bosqichma bosqich kambag‘allikdan chiqarish hisoblanadi — boshqacha aytganda, odamlarni ana shu holatda tutib turishdan ko‘ra, kambag‘allar toifasidan chiqarish vositasi sifatida ko‘proq o‘zini ko‘rsatishi uchun tegishli sharoitlarni yaratish davlat ijtimoiy siyosatining ustuvor vazifasi etib belgilangan.

## REFERENCES

1. Sh.M.Mirziyoyev Yangi O’zbekiston Taraqqiyot Strategiyasi.
2. T- «O`zbekiston», 2022
3. Sh.M.Mirziyoyev - Erkin Va Farovon Demokratik O’zbekiston Davlatini Birgalikda Barpo Etamiz. T-«O`zbekiston», 2016
4. Sh.M.Mirziyoyev - Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. T-«O`zbekiston», 2017

# GENDER TENGLIGI TUSHUNCHASI VA UNING HUQUQIY ASOSLARI

**Rasulova Tursunoy Tòlqinovna**
Jizzax viloyati yuridik texnikumi òqituvchisi

https://doi.org/10.5281/zenodo.7571449

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqola Gender tengligi tushunchasi va uning huquqiy asoslari yoritib berilgan. Maqola davomida turli fikr va mulohazalar berilgan bo'lib, maqola so'nggida xulosa va takliflar keltirilgan.*

***Kalit so'zlar:*** *inson huquqlari, milliy qonunchilik, BMT, Xotin-qizlar huquqi, Gender tengligi.*

# ПОНЯТИЕ ГЕНДЕРНОГО РАВЕНСТВА И ЕЕ ПРАВОВАЯ ОСНОВА

***Аннотация.*** *В данной статье раскрывается понятие гендерного равенства и его правовая основа. На протяжении всей статьи приводятся различные мнения и комментарии, а в конце статьи даются выводы и предложения.*

***Ключевые слова:*** *права человека, национальное законодательство, ООН, права женщин, гендерное равенство.*

# THE CONCEPT OF GENDER EQUALITY AND ITS LEGAL BASIS

***Abstract.*** *This article explains the concept of gender equality and its legal basis. Throughout the article, various opinions and comments are given, and conclusions and suggestions are given at the end of the article.*

***Key words:*** *human rights, national legislation, UN, Women's rights, Gender equality.*

**Mavzuning dolzarbligi:** Inson huquqlari demokratik huquqiy davlatning eng muhim belgisi, har bir davlatning demokratik taraqqiyot darajasini ko'rsatuvchi muhim mezondir. Shuning uchun ham, inson huquqlari xalqaro va milliy qonunchilik tizimda muhim o'rin tutadi. Zero, inson manfaatlari ta'minlangan, huquq va erkinliklar himoyalangan davlatgina huquqiy va demokratik davlat deb e'tirof etilidi.

Bugungi kunda inson huquqlarining ajralmas qismi sifatida ayollar huquqlari, erkak va ayol o'rtasidagi ijtimoiy huquqiy tenglik masalasini islomiy qadriyatlar bilan umumiy farqlovchi tomonlarini o'rgatish dolzarb mavzulardan biridir. Chunki hozirgi kunda dunyoning ko'plab mintaqalari ayollarning jamiyatdagi mavqei, ular huquqlarining poymol etilayotganligi bilan bog'liq jiddiy muammolar yuzaga kelyapti.

Jamiyatimiz taraqqiyotining hozirgi bosqichida o'zbek xalqi ma'naviyatini, jumladan siyosiy va diniy savodxonligini oshirish jarayonida ayollar huquqiga doir qoidalarni ilmiy tahlil qilish ijtimoiy zarurat sifatida belgilanmoqda. Bu jarayonda ayollar masalasi asosiy omillardan biri sifatida muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida xalqimiz ma'naviyati, huquqiy madaniyatini oshirish jarayonida ayollar huquqiga doir qoidalarni ilmiy tahlil qilish ijtimoiy zaruratga aylanmoqda.

(Hadisi sharifdan)

Keyingi paytlarda ayollar, ularning tabiati, huquq va erkinliklari haqida yozilayotgan asarlar yomg'irdan keyingi qo'ziqorindek ko'payib ketdi. Darhaqiqat, hozirgi kunda ular to'g'risida turli izlanishlar olib borilmoqda, tibbiy jihatlari o'rganilmoqda, ularning huquq va erkinliklari diniy va boshqa turli nuqtai nazardan ko'rib chiqilmoqda. Qisqasi ayollar mavzusi tom ma'noda bozori chaqqon, moda mavzulardan biriga aylanib bormoqda. G'arblik feministlar,

ya'ni hayotning barcha jabhalarida, ayollarni birinchi o'ringa olib chiqishni o'z oldilariga maqsad qilib qo'ygan ayollar harakati tarafdorlari bu sohada peshqadamlikka intilmoqdalar.

Beshik tepasidagi alladan umrning so'ngi nafasigacha hayotning barcha muhim voqealarida ayol erkaklar bilan hamdam, hamnafas. Uy sohibasi. Turmush achchiq-chuchuklari ham uning gardaniga tushadi. Eng qadim zamonlardan buyon ayol erini ovdan qaytishini kutar ekan, ziroatchilik bilan shug'ullandi, turmushda kerakli asbob-uskunalar yasab, hunarmandchilikka asos soldi. Hayotdagi barcha madaniy an'analarni saqlab, rivojlantirib, davom ettirib, keyingi avlodlarga ham yetkazish uning zimmasida bo'ldi. Farzand tarbiyasi ko'chmanchilikdan voz kechishga olib keldi. Shu sababli birinchi uy-joylar qurlib, o'troq hayot tarzini boshlab bergan ham ayol zoti bo'ldi. Shunday qilib, hozirgi davr taraqqiy etgan madaniyatining avvalidan ayol erkak bilin hamnafas bo'lgan.

Ibtidoiy jamoa a'zolarining ijtimoiy va axloqiy teng huquqliligi moddiy boyliklarni yaratish va taqsimlash jarayonida jamoaviylikni ta'minladi. Qarindosh-urug', oila, qabila kengashida ayollar erkaklar bilan nafaqat teng huquqli, balki onalik huquqiga ko'ra ham sezilarli ustunlikka ega bo'lishgan. Tarixda matriarxatning mavjud bo'lganligi haqidagi g'oya tarafdorlari amerikalik etnograf L.G.Morgan, shotlandiyalik huquqshunos J.R.Mak-Lennom, shveysariyalik huquq tarixi bo'yicha mutaxassis I.Y.Baxofenlar izidan borgan ayollar ozodligi tarafdori Avgust Bebel (1840-1913) ayol kishining obro'si, uy sohibasi, tinchlik va totuvlik garovi, kerak bo'lsa, hakam va avliyo, muqaddas ona ekanligi haqida yaxshi so'zlar yozdi. Tarix sahnasida tez-tez qirolichalarning ko'rinib turishi, shahzoda farzandlarining yuritayotgan siyosatiga rahnamolik qilishini Avgust Bebel onalik huquqi tufayli deb bildi.

Ayollar mehnati yangicha "men", "meniki", "mening uyim" kabi tushunchalarning paydo bo'lishi bilan sekin-asta o'zining avvalgi muhim ijtimoiy ahamiyatini yo'qotib, endi shunchaki xonaki, uy-ro'zg'or yumushi mavqeini oldi. Shundan boshlab ayol o'z uyi, ro'zg'orining bandisiga aylandi.

Keyingi paytlarda ayollar, ularning tabiati, huquq va erkinliklari haqida yozilayotgan asarlar yomg'irdan keyingi qo'ziqorindek ko'payib ketdi. Darhaqiqat, hozirgi kunda ular to'g'risida turli izlanishlar olib borilmoqda, tibbiy jihatlari o'rganilmoqda, ularning huquq va erkinliklari diniy va boshqa turli nuqtai nazardan ko'rib chiqilmoqda. Qisqasi ayollar mavzusi tom ma'noda bozori chaqqon, moda mavzulardan biriga aylanib bormoqda. G'arblik feministlar, ya'ni hayotning barcha jabhalarida, ayollarni birinchi o'ringa olib chiqishni o'z oldilariga maqsad qilib qo'ygan ayollar harakati tarafdorlari bu sohada peshqadamlikka intilmoqdalar.

Xotin-qizlar huquqi inson huquqlari demakdir. Lekin bu uzoq yillar mobaynida tan olinmay kelindi. Jahonda xotin-qizlarga qarshi behisob jinoyatlar sodir etildi. Bu jinoyatlar zo'ravonlik, nomusni toptash, turli qiynoqlar kabi jinoyatlarni o'z ichiga oladi. Jahon jamoatchiligi xotin-qizlarga qarshi jinoyatlar haqida ilk marotaba 1980-yillarda so'z ochdi. Faqat 1985-yildagina ayollarga qarshi jinoyatlar masalasi BMT ning kun tartibiga qo'yildi.

Shundan so'ng bu mavzu eng dolzarb muammolardan biriga aylandi, ya'ni BMT 1945-yili tashkil topib, inson huquqi masalasi kun tartibidan tushmay kelayotgan bo'lsa-da, xotin-qizlar huquqlarini ham inson huquqlari ekanligi xususida yaqindagina so'z ochildi. BMT ning ayollar maqomini belgilovchi taftish guruhiga o'z navbatida "Ayollar huquqlari diskriminatsiya qilishning barcha ko'rinishlarini bartaraf etish haqida"gi Deklaratsiyasi 1965-yili taqdim etilib, 1967-yili tasdiqlandi. Shundan so'ng taftish guruhi ayollarga qarshi kamsitishning har qanday ko'rinishiga barham berish haqidagi Konventsiya ustida ish olib bordi. Bu Konvetsiya 1979-yili

qabul qilinib, 1981-yili kuchga kirdi. Xotin-qizlar uchrashuvlari nufuzi orta boshladi. Mexiko, Kopengagen, Nayrobi, Vena, Pekin, Qohiradagi uchrashuvlar ana shular jumlasidandir. Xususan, Qohira deklaratsiyasining 6-moddasida ham erkak va ayol teng huquqliligi alohida ta'kidlab o'tilgan. Unda erkak va ayollarning teng huquq va majburiyatlarga va burchlarga ega ekanligi belgilangan. Shu yillarda ko'plab norasmiy xalqaro tashkilotlar va ayollar Xerta Kuuzinen rahbarligidagi Xalqaro demokratik federatsiyasi BMT ning ayollar maqomini belgilovchi guruhida 1975-yilni Xalqaro xotin-qizlar yili deb e'lon qilinishini talab qildilar.

Bu harakat 1972-yilda boshlandi. Va nihoyat, 1975-yil BMT tomonidan Xalqaro xotin-qizlar yili deb e'lon qilindi. Shu bilan birga 1976-yildan to 1985 yilgacha bo'lgan davr xotin-qizlar o'n yilliga deb belgilandi. Mana shu vaqt davomida ayollarning yirik anjumanlari bo'lib o'tdi. 1975-yilda Mexikoda, 1980-yil Kopengagenda, 1985-yili Nayrobida o'tkazilgan yig'inlar ana shular jumlasidandir.

Shu davrda gender degan jumla kishilik iste'moliga kirib kela boshladi. Gender tengligi, gender tengligini amalga oshirish kabi mavzularda bevosita ayollar tashabbuslari bilan treninglar, davra suhbatlari o'tkazila boshlandi. Xo'sh, gender o'zi nima degani, uning mohiyatini nima tashkil etadi?

Gender (gender) – inglizcha atama bo'lib, ijtimoiy jinsiylikni ifodalaydi. Ijtimoiy jins ("gender") va biologik jins ("sex") tushunchalari esa shu asosga ko'ra farqlanadi. Atamashunoslik nuqtai nazardan gender tushunchasi feminizmning nazariy rivojlanish jarayonida, keyinchalik bevosita gender tadqiqotlari jarayonida shakllandi. Gender xotin-qizlar va erkaklarning oila va jamiyatdagi, shuningdek, madaniyatga oid munosabtlariga ta'sir etuvchi omillarni tashkil qiluvchi prinsipdir. Gender xotin-qizlar va erkaklarning o'ziga xos xususiyatlari va tegishli xatti-harakati bo'yicha tushunchalarni ham o'z ichiga oladi. U vaqt va madaniyatdan madaniyatga o'tgani sari o'zgarishi mumkin. Siyosiy makon, sinfiy va etnik mansublik, jismoniy va ruhiy nogironlik, yosh bilan bog'liq ijtimoiy holatlar majmuiyi ham genderning rolini o'zgartiradi. Gender hayotiy konsepsiyadir. Chunki u xotin-qizlarning tobe'ligi (erkaklarning baland mavqei) ijtimoiy jihatdan qanday ahvolda ekanligini ifodalaydi. Bunday hollarda tobe'lik o'zgartirilishi yoki tugatilishi mumkin. Gender notengligi biologik hodisa bo'lmaganligi sababli o'zgarish xususiyatiga ega.

Gender ko'proq hokimiyat masalasiga tatbiq qilinadi, ya'ni u faqat ayollar haqida emas, hokimiyat haqida hamdir. Gender shunday bir tahlilki, u bizga dunyoga yangicha nigoh bilan qarashga va quyidagi savollarga javob izlash imkonini beradi: haq-huquq kimda? erkakdami, yoki ayoldami? yoki ikkalasida hammi? Kimnning haq-huquqi yo'q? Taraqqiyot ne'matlaridan har ikki jinsning teng foydalanishlari uchun haq-huquqlar qay yo'sinda odilona taqsimlanishi kerak? Gender tahlili shu va shu kabi yechimini topib beradi. Gender konsepsiyasi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Erkaklar va ayollar o'rtasidagi munosabat. (Avvalo, haq-huquqqa oid munosabatlar);
2. Jamiyatda erkaklar va ayollarning tutgan ijitimoiy mavqei (Shaxsning hayot tarzi va buning muassasa hamda tashkiliy tizimlardagi ifodasi).

Lekin genderning ma'nosi bundan kengroq. U avvalo, taraqqiyot erkaklar va ayollarga qanday ta'sir etishini o'rganadi. Inson huquqlari tashkilotlari, ayniqsa, gender masalasida faoliyat yurituvchi tashkilotlar yuqoridagi prinsiplarni o'zlariga qonuniy asos qilib olgan holda ish olib boradilar. Bugungi kunda bu say'i haraktlar natijasi o'laroq, ayollarga nisbatan mavjud bo'lgan

bir qancha to‘siqlar olib tashlandi. Ular mehnat va siyosat sohalarda faoliyat yurita boshladilar. Davlatlar qonunchilik tizmlariga kerakli o‘zgartirishlar kiritishga majbur bo‘ldi.

Ayollar bilan bog‘liq bunday o‘zgarishlar natijasida bir qator ijobiy o‘zgarishlarga erishildi. Jumladan, Kanada, Islandiya, Shvetsiya, Norvegiya, Daniya, Finlyandiyada boshqaruvning qonunchilik tormog‘iga ayollarning jalb qilinishi tufayli sog‘liqni saqlash, ta’lim, ijtimoiy ta’minot tizimining faoliyati tubdan yaxshilandi, byudjet mablag‘larining asosiy qismi shu sohalarga yo‘naltirildi. Niderlandiya, Germaniya, Janubiy Afrika Respublikasida ayollarni davlat boshqaruv tizimiga jalb etish ancha kengaydi. Masalan, Kanada federal davlat xizmatidaga ayollar 42 % ni, yuqori lavozimlarda esa deyarli 20 foizni tashkil qilgan. AQSHlarining sobiq prezidenti B.Klinton ma’muriyati AQSH tarixida eng ko‘p ayollar ishtirok etgan ma’muriyat hisoblanadi: undagi 2500 lavozimning 40 % ni xotin-qizlar egallagan. 27 ayol prezident tavsiyasiga ko‘ra eng yuqori davlat lavozimlariga tayinlangan. Shvetsiya hukumatida 1995 yili 50 % o‘rinni ayollar egallagan. Finlyandiya hukumatining qonun-qoidalariga ko’ra davlat boshqaruvidagi xodimlarning 40 foizini xotin-qizlar tashkil qilishi shart deb belgilab qo‘yilgan.

Sovet Ittifoqi davrida esa hukumat tarkibida uchtagina ayol bo‘lgan – davlat tarbiyasi xalq komissari A.Kollontay, baliq sanoati ministri P.Jemchujnova, madaniyat ministri Ye.Furseva. Sovet ittifoqi parchalanib ketgach, uning o‘rnida qolgan MDH davlatlarida ayollarning siyosiy sohadagi o‘rni uncha yuqori bo‘lmayotganligi ko‘p bor ta’kidlanadi. Shunga qaramay O‘zbekistonda bu sohada rivojalanishni kuzatishimiz mukin. 1998-1999 yillarda ayollar oliy hokimiyat tizimida 9,4 %ni tashkil etgan bo‘lsa, 2002 yil boshlarida davlat boshqaruvi tarkibida xotin-qizlar 13,7 % ni tashkil qilgan. Ayollarni davlat siyosatidagi o‘rnini mustahkamlash uchun 2004 yilda bo’lib o’tgan ikki palatali parlament saylovlarida ham ayollarga bir qator imkoniyatlar qonunchilik bilan belgilab qo‘yildi. O‘zbekiston bu ko‘rsatkichlarga shu kabi islohotlarni amalga oshirish, uzluksizlik asosini ta’minlab beruvchi normativ hujjatlarni qabul qilishi va albatta, hukumatimizning ayollarga berayotgan katta e’tibori tufayli erishayotir.

G‘arb feministlari olg‘a surayotgan gender tengligi prinsipini mukammal deb bo‘lmaydi. Shu bilan birga u demokratiyaning yuqori cho‘qqisi ham emas. U bir qator xato va kamchiliklarga ega. Xususan, ayollarni butunlay iqtisodiyotga jalb qilish natijasida ularni xor bo‘lib, og‘ir mehnatlar ostida ezilishiga, o‘z navabatida erkaklarning o‘z rafiqalari, opa-singillari, hatto, ota-onasi uchun iqtisodiy ta’minot burchining yo‘qolishiga sabab bo‘lmoqda. Eng yomon tomoni ayollar erkaklar bilan barcha sohalarda teng bo‘lishi kerak degan g‘oyasi turli oilaviy mojarolarni kelib chiqishiga turki bo‘lmoqda.

Feministlar o‘z g‘oyalarini yoyish davomida ming yillar davomida rivojlanib kelgan o‘zaro hurmat ehtirom tuyg‘ulariga bolta urmoqda. Bizning fikrimizcha, ayollar va erkaklar o‘rtasidagi munosabatlar huquqlar tengligi shiori ostida emas, balki, bir-birini tushinish va hurmat qilish qilish asosida bo‘lmog‘i lozim.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2019-yilning 19-mart kuni yoshlarga e’tiborni kuchaytirish, ularni madaniyat, san’at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, ularda axborot texnologiyalaridan foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish, yoshlar o‘rtasida kitobxonlikni targ‘ib qilish, xotin-qizlar bandligini oshirish masalalariga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi.

Yig’ilishda davlat rahbari ijtimoiy, ma’naviy-ma’rifiy sohalardagi ishlarni yangi tizim asosida yo‘lga qo‘yish bo‘yicha 5 ta muhim tashabbusni ilgari surgan edi.

Bu tashabbuslar orasida oxirgisi juda katta ahamiyatga ega bo'lib u jamiyatda ayollarning bandligini ta'minlash va shu orqali ularga daxldorlik hissini shakllantirishdan iborat edi. Shu munosabat bilan yig'ilishda xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash masalalari ham muhokama qilindi. Shu maqsadda 2019—2020-yillarda barcha tumanlarda sendvich panellardan 195 ta tikuv-trikotaj korxonalarini tashkil etish belgilangan. Ularni qurish uchun aholi zich yashaydigan, mehnat resurslari ko'p joylar tanlab olingan. Bu korxonalarni tashkil etish natijasida xotin-qizlar uchun 24 mingdan ortiq doimiy ish o'rni yaratish ko'zda tutilgan.

Prezident mehnat qilish istagidagi ayollar ish o'rinlari sonidan ancha ko'pligini hisobga olib, korxonalarda ishni 2 smenada tashkil etish, ularda xaridorgir mahsulotlar ishlab chiqarish zarurligini ta'kidladilar.

Hozirgi vaqtda mamlakatimizda turli soha va tarmoqlarda mehnat qilayotgan ishchi va xizmatchilarning 45 foizini xotin qizlar tashkil etadi. Jumladan davlat va jamoat tashkilotlarida 1400 ga yaqin rahbarlik lavozimlarida mehnat qilmoqda. Ulardan 17 nafari senator, 16 nafari Qonunchilik palatasi deputati, 1075 nafari xalq deputatlari mahalliy kengashlari tarkibida faoliyat yuritmoqda. Ilm-fan, ta'lim-tarbiya, sog'liqni saqlash, madaniyat va san'at sohalarida mehnat qilayotganlarning 72 foizini tashkil etishi mamlakatimizdagi amaliy ishlar natijasidir.

Xulosa qilib aytganda xalqaro huquqda vujudga kelgan gender tushuncha o'zining nisbatan keng qamrovligi bilan hozirgi davrda ham eng asosiy muammoli masalaga aylanib bormoqda. Shuni qo'shimcha qilishimiz kerakki, XIX asr oxiri XX asr boshlarida xalqaro doirada ayollar huquqining toptalishi keyinchalik ularning huquqlarini tiklanishiga olib keldi va ularni himoya qilish uchun bir qator xalqaro doiradagi hujjarlar qabul qilinishi bilan yakunlandi.

O'zbekiston buyuk kelajak sari intilmoqda. Xalqimiz, Konstitusiyada ta'kidlanganidek, xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan  qoidalari ustunligini tan etgan holda, insonparvar demokratik huquqiy davlat barpo etishni ko'zlab yashayapti. Qaysi jamiyatda xotin-qizlarga munosabat yaxshi bo'lar ekak, o'sha yerda yuqori ma'naviyat, yuksak madaniyat bo'ladi, jamiyat demokratik o'zgarishlar yo'lida ildam harakat qilayotganligimizni unutmasligimiz lozim.

**REFERENCES**

1. O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi, 46-modda.
2. 2."Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi  Qonun, 2019-yil 23-avgust.
3. Sh.M.Mirziyoyev Yangi O'zbekiston Taraqqiyot Strategiyasi.
4. Sh.M.Mirziyoyev - Erkin Va Farovon Demokratik O'zbekiston Davlatini Birgalikda Barpo Etamiz. T-«O`zbekiston», 2016.
5. Sh.M.Mirziyoyev - Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. T-«O`zbekiston», 2017.
6. Ўзбекистон Республикасининг Қонуни, 02.09.2019 йилдаги ЎРҚ-562-сон
7. Kun.uz sayti.

# SHARQ MUTAFAKKIRLARINING TA'LIM - TARBIYAGA OID MA'NAVIY VA AXLOQIY QARASHLARI

**Odilbek Jumanazarov Almardon o‘g‘li**
Termiz davlat pedagogika instituti
Pedagogika va san'at fakulteti
https://doi.org/10.5281/zenodo.7572464

***Annotatsiya.*** *Maqolada Sharq mutafakkirlarining ta'lim - tarbiya, odob - axloq masalalaridagi qarashlari, islomda bolalar tarbiyasi to'g'risida so'z yuritilgan. Shuningdek, Sharq mutafakkirlarining ijodiy faoliyatidagi ta'lim-tarbiyaga oid yondashuvlar, g'oyalar, qarashlarni yosh avlodning ongiga singdirishda tarbiya usullari va vositalarini bilish, hayotda ulardan to'g'ri foydalanish pedagogik ta'lim jarayonida o'qituvchining pedagogik mahoratidagi muhim xususiyatlardan biri ekanligi ochib berilgan.*

***Kalit so'zlar:*** *axloqiy qoida, tarbiya, odob, barkamol inson, insonparvarlik, ma'naviy fazilatlar, umuminsoniy qadriyatlar, milliy qadriyat, milliy tafakkur, islom madaniyati.*

# ДУХОВНО - НРАВСТВЕННЫЕ ВЗГЛЯДЫ ВОСТОЧНЫХ МЫСЛИТЕЛЕЙ НА ВОСПИТАНИЕ

***Аннотация.*** *В статье рассматриваются взгляды восточных мыслителей на вопросы воспитания и нравственности, воспитания детей в исламе. Также знание воспитательных методов и средств внедрения идей, взглядов и идей восточных мыслителей в творчество молодого поколения, их правильное использование в жизни является одной из важных особенностей педагогического мастерства учителя в процессе воспитания. педагогическое образование.*

***Ключевые слова:*** *нравственное правило, воспитание, нравы, совершенный человек, гуманизм, духовные качества, общечеловеческие ценности, национальная ценность, национальное мышление, исламская культура.*

# UPBRINGING OF EASTERN THINKERS - ABOUT SPIRITUAL EDUCATION AND MORAL VIEWS

***Abstract.*** *The article discusses the views of Eastern thinkers on the issues of Education, etiquette, the upbringing of children in Islam. It is also revealed that knowledge of the methods and means of upbringing, their correct use in life is one of the important features in the pedagogical skills of a teacher in the process of pedagogical education in the process of instilling educational-educational approaches, ideas, views in the minds of the younger generation in the creative activity of Eastern thinkers.*

***Keywords:*** *moral rule, upbringing, decency, harmonious person, humanism, spiritual qualities, universal values, national value, national thinking, Islamic culture.*

O'zbek xalqi o'zining uzoq tarixi davomida yaratilgan ta'lim-tarbiyaga oid boy merosga ega. Bundan tashqari, avlodlarda insonparvarlik, kamtarlik, mehnatsevarlik, do'stlik, iymon-e'tiqod, mehr-oqibat, odoblilik kabi umuminsoniy fazilatlarni shakllantirishning o'ziga xos tajribasini to'plagan. Bizga ma'lumki, ma'naviy-axloqiy fazilatlar hech qachon o'z-o'zidan vujudga kelmaydi, balki ulaming kelib chiqishining haqiqiy manbai, ularni keltirib chiqargan sabablar va harakatga keltiradigan kuchlar mavjuddir. Zero, har qanday axloqiy qoidalar muayyan tarixiy zaruriyat natijasiga vujudga keladi va muayyan qonuniyat asosida rivojlanib

boradi. Shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, Sharq mutafakkirlarining ta'lim-tarbiyaga oid qarashlari bu tajribaning shakllanishiga ulkan ta'sir ko'rsatgan.

Tarbiya ham ota-onalarning burchi va farzandlarning haqqidir. "Tarbiya" so'zi arabcha "robba" fe'lidan olingan bo'lib, o'stirdi, ziyoda qildi, rioyasiga oldi, rahbarlik qildi va isloh qildi ma'nolarini bildiradi. Musulmon ulamolar "tarbiya"ni bir necha xil ta'rif qilganlar. Jumladan, imom Bayzoviy quyidagicha ta'riflaydi: "Tarbiya bir narsani asta-sekin kamoliga etkazishdir" Rog'ib Asfihoniy tarbiyani quyidagicha ta'rif qiladi: "Tarbiya bir narsani bir holdan ikkinchi holga o'tkaza borib, batamomlik nuqtasiga etkazishdir. Tarbiyaning ma'nolaridan biri, insonning diniy, fikriy va axloqiy quvvatlarini uyg'unlik hamda muvozanat ila o'stirishdir" Islomda bolalar tarbiyasi ota-onaning eng mas'uliyatli va uzoq davom etadigan burchlaridir. Boshqa burchlar ba'zi ishlarni qilish yoki mulkni sarflash bilan oxiriga etadi. Ammo tarbiya mas'uliyati bardavom bo'ladi. Zotan, ota-onaning farzand ne'matiga haqiqiy shukrlari ham aynan tarbiya mas'uliyatini sharaf bilan ado etish orqali yuzaga chiqadi.

Odob masalasini insoniyat tarixida to'laqonli ravishda Islom boshlagan, desak mubolag'a qilmagan bo'lamiz. Islomda kishining hayotidagi har bir narsaning o'z odobi bor. Dunyodagi odobga bag'ishlangan asarlarning asosini va ko'piligini Islom halqlari vakillari tomonidan yozilgan asarlar tashkil qiladi, degan gapda zarracha mubolag'a yo'q. Qadimda Sharq mutafakkirlari tomonidan ilgari surilgan qarashlar hamda g'oyalar bugungi kunda ham muhim ta'lim-tarbiyaviy manba sifatida yoshlar ongi va qalbiga ma'naviy ozuqa berib kelmoqda.

Uzoq va boy tarixga ega bo'lgan Markaziy Osiyo xalqlari o'zining ta'lim-tarbiyaga oid boy merosini yaratib, takomillashtirib, yoshlarni insonparvarlik, ilmparvarlik, mehr-oqibat, mehnatsevarlik, insonlarga va tabiatga do'stlik, sahiylik kabi umuminsoniy fazilatlar ruhida tarbiyalab kelishgan. Darhaqiqat, ajdodlarimiz tomonidan qoldirilgan bebaho madaniy meros milliy ma'naviyatimizning o'zagini tashkil etadi. Shu sababli undan bugun yoshlarimizning ta'lim va tarbiyasiga keng foydalanish maqsadga muvofiqdir. Chunki, "Ajdodlarimizdan qolgan meros millatimizning nafaqat o'tmishi, shuningdek, istiqboli uchun ham kuch va fidoiylik manbai hisoblanadi". Har bir xalqning ta'lim-tarbiyaga oid an'analari borki, ular pedagogik tafikkur taraqqiyotining asosi bo'lib xizmat qiladi va bola tarbiyasi haqidagi tasavvurlar va qarashlarni ifodalaydi. Yuqorida aytganimizdek, har bir ota ona o'z farzandlarini barkamol inson bo'lishini istaydi, o'zlari eta olmagan orzu-umidlariga bolalarining etishligini o'ylaydi. Bolalarning har bir yutug'idan quvonishadi, mag'lubiyatidan tashvishga tushishadi. Farzandlarini baxtli ko'rish ular uchun eng baxtiyor damlar hisoblanadi. Buning uchun ularga bor kuch-quvvatini sarflashadi.

O'tmishda buyuk allomalarimiz, yuksak darajadagi ma'naviyat, axloq-odob saboqlarini berganliklari, Vatan, xalq istiqboli, farovon turmush, halol mehnat, fan taraqqiyoti, inson mehnati, atrof-muhitga oqilona munosabat haqidagi o'z qarashlarini bayon qilib berganliklariga guvoh bo'lamiz.Mana shunday mangu allomalar jumlasiga Ahmad Yassaviyni kiritish mumkin. Xoja Ahmad Yassaviy o'zining ma'naviy-axloqiy qarashlari bilan bugungi kunda ham pedagogika faniga beqiyos qo'sha olganligi olib borilgan izlanishlardan ayon bo'lmoqda. "Xoja Ahmad Yassaviyning nuqtai nazariga ko'ra ayyorlik, gunohlarni yashirish o'zgalarga xiyonat hisoblanadi. Bu fikrlari bilan Xoja Ahmad Yassaviy rostgo'ylik, halollik, o'z-o'ziga talabchanlikni targ'ib qiladi. Zahmat chekkan odam sabrli, bardoshli, irodali bo'ladi, degan fikrni ilgari suradi. Hushyorlik shaxsni faol harakat qilishga undaydi. Xoja Ahmad Yassaviy hikmatlari o'quvchi shaxsini xushyorlikka, faol harakatlanishga, fitnalardan, fisqu fasod ishlardan o'zini olib qochishga undaydi. Shuning uchun ham ta'lim tarbiya jarayonida ulardan keng foydalanish

maqsadga muvofiq hisoblanadi.Yana bir yiriq allomalardan biri Burxoniddiy Marg'inoniydir. Burxoniddiy Marg'inoniyning axloqiy-huquqiy tarbiyaga oid qarashlarida diyonat, iymon, vijdon, burch, insoniylik xususidagi g'oyalari shaxsni har tomonlama va uyg'un rivojlantirishning asosiy vositasi bo'lib xizmat qilgan. Shu jihatdan qaraganda XXI asrda yashagan islom ta'limotining yirik nomoyondasi Burxoniddiy Marg'inoniyning axloqiy-huquqiy tarbiyaga oid qarashlarida erkinlik, insonparvarlik, mehnatsevarlik, iymon-e'tiqod, halollik, axloqiy poklik, odillik, birodarlik, bilimlilik, mustaqil fikr hislatlari asosiy o'rinni egallaydi [4:9]. Alloma Marg'inoniy o'zining axloqiy-huquqiy qarashlari bilan xalqimiz ma'naviyatini rivojlantirishga, musulmon dunyosi madaniyatining taraqqiyotiga hamda ijtimoiy pedagogik fikr rivojiga salmoqli hissa qo'shgan.Farzandga adab, hunar o'rgatmakni meros deb bilg'il. Agar sen xoh unga adab o'rgatg'il, xoh o'rgatmag'il turmush mashaqqatlarining o'zi unga o'rgatur. Undoqkim debdurlar, ota-ona tarbiyalamasa, kecha va kunduz uni tarbiyalaydur. Kaykovus 44 bobdan iborat bo'lgan "Qobusnoma" asarida ota-onalarning farzand tarbiyasidagi vazifa va burchlari, farzandning ota-onaga munosabati, ularni qadrlash, insonlar orasidagi muomila odobi, ularning o'zaro axloqiy munosabatlari, haqorat, qo'pollik kabi yomon odatlardan saqlanish zaruriyati bilan bir qatorda bola tarbiyasiga jiddiy e'tibor qaratish, uning kelajagi uchun ota-onaning mas'uliyati katta ekanligi kabi axloqiy masalalarga urg'u beriladi.Sharq mutafakkirlarining ijodiy faoliyatidagi ta'lim va tarbiyaga oid yondashuvlar, g'oyalar, qarashlarni yosh avlodning ongiga singdirishda tarbiya usullari va vositalarini bilish, hayotda ulardan to'g'ri foydalanish - ta'lim jarayonida o'qituvchilarning pedagogik mahoratidagi muhim xususiyatlardan biri hisoblanadi. Keyingi yillarda odob-axloq mavzuiga bo'lgan qiziqish anchagina ortdi. Chunki milliy mustaqillikka erishganimizdan so'ng, tarixiy va madaniy merosimizni o'rganishga bo'lgan ehtiyojning kuchayishi, milliy va diniy hamda ma'naviy qadriyatlarimizning mazmunidagi axloqiy g'oyalarni bilishga bo'lgan xalqimiz qiziqishlarining ortib borayotganligidir.

Ta'lim-tarbiya tizimini insonparvarlik yo'nalishini tubdan o'zgartirish va yangi zamon talablari darajasiga ko'tarishning birinchi sharti - unga bir butun tizim sifatida yondoshish va shunga muvofiq, ish olib borishdan iboratdir .

Yosh avlodda yuksak ma'naviy fazilatlarni kamol toptirish, milliy mafkurani shakllantirish, boy madaniy merosimiz, tarixiy an'analarimizga, umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, Vatanga muhabbat, istiqlol g'oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalash mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlarning hal qiluvchi omilidir. Insonlar o'zligini chuqur anglashi, mustaqillikning qadrini tobora teran tushunishi, milliy tafakkurning kengayishi va takomillashuvi, tarixiy hurlik, mustaqillik ruhining uyg'onishini ta'minlash ma'naviyat sohasidagi siyosatimizning asosiy maqsadiga aylandi .Taniqli o'zbek pedagogi Abdulla Avloniy "Tarbiya biz uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir" deb yozgan edi .Mashoyixlarning aytishlaricha, "har bir millatning saodati, davlatlarning tinch va rohati yoshlarning yaxshi tarbiyasiga bog'liqdur".A.Avloniyning "Turkiy guliston yohud axloq" asari yangi usul maktablarining yuqori sinflarida ta'lim va axloqiy tarbiya berish uchun darslik sifatida o'qitilgan. A.Avloniyning asarini chuqur o'rganar ekanmiz, biz o'sha davrda maktablarda o'quvchilarga dars berishda umuminsoniy va diniy qadriyatlari, xalq og'zaki ijodi, Qur'on oyatlari, hadislar shuningdek, buyuk allomalarimizning hikmatli so'zlaridan imkon qadar keng foydalanganliklarini ko'ramiz. Masalan, "Yaxshi xulqlar" qatoriga kiruvchi "Sabr" mavzusida: "Sabr insonlar uchun buyuk bir fazilatdurki, janobi haq sobrlarni madh qilishdur. Shariati islomiyada janobi Haq tarafidan kelgan balo va qazoga sabr qilmoq farzi ayndur" Shul xususda

so'ylanmish bir hadisi sharifning ma'nosi "ilm imonli kishilarning muhibi, hilm homiysi, aql dalili, yaxshi amal sarmoyasi, muloyimat volidi, afv axavoni, sabr hokimi vijdonidur," - deyilishi. Arablar "assabru miftohulfalah"- sabr shodlig'ning kalitidur deyurlar. Oilada bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda milliy qadriyatlardan foydalanishning milliy pedagogik va uslubiy asoslarini ilmiy-nazariy jihatdan ishlab chiqishga bugungi kundagi ehtiyoj va uni samarali hal etishning optimal yo'llarini topish asosiy muammolardan biri bo'lib qolmoqda.Shunday qilib, inson va uni tarbiyalash masalalari Sharq mutafakkirlari va allomalari o'z asarlarida insonning bilim olishi, hunar egallashi, undagi yuksak ma'naviy-ahloqiy sifatlarni ulug'laydilar va shunday fazilatlarga ega bo'lishga barchani chorlaydilar. Ma'naviy yuksak, zamonaviy ilm-fanni egallagan, ajdodlarimizning boy ma'naviy merosga sohib chiqqan avlodni hech qanday tashqi kuch, g'oya yoki mafkura aslo o'z ta'siriga tushira olmaydi. Bunday avlodni voyaga etkazgan xalqning istiqboli porloq, kelajagi buyukdir.

**REFERENCES**

1. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Baxtiyor oila. T.: "Hilol-nashr" 2013 y.
2. A.Haydarov. Inson kamoloti va milliy-ma'naviy qadriyatlar. T.: Muharrir, 2008 y.
3. M.Xajiyeva. Xoja Ahmad Yassaviyning ma'naviy-tarbiyaviy qarashlari. Avtoreferat. T.: 2004 y.
4. M.Shoxadjyaev. Burxoniddin Marg'inoniyning axloqiy-huquqiy tarbiyaga oid qarashlari. Avtoreferat. T.: 2006 y.
5. M.Hamdamova. Ma'naviyat asoslari. T.: "Fan va texnologiya" 2008 y.
6. S.Dolimov, U.Dolimov. Kaykovus unsurulmaoniy qobusnoma T.: "Istiqlol" 1994 y.
7. San'at - yoshlar nigohida. Magistrantlarning ilmiy-amaliy konferentsiyasi materiallari. T.: 2019 y.
8. A.Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. T.: O'qituvchi. 1992 y

# YOSHLARNI TURLI AXBOROT XURUJLARDAN ASRASH BURCHIMIZ

**Jaqsimuratova Gúljahan Jeńisbay qizi**
Qoraqolpog'iston Respublikasi Nukus shahri Berdaq nomidagi Qoraqolpoq Davlat Universtiteti Qoraqolpoq filologiyasi va Jurnalistika fakulteti
jurnalistika xizmat turlari 2 - kurs talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7572490

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada yoshlarimizning kelajagi uchun ularni turli axborot xurujlardan asrash burchimiz mavzusida yozilgan.*

***Kalit so'zlar:*** *yoshlar, axborot, texnologiyalar, bunyodkorlik, turli internet tarmoqlari.*

# НАШ ДОЛГ ЗАЩИТИТЬ МОЛОДЕЖЬ ОТ РАЗЛИЧНЫХ ИНФОРМАЦИОННЫХ АТАК

***Аннотация.*** *Эта статья написана на тему нашего долга защитить нашу молодежь от различных информационных атак на ее будущее.*

***Ключевые слова:*** *молодежь, информация, технологии, творчество, различные сети Интернет.*

# OUR DUTY TO PROTECT YOUNG PEOPLE FROM VARIOUS INFORMATION ATTACKS

***Abstract.*** *This article is written on the topic of our duty to protect them from various information attacks for the future of our youth.*

***Keywords:*** *youth, information, technology, creativity, various internet networks.*

Hozirda butun dunyoda globallashuv, madaniyatlararo qorishuv jarayoni kechmoqda. Bu murakkab jarayon nafaqat yoshlarga, balki kattalar dunyoqarashiga ham ta'sir etmoqda. Yoshlar ma'naviy dunyosini egallash borasida turli axborot maydonlaridan faol foydalanish «poyga»si jadallashmoqda. Rivojlangan mamlakatlar qatori mamlakatimizda ham axborot texnologiyalari kundalik hayotimizga shiddat bilan kirib keldi.

Bugun Internetdan mamlakatimiz aholisining uchdan bir qismidan ziyodrog'i foydalanayotgan bo'lsa, ular orasida yoshlar salmog' ko'proq, albatta. Barchamizga ma'lumki, yoshlar bunyodkorlik salohiyatiga ega bebaho resursdir. Bugun jamiyatimizda yoshlar faol. Ular har bir jabhada o'zlarini ko'rsatmoqdalar.

Axborot texnologiyalari sohasini o'zlashtirish va sohaning ayrim jihatlarini hayotga tatbiq etish borasida ham yoshlar bugun yetakchi. Butun dunyo bolalari qatori ular ham axborot-kommunikatsiya sohasining qulay va rivojlangan tarmog'i hisoblangan Internetdan faol foydalanmoqda.

Ular internetdan turli ma'lumotlar olish va dunyoning turli chekkalarida sodir bo'layotgan voqealardan tezkor xabardor bo'lish bilan birga, o'zaro suhbatlashish, bir-birlari bilan ma'lumot almashish bilan mashg'ul. «Bugungi kunda yoshlarimiz nafaqat o'quv dargohlarida, balki radio-televideniye, matbuot, internet kabi vositalar orqali ham rang-barang axborot va ma'lumotlarni olmoqda. Jahon axborot maydoni tobora kengayib borayotgan shunday bir sharoitda bolalarimizning ongini faqat o'rab-chirmab, uni o'qima, buni ko'rma, deb bir tomonlama tarbiya berish, ularning atrofini temir devor bilan o'rab olish, hech shubhasiz, zamonning talabiga ham, bizning ezgu maqsad-muddaolarimizga ham to'g'ri kelmaydi. Nega deganda, biz yurtimizda ochiq va erkin demokratik jamiyat qurish vazifasini o'z oldimizga qat'iy maqsad qilib qo'yganmiz».

O’z o’rnida aytish kerakki, hozirgi kunda yoshlarning aksariyati asosiy axborot manbai sifatida Internetga murojaat qilmoqda. Foydalanilayotgan axborot vositalarining katta qismi asosan «Twitter», «Facebook», «Telegram» kabi ijtimoiy tarmoqlar va video, audio portallarga to’g’ri kelsa, ma’lum bir qismigina zararli ta’sir etmaydigan, ilmiy, madaniy va ma’rifiy saytlardan iboratligini kuzatish mumkin.

Ma’lumotlarga qaraganda, bugungi kunda jahon bo’ylab Internet tarmog’ida o’z joniga qasd qilishning oson yo’llarini targ’ib qiluvchi, behayolik mazmundagi saytlar ko’paymoqda, zo’ravonlik va yovuzlikni targ’ib qiluvchi kompyuter o’yinlarini yaratish ishlari avj olgan. Ayni vaqtda, aksariyat bolalar va o’smirlar onlayn tarzda tarqatiladigan pornografiya ta’siriga butunlay tushib qolgan. Internet tarmoqlari orqali turli diniy oqimlarga da’vat etish holatlari esa bizni eng xavotirga solayotgan masaladir.

«Jahon miqyosida voqealar shiddat bilan kechayotgan bir paytda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan, Internetning beqiyos imkoniyatlaridan keng foydalanishga tayyor bo’lish matbuot, axborot va media tarmoqlari, jumladan, televideniye va radio sohasida xizmat qilishga o’zini bag’ishlagan, yetuk mutaxassis bo’lishga ahd qilgan va bu sohada o’z kelajagini ko’rmoqchi bo’lgan ommaviy axborot vositalari xodimlarining faoliyat mezoniga aylanishi zarurligini barchamiz yaxshi anglaymiz».

Bugun axborot xurujlari butun dunyoni tahlikaga solmoqda.«Hozirgi vaqtda ko’z o’ngimizda dunyoning geopolitik, iqtisodiy va ijtimoiy, axborot-kommunikatsiya manzarasida chuqur o’zgarishlar ro’y berayotgan, turli mafkuralar tortishuvi keskin tus olayotgan bir vaziyatda, barchamizga ayonki, fikrga qarshi fikr, g’oyaga qarshi g’oya, jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurashish» muhim ahamiyatga ega. Shu orqali yosh avlod ongida «axborot immuniteti»ni shakllantirish, oqni qoradan, yaxshini yomondan ajratish tuyg’ularini shakllantirish bugungi kunning dolzarb vazifasi hisoblanadi.

Binobarin, o’sib kelayotgan avlodni shunday tarbiyalash kerakki, ular axborot makoniga kirganda, faqat o’zi uchun zarur va foydali narsani olsin, Internetdan foydalanish madaniyatini o’rgansin. Bu borada ma’lum bir ishlar amalga oshirilmoqda. Lekin yoshlarda mobil aloqa vositalari orqali Internetdan ma’lumot olish madaniyatini shakllantirish masalasiga kelsak, oldimizda ulkan vazifalar hali mavjud ekanligiga guvoh bo’lamiz.

Bugungi globallashuv davrida Internet tizimi orqali mentalitetimizga mutlaqo yot mafkura va dunyoqarashni yoshlarimiz qalbi va ongiga singdirishga urinayotganlar borligi, yuqorida ta’kidlaganimizdek, xatarlidir.

Zero, mafkuraviy xurujlar, avvalo, yoshlarning ongini zaharlashga qaratilgan bo’lib, «ommaviy madaniyat» deb atalayotgan illat xalqimizning ma’naviy boyligi bo’lgan odob-axloq, ibo, or-nomus, iroda, sharm-hayo, iffat-andisha kabi fazilatlarimizni nursizlantirib, ko’p ming yillik milliy qadriyatlarimizga putur yetkazmoqda.

O’zbekiston erishayotgan, dunyo tan olayotgan ulkan yutuqlarning negizida turgan asosiy omil insondir. Buyuk ma’rifatparvar «Abdulla Avloniyning «Tarbiya biz uchun yo hayot yo mamot, yo najot — yo halokat, yo saodat — yo falokat masalasidir» degan so’zlari» bir asr avval millatimiz uchun qanchalik muhim va dolzarblik kasb etgan bo’lsa, hozirgi kunda ham o’z ahamiyatini yo’qotgani yoq.

To’g’ri, barkamol avlodni tarbiyalashda Internetdan foydalanish madaniyatini shakllantirish borasida bir talay ishlar amalga oshirilmoqda, lekin mazkur ishlarni davomiyligini ta’minlash zarur.

Olib borayotgan ishlarimizga tanqidiy nazar bilan qarab, yanada faolroq bo’lishimiz, o’z ustimizda ishlashimiz barchamiz uchun burch hamdir. Shuni unutmaslik kerakki, bugungi kunda inson ma’naviyatiga qarshi yo’naltirilgan, bir qarashda arzimas bo’lib tuyuladigan kichkina xabar ham axborot olamidagi globallashuv shiddatidan kuch olib, ko’zga ko’rinmaydigan, lekin zararini hech narsa bilan qoplab bo’lmaydigan ulkan ziyon yetkazishi mumkin.

**REFERENCES**

1. Milliy tiklanish gazetasi, 2015-yil 6-dekabr. 48(369)-son.
2. Milliy taraqqiyot yo`limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko`taramiz. SH.Mirziyoyev

# ИСПОЛЬЗОВАНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ИНТЕГРАТИВНЫХ МЕТОДОВ ПРИ ОРГАНИЗАЦИИ УРОКОВ РУССКОГО ЯЗЫКА

**Мирсадикова Мархабохон Анваровна**
Учительница русского языка средней школы 16 Дангаринского района Ферганской области

https://doi.org/10.5281/zenodo.7572548

***Аннотация.*** *В данной статье представлены проблемы формирования интереса учащихся к занятиям на уроках русского языка, проводимых в школах сегодня, их решение, а также инструкции по использованию современных интегративных методов в обучении на уроках русского языка.*

***Ключевые слова:*** *методика обучения русскому языку, интеграция, современная интегративная методика, учебный предмет.*

# USING MODERN INTERACTIVE METHODS IN ORGANIZING RUSSIAN LANGUAGE LESSONS

***Abstract.*** *Russian Russian Language Lessons This article presents the problems of forming students' interest in classes in Russian language classes held in schools today, their solution, as well as instructions on the use of modern integrative methods in teaching Russian lessons.*

***Keywords:*** *methodology of teaching the Russian language, integration, modern integrative methodology, educational subject.*

Коренные изменения в жизни нашего общества коснулись всех сторон его жизни, в том числе и народного образования. Особенно значительны были изменения, произошедшие в национальных школах различных регионов, где процесс преподавания всех учебных предметов, прежде всего русского языка и литературы, претерпел существенные изменения.

Языковая ситуация, сложившаяся в большинстве республик, недостаточное внимание к обучению родному языку привели к значительному сокращению часов, выделяемых на изучение русского языка и литературы. В связи с этим актуальными на повестке дня стали вопросы разработки новых программ по дисциплинам русского языка и литературы на основе принципов взаимосвязанного изучения этих дисциплин.

Сегодня выдвинуто новое отношение к жизни, в том числе новые требования к системе образования. Основной целью образования является не только накопление определенного объема знаний, умений и навыков учащегося, но и подготовка учащегося как самостоятельного субъекта образовательной деятельности. Деятельность учителя находится в центре современного образования. Русский язык занимает центральное место в системе школьного образования. Как средство познания истины русский язык обеспечивает не только языковые знания, но и интеллектуальное развитие ребенка, формирует понятийно-категориальный аппарат, развивает абстрактное мышление, память и воображение.

В последние годы, к сожалению, наблюдается резкое снижение интереса учащихся к занятиям русским языком, снизилось стремление детей к расширению языковых навыков, повышению грамотности и культуры речи. В настоящее время важнейшей проблемой, которая интересует всех учителей, является повышение эффективности урока русского языка как основной формы обучения и воспитания учащихся. Уроки, проводимые в одной

и той же форме, утомляют ученика. Однообразие уроков для ученика и учителя снижает эффективность учебной деятельности. Не заставлять учить, а вызывать интерес, обязанность учителя создать у ученика стремление к постоянному обучению. Молодой школьник имеет уникальные возрастные особенности: неустойчивое внимание, преобладание наглядно-образного мышления, повышенная двигательная активность, стремление к игровой деятельности, разноплановость знаний.

Все это усложняет работу учителя. Необходимо организовать активную и интересную мыслительную деятельность, чтобы удерживать внимание учащихся во время урока. Поскольку традиционные методы обучения не всегда могут обеспечить усвоение материала всеми учащимися, необходимо умело организовать учебную деятельность на занятиях.

Для формирования этой деятельности необходимо сформировать познавательную мотивацию к созданию условий. Творческий подход учителей к подготовке и проведению уроков может многое изменить в лучшую сторону для учащихся. В целях активизации учащихся, развития интереса, побуждения их к получению знаний учителю следует реализовывать рабочие и другие формы уроков - их интересные разновидности, и в результате создавать уроки с использованием современных интегративных методов. Учитель русского языка не может руководствоваться только официальными требованиями к уроку. Для совершенствования своей методической деятельности учитель должен знать традиционные и нетрадиционные формы уроков русского языка, их типологию, специфику уроков, организованных с использованием современных интегративных методов в системе образования.

Сегодня использование интегративных методов в обучении русскому языку повышает качество уроков и формирует интерес к языку у учащихся. Здесь естественно задаться вопросом, что такое интегративный метод? Как это реализовать?

Интеграция якобы не кажется необходимой в передаче знаний, но она является способом более широкого понимания человеком мира, через который учащиеся расширяют свое мировоззрение: углубляют понимание законов языка, искусства, истории, музыки, литературы, познают взаимосвязь.

Методист Б.Зийомухаммадов и Ш.Абдуллаева подчеркивают, что технология учебного процесса должна быть разработана для одного урока, одного предмета или части учебного предмета, всего учебного предмета, и показывают, что она имеет 5 принципов.

- первое - сформулировать основную цель, ожидаемую от предмета, части, учебного предмета на уроке русского языка;
- второй – разбить урок или учебный предмет на модули и определить цели, ожидаемые от каждого модуля, и систему задач, решаемых в рамках модулей;
- третья – создание тестовых вопросов внутри модуля;
- четвертая – определить способы достижения цели,
- пятая - по принципу единства особое внимание уделяется необходимым связям между частями урока и межпредметным связям. Интеграция создает возможность и условия для развития мышления. Интеграция является важным средством индивидуальной работы со студентом и его активизации.

Организуя интегративные занятия, можно вести дискуссию на русском языке, обучать фантазии, организовывать межгрупповые соревнования, сессии вопросов и

ответов. Основной целью использования таких современных видов уроков является активизация деятельности учащихся в учебном процессе, достижение высокого уровня усвоения учебного материала. Такая технология учит студентов по-другому представлять мир, связывать практику с жизнью, не заучивать теоретические правила дословно, понимать гармонию личности и общества, добиваться разнообразия мыслей, мыслить нестандартно, а также так как дает возможность понять пути саморазвития.

В заключение следует отметить, что налаживание межгосударственного сотрудничества по обмену кадрами в высших учебных заведениях, специализирующихся на обучении иностранным языкам, принесет эффективные результаты. Существует несколько различных методов инновационных образовательных технологий, при которых эффективность уроков будет выше, если на уроках будут использоваться широкие и разные методы освещения темы. Использование различных ролевых игр, игр и процессов собеседования на уроках русского языка также повышает интерес к изучению языка.

**REFERENCES**

1. Голубева Н. Б. Развитие критического мышления как важный элемент формирования профессионально-ориентированной иноязычной компетенции // Вестник университета. – 2015.
2. Иванова Т.А. Обучение иностранным языкам в тверском государственном техническом университете в условиях интеграции России в единое образовательное пространство / Т.А. Иванова, И.В. Скугарева, А.Е. Шабанова // Вестник Тверского государственного технического университета.
3. Зиёмуҳаммадов Б., Абдуллаева Ш. Илғор педагогик технология.-Т.: Абу Али ибн Сино, 2001
4. Мусаев У. Интеграция даражалари // Халқ таълими. – 2002.
5. Йўлдашева Д. Таълим мақсадига мувофиқ келадиган таълим мазмунини белгилаш имкониятлари //Узлуксиз таълим. Тошкент, 2007

# TA'LIMDA INNOVATSION USLUB VA TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

**Latipova Surayyo Boxodirovna**
Xorazm viloyati Xonqa tuman 1 - son Kasb - hunar maktabi
tarix fani o'qituvchisi
**Yusupova Dinora Qurbanbayevna**
Xorazm viloyat Xonqa tuman 1 - son Kasb - hunar maktabi
Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi
**Rahimova Rohila Oybek qizi**
Xorazm viloyat Xonqa tuman 1 - son Kasb - hunar maktabi
Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

***https://doi.org/10.5281/zenodo.7572594***

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada ta'lim jarayonini tashkil etishda pedagogik texnologiyalardan foydalanishning afzalliklari, pedagogik texnologiyaning mazmun mohiyati haqida ma'lumotlar keltirildi.*

***Kalit so'zlar:*** *Innovatsion texnologiya, Innovatsion ta'lim, Pedagogik innovatsiyalar turlari, AKT, Dizayn va tadqiqot faoliyati, O'yin texnologiyasi.*

# ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ МЕТОДОВ И ТЕХНОЛОГИЙ В ОБРАЗОВАНИИ

***Аннотация.*** *В данной статье представлена информация о преимуществах использования педагогических технологий в организации образовательного процесса, содержательной сущности педагогической технологии.*

***Ключевые слова:*** *инновационные технологии, Инновационное образование, виды педагогических инноваций, ИКТ, Проектно-исследовательская деятельность, игровые технологии.*

# THE USE OF INNOVATIVE METHODS AND TECHNOLOGIES IN EDUCATION

***Abstract.*** *This article provided information about the advantages of using pedagogical technologies in the organization of the educational process, about the essence of the content of pedagogical technology.*

***Keywords:*** *innovative technology, innovative education, types of pedagogical innovations, ICT, design and research activities, Game Technology.*

"Innovatsion texnologiya" - "innovatsiya» lotincha so'z bo'lib, "Novatio" "yangilanish", "o'zgartirish" degan ma'noni anglatadi va "in" "yo'nalishda" deb tarjima qilinadi. "Innovatio" so'zma-so'z "o'zgarish yo'nalishida" degan ma'noni anglatadi. Bundan tashqari, bu hech qanday yangilik emas, lekin uni qo'llashdan keyin faoliyat samaradorligi va sifati sezilarli darajada yaxshilanadi.

Texnologiya (yunoncha "techne" - "san'at", "mahorat", "logos"- "so'z", "bilim" – ya'ni, san'at haqidagi bilim) deganda har qanday sohada qo'llaniladigan usullar va jarayonlar majmui tushuniladi.

Shunday qilib, innovatsion texnologiya inson faoliyatining turli sohalarida taraqqiyot va samaradorlikni oshirish uchun yangi narsalarni yaratish yoki mavjudlarini takomillashtirish metodologiyasi va jarayonidir.

Innovatsion ta'lim texnologiyalari - amaldagi usullar yangi avlod o'quvchilari bilan unchalik samarali ishlamaydi. Standartlashtirilgan o'qitish bolaning individual fazilatlarini va ijodiy o'sishga bo'lgan ehtiyojni hisobga olmaydi. O'qituvchi innovatsion usullarni joriy etish nafaqat uning o'quvchilariga materialni yanada samarali o'zlashtirishga yordam berishini, ularning ijodiy salohiyatini rivojlantirishini tushunishi kerak. Lekin bu o'qituvchining o'z intellektual va ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarishiga ham yordam beradi.

**Pedagogik innovatsiyalar turlari:**

Maktab ta'limida turli xil pedagogik innovatsion usullar qo'llaniladi. Tanlashda ta'lim muassasasining profil yo'nalishi, uning an'analari va standartlari katta rol o'ynaydi.

**Ta'lim jarayonidagi eng keng tarqalgan innovatsiyalar:**

- axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT);
- bilim oluvchilarga yo'naltirilgan ta'lim;
- dizayn va tadqiqot faoliyati;
- o'yin texnologiyalari.

**AKT** - o'qitish fanlarini informatika bilan integratsiyalash va yana baholash va umuman aloqani kompyuterlashtirish. Kompyuterdan o'quv jarayonining istalgan bosqichida foydalanish mumkin. Maktab o'quvchilari asosiy dasturlar bilan ishlashni, o'quv materialini elektron darslik va qo'llanmalar orqali o'rganadilar.

Kompyuter va proyektor yordamida o'qituvchi materialni taqdim etadi. Taqdimotlar, diagrammalar, audio va video fayllar aniqligi tufayli mavzuni yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Slaydlar, diagrammalar, xotira kartalarini o'z-o'zidan yaratish bilimlarni shakllantirishga yordam beradi, bu esa yodlashda ham yordam beradi.

Kompyuter, Internet va maxsus dasturlarning mavjudligi bunga imkon beradi,masalan, masofaviy o'qitish, onlayn turlar, konferentsiyalar va maslahatlar.

Talabalarga internet, qidiruv tizimlari va ijtimoiy tarmoqlardan to'g'ri foydalanishni o'rgatish muhim. Barkamol yondashuv bilan ular bitmas-tuganmas ma'lumot manbai va maktab o'quvchilari va o'qituvchilar o'rtasida va o'zaro muloqot qilish usuliga aylanadi.

O'qituvchi tomonidan o'z veb-saytini yaratish - qiziqarli kitoblar, qo'llanmalar, maqolalar, o'quv videolari va audiolarini baham ko'rishingiz, talabalarning savollariga masofadan javob berishingiz mumkin. Undan guruh loyihasini ishlab chiqishda foydalanish mumkin: ishtirokchilar bir-birlari va kurator bilan o'zlarining eng yaxshi tajribalari, natijalarini baham ko'rishadi va paydo bo'lgan muammolarni hal qilishadi.




**Bilim oluvchilarga yo'naltirilgan ta'lim** - bunda o'quvchi o'rganishda bosh qahramon sifatida tan olinadi. Maqsad - o'quvchining shaxsiy fazilatlarini hisobga olgan holda, uning shaxsiyatini rivojlantirish. Shunga ko'ra, ta'lim tizimi va o'qituvchi uslubiga moslashuvchi

o'quvchilar emas, balki o'qituvchi o'z mahorati va bilimidan foydalanib, sinfning o'ziga xos xususiyatlariga ko'ra o'qitishni tashkil qiladi.

Bu yerda o'qituvchi o'quvchilar jamoasining psixologik xususiyatlarini bilishi kerak. Shunga asoslanib, u dars ishlanmalarini tuzadi, materialni taqdim etish usullari va usullarini tanlaydi. Talabaning taqdim etilayotgan materialga bo'lgan qiziqishini uyg'ota olishi va jamoaviy ishlay olishi, etakchi sifatida emas, balki sherik va maslahatchi sifatida harakat qilish muhimdir.

**Dizayn va tadqiqot faoliyati** - mustaqil ravishda, ma'lumotlarni ijodiy izlash, muammolarni shakllantirish va hal qilish, bilimning turli sohalaridagi ma'lumotlardan foydalanish qobiliyatini rivojlantirish. O'qituvchining vazifasi qiziqishni uyg'otishdir qidiruv faoliyati va uni amalga oshirish uchun sharoit yaratish.

Guruh loyihasi ustida ishlashda jamoada ishlash, muloqot qilish, boshqa odamlarning fikrini tinglash, tanqid qilish va tanqidni qabul qilish qobiliyati ham oshadi.

Ta'limda ushbu texnologiyadan foydalanish dunyoni bilish, faktlarni tahlil qilish va xulosa chiqarish qobiliyatini rivojlantiradi.

**O'yin texnologiyasi** - tabiatan dam olish bo'lib, ta'lim funktsiyasini bajaradi, ijodiy amalga oshirish va o'zini namoyon qilishni rag'batlantiradi. Albatta, u eng yosh maktab o'quvchilari guruhida qo'llaniladi, chunki bu ularning yosh talablariga javob beradi. Uni me'yorda qo'llash kerak.

O'qituvchining iltimosiga binoan, butun dars o'yin shaklida o'tkazilishi mumkin: musobaqa, viktorina, KVN, asardan sahna ko'rinishlari. O'yin elementlaridan darsning istalgan bosqichida: boshida, o'rtasida yoki oxirida so'rov sifatida foydalanish mumkin. To'g'ri tashkil etilgan o'yin o'quvchilarining xotirasini, qiziqishini uyg'otadi, shuningdek passivlikni engadi.

So'nggi paytlarda kompyuter texnologiyalaridan foydalangan holda interfaol o'qitish usullariga ham alohida e'tibor qaratilmoqda.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanmasdan turib, ta'lim muassasasi ta'limda innovatsion maqomga ega bo'la olmaydi. Zero, o'quv jarayoniga tashkiliy, didaktik, texnik va texnologik yangiliklarni keng joriy etuvchi va shu asosda bilimlarni o'zlashtirish tezligi va hajmini, kadrlar tayyorlash sifatini real oshirishga erishadigan ta'lim muassasasi innovatsion hisoblanadi.




Shunday qilib, ta'lim jarayoniga yangi ta'lim texnologiyalarini joriy etish va faol foydalanish o'qitish metodikasini o'zgartiradi, bu an'anaviy usullar, uslublar va o'zaro ta'sir usullari bilan bir qatorda o'quvchilarda umumiy madaniy va kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishga yordam beradigan innovatsion usullardan foydalanishga imkon beradi. Yuqori motivatsiya, bilim kuchi, ijodkorlik va tasavvurni ta'minlash, ochiqko'ngillik, faol hayotiy pozitsiya, jamoaviy ruh, individuallik qadriyati, so'z erkinligi, faollikka e'tibor, o'zaro hurmat va

demokratiyani shakllantiradi. Yangi ta’lim texnologiyalarining ta’lim jarayoniga qanchalik mohirlik bilan kiritilishi o’qituvchining o’ziga xos shaxsiyatiga bog’liq.

**REFERENCES**

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida” gi PQ-4884 son qarori. Toshkent. 6-noyabr. 2020.
2. Камалов И.Р., Камалова Д.И. “Астрономия фанини ўқитишда инновацион педагогик технологияларни қўллаш” электрон ўқув қўлланмаси учун ЭҲМ дастур. Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги ҳузуридаги Интеллектуал мулк агентлиги. №DGU 06406. 15.05.2019.

# BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHINING IJODIY FAOLIYATIDA PEDAGOGIK MULOQOTNING AHAMIYATI

**Seytniyazova Gumshagul Joldasbaevna**
Qaraqalpaqstan Respublikasi Qoraoʻzak tumani 7 - sonli umum ta'lim maktabining boshlanǵich sinf oʻqituvchisi

***https://doi.org/10.5281/zenodo.7572620***

***Annotatsiya.*** *Metodda boʻlajak boshlangʼich sinf oʻqituvchilarning ijodiy faoliyatida pedagogik muloqotning turlari, ahamiyati haqida so'z yuritiladi.*

***Kalit so`zlar:*** *Pedagogik muloqot; kommunikativ xususiyatlar; jonli muloqot; kasbiy funksional javobgarlik; kasbiy pedagogik muloqot; tarbiyaviy didaktik; kommunikativ madaniyat; ruhiy psixik toʻsiq; pedagogik taʼsir vositasi; kasbiy – axloqiy fenomen; pedagogik ijodkorlik; kasbiy – ijodiy kategoriya; pedagogik kommunikatsiya; pedagogik taʼsir; kommunikativ vazifalar; kommunikativ muloqot funksiyalari; norasmiy muloqot; prognostik yoʻnalish; modellashtirish; texnologik shakl.*

# ЗНАЧЕНИЕ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ОБЩЕНИЯ В ТВОРЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ БУДУЩЕГО УЧИТЕЛЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

***Аннотация.*** *В методе рассказывается о видах, значении педагогического общения в творческой деятельности будущих учителей начальных классов.*

***Ключевые слова:*** *педагогическая коммуникация; коммуникативная характеристика; живое общение; профессиональная функциональная ответственность; профессиональная педагогическая коммуникация; воспитательно – дидактическая; коммуникативная культура; психологический психический барьер; средство педагогического воздействия; профессионально – нравственное явление; педагогическое творчество; профессионально-Творческая категория; педагогическая коммуникация; педагогическое воздействие; коммуникативные задачи; функции коммуникативного общения; неформальное общение; прогностическая ориентация; моделирование; технологическая форма.*

# THE IMPORTANCE OF PEDAGOGICAL COMMUNICATION IN THE CREATIVE ACTIVITY OF THE FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHER

***Abstract.*** *The method tells about the types, importance of pedagogical communication in the creative activity of future primary school teachers.*

***Keywords:*** *pedagogical communication; communicative features; live communication; professional functional responsibility; professional pedagogical communication; educational didactic; communicative culture; mental Psychic Barrier; means of pedagogical influence; professional – moral phenomenon; pedagogical creativity; professional – creative category; pedagogical communication; pedagogical influence; communicative tasks; communicative communication functions; informal communication; prognostic orientation; modeling; technological form.*

Oʻqituvchining eng muhim sifatlaridan biri uning oʻquvchilar bilan oʻzaro hamkorlikda taʼlim – tarbiyaviy faoliyatni samarali tashkil qilishi, ular bilan qizgʻin muloqot qila olishi va ularga jonkuyar, mehribon rahbar boʻlishidir. Pedagogik – psixologik yoʻnalishlarda olib borilayotgan ilmiy- tadqiqot ishlarida, oʻqituvchilarning sermahsul pedagogik faoliyatni amalga oshirishlari uchun zarur boʻlgan kommunikativ qobiliyati toʻgʻrisida koʻplab fikr va mulohazalar

yuritilgan. O‘qituvchi o‘z kasbiga qiziqmasa, o‘quvchilarga nisbatan meh r–muhabbati bo‘lmasa, ular bilan qizg‘in muloqot qila olish qobiliyati, ya’ni kommunikativ xususiyatlari rivojlanmaydi. Uzoq yillar davomida pedagogika sohasida olib borilgan tajribalar shundan dalolat beradiki, kommunikativ faoliyatda muvaffaqiyatga erishish uchun, o‘qituvchining integral fanlar asoslarini va o‘quv – tarbiyaviy ishlar metodikasini chuqur bilishi yetarli emas. Zero, u bilim hamda amaliy ko‘nikma va malakalarini o‘quvchilarga faqat bevosita jonli muloqot vositasida bera oladi.

O‘qituvchi va o‘quvchilarning jonli muloqoti, ta’lim muassa-salarida pedagogik faoliyatning muhim sharti va mazmuni sifatida namoyon bo‘ladi. Insonning hayot tarzida eng muhim tarkibiy vosita bo‘lgan muloqot, har qanday kasbiy faoliyatning barcha turlarida mavjud. Biroq bir qator kasb egalarida (chunonchi, pedagog, shifokor, san’atkor va hokazo) u kasbiy faoliyatga shunchaki hamroh bo‘lgan oddiy omil emas, balki kasbiy ahamiyat kasb etadigan, uning asosini tashkil etadigan muhim kategoriya sanaladi.

Bu holda muloqot insonlar o‘rtasidagi odatiy o‘zaro hamkorlik shakli emas, balki kasbiy faoliyatning muvaffaqiyatini ta’minlovchi kategoriya sifatida mavjuddir. Ayniqsa, pedagogik faoliyatda muloqot muhim funksional, o‘qituvchi uchun kasbiy jihatdan ahamiyatli vosita sanalib, o‘zaro ta’lim va tarbiyaviy ta’sir quroli sifatida namoyon bo‘ladiki, bunda muloqotning muhim shartlariga va qonuniyatlariga, qo‘shimcha vazifalariga rioya qilishga to‘g‘ri keladi.

Tajribalar shuni ko‘rsatadiki, har qanday kasb egasining kishilar bilan odatiy o‘zaro hamkorlik tizimida muloqot go‘yo, shunchaki o‘z-o‘zicha sodir bo‘ladi. Ma’lum bir maqsadga qaratilgan ta’lim-tarbiyaviy jarayonda esa, muloqot ijtimoiy vazifaga aylanadi, natijada o‘qituvchi pedagogik muloqot qonuniyatlarini puxta bilishi, kommunikativ qobiliyat va kommunikativ madaniyatga ega bo‘lishi talab qilinadi.

Odatiy va kasbiy kommunikativ vaziyatni qiyoslab ko‘ramiz. Aytaylik, do‘stingizga nimanidir gapirib berayapsiz. Masalan, biror ko‘rgan filmingiz to‘g‘risida, uning mazmun va g‘oyasini bemalol so‘zlayapsiz. Bu holda muloqotning turmushda ro‘y beradigan odatiy kommunikativ shaklidagi shaxsga yo‘naltirilgan tizimi bilan ish ko‘rgan bo‘lasiz. Tasavvur qiling, Sizga shu vazifani auditoriyada, minbarda turib, o‘quvchilar oldiga chiqib gapirib berish taklif etildi. Siz kommu-nikatsiyani amalga oshirish vazifasini, avvalo, muloqotning tabiiy shakllari o‘rniga kasbiy-funksional javobgarlik hissini, ya’ni kasbiy jihatdan anchagina murakkablashgan pedagogik faoliyatni darhol his etasiz.

***Kasbiy - pedagogik muloqot deganda, o‘qituvchi va ta’lim-tarbiya jarayoni obyektlarining o‘zaro hamkorlik tizimi tushuniladi, uning asosiy faoliyat mazmuni o‘zaro axborot almashish, shaxsni bilish, tarbiyaviy ta’sir o‘tkazish sanaladi. O‘qituvchi bu jarayonni faollashtiruvchisi sifatida maydonga chiqadi, uni tashkil etadi va boshqaradi.***

A.N.Leontev pedagogik muloqotning tarbiyaviy-didaktik ahamiyatini baholar ekan, quyidagi fikrlarni bildiradi: faol pedagogik muloqot – o‘qituvchining, umuman olganda pedagogik jamoaning ta’lim-tarbiya jarayonida o‘quvchilarni bilish va o‘rganish kaliti va o‘quv faoliyatining ijodiy xarakteri, o‘quvchi shaxsining shakllanishi uchun eng yaxshi sharoit yaratadigan, ta’lim-tarbiyada maqbul bo‘lgan emotsional muhitni ta’minlovchi, jumladan, ruhiy psixologik to‘siqlarning paydo bo‘lishini oldini oladigan, bolalar jamoasida ijtimoiy-psixologik jarayonlarni to‘g‘ri yo‘lga solib boshqarishni ta’minlaydigan va o‘quv tarbiyaviy jarayonda o‘qituvchining o‘z pedagogik mahoratidan oqilona foydalanishi uchun imkoniyatlar

yaratadigan muhim vositadir.

*Pedagogik faoliyatda muloqot o'quvchilarga zamon talablari asosida ta'lim berish vazifalarini hal qilish vositasi, tarbiyaviy jarayonlarni ijtimoiy-pedagogik jihatdan ta'minlash tizimi sifatida namoyon bo'ladi.*

Ilg'or pedagogik tajribalarni tahlili hamda taniqli olimlar A.S. Makarenko, V.A. Suxomlinskiy va boshqalarning pedagogik faoliyatini o'rganish natijasida shunday xulosaga kelish mumkin, aynan o'quvchilar bilan o'qituvchi muloqotining pedagogik ta'sir vositasi nihoyatda beqiyos, muloqotni pedagogik mahoratning eng muhim birlamchi vositasi sifatida chuqur egallaganlik ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini har tomonlama oshirishni ta'minlaydi.

A.S. Makarenko muloqotni pedagogik ta'sirning ajoyib vositasi sifatida ta'riflab, insonlararo muloqotni ta'minlovchi eng muhim va nozik faoliyat ekanligini aytadi. Pedagogik muloqot – shunchaki ijtimoiy-psixologik, pedagogik yoki kommunikativ hodisa emas, avvalo kasbiy axloqiy fenomendir (hodisa). Jamiyatda axloq normalariga qat'iy rioya qilish hamda pedagogik vositalarning ilg'or jarayonlarini amaliy hayotga keng tatbiqi uchun o'quvchilar bilan o'zaro hamkorlik texnologiyalarini mukammal egallash lozim. Shunday «texnologiya»larning mavjudligini pedagogik tadqiqotlar isbotlab berdi.

O'qituvchining kommunikativ faoliyati maqsadli faoliyatga nisbatan ko'pincha ikkilamchi xarakterga ega bo'ladi, pedagogik mehnatning o'ziga xosligi ham aynan kommunikativ faoliyat uning asosini tashkil etishidan iborat ekanligidadir.

Pedagogik muloqot o'qituvchilar pedagogik ijodkorligining yaxlit tizimida qanday ahamiyat kasb etadi? Pedagogik faoliyatning muhim mikroelementlari nostandart echimlardan iborat, garchi o'qituvchi faoliyatida pedagogik vaziyatlar bir qarashda bir biriga o'xshash ko'rinsa-da, o'qituvchining ushbu vaziyatlardagi har bir xatti-harakati mutlaqo noyob va betakrordir. O'qituvchining ijodiy pedagogik faoliyati tahlil qilinganda, mukammal shaklga ega bo'lgan tizimlardan iborat ekan-ligini ko'ramiz:

- o'qituvchining sinfda, o'quvchilar jamoasi bilan ta'lim-tarbiyaviy maqsadlarga qaratilgan ijodiy tayyorgarligi;
- o'quvchilar bilan bevosita o'zaro hamkorlik asosidagi ijodkorlik. O'qituvchining pedagogik muloqoti jarayonidagi ijodkorligi bir nechta

ko'rinishda namoyon bo'ladi:

- o'qituvchining o'quvchilarni mukammal bilish jarayonidagi ijodkorligi; - ular bilan o'zaro hamkorlik tizimidagi ijodkorlik;
- o'quvchiga bevosita ta'sirni tashkil qilishdagi ijodkorligi;
- o'z xulq-atvorini boshqara olishda (muloqotni o'zini-o'zi bilgan holda bir maromda olib borish) ijodkorlik;
- o'quvchilar bilan o'zaro munosabatlarni tashkil qilish jarayonida ijodkorlik. Modomiki, shunday ekan, ta'kidlash lozimki, o'qituvchining muloqoti kasbiy-ijodiy kategoriya bo'lib, pedagogik faoliyatda o'qituvchi tomonidan ko'plab kommunikativ vazifalarni hal qilish jarayoni va ijobiy natijalar majmuasidir. O'qituvchi ta'lim-tarbiya jarayonida muntazam pedagogik ta'sir o'tkazish metodlari bilan ishlaydi: masalan, dars jarayonida yangi materialni tushuntirishda, o'quvchiga aybi uchun dashnom berishda. Ushbu vaziyatda yosh o'qituvchi avvalo nimalarga e'tibor berishi kerak: Birinchidan, vaziyat tahlil qilinadi; ikkinchidan, murakkab vaziyatdan chiqishning mumkin bo'lgan variantlari saralanadi,

uchinchidan, ushbu faoliyat, odatda tezkor amalga oshiriladi (bunda ham pedagogik kommunikatsiyaning oʻziga xosligi namoyon boʻladi) va optimal metodlar tanlanadi, faqat shundan keyingina pedagogik taʼsir tashkil qilinadi.

Biroq hali tanlangan taʼsir metodiga adekvat boʻlgan, u orqali pedagogik taʼsir amalga oshiriladigan muloqot tizimini topishimiz kerak. Yaʼni, maʼlum bir maqsadga qaratilgan umumiy pedagogik vazifani hal etgandan soʻng, taʼsir metodini tanlab bevosita taʼsirni tashkil qilish uchun asosiy vazifa sifatida kommunikativ vazifa belgilanishi kerak.

Kommunikativ vazifa pedagogik faoliyatda, nisbatan ishlab chiqaruvchi xarakterga ega boʻlib, murakkab vazifani hal etadi. Zero u pedagogik vazifadan kelib chiqqan, shu sababli oʻqituvchi tomonidan tanlanadi va belgilanadi. Aytish mumkinki, kommunikativ vazifa aynan kommunikatsiya tiliga oʻtkazilgan pedagogik vazifaning oʻzi. Kommunikativ vazifa pedagogik vazifaning asosini aks ettirib, unga nisbatan yordamchi, instrumental xarakterga ega boʻlgan jarayondir.

Pedagogik amaliyotlar natijasi shundan dalolat beradiki, oʻqituvchi oʻquvchilar bilan oʻzaro hamkorlikning oʻziga xos toʻgʻri metodini tanlab hamda vaziyatni toʻgʻri baholagan taqdirda ham, koʻpincha oʻz pedagogik taʼsirini kommunikativ jihatdan taʼminlay olmaydi, yaʼni kommunikatsiyani oʻzaro muloqotda amaliy jihatdan tatbiq eta olmaydi. Pedagogik taʼsirning oʻqituvchi tomonidan tanlanib qoʻllaniladigan metodlari bevosita muloqot orqali amalga oshiriladi. Shunday ekan, mazkur jarayonni yuksak mahorat bilan, ongli ravishda tashkil etish, pedagogik faoliyatda sodir boʻlishi mumkin boʻlgan har qanday vaziyatda bu jarayonga tayyor turishi zarur. Buning uchun har bir oʻqituvchi mustaqil, oʻz pedagogik tajribalariga va mahoratiga asoslanib, oʻquvchilarga pedagogik taʼsir etishning quyidagi mantiqiy obrazi jadvalini tuzadi, oʻzi uchun kerakli boʻlgan, taʼlim-tarbiyaviy ahamiyatga ega boʻlgan maʼlumotlarni mustaqil ravishda yigʻib, qayd qilib borishlari hamda kasbiy koʻnikma va malakalarini oshirib borishlari mumkin:

**REFERENCES**

1. Salaeva M.S., G’ulamova S.R. Taʼlimni axborotlashtirish sharoitida boʻlajak pedagoglarning virtual akademik mobilligini shakllantirish / “Xorijiy tillarni oʻqitishda yangicha yondashuvlar” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy onlayn anjumani. Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat oʻzbek tili va adabiyoti universiteti – T.: “Firdavs-Shoh” nashriyoti, 2022 – B. 209-213.
2. Салаева М.С. Таълим мазмунини прогнозлашда амал қиладиган метод ва тамойиллар // Халқ таълими № 5. 2005. –Б.40-43.
3. Салаева М.С. Педагогнинг самарали инновацион фаолиятини таъминлашда шахсий-касбий ривожланишини психологик қўллаб-қувватлаш / Инновацион таълим: халқаро тажриба, муаммо ва ечимлар” мавзусидаги Халқаро илмий-амалий анжуман. Тошкент шаҳридаги ЁДЖУ техника университети. Электрон тўплам. 3-қисм. 2021 йил 21 апрель. - Б.405-407.

# BOSHLANG'ICH SINFLARDA JAMOANI SHAKLLANTIRISH VA JAMOAVIY ISHLASH USULLARI

**Eshboyeva Sevara G'aybullayevna**
Jizzax viloyati Sharof Rashidov tumani 3 - umumta'lim maktabi
boshlang'ich sinf o'qituvchisi

https://doi.org/10.5281/zenodo.7572772

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqola o'quvchilar jamoasiga nisbatan talablarni qo'yish metodikasi bolalarni talablar mazmuni bilan tanishtirish, talablarning ahamiyatini tushuntirish, tajriba orttirish hamda o'quvchilar faoliyat, shuningdek, qo'yilayotgan talablarning bajarilish holatini muntazam suratda nazorat qilib turish haqida.*

***Kalit so'zlar:*** *jamoa, rivojlanish bosqichlari, xususiyatlari, talablar, an'analar, xulosalar.*

# МЕТОДЫ ФОРМИРОВАНИЯ КОМАНДЫ И КОМАНДНОЙ РАБОТЫ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

***Аннотация.*** *Данная статья методика предъявляемых требований к коллективу учащихся посвящена ознакомлению детей с содержанием требований, разъяснению значимости требований, приобретению опыта и систематическому контролю за деятельностью учащихся, а также за состоянием выполнения предъявляемых требований.*

***Ключевые слова:*** *коллектив, этапы развития, особенности, требования, традиции, выводы.*

# METHODS OF TEAM FORMATION AND TEAMWORK IN ELEMENTARY GRADES

***Abstract.*** *This article is about the methodology for making demands on the student body, introducing children to the content of requirements, explaining the importance of requirements, gaining experience, and regularly monitoring the state of performance of students ' activities, as well as the requirements set.*

***Keywords:*** *team, stages of development, characteristics, requirements, traditions, conclusions.*

Jamoa haqida tushuncha. Jamoa (lotincha «kollektivus» so'zining tarjimasi bo'lib, yig'ilma, omma, birgalikdagi majlis, birlashma, guruh) bir necha a'zo (kishi)lardan iborat bo'lib, ijtimoiy ahamiyatga ega umumiy maqsad asosida tashkil topgan guruh demakdir. Zamonaviy talqinda «jamoa» tushunchasi ikki xil ma'noda ishlatiladi.

Birinchidan, jamoa deganda bir necha kishilarning muayyan maqsad yo'lida birlashuvidan iborat tashkiliy guruhi tushuniladi (masalan ishlab chiqarish jamoasi, zavod jamoasi, o'quv yurti jamoasi, xo'jalik jamosi va hokazo).

Ikkinchidan, jamoa deganda yuqori darajada uyushtirilgan guruh tushuniladi. Chunonchi, o'quvchilar jamoasi yuqori darajada uyushtirilgan birlashma hisoblanadi.

Bugungi kunda o'qituvchi-olimlar (L.I.Nikova va boshqalar) bolalar jamoasining rivojlanish jarayonining mohiyatini tahlil qilar ekanlar, uni qo'yidagi uch bosqichga bo'ladilar:

a) jamoani dastlabki jipslashtirish;

b) jamoani shakllantirish asosida uning har bir a'zosini individual rivojlantirish;

v) jamoaning umumiy faoliyatini yo'lga qo'yish.

Jamoa hayotida muhim oʻrin tutuvchi har bir bosqichni ajratib koʻrsatish yuqorida bayon etilgan fikrlarga zid emas, balki shaxsning rivojlanishida jamoaning yetakchi ahamiyatini ta’kidlaydi. A.S.Makarenko jamoa a’zolari oʻrtasida yuzaga keluvchi munosabatlarining ichki xususiyatlariga katta ahamiyat bergan edi.

Pedagog jamoada shakllangan eng muhim quyidagi belgilarni ajratib koʻrsatgan edi:

1) major - doimiy tetiklik, oʻquvchilarning faoliyat (harakat)ga tayyorliklari;

2) oʻz jamoasining qadriyatlari mohiyatini tushunish, uning uchun gʻururlanish asosida oʻz qadr-qimmatini anglash;

3) jamoa a’zolari oʻrtasidagi doʻstona birlik;

4) jamoaning har bir a’zosida qaror topgan doʻstona birlik;

5) tarbiyali, ishchan harakatga yoʻllovchi faollik;

6) hissiyotni boshqara olish hamda muloqot odobiga amal qilish koʻnikmasi.

Jamoani shakllantirishda jamoa a’zolari va ularning faoliyatlariga qoʻyiladigan yagona talablar muhim ahamiyat kasb etadi. Yagona talab oʻquvchilarning dars jarayonidagi, tanaffus, sinfdan tashqari ishlar vaqtidagi, shuningdek, jamoat joylari hamda oiladagi xulq-atvor qoidalarni oʻz ichiga oladi. Puxta oʻylab qoʻyilgan talablar tizimining muntazam amalga oshirilishi maktabda muayyan tartibning oʻrnatilishini ta’minlaydi.

Oʻqituvchilar tomonidan qoʻyilgan talablar quyidagi sharoitlarda ijobiy natija beradi:

1. qoʻyilayotgan talablar oʻquvchi shaxsini hurmat qilish tuygʻusi bilan uygʻunlashgan boʻlishi kerak.

2. Talablar muayyan maktab yoki sinfdagi mavjud sharoitni hisobga olgan holda qoʻyilishi lozim.

3. Jamoaga nisbatan qoʻyilayotgan talablar aniq boʻlishi lozim.

4. Oʻquvchilarning tashqi qiyofasi, kiyinishi, yurish-turishi hamda muomalasiga nisbatan qoʻyilayotgan talablar, ularda ma’naviy madaniyatni shakllantirishga xizmat qilishi shart. Oʻquvchi qoʻyilayotgan talablar hajmi va tizimini bilibgina qolmasdan, talab qoʻyish metodikasini ham oʻzlashtira olgan boʻlishi kerak.

Oʻquvchilarni talablar bilan tanishtirish koʻpincha umumiy majlislarda amalga oshiriladi, bunda ta’lim muassasasining direktori yoki oʻquv ishlari boʻyicha direktr oʻrinbosari istiqbol rejalari va ularni amalga oshirish jarayonidagi talablar mazmuni bilan oʻquvchilarni tanishtiradi. Batafsil tanishtirish ayrim hollarda amalda koʻrsatish, keyinroq sinflar boʻyicha sinf majlislari yoki maxsus suhbatlarni uyushtirish asosida amalga oshiriladi.

Xulq-atvorni tarkib toptirishga yoʻnaltirilgan talablar bilan tanishtirish mazkur talablar ustida mashq qildirish bilan qoʻshib olib borilishi kerak. Xulq-atvorni tarbiyalash ongni tarbiyalashga qaraganda ancha murakkab ish.

Oʻquvchilar talablar mohiyatini yaxshi anglashlari mumkin, biroq aksariyat hollarda ularga rioya qilmaydilar. Shu bois muntazam ravishda mashq qildirish madaniy xulq-atvorni odatga aylantiradi.

Jamoani uyushtirish va jipslashtirish unda faol (aktiv)ni tarbiyalash bilan chambarchas bogʻliq. Har bir oʻqituvchining jamoani shakllantirish borasidagi harakti jamoaning tayanch yadrosini tanlashdan boshlanadi. Jamoa faolini shakllantirish jamoaning u yoki bu faoliyatiga nisbatan ehtiyoji mazmunidan kelib chiqadi. Ishonchli, ishchan jamoa faolini yaratish uchun oʻqituvchi oʻquvchilar faoliyatini ularning jamoa ishlaridagi ishtiroki, xulq-atvorini kuzatib borishi har bir oʻquvchining ijtimoiy faoliyatni tashkil etish layoqatini aniqlash zarur. Jamoa

faolini shakllantirishda o‘quvchilarning jamoadagi obro‘sini ham inobatga olish lozim. Jamoa faoli tarkibini bolalarning o‘zlari, albatta, o‘qituvchi ishtirokida va rahbarligida tanlasa maqsadga muvofiq bo‘ladi. O‘qituvchi jamoa faoli bilan maslahatlashish asosida tarbiyaviy faoliyatni tashkil etadi.

Jamoa faolining har bir a’zosi zimmasiga muayyan vazifani yuklash, ularning ma’lum davrda ana shu vazifalar yuzasidan hisobot berib borishlariga erishish maqsadga muvofiq. O‘qituvchi aynan faolga oshirilgan talab qo‘yadi.

O‘quvchilar jamoasida faol rahbarligida o‘z-o‘zini boshqarish jamoa a’zolaridan ayrimlarining boshqasi ustidan ustun kelishiga olib kelmasligi kerak. Shu bois o‘qituvchi faolni maqsadga muvofiq faoliyat yuritishini nazorat qilib borishi lozim. O‘quvchilarning o‘z-o‘zini boshqarishi bu o‘qituvchilar tomonidan tashkil qilinadigan jamoa ishini uyushtirish va boshqarishda o‘quvchilarning faol ishtirok etishidir.

O‘z-o‘zini boshqarishning shakllari orasida jamoa a’zolarining yig‘ilishi, konferensiyasi hamda turli komissiyalar (masalan, o‘quv komissiyasi yoki tozalik komissiyasi) faoliyati muhim o‘rin tutadi. O‘quvchilar jamoasini shakllantirishda an’analar muhim o‘rin tutadi. Jamoa an’analari jamoa a’zolari tomonidan birdek qo‘llab-quvvatlanuvchi barqarorlashgan odatlar bo‘lib, ularning mazmunida munosabatlar xususiyati hamda jamoaning ijtimoiy fikri yorqin ifodalanadi.

Bolalar jamoalarida rasmiy yetakchilar bilan birga norasmiy yo‘lboshchilarning mavjudligi ko‘zga tashlanadi. Odatda rasmiy yo‘lboshchilar tarkibini a’lo baholarga o‘qiydigan, jamoa ishlarida faol ishtirok etuvchi o‘quvchilar tashkil etsa, norasmiy liderlar garchi bu kabi sifatlarni namoyon etmasalarda, ayrim sifatlariga ko‘ra tengdoshlarini o‘z ortlaridan ergashtira oladilar. Bunday o‘quvchilar boshqalardan jismonan kuchliligi, qat’iyatliligi, hech narsadan cho‘chimasligi, o‘ziga bo‘lgan ishonchi bilan ajralib turadilar.

Norasmiy liderlarning ma’naviy-axloqiy qiyofasi boshqa o‘quvchilarga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois sinf rahbari hamda maktab pedagogik jamoasi bunday liderlarning faoliyatini bevosita va bilvosita nazorat qilib borishlari zarur.

O‘quvchilar uyushmasiga pedagogik rahbarlik, yuqorida qayd etilganidek, aksariyat holatlarda sinf rahbari tomonidan amalga oshiriladi. Shu sababli sinf rahbari guruhning umumiy hamda har bir a’zosining individual xususiyatlarini bilishi, ularni inobatga olgan holda jamoaga yondashishi zarur. Sinf rahbarining norasmiy liderlar va ularning shaxsi haqida to‘laqonli ma’lumotlarga ega bo‘lishi pedagogik faoliyatni samarali tashkil etishga yordam beradi.

Yuqorida bildirilgan fikrlardan quyidagi xulosalarga kelish mumkin.

1. Jamoa bir necha a’zo (kishi) lardan tashkil topgan muayyan guruh bo‘lib, u ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan umumiy maqsad asosida birlashadi hamda mazkur maqsadni amalga oshirish uchun yo‘naltirilgan faoliyatni tashkil etadi.

2. Jamoa o‘zida bir necha xususiyat (belgi) larni namoyon etadi.

3. Jamoani shakllantirish muayyan qonuniyatlarga bo‘ysunadigan uzoq muddatli, murakkab jarayon bo‘lib, u ko‘pchilik tadqiqotchilarning e’tirof etishlariga ko‘ra to‘rt bosqichdan iborat bo‘ladi.

4. Jamoani shakllantirish o‘ziga xos metodika asosida amalga oshriladi. Ushbu metodika doirasida jamoaga nisbatan talablarning qo‘yilishi, jamoa faoli (aktivi)ni tarbiyalash masalasi alohida ahamiyatga egadir.

5. Jamoaning mustahkam bo‘lishi, uning a’zolari o‘rtasida o‘zaro yordam hamda hamkorlikning qaror topishida jamoa an’analari muhim ahamiyat kasb etadi.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’limda pedagogik jarayon shaxsda belgilangan sifatlarning shakllanishiga qaratiladi.

**REFERENCES**

1 hhttps://uz.m.wikipedia.org/wiki/Jamoa

2. Pedagogika nazariyasi va tarixi.(1qism). M.X.To’xtaxodjayeva. Toshkent-2010

3. Pedagogika nazariyasi va tarixi.(1qism). M.X.To’xtaxodjayeva. Toshkent-2010

4.Pedagogika nazariyasi va tarixi.(1qism). M.X.To’xtaxodjayeva. Toshkent 2010

# PROKRASTINATSIYA XXI ASR SINDIROMI. PROKRASTINATSIYA HOLATINING SPORTCHILAR HAYOTIGA TA`SIRI

**O‘rinboyev Eldor Abdurasulovich**
Ilmiy rahbar
O'zbekiston Davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti. Jismoniy tarbiya, sport nazariyasi va uslubiyati kafedrasi katta o'qituvchisi
**Abduvohidova Dildora**
O’zbekiston Davlat jismoniy tarbiya va sport Universiteti
sport psixologiyasi 51 - 20 guruh 3 - kurs talabasi

https://doi.org/10.5281/zenodo.7580732

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada prokrastinatsiya xxi asr sindiromi hamda prokrastinatsiya holatining sportchilar hayotiga ta`siri haqida fikr yuritilgan.*

***Kalit so’zlar:*** *Prokrastinatsiya, kompulsiv prokrastinatsiya ta’limiy prokrastinatsiya, kompulsiv prokrastinatsiya, psixologik tavsiya.*

# СИНДРОМ ПРОКРАСТИНАЦИИ XXI ВЕКА. ВЛИЯНИЕ СОСТОЯНИЯ ПРОКРАСТИНАЦИИ НА ЖИЗНЬ СПОРТСМЕНОВ

***Аннотация.*** *В этой статье рассматривается синдром прокрастинации xxi века, а также влияние состояния прокрастинации на жизнь спортсменов.*

***Ключевые слова:*** *прокрастинация, компульсивная прокрастинация образовательная прокрастинация, компульсивная прокрастинация, психологическая рекомендация.*

# PROCRASTINATION XXI CENTURY SYNDICATE. THE IMPACT OF THE STATE OF PROCRASTINATION ON THE LIFE OF ATHLETES

***Abstract.*** *This article discusses the impact of procrastination on the life of athletes, as well as the state of procrastination of the xxi century.*

***Keywords:*** *procrastination, compulsive procrastination educational procrastination, compulsive procrastination, psychological recommendation.*

Sportga bugungi kunda berilayotgan e’tibor jadal suratlarda oshib bormoqda. Yoshlarimizni har tomonlama yetuk, jismonan tarbiyalash bugungi zamon talabiga aylanib bormoqda. Ulardagi jismoniy va irodaviy sifatlarni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Ma’lumki hozirgi paytda globallashuv jarayonida ko‘p tarqalgan ijtimoiy-psixologik muammolaridan biri prokrastinatsiya holatlari bo’lib bu borada ko’plab olimlar jumladan P.Stil, P.Ringenbax, V.Knause, A.Ellisa, N.Milgram, E.Ilinlar ham ilmiy, ham amaliy tahlil qilishgan.

Prokrastinatsiya - ingliz tilida ’’prokrastination’’ keying qoldirish yoki lotin tilida’’ertaga qoldirmoq’’degan ma’noni anglatadi. Bu insonga xos psixalogik holat bo‘lib, ertaga qoyil qilamiz, bugun ulgurolmadik deb o‘zini yupatish bilan cheklanadi. Insonda bugun bajarilishi zarur bo‘lgan ishlarni keyinga qoldirish odatga aylanishi jamiyat uchun o‘ta xavfli illat hisoblanadi. Shaxs psixologiyasida bajarish lozim bo‘lgan ishlarni doimiy ravishda keying qoldirish natijasi o‘laroq turli xildagi kasalliklar, ruhiy zo‘riqishlar kelib chiqishi mumkin va bu narsalar ilmiy adabiyotlarda atroflicha bayon etilgan.

Xo‘sh nimaga endi prokrastinatsiya XXI asrning yangi sindromi sifatida rivojlanmoqda?

Tarixga nazar tashlasak bu atama birinchi marta tatqiqotchi P.Ringenbaxning 1977-yilda yozilgan ’’Prokrastinatsiyaning inson hayotidagi o‘rni’’ kitobida qayd etilgan. Qarib yarim asrki bir qator psixolog va sotsiolog olimlar mutaxasislar tomonidan bu holat sabablari jiddiy

o‘rganilgan. N.Milgram, Dj.Batori va Dj.Mourer kabi tatqiqotchilar yaratgan konsepsiyaga ko‘ra prokrastinatsiyaning beshta turi qayd qilingan:

1.Har kunlik va maishiy turmushga doir holatlar.

Bunda prokrastinatsiya inson turmush tarziga aylanib qolishi nazarda tutiladi. Masalan, uy yumushlarini bajarish hamda maishiy masalalarni vaqtida hal etishlarini o’z holiga tashlab qo’yiladi. ’’Hammasi ertaga bajariladi’’, degan yondashuv odatiy holga aylanadi.

2.Qaror qilish prokrastinatsiyasi.

Bunda biror xizmat vazifalarining bajarishini keyinga qoldirish.Mashhur yozuvchi Margaret Mitchellining ’’Shamollarda qolgan hislarim’’kitobidagi bosh qahramon Skarletning shiori, ya’ni ’’I’LL think of it tmorrov’’so’zlari bo’lib,’’bu haqida ertaga o’ylayman!’’iborasi G`arb yoshlarining shioriga aylangan.

3.Nevrotik prokrastinatsiya.

Bunda shaxs o‘zining ichki kechinmalardan kelib chiqib ishlarni keyinga qoldirilishi nazarda tutiladi. Demak, bunday yondashuv shaxsning o ‘ziga bo ‘lgan ishonch hissi pastligi sabab bo‘ladi. Men buni eplay olmayman, kuchim, aqlim, salohiyatim yetmaydi degan fikrlar unga tinchlik bermaydi.

4.Kompulsiv prokrastinatsiya.

Bunda inson zarurat tufayli majburiy tarzda bajariladigan ishlarni o‘zi xohlamaganligi uchun keyinga qoldiriladi.

5.Ta’limiy prokrastinatsiya.

Bu o‘qish va o‘zlashtirish jarayonlaridagi vazifalarni bajarishni keyinga qoldirish nazarda tutiladi. Shu ish bo‘yicha suzuvchi yuqori malakali sportchilarda kuzatish olib borildi va anketa so’rovnoma va suhbat metodi asosida amaliyot o‘tqazildi.

1.Prokrastinatsiyaning inson turmush tarziga aylanishi bo ‘yicha:

-Uy yumushlarini bajarishi bo‘yicha;

Maishiy masalalarni o‘z vaqtida bajarilishi;

-Hammasi ertaga bajariladi zamirida.

2.Qaror qabul qilish prokrastinatsiyasi bo‘yicha:

-Bu haqida ertaga o‘ylarman;

-Hozircha shu muammoni o‘ylashim kerak;

-Kim bilandir maslahatlashish kerak.

3.Nevrotik prokrastinatsiya bo‘yicha:

-Men buni eplay olmayman;

-Kuchim, salohiyatim, aqlim yetmaydi;

4.Kompulsiv prokrastinatsiya bo‘yicha:

-O‘sha ishni bajarish majburiy ammo, shu ishni qilishda xohish yo‘qligi;

5.Ta’limiy prokratinatsiya bo‘yicha:

-O‘qish va o‘zlashtirishni vaqtida bajarmaslik;

-Berilgan mavzuni ’’keyingi dars’’ zo‘r qilib o‘qiyman degan hayolga borish;

-Eee, baribir bir o‘tirsam, uddalayman deb o‘zini aldash.

Ushbu savollar yuzasidan amaliyot Chirchiq Paralimpiya va Olimpiya kolleji suzish sporti bilan shug‘ullanuvchi sportchilarda o‘tqazildi. Ular bilan bir oy davomida olib borilgan amaliyot bo‘yicha natijalar olindi va tahlil qilindi. Prokrastinatsiya holati yaqqol ko‘zga tashlandi. B.N.Smirnov tomonidan sportchilarning irodaviy sifatlari rivojlanganligini psixologik analiz

ISSN:
2181-3906

International scientific journal
«MODERN SCIENCE AND RESEARCH»
VOLUME 1 / ISSUE 3

qilish metodikasi asosida va irodaviy sifatlar bo’yich tayyorlangan savollar asosida suhbat o’tqazildi. Ushbu amaliyot natijalarini quidagi diagrammada ko‘rishingiz mumkin.







O‘tqazilgan amaliyot natijalariga ko‘ra prokrastinatsiya yaqqol ko‘zga tashlandi. Ular bilan ishlash jarayonida bu holatni biroz bo‘lsada pastga tushira oldik.

Aytish joizki bu holat sport jarayonidagi mashg‘ulotlariga ham ta‘sir o‘tqazadi.Yuqoridagi holatlardagi befarqlik, loqaydlik sport jarayonlariga ham ta ‘sir qiladi. Natijada:

- berilgan yuklamalar o‘z vaqtida bajarilmasligi;

-hayotidagi loqaydlik natijasida sport mashg‘ulotlariga ulgura olmasligi;

-mashg‘ulotlarda xotirjamlikni yo‘qligi;

-chalg‘ish, diqqatni to‘play olmaslik kun davomida qila olmagan ishlarni o‘ylab yurish;

-vaqtni to‘g‘ri taqsimlay olmaslik,shu holatlar kelib chiqishi oqibatida natija va maqsad bir qadam orqaga ketaveradi.

Prokrastinatsiyaning asosiy sabablari:

-sportchilarda biror vazifa oldidan qo‘rquv hissi bo‘lishi,shaxsning irodasizligi;

-qo‘yilgan vazifaga motivatsiyaning yo‘qligi;

-muhim va zarur ishlarni farqlay olmasligi;

-bajarilishi kerak bo‘lgan ishlarni ortga surishi oqibatida nimalarga olib kelishini anglay olmasligi.

Psixologik tavsiya :

-har bir berilgan vazifalarni o’z vaqtida bajarish;

-ortiqcha his-tuyg’ularga barham berish;

-loqaydlikka,tanbalikka barham berish;

-bugungi ishni ertaga qo’ymasdan bugunoq bajarish;

-har bir kunni reja bilan boshlash;

-irodasizlik darajasini kamaytirish;

-o’ziga mativatsiya berish;

-dangasalik so’zini hayotidan olib tashlash;

-muhim va zarur bo’lgan ishlarni bajarish;

-vaqtni qadriga yetish;

-intizomli va matonatli bo’lish.

Yuqoridagi holatlar ro‘y bermasligi uchun bolani yoshligidan tarbiya qilib borish kerak.Insonning oilaviy tarbiya jarayonidagi ota - onalar tomonidan yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar sabab bo‘ladi. Berilgan vazifalarni farzandingizning o‘z vaqtida bajarilmasligi holatlariga befarqlik bolada o‘z imkoniyatlariga to‘g‘ri baholay olmasligini,o‘z kuchining qandayligini anglamaslik holatlari yuzaga keladi.

Oilada mehnat tarbiyasini rivojlantirish muhim rol o’ynaydi.Ma’lumki,bola xarakterining asosiy yo’nalishlari besh yoshgacha bo’lgan davrda shakllanib, maktabgacha bo’lgan vaqt mobaynida uning fe’l – atvori jihatlari mustahkamlanib, butun umri davomida takomillashib boradi.

Ruscha-o’zbekcha lug’atlarda motivatsiya tushunchasi biror ish yoki harakatning yuzaga kelishiga sababchi bo’lgan motivlar, dalillar, isbotlar, bahonalar, vajlar yoki sabablar majmui ma’nosida talqin etiladi.

Demak, insonda prokrastinatsiya hodisasining oldini olish uchun bajariladigan ishga nisbatan motivatsiya uyg’otish zarur, lekin har doim ham yon atrofdagilardan motivatsiya uyg’otishlarini kutib o’tirish ham prokrastinatsiyaga olib keladi.

Xulosa, o’rnida aytish joizki inson avvalambor, o’zini o’zi mativatsiyalashi zarur,har bir bajarayotgan ishidan zavqlanishi, o’zini o’zi tarbiya qilmog’i kerak. Har qanday ishdan ham o’zi ustida ishlash uchun manfaat topishi zarur.

**REFERENCES**

1. Mirziyoyev Sh.M.Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirip,yangi bosqichga ko'taramiz.-Toshkent: ''O'zbekiston'',NMIU,2017.-492-b
2. Milgram N.A.,Batori G, Movrer D. Correlates of academic procrastination//Journal of school Psychology.-1993.-N 31.-P.487-500.
3. Ильин Е.П. Работа и личность. Трудоголизм, перфектионизм, лень.-СПб.;Питер, 2011
4. F.I.Xaydarov N.I.Xalilova Umumiy psixologiya Toshkent 2009.
5. A.U.Xaitov Sport psixodiagnostika va psixokorreksiyasi
6. Internet saytlari lex.uz

# BOSQON ULOQTIRUVCHILARDA ULOQTIRISH VAQTIDAGI AYLANISH TEKISLIGI TA`MINLASH SAMADORLIGI.

**F.Ch.Ziyayev**
O'ZDJTSU O'qituvchi
**X.A.Ilhomov**
O'ZDJTSU YA 52 - 20 guruh talabasi

https://doi.org/10.5281/zenodo.7580747

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada bosqon uloqtiruvchilarning to'g'ri aylanish texnikasini takomillashtirish tog'risida amaliy tavsiyalar berilgan.*

***Kalit so'zlar:*** *markazga, qochuvchi kuch, yoy nuqtasiga, aylanma chiziq, aylanish tezligi, gradus, markazdan qochuvchi kuch, snaryad, Tasmali to'ldirma to'p.*

# В БРОСКОВЫХ МЕТАТЕЛЯХ ПЛОСКОСТЬ ВРАЩЕНИЯ ВО ВРЕМЯ БРОСКА ОБЕСПЕЧИВАЕТ ЭФФЕКТИВНОСТЬ.

***Аннотация.*** *В данной статье даны практические рекомендации по совершенствованию техники правильного вращения атакующих.*

***Ключевые слова:*** *центр, сила эвакуации, точка дуги, линия вращения, скорость вращения, градус, центробежная сила, снаряд, шар заполнения ленты.*

# IN THROW THROWERS, THE PLANE OF ROTATION DURING THE THROW ENSURES EFFICIENCY.

***Abstract.*** *This article gives practical recommendations for improving the technique of correct rotation of attackers.*

***Key words:*** *center, evacuation force, arc point, line of rotation, rotation speed, degree, centrifugal force, projectile, tape filling ball.*

## KIRISH

Mustaqil O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli bunyodkorlik ishlari, yangilanish, yuksalish va modernizasiya jarayonlari ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot qurishning mustahkam poydevori. bulib xizmat qilib kelmokda. Sog'lom bolaning dunyoga kelishi va uning tarbiasi bilan bog'liq goyalar deyarli barcha ajdod va avlodlarimizning mukaddas burchi va buyuk qadriyat sifatida asrlardan asrlarga o'tib, kuylab kelingan.

Buyuk mutafakkir, shoirlar sultoni Alisher Navoiy ijodida ham bu masalaga aloxida urgu berilgan. Chunki, Alisher Navoiy dahosi ko'p qamrovli va serqirra ekanligi hech kimda shubha tugdirmaydi. Shoirning tafakkuru tasavvurida sport inson hayotda tarbiasidan ortikrok vazifa yo'qligi o'z aksini topganligini ko'rasiz. Alisher Navoiyning barcha asarlarida sog'lom farzand va uning tarbiasiga alohida e'tibor karatilib, bogbon niholga qancha e'tibor bersa, daraxt to'gri o'sadi va o'z samarasini beradi, degan goya asosiy o'rin egallaydi. Bola ham niholdek bo'lib, uning jismonan va ma'nan voyaga etishi, kelajak takdiri ota-ona va shu farzand voyaga etadigan muhitga uzviy bog'liq ekanligi uqtiriladi.

Shoir nazdida bola tarbiasi, uning har jihatdan sog'lom bo'lishi homilaning ona qornida paydo bo'lishidan boshlanmogi va bolaga kichikligida parvarish zarurligini e'tirof etiladi. Bu goyani shoir "Hayrat ul- abror" dostonida Ulcha erur *tiflga* shoista ish, Bilki kichiklikta erur parvarish bilan tushuntirishga undaydi. Parchadagi tifl" atamasi bola tarbiasi homilaning ona qornida paydo bo'lishidan boshmogi lozimligini uqtiradi. Shoir nazdida "parvarish" tarbiyalashdan tashqari, "quvvatlantirish, jonlantirish, o'stirish" kabi ma'nolarni ham anglatadi.

Ya’ni jismoniy- m’naviy tarbiyani o‘zida mujasam etadi. Navoiy shunos olimlarning tahlilicha baytdagi "El boshiga chiqmoq" birikmasi ikki ma`no berilgan. Birinchi, tifi, tarbiya ko‘rmasa el boshiga chiqib, bosar- tusarini bilmay qolishi va jaxolat sari yo‘l tutishi mumkin. "El boshiga chikmok" birikmasining ikkinchi tomoni ijobiy ma’noda bulib, unga sayqal berilsa, tojlar ziynatlangan.

Ya’ni har jihatdan sog‘lom o‘sgan bola sayqal topgan darga uxshatilib, tojlar uning bilan bezatilganiga ishora qilinadi. Demak, bolalikdagi tarbiya sharaf manbai. Shuningdek, baytdagi Alisher Navoiyning yana bir goyasi bolani sog‘lom o‘stirish bilan bir katorda unga shunday chiroyli nom qo‘yish lozimki, u ota- onasining kelajakdagi orzu istagi bolaning intilishi shu nomda o‘z aks - sadosini berishi lozim.

Alisher Navoiy sog‘lom bola tarbiasi borasida ota-ona oldiga qo‘yiladigan talablari, Ayniqsa, sog‘lom bolaga umidvorlik hissi, uning suyagi hali qotib ulgurmasdan, farzandlar tarbiasi to‘grisida fikr yuritar ekan, sog‘lom bolaning voyaga yetishida sportning o`rnini aloxida ko‘rsatadi. Gap sport va bola tarbiyasiga borar ekan bu murakkab jarayonni sportsiz tasavvur qilib bo‘lmasligini, sportning o‘zi yetarli tayyorgarlikka ega bo‘lmas boshqa birovga ta’sir ko‘rsatishi amri mahol ekanligini uqtiradi. Shoir "Maxbub ul- qulub", "Xayrat ul- abror asarlarida sportsiz turmushni, taraqiyotni, hayotni, vorisiylikni aqlga sig`dirib bulmasligini ta’kidlaydi.

Sog‘lom bola tarbiasi borasida ota- ona bilan jamiyat oldida turgan muhim masalalar, Navoiy bobomizning orzulari bugun mustaqil O‘zbekistonda ta’lim va tarbiya sohasida amalga oshirilayotgan davlat siyosatida o‘z aksini har tomonlama topayotganning guvohi bo‘lib. Ayniqsa birinchi prezidentimizning yillarga nom berishdagi jarayonlarida Vatanimiz kelajagi bo‘lgan farzandlarga etibor uziga xosdir. Sog‘lom avlod yili", "Yoshlar yili", "Barkamol avlod yili", bularning barchasi Kelajagi buyuk bo‘lgan O‘zbekistonimizning istiqbolini ko‘zlab yuritilayotgan siyosat namunasidir. Mamlakatimizda 2014 yilning "Sog‘lom bola yili", deb e`lon qilinishida ham ularning axamiyati behisobdir.

Bosqon uloqtirish texnikasining fazoviy xususiyatlarini tahlil qilishdan oldin shuni ta'kidlash kerakki, PL Limar, V.P.Kuznetsov, VI Tutevich va boshqalarni o'rganishda burchaklarning mutlaq ko'rsatkichlari qayd etilgan. otuvchi tanasining asosiy bo'g'inlarining egilishi. Biroq, bu tadqiqotlar ushbu ko'rsatkichlar o'zgarishining tashqi shakliga taalluqli edi, lekin ularning yakuniy natijaga ta'siri masalalariga to'xtalmadi va ularni butun harakatni bajarish jarayonida o'zgarishlar o'zgaruvchanligi nuqtai nazaridan ko'rib chiqmadi.

Shuni ta'kidlash mumkinki, A. Shextel uloqtirish natijasida Tizzaza bo'g'imlarida egilish burchaklarining ta'sirini aniqladi, lekin bu munosabatlar bosqichlarda alohida ko'rib chiqilmagan. Shuni ham tushuntirish kerakki, fazoviy xususiyatlarni tahlil qilishda, Bosqon uloqtiruvchi tanasining asosiy bo'g'inlarining nisbiy pozitsiyasi burchaklarining mutlaq qiymatlari to'g'risida ilgari mavjud bo'lgan ma'lumotlarga ba'zi qo'shimchalar kiritiladi. Standart o'q uloqtirish paytida o'rganilayotgan barcha burchaklar uchun raqamli ko'rsatkichlarda aniqlangan.

Bo'g'imlari burchaklarining o'zgarishi (tos va son o'rtasida). Kaltak bo'g'imining egilish burchagi o'zgarishi o'rtasidagi bog'liqlik tahlili. IT -DW bosqichlarida natija o'rnatilgan oyog'i shuni ko'rsatadiki, uch va to'rt burilishdan uloqtirishda bu aloqa juda zaif bo'ladi. Faqat istisno - bu final oldidan. Masalan, uch burilishdan uloqtirishda: Finalda ko'rib chiqilayotgan ulanishning oshishi, bu havolaning raketaning markazdan qochish kuchiga (MQK) qarshi chiqish jarayoniga sezilarli ta'siri bilan izohlanadi. Markazdan qochuvchi kuch fenal bosqichida maksimal

qiymatiga yetadi fazalarida, qo'llab-quvvatlanadigan oyoqning o'rganilgan burchagi bilan uch va to'rt burilishdan uloqtirish natijasi o'rtasidagi bog'liqlik uning kuchida va hamma burilishlarda muhim ahamiyatga ega.

Shunday qilib, uch burilishdan otilganda. Ulanishning mavjudligi dinamik muvozanatni saqlash jarayonida faol ishtirok etib, yakuniy natijaga to'g'ridan -to'g'ri ta'sir ko'rsatadigan VTda berilgan havola burchagini o'zgartirish muhimligini ko'rsatadi. O'rganilgan daqiqalarda son bo'g'imlarida egilish burchaklarining o'zgaruvchanligi tahlili shuni ko'rsatdiki, uch yoki to'rt burilishdan uloqtirishda u o'z darajasi bo'yicha kichik va 4-12%oralig'ida o'zgarib turadi. Biroq, to'rt burilishdan farqli o'laroq, uchdan uloqtirish paytida birinchi burilishning NT-da qayta tiklangan oyoq burchagi ko'rsatkichlarida biroz katta o'zgaruvchanlik mavjud. Shunday qilib, 1 -burilish NT da uchtadan C = 12,3%va to'rtdan C = 7,8%otganda. Bu to'rt burilishdan uloqtirish paytida VXda bu bog'lanish harakatining ma'lum barqarorligi bilan izohlanadi.

Qayta tiklangan oyoq sonining ko'tarilish burchagini vertikalga o'zgartirish O'zgarish bosqichining bosqichma -bosqich burilish tezligi oshishi bilan VTda vertikal holatga qaytgan oyoq sonining ko'tarilish burchagining mutlaq qiymatlari. pasayish. Shunday qilib, uch burilishdan uloqtirish da, burilishlar uchun bu qiymatlar: 130 °, 129 °, 123 °; va to'rtdan, navbati bilan: 125 °, 124 °, 1240.119 °. Buning sababi shundaki, aynan shu vaqtda, uloqtirish chining tanasi, CB S ta'siri ostida, orqaga burilishni oshiradi va shu bilan birga, qayta tiklangan oyog'ining sonlari doimo qiyshiq tomon ko'tariladi. Uch va to'rt burilishdan uloqtirish paytida HT OD fazalaridagi yakuniy natija bilan tekshirilayotgan bog'lanishning vertikalga ko'tarilish burchagi o'rtasidagi munosabatlar zaifdir. Masalan, uch burilishdan uloqtirishda.

OD bosqichlarining XTda o'rganilayotgan burchakning o'zgaruvchanligi tahlili shuni ko'rsatdiki, u uch va to'rt burilishdan uloqtirishda kichikdir. Masalan, to'rt burilishdan otilganda, burilishlarning o'zgaruvchanligi: C ~ 7,8%, C - 5,4%, C - 6,8%, C - 6, sakkiz%. Boshqacha qilib aytganda, HT OD fazalarida bu ko'rsatkich ancha barqaror deb aytish mumkin.

Tizzaza bo'g'imlarining burchaklaridagi o'zgarishlar. NT DV fazalarida va VT OD fazalarida qayta tiklangan oyoq Tizzazasi bo'g'imining yulduzlararo burchagi indekslari o'rtasidagi munosabatni tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, u ikkalasidan ham uloqtirish paytida ancha zaif. uch va to'rt burilish.

Masalan, ITda uch burilishli metapiya holatidakeladi Biroq, uchta va to'rt burilishdan uloqtirish paytida, uning kuchi jihatidan, HT OD fazalarida qo'llab -quvvatlovchi oyoqning o'rganilgan burchagi ko'rsatkichlari bilan natija o'rtasida bog'liqlik mavjud. Masalan, uch burilishdan uloqtirishda mavjud aloqa, avvalgidek (HT -dagi tayanch oyog'ining kaltak bo'g'imidagi egilish burchagi o'zgarishini ko'rib chiqayotganda), bu bo'g'in burchagining HT momentlarida dinamik muvozanatni saqlashda ishtirok etishining ahamiyatini ko'rsatadi. DW bosqichlari. Tizza bo'g'imlarining kesishgan burchaklarining o'zgaruvchanligi, umuman o'rganilayotgan bosqichlarda, ham nisbiy, ham mutlaq kestirib bo'g'imlarga qaraganda ancha katta. NTda, uch va o'lchovli burilishlarda, qayta tiklangan oyoqning Tizzaza bo'g'imining burchagi o'zgaruvchanligi juda kichik. 6-14%orasida o'zgarib turadi.

Biroq, bu erda, kaltak qo'shimchasida bo'lgani kabi, birinchi burilish NT da bu ko'rsatkichlarning o'zgaruvchanlik darajasida sezilarli farq bor, bu erda uch burilishning o'zgaruvchanligi to'rt burilishdan katta. Masalan, nisbiy nuqtai nazardan, uch burilishdan 0 = 14,5%va to'rtdan C = 6,1%. Bu farq pastroq aniqlik va uch burilishdan yuqori boshlang'ich tezligi, shuningdek, bu bo'g'in harakatining individual xususiyati bilan bog'liq. VT momentlarida

ISSN:
2181-3906

International scientific journal
«MODERN SCIENCE AND RESEARCH»
VOLUME 1 / ISSUE 3

tayanch oyog'ining yo'llar bo'g'imining yulduzlararo burchagi o'zgaruvchanligi asta -sekin burilishdan burilishga oshadi.

Bu uch va to'rt burilishdan uloqtirish da ham qayd etiladi. Masalan, uch burilishdan uloqtirishda o'zgaruvchanlikning bunday o'zgarishi, CLSga qarshi uloqtirish moslamasining aylanish tezligi ortishi bilan unga qarshi kurashish maqsadida, bu bo'g'inda harakat qilish qobiliyatining diapazoni oshishi bilan izohlanadi. Harakatning boshida nisbiy ravishda uch va to'rt burilishdan uloqtirish paytida OD fazalarining VT momentlarida qayta tashkil etilgan oyoqning tekshirilgan burchagi o'zgaruvchanligi o'rtacha darajada. Kelajakda u asta -sekin kamayadi. Masalan, uch burilishdan uloqtirish da: C (VT OD1) = 21,8%, C (VT OD2) = 15,6%, C (VT ODZ) = 15,0%. Birinchi burilishlarda burchakning o'zgaruvchanlik darajasi harakatning individual xususiyatlari bilan belgilanadi. Oyoq Bilagi zo'r bo'g'imlarning bo'g'im burchaklaridagi o'zgarishlar.

NT DW fazalarida qayta tiklangan oyoqning to'piq bo'g'imidagi egilish burchagi o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganish natijasi shuni ko'rsatdiki, u ham uch, ham to'rt burilishdan uloqtirish paytida kuchsizdir. Masalan, harakat jarayonida uchta burilishdan qo'llab -quvvatlovchi oyoqning ma'lum bir bo'g'imidagi egilish burchagi bilan VT OD fazalari o'rtasidagi munosabatlar, aksincha, ayniqsa birinchi burilishlarda juda muhim. Bu uch burilishdan tashlanganida qayd etiladi: VTda aniqlangan aloqa, CB C raketasi harakati paytida dinamik muvozanatni saqlash uchun tayanch oyog'iga "osib qo'yish" natijasiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi bilan izohlanadi (25-1.2-ilovaga qarang).

Tomirlar orasidagi to'piq bo'g'im burchaklarining o'zgaruvchanligini tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, umuman uch va to'rt burilishdan u 7-17%darajasida). Ammo shuni ta'kidlash kerakki, o'z navbatida, VTda qo'llab -quvvatlovchi oyoqning o'rganilgan bo'g'inining o'zgaruvchanligi NTda qayta o'rnatilgandan ko'ra sezilarli darajada katta. Masalan, uch burilishdan otilganda, fazalarning VT ODidagi bu burchaklarning o'zgaruvchanligi teng: o'zgaruvchanlik darajasida ko'rib chiqilgan oglichnlar, OD fazalarida XTda, DW fazalaridagi ATga qaraganda, bosqon bilan burilish paytida, dinamik muvozanatni izlash katta darajada yuzaga kelishi bilan izohlanadi. Magistralning gorizontalga burilish burchagining o'zgarishi Magistralning gorizontalga burilish burchagi o'rtacha ma'lumotlarining tahlili shuni ko'rsatadiki, NT DV fazalarida va VT ODda uch va to'rt burilishdan uloqtirish paytida u asta -sekin diapazonga yaqinlashadi. harakat paytida 90 °.

Burchak bu qiymatga finaldan oldingi oxirgi burilishlarda yetadi. Masalan, NT DV va FIN bosqichlarida uch burilishdan otilganda burchak: Tananing vertikalga yaqinlashishi otuvchi tomonidan; Tizzaimining aylanish tezligi oshib borishi bilan yanada oqilona pozitsiyani egallash maqsadida amalga oshiriladi. Ko'rib chiqilayotgan burchak va natija o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganish shuni ko'rsatdiki, uch va to'rt burilishdan uloqtirishda NT FIN fazasida bu munosabatlarning o'rtacha qiymati bor.

Bu raketa chiqmasidan oldin CLSga qarshi turish uchun organ tomonidan tegishli pozitsiyani qabul qilish muhimligini ko'rsatadi qolgan bosqichlarda, ham uch, ham to'rt burilishdan tashlanganida, ulanishning kuchi unchalik katta emas.

Tananing gorizontalga burilish burchagining nisbiy va mutlaq o'zgaruvchanligini tahlil qilish natijasida, u uch va to'rt burilishdan uloqtirish paytida ishlash ko'rsatkichlari bo'yicha ham kichik ekanligi aniqlandi: C = 2-10%, va a = ± 2-8 °. Bosqon ning harakat tekisligining gorizontalga burilish burchagini o'zgartirish. Bosqon ning gorizontalga burilish tekisligining

burilish burchagi ko'rsatkichlarini o'rganish shuni ko'rsatadiki, NT DVda uch va to'rt burilishdan uloqtirish paytida VT OD fazalariga nisbatan FIN fazalari har xil o'zgaradi.

Masalan, uch burilishdan otilganda burchak. NTdagi burchakning nisbiy turg'unligi, u dastlabki aylanishlar paytida allaqachon o'rnatilganligi va VT burilishlarining asta -sekin o'sishi va NT burchagi darajasiga yaqinlashishi bilan izohlanadi. CLSning oshib ketishi tufayli raketa kabelining keskinligida. Burch ko'rsatkichlari va natija o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qilish uning darajasi jihatidan zaif ekanligini ko'rsatdi. Bu uchta va to'rt burilishdan uloqtirish paytida qayd etiladi.

Masalan, Zaif aloqa - o'rganilgan burchak o'z qiymati bo'yicha nisbatan maqbul va natijaga unchalik bog'liq emasligining natijasidir. Uch va to'rt burilishdan tashlashda ko'rib chiqilayotgan burchakning o'zgaruvchanligi ko'rsatkichlari o'rtacha darajaga yaqin. Bu daraja chegaralarda o'zgarib turadi: C = 7-22% va a = ± 3-8 °. Bundan tashqari, u harakat boshida eng katta qiymatga ega bo'ladi va FIN bosqichida eng kichik qiymatga ega bo'ladi.

Dastlabki o'zgaruvchanlik har xil otuvchilar tomonidan berilgan harakatning individual bajarilishiga bog'liq va uning FIN kamayishi burchakning barcha otuvchilar uchun nisbatan maqbul qiymatlarga yetib kelishidan kelib chiqadi.

**XULOSA**

Biz tadqiqotlar natijasida shuni ko’rib chiqdikki bosqon uloqtirishda aylanish tekisligi samarali mashg’ulotlar yuklamalarining yo`qligi, xalqaro musobaqalarda bosqon uloqtiruvchi sportchilarning ishtiroki hamda malakali murabbylar ko’rsatmasi asosida yuqori natijalarga erishib kelmoqda.

O’zbekistonlik sportchilar xalqaro toifadagi sportchilarning natijalaridan natijasining bir muncha pastligiga misollar keltirishimiz mumkin, hozirgi kunda mamlakatizda aynan yengil atletikaning bosqon uloqtirish turi bo’yicha malakali murabbylarning yetishmasligi faoliyat olib borayotgan murabbiylarning yangi inavatsion texnalogyalardan foydalanmasligi bunga asosiy sabablardan biridir.

**REFERENCES**

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 5 мартдаги ПФ-5368-сонли фармони ―Жисмоний тарбия
2. ва спорт соҳасида давлат бошқаруви тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида‖ги
3. Фармони. (Халқ Сўзи. 2018 йил 5- март.)
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПФ 5924-сонли фармони ―Ўзбекистон Республикасида жисмоний
5. тарбия ва спортни янада такомиллаштириш ва оммалаштириш чора-тадбирлари тўғрисида‖ги. Фармони
6. (Халқ сўзи 2020 йил 24-январ).
7. Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПҚ 3031-сон қарори ―Жисмоний тарбия ва спортни янада
8. ривожлантириш чора тадбирлари тўғрисида‖ги (Халқ сўзи 3 июн 2017 йил)
9. Soliev I.R, Khaydrov B.SH, Mirzatillayev I.I, Khujamkeldiyev G.S, Ziyayev F.CH. Functional training level of

10. runners student-athletes sprinters. // International Journal of Psychosocial Rehabilitation,Vol.24,Issue 05,2020,
11. http://www.psychosocial.com/article/PR201878/17061/ 46-50 бетлар.
12. Ziyayev F. C. et al. YENGIL ATLETIKA SPORT TURINI RIVOJLANTIRISHDA UMUMIY O’RTA T’ALIM MAKTABLARINING JISMONIY TARBIYA DARSLARIDA YENGIL ATLETIKA TURLARINI O ‘RGATISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH SAMARADORLIGI //Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS). – 2021. – Т. 1. – №. 3. – С. 348-355.
13. Xo‘jamkeldiyev G. S. et al. KICHIK RAZRYADLI O’RTA MASOFALARGA YUGURUVCHILARNING MUSOBAQA OLDI TAYYORGARLIGI //Central Asian Research Journal For Interdisciplinary Studies (CARJIS). – 2021. – Т. 1. – №. 3. – С. 270-274.
14. Ziyayev F. C. et al. O ‘RTA MASOFAGA YUGURUVCHI YENGIL ATLETIKACHILARNI MUSOBAQA OLDI TAYYORGARLIGI SAMRADORLIGINI OSHIRISH //Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS). – 2021. – Т. 1. – №. 4. – С. 78-90.
15. Каримов Ф. М. и др. БОШЛАНҒИЧ ИХТИСОСЛИК ГУРУҲИДАГИ УЗУНЛИККА САКРОВЧИ ҚИЗЛАРНИНГ ДЕПСИНИШ КУЧИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ //Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS). – 2021. – Т. 1. – №. 4. – С. 119-125.

# BOSHLANGI'ICH SINF O'QUVCHILARIGA INGLIZ TILI O'QITISHDA O'YIN DARSLARNING AHAMIYATI

**Umarova Muhabbat Usarboyevna**
Toshkent viloyati Olmaliq shahar 11 - maktab Boshlang'ich sinf o'qituvchisi
**O'lmasova Mutabar Shavkatovna**
Toshkent viloyati Olmaliq shahar 11 - maktab Boshlang'ich sinf o'qituvchisi
**Abdumannonova Gulnoza Abrorxonovna**
Toshkent viloyati Olmaliq shahar 11 - maktab Boshlang'ich sinf o'qituvchisi

https://doi.org/10.5281/zenodo.7580773

***Annotatsiya.*** *Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilariga ingliz tili o'qitish jarayonida o'yin darslardan samarali foydalanish, o'quvchilarning qobiliyatiga qarab, mashg'ulotlarni tashkil etish haqida so'z boradi. Shunigdek, muallif bu orqali individual va hamkorlikda ishlash ko'nikmalarini shakllantirish ilmiy asoslab bergan.*

***Kalit so'zlar:*** *O'yin darslar, motivatsiya, jismoniy faollik, pedagogik innovatsiya, fanlararo bog'lanish.*

# ЗНАЧЕНИЕ ИГРОВЫХ УРОКОВ В ОБУЧЕНИИ АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ

***Аннотация.*** *В статье речь пойдет об эффективном использовании игровых занятий в процессе обучения английскому языку младших школьников, об организации занятий в зависимости от способностей учащихся. Также автор дал научное обоснование формирования навыков индивидуальной и совместной работы через это.*

***Ключевые слова:*** *игра на уроках, мотивация, физическая активность, педагогические инновации, междисциплинарность.*

# THE IMPORTANCE OF GAME LESSONS IN TEACHING ENGLISH TO ELEMENTARY SCHOOL STUDENTS

***Abstract.*** *The article will talk about the effective use of Game lessons in the process of teaching English to primary school students, the organization of classes, depending on the abilities of students. As such, the author has scientifically substantiated the formation of skills for individual and collaborative work through it.*

***Keywords:*** *game lessons, motivation, physical activity, pedagogical innovation, interdisciplinary connection.*

Bugungi kunda xorijiy tillarni o'rganishga bo'lgan qiziqish mamlakatimizda kuchayib bormoqda. Ayniqsa, ular orasida ingliz tilini o'rganish alohida o'rin tutadi. Buning turli xil sabablari bor albatta. Ko'pchilikka ma'lumku, dunyodagi biznes va texnologiyaga oid nashlarning juda ko'p qismi ingliz tilida chop etiladi, dunyo bo'yicha nashr etiladigan kitoblarning 28% i ingliz tilidadir, xalqaro anjumanlar va aloqa tizimi ko'proq ingliz tilida olib boriladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning "Buyuk kelajagimizni mard va jasur xalqimiz bilan birga quramiz" asarida quyidagi jumlalar bor: "Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech bir sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz." Bugungi kunda olib borilayotgan keng qamrovli islohotlar zamirida yosh avlodning baxtli

kelajagini barpo etish yotadi. Pedagogik innovatsiyalar – ta`lim - tarbiya jarayonining mazmunini yangilash, uning borishi va o`quvchilarning bilim, ko`nikma va malakalarini faollashtiruvchi texnologiyalar majmuidir. Ta'lim tizimida o'qitishning ilg'or usullarini joriy etish orqali yoshlarga chet tillarni o'rgatish, shu tillarda erkin so'zlasha oladigan mutaxassislar tayyorlash bugungi kunning dolzarb masalalaridandir. Chunki chet tilini o'rganish jarayonida o'rganuvchilar dunyoqarashining kengayishi, turli muammoli vaziyatlarda oqilona yechim topa olishi, tarbiyasi va ta'limiga e'tibor qaratilishi kelajak avlodni jismonan va ruhan kamol topishida xizmat qiladi.

Umumta'lim maktablarida o'quvchilar ta'lim muassasasiga ilk qadam qo'yishlari bilan xorijiy tillar o'qitilib kelinmoqda. Bunda, asosan, og'zaki nutqni rivojlantirishga e'tibor qaratiladi. Tajribadan ma'lumki, kichik yoshdagi chet tili o'rganuvchilar yakka holdagi so'zlardan ko'ra ma'noli tushunchalarni ifodalovchi jumla va gaplarni yaxshiroq eslab qoladilar. 1 - sinf o'quvchilari uchun mo'ljallangan "Kids' English" o'quv-majmuasiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, oila, ranglar, o'yinchoqlar, fasllar, mevalar, sabzavotlar va shu kabi bo'limlar bir-biridan qiziqarli va uzviy bog'langan holda keltirilgan. Mashg'ulotlar davomida qiziqarli o'yinlar tashkil etish ingliz tili o'rganuvchilari uchun ijobiy natija ko'rsatadi. Masalan, ranglar mavzusini o'qitishda quyidagi o'yin ham o'rinlidir:

***"Havodagi ranglar" ("Colours in the air").*** Bu o'yin yosh o'rganuvchilar uchun juda mos. Har bir o'quvchiga ikki xil rangdagi qog'ozchalar beriladi. Bir o'quvchida qizil va yashil, keyingisida ko'k va sariq va shu kabi bo'lishi mumkin. O'quvchilar soniga qarab ranglar yana takrorlanishi mumkin. O'qituvchi biror xil rang nomini aytadi, masalan, "Blue". Kimda ko'k rang bor bo'lsa yuqoriga ko'taradi. Ranglarning barchasi bir-ikki martadan aytilguncha o'yinni davom ettirish mumkin.

***"Ranglar o'yini" ("Colours Game").*** Turli xil rangdagi qog'ozchalarni xona o'rtasiga o'rtacha doira shaklida qo'yib chiqiladi. Biror musiqa chalinadi va o'quvchilarga doira atrofida aylanish aytiladi. Musiqa to'xtaganda o'quvchilar biror xil rang qarshisiga o'tirishlari kerak.

***"Twinkle, Twinkle, Little star"*** qo'shig'ining ohangida quyidagicha savollar beriladi: "Who is beside the colour "green", Please, stand up if it is you" ("green" *so'zining o'rniga har safar boshqa ranglar nomini aytib kuylanadi*) Aytilgan rang ro'parasidagi bola o'rnidan turadi. Barcha o'quvchilar ishtirok eta olishguncha o'yinni davom ettirish mumkin. Hamma o'quvchilar ishtirok etishini ta'minlash zarur, bunda o'qituvchidan ziyraklik talab etiladi.

Yuqori sinf o'quvchilariga qaraganda boshlang'ich sinf o'quvchilariga jismoniy faol o'yinlar qiziqarlidir. Quyidagi o'yin so'zlarni jo'r ovozda takrorlashga, eng asosiysi, qiziqqon va sho'x bolalarni ham tartibga bo'ysunishga o'rgatadi:

***"Oylar marshi" ("Months March").*** Sinfxonada biroz kengroq joy bo'lishi maqsadga muvofiqdir. O'qituvchi safning boshida turib, o'quvchilarni ortidan saflantiradi. Bir qator bo'lishgach, o'qituvchi "Go!" deya yurishni boshlaydi, o'quvchilar ergashadi. O'qituvchi "January" desa, o'quvchilar ham "January" deb takrorlaydilar. "February" - "February", "March" - "March" va shu tahlitda davom etadi. Mayda sekin qadam tashlash mumkin, lekin gavdani tik tutib, qo'llar harbiylardek ko'tarilib tushiriladi. Ihtiyoriy bir so'zga kelganda o'qituvchi to'satdan "Stop!" deya buyruq

beradi. Hamma to'xtashi kerak, albatta, qatordan chiqmasdan. Biror o'quvchi safni buzsa, o'yindan chiqib turadi. Oy nomlari o'rniga barcha o'rganilayotgan so'zlarni ham aytish mumkin. O'quvchilar bu o'yinni nafaqat sevib o'ynaydilar, balki ularga boshlang'ich harbiy ko'nikmalarni ham bera olamiz.

Dars jarayonida turli xil o'qitish uslublari va o'yinlardan foydalanish o'qituvchining faoliyatini yengillashtiradi va ta'lim oluvchilarga o'rganilayotgan materialni yaxshi o'zlashtirish hamda eslab qolishga yordam beradi. Chet tilini o'rganayotgan har bir kishida, nafaqat o'rganuvchi, balki o'rgatuvchi shaxs ham o'zida kommunikativ kompetensiyani shakllantirishi maqsadga muvofiqdir. Xorijiy tilni o'qitish jarayonida zamonaviy ta'lim muhitini yaratish tizimning asosiy shartlaridan biridir. Boshlang'ich sinflarda ta'lim beruvchi shaxs an'anaviy uslublardan foydalanish bilan cheklanibgina qolmay, balki o'qitishning noan'anaviy usullardan ham keng va mohirona foydalanishni bilishi, har bir darsga ijodkorona yondoshishi, o'quvchida ta'limga nisbatan katta qiziqish uyg'otishni bilishi kerak.

Yuqoridagilardan ma'lum bo'ladiki, ingliz tili darslarida o'yinlardan foydalanish o'quv jarayonining imkoniyatlarini kengaytiradi va amaliy yondashishni kuchaytiradi. Shu bilan birga ta'lim oluvchilarning o'quv jarayonidagi motivatsiyasini oshiradi va jamiyatda o'z o'rnini topishi uchun shart-sharoitlar yaratishda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Zero, yosh avlodni zamon talabiga javob beruvchi etib tarbiyalab yoyaga yetkazish har birimizning asosiy burchimizdir.

**REFERENCES**

1. Mirziyoyev Sh.M. "Buyuk kelajagimizni mard va jasur xalqimiz bilan birga quramiz" – T., 2017.
2. Xalq ta'limi. T.: 2016/4-son. – 27-b.
3. Wake up with warm ups. O'quv uslubiy qo'llanma. – N.:2012
4. Til va adabiyot ta'limi. T.: 2017/3-son. – 42-b.

# BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QUVCHILARNING AXBOROTLAR BILAN ISHLASH KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH

**Abduraxmonova Dildora Xudoyqulovna**
Toshkent viloyati Olmaliq shahar 11 - maktab Boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi
**Raximova Munira Ismanaliyevna**
Toshkent viloyati Olmaliq shahar 11 - maktab Boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7580784

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini axborot bilan ishlashga o'rgatishning axamiyati, media madaniyatga ega bo'lish layoqatini shakllantirish haqida so'z boradi.*

***Kalit so'zlar:*** *ta'lim, axborot, kompetentlilik, kompetensiya, texnologiya, interaktiv o'yinlar, didaktik materiallar, video, multimedia vositalari.*

# ФОРМИРОВАНИЕ КОМПЕТЕНЦИИ УЧАЩИХСЯ ПО РАБОТЕ С ИНФОРМАЦИЕЙ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

***Аннотация.*** *В данной статье речь пойдет об основах обучения младших школьников работе с информацией, о формировании умения владеть медиакультурой.*

***Ключевые слова:*** *образование, информация, компетентность, компетентность, технология, интерактивные игры, дидактический материал, видео, мультимедийные средства.*

# FORMATION OF STUDENTS' COMPETENCE IN WORKING WITH INFORMATION IN PRIMARY CLASSES

***Abstract.*** *This article will talk about the importance of teaching primary school students to work with information, the formation of the ability to have a media culture.*

***Keywords:*** *education, information, competence, competence, technology, interactive games, didactic materials, video, multimedia tools.*

Bugungi kunda yurtimizda ta'lim va fan sohasini rivojlantirishga katta e'tibor qaratilgan. Uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish ustuvor vazifadir.

Umumiy o'rta ta'lim sifatini tubdan oshirish, chet tillar, informatika hamda matematika, fizika, kimyo, biologiya kabi boshqa muhim va talab yuqori bo'lgan fanlarni chuqurlashtirilgan tarzda o'rganish yo'lga qo'yildi. Tezkor fikrlab, zarur qarorlar qabul qila oladigan mutaxassislarning ko'payishi, tabiiyki, jamiyatga ham, davlatga ham foyda. Shuning uchun, ta'lim jarayoniga kompetentlilik tushunchasi kiritildi.

Kompetentlilik (lotincha: competens layoqatli, qobiliyati bor) tarkibiga sof kasbiy bilim, ko'nikma va malakalardan tashqari, tashabbuskorlik, hamkorlik, guruhda ishlash layoqati, kommunikativ qobiliyati, real baholay olish, mantiqiy fikrlash, axborotni saralash va foydalana olish xususiyatlari ham kiradi.

Kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim o'quvchilarda egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni o'z shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida amaliy qo'llay olish kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltirilgan ta'limdir.

Ta'lim jarayoniga kompetentlilik tushunchasining kiritilishi o'quvchiga olgan nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llay olish, undan muammoli vaziyatlarda foydalanish imkonini beradi.

Shu maqsadlarni ko'zlagan holda Davlat ta'lim standartida tayanch kompetensiyalarga katta ahamiyat berilgan.

Quyida o'quvchilar tayanch kompetensiyalari qatoriga kiruvchi axborot bilan ishlash kompetensiyasini shakllantirish haqida to'xtaldik.

Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi_mediamanbalardan zarur ma'lumotlarni izlab topa olishni, saralashni, qayta ishlashni, saqlashni, ulardan samarali foydalana olishni, ularning xavfsizligini ta'minlashni, media madaniyatga ega bo'lish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan davrni axborot texnologiyalarisiz tasavvur qilish qiyin. Ta'lim jarayonida ushbu texnologiyalardan foydalanish bir qancha afzalliklarga ega. Avvalo, axborot texnologiyalaridan foydalanish qulay hamda uning imkoniyatlari keng. Shuni inobatga olgan holda o'qituvchi har bir darsda interfaol o'yinlardan, didaktik materiallardan, video va audiolavhalardan o'rinli foydalanishi lozim.

Darslarda yangi ma'lumotlarni yetkazishdan avval o'qituvchi ularning dastlab olgan bilimlarini, tasavvurlarini aniqlashtiradi, bir tizimga solidi, olingan bilimlar har xil ko'rgazmali vositalar, slaydlar, multimedia, tarqatma materiallar, qo'shimcha adabiyotlar bilan mustahkamlansa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Darslarda foydalaniladigan har qanday interfaol usullar ta'limiy xarakterga ega bo'lib, o'quvchilar bilimining mustahkamlanishiga, ularni umumlashtirishga va tizimga solishga yordam beradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun mo'ljallangan ona tili darsliklarida rasm asosida hikoya yoki matn tuzish topshirig'i beriladi. Bunday topshiriqlarni bajarish jarayonida o'quvchilarga "Bahor", "Kuz", "Qish" mavzularida matn tuzish vazifasi topshirilganda shu fasllar haqidagi slaydlar yoki videolavhalar namoyish etilib, sokin musiqa ham eshittirilishi mumkin. O'quvchining videolavhani ko'rib yozgan hikoyasi ta'sirchan va fikrlarga boy bo'ladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun yaratilgan elektron darslik, qo'llanma va taqdimotlardan o'quv jarayonida keng foydalanilmoqda. O'qish, ona tili, matematika va tabiatshunoslik fanlarini o'qitishda axborot texnologiyalari yordamida turli xil ko'rgazmali slaydlardan dars jarayonlarida foydalanish mumkin.

Masalan: o'qish va ona tili fanlarida katta ekranda harflarni, so'zlarni bir-biriga qo'shib o'qish, so'ngra kichik ertak va hikoyalarni o'qish, harflarni to'g'ri va chiroyli yozish; matematika fanida oddiy amallardan foydalanib, slaydlar yordamida masalalar yechish, turli xil hisob-kitobli o'yinlar tashkil qilish;tabiatshunoslik fanidan tabiatdagi hodisalar haqidagi sodda slaydlar yordamida tushunchalar berish mumkin.

Ushbu usullardan foydalanish yosh va bilimga chanqoq o'quvchining og'zaki nutqini rivojlanishiga, og'zaki hisoblash malakasini oshishiga, ijodkorlik, izlanish va fikrlash qobiliyatini rivojlanishiga sabab bo'ladi.

Axborot bilan ishlash kompetensiyasini shakllantirish bilan birgalikda o'quvchilarda media madaniyatni ham rivojlantirib borish muhim hisoblanadi. O'quvchilar axborotlarni to'g'ri yoki noto'g'riligini ajrata bilishi, o'ziga kerakli ma'lumotlarni tanlay olishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda o'quvchilarimizga ta'lim - tarbiya berishda ta'limning masofaviy usullaridan foydalanyapmiz. O'quvchilarimiz ham ta'limga yo'naltirilgan saytlar orqali kerakli axborotlardan foydalanishmoqda. Bunda ularga axborotlar bilan ishlash kompetensiyasining shakllanganligi yordam bermoqda.

**REFERENCES**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 2017-yil, 6-son, 70-modda. 96-bet.
2. Karimov. I. A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. _T. :"Ma'naviyat", 2008. 3. Xalq ta'limi jurnali 2018-yil. 3-son.
3. Til va adabiyot ta'limi jurnali 2017-yil. 9-son

# XAYRIDDIN SULTONOV HIKOYALARIDA BADIIY NUTQ POETIKASI

**Qilicheva Nodira**
Termiz davlat universiteti magistranti

https://doi.org/10.5281/zenodo.7580800

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada Xayriddin Sultonov asarlarida, xususan, muallif hikoyalarida aks etgan badiiy nutq poetikasi borasida so`z yuritiladi. Qayd etib o`tish lozimki, Xayriddin Sultonov hikoyalarida namoyon bo`lgan badiiy nutq poetikasi badiiy adabiyot uchun muhim ahamiyat kasb etib, asar mohiyatini ochib berishga xizmat qiluvchi asosiy vosita sifatida baholanadi.*

***Kalit so`zlar:*** *Xayriddin Sultonov, hikoya, badiiy nutq poetikasi, asar mohiyati, vosita.*

# ПОЭТИКА ХУДОЖЕСТВЕННОЙ РЕЧИ В РАССКАЗАХ ХАЙРИДДИНА СУЛТАНОВА

***Аннотация.*** *В данной статье говорится о поэтике художественной речи, отраженной в произведениях Хайриддина Султанова, особенно в рассказах автора. Следует отметить, что поэтика художественной речи, проявляющаяся в рассказах Хайриддина Султанова, имеет большое значение для художественной литературы и рассматривается как основной инструмент, служащий раскрытию сути произведения.*

***Ключевые слова:*** *Хайриддин Султанов, рассказ, поэтика художественной речи, сущность произведения, медиум.*

# POETICS OF ARTISTIC SPEECH IN THE STORIES OF KHAYRIDDIN SULTANOV

***Abstract.*** *This article talks about the poetics of artistic speech reflected in Khayriddin Sultanov's works, especially in the author's stories. It should be noted that the poetics of artistic speech manifested in the stories of Khayriddin Sultanov is of great importance for fiction and is considered as the main tool that serves to reveal the essence of the work.*

***Keywords:*** *Khayriddin Sultanov, story, poetics of artistic speech, essence of the work, medium.*

Badiiy adabiyot kishilik jamiyatidagi poydevor fanlardan biri hisoblanib, ushbu fanning darslik sifatida o`qitilishi o`quvchilarga badiiy asar mohiyati hamda mazmunini anglashga ko`maklashadi. Biz tadqiq etmoqchi bo`lgan ushbu maqolada adabiyotdagi badiiy nutq poetikasi hamda uning Xayriddin Sultonov hikoyalarida aks etishi borasida so`z yuritiladi.

Xayriddin Sultonov – o`zbek adabiyotidagi o`zining badiiy asarlari bilan muqim o`rin egallagan mohir ijodkor sanaladi[5]. Qator nashriyotlarda bo`lim mudiri, adabiy xodim, moharrir kabi lavozimlarda faoliyat yuritgan Xayriddin Sultonov “Changak”, “Tushlarimda ko`rib seni yig`layman”, “Yozning yolg`iz yodgori”, “Sarhovuzning bo`ylarida”[7] kabi qator asarlar muallifi hisoblanadi. Shuni ham alohida ta`kidlash o`rinliki, Xayriddin Sultonov ijodiyotida badiiy adabiyotdan o`rin olgan qator unsurlar mavjud bo`lib, bizning ushbu ilmiy tadqiqot ishimiz uchun yozuvchining hikoyalaridan o`rin olgan badiiy nutq poetikasi muhim ahamiyatga egadir. Ayni o`rinda badiiy nutq poetikasi xususida fikr yuritish o`rinlidir.

Poetika so`zi yunon tilidan olingan bo`lib, “ijod san`ati” demakdir. Badiiy nutq poetikasi esa asar tuzilishiga xos bo`lgan umumiy jihatlar, badiiy uslubiyot va vositalar sanaladi. Ushbu yo`nalish bo`yicha qator ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshirilgan bo`lib, unga misol sifatida Solijonov Yo`ldoshxo`janing “XX asrning 80-90-yillari o`zbek nasrida badiiy nutq poetikasi”

ISSN:
2181-3906

International scientific journal
«MODERN SCIENCE AND RESEARCH»
VOLUME 1 / ISSUE 3

filologiya fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi, rus adabiyotshunosi M. Baxtinning "Dostoyevskiy poetikasining muammolari" nomli monografiyasi, A. Fedorovning qator ilmiy ishlarida ushbu mavzu batafsil yoritilb berilgan[6]. Badiiy asarlardagi badiiy nutq poetikasini ochib berishda, eng avvalo, asardagi quyidagi jihatlarga batafsil to`xtalish o`rinlidir, ya`ni asarlarda qo`llanilgan monolog shaklida bitilgan, bayon qilishga asoslangan nutqiy uslublarni aniqlash; dialogga asoslangan hikoya qilish tarzida ifodalangan nutqiy uslub; iboralarning qurilish jihatlarini aniqlash, asarning leksik qurilishiga e`tibor berish: undagi badiiylikni ta`minlashga xizmat qilgan adabiy so`zlar va shevaga xos bo`lgan ifodalarga e`tibor berish va hokazo.

Demak, Xayriddin Sultonovning hikoyalaridagi adabiy unsurlar, badiiylikni ta`minlab beruvchi vositalar ijodkor asarlaridagi badiiy nutq poetikasini aks ettirishga xizmat qiladi.

Xayriddin Sultonovning 1985-yilda yozilgan "Onamning yurti" hikoyasi muallif tilidan bayon qilingan ajoyib hikoya sanaladi. Monolog tarzida yozilgan ushbu hikoya adib tilidan elga xos sodda til bilan hikoya qilingan bo`lib, yurt farzandining yuragidan otilib chiqqan samimiy sadolardir[4]. *"Nihoyat, onamning yurtiga jo`nar bo`ldik. Onamning yurti!"[1]* deya boshlanuvchi ushbu asardagi takroriy qo`llanilgan jumlalar asar badiiyatini hamda badiiy unsurni ta`minlab bera olgan vosita sifatida ishtirok etgan.

Chunonchi, asar boshida ikki bora takrorlangan "onamning yurti" ifodasi hamda quyidagi gaplardagi: *"...onamning yurti – onamning o`tli armoni...", "...onamning yurti kunchiqardami, kunbotardami, daryo ortidami, tog`lar bag`ridami..."[1]* va hokazo. Demak, asarda takroriy ravishda ishtirok etgan ushbu birlik badiiy vosita o`laroq qatnashgan.

Bundan tashqari, ushbu hikoyada shevaga xos bo`lgan badiiy elementlar ham ishtirok etgan bo`lib, badiiy nutq poetikasini ta`minlashga xizmat qilgan:

- *...Ha, bo`la?*
- *E, qo`ying-e, bo`la...*[1]

Yuqoridagi parchalarda qo`llanilgan "bo`la" leksemasi qipchoq shevalariga oid unsur sanalib, ma`nosi "xolaning farzandlari"ga tengdir.

Xayriddin Sultonovning "Onamning yurti" hikoyasida muallif badiiylikni ta`minlash maqsadida o`zga shaxsning nutqiy monologidan foydalangan o`rinlar ham asarda ishtirok etgan, chunonchi, hikoyada ona obrazi tomonidan aytilgan fikrlar bunga yaqqol misol bo`la oladi: "*Joy bo`lmay qurib kestin, loaqal yuzyuvarga suvi bo`lmasa-ya. Esiz-esiz, yurtimdagi daryo-daryo suvlar..."[1].*

Badiiy nutq poetikasini ta`minlashga xizmat qiluvchi vosita sifatida tabiat tasviri, kishilarning xatti-harakatini ifodalovchi holatlar, asar qahramonlarining tashqi ko`rinishi ham misol bo`ladi. Nomi qayd etilgan hikoyada ham ushbu o`rinlar mavjud. "*Onamning yurti kunchiqardami, kunbotardami, daryo ortidami, tog`lar bag`ridami, dasht-u biyobonlar qo`ynidami – birortamiz bilmas edik. Faqat uning tengsiz go`zal bir maskan ekanini anglardik. U yurtda osmon - osmon emas – mushfiq ona; tog`lar – tog` emas, mehribon padar; gullar – gul emas; munis hamisha; u yerda odamlarni xo`roz qichqirig`i emas, bulbul navosi uyg`otardi*"[1] jumlasida aynan tabiat tasviri muallif tilidan bayon qilingan holda badiiy nutq poetikasini ochib berishga xizmat qilgan.

"Dunyoning siri" hikoyasi ham Xayriddin Sultonov qalamiga mansub asar hisoblanib, badiiy nutq poetikasi ishtirok etgan asar sifatida qayd etishimiz mumkin. Ushbu ijod

namunasidan o`rin olgan ba`zi badiiy unsurlar asardagi voqeliklar bilan hamohang ravishda rivojlangan.

Xususan, asar jarayonining qarama-qarshilik bilan boshlanishi ham badiiy nutq poetikasi uchun asosiy vosita sifatida ishtirok etgan: "*Shunaqa… Yer yuzida to`rt milliarda yetgan havo mingga yetmaydi… Bu gapni u hazillashib aytdi. Ammo Qunduz uning so`z ohangidagi pinhoniy nadomatni angladi…*" Muallif bayoniga ko`ra, hazil asosiga yo`g`rilgan ifoda ostida, aslida, afsus-nadomat mavjud ekanligi badiiy poetikaning bir ko`rinishi sanaladi.

Xayriddin Sultonov hikoyalarida ishtirok etgan o`xshatish vositalari ham badiiy poetik hodisa sifatida baholanadi. O`xshatish badiiy san`ati ishtirok etgan o`rinlar, eng avvalo, asardagi takroriy holatlarning oldini olishi bilan birgalikda ulardagi mubolag`aviylikni ham kuchaytirishga xizmat qiladi. Ijodkor qalamiga mansub "Dunyoning siri" hikoyasida ham aynan shunday o`rinlar mavjud, ya`ni: "*Kuz – "o`lik mavsum*".

Ushbu ifodaning mohiyatini anglash uchun muallif nuqtayi nazaridan qarash, uning fikrlarini teran anglashga harakat qilish lozim. Asar voqeliklarining bevosita sanatoriy bilan bog`liq ekanligi kuz faslining o`likka o`xshatilishiga asos sifatida xizmat qilmoqda. Bundan tashqari, ushbu hikoyada ishtirok etgan obrazlarning ayrimlariga bir vaqtning o`zida qator o`xshatishlar ham qo`llanilgan, chunonchi, Muzaffar obraziga nisbatan "ammasining buzog`i", "kekkaygan student" kabi ta`riflar keltirilgan hamda ular asardagi badiiy nutq poetikasini yuzaga keltirishga yordam bergan.

Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, Xayriddin Sultonov hikoyalari badiiy nutq poetikasini aks ettiruvchi badiiy vositalarga boy bo`lib, ularni ifodalashda muallif mahorati muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, badiiylik ifodalari aks etgan o`rinlar asarning yanada teran mazmun hamda yorqin ma`noga ega bo`lishiga yordam beradi.

## REFERENCES

1. https://ziyouz.uz/ozbek-nasri/xayriddin-sultonov/xayriddin-sultonov-onamning-yurti-hikoya/
2. Atoulloh Husayniy. Badoyi' us-sanoyi'. – T.: Adabiyot va san'at nashriyoti.1981.
3. Is'hoqov Y. Klassik adabiyot poetikasidan ma"lumotlar. Muqaddima. Ma'naviy san'atlar. Iyhom. – O'zbek tili va adabiyoti, 1970. 1-son.
4. Is'hoqov Y. Qofiya va she'riy san'atlar. – O'zbek tili va adabiyoti, 1980, 1-son.
5. Is'hoqov Y. So'z san'ati so'zligi. – T.: Zarqalam 2006. B.128.
6. Jo'raev O. Majoziy didaktik talqinlar – T.: Adabiyot va san'at. 1989.
7. Mallaev N. O'zbek adabiyoti tarixi. Toshkent: O'qituvchi, 1976.

# MIRZA KENJABEK IJODIDA DINIY - MA'RIFIY G'OYALAR TALQINI

**Raimova S.**
Ilmiy rahbar
**Shahnoza Choriyeva**
Termiz davlat universiteti talabasi
Tel: +998944640106
raimovas@tersu.uz

***https://doi.org/10.5281/zenodo.7580814***

***Annotatsiya.*** *Mazkur maqolada Mirza Kenjabekning diniy-ma'rifiy mavzuda yaratilgan ayrim she'rlari tahlilga tortilgan. Ushbu she'rlarning g'oyaviy - badiiy xususiyatlariga e'tibor qaratilgan. Shuningdek, ularda Qur'oni karim oyatlari va hadisi sharif mazmunining ifodalanishi xususida ham to'xtalib o'tilgan.*

***Kalit so'z:*** *diniy - ma'rifiy she'rlar, Mirza Kenjabek, nafsni yengish, Qur'on oyatlari.*

## ТОЛКОВАНИЕ РЕЛИГИОЗНО-ПРОСВЕТИТЕЛЬСКИХ ИДЕЙ В ТВОРЧЕСТВЕ МИРЗЫ КЕНДЖАБЕКА

***Аннотация.*** *В данной статье были проанализированы некоторые стихи Мирзы кенджабека на религиозно - просветительскую тематику. Акцент делается на идейно - художественных особенностях этих стихотворений. В них также затрагиваются аяты Корана и хадисы, выражающие содержание Шарифа.*

***Ключевое слово:*** *религиозно - просветительские стихи, Мирза кенджабек, преодоление похоти, стихи из Корана.*

## INTERPRETATION OF RELIGIOUS AND EDUCATIONAL IDEAS IN THE WORK OF MIRZA KENJABEK

***Abstract.*** *In this article, some of Mirza Kenjabek's poems, created on a religious and educational topic, were analyzed. Attention is paid to the ideological and artistic features of these poems. They also dwell on the expression of the verses of the Quran and the content of Hadith sharif.*

***Key word:*** *religious - educational poems, Mirza Kenjabek, overcoming lust, verses of the Koran.*

O'zbek adabiyotida azaldan diniy-ma'rifiy, irfoniy yo'nalishdagi she'rlar yetakchi o'rin egallab kelgan.Mumtoz adabiyot vakillari, xususan, Alisher Navoiy hazratlarining diniy-ma'rifiy, falsafiy qarashlarini hamda arba'inchilik an'analarini mustaqillik davri o'zbek shoirlari ham munosib tarzda davom ettirib kelmoqdalar.

Mana shunday ijodkorlardan biri shoir, tarjimon, jurnalist, islom olimi va mashhur Naqshbandiya tariqati shayxlaridan bo'lgan Mirza Kenjabekdir. Adib bir qator she'riy to'plamlar, tarixiy-ma'rifiy kitoblar, irfoniy maqolalar bilan birga, tarjimon sifatida milliy adabiyotimiz xazinasini bir qancha ilmiy-ma'rifiy hamda hadis kitoblari bilan boyitdi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Ayniqsa, ular orasidan Abu Iso Muhammad at-Termiziyning "Sunani Termiziy" ("Al-jome' as-sahih"), "Shamoili Muhammadiyya" hamda Muhammad Zohid Qo'tqu ibn Ibrohim al-Bursaviyning "Ahli sunnat val-jamoat aqoidi" ("Sog'lom islomiy aqida") kabi tarjimalari nafaqat adabiyotimiz, balki dinimiz taraqqiyotida ham muhim manbalar hisoblanadi.

Mustaqillik davri oʻzbek shoirlaridan A.Oripov, A.O'ktam, S.Sayyid va boshqa ijodkorlar qatori Mirza Kenjabek she'riyatida ham diniy-ma'rifiy qarashlarni uchratishimiz mumkin. Bu haqida mustaqillik davrida yuzaga kelgan diniy-ma'rifiy yo'nalishdagi she'riyatni o'rgangan tadqiqotchi S.Raimova shunday yozadi: "Keyingi yillarda diniy-ma'rifiy mavzu, tasavvufona talqinlarga havasmandlik iste'dodli shoir Mirza Kenjabek ijodida ham kuzatildi.

Bunday yangilangan ruh shoirning ichki olamidan darak beradi. Uning she'rlaridagi nasihatgo'y lirik qahramon chin oriflik maqomlarini yaxshi bilgan inson qiyofasida gavdalanadi. Shoirning 2018-yilda nashr etilgan "Xushxabar" to'plamidan joy olgan "Sheroz ilhomlari" turkumiga kiritilgan "Qur'on darvozasi", "Ma'noga kelding", "Muborak ayla", "Avval insof aylagil", "Qur'on o'qi", "Barzax", "Xushxabar", "O'zingdan o'zgaga muhtoj aylama", "Hazrati Umarni sog'inar ko'ngil" kabi she'rlarini intellektual(falsafiy) lirika sifatida, " Muhabbat manzumasi", "Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam)", "Uhud", "Barzax", "Qusam ibn Abbos" kabi she'rlarini esa tavsifiy lirikaning go'zal namunasi bo'lgan voqeiy she'rlar deb qarash mumkin"[1, 62]

Darhaqiqat, Mirza Kenjabekning "Xushxabar" to'plamidagi qator she'rlarida Qur'on oyatlari hamda hadislarga ishora ham mavjud. Ushbu to'plamdan o'rin olgan "Ibodat" she'rida shoir Alloh rizoligi uchun qilingan har bir amal "Ibodat" ga teng ekanligini o'zining go'zal diniy-falsafiy qarashlari orqali ifodalab bergan.

Mirza Kenjabek ijodi boʻyicha tadqiqot ishlarini olib borgan Sabohat Husanova bu she'r haqida shunday yozadi: "...Shoirning "Ibodat" she'riga e'tibor qaratadigan boʻlsak, bu she'r mazmun jihatdan insonlarni poklikka, toʻg'rilikka undovchi islom dini va bu dinda har bir qilgan ezgu amalimiz ibodatga tenglashtirilishi izohlanadi. Ushbu she'rning har bir banddagi yakunlovchi xulosalari tag zamirida Qur'oni Karim oyatlari va payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v)ning muborak soʻzlari boʻlmish hadisi shariflarga borib taqalishiga yaqqol guvoh boʻlamiz.

Ibodat ne? Yaratganga itoat ham ibodatdir,
Haqiqiy bandalik birlan sadoqat ham ibodatdir

Muqaddas dinimizda haqiqiy musulmonning Alloh taolo buyurgan yoʻldan og'ishmasdan borishi, yaratganning borligi va birligiga imon keltirib yashamoq joiz deya koʻrsatilgani barchamizga ma'lum va ushbu oyati karima yuqoridagi baytning mazmunini yanada yaqqolroq ochib beradi:

Ey iymon keltirganlar, Allohga itoat etingiz,Payg'ambarlar va oʻzlaringizdan boʻlmish boshliqlarga itoat etingiz''("Niso" surasi 59-oyat).[2, 26].

Yuqorida ta'kidlaganimizdek Mirza Kenjabek Naqshbandiya tariqatining mashhur shayxlaridan biri hisoblanadi. Shu sababli, shoirning aksar she'rlarida ushbu tariqatning g'oyalari singdirib yuborilganini ko'rishimiz mumkin.Jumladan, "Ibodat" she'ridan olingan quyidagi misralarda ham Naqshbandiya tariqatining asosi boʻlgan "Dil ba yor-u, dast va kor"("Qo'ling mehnatda bo'lsin, diling Allohda") g'oyasiga ishora mavjud:

Mudom Allohni zikr etsang, halol boriga shukr etsang,
Qiyomat kunin fikr etsang, tijorat ham ibodatdir.
Butun borliq, nabotot ham, Yaratganga etar tasbeh,
Bobo dehqon ekib yursa ziroat ham ibodatdir...[3,57]

Mirza Kenjabekning diniy-ma'rifiy she'rlarida tasavvufiy qarashlar, so'fiyona ruh bilan birga Yassaviy hikmatlariga hamohanglik ham asosiy o'rin egallaydi.Bilamizki, tasavvufning

bosh maqsadi komil insonni tarbiyalash. Komil inson bo'lish uchun ruhan poklanish zarur. Poklanish yo'li esa –nafsni yengish.

Yassaviy hikmatlariga xos xususiyatlardan biri ham aynan nafsni yengishdir. Shoirning ham bir qator she'rlarida ayni shu mazmun yetakchilik qiladi.Masalan, ijodkorning "Ma'noga kelding" she'rida shoir haqiqiy botirlik kimnidir yengish emas, balki o'z nafsini yengish("kishanlash") ekanini aytib o'tadi:

Botirlik, peshvarlik emas jasorat,
Nafsingni kishanla, shudir mahorat,
Kaslar qilaversin tinmay haqorat,
Sen ular kelmagan ma'voga kelding.[3, 89]].

Ushbu misralar Yassaviy hazratlarining "Nafsni tepib dargohiga loyiq bo'lg'il", "Nafsni tepgil, nafsni tepgil, ey badkirdor" kabi hikmatlariga hamohang tarzda aytilgan.Haqiqatda ham, ilohiy ishqqa talpingan oshiq, avvalo, o'z nafsidan g'olib chiqmog'i lozim. Zero, "...Iymon kalimasini aytsang-da, zakotingni musofirlarga tutqazsang-da, Ramazonda ro'zali yurib, haj niyati ila Ka'baning ziyoratida bo'lsang-da, nafsingdan g'olib kelmaguningcha bu amallar seni yaxshi tomonga o'zgartirmagay.

Hatto, jihod maydoniga chiqqan mujohidning nafsi unga iymonidan ko'ra kuchliroq ta'sir o'tkazsa, kofirning qonini to'kib, jonini olishdan kimga qanday naf bo'lgay?! Zotan, jihodning asli nafsga qarshi jihod qilmoqdir. Nafs ko'zni ko'r etadi, haqiqiy ishqdan ayiradi, ro'yolarga asir etadi[4, 70]. Ushbu fikrlarni shoirning quyidagi ruboiysida yanada yorqinroq aks etganini ko'rishimiz mumkin:

Polvon bo'lsang, ichda razil tuyg'uni yeng,
Tirik dil bo'l, dilni ezgan qayg'uni  yeng.
Polvon bo'lsang, nafsing bilan kurashga tush,
Umring bo'yi seni yenggan uyquni yeng.[3, 163].

Bu yerda shoir  lirik qahramonga yuzlanib, agar sen haqiqiy ibodatg'oy musulmon ("polvon") bo'lsang, avvalo ichingdagi shaytoniy istaklarni ("razil tuyg'u") yengib, taqdirdan keladigan barcha sinovlarga sabr qilmog'ing, ya'ni "dilni ezgan qayg'uni yeng"mog'ing, shuningdek,  eng katta dushmanlaring bo'lgan "nafsing" hamda "g'aflat uyqusi"ni yengmog'ing lozim, deydi.

Shoir she'rlarida Qur'oni karim hamda hadisi shariflarga ishora ham mavjud. Ijodkorning "Muborak ayla" she'rida lirik qahramon gunohlariga tavba qilib, Allohga munojot qilar ekan, shu o'rinda Qur'oni Karimning "Kahf" surasidagi oyatga ham ishora qilib, "Allohning do'stlariga ergashib jannatga kirgan it" haqida eslab o'zining ham mag'firat etilishi uchun Allohdan umidvor bo'ladi:

Bir it do'stlaringga ergashib faqat,
As'hofi kahf ila topdi-ku jannat,
Men ham do'stlaringga do'stman, yo Ahad!
Xorlik izhorimni muborak ayla!
G'or ahli yuz yillar uxladi kirib,
Men-chi, umrim bo'yi uxladim yurib,
O'lmasimdan oldin uyg'otib turib,
Qalbi bedorimni muborak ayla! [3, 90].

Bu oyati karimada: " Ularni uyg'oq deb o'ylaysan, holbuki, uxlab yoturlar. Ularni goh o'ngga, goh chapga ag'darib tururmiz. Itlari esa, ostonada old oyoqlarini cho'zib yotur" ("Kahf" surasi 18-oyat)[5, 475].]deb yozilgan. Ya'ni bu oyatga ko'ra dinini, iymonini pok saqlab qolish uchun bir qator yigitlar zolim podshohdan qochib bir g'orga yashirinadi.

Ular bilan birga bir it ham yuz yil o'sha g'orda uxlab qoladi va jannatga kirish bashoratini oladi Hadisi sharifda ham bu voqeaga ishora qilib "Jannatga kiradigan o'n nafar hayvondan biri bu "As'hobi kahf" ning vafodor itidir"( "Al-jome al-Kabir") deyilgan.

Mirza Kenjabek o'zining "Yolg'onning umri" she'rida Rauf Parfining "Yolg'onning umri uzun..." jumlasini epigraf sifatida keltiradi va birinchi misradayoq bu fikrga qarshi chiqadi:

Yo'q, g'oyat qisqadir yolg'onning umri,
U dunyo turguncha turgaydir faqat.
So'ngra boshlanadi rostlik diyori–
Oxirat diyori, mangu saltanat.

Ya'ni, yolg'onning umri bu dunyo kabi qisqa va foniy ekanligini aytib, insonlarni yolg'on gapirmaslikka chaqiradi, aks holda o'sha yolg'oni "Quyosh g'arbdan chiqib bo'lgan kun" ("Qiyomat kuni") da o'ziga qarshi guvohlik berishini eslatib o'tadi.

Rosululloh (sollallohu alayhi va sallam) aytdilar: "Alloh qiyomat kuni uch toifa odamga gapirmaydi, ularni(gunohlaridan) poklamaydi, ularga (rahmat nazari bilan) qaramaydi va ularga alamli azob bo'ladi. (Ular): zinokor qariya, yolg'onchi podshoh va mutakabbir kambag'aldir"( Imom Muslim va Nasoiy

rivoyati) [6, 254]. Shunday ekan inson toki qiyomat kunigacha "rostlik va muhabbat ko'chatlarini ekaverishi" kerak:

Yolg'on umri qisqa. Ey dil u yakto,
Haq bir-bir ko'rsatar hujjatlarini.
Ekaver qiyomat onigacha to
Rostlik va muhabbat ko'chatlarini.
Bas, qiyomatgacha yashar yolg'on, koj,
So'ng tugar... bu olam majoziy soxta.
G'arbdan ko'tarilib daf'atan quyosh,
Yolg'onning umriga qo'ygaydir nuqta! [3, 48].

Yolg'on so'zlash Qur'oni karim oyatlarida ham qattiq qoralangan:

"Yolg'on so'zlarni faqat Alloh oyatlariga imon keltirmaydiganlargina to'qiydilar. Aynan o'shalarning o'zlari yolg'onchilardir" (Nahl surasi 105-oyat) [5, 380].

Shuningdek, Alloh taolo Zumar surasining 3-oyatida shunday marhamat qiladi:

"Albatta, Alloh yolg'onchi va noshukur kimsalarni hidoyat qilmas"[5, 192].

Xulosa qilib aytadigan boʻlsak, Mirza Kenjabekning diniy-ma'rifiy she'rlari badiiyatini ochishda Qur'oni karim oyatlari, hadisi shariflar hamda tasavvufiy g'oyalar ham alohida ahamiyat kasb etgan.Shoir o'z ijodida Ahmad Yassaviy, Sulaymon Boqirg'oniy, So'fi Olloyor kabi diniy-tasavvufiy adabiyot vakillarining an'analarini davom ettirgan.

**REFERENCES**:

1) Raimova S. Mustaqillik davri o’zbek she’riyatida diniy-ma’rifiy mavzuning badiiy talqini.Filol.fan. fals.dok. diss… –Toshkent, 2021.
2) Husanova S. Mirza Kenjabek ijodida diniy-tasavvufiy qarashlar talqini.magistr.diss…–Termiz, 2022.
3) Kenjabek, Mirza. Xushxabar – Toshkent: Navro'z, 2018.
4) Malik A.Halqa.–Toshkent:Tamaddun, 2021.
5) Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf.Tafsiri Hilol.–Toshkent, 2008.
6) Zahabiy Shamsiddin.Gunohi kabiralar.Toshkent: G'.G'ulom, 2016.

## BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARIDA KREATIVLIK QOBILIYATINI SHAKLANISHI

**Egamberdiyeva Dilobod Olimjonovna**
Sirdaryo viloyati, Guliston tumani 31 - umumiy o'rta ta'lim maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchisi
**Abdualimova Gulnoza Olimjonovna**
Sirdaryo viloyati, Guliston tumani 31 - umumiy o'rta ta'lim maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7580820

***Annotatsiya.*** *Ushbu metodda muallif tomonidan kreativ qobiliyatni shakllantirish muammosi, uning nazariy asoslari va mazmuni yoritilgan. Shuningdek, maqolada boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kreativlik salohiyatini rivojlantirish metodlari va mazkur jarayon bilan bog'liq kasbiy pedagogik xususiyatlar haqida fikr yuritilgan.*

***Kalit so'z:*** *boshlang'ich sinf o'qituvchisi, kreativlik, ijodiy qobiliyat, kreativ salohiyat, ijodiy yo'nalganlik.*

## ФОРМИРОВАНИЕ ТВОРЧЕСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ У УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

***Аннотация.*** *В данном методе освещена автором проблема формирования творческих способностей, ее теоретические основы и содержание. В статье также рассмотрены методы развития креативного потенциала у учителей начальных классов и профессиональные педагогические особенности, связанные с этим процессом.*

***Ключевое слово:*** *учитель начальных классов, креативность, творческие способности, творческий потенциал, творческая направленность.*

## FORMATION OF CREATIVE ABILITIES IN PRIMARY SCHOOL TEACHERS

***Abstract.*** *In this method, the problem of the formation of creative abilities by the author, its theoretical foundations and content are covered. The article also discusses the methods of developing the potential of creativity in primary school teachers and the professional pedagogical characteristics associated with this process.*

***Keyword:*** *primary school teacher, creativity, creative ability, creative potential, creative orientation.*

Dunyo ta'lim taraqqiyotining jadal suratlarda rivojlanishi avvalambor ta'lim jarayoniga innovatsion va kreativ yondashish lozimligini taqozo etmoqda. Chunki jahonda har qaysi jamiyatning rivojlanishi va yo'nalishini begilab beruvchi innovatsion - kreativ ijodkorlik ta'siri ostida yuz berib, inson faoliyatining har bir sohasida ijodkorlikka bo'lgan ehtiyojning ortishi bilan tavsiflanadi. Xorijiy rivojlangan mamlakatlarda, jumladan AQSH, Kanada, Germaniya, Rossiya, Yaponiya, Koreya kabi davlatlarda o'qitish jarayonlari innovatsion-kreativ yondashuv asosida amalga oshirilmoqda.

Mazkur holatni bevosita kuzatib, chuqur tahlil qilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev 2019-yil 23-avgustda xalq ta'limi, oliy ta'lim xodimlari bilan bo'lgan muloqotda uzluksiz ta'lim tizimida olib borilishi kerak bo'lgan dolzarb vazifalar haqida fikr yuritib, "… bugungi kunda ta'lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan o'qituvchilarning obro'sini ko'tarish, shu bilan bir qatorda bugun o'qituvchilarning o'zlari ham ta'lim-tarbiya jarayoniga yangicha ijodiy yondashishi lozim"[1], - degan bir qator fikrlarni bildirib o'tdi. Shuningdek, yurtboshimiz Sh. M. Mirziyoyev 2020-yil 24-yanvarda Oliy

majlisga qilgan murojaatnomasida ham, ta’lim-tarbiyaning uzviy bog’liqligini yanada kuchaytirish maqsadida “Sharqona qarashlarimizda ta’limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta’limdan ajratib bo’lmaydi. Bu esa bugungi kun o’qituvchisidan katta mas’uliyatni talab qiladi”[2], - deb ta’kidladilar.

Demak, bugungi kun o’qituvchilari ta’lim-tarbiya ishlarida faol qatnashar ekanlar, ular o’z faoliyatlarini zamon bilan hamohang tarzda tashkil etishlari talab etiladi. Shuningdek, umumta’lim muassasalarida faoliyat ko’rsatayotgan boshlang’ich sinf o’qituvchilari umumiy va maxsus kompetentsiyalarga ega bo’lishi hamda o’z faoliyatida ijodkorlik qobiliyatlarini namoyon eta olishi lozim.

**Asosiy qism.** Shaxsning mutaxassis sifatida kasbiy kamol topishi, rivojlanishi o’z mohiyatiga ko’ra jarayon tarzda namoyon bo’ladi. Kasbiy yetuklik inson ontogenezining muhim davrlari kasbiy kamol topish, rivojlanish g’oyalarining qaror topishi (14-17 yosh)dan boshlanib, kasbiy faoliyatning yakunlanishi (55-60 yosh)gacha bo’lgan jarayonda kechadi.

Ijodkor shaxsning shakllanishi va rivojlanishi uning ichki va tashqi olami o’zgarishining o’zaro mos kelishi, ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar hamda inson ontogenizi – tug’ilishidan boshlab to umrining oxiriga qadar uzluksizlik, vorisiylikni taqozo etadigan faoliyat mazmuniga bog’liq.

Ma’lumki, kasbiy tajriba bilim, ko’nikma va malakalarning integratsiyasi sifatida aks etadi. Biroq, boshlang’ich sinf o’qituvchilari tomonidan kasbiy kompetentsiyalar va ijodiy faoliyat ko’nikmalarining o’zlashtirilishi nafaqat amaliy ko’nikma va malakalarning integratsiyasi, mutaxassis sifatida faoliyatni samarali tashkil etish usul va vositalarini ishlab chiqishni, shu bilan birga kasbiy ijodkorlik metodologiyasidan xabardor bo’lish, ijodiy tafakkurni rivojlantirish va kreativ xarakterga ega shaxsiy sifatlarning yetarli darajada o’zlashtirilishi talab etiladi.

Boshlang’ich sinf o’qituvchilarida kreativ salohiyatni rivojlantirish jarayonining umumiy mohiyatini to’laqonli anglash uchun dastlab “kreativlik”, “kreativ yondashuv” tushunchalarining ma’nosini tushunib olish talab etiladi.

Ken Robinsonning fikriga ko’ra, “kreativlik – o’z qiymatiga ega original g’oyalar majmui” sanaladi. Gardner esa o’z tadqiqotlarida mazkur tushunchani quyidagicha izohlaydi: “kreativlik – shaxs tomonidan amalga oshiriladigan amaliy harakat bo’lib, u o’zida muayyan yangilikni aks ettirishi va ma’lum amaliy qiymatga ega bo’lishi lozim”.

Emebaylning yondashuvi nuqtai nazaridan ifodalansa, kreativlik “muayyan soha bo’yicha o’zlashtirilgan puxta bilimlar bilan birga yuqori darajada noodatiy ko’nikmalarga ham ega bo’lish” demakdir.

Kreativlik (lot., ing. “create” – yaratish, “creative” yaratuvchi, ijodkor) – shaxsning yangi g’oyalarni ishlab chiqishga tayyorligini tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati ma’nosini ifodalaydi. Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg’ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo’ladi.

Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini, zehni o’tkirlikni tavsiflaydi. Shuningdek, kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida aks etadi. Amerikalik psixolog P.Torrens fikricha, “kreativlik muammo yoki ilmiy farazlarni ilgari surish; farazni tekshirish va o’zgartirish; qaror natijalarini shakllantirish asosida muammoni aniqlash; muammo yechimini topishda bilim va amaliy harakatlarning o’zaro qarama-qarshiligiga

nisbatan ta'sirchanlikni ifodalaydi".

O'qituvchilarning kreativlik sifatlariga ega bo'lishi ularning shaxsiy qobiliyatlari, tabiiy va ijtimoiy quvvatini kasbiy faoliyatni sifatli, samarali tashkil etishga yo'naltiradi. Shuningdek, o'quv va tarbiya jarayonlarini tashkil etishga an'anaviy yondashishdan farqli yangi g'oyalarni yaratish, bir qolipda fikrlamaslik, o'ziga xoslik, tashabbuskorlik, noaniqlikka toqat qilmaslikka yordam beradi.

Binobarin, kreativlik sifatlariga ega pedagog kasbiy faoliyatini tashkil etishda ijodiy yondashish, yangi, ilg'or, o'quvchilarning o'quv faoliyatini, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladigan g'oyalarni yaratishda faollik ko'rsatish, ilg'or pedagogik yutuq va tajribalarni mustaqil o'rganish, shuningdek, hamkasblar bilan pedagogik yutuqlar xususida doimiy, izchil fikr almashish tajribasiga ega bo'lishga e'tibor qaratadi.

Ayni o'rinda shuni alohida qayd etib o'tish joizki, har bir shaxs tabiatan kreativlik qobiliyatiga ega. Xo'sh, shaxs o'zida kreativlik qobiliyati mavjudligini qanday namoyon eta olishlari mumkin? Bu o'rinda Patti Drapeau shunday maslahat beradi: "Agarda o'zingizni kreativ emasman deb hisoblasangiz, hozirdanoq kreativ tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan mashg'ulotlarni tashkil eta boshlashingizni maslahat beraman. Aslida, gap sizning ijodkor bo'lganingiz yoki bo'lmaganingizda emas, balki ijodkorlik faoliyatni kreativlik ruhida tashkil etishingiz va yangi g'oyalarni amalda sinashga intilishingizdadir".

Patti Drapeau nuqtai nazariga ko'ra kreativ fikrlash, eng avvalo, muayyan masala yuzasidan har tomonlama fikrlash sanaladi. *Har tomonlama fikrlash* o'qituvchilardan o'quv topshirig'i, masalasi va vazifalarini bajarishda ko'plab g'oyalarga tayanishni talab etadi. Bundan farqli ravishda *bir tomonlama fikrlash* esa birgina to'g'ri g'oyaga asoslanishni ifodalaydi. Mushohada yuritishda muammo yuzasidan bir va ko'p tomonlama fikrlashdan birini inkor etib bo'lmaydi. Binobarin, bir va har tomonlama fikrlash kreativlikni shakllantirishda birdek ahamiyat kasb etadi.

Ya'ni, topshiriqni bajarish, masalani yechishda shaxs yechimning bir necha variantini izlaydi (ko'p tomonlama fikrlash), keyin esa eng maqbul natijani kafolatlovchi birgina to'g'ri yechimda to'xtaladi.

Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg'ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo'ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini tavsiflaydi. Kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida ham aks etadi. Qolaversa, kreativlik zehni o'tkirlikni belgilab beradi, "o'quvchilar e'tiborini ta'lim jarayoniga faol jalb etishni ta'minlaydi".

Shu bilan bir qatorda kreativlik masalasini ilmiy tushunishda turli fikrlarning mavjudligi, yaxlit xulosaga kelinmaganligi tadqiqot mavzusi dolzarbligining yana bir ko'rinishi hisoblanadi. Vaholanki, bu muammo bugungi kunga qadar ko'plab G'arb mamlakatlarida turlicha tahlil etilgan va o'rganilgan.

Masalan, N.N. Nechayev, Y.A. Ponomarev, D.V. Ushakov singari olimlar kreativlik masalasini umumiy tarzda shaxsning individual psixologik xususiyati sifatida o'rgangan bo'lsalar, Agababyan A. R., Arutyunyan N. D., Aleynikov A.G., Andreyev V.I., Vishnyakova, N.F., Drapeau Pattilar kreativlikning ma`naviy, psixologik jihatlarini tahlil etgan.

XXI asrga kelib O'zbekiston Respublikasining ta'lim sohasida ham ushbu termin ishlatila boshladi. Ayniqsa, pedagogika fanining alohida va yosh tarmog'i sifatida shakllanib

boshlagan "Innovatsion pedagogika"da ushbu terminga bod-bod duch kelmoqdamiz. R.A.Mavlonova o'zining "Boshlang'ich ta'limda pedagogika, innovatsiya, integratsiya" nomli o'quv qo'llanmasida kreativlikning o'zi nima, uning shakllanishi masalalariga alohida to'xtalib o'tgan. Qo'llanmada kreativlik tushunchasining mazmuni va mohiyati chuqur tahlil etilgan. Ammo kreativlik masalasining ilmiy-nazariy, ilmiy - pedagogik jihatlari hamda kasbiy va shaxsiy kompetentsiyalarni o'zlashtirish jarayonida maxsus ilmiy tadqiqot ob'yekti sifatida tadqiq etilmagan. Bugungi kundagi zamonaviy uzluksiz ta'lim tizimi kreativ yondoshuvni talab etadi.

Kreativ yondashuv bevosita innovatsiyalar bilan bog'liq jarayondir. Negaki o'qituvchining ijodiy faoliyat yuritishi uchun, u albatta o'zining sohasidagi eng so'nggi yangiliklardan, shu bilan bir qatorda butun jamiyatdagi voqea va hodisalardan xabardor bo'lishi, innovatsion yangiliklarni o'z faoliyatida o'rinli foydalana olishi lozim. Demak, o'qituvchi har qanday vaziyat, har qanday jarayon va har qanday paytda eng samarali yo'lni izlab topishi va uni amaliyotga joriy qilish orqali mashg'ulot jarayonini samarali tashkil etishi, o'quvchilar ongiga tez, tushunarli, qulay, oson va samarali tarzda yetkazib berishi ham kreativlikning bir ko'rinishi deyish mumkin.

Yuqoridagi pedagog olimlar, ayniqsa olima R.A.Mavlonova tomonidan olib borilgan tadqiqotlar bilan tanishar ekanmiz, ularning barchasini umumlashtirgan holda quyidagi fikrlarni e'tirof etish mumkin:

1. Kreativlik shaxsni innovatorlikka (yangilik yaratish) undovchi pedagogik kategoriya hisoblanadi.

2. Kreativ salohiyat o'qituvchining kasbiy va shaxsiy sifatlarining integratsiyasidir. Chunki, o'qituvchi tabiatan qiziquvchan, intiluvchan bo'lmas ekan, u hech qachon ijodkorlikni namoyon eta olmaydi.

3. Kreativlik o'qituvchilarda o'z-o'zidan paydo bo'ladigan sifat emas, u o'qituvchining yangiliklarga intilishi, yangiliklarni o'zlashtirish va o'zining pedagogik faoliyatida qo'llay olish jarayonlarida duch keladigan qiyinchiliklarni yenga olishi, innovatsion yangiliklarni o'z faoliyatida faol, ijodkorona foydalana olish va o'z mualliflik g'oyalariga egaligi, optimal yechimlarni topa olishi bilan bog'liqdir.

Mualliflik yondashuvi asosida kreativ salohiyat tushunchasining mazmunini quyidagicha izohlash mumkin: Kreativ salohiyat – bu shaxsni rivojlantiruvchi kategoriya sifatida inson ma'naviyatining ajralmas qismi bo'lib, shaxsni o'z - o'zini rivojlantirish omili, shaxsiy jonbozlikning asosi, shaxs ega bo'lgan bilimlarning ko'p qirrali ekanligida emas, balki yangi g'oyalarga intilishida va o'rnatilgan stereotiplarni yangilik yaratish jarayonini isloh qilish va o'zgartirishda, hayotiy muammolarni yechish jarayonida kutilmagan va noodatiy qarorlar chiqarishda namoyon bo'ladi.

Kreativlik salohiyati bilish jarayoniga yo'naltirilgan ijodkorlik bilan chambarchas aloqador. O'qituvchilar tomonidan kasbiy kompetentsiyalarni o'zlashtirish jarayonida ijodkorlik salohiyati an'anaviy tafakkur yuritishdan farqli ravishda quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- Tafakkurning tezkorligi;
- Yangi g'oyalarni yaratish qobiliyati;
- Tashabbuskorlik;
- Noaniqlikka toqat qilish;

ISSN:
2181-3906

International scientific journal
«MODERN SCIENCE AND RESEARCH»
VOLUME 1 / ISSUE 3

- Zakovatli bo'lish;
- Muammolarni hal etishga nisbatan noodatiy yondashuv.

**Maqolaning ilmiy mohiyati.** Tahlillar shuni ko'rsatdiki, o'z-o'zini rivojlantirish va kasbiy muvaffaqiyatga erishish shaxsdagi ijodkorlik qobiliyatining qay darajada rivojlanganligi bilan uzviy aloqadordir.

**Boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kreativlik salohiyatini rivojlantirishning tarkibiy asoslari.** Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ salohiyatini rivojlantirish kasbiy pedagogik faoliyatda zarur bo'ladigan quyidagi omillarga e'tibor qaratishni taqozo etadi:

- yangi-yangi g'oyalarni yaratishda faollik ko'rsatish;
- ilg'or pedagogik yutuq va tajribalarni mustaqil o'rganish;
- o'qituvchi va hamkasblar bilan pedagogik yutuqlar xususida fikr almashish.

Har bir mutaxassisning o'qituvchi sifatida o'zini o'zi rivojlantirishi va o'zini o'zi namoyon eta olishi bevosita uning kreativlik qobiliyatiga egaligi bilan bog'liq.

O'qituvchining kreativlik salohiyati uning umumiy xususiyati sifatida aks etadi. U ijodiy faoliyatning dastlabki sharti va natijasi sanaladi. Mazkur sifat shaxsning o'zo'zini namoyon qilish layoqatiga egalikni va tayyorlikni ifodalaydi. Qolaversa, kreativ salohiyat negizida har bir mutaxassisning shaxsiy qobiliyatlari, tabiiy va ijtimoiy quvvati yaxlit holda namoyon bo'ladi. Kreativ salohiyat bilish jarayoniga yo'naltirilgan ijodkorlik bilan chambarchas bog'liq.

Bugungi o'qituvchi o'quv mashg'ulotlarini tashkil etishda avvalo rejalashtirilgan bir qolipdagi mashg'ulot turlaridan voz kechib, o'quvchilarda mustaqil, tanqidiy, mantiqiy, ijodiy tafakkurni shakllantirish va rivojlantirish, ularni ijodiy fikrlash, ya'ni yangi g'oyalarni o'ylab topishga majbur qilish, ta'lim olishga bo'lgan munosabatni o'zgartirish, ularni yutuqlarga erishishiga rag'batlantirishda asosiy omil bo'lishi kerak. O'quv mashg'ulotlariga yetishmayotgan omil - kreativlik sanaladi.

Bugungi kunda boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodkor va kreativ bo'lishi yoki bo'lmasligi emas, balki ularning kasbiy faoliyatini ijodkorlik, kreativlik ruhida tashkil etishi, yangi g'oyalarni ta'lim jarayonida sinab ko'rishi maqsadga muvofiq.

Boshlang'ich sinf o'qiuvchilarining kreativ salohiyatini rivojlantirish quyidagi to'rt yo'nalish bo'yicha harakat qilishni talab qiladi:

1) O'qituvchilarning ijodiy fikrlash ko'nikmalarini namoyish etishi va erkin faoliyat yuritishi uchun zarur shart-sharoitni yaratish;

2) O'quvchilar tomonidan o'quv fanlarini qiziqish bilan o'zlashtirishiga rag'batlantiruvchi strategiyani joriy etish;

3) Innovatsion yondashuv va pedagogik masala (muammolarning yechimi)ni topishda ijodiy yondashuvning ustivorligini ta'minlash;

4) Belgilangan ta'limiy-tarbiyaviy vazifalarni to'laqonli bajarish orqali kutiladigan natijaga erishish.

Xullas, har bir o'qituvchining o'zini-o'zi rivojlantirishi va o'zini-o'zi namoyish eta olishi, kasbiy kompetentsiyalarni o'zlashtirib borishi bevosita uning kreativlik qobiliyatiga egaligi bilan bog'liq.

O'qituvchi kreativligining shakllanishi «ehtiyojlar, yo'nalishlar va "Men" kontsepsiyalaridan kelib chiqadi. O'qituvchining kreativlik faoliyati pedagogik faoliyatning barcha turlarida namoyon bo'lishi davr talabidir. O'qituvchining kreativlik

faoliyati bu avvalo, pedagogik mahorat bilan bog'liq degan umumiy xulosani shakllantiradi.

**REFERENCES**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq ta'limi va oliy ta'lim tizimi o'qituvchilari bilan bo'lib o'tgan uchrashuvda so'zlagan nutqi. 2019.08.23.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoyevning 2020 yil 24 yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi matni. http://uza.uz
3. Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem soving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014. – p. 260

# O`ZBEKISTON MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI ORGANLARI HUQUQIY ASOSINING YARATILISHI VA HOKIMLIK INSTITUTINING TASHKIL ETILISHI

**Asilbekov Doniyor Bahrom O`g`li**
Davlat va fuqarolik jamiyati institutlar boshqaruvi
2 - kurs Magistrant

https://doi.org/10.5281/zenodo.7580838

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada O`zbekiston mahalliy davlat hokimiyati organlari huquqiy asosinining yaratilishi va hokimlik institutining tashkil etilishi haqida fikr yuritilgan.*

***Kalit so'zlar:*** *liberallashtirish, hokimlik, boshqaruv, demokratik huquqiy davlat, xalq deputatlari Kengashlari, Mahalliy ijroiya hokimiyati.*

# СОЗДАНИЕ ПРАВОВОЙ ОСНОВЫ ОРГАНОВ МЕСТНОЙ ГОСУДАРСТВЕННОЙ ВЛАСТИ УЗБЕКИСТАНА И СОЗДАНИЕ ИНСТИТУТА ХОКИМИЯТА

***Аннотация.*** *В данной статье рассматривается создание правовой основы органов государственной власти на местах Узбекистана и создание института хокимата.*

***Ключевые слова:*** *либерализация, власть, управление, демократическое правовое государство, Советы народных депутатов, местная исполнительная власть.*

# CREATION OF THE LEGAL BASIS OF LOCAL GOVERNMENT BODIES OF UZBEKISTAN AND ESTABLISHMENT OF THE INSTITUTION OF POWER

***Abstract.*** *This article discusses the creation of the legal basis of local government bodies of Uzbekistan and the establishment of the institution of power.*

***Keywords:*** *liberalization, governor's office, management, democratic legal State, Councils of people's deputies, local executive power.*

O'zbekistonda mustaqillikka erishilgandan keyin boshlangan keng ko'lamdagi islohotlarning maqsadi mamlakatimizda bozor iqtisodiyotiga asoslangan erkin, ochiq huquqiy demokratik davlatchilikni barpo etishdir. Buboshqa tizimlar qatori mahalliy davlat hokimyati tizimida ham tub o'zgarishlarni amalga oshirishni taqozo qildi.

Chunki 90 yillarning boshlarida O'zbekistonda mavjud bo'lgan hokimiyat tizimi, jumladan mahalliy hokimiyat tizimi SSSRda shakllangan ma'muriy-buyruqbozlik tizimining tarkibiy qismi bo'lib, KPSS qarorlarini hayotga tadbiq etishga yo'naltirilgan va partiyaning ta'sir doirasiga to'lasincha olingan muassasalardan tashkil topgan tizimga aylangan edi.

Demak bu tizim buyruqni ijro etishga moslashgan tizim sifatida masalalarga ijodiy yondashishni talab qiladigan, bozor munosabatlari o'rnatilgan, demokratlashtirish, liberallashtirish jarayonlari kuchaygan yangi davr talablariga umuman javob bermas edi. Endilikda mahalliy hokimiyat organlari o'zgarayotgan sharoitga tezlik bilan moslasha oladigan, xalq manfaatlarini hamma narsadan ustun qo'yadigan, aholi eng zarur ehtiyojlarini qondira oladigan muassasalar bo'lishi talab qilinar edi.

Xalqaro va milliy davlatchilik tajribalarini o'rganish asosida mustaqillikning dastlabki oylaridayoq joylardagi mahalliy hokimiyat organlarini yangi asosda shakllantirish konsepsiyasi ishlab chiqildi. Unga ko'ra vakillik organining kollegiallik, ijroiya hokimiyatining yakkahokimlik va shaxsiy javobgarlik tamoyillari asosida shakllantirilishi ko'zda tutildi.

Ana shu konseptual asosga ko'ra mamlakatimizda hokimlik instituti qayta tiklandi. Shuni ta'kidlash lozimki hokimlik instituti bu bugungi kunga kelib qilingan ixtiro emas. Uning ildizlari

ko'hna tariximizga borib taqaladi. Shuning uchun ham hokimlik tizimida mamlakatimiz milliy davlat qurilishining ko'p asrlik tajribasi o'zining aksini topdi.

Hokimlik instituti kuchli hokimiyatga ehtiyoj katta bo'lgan hozirgi zamon talablariga to'la javob beradi. Hokim aholini qiziqtirayotgan barcha joriy muammolarni hal qilish imkoniyatiga ega bo'lib, bir vaqtning o'zida ham vakillik ham ijroiya hokimiyatni o'zida mujassamlashtiradi. Demak u ham boshqaruvda ham ijroda shaxsan javobgar hisoblanadi.

Ijroiya organi bo'lgan hokimiyat boshqaruv va ijro funksiyalarini o'zida mujassamlashtiradi. Yangicha munosabatlarga o'tish jarayonida mahalliy hokimiyat organlari o'z hududining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashga bevosita ma'sul bo'lishlari lozim edi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach ana shunday vazifalarni uddalaydigan yangi hokimiyat organlarini shakllantirish va ularning huquqiy maqomini belgilash maqsadida bir qator qonunlar va rasmiy hujjatlar qabul qilindi.

O'zbekiston Oliy Kengashi qarori bilan 1991 yil 18 noyabrda Toshkent shahrida hokimlik institutining tashkil etilishi bu boradagi birinchi qadam bo'ldi [1, B.146.]

1992 yil 4 yanvarda esa O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi mamlakatimizda mahalliy davlat hokimiyati organlarini qayta tashkil etish haqida konstitusiyaviy qonun qabul qildi [2, B.17.]. Bunda bozor iqtisodiyotiga asoslangan ochiq demokratik huquqiy davlatni qurishning o'ziga xos jihatlari e'tiborga olinib, o'tish davri talablaridan kelib chiqib, avvalo ijroiya hokimiyatini mustahkamlash nazarda tutilgan edi.

Bu qonunga asosan Toshkent shahrida, barcha viloyat, tuman va shaharlarda hokimlik lavozimi joriy etildi hamda ular zimmasiga vakillik va ijroiya hokimiyatini boshqarish vazifasi yuklatildi.

1992 yil aprelda Qoraqalpog'iston Respublikasida ham hokimlik lavozimini joriy etish borasida qonun qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining XXI-bobi "Mahalliy davlat hokimiyati asoslari deb nomlangan. Konstitusiyaning 99-moddasiga ko'ra, viloyatlar, tumanlar va shaharlarda (tumanga bo'ysunadigan shaharlardan, shuningdek shahar tarkibiga kiruvchi tumanlardan tashqari) hokimlar boshchilik qiladigan xalq deputatlari Kengashlari hokimiyatning vakillik organlari bo'lib, ular davlat va fuqarolarning manfaatlarini ko'zlab o'z vakolatlariga taalluqli masalalarni hal etadilar.

Konstitusiya asosida O'zbekiston Respublikasi mahalliy hokimiyat organlarining ikki tabaqali tizimi vujudga keltirildi. Mahalliy ijro va vakillik organlari o'rtasidagi huquqiy munosabatlarning konstitusiyaviy holati aniqlandi.

Mahalliy davlat hokimiyati organlari bir-biriga bo'ysunmagan mustaqil davlat va vakillik organlari bo'lib, o'zaro munosabatlarda hamkorlik asosida o'z faoliyatlarini tashkil etadilar. Mahalliy xalq deputatlari Kengashlariga hokimlarning rahbarligi uni Kengash oldidagi mas'uliyatini oshiradi.

O'zbekiston Konstitusiyasida ko'rsatilishicha "Vakillik va ijroiya hokimiyatining tegishliligiga qarab, viloyat, tuman va shahar hokimlari boshqaradi. Viloyat hokimlari va shahar hokimlari va Toshkent shahar hokimi Prezident tomonidan tayinlanadi va lavozimidan ozod qilinadi hamda tegishli xalq deputatlari Kengashi tomonidan tasdiqlanadi. Tuman va shaharlarning hokimlari tegishli viloyat hokimi tomonidan tayinlanadi va lavozimidan ozod qilinadi hamda tegishli xalq deputatlari Kengashi tomonidan tasdiqlanadi. Tumanlarga

bo'ysungan shaharlarning hokimlarini tuman hokimi tayinlaydi va vazifasidan ozod qiladi hamda xalq deputatlari tuman Kengashi tomonidan tasdiqlanadi [3, B.28.].

Demak, mahalliy davlat hokimiyati organlarning faoliyatini tashkil etish O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi, O'zbekiston Respublikasining — Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi qonuni, xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlari «Ish tartibi‖ va boshqa me'yoriy qonun hujjatlari asosida tashkil etila boshlandi.

O'zbekiston Respublikasidagi ayrim xalq deputatlari Kengashlarida hokimning ijro etuvchi mahkamasi to'g'risida Nizomlar ham qabul qilindi.

Mahalliy ijroiya hokimiyati deganda O'zbekistonda barpo qilingan viloyat, tuman shahar hokimiyatlari tizimi tushuniladi. Mahalliy vakillik va ijro etuvchi mahkama hokimning rahbarligi ostida ishlay boshladi.

Konstitusiyaga muvofiq, mahalliy hokimiyat organlari ixtiyoriga quyidagilar kiradi:

-qonuniylikni, huquqiy-tartibotni va fuqarolarning xavfsizligini ta'minlash;

-hududlarni iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlantirish;

-mahalliy byudjetni shakllantirish va uni ijro etish, mahalliy soliqlar, yig'imlarni belgilash, byudjetdan tashqari jamg'armalarni hosil qilish;

-mahalliy kommunal xo'jalikka rahbarlik qilish;

-atrof-muhitni muhofaza qilish;

-fuqarolik holati aktlarini qayd etishni ta'minlash;

normativ hujjatlarni qabul qilish hamda O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasiga va O'zbekiston Respublikasi qonunlariga zid kelmaydigan boshqa vakolatlarni amalga oshirish. (100-modda).

Mahalliy davlat hokimiyatining faoliyat prinsiplarini amalga oshirilishi tegishli hududning barcha sohalarini rivojlantirishda ularning jamiyat va davlat hayotida tutgan o'rnini belgilab beradi. Hokim O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilaydigan miqdorda birinchi o'rinbosar va o'rinbosarlarga ega bo'ldi.

Mahalliy ijroiya hokimiyati organlari boshqarmalar, bo'limlar va bo'linmalardan iborat bo'lib, ularning tuzilishi va tashkil etilishi tartibi, faoliyat yuritish asoslari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tasdiqlaydigan tegishli Nizomlar bilan belgilandi. Xo'jalik va ijtimoiy - madaniy qurilish tarmoqlarini tezkorlik bilan boshqarishni ta'minlash uchun tegishli bosh boshqarmalar, bo'limlarni va boshqa ijro etuvchi tuzilma bo'linmalarini birlashtiruvchi tarmoq majmualari tuzildi.

Mana shu tarmoq majmualariga rahbarlik qilish hokimning o'rinbosarlariga yuklatildi. Tuzilma bo'linmalari hokim tomonidan tasdiqlangan Nizom asosida ishlay boshladi.

Shuningdek, hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim muammolarini muhokama qilish uchun hokim huzurida Maslahat Kengashi tuzildi, uning tarkibiga hokimning birinchi o'rinbosari va o'rinbosarlari kotibiyat boshlig'i kiritildi. Hokimning qaroriga muvofiq, Maslahat Kengashi tarkibiga xalq deputatlari Kengashining deputatlari va boshqa tashkilotlardan bo'lgan vakillar ham kiritildi. Maslahat Kengashi majlislari zarurat bo'lganda hokim tomonidan chaqirilib, va uning rahbarligida o'tkazila boshlandi.

Majlislarning kun tartibini tuzish, ularni tashkil etish va o'tkazish, hujjatlarni rasmiylashtirish hokim Kotibiyatining boshlig'i tomonidan amalga oshirilishi belgilandi. Kengash majlislarida muhokama qilinadigan masalalarni ko'rib chiqish uchun tuman va shahar

hokimlari, bo'limlar, bosh boshqarmalar rahbarlari, jamoatchilik va xo'jalik tashkilotlarining ommaviy axborot vositalarining vakillari qatnasha boshladilar.

Maslahat Kengashining majlislarini tayyorlash va o'tkazish hokim tomonidan uning vakolatini hamma muddatiga tasdiqlanadigan reglamentga muvofiq, amalga oshirila boshlandi. Majlisning borishi bayonnomada yozib borildi, unda ishtirok etgan shaxslar, kun tartibi, munozaralarda qatnashganlarning fikri, so'zga chiqqanlarning takliflari va tanqidiy mulohazalari va Kengash qanday qarorga kelganligi qayd qilindi.

Muhokama qilingan masalalar bo'yicha uzil-kesil qaror hokim tomonidan qarorlar yoki farmoyishlar shaklida qabul qilina boshlandi. Qarorlarning loyihalari yoki ulardan ko'chirmalar ish yurgizish haqidagi "Yo'riqnoma"larida ko'rsatilgan muddatlarda yoki qarorlarni o'zlarida ko'rsatilgan muddatlarda manfaatdor tashkilotlarga va fuqarolarga yuborildi.

Maslahat Kengashi majlislarini tayyorlash xalq deputatlari Kengashining sessiyalarini tayyorlashda muhim ahamiyatga egadir.

O'zbekiston Respublikasidagi hokimliklar faoliyatini tashkil qilishdagi muhim yo'nalishlaridan biri aholini qabul qilish, ularning istak-xohishlarini o'rganish, omma bilan bevosita muloqotda bo'lishdir, respublikada aholini qabul qilish bo'yicha ma'lum tajriba to'plangan. Hokim, hokimning birinchi o'rinbosari, o'rinbosarlari, bo'limlar, boshqarmalar va bosh boshqarma rahbarlari, hokim kotibiyati boshlig'i aholini qabul qiladilar.

Qonunchilikda davlat organlari va mansabdor shaxslar tomonidan fuqarolarning ariza va xatlarini ko'rib chiqishning ma'lum tartibi belgilangan. O'zbekiston Respublikasida "Fuqarolarning murojaatlari to'g'risida"gi qonuniga binoan, hokimlar ariza va xatlar bo'yicha qilingan ishlarni hisobini olib boradi va uning vazifasiga ularni to'g'ri va o'z vaqtida ko'rib chiqishni nazorat qilish yuklatilgan.

Arizalarni ko'rib chiqish nazorati va hal etish uchun bo'lim, boshqarma va apparatning boshqa xodimlarining shu masala buyicha yig'ilishlari muhim ahamiyatga egadir. Hokimning faoliyatini to'g'ri tashkil etishda hokimning birinchi o'rinbosari va o'rinbosarlari faoliyatini tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mahalliy davlat hokimiyati tizimi doirasida hokimning birinchi o'rinbosari hududning xo'jalik va ijtimoiy-madaniy qurilish sohalarining alohida tarmoqlarini muvofiqlashtirish, tezkorlik bilan boshqarish va ularning faoliyatini nazorat qilishni ta'minlaydi va qaror, farmoyishlar qabul qilish huquqiga egadir.

Hokimning o'rinbosarlari o'zlarining tuzilma bo'linmalari faoliyatiga rahbarlikni, paydo bo'ladigan muammolar va masalalarni o'z huquqlari doirasida tezkorlik bilan hal etish, vaqti-vaqti bilan qilingan ishlarni tekshirib turish, keyinchalik bular haqidagi xulosalarni va tavsiyanomalarni hokimga yoki tegishli xalq deputatlari Kengashiga taqdim etish kabi vazifalarni bajara boshladilar.

Hokim o'z o'rinbosarlari o'rtasida vazifalarni taqsimlab, xalq xo'jaligini rivojlantirish, o'ziga qarashli bosh boshqarmalar, tarmoq majmualariga kiruvchi trestlar va bo'limlar faoliyatini muvofiqlashtirish masalalarini tezkorlik bilan hal etish maqsadida majmualarning rahbarlari-hokimning o'rinbosarlari bilan birga, o'z huquqlari doiralarida ko'rsatmalar (topshiriqlar) shaklidagi farmoyishlar qabul qila boshladi. Ushbu ko'rsatmalar tegishli hududdagi o'zlariga qarashli idoralarga, muassasa va tashkilotlarga yetkaziladi va uning bajarilishi shartligi belgilandi.

Hokimning o'rinbosarlari hokim qarorlari va farmoyishlarini bajarish maqsadida ham ko'rsatma berish huquqiga ega bo'ldilar.

O'zbekiston Respublikasining "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi qonuniga ko'ra, tuman tarkibidagi shaharlarda va shaharchalarga bo'ysungan tumanlarda Kengashlar tuzilmaydi. Shahar tarkibidagi tuman hokimi, shahar hokimi tomonidan tayinlanadi va shahar Kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

Shahar tarkibiga kiruvchi tuman hokimlari shahar hokimining rasmiy vakolatli vakili hisoblanadi va unga hisob berib turadilar. Tumanlar tarkibiga kiruvchi shahar hokimlarining tayinlanishi ham shu tartibda amalga oshirila boshlandi.

Tuman va shaharlarning hokimlari o'zlarining amaliy faoliyatlarida O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi va qonunlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari yuqori turuvchi idoralarning qarorlari va farmoyishlari, tegishli xalq deputatlari Kengashi va viloyat hokimi qarorlarini amalga oshirish ishini ta'minlay boshladilar.

Tuman va shahar hokimlari, uning mahkamasi tarmoq majmualari, idoralari va tashkilotlari, korxonalari, muassasalari, o'zini-o'zi boshqaruv idoralari bilan bo'lgan munosabatlarda tuman shahar nomidan ish ko'rdilar.

Shunday qilib, respublikda davlat hokimiyati barcha organlari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi qonunlar bazasi vujudga keldi. Ular markaziy, viloyat, shahar va rayonlar darajasidagi davlat hokimiyati va boshqaruv funksiyalarini aniq kilib belgilab berdi. Bu mustaqil milliy davlatchiligimizni ta'minlovchi muhim shartlardan biridir.

Yurtimizda uzoq yillardan buyon davlat boshqaruvida ko`plab islohotlar amalga oshirilayotgani mamlakatimizning fuqarolik jamiyati institutlari faoliyati kata o`rin tutadi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan boshqaruv sohasini takomillashtirish hamda inson huquq va erkinliklarini ta`minlovchi bir qancha dasturlarni ishlab bugungi kunga keng tadbiq etilishi albatta yurtimiz fuqarolari uchun qilingan samarali islohotlardan biri mening fikrimcha. Insonning asosiy huquq va erkinliklarini ta'minlash O`zbekistondagi islohotlarda g`oyat muhim o`rinda turadi.

## REFERENCES

1. Ўзбекистон Республикаси Конституциясига шарҳ. Т., Ўзбекистон. 2001, 146 б.
2. В.Тюриков, Р.Шоғуломов Мустақил Ўзбекистон Республикаси. Т., Ўзбекистон, 1998, 17 б.
3. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси Т.: Ўзбекистон. 2003. 28-бет
4. Karimov I.A . Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q. T. . «Sharq»,1998
5. Karimov I.A. O`zbekiston XXI asr bo`sag`asida: xavfsizlikka tahdid. T-«O`zbekiston»,1997
6. Karimov I.A. O`zbekistonning o`z istiqlol va taraqqiyot yo`li. T-«O`zbekiston»,, 1992
7. Sh.M.Mirziyoyev Yangi O'zbekiston Taraqqiyot Strategiyasi. T- «O`zbekiston», 2022
8. Sh.M.Mirziyoyev-Erkin Va Farovon Demokratik O'zbekiston Davlatini Birgalikda Barpo Etamiz. T-«O`zbekiston», 2016
9. Sh.M.Mirziyoyev-Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. T-«O`zbekiston», 2017

# SHODMONQUL SALOM HIKOYALARIDA FOLKLOR TA'SIRI
# ("XALAJI" HIKOYASI MISOLIDA)

**Qozoqboy Yo'ldoshev**
Ilmiy rahbar
Pedagogika fanlari doktori, professor.
**Xakimova Farida Ilhom qizi**
Termiz davlat universiteti 2 - bosqich magistranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.7581924

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada Shodmonqul Salomning "Xalaji" hikoyasi tahlilga tortiladi. Mustamlakachilik siyosatining adolatsizliklari xalaji misolida ochib beriladi.*

***Kalit so'zlar:*** *epik tur, Shodmonqul Salom, xalaji, xotirot, o'zlik, folklor, tish, mustamlakachilik.*

# ВЛИЯНИЕ ФОЛЬКЛОРА В РАССКАЗАХ ШОДМОНКУЛ САЛАМ
# (НА ПРИМЕРЕ РАССКАЗА" ХАЛАДЖИ")

***Аннотация.*** *В этой статье к анализу будет привлечена история "Халаджи" Шодмонкула Салама. Несправедливость колониальной политики раскрывается на примере Халаджи.*

***Ключевые слова:*** *эпический тур, веселый Салют, Халаджи, память, идентичность, фольклор, зуб, колониализм.*

# FOLKLORE INFLUENCE IN THE STORIES OF CHEERFUL GREETINGS
# (ON THE EXAMPLE OF THE STORY "KHALAJI")

***Abstract.*** *In this article, The Story "Khalaji" by Shodmonkul Salam is subject to analysis. The injustices of colonial politics are revealed on the example of Khalaji.*

***Keywords:*** *epic type, cheerful hello, Khalaji, memory, identity, folklore, tooth, colonialism.*

Zamonaviy o'zbek adabiyoti haqida so'z borganda, Surxon adabiy maktabini ham, albatta, tilga olamiz. Adabiyot atalmish olamga Tog'ay Murod, Shukur Xolmirzayev, Shafoat Rahmatullo Termiziy, Erkin A'zam, Usmon Azim, Sirojiddin Sayyid, Eshqobil Shukur, Nodir Normatov, Mirzo Kenjabek kabi tug'ma ijodkorlarni bergan voha bugun ularga chinakam o'rinbosar bo'la oladigan iste'dodlarga ham beshik bo'lmoqda.

Ustozlar qalamini yerga tushirmay kelayotgan, Surxon adabiy havosidan nafas olgan ana shunday ijodkorlardan biri- shoir, nosir, jurnalist, kimyogar Shodmonqul Salomdir. Biz uning epik turdagi asarlariga e'tiborimizni qaratamiz. "Epik turning spetsifik xususiyatlari haqida gap ketganda eng avval voqeabandlik tilga olinadi. Darhaqiqat, epik asarda makon va zamonda kechuvchi voqea-hodisalar tasvirlanadi, so'z vositasida o'quvchi tasavvurida reallik kartinalariga monand jonlana oladigan to'laqonli badiiy voqelik yaratiladi...Adabiyot nazariyasiga oid manbalarning aksariyatida epik janrlar sirasida qayd etiluvchi janrlar hayotni badiiy qamrash ko'lami jihatidan quyidagi tartibda tasniflanishi mumkin:

1) kichik epik shakllar: latifa, masal, hikoyat, rivoyat, ertak, adabiy ertak, afsona, badia, etyud, ocherk, esse;

2) o'rta epik shakllar: qissa (povest);

3) katta epik shakllar: epos, epik doston, roman, epopeya."[20]

[20] Adabiyot nazariyasi asoslari [Matn]/ D.Quronov. - Toshkent: Akademnashr, 2018. -480b.

So‘z kimyogari Shodmonqul Salomning nasrdagi imkoniyatlari asosan kichik epik shakllarda namoyon bo‘ladi. Uning hikoya, badia va esselari adabiyot ixlosmandlari qalbidan o‘rin olib ulgurgan. Ular o‘zbek xalq og‘zaki ijodi bilan chambarchas bog‘langan. “Folklor barcha san’atning boshlanishi, sarchashmasi, shu sababli ham boshqa ko‘pgina san’atlar bilan uyg‘unlikka ega, shuning bilan birga hech biriga o‘xshamagan o‘ziga xosligi bilan ajralib turuvchi alohida san’at turidir.

Folklorning yozma adabiyotga ta’siri masalalari Alisher Navoiy zamonida qanday dolzarb ahamiyatga ega bo‘lsa, bugun ham xuddi shunday. Bu an’ana Navoiy, Bobur zamonidan so‘ng Abdulla Qodiriydan to bugungi kunda ijod etayotgan adiblarimizgacha, Cho‘lpondan to zamonamiz shoirlarining izlanishlarida ham u yoki bu darajada davom etyapti. Faqat bizda emas, dunyo adabiyotida ham shu hol kuzatilmoqda. Aytish mumkinki, so‘nggi yuz yillikda adabiyotda folklorga qayta yuzlanish davri boshlandi. Joys, Borxes, Markes, Kafka, Kavabata kabi adiblar ijodi buning misolidir.

XXI asrda dunyo miflariga qaytadan murojaat, yangicha talqin qilish davri, neomifologizm davri boshlandi.Folklor har bir ijodkorga o‘z yo‘li, uslubi, o‘zligini, o‘q tomir ildizini topishga yordam beradi. Lotin Amerikalik ulug‘ adiblardan biri Xorxe Luis Borxes: “Adabiyot mif bilan boshlanib, mif bilan tugaydi”, – deydi. Buni boshqacharoq qilib aytadigan bo‘lsak, har qanday san’at, jumladan, badiiy so‘z san’ati ham folklor bilan boshlanib, folklor bilan birga taraqqiy etadi.”[21]

Bu hol Shodmonqul Salom ijodida ham ko‘zga tashlanadi. Uning yozganlarida o‘zbek xalq dostonlari, mifologiyasi, qo‘shiqlari shu qadar singib ketadiki, ularni o‘qish uchun kitobxon alohida tayyorgarlik ko‘rishi lozim bo‘ladi. Ana shunday ijod namunalari orasida “Xalaji” hikoyasi alohida ajralib turadi. U 2013-yilda e’lon qilingan.

Hikoya qahramonlari oddiy qishloq kishilari: samimiy, sodda odamlar. Ular orasida Ulash momo, uning eri To‘xtamish brigad, farzandi Mardon, nevarasi Oqboy, kampirning o‘limiga-da sababchi bo‘lgan O‘rol chala, Xurram va boshqalar mavjud.

Hikoya nomiyoq kitobxonni o‘ziga jalb qiladi va mushohada yuritishga chorlaydi: “Xalaji”. Xo‘sh, u aslida nima? Xalaji- paxtani chigitdan ajratib beradigan asbob. Hikoya o‘rtalariga kelib tilga olinadigan bu nom hikoya mohiyatini ochishga xizmat qilgan, desak to‘g‘ri bo‘ladi. Kichik prolog bilan boshlangan matnda Oqboy fermer tilidan aytilgan bir jumla borki, haqiqiy o‘qirman uni nazardan chetda qoldirmasligi kerak: “Ko‘hnam qayerda bo‘lsa, ko‘nglim shu yerda”. Bu yerda ko‘hna- jamiki xotirot, o‘zlik belgisidir. Xotiraga hurmat bilan munosabatda bo‘lish xalqimizning ong-u shuuriga singgan.

Demak, xalajining ham bunga bog‘liqligi bo‘lishi zarur. Zukko yozuvchi xalajining ko‘hnaligiga (shu jumladan, qadrliligiga) birinchi ishorani Oqboy fermer tilidan berdi. Anglashiladiki, ko‘hna xalajining ko‘ngilga ham yaqinligi bor. Xo‘sh, bu yaqinlik aslida nima edi? Xalajining qishloqdagi boshqa hech kimda yo‘qligimi uni qadrli qilgan? Yo‘q, agar shunday bo‘lganida ko‘ngilga yaqini-xalajisi singani uchun bu qadar ezilarmidi Ulash momoning qalbi? Gap shundaki, Ulash momoning turmush o‘rtog‘i To‘xtamish brigad vafot etgandan so‘ng undan uch yodgorlik qoladi: hovli etagidagi bir tup o‘rik, shu o‘rikning yog‘ochidan choli denovlik ustaga yasattirgan xalaji va uy. To‘xtamish chol dunyodan ko‘z yumgandan so‘ng o‘rik ham quridi. Ulash momoga xotirot bo‘lib xalaji va uygina qoldi. Shu sababdan qo‘shnilar so‘rab

[21] https://saviya.uz/hayot/suhbat/folklor-millatning-boqiy-tarixi/

chiqqanida istamayroq, ehtiyotlab ishlatishni qattiq tayinlab keyin berardi. Biroq bir kuni kampir ana shu xotirotidan ham ayrildi. O‘rol chala uni oyoqlari bilan tepib sindirdi.

Hikoyadagi jami qahramonlar va voqea-hodisalar ana shu xalaji atrofida birlashadi. Hodisotlar uchun aynan kuz fasli tanlab olinganida ham ramziy ma’no bor. Mustamlaka tuzumining og‘riqli kunlari bo‘lmish paxta yig‘im-terim ishlari, undagi qo‘shib yozishlar, xalqning chor-nochor ahvoli, sobiq Sovet siyosatining odamlar hayotiga, turmush tarzi, ong-u shuuriga ta’siri ochib berilgan. Xalaji esa bunda muhim badiiy detall bo‘lib xizmat qilgan.

Hikoya qahramonlari shunday odamlarki, yetti bukilib tergan paxtasidan bir chopon ham kiya olmaydigan. Bosh qahramon - Oqboy fermer. Voqealar retrospektiv syujet asosiga qurilgan. Ya’nikim, Oqboy fermer 5-6 yoshlarida boshidan o‘tkazganlarini yo‘l bo‘yi esga oladi. Bu xotiralar u uchun muqaddas, shu bilan birgalikda, nihoyatda alamli. Onasi va tug‘ishganlari paxta dalalarda terimdan keyin chanoqlarda qolib ketgan paxtani terib kelganliklari va xalajidan o‘tkazganligi uchun O‘rol chala uni sindiradi.

Tuzumning adolatsiz siyosati. U, nafaqat, ijtimoiy hayotga, balki insonlar ongiga ham ta’sir o‘tkazmay qolmadi. Bir vaqtlar Ulash momo O‘rol chalaning yorug‘ dunyo yuzini ko‘rishiga sababchi bo‘lgandi: unga doyalik qilib, 7 oylik tug‘ilgan chaqaloqni telpakka solib omon olib qolgandi, kindikka o‘ralib tug‘ilganligi bois O‘rol degan ism qo‘yishdi. Oradan yillar o‘tib esa ana shu O‘rol chala Ulash momoning bu dunyodan ko‘z yumishiga sababchi bo‘ldi. Chala sifati dastlab O‘rolning taniga nisbatan aytilgan bo‘lsa, shundan keyin uning qalbi ham, ma’naviy dunyosi ham chala ekanligi oydinlashadi. Xalqimizning azaliy qadriyatlaridan sanalmish o‘zidan kattalarga, keksalarga hurmat, insoniylik hissi unga begona edi. Biroq uni bu xislatlardan mutlaqo yiroq deya olmaymiz. Sababi hikoya so‘ngida qarib, tildan qolgan O‘rol Oqboydan xalajini aylantirishni so‘raydi (O‘sha o‘zi sindirgan xalajini). Demak, ajal yaqin kelganda vijdon o‘z so‘zini aytadi.

O‘zbek xalq og‘zaki ijodida tish va uning tushishi bilan bog‘liq o‘rinlar talaygina. Odatda, tish tushishi yaxshilik alomati sifatida ta’bir qilinmaydi. Tishi tushgan inson biror kasallik yoki o‘limga duchor bo‘ladi deb hisoblangan. “Xalaji”da tish motivi ham qo‘llangan bo‘lib, bu uni xalq og‘zaki ijodi bilan bog‘lash imkoniyatini beradi. Voqealar rivojida Ulash momoning tishi tushganligi quyidagi o‘rindan anglashiladi: “Kattalar dalaga ketishgach, momosining tishi tushdi. Og‘zidagi yagona sarg‘ayib ketgan tish o‘z-o‘zidan og‘rimaygina tiliga keldi. Shu tish deganlariyam odamlarga o‘xshaydi ekanda, asli. Birovi ketsa boshqa, unga suyanib turganlariyam ketaveradi ekan.” Ulash momo o‘limidan oldin nevarasi Oqboydan shunday iltimos qiladi: “Nima edi, “eski tishimni ol”midi, shuni ayt.

Oqboy otasiga qaradi. Mardon o‘g‘liga ayt, dedi sekin. Oqboy astagina g‘o‘ng‘illay boshladi:

— Eski tishimni ol,  
Yangi tishimni ber.

— Yana ayt, — dedi kampir bezovtalik bilan. Yumuq ko‘zlaridan yosh sizardi uning, — aytaber...

— Eski tishimni ol,  
Yangi tishimni ber.  
Eski tishimni ol,  
Yangi tishimni ber...”

Nabirasining shirin tilidan aytilgan xalq qo‘shig‘ini eshitgan kampirning yuragi taskin topgandek bo‘ladi va shu kecha joni uziladi.

Shodmonqul Salom “Xalaji”ga shoirona sezimlar bilan yondashadi. Qahramonlar o‘limi va voqealarni shunday bog‘laydiki, bu o‘zaro konflikt paydo qiladi. Go‘yo hayot ham xalaji misoli aylanib, insonlarni paxtasini paxtaga, chigitini chigitga ajratib qo‘yadi. Ulash momo o‘lgan yili Mardon fermerning paxta “plan"i birinchi marta to‘lmay qoladi. O‘rol bobo pora evaziga Mardonning paxtasiga qo‘shib yozib beradi. O‘rol bobo o‘lgan yili esa Oqboyning ‘‘plan‘‘i bajariladi. Yaxshi inson oxiratga safar qilganda bu hatto xalqning oppoq paxtasiga ham ta’sirini o‘tkazmay qolmadi. Mahalladoshlari diliga ozor yetkazgan, xalajini sindirgan O‘rol bobo o‘lganda esa bunday bo‘lmadi.

O‘lim haq. So‘nggi lahzasi yaqinlashayotganini bilgan insonning ko‘z oldidan jami gunohlari bir-bir o‘tadi. Foniy dunyodagi oxirgi kunida O‘rol bobo ham iymonga keladi. Zabonsiz tillari bilan Oqboydan xalajini aylantirishni so‘raydi. Bu bilan go‘yo tavba qilganday, uzr so‘raganday bo‘ladi.

Realistik uslubda yozilgan hikoyada qishloqdagi bir oila taqdiri misolida butun yurt, millat taqdiri, fojiali qismati ko‘rsatib berilgan. Bu - muallifning yutug‘i. Paxta siyosati xalqimiz boshiga solgan qiyinchiliklar, bu siyosat insonlarning, nafaqat umriga, balki yashash tarziga ham ta’sir ko‘rsatadi. Bir umr halol yashashga intilgan Ulash momo qilayotgan ishi noto‘g‘ri ekanligini sezib turadi, ich-ichidan qiynaladi. Biroq nabiralarini ham qishda yupun qoldirib qo‘ya olmaydi.

Xulosa qilib aytganda, o’zbek hayoti, qishloq odamlari, vijdon azobi, iqror, umr oxirida anglab yetilgan haqiqat- barchasi ushbu hikoyada mujassam bo‘lgan.

**REFERENCES**

1. Adabiyot nazariyasi asoslari. D.Quronov. - Toshkent: Akademnashr, 2018. -480 b.
2. Ko‘ngil obidasiga yo‘l. Shodmonqul Salom.- Toshkent: “MASHHUR PRESS” nashriyoti, 2018.-240 b.
3. https://saviya.uz/hayot/suhbat/folklor-millatning-boqiy-tarixi/

# KINOQISSANING JANR XUSUSIYATLARI

**Ko'charova Zilola**
Termiz davlat universiteti 2 - bosqich magistranti

https://doi.org/10.5281/zenodo.7581934

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada o'zbek adabiyotida ommalashib borayotgan kinoqissa janrining o'ziga xos xususiyatlari haqida mulohaza yuritildi. Uning qissa, kino ssenariy, dramatik sahna asarlaridan farqlari ko'rsatildi.*

***Kalit so'zlar:*** *Kinoqissa, kino, harakat, sahna, ssenariy.*

## ЖАНРОВЫЕ ОСОБЕННОСТИ КИНОКАРТИНЫ

***Аннотация.*** *В этой статье были рассмотрены особенности жанра кинокартины, набирающего популярность в узбекской литературе. Показаны его отличия от рассказов, киносценариев, драматических сценических постановок.*

***Ключевые слова:*** *киносказка, фильм, действие, сцена, сценарий.*

## GENRE FEATURES OF THE FILMOGRAPHY

***Abstract.*** *This article reflected on the peculiarities of the kinokissa genre, which is gaining popularity in Uzbek literature. His differences from short stories, film screenplays, dramatic stage works were shown.*

***Keywords:*** *filmography, cinema, action, scene, script.*

Kinoqissa janri o'zbek adabiyotida o'tgan asarning ikkinchi yarimlaridayoq uchrab turuvchi hodisa edi. Shunday bo'lsa-da, oxirgi vaqtlarda bu janrning mukammal namunalari yaratildi va u alohida yo'nalish sifatida e'tirof etila boshlandi. Bu janr adabiyot va kino san'atining kesishgan nuqtasida shakllangan bo'lsa ham uning adabiy janr bo'lmish qissadan va kino sanoatining joni – kino ssenariydan bir qancha farqlari mavjud.

Avvalo bu janrning paydo bo'lishiga sabab – adabiy mutoala uchun yozilgan qissa, romanlarning kino qilib ishlana boshlaganligi va bu jarayonda rejissorning katta zahmat chekishi va adabiy asarning badiiyligini to'liq aks ettirishning imkoni yo'qligi bo'ldi desak, mubolag'a bo'lmaydi.

O'zbek ijodkorlaridan ko'plar kinoqisalar yozishgan, ammo Erkin A'zam bu janrni taraqqiy ettirdi, uning bor bo'yu-bastini, jozibasini ko'rsatib berdi. Uning kinoqissalari katta shuhrat qozondi. Adib kino olish uchun sahna mashaqqatlarini hisobga olib ko'plar kinoqissalar yozdi. Adibning "Kechikayotgan odam" to'plamida dastlab qissa, keyinchalik ularga ishlov berilib kinoqissa qilingan "Pakana" va "Piyoda" nomli kinoqissalari kiritilgan bo'lsa, 2021-yil "Sharq" nashriyotidan chiqqan to'rt tomlik "Tanlangan asarlar" ining uchinchi tomiga "Suv yoqalab", "Zabarjad", "Qarzdor", "Parizod", "Qovunfurush Orol" kabi kinoqissalari jamlanganligidan ham Erkin A'zam ijodida bu janrning sezilarli o'rni borligini ko'rsatadi.

Yozuvchiga "Kino san'ati, teatr san'ati, so'z san'ati. Bu uch san'at turidagi badiiy shartlilik bir-biridan keskin tafovut qiladimi?" – deya savol berilganda quyidagicha fikr bildirgan: "*Siz aytayotgan har uchala san'at turining asosi, sarchashmasi bitta – Adabiyot, So'z. Ifoda shakllari esa turlicha. Goho bir-biriga shu qadar qorishib ketadiki, tafovutli jihatlarini topolmay ham qolasiz. Chunonchi, dramatik qissa yoki muallif bayoniga (kadr ortidagi roviy) asoslangan kino asari. Vaholanki, kino, avvalo, tasvir va harakat negiziga quriladi, uzundan-uzoq dialog, izohu ko'pso'zlikni ko'tarmaydi. Garchand ayni shunday filmlar ham bor, masalan, Eldar Ryazanovning "Garaj", Nikita Mixalkovning "O'n ikki kishi" kabi asarlari. Bularda*

*tasvir va harakat o'rnini aktyorning mahorati, jozibasi, uning og'zidan chiqayotgan fikrlar shiddati, qolaversa, muhokama etilayotgan qaltis vaziyat dramasi tutib turadi. Voqean, shu toifa asarlar, ya'ni, asosan, gap-so'zdan iborat filmlar bizning tomoshabinga xush keladi. Negaligi – boshqa masala. Har holda, shunisini ta'kidlash kerakki, ko'pso'zlik, cho'ziq bayon, chaynab berishlar kino san'atida fazilat sanalmaydi, bular "harakatdagi tasvir" atalmish kinoning tabiatiga yot. Biroq aynan shu jihatlar teatr san'ati uchun suv bilan havodek zarur. Chunki sahnada kechayotgan mojaro, asosan, qahramonlar og'zidan chiqayotgan gap-so'zlar orqali hal etiladi. Voqelikni birmuncha lo'ndaroq shaklda ifoda etsa-da, o'rtadagi talaygina xosliklariga qaramay, kino san'ati tabiatan badiiy nasrga yaqin turadi, deyish mumkin. Teatr san'atida esa badiiy shartlilik masalasi mudom ustun maqomda kelgan. Loaqal, sahnaning mumtoz qoidasi hisoblanmish "makon – zamon – harakat birligi" zaruratini yodga oling. U yog'ini so'rasangiz, bu mulohaza, bu cheklanishlarning o'zi ham shartli gaplar. Negaki, zamonaviy sahnalarda kino unsurlari ham, badiiy nasrga xos uzundan-uzoq iqrornomalar (monospektakl deydilar buni) ham dadil tajriba qilinayotir. Lekin har nima deb atamang, bular baribir istisno ko'rinishlardir. Garchi, hali aytganimizdek, ular asli bir "ota-ona"dan – Adabiyot bilan So'zdan bino bo'lsa ham!"*[4].

Erkin A'zam ijodi bilan yaxshi tanish, adabiy asarlarga ilmiy baho berish salohiyatiga ega filologiya fanlari doktori Shavkat Hasanov ham kinoqissaga yaqin jarnlar va kinoqissalarni taqqoslab ko'rib ular o'rtasida ko'zga tashlanadigan asosiy to'rta farqni sanab o'tadi: "kinnoqissalarni boshqa san'at turlaridan farqlanuvchi bir qator muhim alomatlari ham bor. Birinchidan, kinoqissa dramatik asarlardagi sahna ko'rinishlaridek alohida epizodlardan, manzaralardan tashkil topadi; ikkinchidan, nasriy asarlardagidek, batafsillikni ko'tarmaydi; uchinchidan, diologlarning dramatizm asosiga qurilishi va tomoshabopligi bilan dramatik asarlarga yaqin turadi.

Shuningdek, nasriy asarlarda ekspozitsiya syujet tarkibiy qismlaridan oldin, keyin, oxirida, ba'zan aralash tarzda kelishi mumkin. Kinoqissalarda, asosan, dramatik asarlardagi kabi muqaddimada keladi. Nasriy asarni kino tasmasiga ko'chirish oson emas. Chunki kino imkoniyatlari o'qib, uqiladigan badiiy so'zning jilosini, tarovatini, zavq-shavqini qismangina ko'rsatishi mumkin, xolos"[2].

Bu o'rinda olimning fikrlari asosga ega. Chunki Erkin A'zam nasriy asarlarida shunday tasvirlar borki, ularni adib qisqa jumlalar bilan ifodalab ketgan, ularni kinoda ifdalab ko'rsatishning imkoni yo'q. Shuning uchun ham nasriy ijodkorning o'zi kino imkoniyatlarini hisobga olib kinoqissalar yozadi va muvaffaqqiyatga erishdi. "Adabiy turlar va janrlar o'rtasida Xitoy devori o'rnatilmagan. Muayyan tur va janr xususiyatlari o'zga tur va janrlarda ham uchrayveradi. Biroq ma'lum nazariy asoslarning ustivorligi o'sha janrning tabiatini belgilab keladi. Jumladan, Erkin A'zamning kinoqissalarida ham shunday holatni ko'rish mumkin. Kinoqissalar shaklan nasriy janr talablariga muvofiq kelsa-da, ichki pafos nuqtai nazaridan dramatik janrlarga hamohanglik kasb etadi"[2].

Adib kinoqissalarini kino effektini hisobga olib yozadi. Shunda badiiy asarga putur yetmaydi. "…Nasriy asarning atay kinoga moslab yozilishi esa boshqa masala. Bunda har ikkala san'at xususiyatlari hisobga olinadi. Yuqorida ko'rib o'tilganidek, badiiy asarning poetikasiga putur yetmaydi. Shubhasiz, kino san'ati badiiy asarni ommalashtirishda, reklama qilishda muhim bir vosita. Tan olish kerakki, chinakam badiiy asar ommaviy bo'lavermaydi. Masalaning boshqa tomoni ham borki, bo'lmag'ur asardan yaxshigina kinofilm ham yaratish mumkin, go'yoki

o‘ziga yarasha she’rni boshqa bir tilga yaxshigina tarjima qilgandek (Bunda rejissyor, tarjimon, shuningdek, Erkin A’zam aytgandek “adabiy mardikor” nazarda tutilyapti)”[2]. Xususan, adibning “Chantrimore” kinosi ham kutlmagan mashhurlikka erishadi. Buni yozuvchi biroz kinoya bilan eslaydi. Kinoqissa janri davr talabi bilan vujudga keldi.

Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar, smartfonlar juda ommalashib ketdi. Jamiyat kishilari orasida ham original badiiy asarlarni o‘quvchilardan ko‘ra kino tomosha qilishni afzal biluvchi qatlam ko‘pchilikni tashkil etadi. Biz bu gapimiz bilan kinoqissalarning adabiy-estetik qiymati yo‘q demoqchi emasmiz. Erkin A’zam kinoqissalari qissa kabi katta shavq bilan o‘qiladi. Kinoqissada dramatik asarlarda kuzatiladigan fojeaviylik kuzatiladi. Biroq qissalarda kuzatiladigan kuchli ruhiy holatlar kinoqissalarda kuzatilmaydi.

Bunga sabab kinoda ruhiy holatni uzundan uzoq tasvirlab bo‘lmaydi. Kinoqissalar oxirgi davrda katta ishtiyoq bilan kuzatilib, uning xususiyatlari, janr talablari, o‘ziga xosliklari bilan ko‘plab olim va tadqiqotchilarning tadqiqot obyektiga aylanmoqda. Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, kinoqissalarning tabiatini keng tahlil qilgan tadqiqotlar qilish bugungi o‘zbek adabiyoti izlanuvchilari oldida turgan dolzarb muammolardan biridir.

**REFERENCES**


1. Аъзам Э. Кечикаётган одам: Қиссалар. – Т.: Шарқ, 2002. - 448 б.
2. Аъзам Э. Танланган асарлар. Учинчи том. – Т.: Шарқ, 2021. -557 б.
3. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. –T.: Navoiy universiteti, 2018. –480 b.
4. Marhabo Qo‘chqorova. Erkin A’zam: “Asosiy mashg‘ulotim — adabiyot, ammo omadim kinoda chopdi”. // Sharq yulduzi, 2014. №1.
5. Shavkat Hasanov. Erkin A’zamning “Parizod”i. https://zarnews.uz
6. Umurov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi. –T.: A.Qodiriy, 2004. -260 b.

# "OTA" ROMANIDA MILLIY DETALLAR VA QADRIYATLAR IFODASI

**Turdiyeva Nilufar Bobomurod qizi**
Termiz Davlat universiteti adabiyotshunoslik
yo'nalishi 2 - bosqich magistranti

***https://doi.org/10.5281/zenodo.7581938***

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada yozuvchi Ulug'bek Hamdamning "Ota" romanidagi milliy detallar va milliy qadriyatlar ifodasi haqida fikr yuritiladi. Maqolada personaj ruhiy dunyosidagi milliy ruhiyat ifodasini ochib berishga harakat qilingan.*

***Kalit so'zlar:*** *portret, mehmondo'stlik, or-nomus, durra, belbog', kalish.*

# ВЫРАЖЕНИЕ НАЦИОНАЛЬНЫХ ДЕТАЛЕЙ И ЦЕННОСТЕЙ В РОМАНЕ "ОТЕЦ"

***Аннотация.*** *В этой статье рассматриваются национальные детали и выражение национальных ценностей в романе писателя Улугбека хамдама "отец". В статье была сделана попытка раскрыть выражение национальной психики в духовном мире персонажа.*

***Ключевые слова:*** *портрет, гостеприимство, честь, дурра, пояс, Калиш.*

# EXPRESSION OF NATIONAL DETAILS AND VALUES IN THE NOVEL "FATHER"

***Abstract.*** *This article will focus on national details and the expression of national values in the novel "father" by the writer Ulugbek Hamdam. The article tried to reveal the expression of the national psyche in the spiritual world of the character.*

***Keywords:*** *portrait, hospitality, honor, durra, belt, key.*

Badiiy adabiyotda qahramon obrazini yaratishda portret muhim o'rin egallaydi. Qahramon ichki dunyosini ochib berishda portretning o'rni beqiyos bo'lib, u asar g'oyasini, personajlar xarakterini o'quvchiga mukammal yetqazib berishga yordam beradi. Asarda portretning vazifasi tasviriylikni ifodalashgina bo'lib qolmay, obrazlar xarakteri, ruhiy holatini yoritib berishni ham o'z zimmasiga oladi.

Portret bir tomondan, qahramon tashqi qiyofasi orqali uning ruhiy olamini talqin qilib bersa, ikkinchi tomondan, aksincha, batafsil tasvirlangan personajning ruhiy dunyosi orqali uning tashqi qiyofasini ham o'z zimmasiga oladi, va bu portret mohiyati deb ataladi.

Ulug'bek Hamdam o'z asarlarida badiiy portret vositasida obraz mohiyatini ochishga, personajlarning ruhiy holatini o'zgarishini, xarakterlarni yorqinroq ifodalashga intiladi va bunda, milliy detallar va qadriyatlarimizdan o'z o'rnida foydalangan.

Qahramon portretini tasvirlashda muallif uning ichki dunyosi, fe'l-atvori va xatti-harakatini ifodalashga harakat qiladi. Bunda yozuvchi milliy detallardan o'rinli foydalangan va shu orqali o'z g'oyasini to'laqonli ifodalashga harakat qilgan.

Har qanday portret tasvirida qahramon tashqi ko'rinishidan tashqari, yozuvchi gavda holati, kiyim-kechak, gapirish usulini ham nazardan chetda qoldirmaydi. Nemis adabiyotshunosi Lessing: "Hayotda hech narsa qo'lning harakatidek ta'sirchanlikni bera olmaydi, ayniqsa, hayajonli jarayonda; ammo qo'l harakati ishtirok etmagan va uning harakatini ifodalay olgan yuzning holati yana ham ta'sirchanroq bo'ladi" degan.[1]

Xalqimizda kattalarga, ayniqsa ota-onaga ko'rsatiladigan hurmat - ehtiromni quyidagi misollarda ko'rishimiz mumkin:

"- Assalomu alaykum aya, keling! – Po'lat q o'zg'alib onasiga peshvoz chiqdi. Engashib unga peshonasini tutdi.

- Vaalaykum, bolam, vaalaykum! - o'g'lini yelkalarini siladi ona. "[2] Bu yerda o' g'ilni onaga, onaning o'g'ilga ko'rsatayotgan ehtiromlari ko'rsatilmoqda.

O'zbek qizlarining otasi oldidagi hayo-ibosi asarning bosh qahramonlaridan biri Sevinch obrazi orqali talqin etiladi:

" – Ha, ota, - ko'zlarini yashirdi Sevinch"

" - Xo'p ota, - Sevinch qo'lini ko'ksiga qo'yib turib, o'z xonasi tomon yo'naldi". [2]

Oiladagi er-xotin munosabatlaridagi milliy qadriyatlarimizdan biri quyidagi misralarda o'z aksini topgan:

" – Topilganda qandoq, Po'latjon! - er- u xotin vodiy tomondagi udumga ko'ra bir-birlariga to'ng'ich farzandning ismi bilan murojaat qilishar edi. Faqat Oychechak opa Po'latjon desa, O'tkir aka Po'latxon derdi".[2]

Umr bo'yi dushmanlik qilib, hayoti so'nggida Erboy Po'latdan qilgan yovuzliklari uchun kechirim so'rab borishi ham E'tiqodimizning bir namoyonidir.

"Kechir, Po'lat, mendek zaharli ilonni, kechir!... – Erboy ota Po'lat otaning ikki qo'lidan mahkam tutgan ko'yi, gavdasi bilan pastga egilib, yig'lab yubordi…"[2]

Inson qanchalik gunohkor bo'lmasin, xalqimizda birodarga qiyin vaziyatlarda yordam qo'li cho'ziladi, ruhiy dalda beriladi.

"Lekin qo'ni-qo'shni, mahalla-ko'y, otasining urug'lari- qarindoshlari birin-sirin hol so'rab kelishib, uning joniga oro kira boshlashdi".[2]

Xalqimizning mehmondo'stligini ifodalash quyidagi jumlalarda ko'rinadi:

"Tursun otaning nevara o'g'li- boyagina Po'lat otaga darvozani ochgani yelkasiga sochiq tashlab, bir qo'lida obdasta, bir qo'lida chilapchin bilan keldi. Uning izidan nevara qizi bilagida tashlangan dasturxonu ikkita non, bir choynak choy , to'rtta piyola, likopchada qaymoq ko'tarib kirdi.

-Assalom-u alaykum! Keling, Po'lat ota!

- Vaalaykum assalom! Ke , qizim , ke".[2]

Va nihoyat, aasrning kulminatsion nuqtasi- ota o'z or-nomusi, sha'nini go'yoki nikohsiz bolani dunyoga keltirgan yakka-yu yolg'iz qizi Sevinchni joniga qasd qiladi.

"Bunday gunohni jazosiz qoldirib bo'lmasdi … Men ota qilishi kerak bo'lgan ishni qildim: gunohkorni jazoladim! " degani- degan edi. Lekin turib-turib yuragining allaqaysi bir puchmog'idagi g'ashlikni his qilib qolardi.

Otaning fikr-u zikri ana shu o'ylar bilan band bo'lib, o'zi bilan ozi qoldi deguncha Yaratganga iltijo qilar-da, sodir etgan gunohi- odam o'ldirgani uchun avf tilar, namoz o'qir, ro'za tutar hamda o'lim degan o'sha muqaddas hodisani kutardi."[2]

Romanda yozuvchi qahramonlarning ruhiy holatini ifoda etishda milliy detallarga ham ko'p e'tiborini qaratgan, masalan "durra" detail ham ona, ham ota obrazida namoyon bo'ladi:

" Voy, Xudoyim-ey, bolaajonimni o'zing asragin!" deya pichirlar, yuzi ko'zidan oqayotgan terni qo'lidagi kattagina durra bilan artib turardi".

"Nevaram yo'qolib qoldi!... qo'lidagi durrasini ko'zlariga bosib piq-piq yig'lab yubordi".

“Yashasin, o’lim!” deya hayqirgisi keladi-ya insonni!...” oq durraning ostidagi otaning kallasida ana shunday o’ylar g’ujg’on aylanardi”.

“Ota boshidagi durrani ko’tarib, qarshisida bir necha erkak kishining qorasini ko’rdi”.[2]

Durra o’zbek xalqida mehmonlarga mezbonlar tomonidan non, qand-qurs tugib beriladigan paxta matodan tikilgan buyum bo’lib, u yozning jazirama kunlarida dastro’mol sifatida ham qo’llaniladi.

Odatda, keksa yoshdagi erkaklar beliga belbog’ boylab yurishadi. Belbog’ qadimdan mardlik, jasurlik ramzi hisoblanib kelingan. Bejizga xalqimizda “Belingda belbog’ing bormi?”, deb so’ralmaydi. Keksa otaxonlar chorsi, durrani bellariga belbog’ qilib bog’lashadi, bu kezi kelganda ularga sochiq, dastro’mol vazifasini o’taydi.

“Ota belbog’ini yechdi, ko’zsoqqalarini o’rab, ko’rishga monelik qilayotgan ko’z yoshlarini artib olib bolaga yana boqdi: ajab, u bir paytning o’zida ham Yog’duni, ham Sevinchni eslatardi”.

“Po’at otani ko’zlari yoshlandi. Lekin darhol belidagi belbog’ini yechib, bir barmog’ini uning chetiga tiqdi-da ko’zlarini artdi.[2]

Ushbu asarda muallif milliy detallardan yana biri “tuguncha” detalini qo’llaganini uchratishimiz mumkin. “T ugunchasi qo’lidan “to’p” etib tushgan Po’lat ota bir uyga, bir hovli yuzini bosgan chakalakzorga bir esa, qarilikdan tirishib ketgan qo’llariga boqar ekan, nima qilishini, bu begona joyda endi o’zini qanday tutishini bilmay, esankiragancha turardi”.[2]

Yetti yillik qamoq jazosidan keyin uyga qaytgan Po’lat ota oshuftahol turganini qo’lidagi tugunchasi tushib ketishi orqali yozuvchi bizga ko’rsatib bermoqchi bo’lmoqda. Ona obrazidagi “tugun’ detail esa o’zbek ayolini qayga bormasin, har vaqt shirinliklar, non solingan tuguni bilan yurishini anglaymiz.

“- Oychechak opa ayvonga kirib, qo’lidagi tugunni xontaxta ustiga qo’ydi-da, yoyilib, besaranjom bo’lib yotgn to’shaklarni ko’tarib, boshqattan o’rin soldi”.[2]

Milliy detallardan yana biri “kalish” asarda qahramonlarning ruhiy holatidagi o’zgarishlarni ochib berishga harakat qiladi.

“ – Po’lat ota! - ko’chadan ovoz keldi.

-Ha-a-a, hozir! - Po’lat ota oyog’iga bo’sag’adagi kalishni ilib , tashqariladi”.[2]

Eshikdan chaqarib kelgan odamni ko’p kuttirmaslik uchun “kalishni ilib”, ya’ni chaqqonlik bilan kiyib olishi insonning insonga bildirayotgan ehtiromini kuzatsak, ikkinchi misolda g’azablanganidan Po’lat otani uyida ortiq o’tirishni xohlamayotgan Tursun otani jahl bilan chiqib ketishga urinayotganini ko’rishimiz mumkin.

“- Sadqayi odam ketsin bu!... dedi u ostonada kalishni oyog’iga ilarkan, Po’latga nafrat bilan qarab”.[2]

Yuqorida keltirilgan misollardan ko’rinib turibdiki, yozuvchi “Ota” romanida qahramonlarning qalb kechinmalarini to’laqonli yoritib berishda milliy detallardan, milliy qadriyatimiz namunalaridan unumli foydalangan, Yozuvchi qahramonlar portretlaridagi milliy detallar ma’no tovlanishi oqibatida o’z g’oyaviy funksiyasiga ega ekanligini ko’rsatib, portret tasvirlashda personajlarning qalb kechinmalarini keng yoritib berishda muhim o’ringa ega ekanligiga guvoh bo’lamiz.

**REFERENCES**

1. Lessing. G.E. Laokoon I v granisax jivopisi I poezzii. M. 1957.
2. Ulug'bek Hamdam. "Ota" Roman. T., "Yangi asr avlodi".-2020.

## ABDURAHMON SA'DIY VA XX ASR O'ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGIDA ADABIY TANQID VA NAZARIYA RIVOJI.

**Surayyo Norqobilova**
AbdullayevnaTermiz davlat universiteti 2 - kurs magistranti

https://doi.org/10.5281/zenodo.7581963

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada XX asr o'zbek adabiyotshunosligida adabiyot nazariyasining rivojlanishi va unga Abdurahmon Sa'diyning adabiyotshunosh hamda tadqiqotchi olim sifatida qo'shgan ilmiy hissasi haqida ma'lumotlar berilgan.*

***Kalit so'zlar:*** *nazariya, adabiyotshunoslik, adabiy tanqid, tadqiqot, ilmiy izlanish.*

## АБДУРАХМАН СААДИ И РАЗВИТИЕ ЛИТЕРАТУРНОЙ КРИТИКИ И ТЕОРИИ В УЗБЕКСКОМ ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИИ XX ВЕКА.

***Аннотация.*** *В этой статье представлена информация о развитии теории литературы в узбекском литературоведении XX века и научном вкладе в нее Абдурахмана Саади как литературоведа, так и ученого - исследователя.*

***Ключевые слова:*** *теория, литературоведение, литературная критика, исследования, научные исследования.*

## ABDURAHMAN SAADI AND THE DEVELOPMENT OF LITERARY CRITICISM AND THEORY IN UZBEK LITERARY CRITICISM OF THE 20TH CENTURY.

***Abstract.*** *This article provides information about the development of literary theory in Uzbek literary science of the 20th century and the scientific contribution of Abdurahman Saadi as a literary critic and research scientist.*

***Keywords:*** *theory,literary studies, literary criticism, research, scientific research.*

O'zbek adabiyotshunosligiga, umuman o'zbek adabiyoti tarixiga nazar tashlar ekanmiz nazariy qarashlar, nazariy manbalar namoyondalari sifatida dastlab, Abdurauf Fitrat hamda Abdurahmon Sa'diy ko'z o'ngimizga keladi. Bunga asosiy sabab esa ular adabyiotshunoslik nazariyasiga doir dastlabki qarashlari bilan o'zbekadabiyotshunosligi tarixida yorqin siymolarga aylandi. Adabiyotshunoslikning shakllanishi va uning keng tarmoq sifatida rivojlanishi haqida gap ketganda D.Quronovning "Adabiyotshunoslik nazariyasi asoslari" kitobidagi : _"O'zbek adabiyotshunosligida adabiyot nazariyasining alohida tarmoq sifatida shakllanishi XX asrning dastlabki choragiga to'g'ri keladi.

Zero, xuddi shu davrda – zimmasiga tamom yangicha vazifalar yuklanayotgan adabiyotdan shunga mos o'zgarish talab etilayotgan bir sharoitda- adabiyotning o'z-o'zini anglash ehtiyojidan tug'ilgan "Adabiyot nima? Uning vazifalari nimalardan iborat ? U qanday bo'lishi keark? Singari savollarning qalqib chiqishi adabiyot nazariyasi masalalarini tizimli o'rganish ehtiyoji yetilganidan dalolat beradi.[22]"-degan fikrlari ham nechog'li haqli ekanligini ko'rish mumkin. Aynan shu davrda Abdurahmon Sa'diyning "Amaliy ham nazariy adabiyot darslari", A.Fitratning "Adabiyot qoidalari'' kitoblari adabiyot nazariyasining asosiy qonun-qoidalari anchayin keng bayon qilingan.

Albatta, ushbu kitoblar bugungacha bo'lgan adabiyot nazariyasiga oid ilmiy izlanishlarga fundamental asos vazifanini o'tab kelmoqda. Abdurahmon Sa'diy XX asr adabiyotshunosligining zabardast vakillaridan biri bo'lib, o'zbek - tatar madaniy - adabiy

[22] Quronov D "Adabiyot nazariyasi asoslari"-Toshkent.: Innovatsiya-Ziyo, 2020

aloqalari rivojiga o‘z hissasini qo‘shgan adabiyotshunoslardan biri hisoblanadi. Fitratdan so‘ng adabiyot nazariyasiga doir ilk manbalarning Abdurahmon Sa‘diy nomi bilan bog‘liq ekanligi ham bu fikrlarning yorqin misolidir. Uning: "Amaliy ham nazariy adabiyot darslari", "Adabiyot muallimi" asarlari o‘zbek adabiyotshunosligi doirasida qilingan nazariy hamda ilmiy manbalar sifatida qaraladi. Bundan tashqari Abdurahmon Sa‘diy Navoiy, Yassaviy, Hamza va A.Qodiriylar haqida, ularning adabiyotimizga qo‘shgan hissasi, asarlari xususida ham o‘z qarashlarini bayon etadi.Ilmiy-tanqidiy maqolalar ham yaratadi.

Abdurahmon Sa‘diyning ilmiy izlanishlari natijasi o‘laroq adabiy tanqid sohasi ham ancha rivojlanish bosqichiga kirgan. U o‘sha davrdagi tanqidiy qarashlari bilan o’zbek adabiy tanqidi tarixida o’aining munosib o’nini qoldirdi. Bunda u, A.Shaligin, A.Potebnya, D.Ovsyaniko-Kulikovskiy, Aleksandr va Anatoliy Veselovskiylarning qarashlarini asos qilib oladi. Bu o‘z navbatida keyinchalik yaratilgan va bugungi kun nazariyotchilari uchun ham dastlabki manbalar sifatida xizmat qiladi.

Bir so‘z bilan aytganda, nazariyaning ildizi hisoblanadi. Bundan tashqari,o’zbek adabiy tanqidining shakllanishida ham o’z hissasini qo’shgan olimlardan biri hisoblanadi. Munaqqid sifatida qator tanqidiy ruhdagi maqolalari bilan 20-yillar vaqtli matbuotini bir qadar ma’lumotlar bilan ta’minlagan ijodkorlar safiga qo’shish mumkin. Xususan, tanqidiy qarashlar bilan yozilgan "Oktyabr o‘zgarishi va o‘zbek adabiyoti" nomli maqolasi "Turkiston" gazetasining 1922-yil 7-noyabr sonida bosilib chiqqan edi.

Ushbu maqolada o‘zbek adabiyotshunosligiga adabiy tanqidning hayot va adabiyot o‘rtasidagi muvozanatli ko‘prik vazifasini o‘tab turuvchi vosita ekanligi teran fikrlar bilan yoritib berilganligini ko‘rish mumkin. U o’bek tanqidchiligi tarixida birinchilardan bo’lob obzor maqola yozgan tanqidchilardan biridir.

Bu fikrlarni “O’zbek yosh shoirlari”, “Olti yil ichida o’zbek she’riy adabiyoti” nomli maqolalarini dalil sifatida keltirish mumkin. Munaqqid sifatida Hmza, A.Qodiriy, Cho’lpon, Botu hamda H.Olimjon asarlarini ilmiy jihatdan o’rganib ular xusuxida bir qator tanqidiy ruhdagi maqolalar chop ettirgan.

Jumladan, H.Olimjon ijodiga kengroq to’xtalib, uning ko’plab to’plamlarini tahlil qilgan. “A.Sadiy H.Olimjonning “Ko’klam” va “Olov sochlar to’plamidagi she’rlari obrazga boy, san’atcha yuqori deb hisoblaydi, biroq “O’lim yovga”, “Poyga” to’plamlaridagi she’rlari “oratorlik”dan iborat bo’lganligini ham aytib o’tadi.

Yuqoridagi har ikkala she’rda badiiylikdan ko’ra oratorlik, poetic xoslikdan ko’ra mafkura kuchliroq bo’lgani bugun, shoir ijodini kamsitmagan holda boricha aytish imkonini berayotganligi ham bejiz emas”, deb - yoziladi, “O’zbek adabiy tanqidi” kitobida.

XX asrda adabiy tanqid sohasida ko‘plab izlanishlar olib borilganini va ayni shu paytdan boshlab o‘zbek adabiy tanqidi poydevori yaratilganiligini va bu asosning vakillari sifatida Fitrat, Z .Bashir, A.Sa‘diy, keyinchalik, V.Mahmud hamda O.Sharafiddinovlar tanqidchilik sohasida o‘sha davr matbuoti o‘zlarining teran va falsafiy fikrlari bilan boyitib turdilar.

"Inqilob" gazetasining 1922-yil 1-martda bosilib chiqqan 2-sonida "Go‘zal san‘at dunyosida "nomli maqolasida adabiyotning jamiyat hayotida o‘rni beqiyosligi, odamlar ongi shuurini yangilovchi vosita ekanligi shu bilan birga tasavvurlar o‘zgaruvchan hodisa ekanligi va ularning adminlar o‘tishi bilan yangilanib turishi haqida o‘zining fikrlarini misollar bilan ko‘rsatib beradi. XX asr adabiyotshunoslik nazariyasi va tanqidchiligi xususida so‘z yuritilganda Abdurahmon Sa‘diy nomi hamisha qo‘llaniladi. Sababi, davr muhitini shakllantirish hamda

uning rivoji uchun benihoya hissa qo‘shgan olim hisoblanadi. Xulosa o‘rnida shuni alohida aytib o‘tish joizki, Abdurahmon Sa‘diyning ilmiy merosini o‘rganish bilan bugungi kun adabiyotshunosligining ildizi juda mustahkam ekanligini ko‘rish mumkin. Ilmiy qarashlarini bugungi adabiyotshunoslik sohasida ham dasturulamal qilib olish hamda o‘rganish soha vakillariga keng bilim hamda tajribalarni beradi.

**REFERENCES**

1. A.Sa‘diy "Go‘zal san‘ at dunyosida","Inqilob"-1922
2. B.Nazarov, A.Rasulov va boshq. O‘zbek adabiy tanqidchiligi tarixi- Toshkent: 2012
3. D.Quronov , Adabiyot nazariyasi asoslari-Toshkent:2020
4. “Yoshlik”, 2011 yil, 1-son
5. Talaba.uz
6. Ziyo.com
7. Arxiv.uz
8. Akademiklar.com info
9. saviya.uz

ISSN: 2181-3906

International scientific journal
«MODERN SCIENCE AND RESEARCH»
VOLUME 1 / ISSUE 3

# THE ISSUE OF STYLE IN RELIGIOUS TEXTS IN THE UZBEK LANGUAGE (IN THE EXAMPLE OF THE WORK OF SHEIKH MUHAMMAD SADIQ MUHAMMAD YUSUF)

**Chorshanbiyev Mirziyot Ilhom ugli**
2nd stage graduate student of TerDU

https://doi.org/10.5281/zenodo.7581979

***Abstract.*** *In this article, the style of religious texts, which has been an integral part of the styles of the Uzbek language for many years, is studied on the example of the book called "Hadith and hayot". During the article, the author's ability to use of specific language expressions is revealed.*

***Key words:*** *"Hadith va hayot" language style, styles, religious texts, N.A. Baskakov, influence of Islam, religious style.*

# ПРОБЛЕМА СТИЛЯ В РЕЛИГИОЗНЫХ ТЕКСТАХ НА УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ (НА ПРИМЕРЕ РАБОТЫ ШЕЙХА МУХАММАДА САДИКА МУХАММАДА ЮСУФА)

***Аннотация.*** *В этой статье стиль религиозных текстов, который на протяжении многих лет был неотъемлемой частью стилей узбекского языка, изучается на примере книги под названием "Хадисы и хайот". В ходе статьи раскрывается способность автора к использованию специфических языковых выражений.*

***Ключевые слова:*** *языковой стиль "Хадис ва хайот*", стили, религиозные тексты, Н.А. *Баскаков, влияние ислама, религиозный стиль.*

Hadith is the second important source after the Qur'an, another support in the faith of believers. The Qur'an, which serves as the main program in our religion, was revealed by Allah to our Prophet, and if it was a light that fell into the hearts of that person, it was the responsibility of our Prophet to spread that light to the hearts of other Muslim people. That is why our Prophet, peace and blessings of God be upon him, gave interpretations of the actions mentioned in the Qur'an. For example, if our main source says that it is obligatory to pray, they have told and shown in detail how to pray. In addition, it is considered Sunnah to describe the actions of the Companions, the things they said in different situations, the approval of the events committed by their close friends, the narrations about that person's manners, and the information describing the blessed ways of life. It is said that the words Sunnah and Hadith are used interchangeably by the Sheikh . That is, "Hadith" is from the Arabic word meaning words, meaning the words of our Prophet . "Sunnah" is also an Arabic word that means the way of life . From this it can be understood that the deeds and words of our Prophet, may God bless him and grant him peace, which he showed as correct during his life, are united in the two words mentioned above. If we look carefully at the meaning of the terms, it is more appropriate to use hadith as the second source term, while Sunnat has a more general meaning.

The style of texts in the Uzbek language is always unique. For example, the artistic and journalistic style incorporates imagery, emotionality, and similes, while the official and scientific styles are much more limited in this regard, and it is important that the information given in them is simple, concise, and fluent. The religious style of the texts included in the list of these styles is characterized by the fact that they have important signs. However, none of the sources mention anything about the religious style of the Uzbek language, and N.A. Baskakov did not go beyond

the idea that there is a religious style in the Uzbek language . In the monograph "O’zbek tili funksional stilistikasi" by S. Karimov, he limited himself to the opinion that "However, the issue of whether the religious style really exists in the Uzbek language, and if so, what are its linguostylistic features, has not yet been studied" Taking this into account, because the activity of Arabic revolutions and the weight of the author's speech are clearly visible in the text style of religious works in Uzbek language created in our country, Ph.D. Sh.R. Omonturdiyeva also conducted research on this issue. According to her research she says "Words and sentences expressing religious concepts and ideas were used in our language even before Islam. Over time, only a certain part of them has been preserved. As the influence of Islam increased more and more, our language was enriched with words and expressions related to the new doctrine".

In this regard, we can see the peculiarities of religious text styles in the example of the works of Sheikh Muhammad Sadiq Muhammad Yusuf.

The work "Hadith va hayot" written by Sheikh Muhammad Sadiq Muhammad Yusuf is distinguished by its popular, simple and fluent language. This work is considered a translation of Mansur Ali Nasif's hadith book "At-Tajul jame' lil usul fi ahadisur Rasul" ("The crown that collects the originals of the hadiths of the Prophet, may God's prayers and peace be upon him"), and it was interpreted by the Sheikh based on today's times, without the exact translation. Special attention is paid to the fact that the book belongs to the Hanafi sect, which has been practiced in our country since ancient times. The introduction to the work begins with the sentence "Bismillahir rahmanir rohiym" and praises to Allah, blessings and peace to the Prophet, and ends with the phrase "As-salamu alaykum wa rahmatullahu wa barakotuhu". Instead, Sheikh Muhammad Sadiq Muhammad Yusuf followed his own style of speech, and for the sake of humility, take the shortcomings from your employee, the achievements from God, thanks be to God, praise be to God, rather, God knows, Ahamdulillah, Insha'Allah, God willing, God's He used phrases like his grace, Nauzi Billah (God save), God's will. The effectiveness of this work is the same as that of a work of art, only exaggeration, dialectics, historisms, slang are not used. We can see this in the hadiths cited as proof of the thoughts of the Sheikh in the introduction to the work. "Praise be to Allah, the Exalted, He said in His book, "Take whatever the Prophet gives you, and whatever he turns you away from, turn back." May Allah bless the one who hears, memorizes, assimilates, and then conveys my words. It is clear from this that the whole work follows an idea, the goal of the author is a clear direction, which is characterized by the fact that the Sheikh has a unique style.

His Highness the Sheikh wrote the book "Tafsiri Hilal", which was published in Uzbek language for the first time in our country, and after it was received with high respect among the people, he mobilized to improve the spiritual path of Muslims. They say that they dared to do this after consulting with their mentors and scholars and performing Haj several times. The writing of this book was started on June 26, 1996 and finished on Wednesday, July 10, 2002. In creating this book, His Highness Sheikh Muhammad Sadiq aimed first of all at conveying the Islamic knowledge that God commanded and the Prophet said to the people. In this regard, they tried to make the language of this written work close to simple, fluent vernacular, so that both ordinary people and experts in the Islamic field could benefit from it. Thanks to this accomplishment, we can see how scholarly His Holiness Sheikh is, how important it is to spread enlightenment to people, how important it is to teach others while studying. As the name of the work indicates its content, the hadiths from the book have been selected and adapted to current

issues, problems and various controversial situations. In the process of translating the texts of the hadith from the Arabic language, Hazrat quoted the Arabic text first, and then gave the Uzbek translation and gave permissible comments on this hadith. The book consists of thirty-nine parts, and each part is dedicated to a certain topic.

These topics are relevant in the life of Muslims as a whole and serve as a great source of education for all believers of the religion. The situtions for the independence of our country were prepared for such a blessed work to see the world in our country. During the time of the former Sovet Union government, any religious process was strictly regulated, and it was a very difficult task to perform such meritorious works under the control of non-religious people day and night. Nevertheless, the logical demands of Sheikh Muhammad Sadiq Muhammad Yusuf were fulfilled in order to improve the relationship of the Sovet Union government with other Islamic countries. A number of mosques were built and the activities of madrasas improved. But the work on the book "Hadith va hayot" and the publication of this book coincided with the first years of independence. There is no doubt that now all our compatriots will use this blessed book to learn how to act in the subtle aspects of life and strengthen our Islamic knowledge.

**REFERENCES**

1. Muhammad Amin Muhammad Yusuf, Islomga bagʻishlangan umr. T.: “Hilol-Nashr”, 2020.-184 b.
2. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf, Hadis va hayot. 1-juz. Muqaddima – T.: “Hilol-Nashr”, 2021.-176 b.
3. Баскаков Н.А. Структурные и функционалные стилистические модификации в современных тюркских языках //Развитик стилистических систем литературных языков народов СССР. – Ашхабад, 1968, -Б.65-66.
4. Karimov S. Oʻzbek tili funksional stilistikasi,-B.11.
5. Milliy istiqlol gʻoyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. – Toshkent: Oʻzbekiston, 2000, -80 b.
6. Oʻzbek tilining izohli lugʻati: 80000 da ortiq soʻz va soʻz birikmasi.J. V. Shukrona – H. T.: “Oʻzbekison milliy ensiklopediyasi”, 2008. 473-b.
7. Oʻzbek tilining izohli lugʻati: 80000 da ortiq soʻz va soʻz birikmasi.J. III.N – Tartibli. T.: “Oʻzbekison milliy ensiklopediyasi”, 2008. 587-b.

# USMON AZIM POEZIYASIDA FALSAFIYLIK KATEGAORIYASI

**Z.Suvonov**
Ilmiy rahbar
**Qilichova Shahnoza**
Termiz Davlat Universiteti O’zbek tili va adabiyoti
yo’nalishi magistranti

https://doi.org/10.5281/zenodo.7581989

***Annonatsiya.*** *Mazkur maqolada Usmon Azim poeziyasidagi falsafiylik xususiyatlari: voqelikni, inson ruhiyatini, ijtimoiy muhitni oddiy va ixcham jumlalar orqali g’oyatda chuqur mushohada bilan aks ettiradi. She’rlaridagi, soddalik , haqparastlik birgina jumla orqali ulkan falsafiylikni yoritib berish Usmon Azim ijodining o’ziga xos yo’nalishidir.*

***Kalit so’zlar:*** *Poetik kechinma, meditativ lirika, falsafiy mushohada, tavsifiy lirika, emotsionallik va ratsionallik, intellektual lirika, peyzaj, avtopsixologik lirika, jaydari falsafa.*

## ФИЛОСОФСКАЯ КАТЕГОРИЯ В ПОЭЗИИ ОСМАНА АЗИМА

***Аннонация.*** *В этой статье Осман Азим с необыкновенно глубоким наблюдением в простых и лаконичных предложениях излагает особенности философизма в поэзии: действительность, человеческую психику, социальную среду. В его стихах, простота , справедливость пролить свет на огромную философию одним предложением-отличительная черта творчества Османа Азима.*

***Ключевые слова:*** *поэтическое переживание, медитативная лирика, философское наблюдение, описательная лирика, эмоциональность и рациональность, интеллектуальная лирика, пейзаж, автопсихологическая лирика, джайдари философия.*

## CATEGAORIA OF PHILOSOPHIES IN OSMAN AZIM POETRY

***Abstract.*** *This article reflects the features of philosophies in the Usman Azim train: reality, the human psyche, the social environment with a deep observation in the idea through simple and concise sentences. In his poems, simplicity, truthfulness is a kind of direction of Usman Azim's creativity to shed light on the immense philosophies through just one sentence.*

***Keywords:*** *poetic forgiveness, meditative lyrics, philosophical observation, descriptive lyrics, emotionality and rationality, intellectual lyrics, landscape, autopsychological lyrics, jaydari philosophy.*

Usmon Azim o’zbek she’riyatiga o’zgacha ruh, o’zgacha ohang bilan kirib keldi desak mubolag’a bo’lmaydi. Usmon Azimning ijod yo’li o’ziga xos uslubga ega bo’lib, o’quvchini o’z olamiga olib ketadi. “Uning she’rlariga ko’chgan jasorat, isyonkor ruh, haqparastlik, vatanparvarlik, millatparvarlik hamda erkka tashnalik shoir shaxsiga, uning asarlariga muxlislarda katta ishonch uyg’otdi, chunki u rostini yozdi. She’rning iztirobdan, qiynoqdan tug’ilishini sharafladi: *She’r yozilar, qiynoq senga bo’lsin sharaf, /Jonim, qalbim she’riyatning pichog’ida*…Uning: *Agar odam bo’lsang gapimga tushun, /Agar xudo bo’lsang, menga yo’l ko’rsat!*..kabi oshiqona hayqiriqlari adabiyotga katta ovozi, aytadigan so’zi bor shoirning kirib kelayotganidan darak berardi”. Usmon Azim she’rlari bir qarashda jo’n tuyulsa-da, ammo har misrasida insonni chuqur mushohada qilishga majbur etadigan satrlar mavjuddir. U inson ruhiyatini, uning ichki kechinmalari qalb manzarasini badiiy bo’yoqlar orqali g’oyatda go’zal ifodalab beradi. “Shoir kechinmani ko’pchilik hollarda ixcham, lekin chuqur mazmunli shakllarda ifodalashga intiladi. Jumladan, oddiy bir tosh orqali shoir davrning g’oyat muhim

ijtimoiy masalalarini yoritishga erishadi. She'rda haqiqat uchun kurash poetik kechinma darajasiga ko'tariladi.Bu kechinma shoirni azobga soladi va sekin sirg'alib, she'rga aylanadi.

Osmonga ham otgum tosh,
Gunohkor bo'lsa quyosh .
Gunohkor bo'lsa quyosh,
Qaytib tushmagaydir tosh .

Osmon ham bo'lib g'anim,
Qaytib tushsa ne g'amim!
Bir tosh tushsa tushibdi,
Tog'dek boshimga manim

Ayni paytda tosh to'g'rilikni inkor etuvchi , uni ezuvchi inson boshiga kulfat ketiruvchi yovuz kuchning tafsilini ham beradi. Shoir lirikasida inson ruhiy kechinmalarini shunday tasvirlaydiki, o'quvchi bir qarashda oddiy ko'z bilan shoir bayon qilgan fikrlarni mantiqiy anglay olmaydi. Zohiran sodda ko'ringan shoir lirikasida u aytmoqchi bo'lgan fikrlar chuqur botiniy mazmun kasb etadi. Shu boisdan Usmon Azim she'rlarining asosiy qismi *meditativ lirika* ko'rinishida yozilgan . "Meditativ lirikada shoir ko'nglida ayni damda kechib turgan kechinmalar doim ham mantiqiy idrok etib bo'lmaydigan, anglash va tushuntirish mushkul tuyg'ular ifodalanadi. Umuman, lirikaga xos bo'lgan lirik meditatsiya (hissiy to'yingan , his – tuyg'uga yo'g'rilgan mushohada )meditativ she'riyatning asosini tashkil qiladi, unda voqelik – obyektiv olam unsurlari minimumga, his –tuyg'uni yuzaga keltirgan omillarni ilg'ay olish , yorqin va ta'sirli ifodlash uchun yetarli me'yorga keltirilgan".

Taxtli ko'ngil – faqir bo'lgin,
Baxtli ko'ngil – haqir bo'lgin,
Bahordan kech – tahir bo'lgin –
O'zing so'ng bir chechak o'stir.

Yuqorida keltirilgan "taxtli – faqir, baxtli- haqir " so'zlari o'zaro qarama- qarshi qo'yilib , she'r mazmuniga o'zgacha bir ohang baxsh etgan .Shoir yuqoridagi misrada ko'ngilga to'g'ridan to'g'ri yuzlanib , uni o'zgarishga da'vat etmoqda-ki, qachonki ko'ngil faqirlik va haqirlik darajasini o'zida his qilar ekan u ollohni taniydi , o'zligini taniydi va bu hayotda nima uchun yashayotganini anglab yetadi ,taxtli eding endi faqir bo'l, baxtli eding endi haqir bo'l deyishiga sabab ham ana shunda.

Odamgamas, haqqa ishon,
Sen kim bo'lsang - shudir zamon.
Ko'ksingni buz, etgin vayron-
Qaytadan bir yurak o'stir.

Yuqoridagi "sen kim bo'lsang- shudir zamon" misrasining zamirida katta fasafiy mushohada yashiringanki shoir shu birgina misraga ham meditativ ham tavsifiy lirikaga xos xususiyatni mujassam etgan. "Ko'ngil bir vaqtning o'zida ham sub'yekt, ham obyekt vazifasini bajarmoqda. "Bir qarashda intellectual (falsafiy)lirika tushunchasi ko'p jihatlari bilan meditativ lirika tushunchasi bilan aynandek, o'rtadagi farq hissiylik (emotsionallik) va ratsionallik (tafakkur) nisbatidagina namoyon bo'ladigandek ko'rinadi. Haqiqatda esa intellektual lirikada obyekt (mavjudlikning konkret masalasi – hayot va o'lim, inson taqdiri yoki fe'l- atvori , jamiyat va b.)haqidagi mushohadalar subyetning o'ylovlari tarzida ham, uning tavsifi (tasviri) orqali ham

ifodalanaverishi mumkin." Shoir she'rlarining deyarli barchasi intellektual lirika namunalaridir. Ularning aksar qismida falsafiylik asosiy o'rinni egallaydi.

Kuz bog'lar boshiga ne ish solmadi,
Ana, daraxtlarning so'ngaklari – cho'p
Senga aytadigan so'zim qolmadi ,
Senga aytadigan jimliklarim ko'p…

Ushbu parchani o'qigan o'quvchi bir qarashda peyzaj(tabiat manzarasi) namunasi deb hisoblashi mumkin, ammo uni chuqurroq mushohada qiladigan bo'lsak , shoir kuz tasviri orqali aslida inson umrini, to'g'rirog'i lirik qahramon umrining oxirlab qolganini nazarda tutmoqda. Lirik kechinma egasi nuqtai nazaridan tahlil qiladigan bo'lsak, yuqoridagi parchada avtopsixologik harakter ustuvotlik qiladi. Shu sabab ushbu misralar *avtopsixologik lirika* namunasi desak xato bo'lmaydi. "Avtopsixologik lirika deganda lirik qahramon bilan shoir shaxsiyati mos tushgandek ko'rinadigan, aniqrog'i, ikkalasi bir –biriga yaqin bo'lgan she'rlar tushuniladi. Bunday she'rlarda shoir "men" tilidan gapiradi , ko'proq o'z qalbiga murojaat etadi , o'z-o'zini ko'nglidagini ifodalaydi. Ya'ni agar avtopsixologik lirikaga mansublik uchun shoir shaxsiyati va lirik qahramon orasidagi yaqinlik (aynan moslik emas)ni kifoya deb qarasak, u holda lirik asarlarning aksariyati avtopsixologik harakterga egaligi ma'lum bo'ladi." Bunday harakterdagi she'rlarga Usmon Azim ijodidan ko'plab namunalar keltirishimiz mumkin.

Har dam lashkar kabi
Saflandim, yor-o !
Dardda chavaqlandim –
Sarflandim, yor-o !

Men kimman? Shoirman – she'r ichra malul,
Ammo o'zni bildim dunyoga mas'ul.
Taqdirimga esa etmadim parvo…
Axir o'zing borsan , parvardigor- o!

Avtopsxilogik harakterdagi ushbu misralar orqali shoir o'z qalb kechinmalarini aynan o'z "men "i tilidan aytib o'tmoqda. Ollohga nido tarzida yozilgan bu she'rda shoir butun taqdirini faqatgina uning o'zigagina topshirib qo'yganini ifoda qilgan. Shoir lirikasining yana bir o'ziga xos jihati shundaki, shoir bu dunyoning o'tkinchiligi, umr atalmish hayot karvoning hech kimga vafo qilmasligini o'z she'rlari orqali chuqur falsafiy mazmunda yoritib beradi.

Chun so'z izlab , ko'ngilning o'zin ko'rdim.
Va dunyoning qo'rqinchli yuzin ko'rdim.
Vohkim, dunyo tasviriga so'zim yo'q,
Gar so'z topsam , bu dunyoda ro'zim yo'q…

Yuqoridagi " *va dunyoning qo'rqinchli yuzin ko'rdim*" misrasi orqali shoir nima demoqchi. Shoir "dunyo"ni bunchalik salbiy bo'yoqqa bo'yashining sababi nimada deb o'ylaysiz. Usmon Azim dunyoga faylasuf nigohi billan qaraydi. U yuqoridagi misralar orqali dunyoning aslida qanday ekanligini anglagan inson sifatida fikr yuritadi, Agarda bu dunyo tasviriga so'z topa olsam, o'sha kuni bu dunyodan ketganim ma'qul demoqchi.

Men shunday yaraldim
Sumbatim egri,
Gullarim qalblarga solmas hayajon.
Mevamga hech kimning tushmagan mehri,

Bargim – chumoliga bo'lmas soyabon .

"Bir daraxtning so'nggi qo'shig'i " nomli ushbu she'rida daraxt obrazi ramziy obraz sanaladi . Daraxt timsoli zamirida shoir aynan o'zini tasvirlamoqda ,she'rda shoir "men"i va lirik qahramon o'zaro uyg'unlashib ketgan. Shoir o'z lirik qahramonini naqadar ojiz qilib yaratilgan , chorasiz , hech kimsaga nafi tegmaydigan inson sifatida tasvirlaydi. Bargim – chumoliga bo'lmas soyabon o'xshatishi orqali bu fikrlarini dalillamoqda.

Usmon Azim she'riyatiga nazar soladigan bo'lsak, shoir she'rlarida aynan o'z hayotini , o'z qalb kechinmalarini tasvirlaydi. Taqdirida yuz berayotgan hodisalar , yuragiga sig'magan so'zlari uning she'rlariga ko'chadi. Shoir she'rlarida aynan o'zini tasvirlaydi, kimgadir aytolmagan dardini va yoki kimgadir aytmoqchi bo'lganlarini o'z she'rlari orqali ko'rsatib beradi.Bu haqida shoir shunday deydi: "Men asosan o'zimni yozaman. She'rlarimning bosh qahramoni - o'zim. Faqat hozircha badiiy haqiqatga aylandimmi, yo'qmi – shuni bilolmay turibman." Usmon Azim she'rlarida jaydari falsafa mavjud. U hayot haqiqatini bor bo'yicha tasvir etadi. So'zlarni qog'ozga o'rashni, ortiqcha sayqal, ortiqcha jimjimadorlikni yoqtirmadi. Balki mana shu sabab uning she'rlarida haqiqiy surxon nafasi sezilib turadi.

**REFERENCES**

1. Usmon Azim . "Tanlangan asarlar". Toshkent – 2016
2. http://zarnes. uz/post/usmon azim- bir tosh tushsa tushibdi tog'dek boshimga manim
3. Dilmurod Quronov. "Adabiyot nazariyasi asoslari". Toshkent – 2018
4. Dilmurod Quronov . "Adabiyot nazariyasi asoslari". Toshkent -2018
5. Dilmurod Quronov . "Adabiyot nazariyasi asoslari". Toshkent – 2018
6. Sharq yulduzi -1986

# KIMYONING ASOSIY QONUNLARI VA TUSHUNCHALARI

**Omonov Jahongir Rahmonqo'l o'g'li**
Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika unversiteti
301 guruh talabasi Tabiiy Fanlar fakulteti
Kimyo yo'nalishi

*https://doi.org/10.5281/zenodo.7583408*

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada kimyoning asosiy qonunlari va tushunchalari haqida ma'lumotlar berilgan.*

***Kalit so'zlar:*** *kimyoviy reaksiya, doimiylik qonuni, nisbatlar qonuni, Ekvivalentlar qonuni Ideal gaz qonunlari.*

## ОСНОВНЫЕ ЗАКОНЫ И ПОНЯТИЯ ХИМИИ

***Аннотация.*** *В этой статье представлена информация об основных законах и понятиях химии.*

***Ключевые слова:*** *химическая реакция, закон постоянства, закон пропорций, закон эквивалентов законы идеального газа.*

## BASIC LAWS AND CONCEPTS OF CHEMISTRY

***Abstract.*** *This article provides information about the basic laws and concepts of chemistry.*

***Keywords:*** *chemical reaction, law of constancy, law of proportions, law of equivalents Ideal gas laws.*

Bu qonunlar kimyoviy reaksiya vaqtida sodir bo'ladigan o'zgarishlarni miqdoriy jihatdan tekshirish natijasida kashf etilgan bo'lib, ular kimyo fanining nazariy negizini tashkil etadi. Kimyoning birinchi qonuni — moddalar massasining saqlanish qonunidir. Bu qonun dastlab M. V. Lomonosov va keyinchalik A.Lavuazze tomonidan ta'riflangan: ***kimyoviy reaksiyalarda qatnashuvchi dastlabki moddalar massalarining yig'indisi reaksiya mahsulotlari massalarining yig'indisiga tengdir.***

Katta miqdorda energiya ajralib chiqishi bilan sodir bo'ladigan jarayonlar moddalar (masalan, radioaktiv moddalarning emirilishi, atom hamda vodorod bombalarining portlashi) massasining saqlanish qonuniga emas, balki materiyaning saqlanish qonuniga bo'ysunadi. Agar jarayonning issiqlik effekti (Q bo'lsa, jarayon davomida massasining o'zgarishi Eynshteyn tenglamasi bilan ifodalanadi;

$\Delta m * m = Q/C^{2}$

Uning maxrajidagi $C^2$ nihoyatda katta son ($9.10^{16}$ $m\text{-}s^{-1}$) bo'lganligidan odatdagi reaksiyalarda massa o'zgarishi nihoyatda kichik bo'ladi va uni tarozi yordami bilan ham payqash qiyin.

**Tarkibning doimiylik qonuni.**

A. Lavuaze 1781 yilda karbonat angidrid gazini 10 xil usul bilan hosil qildi va gaz tarkibidagi uglerod bilan kislorod massalari orasidagi nisbat 3:8 ekanligini aniqladi. Shundan keyin: h**ar qanday kimyoviy toza birikmani tashkil ztuvchn elementlarning massalari o'zgarmas nisbatda bo'ladi,** degan xulosa chiqarildi. Bu xulosa *tarkibning doimiylik qonunidir*. 20 yil davomida bu qonunning to'g'riligi barcha olimlar tomonidan e'tirof etib kelindi. Lekin 1803 yilda francuz olimi Bertolle qaytar reaksiyalarga oid tadqiqotlar asosida,

kimyoviy reaksiya vaqtida hosil boʻladigan birikmalarning miqdoriy tarkibi reaksiya uchun olingan dastlabki moddalarning massa nisbatlariga bogʻliq boʻladi, degan xulosa chiqardi.

J. L. Prust (1753-1826) Bertollening yuqoridagi xulosasiga qarshi chiqdi. U kimyoviy toza moddalarni puxta analiz qildi: toza birikmalarning miqdoriy tarkibi bir xil boʻlishini oʻzining juda koʻp analizlari bilan isbotladi. Prust bilan Bertolle orasidagi munozara etti yil davom etdi. Bu kurash ikki falsafiy oqim kurashi boʻldi. Prust falsafasi — uzluklilik prinsipi, Bertolle falsafasi — *uzluksizlik prinsipi* nomi bilan yuritiladi. Koʻpchilik olimlar oʻzlarining amaliy ishlari natijalari bilan Prust prinsipini tasdiqladilar. Natijada Prust gʻolib chiqdi va 1809 yilda kimyoning asosiy qonunlaridan biri tarkibning doimiylik qonuni quyidagicha ta’riflandi: h*ar qanday kimyoviy toza birikma, olinish usulidan qat’iy nazar, oʻzgarmas miqdoriy tarkibga ega.* Masalan, toza suv tarkibida 11,11% vodorod va 88,89 % kislorod boʻlib, suv normal sharoitda 0° C la muzlaydi, 100 $^0$C da qaynaydi; uning 4° C dagi zichligi 1000 kg-m$^3$ yoki I g-sm$^3$ yoxud 1 gml$^{-1}$ ga teng; u oʻzgarmas elektr oʻtkazuvchanlikka, oʻzgarmas qovushoqlikka ega.

Bertollening oʻzgaruvchan tarkibli birikmalar mavjudligi haqidagi ta’limotini XX asrning boshlarida akad. N. S. Kurnakov rivojlantirdi. U qotishma va eritmalarda haqiqatan ham oʻzgaruvchan tarkibli birikmalar boʻlishini isbotladi va ularni bertollidlar deb, oʻzgarmas tarkibli birikmalarni esa — daltonidlar deb atadi.

Tarkibning doimiylik qonuniga faqat molekula holidagi gaz, suyuqlik va oson suyuqlanadigan qattiq moddalar boʻysunadi. Atom tuzilishiga ega boʻlgan kristall modaalar va yuqori molekulyar birikmalar bu qonunga boʻysunmasligi mumkin. Masalan, titan (II) - oksidning tarkibi bir namunada $Ti_{1.2}O$ formula bilan, boshqa bir namunada $Ti0_{1,2}$ formula bilan ifodalanishi mumkin. Birinchi holda' 12 ta titan atomiga 10 ta kislorod atomi kelgan boʻlsa, ikkinchi holda 10 ta titan atomiga 12 ta kislorod atomi toʻgʻri keladi.

Tarkibnnng doimiylik qonunini quyidagicha ta’riflash mumkin. h*ar qanday quyi molekulyar birikma, oʻzining olinish usuli va sharoitidan qat’i nazar oʻzgarmas tarkib bilan ifodalana oladi.*

**Karrali nisbatlar qonuni.**

Ingliz olimi J. Dalton 1804 yilda moddaning tuzilishi haqidagi atomistik tasavvurlarga asoslanib, karrali nisbatlar qonunini ta’rifladi: *agar ikki element oʻzaro birikib bir necha kimyoviy birikma hosil qilsa, elementlardan birining shu birikmalardagi ikkinchi elementning bir xil massa miqdorlariga toʻgʻri keladigan massa miqdorlari oʻzaro kichik butun sonlar nisbatida boʻladi.* Dalton, metan va etilen gazlarining tarkibiga e’tibor berdi: metan tarkibida 75% uglerod va 25 % vodorod boʻlib, unda 1 massa qism vodorodga 3 massa qism uglerod toʻgʻri keladi (ya’ni 3:1). Etilen tarkibida esa 85,71 % uglerod va 14,29% vodorod bor; bu moddada 1 massa qism vodorodga 6 massa qism uglerod toʻgʻri keladi (ya’ni 6:1). Demak, bu birikmalarda 1 massa qism vodorodga toʻgʻri keladigan uglerod miqdorlari oʻzaro 3: 6 yoki 1: 2 nisbatida boʻladi.

Karrali nisbatlar qonuni juda koʻp misollar bilan isbotlandi, masalan, suv tarkibida bir massa qism vodorodga 8 massa qism kislorod toʻgʻri kelsa, vodorod peroksid tarkibida 1 massa qism vodorodga 16 massa qism kislorod toʻgʻri keladi. Karrali nisbatlar qonunining mavjudligi atomistik nazariya asosida quyidagicha izohlanadi: bir elementning bir atomi ikkinchi elementning bitta, ikkita, uchta va hokazo sondagi atomlari bilan birika oladi va aksincha, birinchi elementning ikkita atomi ikkinchi elementlar bitta, ikkita va hokazo sondagi atomlari bilan birikishi mumkin.

**Ekvivalentlar qonuni.**

Moddalar o‘zaro ma’lum massa miqdorlarida birikadi. Masalan, 49 g sulfat kislota 32,5 g rux bilan reaksiyaga kirishganida 1g vodorod ajralib chiqadi. Sulfat kislotaning o‘rniga 36,5 g xlorid kislota olinsa ham o‘shancha vodorod ajralib chiqadi. Ruxning o‘rniga alyuminiy olsak, 1 g vodorod ajralib chiqishi uchun 9 g alyuminiy kerak bo‘ladi. Demak, kimyoviy jihatdan qaraganda 49 g sulfat kislotaning «qiymati» 36,5 g xlorid kislota «qiymatiga», 32,5 g ruxning «qiymati» esa 9 g alyuminiy qiymatiga tengdir. Bunday misollarni juda ko‘p keltirish mumkin. Bu holni tasvirlash uchui Vollaston 1814 yilda kimyoga ekvivalent («teng qiymatli») degan tushunchani kiritdi. Vodorodning ekvivalenti 1 ga teng deb qabul qilindi, 1 massa qism vodorod 8 massa kislorod bilan birikkanda 9 massa qism suv hosil bo‘ladi, shuning uchun kislorodning ekvivalenti 8 ga teng.

*Elementning bir massa qism vodorod, sakkiz massa qism kislorod bilan birika oladigan yoki shularga almashina oladigan miqdori uning kimyoviy ekvivalenti deb ataladi.* Masalan, kalsiyning ekvivalenti 20 ga teng, chunki 8 g kislorod 20 g kalsiy bilan qoldiqsiz birikib, 28 g

kalsiy oksid hosil qiladi.

*Murakkab moddaning bir ekvivalent (1 massa qism) vodorod yoki bir ekvivalent (8 massa qism) kislorod bilan yoxud, umuman, boshqa har qanday elementning bir ekvivalenti bilan reaksiyaga kirishadigan massa miqdori shu murakkab moddaning ekvivalenti deb ataladi.*

*Ekvivalentlar qonuni quyidagicha ta’riflanadi:*

*Elementlar bir-biri bilan o‘zining ekvivaaentiga proporcional miqdorda birikadi.* Masalan, 8 g kislorod bilan 20 g kalsiy birikadi; 16 g kislorod bilan 40 g kalsiy birikadi. Elementlarning ekvivalenti tajribada analiz, sintez va umuman kimyoviy reaksiya natijalari asosida hisoblab topiladi.

Elementning atom massasini valentligiga bo‘lish bilan ham shu elementning ekvivalentini hisoblay olamiz, atom massa ekvivalentning valentlikka ko‘paytmasiga tengdir. Valentligi o‘zgaruvchan elementlarning ekvivalentlari ham o‘zgaruvchan bo‘ladi. Kislota ekvivalentini hisoblash uchun uning molekulyar massasini kislotaning negizligiga bo‘lish kerak: masalan, sulfat kislota $H_2SO_4$ ikki negizli bo‘lgani uchun uning ekvivalenti 98/2=49 ga teng. Asos ekvivalentini topish uchun uning molekulyar massasini shu asos tarkibidagi metallning valentligiga bo‘lish kerak. Masalan, $Ca(OH)_2$ ning ekvivalenti – 74/2= 37 ga teng.

Tuz ekvivalentini topish uchun uning molekulyar massasini tuz tarkibidagi metallning umumiy valentligiga bo‘lish kerak. Masalan, $Al_2(SO_4)_3$ ning ekvivalenti 342/6 = 57 dir. Bu qonunni quyidagi tenglama shaklida ifodalash mumkin:

$m_A/m_V = E_A/E_V$

Moddaning ekvivalentiga teng massasi — uning *molyar* — *ekvivalent* massasi deb ataladi va $g{\cdot}mol^{-1}$ ga teng.

**Misol.** 2,9 g metall gidroksiddan o‘sha metallning 9,2 g bromidi hosil bo‘lgan. Metallning ekvivalentini toping.

Echish. Ekvivalentlar qonuniga muvofiq, massalar orasidagi nisbat ekvivalentlar orasidagi nisbatga teng:

$m_{gidroksid}/m_{bromid} = E_{gidroksid}/E_{bromid}$

Bilamizki, $E_{gidroksid}=E_{metall}$ -17; $E_{bromid}E_{metall}$ - *-79,9* (Bu yerda: $E_{metall}$, — metallning ekvivalenti). $m_{gidroksid}$ = 2.9 g, $m_{bromid}$=9,2g.

Bu qiymatlarni tenglamaga qo‘ysak,

$2,9/9,2=E_{metall}^{-17}/E_{metall}^{+79,9}$ bo‘ladi

Bundan $E_{metall} = 11,95 g\cdot mol^{-1}$ kelib chiqadi.

**Gey-Lyussakning hajmiy nisbatlar qonuni**

Franiuz olimi Gey-Lyussak (1778—1850) ta’riflagan hajmiy nisbatlar qonuni atom massalar haqidagi masalani echishga katta yordam berdi. Bu qonun quyidagicha ta’riflanadi: *kimyoviy reaksiyaga kirishuvchi gazlarning hajmlari o‘zaro va reaksiya natijasida hosil bo‘ladigan gazlarning hajmlari bilan oddiy butun sonlar nisbati kabi nisbatda bo‘ladi.* Masalan, 2 hajm vodorod 1 hajm kislorod bilan yuqori temperaturada reaksiyaga kirishganda 2 hajm suv bug‘i hosil bo‘ladi. Albatta, bunday reaksiyada ishtirok etgan gazlarning hajmlari bir xil bosim va bir xil temperaturada o‘lchanilishi lozim.

Shved olimi Bercelius Gey-Lyussak qonuniga asoslanib, bir xil temperatura va bir xil bosimda baravar hajmda olingan barcha oddiy gazlarning molekulalari emas, atomlar soni o‘zaro teng bo‘ladi degan noto‘g‘ri xulosaga keldi. Berceliusning bu fikri to‘g‘ri bo‘lganda edi, 2 hajm volorod 1 hajm kislorod bilan reaksiyaga kirishganda 1 hajm suv bug‘i hosil bo‘lishi kerak edi. Vaholanki, tajribada 2 hajm suv bug‘i hosil bo‘ldi. Bercelius 1 hajm kislorod 1 hajm vodorodga qaraganda 16 marta og‘irligiga asoslanib, kislorodning atom massasini 16 deb topdi. Bundan tashqari, 1 hajm kislorod bilan 2 hajm vodorod reaksiyaga kirishishidan foydalanib, suvning formulasi $H_2O$ ekanligini aniqladi, lekin nima uchun 1 hajm kislorod 2 hajm vodorod bilan reaksiyaga kirishganida 2 hajm suv bug‘i hosil bo‘lishini tushuntira olmadi. Buni Avogadro gipotezasigina izohlay oldi.

Italiyalik olim Amedeo Avogadro (1776—1856) hajmiy nisbatlar qonunini tushuntirish uchun 1811 yilda quyidagi gipotezani yaratdi: *bir xil sharoitda (bir xil temperatura va bir xil bosimda) va baravar hajmda olingan turli gazlarning molekulalari soni o‘zaro teng bo‘ladi.* Oddiy gazlarning molekulalari bir necha atomdan iborat bo‘lishi mumkin. Avogadroning bu gipotezasi xilma-xil faktlar bilan tasdiqlandi va 1860 yildan boshlab A v o g a d r o qo n u n i deb tan olindi.

Gey-Lyussakning hajmiy nisbatlar qonuni Avogadro qonuni asosida juda qulay izoxlanadi. Masalan, 2 hajm vodorod va 1 hajm kislorod o‘zaro birikib, 2 hajm suv bug‘i hosil qilishini quyidagicha izoxlash mumkin: kislorod va vodorodning har qaysi molekulasi ikki atomdan iborat; vodorodning ikki molekulasi kislorodning bitta molekulasi bilan birikib, bir molekula suv hosil qiladi; kislorodning ikkinchi atomi qolgan ikkita vodorod atomi bilan birikib, yana bir molekula suv hosil qiladi; shunday qilib,

$2H_20 + 0_2 = 2H_20$

reaksiyasi sodir bo‘ladi.

Avogadrodan mustaqil ravishda Amper ham Avogadro xulosasiga o‘xshash xulosaga keldi. Amper o‘z gipotezasini quyidagicha ta’rifladi: bir xil sharoitda molekulalar orasidagi masofa hamma gazlarda ham bir xildir.

Avogadro qonunidan uchta xulosa kelib chiqadi:

1) *oddiy gazlarning (kislorod, vodorod, azot, xlor) molekulalari ikki atomdan iborat;*

2) *normal sharoitda bir mol miqdordagi gaz 22,4l hajmni egallaydi*

3) *bir xil sharoitda baravar hajmda olingan ikki gaz massalari orasidagi nisbat shu gazlarning molekulyar massalari orasidagi nisbatga teng.*

Avogadro qonuni hozirgi zamon kimyosining asosiy qonunlaridan biridir.

Oddiy gaz molekulalarining nechta atomdan iboratligi XIX asrning ikkinchi yarmiga borib aniqlandi. Buni hal qilish uchun issiqlikning kinetik nazariyasidan foydalanildi. Gazning oʻzgarmas bosimdagi issiqlik sigʻimini $C_r$, oʻzgarmas hajmdagi issiqlik sigʻimini $C_v$, bilan belgilasak, $C_r : C_V$ nisbatlar qiymati gaz molekulasi necha atomdan iborat ekanligiga bogʻliq boʻladi. Bir atomli gaz uchun $C_r$:$C_v$ nisbati 1,67 ga teng; molekulasi ikki atomli gaz uchun

$C_r$ :$C_v$ =*1,41*, uch atomli gaz uchun $C_r$ :$C_v$ =1,33 boʻladi. Masalan, azot uchun $C_r$ :$C_v$ nisbati 1,41 ga teng, demak, azot molekulasi **ikki** atomlidir.

**Ideal gaz qonunlari**

1860 yilda Germaniyaning Karlsrue shahrida chaqirilgan kimyogarlarning Xalqaro s'ezdida «atom», «molekula» va «ekvivalent» tushunchalariga aniq ta'rif berildi. Shundan keyin atom va molekula tushunchalari asosida atom-molekulyar ta'limot yaratildi. Gaz holatidagi moddani tavsiflash faqat ekvivalentlar qonuni bilan cheklanmaydi; Avogadro, Sharl, Gey-Lyussak va Boyl-Mariott qonunlariga ham boʻysunadi. Avogadro qonuni: **oʻzgarmas bosim va oʻzgarmas temperaturada hamma gazlarning baravar hajmida bir xil miqdorda molekulalar (yoki gazning mol miqdorlari) boʻladi.** Binobarin, har qanday gazning hajmi

uning mol sonlariga proporcionaldir:

$v=(const \cdot n)_{R,T}$ *yoki* $V_1/V_2=n_1/n_2$

bunda: n, va $n_2$ — gazning $V_{}}$ va $V_2$ hajmlardagi mol sonlari, R,T indekslari shu fizik kattaliklar doimiy qolgan holatini anglatadi.

**Sharl — Gey-Lyussak qonuniga muvofiq:**

a) oʻzgarmas bosimda oʻzgarmas gaz massasidan hajmi gazning absolyut temperaturasigaproporcional boʻladi:

$V=(const \cdot T)_{r,m}$ yoki $\frac{V_1}{V_2}=\frac{T_1}{T_2}$

bu yerda: T-273.15+$t^0$; uni darajaning Kelvin shkalasi deyiladi (K harfi bilan yoziladi).

b) oʻzgarmas hajmda oʻzgarmas gaz massasining bosimi gazning absolyut temperaturasiga proporcional boʻladi:

$R=(const \cdot T)_{V,m}$ yoki $\frac{P_1}{P_2}=\frac{T_1}{T_2}$

Gazning bosimi, hajmi va temperaturasi orasidagi bogʻlanish ideal gazning holat tenglamasi

yoki ^ *Klapeyron tenglamasi* bilan ifodalanadi:

$$\frac{P_0V_0}{T_0}=\frac{PV}{T}$$

Fizikada gazning normal holati deb, uning T=273,15 K va R=101,325 kPa bosimdagi holati

qabul qilingan.

Gazning hajmini normal sharoitga keltirish uchun formuladan kelib chiqadigan tenglamadan foydalaniladi:

$$V_0=\frac{P \cdot V \cdot I \cdot 273.15}{P_0T}$$

Bu formulada V gazning tajriba sharoitidagi bosim *R* va temperatura T (273,15+$t^0$ dagi)

ISSN: 2181-3906
International scientific journal
«MODERN SCIENCE AND RESEARCH»
VOLUME 1 / ISSUE 3

hajmi. Yuqorida keltirilgan tenglamaning chap tomoni bir mol gazga ta’luqli bo‘lib, o‘ng tomoni esa gazning massasiga bog‘liq bo‘ladi. Xaqiqatdan ham *R*=101,325 kPa, T=273,15 K da $V_0$=22,414·$10^{-3}$ $m^3$ (yoki 22,4 l) bo‘ladi. Bu hajm gazning molyar hajmi (ba’zan K ko‘rinishda belgilanadi) deb ataladi. Tenglamaning chap tomoninini R harfi bilan belgilaymiz. U holda bir mol ideal gaz uchun:

***PV=RT***

*p* mol gaz uchun *RV=pRT yoki RV = m/M·RT* ga ega bo‘lamiz.

Bu tenglama *Klapeyron-Mendeleev tenglamasi* nomi bilan yuritiladi (bu yerda: m - gazning massasi, *M*— uning mollekulyar massasi. m*:M=p*—mol soni). Bu tenglamadagi R—gazning

unniversal doimiysi deb ataladi. Uying qiymatini hisoblash qiyin emas.

1) I *m* gaz standart sharoitda (273,15 K va 1 atm. bosimda) 22,4 l hajmni egallashidan foydalanib, R ning qiymatini hisoblay

$$R = \frac{P_0V_0}{273.15} = \frac{1атм \cdot 22{,}4л}{1моль \cdot 273{,}15K} = 0{,}08206 л \cdot атм \cdot моль^{-1}$$

2) 1 atmosfera —Yernnng tortish kuchi tezlanishi g=980,67 sm*$s^{-2}$ bo‘lgan joyidagi 76 *sm* simob

ustuni bosimiga teng, ya’ni:

1 atm=0,76 m-13,595 *$10^3$ kg-$m^{-3}$*980,67 m*$s^{-2}$ = 101325 kg*$m^{-1}s^2$=101325$Nm^{-2}$=101,325kPa.

Binobarin,

$$R = \frac{P_0V_0}{273.15} = \frac{101325Н \cdot м^{-2} \cdot 22{,}414 \cdot 10^3 м^3}{1моль \cdot 273{,}15K} = 8{,}3144 Н \cdot м \cdot моль^{-1} \cdot K^{-1} =$$

$$= 8{,}3144 Ж \cdot моль^{-1} \cdot K^{-1}$$ bo‘ladi.

Endi ideal gaz uchun ta’rif beramiz: **xar qanday bosim va xar qanday temperaturada Klapeyron Mendeleev tenglamasiga bo‘ysunadigan gaz, ideal gaz deb ataladi.**

Universal gaz doimiysining fizik ma’nosi: R ning qiymati o‘zgarmas bosimda 1 mol gaz $1^0$ isitilganda uning kengayishi uchun bajaradigan ishga tengdir. Faraz qilaylik temperaturasi T bo‘lgan 1 mol gaz P bosimda (T+1) temperaturaga qadar isitilsin. U holda gazning dastlabki va

oxirgi holatlari uchun Klapeyron tenglamasi quyidagicha yoziladi:

$R \cdot V_1 = RT;\ PV_2 = R(T+1)$

Agar, $RV_2$ dan $RV_1$ ni ayirib tashlasak,

$RV_2 - RV_1 = R(T+1) – RT = R(V_2 - V_1) = R\Delta v=R$

kelib chiqadi.

*Kimyoning asosiy tushunchalari.* Atom molekulyar ta’limot XIX asrning o‘rtalarida hamma olimlar tomonidan e’tirof etildi va atom, molekula hamda element tushunchalariga quyidagicha ta’rif berildi:

Kimyoviy usul bilan boshqa bir oddiy moddaga aylana olmaydigan oddiy modda element deb ataladi yoki element – ma’lum hossalarga ega bo‘lgan atomlar turidir.

Atom oddiy va murakkab moddalar molekulasi tarkibiga kiruvchi kimyoviy elementning eng kichik zarrachasidir.

Molekula moddaning mustaqil mavjud bo‘la oladigan va moddaning kimyoviy xossalariga ega bo‘lgan eng kichik zarrachasidir.

Oddiy moddalar molekulasi bir xil elementning atomlaridan ($N_2$, $0_2$, $N_2$, $Cl_2$, $I_2$, $0_3$), murakkab moddaning molekulasi esa ikki yoki bir necha xil elementning atomlaridan tarkib topgan bo‘ladi. Masalan, suv ($H_20$) vodorod va kislorod atomlaridan tarkib topadi.

Osh tuzi (NaCl) natriy va kislorod atomlaridan tarkib topgan bo‘ladi.

Mol – modda miqdrorining o‘lchov birligi. Masalan, $H_2S0_4$ mol massasi – 98 gr. 1 mol $H_2S0_4$ 98 gr kelar ekan.

Molni topish uchun quyidagi formuladan foydalanamiz:

$$n = \frac{m}{M}$$

n - mollar soni, m – moddaning gramlardagi massasi M – molekulyar massa

Misol: 180 gr suv necha mol keladi? Echish :

1) $N_20$ – 1 mol = 18 gr

2) $n = \frac{180}{18} = 10 моль$

**REFERENCES**

1. В.Г. Щербаков «Основы управления качеством продукции и технохимический контроль жиров и жирозаменителей» М. Агропромиздат 1985г.
2. «Руководство по методом исследование технохимическому контролю и учёту производство в МЖП» Л. ВНИИЖ. 1982г. том У1, выпуск 3. 417с.
3. В.М. Копейковский, А.К. Мосян и др. «Лабораторный практикум по технологиии производство растительных масел» М. 1990г.
4. Й. Қодиров «Ёғларни қайта ишлаш технологияси лаборатория машғулотлари» Т. ТКТИ 2002й.
5. Й.Қодиров «Ўсимлик мойлари ишлаб чиқариш технологияси» фанидан лаборатория ишлари бўйича услубий кўрсатмалар. Тошкент ТКТИ, 1997

# BOSQON ULOQTIRUVCHI SPORTCHILARNI ULOQTIRISH VAQTIDA TOS XARAKATINI TO`G`RI AYLANISHGA O`RGATISH.

O'ZDJTSU O'qituvchi
**F.Ch.Ziyayev**
O'ZDJTSU YA 52-20 guruh talabalari
**N.Sh.Xalikova**
**Sh.Sh. Xusanov**
**E.U. Xamidova**
**S.S. Abdujalilov**
**Sh. Sh. Bozorov**
**J. J. Kamolov**

**https://doi.org/10.5281/zenodo.7590720**

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada bosqon uloqtiruvchi sportchilarni uloqtirish vaqtida tos xarakatini to`g`ri aylanishga o`rgatish haqida ma'lumotlar keltirildi.*

***Kalit so'zlar:*** *Bosqon, kino, Burchak tezligi, Tos harakati, Tos suyagi, standart uchish.*

# ТРЕНИРОВКА СПОРТСМЕНОВ, ВЫПОЛНЯЮЩИХ БРОСКИ С ОТСКОКОМ, ДЛЯ ПРАВИЛЬНОГО ВРАЩЕНИЯ ТАЗОВОГО ДНА ВО ВРЕМЯ БРОСКА.

***Аннотация.*** *В этой статье представлена информация о том, как тренировать спортсменов, бросающих вторжение, правильно вращать таз во время броска.*

***Ключевые слова:*** *ходьба, кино, угловая скорость, движение таза, таз, стандартный полет.*

# TRAINING INVADING THROWING ATHLETES TO PROPERLY ROTATE THE PELVIS WHILE THROWING.

***Abstract.*** *This article provided information about training invading throwing athletes to properly rotate the pelvis while throwing.*

***Keywords:*** *invasion, cinema, angular velocity, pelvic movement, pelvis, standard flight.*

## KIRISH

Ishning asosiy qismi Tos harakatining bo'shliq-vaqtinchalik va vaqtinchalik xususiyatlarini o'zgartirish Tos suyagi harakati bosqon uloqtirish texnikasining asosiy elementlaridan biridir. Tos, tananing katta qismlaridan biri sifatida, uloqtiruvchining pastki ekstremitalari orqali tayanch bilan eng yaqin aloqa qiladi va xarakatida bevosita ishtirok etadi. Ma'lumki, u boshqa bo'g'inlar bilan birga bosqonning qarshi zarbalar berish jarayonida paydo bo'ladigan harakatlarni amalga oshiradi. Burchak tezligi tosining o'rtacha ko'rsatkichlari tahlili shuni ko'rsatadiki, dastlabki aylanishlar, burilishlar va final paytida uning kattaligi va yo'nalishi o'zgaradi. Dastlabki aylanishlar paytida, tos bo'shlig'ining harakat yo'nalishi VT va NT momentlarida teskari tomonga o'zgaradi. Yo'nalishning o'zgarishi, bu aylanishning paytida sodir bo'ladigan CLSga qarshintezlashishi bilan bog'liq bo'lgan harakati natijasida yuzaga keladi. tos bosqonni uch burilishdan to'rt burilishdan ko'ra faolroq harakat qiladi. Masalan, uchta o'qdan standart uchish uchirganda, birinchi dastlabki aylanishning yuqori nuqtasida, ikkinchi oldingi aylanishning pastki nuqtasida va ikkinchi nuqtaning yuqori nuqtasida o'rtacha qiymatlari. dastlabki aylanish mos ravishda 219, 199, 256 daraja / s ga teng, va to'rt burilishdan bir xil daqiqalarda 177, 136, 181 daraja/s ga teng. Nostandart og'irlikdagi uchishlarni uloqtirishda tos a'zolarining

faoliyatidagi bir xil farq kuzatiladi. VT va NT o'rtasidagi o'zgarishini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, tezlikning eng katta o'sishi VTda sodir bo'ladi. Buning sababi shundaki, uchish VTdan o'tayotganda, uchish to'liq va o'z vaqtida uchun tos bo'shlig'ining tezligini boshqa yo'nalishga qarama-qarshi yo'nalishda faolroq oshirish kerak bo'ladi. keyingi harakatlarda uning simiga yaxshiroq kuchlanish berish. Chanoqning 1 dan 2 gacha bo'lgan harakatining vaqt ko'rsatkichlari 2 dan 2 gacha bo'lgan harakatdan kattaroqdir. Bu farq, ayniqsa, tekshirilgan barcha og'irlikdagi bosqonlarni uch burilishdan, to'rttadan uloqtirishdan farqli o'laroq, yaqqol seziladi. Masalan, uchta o'qdan standart uchish otilganda 1 to'rt burilishdan esa mos ravishda 0,84 va 0,80 s. Bu erda ko'rish mumkinki, 2-har ikkala holatda ham 1 dan kam, chunki yuqorida aytilganlarni tasdiqlashda, uchish harakati faolroq. Biroq, uch burilishdan farqli o'laroq, bu harakat darajasida sezilarli farq bor. Binobarin, uch burilishdan otilganda, tos bo'shlig'i harakati intensivroq bajariladi, lekin natijada, to'rtdan kamroq aniqroq. Tos bo'shlig'ining 2 dan VXgacha bo'lgan harakatida, uch burilishdan uloqtirish da katta o'sish kuzatiladi. Chanoq VXdan o'tayotganda, dastlabki tezlashishi tugaydi va uning asosiy tezlanishi burilishdan boshlanadi. Davomida tos suyagi OD1 boshlanishining chegarasigacha teng ravishda o'sishda davom etadi. Bunday bir xillik barcha tekshirilgan og'irlikdagi bosqon larni uch va to'rt burilishdan uloqtirish da kuzatiladi. DV1 tugagandan so'ng, granulalar har xil og'irlikdagi bosqon larni uloqtirish da ham uch, ham to'rt burilishdan bir xil qiymatlarga etadi. Uch burilishdan uloqtirish paytida farq 20-40 gradus / sek. OD1da standart uchish uloqtirish da uch fazadan 50% gacha va to'rt burilishdan 41% gacha o'sish kuzatiladi. Og'irlikni tashlashda bu safar foiz sifatida bir xil chegaralar ichida.

Keyinchalik, OD1 oxirigacha tos bo'shlig'i kamayadi, lekin to'rt burilishdan uloqtirishda bu pasayish uchtadan ko'ra muhimroq bo'ladi. OD1 oxirida tushish darajasi, oyoqning tayanchga qo'yilgan paytidagi harakat va faoliyat turiga bog'liq. Oyoqni birinchi navbatda tayanchga qo'yishning mumkin bo'lgan variantlari, oldingi oyoqning aniqroq joylashuvi bo'lishi mumkin, bu pastki oyoqning qo'llab-quvvatlanmagan vaqtini qisqartirish uchun oldinga va pastga tavsiflaydi. Tosdan DV2 ga o'tgandan so'ng, u bir muncha vaqt pasayishda davom etadi. Masalan, standart uchish uch burilishdan otganda, bu vaqt 24% bu fazaning davomiyligi, to'rt burilishdan esa 30%. Bu tezlikning pasayishi, uchish pastki bo'g'inlar o'tgandan keyin, uning qo'li bilan faol tezlashishi boshlanganida, yogalar harakatining biroz sekinlashishi kuzatiladi. tosning aylanish o'qi atrofida va ularning oldingi orqa yo'nalishdagi kompensatsion harakati, tashlovchining tayanch oyog'ining barmog'idan tovoniga o'tishi tufayli amalga oshiriladi. Bu pasayishdan so'ng, tos bu fazaning oxirigacha yana faol ravishda o'sishni boshlaydi, chunki tos oyoqlari bilan birgalikda keyingi tezlanishida baquvvat ishtirok etadi. OD va DVning keyingi bosqichlarida tos harakati ko'rsatkichlari OD1 va DV2 kabi o'zgaradi (shakli), lekin tezlik doimiy ravishda oshib boradi. Tos suyagidan maksimal qiymat DW bosqichida, oxirgi navbatdagi barcha tadqiqot usullariga to'g'ri keladi.

Harakat tezligining oshishi bilan bir qatorda, LV bosqichlarida tosdan tushish vaqtining ulushi oshadi, ayniqsa to'rt burilishdan otilganda. Misol uchun, standart uchish uch burilishdan otganda, minimal momenti oxirgi bosqichda bu fazaning davomiyligining 27% ga va to'rtdan 48% gacha siljiydi. Bu, asosan, LW fazasining oxirida, keyingi LW fazasiga o'tish paytida, qayta tashkil etilgan oyoqning orqaga qaytarilishining natijasidir. Oyoq harakatlanayotgan paytdan boshlanadigan final bosqichida tos bo'shlig'i bir muncha vaqt o'sishda davom etadi (masalan, standart uchish uch burilishdan uchirganda, bu faza davomiyligining 38% ni tashkil qiladi, va

to'rtdan 25%). Shundan so'ng, fazaning oxirigacha tezlikning keskin pasayishi sodir bo'ladi, ya'ni. uchish chiqarilishidan oldin. o'rtacha, tezlik bu bosqichda erishilgan maksimaldan 50% ga kamayadi. Tos tezligining bunday pasayishi, uchish chiqarilishidan oldin, oyoq va tos a'zolarining umumiy momentumini otuvchi tanasining yuqori bo'g'inlariga o'tkazish uchun tezda to'xtab qolishi bilan bog'liq bo'lib, ular uchish harakatini davom ettiradi. uni chiqarish tezligi. Tos a'zolaridagi o'zgarishlarning o'rganilgan ko'rsatkichlarini ularning natijaga ta'siri nuqtai nazaridan tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, bu parametrlar orasidagi harakat jarayonida ularning kuchi jihatidan o'zaro bog'liqligi uch yoki to'rtdan uloqtirish da ham bir xil emas. burilishlar. Dastlabki harakat bosqichlarida (VT2 va VX) to'rt burilishdan uloqtirishda bu ulanish kattaligi yuqori. Masalan, og'irlikdagi o'q otilganda bu ulanish yakuniy natijaning tos bo'shlig'i harakatining boshlanishining dastlabki tezlanishida o'z vaqtida va aniqligiga bog'liqligi bilan izohlanadi, ya'ni. uning harakatining sekinlashishi olib keladi. Dastlabki aylanishlarda va VCda uch burilishdan uloqtirish  paytida o'rganilayotgan aloqa topilmadi. Dastlabki aylanishlarda to'rtta burilishdan standart uchish otilganda, tos yo'lining I o'tishi o'rtasida VT2 dan VXgacha bo'lgan o'rtacha bog'liqlik bo'ladi: Bu tarzda uchish-og'irliklarni uloqtirish da bu aloqa kuchliroq bo'ladi, ayniqsa og'ir bosqon  bilan bu fakt bilvosita bu bosqichning muhimligini ko'rsatadi, chunki uning bajarilish aniqligi nuqtai nazaridan, to'rt burilishdan uloqtirish  paytida dastlabki tezlanish oxirida   keng amalga oshiriladi. Oddiy  uchish uch burilishdan uloqtirish  paytida, tekshirilayotgan aloqaning dastlabki aylanishlarida I natijasi aniqlanmadi. Tos bo'shlig'ining siljishi bilan bog'liqlikni tahlil qilishdan oldin shuni ta'kidlash kerakki, statistik usullar qo'llaniladigan burilish texnikasi ko'rsatkichlarini o'rganishda faqat boshlang'ich va harakatning LW va LW bosqichlarining oxiri ko'rib chiqiladi. Qayta joylashtirilgan qabrni olib tashlash va o'rnatish lahzalari otuvchilar ishlatadigan texnikaning barcha variantlarini birlashtiradi va shuning uchun ular etarli darajada ob'ektivdir. Bu ko'rsatkichlar o'rganilayotgan bosqichlar ichida sodir bo'lgan harakatlar natijasidir va shuning uchun ko'rib chiqilayotgan bo'g'inlardagi progressiv yoki regressiv o'zgarishlar natijasini tavsiflaydi. Yuqoridagilarga asoslanib, natijaning tos suyagiga bog'liqligini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, odatda, OD bosqichlarida uch va to'rt burilishdan tashlanganida, DWga qaraganda, bu qaramlikning katta darajasi aniqlangan.

OD bosqichlarida to'rt burilishdan uloqtirish  paytida, bu ulanish deyarli barcha burilishlarda mavjud, birinchisidan tashqari. Masalan, standart snaryad otilganda. Natijaning tos suyagiga bog'liqligi to'g'ridan-to'g'ri  uchish tezligiga bog'liq. OD1 -da ulanishning past darajasi, uloqtirish malar har doim o'zlari uchun maqbul bo'lgan tezlik bilan "quvib o'tishga" moyilligi va shu bilan yanada tezlashishiga moslashishi bilan izohlanadi. O'rganilgan barcha chig'anoqlarni uch burilishdan tashlaganingizda, natijaning tos suyagiga bog'liqligining eng katta darajasi oxirgi burilishning OD bosqichida namoyon bo'ladi: og'irligi 7,260 kg bosqonni uloqtirishda og'irligi 6 da 0,654 kg og'irligi 8 kg - g = 0,530 da. Buning sababi, tos harakatining birinchi burilishlarda faol boshlanishi (uchdan uloqtirish  paytida), har doim ham oxirigacha saqlanmaydi, quvib o'tish oshishiga olib keladi. FIN oldidagi uchish. LW bosqichlarida, uch va to'rt burilishdan uloqtirish  paytida, o'rganilgan aloqa juda kam kuchga ega yoki umuman yo'q. FIN bosqichida har xil og'irlikdagi bosqon larni uch va to'rt burilishdan uloqtirish da ham bu aloqa topilmadi. Uning yo'qligi, uchish chiqarilishidan oldin ham, tos suyagining aylanishi keskin to'xtab, harakatning umumiy miqdorini otuvchi tanasining yuqori bo'g'inlariga o'tkazish bilan izohlanadi. Tos bo'shlig'idan ko'rsatkichlarning o'zgaruvchanligi va barqarorligini o'rganish shuni ko'rsatdiki, umuman olganda, har xil og'irlikdagi chig'anoqlarni uch va to'rt burilishdan

tashlashda, ularning eng katta o'zgaruvchanligi dastlabki aylanishlarda, VX va FINda kuzatiladi. Bu uloqtirish masofasiga qarab, bu fazalarni bajarish texnikasi parametrlarining individual tarqalishi va w tebranishlarining natijasi. Tos bo'shlig'idagi o'zgarishlar indekslarini bosqichma - bosqich batafsil tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, dastlabki burilishlarda har xil og'irlikdagi chig'anoqlarni uch burilishdan uloqtirish da uning eng katta o'zgaruvchanligi, VT2da esa biroz kamroq bo'ladi. Masalan, standart snaryad otilganda, Bu haqiqat, harakatning boshlanishi har xil boshlang'ich pozitsiyalardan individual ravishda sodir bo'lishi, so'ngra tezlik ko'rsatkichlari nisbatan maqbul qiymatlarga yaqinlashishi bilan izohlanadi. Dastlabki aylanishlarda har xil og'irlikdagi uchishlarni to'rt burilishdan uloqtirishda, asosan, tekshirilayotgan sherikning o'rtacha o'zgaruvchanlik darajasi saqlanib qoladi. Masalan, standart o'q otilganda:

BX bosqichida tos suyagining o'zgaruvchanligi har xil og'irlikdagi chig'anoqlarni uch va to'rt burilishdan tashlashda ortadi. Oddiy bosqon ni uch burilishdan sindirish C (BX) = 48,3%va to'rtta C (BX) = 36,4%. Biroq, bu o'zgaruvchanlikning o'sishi ekvivalent emasligi aniq, ya'ni. uch burilishdan tashlashda w indekslarining tarqalishi to'rttadan katta. Buning sababi shundaki, uchta burilish bilan tos yuqori tezlikda va shu bilan kamroq aniq aylanadi. Burilishlarni bajarayotganda, tos bo'shlig'idagi ko'rsatkichlarning darajasi bo'yicha o'zgaruvchanligi unchalik katta emas. Bu tekshirilgan bosqon larni uch va to'rt burilishdan tashlash paytida aniqlandi. DV va OD bosqichlarida, uch burilishdan uloqtirish da, nisbiy o'zgaruvchanlik 11-19% dan oshmaydi va to'rt burilishdan 9-19%. Ammo shuni ta'kidlash kerakki, OD fazalaridagi aylanishlarning o'zgaruvchanligi DVga qaraganda ancha katta. O'rtacha, bu uch burilishdan farq 3-4% va to'rtdan 4-7% gacha. Istisno - DV1 standart uchish uch burilishdan tashlashda, bu erda C = 26%. Bu erda o'zgaruvchanlikning oshishi tos bo'shlig'idan individual ko'rsatkichlarning tarqalishining natijasidir. FINda, o'rganilayotgan barcha og'irlikdagi bosqonlarni uch va to'rt burilishdan otganda, o'rtacha o'zgaruvchanlik darajasi qayd etiladi (0 = 30-40%). Tos suyagining dastlabki aylanishlaridagi o'zgaruvchanlik tahlili shuni ko'rsatadiki, umuman olganda, og'irligi bo'yicha o'rganilgan barcha bosqon larni uch va to'rt burilishdan tashlashda, uning o'lchamlari kichik bo'ladi. Biroq, tos NT2dan BT2gacha bo'lgan yo'lni uchta burilishdan o'tkazganda, bir oz o'sish kuzatiladi (masalan, bosqon ni uloqtirish da 7.260 kg bu turli masofadan uloqtirish paytida uchish paytida tos a'zolarining individual faolligining natijasidir. Tos bo'shlig'idan o'zgarish ko'rsatkichlarining turli bosqichlarda o'zaro bog'liqligini o'rganish, uch va to'rt burilishdan uloqtirishda uning namoyon bo'lishining o'ziga xos xususiyatlarini aniqladi. Dastlabki aylanishda barcha tekshirilgan og'irliklarning uch burilishidan bosqon lar otilganda, tos bo'shlig'idagi ko'rsatkichlar o'rtasida kuchli bog'liqlik mavjud: Bu indikatorlar orasidan to'rt burilish o'tkazilganda, aloqa kichik va ba'zi paytlarda o'rtacha bo'ladi. Bog'lanish darajasidagi bu farq, uch burilishdan uloqtirish da tos harakati faolroq va kamroq barqaror bo'lishi bilan izohlanadi. Burilish jarayonida, tosdan turli burilish bosqichlarida ko'rsatkichlarning o'zgarishi o'rtasidagi bog'liqlik harakatning boshida uch burilishdan va to'rtdan oxirigacha uloqtirishda aniqroq namoyon bo'ladi. Dastlabki burilish va burilishdagi gaz ko'rsatkichlarining FIN ko'rsatkichlari bilan o'zaro bog'liqligi, o'rganilgan barcha uchishlarning metapiyasi uchun to'rt burilishdan ko'ra, uch burilishdan to'g'ri. Bundan tashqari, ikkinchi dastlabki aylanish ko'rsatkichlari va FIN o'rtasidagi kuchli aloqani ta'kidlash lozim. Masalan, og'irligi 7,260 kg bosqon ni uloqtirishda. Bu qaramlik, tosning old qismidagi bu tarzda uloqtirish paytida katta faolligi bilan izohlanadi, bu harakatning oxirgi bosqichiga bevosita ta'sir qiladi.

To'rt burilishdan otilganda, tos harakatining boshlanishi ancha barqaror va faol emas, shuning uchun uloqtirishning oxirgi bosqichiga unchalik aloqasi yo'q.

Yelka harakatining fazoviy-vaqtinchalik va vaqtinchalik xususiyatlarining o'zgarishi Bosqon uloqtiruvchilarning elkama-kamari tezlashuvida ishtirok etadi, bunda tananing pastki qismlari va uchish bilan bevosita o'zaro ta'sir qiladigan qo'llar o'rtasida muhim bo'g'in bor. U katta harakatchanlikka ega va uloqtirish paytida harakatlanayotganda. Tizzaimida ma'lum muvofiqlashtiruvchi rolni bajaradi. Elkama -kamarning harakati katta burilishlarning OD bosqichlarida, shuningdek, DV fazalarida uning asosiy tezlashuvida katta ahamiyat kasb etadi. Elkalardagi o'zgarishlarning o'rtacha ma'lumotlari tahlili shuni ko'rsatadiki, tosni qimirlatganda ham, ular butun harakatni bajarish jarayonida o'lchamlari va yo'nalishini o'zgartiradilar. VT va NT momentlarida dastlabki aylanishlar paytida, elkalar to'rt burilishga qaraganda uch burilishdan (o'rganilayotgan bosqon larni) uloqtirishda faolroq harakatlarni bajaradilar. Tegishli burilishlarning VT va NT momentlarida elkalardagi qiymatlarni taqqoslash shuni ko'rsatdiki, xuddi tos harakatida bo'lgani kabi, VTda NT ga qaraganda katta qiymatlarga etadi. O'rtacha, barcha bosqon larni uch va to'rt burilishdan tashlaganingizda, VT2 va NT2 o'rtasidagi farq 160-180 daraja / s. Dastlabki aylanmalardagi bu farq (tos suyagi harakatida bo'lgani kabi), kabelga kerakli berish uchun uchish paytida VT tezligining oshishi natijasidir. Ilk yelka harakatining absolyut ma'lumotlari tahlili shuni ko'rsatdiki, (tos bo'shlig'i harakatida bo'lgani kabi) ularning BT1dan HT2gacha bo'lgan harakatining har ikkalasi ham HT2 dan BT2 gacha, ham uch, ham to'rt burilishdan kattaroqdir. Bundan tashqari, elkalarning HT2 dan BT2 gacha siljishi, BT1 dan HT2 gacha nisbatan teng I bo'lgan to'rt burilishdan ko'ra, uch burilishdan otilganda kamroq bo'ladi. Bu erda uch burilishdan uloqtirish da farq 0,30 s, to'rtta 0,10 s. Bu uch burilishdan uloqtirish paytida uchish dastlabki aylanishlarda "qo'lga olish" paytida ushbu bo'g'in harakatining katta faolligi kuzatilganligini tasdiqlaydi. Uch burilishdan uloqtirish paytida elkalarning faolligi oshishi VXda ham namoyon bo'ladi. Bunday holda, standart uchish uch burilishdan otganda, elkadan VT2 dan VXgacha bo'lgan o'sish 530 deg / s ni tashkil qiladi va VXda 106 gradus / s ga etadi, to'rt burilishdan esa 398 ga oshadi. deg / s va VXda 81,2 daraja / s ga etadi. Ham uchta, ham to'rt burilishdan bosqon tortish paytida, elkadan BT2 dan BXgacha va elkalarning BX ga etib boradigan tezligi standart uchish uloqtirish dan ko'ra ko'proq bo'ladi. Elkalarning VT2 dan VX gacha siljishining I mutlaq ko'rsatkichlarining o'rtacha ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, uch marta tortilgan chig'anoqlardan uloqtirish paytida standart qobiqqa nisbatan har xil o'zgaradi (og'irligi 7,260 kg bosqon ni uloqtirish da 1 = 0,42 s, og'irligi 6 kg 1 = 0,40 s, og'irligi 8 kg 1 = 0,48 s). Barcha o'rganilgan og'irlikdagi chig'anoqlarni to'rt burilishdan otganda, bu ko'rsatkichning qiymati bir xil va 0,47-0,48 s ga teng. Bu uchish og'irligining o'zgarishiga qaramasdan, ko'rib chiqilayotgan bosqichda elkalar harakati vaqtinchalik tuzilishining ma'lum barqarorligi natijasidir. VX o'tgandan so'ng, DV1da, elkasi bu bosqich oxirigacha o'sishda davom etadi. Biroq, tekshirilayotgan barcha chig'anoqlarni uch va to'rt burilishdan tashlashda tezlikni oshirish usuli uchta individual variantga ega. Birinchi variantda, fazaning boshidan oxirigacha bir xilda oshadi. Ikkinchi holda, co faza tugashidan oldin maksimal qiymatga ega bo'ladi va keyin biroz pasayadi (o'rtacha 40-80 deg / s). Uchinchi variantda - fazaning boshida c ning engil pasayishi kuzatiladi (30-40 gradus / s gacha) va shundan so'ng u oxirigacha teng ravishda oshadi. Bu holda ning kamayishi OD fazasiga o'tish paytida tananing orqaga burilishi yoki BXdan keyin uchish keng uchun yelkaning biroz to'xtashi tufayli ro'y beradi.

**REFERENCES**

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 5 мартдаги ПФ-5368-сонли фармони ―Жисмоний тарбия
2. ва спорт соҳасида давлат бошқаруви тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида‖ги
3. Фармони. (Халқ Сўзи. 2018 йил 5- март.)
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПФ 5924-сонли фармони ―Ўзбекистон Республикасида жисмоний
5. тарбия ва спортни янада такомиллаштириш ва оммалаштириш чора-тадбирлари тўғрисида‖ги. Фармони
6. (Халқ сўзи 2020 йил 24-январ).
7. Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПҚ 3031-сон қарори ―Жисмоний тарбия ва спортни янада
8. ривожлантириш чора тадбирлари тўғрисида‖ги (Халқ сўзи 3 июн 2017 йил)
9. Soliev I.R, Khaydrov B.SH, Mirzatillayev I.I, Khujamkeldiyev G.S, Ziyayev F.CH. Functional training level of
10. runners student-athletes sprinters. // International Journal of Psychosocial Rehabilitation,Vol.24,Issue 05,2020,
11. http://www.psychosocial.com/article/PR201878/17061/ 46-50 бетлар.
12. Ziyayev F. C. et al. YENGIL ATLETIKA SPORT TURINI RIVOJLANTIRISHDA UMUMIY O’RTA T’ALIM MAKTABLARINING JISMONIY TARBIYA DARSLARIDA YENGIL ATLETIKA TURLARINI O ‘RGATISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH SAMARADORLIGI //Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS). – 2021. – Т. 1. – №. 3. – С. 348-355.
13. Xo‘jamkeldiyev G. S. et al. KICHIK RAZRYADLI O’RTA MASOFALARGA YUGURUVCHILARNING MUSOBAQA OLDI TAYYORGARLIGI //Central Asian Research Journal For Interdisciplinary Studies (CARJIS). – 2021. – Т. 1. – №. 3. – С. 270-274.
14. Ziyayev F. C. et al. O ‘RTA MASOFAGA YUGURUVCHI YENGIL ATLETIKACHILARNI MUSOBAQA OLDI TAYYORGARLIGI SAMRADORLIGINI OSHIRISH //Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS). – 2021. – Т. 1. – №. 4. – С. 78-90.
15. Каримов Ф. М. и др. БОШЛАНҒИЧ ИХТИСОСЛИК ГУРУҲИДАГИ УЗУНЛИККА САКРОВЧИ ҚИЗЛАРНИНГ ДЕПСИНИШ КУЧИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ //Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS). – 2021. – Т. 1. – №. 4. – С. 119-125.

# NAZAR ESHONQUL HIKOYALARIDA MODERN IZLARI
# ( «XAROBA SHAHAR SURATI» HIKOYASI MISOLIDA)

**Go'zal Himmatova**
Ilmiy rahbar
**Ziyodullayeva Ozoda Ulug'bekovna**
Termiz Davlat Universiteti Õzbek filologiyasi fakulteti
2 - bosqich talabasi

***https://doi.org/10.5281/zenodo.7590769***

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada Nazar Eshonqulning modern asarlarini tahlil qilish haqida ma'lumotlar berishga harakat qilingan.*

***Kalit so'zlar:*** *Modern, Modernizm, psixologiya, õzlikni anglash, inson ruhiyati, ichki men va tashqi men.*

# СОВРЕМЕННЫЕ СЛЕДЫ В РАССКАЗАХ НАЗАРА ЭШОНКУЛА
# (НА ПРИМЕРЕ РАССКАЗА» КАРТИНА РАЗРУШЕННОГО ГОРОДА")

***Аннотация.*** *В этой статье была сделана попытка предоставить информацию об анализе современных работ Назара Эшонкула.*

***Ключевые слова:*** *модерн, модернизм, психология, осознание реальности, человеческая психика, внутреннее я и внешнее я.*

# MODERN TRACES IN THE STORIES OF NAZAR ESHONKUL
# (ON THE EXAMPLE OF THE STORY" THE IMAGE OF A RUINED CITY")

***Abstract.*** *In this article, an attempt was made to provide information on the analysis of modern works by Nazar Eshonkul.*

***Keywords:*** *Modern, Modernism, psychology, self-realization, human psyche, inner me and outer me.*

Modernizm – bu zamonlar oralig'idagi tafovutn, «eskilik» va «yangilik» o'rtasidagi ixtiloflarni o'z g'oyaviy qarashlari bosh mezoni qilib olgan yuz yillikning ma'naviy qiyofasidir.

Nasrimizning o'tkan asr 80 - 90 yillaridagi yangilanish odatiy an'anaviy yo'ldan bir muncha o'zgacharoq kechdi.

XlX asr oxiri – XX asr boshlarida g'arbda paydo bo'lgan adabiy oqimga o'xshash sifatlar namoyon bo'ldi. Bu hol o'zbek nasrining tahlil hududi kengayib, tasvir qamrovining, tahlil maydoni shakli, maqsadi, mazmuni borasida yangi-yangi jihatlarni namoyon etdi. Endi kitobxon qahramon bilan emas, balki uning tafakkuri bilan muloqotga kirishadigan, uning tafakkur jarayoni bilan bahslashadigan bo'ldi.

Shu ma'noda, Nazar Eshonqul o'zbek nasriga, ayniqsa hikoyachiligiga, ya'ni ovoz, yangi ruh deb kirdi. U mana shu janrini sharq va g'arb adabiyoti an'analari bilan uyg'unlashtirayotgan adiblarning biridir. Yozuvchi elni, millatni ma'rifatga chaqiradi, jaholatni qoralaydi. Millatparvarlik nimadan boshlanadi? – jaholatga qarshi kurashgan va nafsi ustida g'alaba qozongan shaxsning o'ga millat vakillarini avaylab, milliy g'urur va milliy birlik tuyg'usini namoyon etishdadir.

Nazar Eshonqul hikoyalari puxta reja asosida bunyod etilgan. Yozuvchi o'zi nimani ko'zda tutayotgani asar skletini qanday ishlagani va hikoya qay tarzda rivojlanib borayotganini yaxshi bilib turadi.

Misol uchun yozuvchining «Xaroba shahar surati» hikoyasida muallif timsollar tilida gapiradi. Shu sababli kitobxon tafakkur qilishga majbur bo‘ladi – u asarning voqeligini ko'rinib turgan narsani emas matn ostida berkitilgan fikrni anglashi kerak bo‘ladi.

Masalan yozuvchining «Xaroba shahar surati»da keltirilgan ushbu parcha orqali yuqorida keltirilgan jumlamizni isbotlaymiz. «Professorning ham qachonlardir meni qiynagan savollar qiynagani va u ham Tursoriya kabi unut shaharni izlagani men uchun yangilik edi, biroq men uning xulosalarida daxshatga tushdim; nahotki Tursoriyasiz yashash mumkin bo‘lsa.

Professor shuncha vaqtdan beri Tursoriyasiz qanday yashab yuribdi? Men uning yuziga yalt etib qaradim va professorning yuzida ham xonamdagi sur'atda aks etgan haroba shaharning aksini ko'rib bir yum toshday qotib qoldim.» Korinib turibdiki, asarda abadiy makon va zamon muhimligi badiiy tasvirlarda qora rang va badbo‘y hadning ustivorligi bilan kitobxonni chuqurroq mulohaza etishga undaydi.

Nazar Eshonqul ijodida «shahar» makoni katta o'rin tutadi va bu obraz darajasiga ko‘tarilgan. Fikrimizga yaqqol misol «xaroba shahar surati» hikoyasidir.

Ushbu hikoyasida hayoliy Tursoriya shahri tilga olinadi. «Suratda hali ham yoriga yetmagan hira bo'yoqlar fonida vayronaga aylangan shahar burdalangan jasatdek bo'rttirib tasvirlangandi. Suratdagi birdan bir menga yoqadigan manzara ham mana shu xarabo edi; bu shaharni kim vayronaga aylantirgan, kim uni yoqib kul qilgan, men buni ham bilmasdim, ehtimol, rassomninh o‘zi ham bilmagandir».

E'tibor beradigan bo'lsak, asar qahramoni suratdagi haroba shahar manzarasini Tursoriya deb nomlaydi. Unkng oldingi go'zalligini insonlarga tushuntirishga, uqtirishga harakat qiladi. Ammo barcha urinishlar besamar ketadi, misoli hayvondek faqat qorin g'amini o'ylaydigan insonlarni bu dunyoga nimaga kelganini anglamay o'z tinchligini o'ylashi insoniylikdan yiroqlashish deyish mumkin. Aslida shahar emas jamiyatdagi ba'zi bir insonlar haroba ekanligini aniqlagandek bo'ladi.

«Xaroba shahar surati» hikoyasi insoniyatning o'sha tanazzuliga, zulmatga singish jarayonini ko'rsatganligi bilan ham ahamiyatlidir. Asarda qahramon suratdagi manzarani va o'zining ruhiy holati o'rtasida qandaydir o'xshashlikni his etadi. Lekin bu qanday o'shashlik ekanligini anglay olmaydi. Asarga chuqurroq kirib borar ekanmiz, bu o'xshashlik nimada ekanligini fahmlagandek bo'lamiz. Shaharning ham parishon yigitning ham hayoti ko'rinishida haroba, ammo ikkalasida ham kichkina bo‘lsa ham umid uchquni bor.

Mana masalan, «xaroba shahar surati» hikoyasidagi bosh qahramon tilidan shunday jumla keltiradi. «Nima bo'lganda ham Tursoriya bir qarashda kongilga g'ulu solib qo'yardi, biroq bo'yoqlar oqimi tikilib qarasangiz, shaharning tosh devorlari borib tutashadigan tepalik uzra qizg'ish shu'lani ko'rishingiz mumkin edi».

Shahar shu darajada xaroba va ayanchlii tasvirlanmasin unda kichkina bo‘lsa ham umid shu'lasi borligi asar qahramonining aynan o'sha paytdagi ahvolini ko'rsatgan desak bo'ladi. Chunki uning hayoti ham xuddi butun bir xarobaga aylanganu, ammo kichkina bo‘lsa ham o'z hayotida umid shu'lasi bor. Shuning uchun ham u Tursoriyani topishga intiladi. Garchand, Tursoriya yer yuzida yo‘q bo‘lsa ham, uning o'z olamida, ichki dunyosida Tursoriya borligi uni topishi va ozligini anglashga ishonardi. Ushbu asarda yozuvchi birgina surat orqali butun bir jamiyatdagi illatning xarobaligin, insonlar va ularning jirkanch ishlarining xarobaligini yoritib bergan. Shj bilan bir qatorda asarni o'qigan insonda ichki va tashqi dunyosi o'rtasida konflikt yuzaga keladi va haminqadar o'zligini anglashga xizmat qiladi.

Nazar Eshonqul hikoyalari tili o'zi xosligi bilan ajralib turadi. Unda asar qahramonlarining ijobiy yoki salbiy qahramon ekanligi yozuvchi tilidan e'tirof etilmaydi, aksincha buni o'quvchilarning o'ziga qoldiradi. Uni mushohadakorlikka chorlaydi.

Misol uchun «xaroba shahar surati» hikoyasining so'ngi jumlasida shunday yozilgan. «Xat bir parcha sarg'ish tusli qog'ozga aji-buji qilib shoshib yozilgandi. Men Tursoriyani izlab kettim. Meni izlab o'tirmanglar. Men birdan daxshatga tushdim: yaqinda shoir ham devorga «Men so'z izlab ketdim» deb yozib aqldan ozgandi.

- Nima gap ekan - e -so'radi uy egasi, menkng yuzim oqarib ketganini ko'rib.

-Hech gap yo‘q. U o'zini izlab ketibdi, - dedim izga qaytarkanman» Ushbu parcha ko‘rganimizdek yozuvchi yechimni kitobxonning o‘ziga havola qilib qoygan.

Xulosa qilib aytganda Nazar Eshonqul asarlari uz tanazzulini sezmayotgan insonlarni sergaklantirish jamiyatni manqurtga aylanib qolmasdan o‘zligini anglash va shu qatorda falsafiy mulohazkorlik alohida ahamiyat kasb etgan holda butkul taffakur shu‘lasi bilan sug‘orilgan va teran mushohadakorlikka qurilgan ruhiyat tahlili ustuvor deya tavsiflash mumkin.

**REFERENCES**

1. Nazar Eshonqul «Mendan mengacha» tõplami.
2. Nazar Eshonqul «Xaroba shahar surati» hikoyasi
3. N.ZIYOUZ.COM

# PIRLS - MATNNI O'QISH VA TUSHUNISH DARAJASINI BAHOLASH

**Sultanova Gulmira Turǵanbayevna**
Qoraqalpoǵiston Respublikasi Shumanoy tumani 10 - sonli maktab

***https://doi.org/10.5281/zenodo.7590820***

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada PIRLS xalqaro baholash dasturi, tadqiqotning 2016-yil natijalari, Rossiya Federatsiyasi, Singapur, Qozog'iston hamda O'zbekistonning ta'lim tizimi va PIRLS xalqaro baholash dasturiga tayyorlanish jarayonlari yoritilgan. Shuningdek, boshlang'ich sinf o'quvchilarini PIRLS xalqaro baholash dasturiga tayyorlashning samarali usullari haqida so'z yuritilgan.*

***Kalit so'zlar:*** *PIRLS, TIMSS, PISA, TALIS xalqaro baholash dasturlari.*

# ПИРЛС - ОЦЕНКА УРОВНЯ ЧТЕНИЯ И ПОНИМАНИЯ ТЕКСТА

***Аннотация.*** *В данной статье освещаются программа международной оценки PIRLS, результаты исследования за 2016 год, система образования Российской федерации, Сингапура, Казахстана и Узбекистана и процессы подготовки к программе международной оценки PIRLS. Также упоминаются эффективные методы подготовки учащихся начальной школы к программе международной оценки PIRLS.*

***Ключевые слова:*** *международные оценочные программы PIRLS, TIMSS, PISA, TALIS.*

# PIRLS - ASSESSMENT OF THE LEVEL OF READING AND UNDERSTANDING OF THE TEXT

***Abstract.*** *This article covers the PIRLS International Assessment Program, the results of the study in 2016, the educational system of the Russian Federation, Singapore, Kazakhstan and Uzbekistan, and the preparation processes for the PIRLS International Assessment Program. It also talked about effective methods of preparing primary school students for the PIRLS International Assessment Program.*

***Keywords:*** *PIRLS, TIMSS, PISA, TALIS international assessment programs.*

So'nggi yillarda barcha sohalarda bo'layotgani kabi ta'lim tizimida ham bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, o'quvchilarning xalqaro baholash dasturlarida qatnashishi, xalqaro doirada bilimlarining baholanishi esa ta'lim sifatini yanada oshirish uchun qo'yilgan muhim qadamlardan biridir.

Mamlakatimizda ta'lim-tarbiya tizimini mutlaqo yangi bosqichga ko'tarish, pedagogik kadrlar tayyorlash jarayonlari sifat darajasini umume'tirof qilingan xalqaro talablar va standartlarga muvofiq tubdan yaxshilash bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Respublika xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish, xalqaro aloqalarni o'rnatish, o'quvchi - yoshlarning ilmiytadqiqot va innovatsiya faoliyatini, eng avvalo, yosh avlodning ijodiy g'oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo'llab-quvvatlash hamda rag'batlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 12 dekabrda ―"Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 997 - son qarori qabul qilindi hamda PIRLS, TIMSS, PISA, TALIS xalqaro baholash dasturlari mazmun va mohiyati, Xalqaro baholash dasturlarining standartlarida (FrameWork) qayd etilgan kompetenciyalar, o'tgan yillarda o'tkazilgan xalqaro baholash dasturlarida taqdim etilgan topshiriqlar tahlili, xalqaro baholash dasturlarini o'zida mujassamlashtirgan innovacion metodlari asosida dars

ishlanmalarini ishlab chiqish qoʻnimalarini shakllantirish (matematika oʻqitish metodikasi yoʻnalishi uchun) kabi masalalar bilan tanishtirishdan iborat.

Progress in International Reading and Literacy Study (PIRLS) — boshlangʻich 4-sinf oʻquvchilarining matnni oʻqish va tushunish darajasini baholash uchun. PIRLS – bu turli taʻlim tizimiga ega boʻlgan davlatlarda kitobxonlik sifati monitoringini tadqiq qilishdir.

Turli davlatlardagi boshlangʻich sinf oʻqivchilarining oʻqish sifati va matinni tushinish darajasini, shuningdek, har xil davlatlar taʻlim tizimidagi oʻzgarishlarni taqqoslash va namoyon qilish imkonini beruvchi tadqiqot metodaliri bulib hisoblanadi. PIRLS tadqiqotida 50 dan ortiq davlatlar ishtirok etib kelmoqda.

2016-yilgi PIRLS xalqaro 4-sinf oʻquvchilarining matnni oʻqib tushunish malakalarini baholash sinovlariga dunyoning 50 mamlakati qatnashdi. Har bir davlat boshlangʻich darajada matnni tushunishdan tortib mukammal darajada tushunish borasida turli koʻrsatkichlarni koʻrsatdi.

Oʻrtacha hisobda, Rossiya Federatsiyasi va Singapurlik 4-sinf oʻquvchilari oʻqish boʻyicha eng yuqori koʻrsatkichlarni namoyon etishdi. Shuningdek, bu ikkala mamlakatlik oʻquvchilarning toʻrtdan bir qismi matnni tushungan oʻquvchilar hikoya syujetlari va nisbatan murakkab matnlarda berilgan ma’lumotlarni izohlash, birlashtirish va baholash koʻnikmalariga ega.

Hong Kong, Irlandiya, Finlandiya, Polsha va Shimoliy Irlandiyalik oʻquvchilarning beshdan bir qismi matnni mukammal darajada tushuna olish malakasini koʻrsatishdi. Quyidagi jadvalda natijalar aniq raqamlarda aks ettirilgan:

| | |
|---|---|
| Rossiya Federatsiyasi | 581 |
| Singapur | 576 |
| Hong Kong (SAR) | 569 |
| Irlandiya | 567 |
| Finlandiya | 566 |
| Polsha | 565 |
| Shimoliy Irlandiya | 565 |

Rossiya va Singapurlik oʻquvchilar bu natijaga qanday erishishdi? Ushbu davlatlarda ta’lim tizimi qanday? PIRLS xalqaro baholash dasturiga tayyorlash qanday mezonlar asosida amalga oshirilmoqda? Quyida shu savollarga toʻxtalib o’tamiz.

Rossiya Federatsiyasi PIRLS tadqiqotlarining 2001, 2006, 2011, 2016-yilgi tadqiqot davlarining barchasida ishtirok etgan.

Ushbu davlatning PIRLS tadqiqotlarida ishtirik etishidan maqsad bir qator savollarga javob olish boʻlgan:

Rus tilidagi boshlangʻich maktab bitiruvchilari boshqa mamlakatlardagi tengdoshlari bilan solishtirganda qanchalik yaxshi oʻqiydilar?

- Oʻquvchilar rus tili oʻqish savodxonligining qaysi darajalariga ega?
- Toʻrtinchi sinf oʻquvchilari oʻqishni yaxshi koʻradilarmi?
- Oila savodxonlikni rivojlantirishga qanday hissa qoʻshadi?
- Mamlakatimizdagi maktablarda bugungi kunda oʻqishni oʻrganish jarayoni qanday tashkil etilgan?

Boshqa mamlakatlar bilan solishtirganda Rossiyada oʻqishga oʻrgatish jarayoni oʻziga xos xususiyatga egami va agar shunday boʻlsa, u qanday oʻziga xosliklar? Boshlangʻich sinf oʻqituvchilarimiz qoʻllagan oʻqitish usullari boshqa mamlakatlardagi oʻqituvchilarning oʻqitish usullaridan farqlimi?

Rossiyada PIRLS-2016 tadqiqot dasturida mamlakatning 42 mintaqasidagi 206 ta ta’lim muassasasining 4000 dan ortiq boshlangʻich sinf bitiruvchilari ishtirok etgan.

Aksariyat mamlakatlarda boshlangʻich maktabning toʻrtinchi sinf oʻquvchilari tadqiqotda qatnashadilar. Chunki, oʻqishning toʻrtinchi yili bolalarning oʻqish savodxonligini rivojlantirishning muhim bosqichi hisoblanadi. Bu vaqtda oʻquvchilar oʻqishni shunday darajada oʻzlashtirishlari kerakki, bu ularning keyingi ta’lim olishlari uchun muhim vosita boʻlib hisoblanadi.

Rossiyada ushbu tadqiqot Rossiya ta’lim akademiyasining Ta’lim strategiyasini ishlab chiqish instituti Ta’lim sifatini baholash markazi tomonidan Ta’lim vazirligining oʻtkaziladi. Tadqiqot ta’limni rivojlantirish boʻyicha Federal maqsadli dastur doirasida amalga oshiriladi.

Tabiiy resurslari kam boʻlgan Singapurda ta’limning qiymati doim yuqori mavqega ega boʻlgan. Singapur Ta’lim vazirligining vazifasi xalqni tarbiyalash orqali kelajakni shakllantirishdir.

Mazkur xalqaro tadqiqotning maqsadi turli xil taʻlim tizimidan iborat boʻlgan davlatlardagi boshlangʻich maktab oʻquvchilarining matnni oʻqish va qabul qilish boʻyicha tayyorgarligi hamda oʻquvchilarning har xil yutuqlarga erishishga sabab boʻluvchi taʻlim tizimidagi oʻziga xos xususiyatlarni aniqlash va baholashdan iborat. Albatta bunday tadqiqot xalq taʻlimi sohasidagi ishchilar, olimlar, metodistlar, oʻqituvchilar, ota-onalar va jamoat vakillari uchun katta ahamiyatga egadir.

Savodxonlik soʻzi oʻquvchilarning kelajakda oʻz rejalarini amalga oshirishda, yaʻni bilim olishni davom ettirish, mehnat faoliyatiga tayyorgarlik koʻrish, ijtimoiy hayot va mehnatda ishtirok etishda asosiy vositasi sifatida savodxonlarcha oʻqish koʻnikmasini egallashdagi muvaffaqiyatini anglatadi. Tushunchaning mohiyatini anglatuvchi belgilari anglash, tahlil qilish, fikrlash, mushohada yuritish, hayotga tatbiq etishdan iborat.

Yozma matn deganda bosma, qoʻlda yozilgan, displeyda tasvirlangan, tabiiy til ishlatilgan matnlar nazarda tutiladi. Bunday matnlar diagramma, rasmlar, karta, jadvallar, grafika koʻrinishidagi vizual tasvirlardan iborat boʻlishi mumkin. Filmlar, teletasvirlar, multiplikaciyalar, soʻzsiz rasmlarni kiritish bundan mustasno, chunki ular idrok etishning boshqacha yoʻlini talab qiladi. Vizual tasvirlar kiritilganda matnlarni yaxlit (bunday tasvirlarsiz) va yaxlit boʻlmagan (tasvirlar bilan) matnlarga boʻlish mumkin. Matnlarni mukammal darajada toifalarga ajratib boʻlmaydi.

Tadqiqot maqsadlari uchun matnlarning quyidagi umumiy xususiyatlari juda muhim deb topilgan: bayonning ravonligi va izchilligi, ularning realligi, faktlarni tahlil qilmay tavsiflanishi va toʻqimaligi, badiiyligi (badiiy publicistik va boshqa matnlar) ularning yaxlit va noyaxlit xususiyati. Bunda matnlarning barcha turlaridan jumladan, hech bir kategoriyaga mos kelmaydigan matnlardan foydalaniladi.

Oʻquvchilarning har xil turdagi matnlarni oʻqish qobiliyatidagi farqlarni aniqlash tadqiqotning maqsad vazifasiga kirmaydi. Tadqiqotdan maqsad oʻquvchilarga oʻqib tushunishi uchun hayotda koʻproq ishlatiladigan matnlarni taklif qilish bilan ular uchun umumiy va

ahamiyatli bo‘lgan natijalarni aniqlashdir. O‘qish savodxonligining barcha jihatlari bir-biri bilan o‘zaro bog‘liq. Ikkinchi jihatining muvaffaqiyatli ado etilishi birinchisining to‘g‘ri bajarilishiga bog‘liq. Matnni to‘liq tushunish o‘quvchilarni har bir jihat bo‘yicha chuqur bilimga egalik darajasini ko‘zda tutadi. Matn mazmunini nimaga qaratilganligini aniqlash va uning ma‘no butunligini tushunish uchun bosh mavzuni umumiy maqsadini yoki matndan ko‘zlangan maqsad nimaligini aniqlash lozim.

Matnning mazmuni 9-10 yoshdagi o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga mos kelishi kerak. Ayrim madaniyatlarga juda xos bo‘lgan mavzulardan chetlanmoq kerak. Matn shu yoshdagi maktab o‘quvchilari uchun qiziqarli va zavqli bo‘lishi kerak. YAxshi yozilgan va unchalik tanish bo‘lmagan bo‘lishi lozim.

Buning uchun o‘quvchining o‘ziga matnga sarlavha o‘ylab topish, matnning umumiy ma‘nosini anglatuvchi tezis tuzish, matnda ko‘rsatilgan yo‘l-yo‘riqlar tartibini tushuntirish, grafik yoki jadvallarning asosiy tarkibiy qismlari nimalardan iboratligini aniqlash, karta yoki rasmning maqsadini aniqlash kabi vazifalar beriladi.

Umuman matnni tushungan - tushunmaganini aniqlashga qaratilgan topshiriqlar o‘quvchilarga matnning bir qismi va savol ko‘rinishidagi umumiy g‘oyasi o‘rtasidagi moslikni, matn qismi va muallif tomonidan berilgan o‘ziga xos izoh o‘rtasidagi moslikni aniqlash uchun berilishi mumkin.

Matn g‘oyasining berilgan ta‘riflar orasidan umumiyrog‘i, asosiyrog‘ini tanlashni taklif qilish o‘quvchining asosiy g‘oyani ikkinchi darajasidan ajrata olish mahoratini ko‘rsatadi. Topshiriqlarni bajarish uchun o‘quvchi matnning tuzilishi, janr xususiyatlari haqidagi bilimga, matndagi istehzo, yumor so‘z ifodalangan ma‘no nozikliklarini payqashi, muallif fikrini anglashi va tasvirlanganvoqea hodisaga muallif bergan bahoni farqlay olish qobiliyatiga ega bo‘lishi kerak.

Matn uslubini anglashni ko‘rsatadigan topshiriqlar ish faoliyatining aynan tanqidiy tahlil, tasvirning muallif o‘ylagan g‘oyaga mosligi yoki matnning uslubiy sharh sifatida o‘z maqsadiga mosligini baholash va boshqa usullarini kuchaytiradi. Savodxonlik atamasi aynan o‘quvchilarning olgan bilimlarini kundalik hayotga tadbiq eta olish mahoratini ta‘kidlash uchun qo‘llaniladi.

Xulosa qilib aytganda bu tadqiqot asosan o‘quvchilarning dars vaqtidagi va maktabdan tashqari vaqtdagi ikki turdagi o‘qish savodxonligini baholash va Mamlakatimiz boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining (4 - sinf) boshqa mamlakatlardagi tengdoshlariga nisbatan matnni o‘qish va tushunish darajalarini solishtirish hisoblanadi.

## REFERENCES

4. SH.M. Mirzieyov. Erkin va Faravon. Demokratik Uzbekiston Davlatini Birgalikda Barpo Etamiz.
5. O‘quvchilarning savodxonligini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqot dasturi haqida Qo‘llanma.

# MATEMATIKA FANINI O'QITISH METODLARI

**Erdanova Surayyo Yusufovna**

Surxondaryo viloyati Denov tumanidagi 81 - maktabda matematika fani o‘qituvchisi

https://doi.org/10.5281/zenodo.7590856

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada matematika fanini o'rganadigan obyekti materiyadagi narsalarning fazoviy shakllari va ular orasidagi miqdoriy munosabatlardan iboratligi, matematikadagi izlanishning ilmiy metodlari bir vaqtning o'zida matematikani o'qitishdagi ilmiy izlanish metodlari vazifasini ham bajarishi ko’rsatilgan.*

***Kalit so'zlar:*** *figuralar, metod, taqqoslash, analiz, sintez, qism, simmetrik.*

## МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ МАТЕМАТИКЕ

***Аннотация.*** *В данной статье показано, что объектом изучения математической науки являются пространственные формы вещей в материи и количественные отношения между ними, научные методы исследования в математике одновременно выступают и в качестве методов научного исследования в преподавании математики.*

***Ключевые слова:*** *фигуры, метод, сравнение, анализ, синтез, деталь, симметричный.*

## METHODS OF TEACHING MATHEMATICS

***Abstract.*** *This article shows that the object of study of mathematics consists of spatial forms of objects in matter and quantitative relationships between them, and the scientific methods of research in mathematics also simultaneously act as methods of scientific research in teaching mathematics.*

***Keywords:*** *figures, method, comparison, analysis, synthesis, part, symmetric.*

Metod so'zi grekcha so'z bo'lib, «yo'l ko'rsatish» demakdir. «Ta'lim metodi» tushunchasi esa hozirgi zamon metodika va didaktika fanlaridagi asosiy tushunchalardan biridir, ammo bu tushuncha yaqin vaqtlarga qadar har xilmetodik adabiyotlarda turli mazmunda qo'llanib kelinar edi. XIX asrga qadar bo'lgan metodik adabiyotlarda «metod» tushunchasi matematika kursining asosiy mazmunini bayon qiluvchi mavzuning tavsifi sifatida ishlatiladi. Masalan, «Sonlarni o'rganish metodi», «Geometrik figuralarni o'rganish metodi» va hokazo.

O'rganilayotgan matematik obyektdagi narsalaming o'xshash va farqli tomonlarini aniqlovchi metod taqqoslash metodi deyiladi. Taqqoslash metodi ham ilmiy izlanish metodlaridan biridir.

Taqqoslash metodini matematika darslarida o'rganilayotgan mavzu materiallariga tatbiq qilishda quyidagi prinsi plarga amal qilinadi:

1) taqqoslanayotgan matematik tushunchalar bir jinsli bo'lishi kerak;

2) taqqoslash o'rganilayotgan matematik obyektdagi narsalaming asosiy xossalariga nisbatan bo'lishi kerak. Matematika o'qitishdagi ilmiy izIanish metodlari

Ma'lumki, matematika fanini o'rganadigan obyekti materiyadagi narsalarning fazoviy shakllari va ular orasidagi miqdoriy munosabatlardan iboratdir. Ana shu shakllar orasidagi miqdoriy munosabatlarni aniqlash jarayonida matematiklar izlanishning ilmiy metodlaridan vosita sifatida foydalanadilar. Matematikadagi izlanishning ilmiy metodlari bir vaqtning o'zida matematikani o'qitishdagi ilmiy izlanish metodlari vazifasini ham bajaradi.

O'qitishdagi ilmiy izlanish metodlari quyidagilardan iboratdir.

1. Tajriba va kuzatish.
2. Taqqoslash.
3. Analiz va sintez.
4. Umumlashtirish.
5. Abstraksiyalash.
6. Aniqlashtirish.
7. Klassifikatsiyalash.

Tajriba va kuzatish metodi Ta'rif.

Matematik obyektdagi narsalarning xossalari va ularning 0 'zaro munosabatfarini belgilovchi metod kuzatish deyiladi. Misol. o'quvchilarga bir necha figurani ko'rsatib, bu figuralar ichidan o'q simmetriyasiga ega bo'igan geometrik figuralarni ajrating deb buyursak, o'quvchilar barcha figuralarni ko'rib chiqib quyidagicha xulosaga kelishlari mumkin. Figuralar ichida o'zidan biror o'qqa nisbatan ikki qismga ajragan figuralar bo'lsa hamda ularni ana shu o'q bo'yicha buklaganda qismlar ustma-ust tushsa, bunday figuralar simmetrik figuralar bo'ladi. Ammo boshqa figuralarda o'zlarini teng ikkiga bo'luvchi to'g'ri xchiziqlar bo'lmasligi mumkm. U holda bunday figuralar nosimmetrik figuralar bo'ladi.

Biz figuralardagl bunday xossa va ular orasidagi munosabatlarni kuzatish orqali figuralarni simmetrik va nosimmetrik figuralarga ajratildi. Ta'rif. Matematik obyektdagi narsalaming xossafari va ular orasidagi miqdoriy munosabatlarni sun'iy ravishda bo'lak (qism)larga ajratish yoki ulami birlashtirish tajriba metodi deyiladi.

Analiz va sintez metodi Ta'rif.

Noma'lumlardan ma'lumlarga tomon izlash metodi analiz deyiladi. Analiz metodi orqali fikrlashda o'quvchi quyidagi savolga javob berishi kerak: «Izlanayotgan noma'lumni topish uchun nimalami bilish kerak ?»

Analiz metodini psixologlar bunday fa 'riflaydilar: «butunlardan bo'laklarg tomon izlash metodi analiz deyiladi» Matematika o‘qitishning amaliy maqsadi o‘z oldiga quyidagi vazifalarni qo‘yadi:

a) Matematika kursida olingan nazariy bilimlarni kundalik hayotda uchraydigan elementar masalalarni yechishga tadbiq qila olishga o‘rgatish. Bundan asosan o‘quvchilarda nazariy bilimlarni amaliyotga bog‘lay olish imkoniyatlarini tarkib toptirish, ularda turli sonlar va matematik ifodalar ustida amallar bajarish malakalarini shakllantirish va ularni mustahkamlash uchun maxsus tuzilgan amaliy masalalarni hal qilishga o‘rgatiladi.

b) Matematikani o‘qitishda texnik vosita va ko‘rgazmali qurollardan foydalanish malakalarini shakllantirish. Bunda o‘quvchilarning matematika darslarida texnika vositalaridan, matematik ko‘rgazmali qurollar, jadvallar va hisoblash vositalaridan foydalana olish malakalari tarkib toptiriladi.

v) O‘quvchilarni mustaqil ravishda matematik bilimlarni egallashga o‘rgatish. Bunda asosan o‘quvchilarni o‘quv darsliklaridan va ilmiy-ommaviy matematik kitoblardan mustaqil o‘qib o‘rganish malakalarini shakllantirishdan iboratdir.

Bizga ma’lumki, matematika o‘qitish metodikasi fani pedagogika fanining ma’lum bir bo‘limi bo‘lib, u matematika fanini o‘qitish qoidalarini o‘rganish bilan shug‘ullanadi. Matematika o‘qitish metodikasi matematika fanini o‘qitish qonuniyatlarini o‘rganish jarayonida pedagogika, mantiq, psixologiya, matematika, lingvistika va falsafa fanlari bilan uzviy aloqada bo‘ladi. Boshqacha aytganda, maktabda matematika o‘qitish muammolari mantiq, psixologiya,

pedagogika, matematika va falsafa fanlari bilan uzviy bog'liqda hal qilinadi. Matematika o'qitish metodikasining metodologik asosi bilish nazariyasiga asoslangandir.

Matematika metodikasi fani matematik ta'limning maqsadi, mazmuni, formasi, uslubi va uning vositalarini dars jarayoniga tadbiqiy qonuniyatlarini o'rganib keladi. Matematika fani fizika. chizmachilik, kimyo va astronomiya fanlari bilan ham uzviy aloqada bo'ladi.

Matematika fanining boshqa fanlar bilan uzviy aloqasi quyidagi ikki yo'l bilan amalga oshiriladi:

1) Matematika tizimining butunligini buzmagan holda o'qishni fanlarning dasturlarini moslashtirish.

2) Boshqa fanlarda matematika qonunlarini, formulalarini teoremalarni o'rganish bilan bog'liq bo'lgan materiallardan matematika kursida foydalanish.

Hozirgi vaqtda matematika dasturini boshqa fanlar bilan moslashtirish masalasi ancha muvaffaqqiyatli hal qilingan. Matematika darslarida boshqa fanlardan foydalanish masalasini dasturda aniq ko'rsatish qiyin, buni o'qituvchining o'zi amalga oshiradi, ya'ni o'quv materialini rejalashtirishda va darsga tayyorlanish vaqtida e'tiborga olishi kerak.

Masalan, tenglamalarni o'rganish davrida fizik miqdorlar orasidagi bog'lanishlarni aks ettiradigan tenglamalarni, ya'ni issiqlik balansi tenglamasi, issiqlikdan chiziqli kengayish tenglamasi va shunga o'xshash tenglamalarni ham yechtirishi mumkin. Har bir fanda bo'lgani kabi matematika fanida ham ta'riflanadigan va ta'riflanmaydigan tushunchalar mavjud.

**REFERENCES**

1. Galitskiy M.A. va boshqalar. Algebra va matematik analiz kursini chuqur o'rganish. – T.: O'qituvchi, 1995.
2. Iminova H. Geometrik mazmundagi masalalarni o'rgatishda axborot texnologiyalaridan foydalanish. Scientific Journal Impact Factor, 2(9). 2021, P. 109-112.
3. Alixonov S. « Matematika o'qitish metodikasi » Qayta ishlangan II nashri. T., «O'qituvchi» 1997 yil.

# ZAMONAVIY TERMINOLOGIK MUAMMOLAR

**Po'latov Bexruz Toir o'g'li**
Surxondaryo viloyati Termiz davlat universiteti
Filologiya va tillarni o'qitish fakulteti
3 - bosqich talabasi

https://doi.org/10.5281/zenodo.7590893

***Annotatsiya.*** *Mazkur maqola terminologiya tarixi, rivojlanish bosqichlari haqida ma'lumotlar keltirilgan. Qolaversa, bugungi o'zbek terminologiyasida yuzaga kelayotgan muammolar ham yoritilgan.*

***Kalit so'zlar:*** *terminologiya, fan, leksika, grammatika, axborot, sheva, mantiqshunos, turkiy til, o'zlashma, "Devonu lug'otit turk".*

# СОВРЕМЕННЫЕ ТЕРМИНОЛОГИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ

***Аннотация.*** *В данной статье представлена информация об истории терминологии, этапах ее развития. Кроме того, освещаются проблемы, возникающие в современной узбекской терминологии.*

***Ключевые слова:*** *терминология, наука, лексика, грамматика, информация, диалект, логика, тюркский язык, ассимиляция, "Devonu lugotit Turk".*

# MODERN TERMINOLOGICAL PROBLEMS

***Abstract.*** *This article contains information about the history of terminology, stages of development. In addition, the problems arising in today's Uzbek terminology are also covered.*

***Keywords:*** *terminology, science, lexicon, grammar, information, dialect, logician, Turkish language, olashma, "Devonu lexicotite Turkish".*

Keling, dastlab mazkur mavzu doirasida fikr yuritishdan oldin "terminologiya" atamasiga to'xtalsak. Terminologiya termin va logiya so'zlaridan olingan bo'lib, ma'lum bir sohaga oid maxsus leksika. Misol uchun, fizika terminologiyasi, ijtimoiy- siyosiy terminologiya, mashinasozlik terminologiyasi kabi. Terminologiya turli-tuman maktab, ilmiy yo'nalish va aniq fikrlarga xos ketegorial apparatni ifodalovchi, terminlar sistemasiga birlashgan maxsus tushunchalar yig'indisi, majmui tarzida qaraladi.

Terminologiya umumxalq tilining leksikasi negizida vujudga keladi, boyiydi. O'z navbatida umumxalq tilining boyishi uchun ham xizmat qiladi. Terminologik leksika umumxalq tili leksikasining ajralmas qismi sifatida u bilan birga rivojlanadi, jamiyat va til taraqqiyotidagi barcha jarayonlarni boshdan kechiradi. Ma'lum bir soha yoki fan yuqori darajada taraqqiy etgandagina o'sha tilda maxsus terminologiya vujudga keladi.

V.P.Danilenkoning ta'kidlashicha, terminologiya deganda umumadabiy tilning mustaqil funksional turi, ya'ni an'anaviy fan tili (fan,ilm yoki texnika tili) nazarda tutiladi. Fan tili umumadabiy tilning funksional sistemalaridan biri sifatida jonli so'zlashuv tili va badiiy adabiyot tili tushunchalari bilan bir qatorda turadi. Fan tili millatning umumadabiy tili asosida shakllanadi va rivojlanadi. Shu bois fan, ilm tili poydevorini umumadabiy tilning leksikasi, so'z yasalishi va grammatikasi tashkil qiladi.

ISSN:
2181-3906

International scientific journal
«MODERN SCIENCE AND RESEARCH»
VOLUME 1 / ISSUE 3

X.Xyuellning qayd etishiga ko‘ra, terminologiya muayyan fanga oid terminlar yoki texnika sohasida qo‘llanadigan so‘zlar yig‘indisidir. Biz terminlar ma’nosini qayd etish orqali ular ifodalaydigan tushunchalarni ham qayd etamiz.

Termin so‘zini turlicha tushunish mavjud. Chunonchi, mantiqshunos(logik)lar uchun termin-aniq obektga tegishli tavsif (yoki tavsiflar) yig‘indisini nazarda tutuvchi va unda tatbiq etiluvchi so‘z hisoblanadi. Har qanday tildagi istalgan so‘z termin bo‘lishi mumkin. Terminologiyaning rivojlanishi, boyish yo‘llari har xil: boshqa tillardan so‘z olish, yangi so‘z yasash va hkz.

Bugungi kunda o‘zbek terminologiyasining boyishi, asosan, boshqa tillardan so‘z olish va ichki so‘z yasash hisobiga ro‘y bermoqda. U yoki bu soha terminologik tizimining baqkarorligini belgilovchi asosiy omil uning tartibga solinganligi va muntazamligidir. Terminologiyaning o‘ziga xos xususiyatlari mavjud.

Masalan, umumadabiy tilda sinonimiya, omonimiya va ko’p ma’nolilik tilning boyligi bo‘lsa, terminologiyada bular salbiy hodisa hisoblanadi. Ya’ni birgina tushunchani ifodalash uchun o‘zbek tilida yarimo‘tkazgich- chalao‘tkazgich- nimo‘tkazgich terminlari qo‘llanmoqda. Bu o‘z navbatida, axborot almashish jarayonini qiyinlashtiradi. Shu sababli ham terminologiyada ma’lum darajada barqarorlashgan barcha tillarda terminlar doimiy tartibga solib turiladi. Shuningdek, terminologiya rivojida fan sohalariga oid maxsus lug‘atlarni nashr qilib turish ham muhim ahamiyatga ega.

Hozirgi o‘zbek adabiy tili qurilishida terminologiya alohida o‘rin va mavqega egaligi bilan ajralib turadi. Terminologiyaning til lug‘at tarkibidagi roli haqida ikki dunyoqarash mavjud. Birinchi g‘oyaga ko‘ra, terminologiya adabiy til leksikasining mustaqil qatlami tarzida e’tirof etilsa, ikkinchi ta’limotga muvofiq u adabiy til so‘z boyligi tarkibidan ajratiladi, “alohida turuvchi” obekt tarzida baholanadi va nutqning turlari (sheva, jargon, jonli so‘zlashuv)ga tenglashtiriladi.

Sakkizinchi asrdan e’tiboran arab tili, arab xati va islom mafkurasining Turonzaminda qaror topishi, bir qator mahalliy sulolalar (Qoraxoniylar, G‘aznaviylar, Saljuqiylar)ning birin-ketin siyosat sahnasiga chiqishi singari obyektiv jarayonlar ostida o‘zligini yo‘qotmagan eski turkiy til (XI-XIV)da terminologik leksika ko‘lamining bir qadar kengayganini kuzatish mumkin. Eski turkiy til terminologiyasi mavjud lisoniy qonun- qoidalar doirasida shakllandi va rivojlandi. Uning qadimgi turkiy til davriga nisbatan yanada taraqqiy etishida jonli so‘zlashuv tili, turfa sheva materiallari muhim ahamiyat kasb etadi.

Qadimgi turkiy tildan farqli o‘laroq eski turkiy tilda sanskrit, so‘g‘d, xitoy tiliga oid o‘zlashmalarning ishlatilish sur’ati pasaydi, aksincha, arabcha va forscha tojikcha o‘zlashmalarning qo‘llanish chastotasi va ko‘lami ancha kengaydi. Biroq eski turkiy til terminologiyasining o‘zagini asl turkiy qatlam tashkil qilishda davom edi. Alïm “qarz, kredit”, berim “to‘lov, qarzni qaytarish”, beglig “beklik”, bitigči “mirza, munshiy, kotib”, yatğaq “tungi soqchi”, yarïša “ko‘rshapalak”, yarğu “ajrim”, yarğučï “qozi, sudya”, qalïq “havo”, obuz “qattiq yer”, tirgäš “ko‘lmak suv” kabi turkcha so’zlar. Shuningdek, hozirga qadar yetib kelgan lug‘atlar ichida 1074-1075-yili atoqli lug‘atnavis Mahmud Koshg‘ariy tomonidan tuzilgan “Turkiy so‘zlar devoni”, ya’ni “Devonu lug‘otit turk” ulkan ahamiyatga egaligi bilan xarakterlanadi. Zotan, arab millati vakillari uchun juda katta hududda istiqomat qiluvchi turkiy xalqlar til xususiyatlari, chunonchi, alifbosi, tovush qurilishi, lug‘at boyligi, so‘z turkumlari va gap qurilishi haqida ma’lumot berish uchun mo‘ljallangan mazkur asarning ilmiy ahamiyati shu kunga qadar dunyo

olimlari qalamiga mansub 1800 atrofidagi ilmiy izlanishlarda e’tirof etilgan. Arab lug‘atchiligi an’analari va qoidalari asosida tuzilgan bu lug‘atdan taxminan sakkiz minga yaqin so‘zlar, birikmalar, iboralar, maqol va matallar, xalq og‘zaki ijodi namunalari joy olgan. “Devonu lug‘otit turk”, garchi, lug‘at deb nomlansa - da, biroq unda Qoraxoniylar davri eski turkiy tilning o‘ziga xos xususiyatlarijuda yuqori tahlil qilingan

Hozirgi tilshunoslikda yangi terminlarning paydo bo‘lishi, ularning hayotga tatbiq qilinishidagi to‘siqlar ko‘zga tashlanadi. Terminga muayyan talablar qo‘yiladi, ushbu jihat uni umumtil va lahja hamda shevalardagi oddiy so‘zlardan ajratib turadi.

Qadimgi turkiy tildan farqli o‘laroq eski turkiy tilda sanskrit, so‘g‘d, xitoy tiliga oid o‘zlashmalarning ishlatilish sur’ati pasaydi, aksincha, arabcha va forscha tojikcha o‘zlashmalarning qo‘llanish chastotasi va ko‘lami ancha kengaydi. Biroq eski turkiy til terminologiyasining o‘zagini asl turkiy qatlam tashkil qilishda davom edi. Alïm “qarz, kredit”, berim “to‘lov, qarzni qaytarish”, beglig “beklik”, bitigči “mirza, munshiy, kotib”, yatğaq “tungi soqchi”, yarïša “ko‘rshapalak”, yarğu “ajrim”, yarğučï “qozi, sudya”, qalïq “havo”, obuz “qattiq yer”, tirgäš “ko‘lmak suv” kabi turkcha so’zlar. Shuningdek, hozirga qadar yetib kelgan lug‘atlar ichida 1074-1075-yili atoqli lug‘atnavis Mahmud Koshg‘ariy tomonidan tuzilgan “Turkiy so‘zlar devoni”, ya’ni “Devonu lug‘otit turk” ulkan ahamiyatga egaligi bilan xarakterlanadi. Zotan, arab millati vakillari uchun juda katta hududda istiqomat qiluvchi turkiy xalqlar til xususiyatlari, chunonchi, alifbosi, tovush qurilishi, lug‘at boyligi, so‘z turkumlari va gap qurilishi haqida ma’lumot berish uchun mo‘ljallangan mazkur asarning ilmiy ahamiyati shu kunga qadar dunyo olimlari qalamiga mansub 1800 atrofidagi ilmiy izlanishlarda e’tirof etilgan. Arab lug‘atchiligi an’analari va qoidalari asosida tuzilgan bu lug‘atdan taxminan sakkiz minga yaqin so‘zlar, birikmalar, iboralar, maqol va matallar, xalq og‘zaki ijodi namunalari joy olgan. “Devonu lug‘otit turk”, garchi, lug‘at deb nomlansa- da, biroq unda Qoraxoniylar davri eski turkiy tilning o‘ziga xos xususiyatlarijuda yuqori tahlil qilingan.

Hozirgi o‘zbek terminologiyasi tizimida chet tillarga xos elementlarning miqdori nisbatan ko’p bo’lib, asosan o’zlashma so’zlar tashkil etadi. Lekin asosiy muammolardan biri shuki, chet tilidagi terminlar o’zbek tiliga yetarlicha to’g’ri tarjima qilinmayapti. Bunga esa asosan lug’atlarda ko’p duch kelamiz. Ya’ni bitta terminning bir nechta tarjimalari bo’ladi. Axborot texnologiyalari rivojlangani sari, ko’plab sohalar ham taraqqiy etmoqda. Buning natijasida esa terminologiyaga ahamiyat qaratilmayapti. Yuqoridagi holatlar esa kitobxonlarni faqatgina chalg’itishi mumkin. Shunday ekan, terminologiya sohasi dolzarb yo’nalishlardan biri bo’lib qoladi va soha mutaxassislaridan puxta bilim, ko’nikma talab etiladi.

**REFERENCES**

1. Дадабоев Ҳ. “Девону луғотит турк”нинг тил хусусиятлари.- Тошкент, 2017.gan (Dadaboyev, 2017)
2. Лотте Д.С. Краткие формы научно-технических терминов.- М.: Наука, 1971.
3. Тихонов А.Н., Ким Л.Л., Тихонов С.А. Современный руский язык. Лексикология. –Ташкент: Ўқитувчи, 1991.
4. История лексики русского литературного языка конца XVII- начала XIX века. –М.: Наука,1981
5. https://library.uz
6. https://uz.wikipedia.org

# ULUG'BEK HAMDAM IJODIDA RAMZIY OBRAZLAR (BIR PIYOLA SUV) HIKOYASI MISOLIDA

**Go'zal Himmatova**
Ilmiy rahbar
**Qoramirzayeva Kamola Karim qizi**
Termiz davlat universiteti O'zbek filologiyasi fakulteti
2 - bosqich talabasi

***https://doi.org/10.5281/zenodo.7590952***

***Annotatsiya.*** *Ulug'bek Hamdamning ramziy hikoyalarini tahlil qilish.*

***Kalit so'zlar:*** *Ramz, rebus,o'zlikni anglash, inson ruhiyati, vaqt va komillik.*

# СИМВОЛИЧЕСКИЕ ОБРАЗЫ В ТВОРЧЕСТВЕ УЛУГБЕКА ХАМДАМА (ЧАША С ВОДОЙ) НА ПРИМЕРЕ РАССКАЗА

***Аннотация.*** *Анализ символических историй Улугбека хамдама.*

***Ключевые слова:*** *символ, ребус, самосознание, человеческая психика, время и совершенство.*

# ON THE EXAMPLE OF THE STORY OF SYMBOLIC IMAGES (A BOWL OF WATER) IN THE WORK OF ULUGBEK HAMDAM

***Abstract.*** *Analysis of the symbolic stories of Ulugbek Hamdam.*

***Keywords:*** *symbol, rebus, self-awareness, human psyche, time and perfection.*

Mustaqillik davri o'zbek adabiyotini bir qancha nasriy asarlari bilan boyitishga hissa qo'shgan iste'dodli yozuvchi Ulugbek Hamdam hikoya janrida ham barakali ijod qilib kelmoqda. Adib badiiy izlanishlari hosilasi sifatida dunyoga kelgan ramziy -majoziy talqin yetakchilik qilgan hikoyalarida mantiqiy boglam mavjud.

Ulugbek Hamdam hikoyalarini o'qir ekansiz uning ijodidagi bir jihat alohida e'tiborni tortadi. Bu hikoyalarni shunchaki oqish mumkin emas, chunki har bitta jumla-rebus, ortida bir dunyo fikr yotadi. Ularni tushunib yetish uchun har bir jumlaning kalitini topishga, magzini chaqishga to'gri keladi. Aks holda qoniqish hissini tuymaysiz.

Hikoyalarni tushunish yolida kitobxondan nafaqat keng dunyoqarash, tafakkur, balki g'ayri oddiy qarashga ham ega bo'lishi talab etiladi. Yozuvchining Bir piyola suv, Konglimdagi daryo, Unutilgan nay navosi hikoyalarida koproq erkinlik, ozodlik tuyg'usini va poklik ramzini aks ettiruvchisuv obrazini kop uchratamiz.

Bir piyola suv hikoyasida ham tiriklik ramzi bo'lgan suv orqali insoniyat umri, mazmuni ochib beriladi. Hikoyada bir insonga vazifa yuklatilgan — u, lekin nega aynan unga topshirilganini bilmaydi. Menga vazifa yuklatilgan edi. Biroq nima uchun aynan menga?- bilmayman. Kim va qanday vaziyatda topshiriq berdi? - buni ham negadir eslay olmayman.

Bu hikoyada vazifa topshirilgan yolovchi ramziy obraz-bu dunyoga kelgan inson timsoli.Bu dunyoga kelgan insonga qandaydir vazifa topshiriladi, umri davomida nimanidir ado etishi kerak boladi. Yozuvchi ana shuni nazarda tutmoqda. Yodimda qolgani nimadir orttirilgan, ikkita ot qoshilgan aravani shom tushgunga qadar manzilga eltishim zarur. Nega endi shomga qadar? Yozuvchi bu dunyoga kelgan insonning vazifasini umrining oxirgi damlarigacha bajarishini nazarda tutmoqda.

Shom - umrning nihoyasi.

Hikoyadagi ikki ot-kun va tun ramzi. Ular tinim bilmay yugurishadi. Ikki ot bir maromda yortib bormoqda. Ahyon-ahyonda jilovini qimirlatib qoyaman, shuning o'zi farosatli hayvonlarga kifoya-immilash yoq. Namuncha esli bolmasa bular?-deyman o'zimga o'zim. Xuddi vazifadan boxabardek! Tavba…

Karvonsaroy-dunyo ramzi. Boshida ko'p-da umidlanmadim, zero sarobdan yurak o'ldirib qo'ygandimda. Biroq yovuqlashsam hamki, sardobaning qorasi ochavermadi. Qaytaga tobora tiniq tortib,koz ongimda butun mahobati bilan yuksalib, qad ko'tardi. U yo'l chetidagi kattakon karvonsaroy bolib chiqdi. Quvonganimdan otlarni qanday toxtatib, aravadan qanday tushganimni-yu, ko'z ochib yumguncha tabaqalari lang ochiq darvoza qarshisida paydo bo'lganimni bilmayman.

Hikoyadagi karvonsaroy-dunyo ramzi bo'lsa, sarvqomat qiz-dunyoning o'tkinchi go'zalligi va nafs ramzi. Yo'lovchini o'ziga maftun etadi. Bu dunyoga kelgan insonlarning foniy dunyoga va nafsga aldanishini yozuvchi go'zal qiz obrazi orqali ochib bergan.

Bo'sag'ada meni sarvqomat, ko'zlari ohunikini eslatadigan jonon qiz qirmizi dudoqlarida nim tabassum ila kutib oldi. U qahramonni o'ziga chorlayveradi, natijada qahramon o'z zimmasidagi vazifani unutib qo'yadi. Sarvqomat qiz unga bir piyola suv beradi va uning chanqog'i bosiladi. Bu yerda ham ramziylik bor. Yolovchining zimmasiga yuklatilgan vazifa esidan chiqib, o'z nafsiga qurbon bolishi, nafsini qondirish uchun bir piyola suv ichishi va qonmasligi, yillar davomida karvonsaroyda qolib ketishi-insonning o'z nafsiga qurbon bolishini ramziy ma'noda tasvirlab bergan.

Hikoyada karvonsaroydagi suv uchun haq tolovchilar-o'z nafsiga qurbon bo'lib, afsuslanganlar timsoli. Ular nafsi uchun, haq to'lash uchun navbat kutayotgan insonlar obrazi. Kozim etakdagi, umumiy manzaradan panaroqdagi odamlarga tushdi: ular saf tortib turishardi. Ammo yuzlarida negadir shodlik alomatlarini kormadim. Tavba-a-a, dedim tong qolib. Chunki tunda qiyofalar bu yerdagi salobatga, dabdabaga, yeb-ichib, kayf-safo qilib o'tirgan kishilarning yalpi ko'tarinki kayfiyatiga uyg'un kelmasdi-da! Yozuvchi karvonsar o'yga kirgan odamlar o'z nafsiga aldanganlar avvaliga shod-xurram bo'lishini, keyin haqqini to'laydigan vaqt kelganda esa xomush bo'lishini tasvirlaydi.

Hikoya qahramoni bir piyola suv uchun yo'qotgan vaqtiga afsuslana boshlaydi, navbatga turib afsuslanadi. Navbatga turishga turdimu, ichimga g'ulg'ula tushdi: nahotki, bir piyola suv haqqini to'layman deb shuncha odamni poylasam,oltindek vaqtimni ko'klarga sovursam?

Karvonsaroyga kirgan insonlar-bu dunyoga kelgan insonlar timsoli. Ular yoshligida baxtiyor bolishadi. Hayoti songida esa nimadandir afsuslanishadi. Karvonsaroydan ketmoqchi bolganlar, ketish uchun navbat kutayotganlar umri poyoniga yetayotganlar timsoli. Hayhot - bu yerga kirayotganda hammaning ko'zlarida umid va quvonch charaqlardi-yu, chiqayotganda esa o'kinch va malol yolqinlardi.

Yo'lovchibir piyola suv haqqini to'lab bolib, karvonsaroydan chiqqanda ancha yoshi o'tib qarib qoladi. Odim o'tarkanman, negadir vujudimda lohaslik, charchoq sezardim. Qadamlarim ham negadir bu yerga ilk kirganimdagidek emas, allaqanday og'ir va kuchsiz…lekin nega? Yo shunchalar uzoq vaqt qolib ketdimmi bu yerda.

Yo'lovchi karvonsaroyga kirayotganda yosh, navqiron edi. Uni go'zal sarvqomat qiz o'ziga chorlagandi, endi esa kuchsiz va darmonsiz bolib, suv haqqini to'lab karvonsaroydan chiqdi. Bu yerda ham ramziylik bor. Insonlarning yillar davomida o'z nafsiga qurbon bolishi va keyinchalik afsuslanishi tasvirlangan. Yolovchi karvonsaroydan chiqib ortiga nazar soladi va hayratda

qoladi. Angrayib, ogzim ochilgancha atrofga komak ilinjida boqdim va…va kozlarim yana osha eshikbon qizga tushdi!

Tushdiyu lolu-hayronligim ming chandon ortdi:qiz hali ham gozal va sarvqomat, qirmizi lablaridagi nimtabassum bilan tashnalarni ichkariga tinmay chorlar, tashrifchilarning bolsa keti uzilmasdi…Darvoqe, nazarimda bironta arava ham karvonsaroyni chetlab otib ketmayotgandek, aksincha, bari-barchasi toxtab, ulardan sakrab tushayotgan aravakashlar olaman sattor deyarchasiga ozlarini yosh qiz korsatayotgan osha chashmaga,uning bir piyolagina suviga urayotgandek edi...

Yozuvchi nafsiga aldanib qolganlar va qolayotganlarni tasvirlaydi. Ularbir piyola suvuchun karvonsaroyda yillab qolib ketishini, haq suv.

Nega aynan suv? Suv — tiriklik, poklik ramzi. Lekin hikoyada suv-ozlikni toppish ramzi. U karvonsaroydabir payola suvni ichdi, navbat kutib qiynaldi va hammasini tushunib yetib afsuslandi. Karvonsaroydan chiqib ozining aravasini va yuklarini tortdi. Aravadagi yuk nima ekanligini yolovchi bilmas edi. Aravadan suv tomayotganini sezadi va aravaning ustiga yopilgan matoni ochganda arava tola kozalar va bu kozalar suvga tola boladi. Hassaga tayana -tayana, bir-bir bosib aravaga yaqinlashib, hasrat-la unga suyandim. Shunda omganim, yonboshim jiqqa hol bolganini sezib, tislandimda kozlarimni yirib aravaga qaradim: undan suv sizar va tuproq betida namlik hosil qilgan edi.

Ajablandim, bor madorimni toplab arava ustiga yopilgan matoni qaltiroq,ramaqijon qollarim bilan tirmalab ochdim…ne koz bilan korayki aravaning ichida suv tola kozalar qator tizilishib turar, tolash uchun navbat kutib afsuslanishini tasvirlaydi.

Bu ham ramziy. Insonlar bazida nafsi uchun yillab tovon tolashadi. Yozuvchi shuni nazarda tutmoqda. Bir payola ulardan bittasi yiqilib singan-u, suvi quyiga-asriy tashna qumliklarga chak-chak tomardi…

Aravadagi suv tola kozalar-qahramonning ozlik ramzi,chunki uning nafsiga yengilib dunyo hoyu-havasiga aldanishi ozlik, hayot ramzi suv tola kozaning yiqilib ichidagi suvning tokilishiga sabab boladi. Ulugbek Hamdam hikoyada ozlikni anglash, bu dunyoning otkinchi ekanligi, har narsa insonning ozida mujassam ekanligini yoritib bergan.

Yozuvchiga tashqarining shakl-u shamoyiliemas, botiniy gozallikning shaffofligini qalban tushunib yetish sharaf hisoblanadi. Zero, insoniyat ozligini anglasagina nafsini yenga oladi. Ozligini anglab yetgan inson esa komil inson hisoblanadi.Ushbu hikoya komillikka chorlaydigan haqiqiy mashaldir.

## REFERENCES

1. Sharq yulduzi.
2. Bir piyola suv «hikoyasi.
3. Tafakkur.net.sayti.

# TA'LIM TIZIMIDA XORIJIY TILLARNI O'QITISHNING O'ZIGA XOSLIGI

**Umarova Gulrux Saloxiddinovna**
Namangan viloyati To'raqo'rg'on tumani 43 - maktab
Ingliz tili o'qituvchisi

***https://doi.org/10.5281/zenodo.7590986***

***Annotatsiya.*** *Hozirgi kunda til o'rganish kundalik hayotimizda biror-bir yangi bilimni o'zlashtirayotganida, albatta, ularni yodida saqlab qolish uchun turli xil yo'llardan foydalanadi: masalan, diqqat bilan o'qishga harakat qiladi, vaqti-vaqti bilan takrorlab turishga urinadi, uni boshqalar bilan muhokama qiladi, kerakli joylarini yon daftariga yozib qo'yadi. Albatta bu uslublarning'hammasi ham izchil va tartibli amalga oshirilganda o'zining ijobiy samarasini beradi. Biroq, muammo shundaki, til o'rganuvchilar bu uslublarning'aslida ma'lum bir til o'rganish strategiyasi qisqacha yoritilgan.*

***Kalit so'zlar:*** *interfaol usul, mazmunga asoslangan ta'lim, o'qituvchiga yo'naltirilgan, o'quvchigayo'naltirilgan, tasvirlash, rag'batlantirish.*

# СПЕЦИФИКА ПРЕПОДАВАНИЯ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ В СИСТЕМЕ ОБРАЗОВАНИЯ

***Аннотация.*** *В настоящее время, когда изучение языка осваивает какие-то новые знания в нашей повседневной жизни, оно, безусловно, использует различные способы их запоминания: например, старается внимательно читать, время от времени пытается повторять, обсуждает это с другими, записывает в боковой блокнот нужные места. Конечно, все эти стили дают положительный эффект, когда они выполняются последовательно и упорядоченно. Проблема, однако, в том, что изучающие язык говорят, что стили на самом деле кратко описывают конкретную стратегию изучения языка.*

***Ключевые слова:*** *интерактивный метод, контент-ориентированное обучение, ориентированное на учителя, ориентированное на ученика, описание, поощрение.*

# SPECIFICITY OF TEACHING FOREIGN LANGUAGES IN THE EDUCATIONAL SYSTEM

***Abstract.*** *Nowadays, when learning a language is mastering some new knowledge in our daily lives, it certainly uses different ways to keep them in mind: for example, tries to read carefully, tries to repeat it from time to time, discusses it with others, writes down the necessary places in its side book. Of course, all of these styles also have their positive effect when done consistently and in an orderly manner. However, the problem is that language learners in these styles ' strategies for learning a particular language are briefly covered.*

***Keywords:*** *interactive method, content-based learning, teacher-oriented, reader-oriented, describing, stimulating.*

Xabarimiz borki, shu yili prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev raisligida chet tillarini o'qitish tizimini takomillashtirishga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishida 2021-yildan chet tili o'qituvchilariga milliy va xalqaro sertifikatga ega bo'lish talabi kiritilishi xaqida takidlangandi. Bu esa biz chet tili oqituvchilarining yelkasiga ulkan masuliyatni yuklaydi.

Endi an'anaviy dars metodlari orniga yangi AKTdan foydalangan holda interfaol usullar asosida dars jarayonini tashkil qilishimiz lozim. Bu talim davr talabi ham bolib, oqituvchini oz ustida yana ham koprok ishlashga togri keladi. Maqolada ham dars otishning yangi usullariga etibor qilar ekanmiz avvalo, bu usullarning turi va samarasiga etibor qaratish lozim Shuni

ISSN:
2181-3906

International scientific journal
«MODERN SCIENCE AND RESEARCH»
VOLUME 1 / ISSUE 3

alohida takidlash kerakki, respublikamizda chet tilining o'qitilishi, chet tili o'qituvchilarining bilim va ko'nikmalarini baholashning umumevropa ramkalari tavsiyanomalari (CEFR) ga mos ravishda yangi usul va talablari ishlab chiqildi. Unga ko'ra umumta'lim maktablari va kasb-hunar kollejlari o'quvchilari uchun darsliklar yaratilmoqda.

Ushbu talablarga mos ravishda o'quv xonalar i stendlar va yangi axborot kommunikativ texnikalar bilan jihozlandi. Chet tili o'rganishga bo'lgan talab ham kundan kunga oshdi. Chet tili fani to'rt aspectga (o'qish, yoish, tinglab tushunish va gapirish) bo'linib, ularning har biri bo'yicha alohida tushuncha va ko'nikmalar berildi.

Ma'lumki, ta'lim jarayoni ikki yirik tarkibiy qismdan, ya'ni o'rgatish va o'rganish jarayonlaridan iborat bo'lib, bunda o'qituvchi- pedagoglarning'roli ahamiyatlidir. Sababi, aynan ularning'o'zlari o'quvchi- talabalarning'sifatli bilim olishlari, o'tilayotgan fanlarni yaxshi o'zlashtirishlari, hamda yuzaga keladigan qiyinchiliklarni bartaraf etishda ularga to'g'ri yo'l-yo'riqlar ko'rsatish uchun mas'uldirlar.

Ushbu o'rinda, tinglovchilarning'til o'rganish jarayonida bir qator strategiyalar mavjudligidan bexabar ekanliklari yoki ulardan to'g'ri foydalana olmasliklari ham asosiy sabablardan biri hisoblanadi. "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili" davlat dasturiga muvofiq, xorijiy tillarni o'rgatishni ta'lim siyosatining'ustuvor yo'nalishi sifatida rivojlantirish, ushbu yo'nalishda ta'lim sifatini tubdan oshirish, sohaga malakali pedagoglarni jalb etish hamda aholining'xorijiy tillarni o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshirish maqsadida, so'nggi paytlarda xorijiy tillarni o'qib-o'rganish orqali zamonaviy ilm-fan yutuqlaridan bahramand bo'lish mamlakatning taraqqiy etishi va gullab-yashnashida muhim o'rin tutuvchi intellectual salohiyatning ko'tarilishiga zamin yaratmoqda. Til o'rganish sohasida yangi pedagogik texnologiyalarining joriy etilishi, noan'anaviy dars uslublarining qo'llanilishi va zamonaviy ilmiy adabiyotlarning yaratilishiga qaramay hali ham ko'pchilik ikkinchi til o'rganuvchilarda til o'rganish bilan bog'liq qiyinchiliklar majudligi ko'zga tashlanmoqda. Bunga bir necha sabablar keltirish mumkin.

Dunyoda halqlar ko'p, har bir xalqning o'zining tili, madaniyati, urf-odati bilan boshqa xalqlardan ajralib turadi. Zero, xalq o'zligini namoyon qilishda tilning'o'rni kattadir. Xorijiy tillarni o'rganishga sabab ham shundadir, chunki nemis, ingliz, fransuz tillari dunyo tillari ichida o'z o'rniga egadir. Buyuk tilshunos tadqiqotchi R.Oksfordning ta'kidlashicha: "Eng'muvaffaqiyatli til o'rganuvchilar odatda o'zlarining bilim darajalariga, ehtiyojlariga, maqsadlariga hamda o'zlarida mavjud bo'lgan manbaalar va vazifalarga mos keluvchi strategiyani tanlay oladilar va ulardan samarali foydalanadilar". Ya'ni, bu o'rinda o'z-o'zini taftish qilish ham muhim ahamiyat kasb etishi ta'kidlab o'tgan.

Ba'zida, til o'rganuvchi kundalik hayotimizda biror-bir yangi bilimni o'zlashtirayotganida, albatta, ularni yodida saqlab qolish uchun turli xil yo'llardan foydalanadi: masalan, diqqat bilan o'qishga harakat qiladi, vaqti-vaqti bilan takrorlab turishga urinadi, uni boshqalar bilan muhokama qiladi, kerakli joylarini yon daftariga yozib qo'yadi.

Albatta bu uslublarning'hammasi ham izchil va tartibli amalga oshirilganda o'zining'ijobiy samarasini beradi. Biroq, muammo shundaki, til o'rganuvchilar bu uslublarning aslida ma'lum bir til o'rganish strategiyasining'tarkibiy qismi ekanligini anglamasdan bajaradilar. Natijada, yuqoridagi uslub- vositalarning'samaradorlik darajasi past bo'lishi tabiiy holdir. Ilg'or metodlar chet tilini puxta o'zlashtirishda kompos vazifasini o'taydi. Shunday metodlardan biri bu dars jarayonida rolli o'yinlardan foydalanishdir. Rolli o'yinlar bu real hayotimizdagi turli

situasiyalarni chet tili o'rganish jarayonida qo'llashdir.Bu metod dars jarayonida til muhitini yaratishga yordam beradi. Masalan: 1-holatda tasodifan eski dugonalar uchrashib qolishadi. 2-holat Yo'ldan o'tayotib yo'l qoidasiga rioya qilmagan bolani ya'ni o'tish bo'lmagan yo'lni kesib o'tadi. 3- holat.Magazinda oziq ovqat olish uchun xaridor kiradi. 4 Ushbu situasiyalar bo'yicha sahna ko'rinishlari ijro etiladi.

Bunday hayotiy rolli o'yinlar dars jarayonida til muhitini yaratadi, talabalarga o'z fikrlarini erkin ifoda etish imkoniyatini beradi. Rolli o'yinlarda ishtirok etish jarayonida talabalar fikrlashga o'rganadilar, o'z emosional holatlarini chet tilida erkin ifodalay olishga o'rganadilar. Rolli o'yinlarga tayorgarlik jarayonida bir-birining leksik, grammatik va talaffuzdagi xatolarini to'g'irlaydilar. Xato qilib va shu xatoni to'g'irlash ham tilni o'rganishga yordam beradi va talabalarni to'g'ri talaffuzga o'rgatadi. Dars jarayonida rolli oyinlardan foydalanish bir vaqtning ozida barcha talabalarni darsda aktiv ishtirok etishlarini ta'minlaydi. Bundan tashqari rolli oyinlar talabalarning chet tilini organishga qiziqishini oshiradi va dars jarayoniga jonli,quvnoq muhitni yaratadi. Bu esa chet tili darslarining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Keyingi metod bu «Keys-stadi» bo' lib inglizcha, («case» — aniq vaziyat, hodisa, «study» — o'rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlami o'rganish, tahlil qilish asosida o'qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi.

Eng qiziqarli metodlardan biri - «Pantomimo» o'yinida 3 guruhga ajratiladi. Har bir guruhdan bittadan kishi doskaga chiqariladi. Ularga turli so'zlar ro'yxat asosida beriladi. Ular biror bir so'z aytmasdan imo-ishoralar, harakatlar orqali so'zlarni qolgan guruh a'zolariga tushuntirishlari kerak. "Muammoli vaziyat yechimi”

(Creative Problem Solving) bu usulni qo'llash uchun hikoyaning boshlanishi o'qib beriladi qanday yakun topishi o'quvchilar, talabalar hukmiga havola qilinadi;

- "Quvnoq topishmoqlar" (Merry Riddles) o'quvchilarga topishmoqlar o'rgatish Ingliz tilini o'rgatishda muhim ahamiyatga ega, ular o'zlariga notanish bo'lgan so'zlarni o'rganadilar va o'ylab topishmoq javobini topadilar;
- "Tezkor javob" (Quick answers) o'tilgan dars samaradorligini oshirishda yordam beradi;
- "Chigil yozdi" ("Warm-up exercises") o'quvchilarni darsga qiziqtirish uchun sinfda har xil o'yinlardan foydalanish;
- "Pantomima" (pantomime) bu usul juda qiyin mavzular tushuntirilishi kerak bo'lgan darsda yoki yozma mashqlar bajarilib, talabalar charchagan paytda foydalanilsa bo'ladi;
- "Hikoya zanjiri" (a chain story) usuli o'quvchilarning og'zaki nutqini o'stirishda yordam beradi;
- "Rolli o'yinlar" (Acting characters) bu usul darsning barcha tiplarida qo'llanilishi mumkin. Hunarga o'rgatish uchun "Interpretter", "Translator", "Writer", "Poet" kabi kasbdagi kishilar darsda ishtirok etishib o'quvchilar bilan suhbatlashishlari mumkin;
- "Allomalar yig'ini" (Thinkers meeting) U.Shekspir, A.Navoiy, R.Burns kabi shoirlar va yozuvchilarni "taklif qilish" mumkin. Bunday paytda ular aytib ketgan hikmatli so'zlardan darsda foydalanish yoshlarni komil inson bo'lib tarbiyalanishiga yordam beradi;
- xorijiy til o'rganuvchilari o'zlarining o'rganish qobiliyatlarini to'liq namoyon qila olishlari uchun munosib sharoitni tanlay oladilar. Bu yo'lda ular ko'rib yaxshi o'rganadilarmi, eshitib yaxshi o'rganadilarmi, amalda bajarib yaxshi o'rganadilarmi, shu kabi shaxsiy harakteristik jihatlari aniqlanib olinadi va shunga yarasha ish tutiladi;

- til o'rganish jarayonida asosiy ishtirokchi aynan o'zlari ekanligini anglay oladilar. Ya'ni, ular "buni faqatgina o'zim bajara olaman" tamoyilida ish tutib, o'zlarining'"men" kontseptsiyasini ishlab chiqadilar va har gal qunt bilan harakat qiladilar. Ular tilni ham qonun-qoidalar tizimi, ham asosiy aloqa vositasi sifatida ko'ra oladilar. Bunda ular o'zlari qonun-qoidalar tizimi sifatida o'rgangan grammatik va leksik boyliklarini jonli suhbatlarda va muloqotlarda keng'qo'llaydilar;

- bundan tashqari xorijiy til o'rganuvchilari til haqidagi tushunchalarini muntazam kengaytirib boradilar va takrorlashni aslo kanda qilmaydilar. Ya'ni, shu paytgacha egallagan bilimlari bilan cheklanib qolmaydilar, hamda shu sohada sodir bo'layotgan o'zgarishlar va yangiliklardan doimo boxabar bo'lib turadilar; - eng'muhimi, ular o'sha tilda firklashni o'rganadilar. Samarali xorijiy til o'rganuvchilarining'o'ziga xos jihati shundaki, ular qaysi tilda fikrlay olsalar, shu tilda suhbat qilishning'o'zlari uchun hech qanday qiyinchiligi yo'qligini yaxshi tushunadilar;

- ular til o'rganish jarayonining'ta'sirchan tomonlariga murojaat etadilar. Bu yo'lda ular majburan yodlash, maqtov uchun o'qib-o'rganish, dakki eshitmaslik uchun topshiriqlarni xo'jako'rsinga bajarish kabi unumsiz uslublardan voz kechib, "Nima uchun bu tilni o'rganyapman?", "Axir, bu soha mening'kelajagim emasmi?!" degan savollarni doimo ko'ndalang'qo'yadilar.

Yuqorida aytib o'tilganidek, til o'rganishda o'qituvchi-pedagoglarning'ishtiroki katta ahamiyatga egadir. Sababi, ular o'quvchilarning'qanday xislatlarga ega ekanliklarini aniqlashda, ularning'salohiyatini baholashda katta amaliy yordam beradilar va yo'l-yo'riqlar ko'rsatadilar.

Biroq shuni alohida ta'kidlash kerakki, kim til o'rganishga qaror qilgan ekan, u o'zi uchun munosib bo'lgan strategiyani faqatgina o'zi yarata oladi, chunki o'zining'zaif tomonlarini hammadan ham o'zi yaxshiroq biladi. Bu vaziyatda o'qituvchi- pedagoglarning eng katta xizmati o'quvchilarda ana shunday shaxsiy kamchiliklarini aniqlashda ko'maklashishdan iboratdir. Albatta, yuqoridagi qayd etilgan strategiya va uslublar hozirgi kunda mavjud va qo'llanilayotgan usullardan biridir, xolos.

Shuning' uchun shaxsiy til o'rganish uslubini ishlab chiqish, tartibga solish va, eng'muhimi, ularni muntazam rivojlantirib borish har bir til o'rganmoqchi bo'lganlar uchun muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Bugungi kun - globallashuv davridir. Bu davr insoniyatning'zamon bilan hamnafas odimlashini talab etadi. Shu boisdan, turli soha mutaxassislari o'z ona tilini mukammal bilish bilan bir qatorda, xorijiy tillarni bilishi va muloqot qila olishi maqsadga muvofiq. Chet tilini o'rganish hammamizning, ya'ni boshqa sohada faoliyat yuritayotgan kishilarning ham bosh maqsadi bo'lib qoldi.

**REFERENCES**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining' 19.05.2021 yildagi PQ-5117-son qarori.
2. "Ta'lim va texnologiya" ilmiy-uslubiy maqolalar to'plami, 3-qism (2018-yil, yanvarb).Termiz shahri.

ISSN:
2181-3906

International scientific journal
«MODERN SCIENCE AND RESEARCH»
VOLUME 1 / ISSUE 3

# THE USE OF INNOVATIONS IN THE TEACHING PROCESS AND ITS TYPES

**Yulchiyeva Maftuna**
Jizzax viloyati yuridik texnikumi "Xususiy - huquqiy fanlar" kafedrasi
o'qituvchisi

***https://doi.org/10.5281/zenodo.7591014***

***Abstract.*** *In this article, the use of different innovations in the process of teaching as well as its types are given. The question of how innovation can help you become better at teaching is specifically addressed. At the end of the article conclusion are given.*

***Key words:*** *innovatsion, strategies, flipped classroom, experience.*

# ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИННОВАЦИЙ В УЧЕБНОМ ПРОЦЕССЕ И ЕГО ВИДЫ

***Аннотация.*** *В этой статье приводится использование различных инноваций в процессе обучения, а также их виды. Конкретно рассматривается вопрос о том, как инновации могут помочь вам стать лучше в преподавании. В конце статьи даются заключения.*

***Ключевые слова:*** *инновации, стратегии, перевернутый класс, опыт.*

Innovative teaching strategies don’t always mean introducing the latest and greatest technology into the classroom. Instead, innovative teaching is the process of proactively introducing new teaching strategies and methods into the classroom. The purpose of introducing these new teaching strategies and methods is to improve academic outcomes and address real problems to promote equitable learning.

In many ways, applying innovative teaching strategies to the classroom is a tacit understanding that our teaching methods can be improved. It accepts the need to grow and develop, which is exactly what we ask of our students. What better way to lead than by example?

In this post, we talk about popular innovative teaching strategies that help drive better student outcomes. These strategies often focus on student engagement. After all, students that are actively engaged in their learning are less likely to be absent from the class and more likely to succeed academically.  It is important to take a student-centric approach to our methods. As a student, do we gain more from class by sitting passively in our seats for a 45-minute lecture? Or, are we more likely to learn by actively participating in the class by asking questions, collaborating on projects, and problem-solving? Let’s look at ten innovative teaching strategies that teachers use in their classrooms to improve student engagement and academic outcomes.

Review the following innovative teaching strategies and consider how you can use them in your classroom to improve student engagement. The drive to innovate in the classroom should always consider how such innovations can improve student outcomes. The goal of teaching is to promote learning. The strategies we deploy are to promote learning. Trying out different strategies in the classroom is an iterative process to help us promote learning more effectively and successfully. Here some innovative teaching strategies that you can use them in your teaching process:

**Flip the Classroom**

In a flipped classroom, students review lecture material at home and work on projects and assignments in the classroom. Students in the flipped classroom complete coursework typically sent home as homework in class. The flipped classroom provides a great space for peer-to-peer

collaboration. Students can engage one another to complete group projects, debates, and practice. Teachers are not the center of the flipped classroom. Instead, teachers are more flexible, addressing personalized help and direction for students and student groups as they complete their work.

**Personalized Learning**

Personalized learning adapts what, when, and how we are teaching each student. Instead of selecting a singular method or strategy to teach the whole class, teachers adapt to the strengths of each student to help them succeed. The personalized learning experience is like how we experience different online tools where algorithms tailor our online experiences to meet our interests. When you go to one site, you may see certain content float to the top where I will see something different based on my viewing history or searches. Personalized learning provides a catered learning experience and methods that are optimized for individual students. Though these individualized learning journeys are different for each student, the end goal is subject mastery or meeting standards for their grade level. So, we can think of these as different paths leading to the same place.

**Project-Based Learning (PBL)**

Project-based learning is an effective method that helps students drive their own learning journey. In a PBL exercise, students identify a real-world problem then develop a solution. Project-based learning relies on developing key skill sets such as research, critical thinking, problem-solving, and collaboration. Project-based learning is an active method of learning where students gain mastery through the application of their knowledge rather than rote memorization. Like the flipped classroom, the teacher's role becomes that of a guide and the students take ownership of their learning.

**Inquiry-Based Learning**

Inquiry-based learning develops thinking and problem-solving skills. Instead of driving the class through a lecture-style format, the teacher poses questions, scenarios, and problems. Students then research these topics individually or in groups to formulate their answers. They can then present their findings and supporting evidence to the class along with the other students. Students are then able to further develop their answers by listening to what other students have found as well as identifying areas that require more attention and detail.

**Blended Learning**

Blended learning combines physical and online learning experiences that give students more control over the time, place, path, and pace of instruction. Check out our previous post on blended learning to learn all you need to know. What's exciting about blended learning is that it provides traditional classroom experiences as well as online tools and learning opportunities. It's not an all-or-nothing method. Still, technology is a key component of blended learning as it is for students in the real world. The flexibility of blended learning enables students to have more control over their learning methods – perhaps they'll watch online lectures at home and engage in peer groups for collaborative activities or maybe they'll prefer to join lecture-based virtual classes and do their homework independently.

**Feedback**

Feedback is incredibly important. Students need to learn how to offer constructive feedback as well as accept feedback. Provide students with a mechanism for providing feedback. In a virtual classroom, feedback tools like polling or emojis are a great way for quick feedback

cycles. You can even challenge or ask students to expand upon their feedback then ask other students with opposing opinions to discuss why they think differently.

**Active Learning**

Many of the innovative learning strategies we discussed are active learning strategies. Active learning methods encourage students to discuss, contribute, participate, investigate, and create. Active learning challenges students by questioning them, requiring problem-solving and critical thinking. Most importantly, active learning engages students and requires them to be active in the classroom. Students that participate in their learning are more likely to succeed in your class.

**|Conclusion**

These strategies are used to inspire creativity and success in the classroom. Change is necessary and through change, we are bound to fail or miss a beat. However, failing is ok. One of the most important lessons we teach our students is that they need to try and if they fail, then that's ok. Failing is ok as long as we take lessons from that and try again.

Though these strategies seem like we are taking a big leap into something new, we don't have to apply them to our entire teaching strategy. Think of how you can use one or the other for a specific lesson. Maybe some subjects lend themselves to a project-based learning exercise while others benefit from simply asking open-ended questions.

Keep your ears and eyes open. Many teachers are going through this journey with you. There are some fantastic examples online that you can use as source material for your classroom experiments.

Try out different technologies like recording video lectures or using virtual classrooms when appropriate to venture into the digital experience. Maybe even have your students create their own videos to teach and inform other students – our students are already creating videos with their friends, so maybe we can leverage their excitement and put it to good academic use.

As long as we're innovating, we are growing. Give it a go, it's always an exciting time to be in the classroom. It's especially exciting now while many are looking to introduce innovative teaching strategies as solutions to the challenge students face today.

**REFERENCES**

1. Collie, J. and S. Slater. 1990. Literature in the Language Classroom: A Resource Book of Ideas and Activities Cambridge: CUP.
2. Custodio, B. and M. Sutton. 1998. "Literature-Based ESL for Secondary School Students" TESOL Journal. Vol 7, No.5, p.p: 19-23.
3. Çubukçu, F. 2001. "Use of Poetry for EFL Purposes." (Unpublished Article). İzmir: Dokuz Eylül University.
4. Elliot, R. 1990. "Encouraging reader-response to literature in ESL situations" in ELT Journal. Vol 44, No. 3, p.p:191-198

# NUTQ MADANIYATI VA SHARQ MUTAFAKKIRLARINING NUTQ HAQIDAGI QARASHLARI

**Qodirova Mukarramxon Ikromjonovna**
Toshkent viloyati Yuqori Chirchiq tumani 9 - sonli umumiy o‘rta ta‘lim maktabining o‘zbek tili va adabiyoti fani o‘qituvchisi

https://doi.org/10.5281/zenodo.7591095

***Annotatsiya.*** *Mazkur maqolada nutq madaniyati va uning uslublari hamda sharq mutafakkirlarining asarlarida nutq madaniyati masalalari haqida so’z boradi. Maqola davomida turli fikr-mulohazalar keltirilgan bo’lib, maqola ilmiy asoslar bilan yoritilgan. Maqola so’nggida xulosa va takliflar keltirilgan.*

***Kalit so’zlar:*** *logika, she`r o`lchovi, nasr, nazm, va`zxonlik, arab she`riyati.*

# КУЛЬТУРА РЕЧИ И ВЗГЛЯДЫ ВОСТОЧНЫХ МЫСЛИТЕЛЕЙ НА РЕЧЬ

***Аннотация.*** *В данной статье рассматриваются вопросы культуры речи и ее стилей, а также вопросы культуры речи в трудах восточных мыслителей. На протяжении всей статьи приводятся различные мнения, и статья имеет научную основу. В заключительной части статьи приводятся выводы и предложения.*

***Ключевые слова:*** *логика, мера поэзии, проза, назм, проповедь, арабская поэзия.*

# SPEECH CULTURE AND VIEWS OF EASTERN THINKERS ON SPEECH

***Abstract.*** *This article will talk about the culture of speech and its styles, as well as the issues of the culture of speech in the works of Eastern thinkers. During the article, various opinions are presented, and the article is covered with scientific grounds. At the end of the article, conclusions and suggestions are presented.*

***Keywords:*** *logic, poetry measure, prose, nazm, preaching, Arabic poetry.*

Sharq qadimdan o`z mutafakir olimlari bilan ulug’lanib kelingan. Chunki bu donishmandlarning ilm - fan sohasiga qo`shgan ulkan merosi umumjahon madaniyati xazinasiga qo`shilgan ulkan boylikdir. Bu meros bilan biz haqli ravishda faxrlanamiz.

Sharqda va`zxonlik - balog’a, balog’at (chechanlik, notiqlik) deb yuritilgan va notiqlik san`ati rivojlanishi bilan nutq oldiga qo`yilgan talablar ham murakkablashib bordi. Buyuk allomalardan Beruniy, Abu Nasr Farobiy, Ibn Sino, Abu Abdulloh al-Xorazmiy, Mahmud Koshg’ariy, Zamaxshariy, Abu Ya`qub Sakkokiylar ham tilga, lug’atga so`z odobi, grammatika va mantiqshunoslik ilmiga doir asarlar yozganlar, boshqa sohalarga doir yozgan asarlarida ham nutq madaniyati masalalariga katta e`tibor berganlar.

Mana shunday Sharq mutafakkirlaridan biri Abu Rayhon Beruniy. Butun umrini ilm-fanga baxsh etgan olim Xorazmdagi notinchliklar tufayli bir muddat Jurjonda-shoh Qobus huzurida istiqomat qiladi, ilmiy asarlar yaratadi. Qobusga bag’ishlab “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asarlarini yozdi.

Beruniy “Geodeziya” asarining kirish qismida fanlarning paydo bo`lishi, tarmoqlanib ko`payishi haqida so`z yuritib, har bir fan inson hayotidagi zaruriy ehtiyoj tufayli paydo bo`ladi deb fikr bildiradi. Olimning fikricha –grammatika, aruz va mantiq shu zaruriy ehtiyoj hosilasi, mevasi. Inson nutqi o`z tuzilishiga ko`ra rost va yolg’onni ifodalashi mumkin. Bu munozaraga sabab bo`ladi. Bu munozaralar jarayonida inson rostni yolg’ondan ajratib oladi, rostni yolg’ondan ajratadigan mezon yaratadi. Bu mantiq fani hisoblanadi. Mantiqning sillogizmi

(qiyosi) rostni yolg'ondan ajratish vositasi bo`ladi. Nutqdagi shubhali o`rinlar sezilsa ular "mezon" asosida tuzatiladi.

Abu Rayhon Beruniy mantiq ilmini o`rganmasdan uni malomat qiladiganlarga achinib shunday yozadi: "Agar u dangasalikni tashlab oromga berilmasdan gap bilan bog'lanib keladigan nahv (grammatika), aruz (she`r o`lchovi) va mantiq (logika) ni mutolaa qilganda edi, so`z (nutq) zotan, nasr va nazmga ajralishini bilgan bo`lardi". Beruniy nutqning nazm va nasr ko`rinishlari borligini ko`rsatadi.

Nutqning bu turlari ma`lum qoidalar asosida shakllanadi. Nasr nahv (grammatika) qonun-qoidalari asosida, nazm aruz talabiga binoan tuziladi.

Aytilgan so`zning me`yorini o`lchovi va xatosini tuzatuvchi aniq ikkita mezon-nahv nasrda va aruz nazmda bo`lib qoldi, grammatika umumiyroq bo`lib, u nazmni ham, nasrni ham o`z ichiga qamrab oladi.

Sharqda, ayniqsa Movarounnahrda va`zxonlik "Qur`on"ni targ'ib qilish bilan mushtarak holda olib borilgani barchaga ma`lum. Shuning uchun ham so`zning ahamiyati, ma`nosi va undan maqsadga muvofiq foydalanish borasida qadimdan ko`p yaxshi fikrlar bayon etilgan.

Abu Rayhon Beruniy ham bu sohada samarali ijod etgan. 152 asarning muallifi bo`lgan Beruniydan bizgacha o'ttizga yaqin asar saqlanib qolgan.

"Geodeziya" asarida olim shakl va mazmun birligiga ham katta ahamiyat beradi. Shakl mazmunga xizmat qilishi kerak deb hisoblaydi mutafakkir. Mazmunsiz har qanday shakl ham el orasinda e`tibor qozonmaydi. Shuning uchun ham nutqning ikkala shaklida-ham nasriy, ham nazmiy shaklida mazmun bosh mezon hisoblanadi. Nutq o`zining har ikki shaklida ham so`zlovchi o`z oldiga qo`ygan ma`noni (fikrni) ifodalashi shart. Olim yozadi: "So`ngra so`z mana shu ikki qismda (nasr va nazmda) ham so`zlovchi maqsad qilgan ma`nodan iborat bo`lib qoladi". Nasriy yoki nazmiy nutqda mazmun bor yoki yo`qligini bilish tuzilgan gaplarni bir-biri bilan qiyoslash orqali aniqlanadi. Bu vazifani esa mantiq fani o`z bo`yniga oladi:" ... agar (biror) ma`noga ega (jumlalar) tuzilib, ular (bir-biri) bilan qiyos qilinsa ularda (ma`lum) ma`no topiladi yoki u inkor qilinadi".

"Xullas, yaxshi nutq tuzish uchun nahv, aruz mantiq fanlari hamkorligidan foydalinishi zarur bo`ladi. Ularning birortasiga ahamiyat bermaslik, bulardan birining qoidasining buzilishi, qolgan ikkitasiga ta`sir qilmay iloji yo`q".

Olim o`z fikrlarini davom ettirib, har qanday tilning o`z grammatik qurilishi, grammatikasi, o`z tartib-qoidalari bo`lishi, bu qoidalarning shu tilda tuzilgan nutq uchun ahamiyati beqiyosligi aytib, bu qoidalar boshqa tillar uchun nozarur bo`lishi mumkin deydi. Ammo olim har bir tilning afzalligi o`sha tilda so`zlovchilar uchun zarurdir deb hisoblaydi.

Beruniy balog'a san`atini arab tiliga xosligi haqida gapirib, bunday nutq texnikasi arablar uchun fazilat ekanligini bayon etadi. Chunki arab tilida balog'a (notiqlik) ning mavjudligi Qur`on targ'ibotida arab nutqining ziynati sanaladi. Notiqlik san`atidan foydalangan kishining yuqori mansabga erishuvi va boshqa bir kishining kambag'allikka yashashiga balog'a aybdor emas deb aytadi. Boshqa tillarda balog'ani egallaganlarning obru topmasliklariga sabab, balki balog'aning arablar tilidan boshqa tillarga ko`chirishda bozor yurishmaganidir, ya`ni notiqlik ilmini har tomonlama chuqur o`rganmaganligidir deydi. Shuningdek, Beruniy "Hindiston" asarida hindlarda Voyakarona deb ataladigan til ilmi borligini, bu ilm-ular so`zlarini tuzatadigan nahv, xat yozishda balog'atli, nutq so`zlashda fasohatli, yetuk va usta qiladigan ishtiqoq ilmidan iboratdir deb ma`lumot beradi.

Sharq allomalari axloqiy-tarbiyaviy asarlarining asosini Qur`oni karim suralari, Muhammad payg'ambar faoliyati va ko`rsatmalarini ifodalovchi hadislar, hikmatli hikoyatlar tashkil etadi. "Qobusnoma" ham bundan mustasno emas.

Yana bir vatandoshimiz Abu Nasr Farobiy to`g'ri so`zlash, to`g'ri mantiqiy xulosalar chiqorish, mazmundor va go`zal nutq tuzishda leksikologiya, grammatika va mantiqning naqadar ahamiyati zo'rligi haqida shunday deydi: "Qanday qilib ta`lim berish va ta`lim olish, fikrni qanday ifodalash, bayon etish" qanday so`rash va qanday javob berish (masalasi) ga kelganimizda bu haqidagi bilimlarning eng birinchisi jismlarga (substansiya-narsalar) va aksidensiya (hodisalar) ga ism beruvchi til haqidagi ilmlar deb tasdiqlayman.

Ikkinchi ilm grammatikadir: u jismlarga berilgan ism (nom) larni qanday tartibga solishni hamda substansiya va aksidensiyaning joylashishini va bundan chiqadigan natijalarni ifodalovchi hikmatli so`zlarni va nutqni qanday tuzishni o`rgatadi.

Uchinchi ilm mantiqdir: ma`lum xulosalar keltirib chiqarish uchun logik figuralarga binoan qanday qilib darak gaplarni joylashtirishni o`rgatadi, bu xulosalar yordamida biz bilmagan narsalarni bilib olamiz hamda nima to`g'ri, nima yolg'on ekanligi haqida hukm chiqaramiz .

Yuqorida ko`rsatilganlardan ko`rinadiki, grammatika va mantiq fanlarining nutq tuzishdagi ahamiyatini ikki buyuk olim ham yuksak darajada anglaganlar va ularga katta ahamiyat berganlar.

Abu Nasr Farobiyning asli ismi Abu Nasr Muhammad ibn Muhammad ibn Ulug' Tarxon bo`lib, u "Sharq Arustusi", "Muallimi soniy" hisoblangan. Olim butun umri mobaynida 160 dan ortiq asar yaratgan. Forobiy asarlari XII-XIII asrlardayoq lotin, qadimiy yahudiy, fors tillariga tarjima qilingan Toshkentdagi Beruniy nomli Sharqshunoslik institutida qadimgi Sharq faylasuflarining asarlaridan jami 107 risolani, jumladan, Forobiyning 16 risolasini o`z ichiga olgan "Hakimlar risolalari" to`plami mavjud. Olim grammatika, mantiq she`riyat ilmlar fanlardan to`g'ri foydalanishni, bilimlarni boshqalarga so`z vositasida to`g'ri tushuntirish, aqliy tarbiya berish uchun xizmat qilishini ta`kidlaydi.

Insonning ibtidosida, avvalo "oziqlantiruvchi quvvat" paydo bo`lib, uning yordamida inson oziqlanadi. So`ng "tashqi quvvat-tashqi ta`sir natijasida sezgi organlari orqali vujudga keluvchi quvvatlarning besh turi aytiladi". (teri-badan sezgisi, ta`m bilish, hid bilish, eshitish, ko`rish sezgisi). "Ichki quvvat" ga esda olib, qolish, xayol (xotira, tasavvur), his-tuyg'u, nutq (fikrlash) "quvvat" lari kiradi.

"Mantiq san`ati kishiga shunday qonunlar haqida tushuncha beradiki, bu qonunlar vositasida aql chiniqadi, inson sog'lom fikr yuritishga o`rganadi" deb yozadi olim. Forobiy mantiq ilmi bilan grammatikaning mushtarakligini ta`kidlab, mantiqning aqlga munosabati grammatikaning tilga munosabati kabidir deydi. Grammatika odamlar nutqini tarbiyalagani kabi, mantiq ilmi ham tafakkurni haqiqiy yo`ldan olib borish uchun aqlni to`g'rilab turadi. Demak, buyuk qomusiy olim Abu Nasr Forobiy ham insonni sog'lom fikr yuritishga undovchi mukammal nutqni tarbiyalash yo`llari haqida ilmiy fikrlarini bayon etadi.

Nutq madaniyati masalalari Beruniy zamondoshi bo`lgan Abu Abdulloh al Xorazmiy asarlarida ham o`z aksini topgan. Olimning to`liq ismi Abu Abdulloh Muhammad ibn Ahmad ibn Yusuf al-Xorazmiydir. Xorazmiyning bizgacha yetib kelgan yagona ma`lum asari- "Mafotih ul-ulum" ("Ilmlar kalitlari") dir. Bu asarning uch nusxasi Buyuk Britaniya muzeyida, bir nusxasi Berlin kutubxonasida saqlanadi. Amerikalik olim K.Bosvort asrimizning 60- yillarida ushbu asarni olti nusxasini Turkiya kutubxonalarida borligini (Istambulda) aniqladi. Asarda nutq

madaniyatining ba`zi bir masalalari-devonxona ish qog'ozlari, ularning shakllari, ishlatiladigan islohatlar; shuningdek adabiyotshunoslik fani islohatlari, ularning ta`rifi haqida ma`lumot beradi. Asarning beshinchi bobida aruz va qofiya ilmi hamda she`riyatda ishlatiladigan badiiy tasvir vositalari, ularning fazilatlari va nuqsonlari haqida so`zlaydi. Asarning beshinchi bobi besh bo`limdan tashkil topgan. Beshinchi bo`lim X asr O`rta Osiyo she`riyatiga bag'ishlanadi. Bu shuni ko`rsatadiki, X asrdayoq o`lkamizda badiiy nutq yuksak darajada rivojlangan, uning nazariyasi mukammal ishlangan. "Mafotih ul-ulum" asarining "arab ilmlari qismidagi yetti kalom, o`n ikki bobdan grammatika (sarf va nahv), sakkiz bobdan ish yurgizish, besh bob she`r va aruz ilmlariga bag'ishlangan. Kitob arab tilida yozilganligi sababli ham arab adabiy tili grammatikasi, uning qonun-qoidalari bayon etiladi. Shu o`rinda olim arab she`riyati va uning tarkibiy qismlaridan bo`lgan aruz haqida ham mufassal ma`lumotlar berishga harakat qiladi".

Alisher Navoiy, Sa`diy Sheroziy, Husayn Voiz Koshifiy kabi Sharq allomalari ijodida ham nutq odobi qoidalari mufassal bayon etilgan.

Husayn Voiz Koshifiy Navoiyning zamondoshi bo`lib, nutq odobiga doir "Futuvvatnomayi sultoniy" asarini yozadi. Bu asarda nutq madaniyatiga oid fikrlar bildiriladi, so`z qudrati batafsil ochib beriladi.

"Agar so`z senikimi yoki sen so`znikimi, deb so`rasalar, aytgil: men so`zniki va so`z menikidir, chunki so`z insonlik daraxtining mevasidir, daraxtni mevadan va mevani daraxtdan ajratib bo`lmaydi", deb yozadi olim. Aytilgan so`z odam uchun farzandi jigarbandiday, ota-ona farzandidan topolmagani singari, inson ham o`z so`zidan tonolmaydi. Farzand ham ota-onadan tonolmagani singari, so`z ham notiqniki hisoblanadi. Shuning uchun ham deydi olim, aytiladigan so`zga mas`ullik ota-onaning farzandga va farzandning ota-onaga mas`ulligi darajasida bo`lmog'i lozim. Xalqqa naf`i tegadigan farzand qobil, zarari tegadigan noqobil sanalsa, so`z ham shunga o`xshash bo`ladi. Yaxshi so`z egasiga sharaf keltirib, yomon so`z o`z egasini badnom etadi.

Shuningdek, olim suhbat odobi qoidalari haqida ma`lumot beradi. So`zlash ham, tinglash ham katta mas`uliyat va madaniyatni talab etadi. Agar inson yaxshi so`zlasayu, tinglashni bilmasa, yoki tinglasayu, so`zlashni bilmasa bu ma`naviy noqislik alomatidir. Madaniyatli va ma`rifatli inson so`zni sidqu sadoqat, samimiyat bilan so`zlamog'i, suhbatdosh so`zini jon qulog'i bilan, diqqat-e`tibor, xayrixohliki va hamdardlik bilan tinglamog'i maqsadga muvofiqdir.

Suhbat va nutq odobida madaniyat va fahm-farosat bilan savol-javob qilish, so`rashish ham muhim o`rinda turadi.

Mashhur notiq Koshifiy o`z suxandonligi davrida bu qoidalarga to`la rioya etishga harakat qilgan va bo`lajak notiqlarni ham bu qoidalar asosida ish yuritishga undagan.

O`zbek adabiyoti tarixida Bobur lirikasi, "Boburnoma" asari nutqning go`zal namunalaridir. "Boburnoma" nihoyatda ravon va go`zal tilda yaratilgan. Shoir ham ommabop yozishni ma`qul ko`rgan va o`g'li Xumoyunga yozgan xatida birovga yozgan maktubni bir necha bor o`qish, uning ravonligiga, so`zlarning ko`zda tutilgan ma`nosi to`g'ri aks ettirayotganligiga ishonch hosil qilgandan so`ng jo`natishga chaqirdi. Chunki, so`zlarning xato yozilishi aytilmoqchi bo`lgan fikrni xiralashtiradi, o`quvchini qiynaydi. Bu haqda "Boburnoma" da shunday fikrlar bayon etiladi: "...Yana men degandek, bu xatlaringni bitibsen va o`qumaysen, ne uchunkim, agar o`qur xayol qilsang edi, o`quyolmas eding. O`quyolmagandan so`ng albatta tag'yir bo`lur eding. Xatingni xud tashvish bila o`qusa bo`ladur, vale asru mug'laqdur. Nasri muammoni hech kishi ko`rgan emas. Imlong yomon emas. Agarchi xili rost emas, iltifotni to bila

bitibsen. Qulunjni yo bilan bitibsen. Xatingni har tavr qilib o`qusa bo`ladur, vale bu mug'laq alfozingdin maqsad tamom lafhum bo`lmaydur. G'olibo xat bitirda kohilliging ham ushbu jihattindur. Takalluf qilmay deysan, ul jihatdin mug'laq bo`ladur. Bundin nari betakalluf va ravshan va pok alfoz bila biti; ham senga tashvish ozroq bo`lur va ham o`qig'uvchig'a" Bobur o`zbek harbiy notiqlarining zabardast vakili bo`lgan.

Tarixnavis shoir Muhammad Solih bu haqda shunday deb yozadi: "Mavlono Bobur Mirzo nutq so`zlaganda so`z bilan tog'ni narm aylardi".

O`zbek mutafakkirlari nutq ma`nosida "nutq", "til", "so`z" atamalarini ishlatganlar. Eng ko`p uchragani "so`z" atamasidir. Vaziyatga qarab til, so`z, nutq o`rnida qo`llana bergan.

Mavzuni xulosalar ekanmiz, Sharq mutafakkirlari notiq oldiga tilni chuqur o`rganish, uning lug'aviy boyligi va garammatikasini puxta egallash, mantiqli so`zlashni o`rganish, nutqning ichki va tashqi ko`rinishiga (shakl va mazmuniga) birday e`tibor berish, ravon va ta`sirchan nutq tuza bilish, til boyliklarini o`rinli va maqsadga muvofiq ishlatish vazifalarini qo`yadilar. Sharq mutafakkirlari avvalo o`zlari madaniyatli shaxs sifatida notiqlik ilmini o`rganganlar, so`z qudrati haqida ibratli fikrlar bildirganlar va bu notiqlik qoidalariga rioya qilganlar. Nutqiy madaniyatimizni rivojlantirishimiz uchun ham Sharq mutafakkirlarining nutq odobi haqidagi qarashlarini o`rganmoq lozim.

**REFERENCES**

1. Qudratov T.Nutq madaniyati asoslari. T., 1993.
2. Beruniy. Hindiston. T., 1965.
3. Homidov H. Olis-yaqin yulduzlar. T., 1990.
4. Ma`naviyat yulduzlari. T., 2001.
5. Mallayev N. O`zbek adabiyoti tarixi. T., 1965.
6. www.ziyonet.uz

# MAHALLIY BOSHQARUV TIZIMIDAGI O'ZGARISHLAR VA KADRLAR MASALASI

**Odambayev Ulug'bek Saliyevich**

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti.Tarix fakulteti. Davlat va fuqorolik jamiyati institutlari boshqaruvi yo'nalishi 2 - kurs magistri

https://doi.org/10.5281/zenodo.7591124

***Annotatsiya.*** *Mazkur maqolada mahalliy boshqaruv tizimidagi o'zgarishlar va kadrlar masalasi yoritib berilgan. Maqola davomida turli fikr va mulohazalar keltirilgan bo'lib, maqola so'nggida xulosa va takliflar keltirilgan.*

***Kalit so'zlar:*** *mahalliy boshqaruv, kadrlar masalasi, o'zgarishlar, zamon ruhi.*

# ИЗМЕНЕНИЯ В СИСТЕМЕ МЕСТНОГО САМОУПРАВЛЕНИЯ И КАДРОВЫЙ ВОПРОС

***Аннотация.*** *В данной статье освещены изменения в системе местного самоуправления и кадровый вопрос. На протяжении всей статьи приводятся различные мнения и соображения, а в конце статьи приводятся выводы и предложения.*

***Ключевые слова:*** *местное самоуправление, кадровый вопрос, перемены, дух времени.*

# CHANGES IN THE LOCAL GOVERNMENT SYSTEM AND PERSONNEL ISSUES

***Abstract.*** *This article covers the issue of changes and personnel in the local government system. During the article, various opinions and opinions are presented, and at the end of the article, conclusions and suggestions are presented.*

***Keywords:*** *local government, personnel issue, changes, spirit of the Times.*

O`zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonlari boshqaruv tizimini muntazam shakllantirish va takomillashtirib borishni o`zining milliy qadriyatlariga va davlatchiligi tarixida shakllangan an`analariga tayanib ish ko`rishni taqozo etmoqda. Zero, o`tish davridagi vaziyatni to`g`ri baholagan mamlakatimiz rahbariyati, zamon ruhiga moslashuvchi ilg`or mamlakatlarning yutuqlari bilan tarixiy merosimizni uyg`unlashtirish asnosida milliy boshqaruv tizimlari poydevorini mustahkamlb bormoqda.

Bu asnoda o`zini o`zi boshqaruv tizimining milliy ifodasi va O`zbekistondagi ijtimoiy hayot tarzining mahalliy ko`rinishdagi shakli mahallaning ham o`rni beqiyosdir. Bozor iqtisodiyotiga va umuminsoniy tamoyillarga asoslangan huquqiy demokratik jamiyat qurish jarayonida, mahalla jamiyatning asosiy tayanchi bo`lib qolishi tabiiydir. O`zbekistonda jamiyat qurilishi tizimini mustahkam poydevorini yaratishda mahallaning o`rni katta ekanligini va o`zini o`zi boshqaruv organlarining boshqaruv tuzilmasini bugungi kun talablari ruxida o`rganib uning nazariy hamda amaliy ahamiyatlarini sosiologik jihatdan yoritish muhim ilmiy ahamiyatga egadir.

Mahalliy o`zini o`zi boshqaruv organlari tarkibini fuqarolar yig`inlari, xususan mahallalar tashkil etadi. Jamiyatda o`zini o`zi boshqaruv tizimining muhim organi bo`lgan mahalla - bu hududiy, kasbiy, turli yoshga oid va boshqa shu kabi turli xil ijtimoiy guruhlardan tashkil topgan ijtimoiy tizimdir. U mana shu ijtimoiy guruhlarning qiziqishi va irodasini o`zida mujassamlashtirib, ularni ijtimoiy hayotga joriy qiluvchi umumiy hamda alohida holatlarni namoyon qiladi. Bugungi kundagi o`zini o`zi boshqaruv tizimining taraqqiy etib borishi -

ISSN: 2181-3906

International scientific journal
«MODERN SCIENCE AND RESEARCH»
VOLUME 1 / ISSUE 3

demokratik jamiyat taraqqiyotining asosiy yo`nalishlaridan biridir. Chunki o`zini o`zi boshqaruv tizimi ijtimoiy tizim sifatida kishilarning turli xil faoliyatlarini, ulardagi tashabbuskorlikni va takliflarni inobatga olgan holda qonun doirasida ularning tezda amalga oshishini ta`minlaydi. O`zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 101-moddasida shunday deyiladi: «Mahalliy hokimiyat organlari, O`zbekiston Respublikasining qonunlarini, Prezident farmonlarini, davlat hokimiyati yuqori organlarining qarorlarini amalga oshiradilar, xalq deputatlari quyi Kengashlari faoliyatiga rahbarlik qiladilar, Respublika va mahalliy ahamiyatga molik masalalarni muhokama qilishda qatnashadilar» .

Respublikamiz mustaqillikka erishganidan so`ng, jamiyat ichida kichik jamiyat nomini olgan - mahalla tizimini ravnaq toptirish, uning o`ziga hos milliy boshqaruv shaklini ishlab chiqish, O`zbekiston xalqining ijtimoiy muammolarini o`rganib, unga amaliy yordam beruvchi jamiyatning ijtimoiy bir bo`lagi hisoblanmish ushbu tizimni maxsus hayriya jamg`armasini tuzish to`g`risida farmon qabul qilindi.

Mahallaning ma`naviy holati to`g`risida fikr yuritilar ekan, albatta, uning boshqaruv tizimida muhim ahamiyat kasb etgan subekt tushunchasiga e`tibor qaratishlik ilmiy mazmun kasb etadi. Mahalla subektining o`ziga xos xususiyatini undagi boshqaruv funksiyasi bajaradi. Chunki aynan shu funksiya orqali mahallaning samarali ish faoliyati namoyon bo`ladi.

Har bir mahalla o`ziga xos geografik joylashuvga, o`ziga xos turmush tarziga ega bo`lganligidan kelib chiqib, bu muqim makonda istiqomat qilayotgan aholining turli millatga yoki bir millatga mansubligiga asoslanib, har bir mahallaning o`z ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturini yaratish maqsadga muvofiq. Mahalla bugun fuqarolarning mustaqil faoliyatini, ularni jamiyatning turli doiralardagi ijtimoiy munosabatlarini, davlat va jamiyat boshqaruv strukturasini tashkil etishdagi hamda ijtimoiy jamoalarning hayot faoliyatini ta`minlovchi va shu bilan birgalikda o`z a`zolarini ijtimoiy hayot oldiga qo`yilgan savollarga javob berishdagi ishtirokini belgilaydi. Kuzatishlar va olib borilgan tadqiqotlar asosida O`zbekiston hududida mahallalarni quyidagi to`rtta asosiy qismga ajratish mumkin:

1) Shaharlardagi an`anaviy mahallalar,
2) Shaharlardagi kvartal mahallalar,
3) Shaharchalardagi mahallalar,
4) Qishloq mahallalari.

Mahallaning bugungi kundagi ijtimoiy holatiga e`tibor qaratiladigan bo`lsa, unda quyidagilarni kuzatish mumkin: birinchidan, oila muhofazasi, ikkinchidan, obodonlashtirish, ko`kalamzorlashtirish va tozalik, uchinchidan, ijtimoiy himoyada faol ishtirok etish, to`rtinchidan, ma`naviyat va ijtimoiy huquqni shakllantirish, beshinchidan, siyosiy faollikni oshirish va hokazo. Lekin, biz o`ylaymizki hali hamon bu muammolar va jarayonlar chuqur o`rganilmagan, ularga yetarlicha ahamiyat berilmagan. G`olbuki, shunday ekan oldinda ushbu faoliyatlar bo`yicha qilinadigan amaliy ishlar hali behisob va ular o`z yechimini kutib yotibdi. Sorokin shunga o`xshash holatlarni biologik ta`sirlanish jarayoni deb baholaydi. Uning fikricha, «Inson ijtimoiy organizm bo`lib, tabiatdagi barcha tirik organizm singari yashash uchun muhim bo`lgan barcha sharoitlarga ehtiyoj sezadi» .G`ukumat tomonidan mahallaga e`tibor kuchaytirilayotganligining asosiy sabablaridan biri - ijtimoiy aloqadorlikni shakllantiruvchi va kishilarni ijtimoiy guruh sifatida bog`lovchi jarayonlarning mavjudligidir. Bu jarayonlar a) individlar, b) munosabatlar, v) tashabbuskorlik bo`lib, ushbu holatlarning mavjudligi kishilarni bir-biri bilan o`zaro munosabatda va aloqadorlikda hamda jamoaviy birlikda bo`lishiga

imkoniyat yaratadi. Bu holatlar tezlik bilan amalga oshishi uchun ular bir-biri bilan yonma-yon yashamog`i va ularni o`zaro munosabatga tortuvchi sabablar shakllantirilishi kerak. Chunki ana shu sabablar ularni o`zaro jipslashtirishi va jamiyat hayotida faol ishtirok etishini ta`minlaydi.

Qadimgi yunonlar demokratiya terminini ishlab chiqqanlarida, tabiiy-ijtimoiy jarayonga e`tiborni qaratgan edilar, ya`ni kishilar o`zlari yashayotgan joyga xos bo`lgan imkoniyatlarni yaratadilar. Demak, demokratiya - bu xalq hokimiyati yoki xalq boshqaruvi sifatida ommani turli tabaqalari ijtimoiy faolligini taqozo etadi. O`z-o`zidan ravshanki, xalq ishtirok etadigan va o`z ijtimoiy mohiyatini mumkin qadar to`la namoyon eta oladigan xalqchil tizim - bu o`zini o`zi boshqaruv tizimidir. Xalq boshqaruv tizimida faol ishtirok etar ekan, u o`zining ijtimoiy-siyosiy faoliyatini oshirib boradi, demak u jamiyatning ma`naviy va ijtimoiy hayotiga kirib boradi hamda tobora uni jamiyat taraqqiyoti va ravnaqi o`ylantirib qo`yadi.

Shaxsning ijtimoiy munosabatlarga kirishishi yig`ilib qolgan ijtimoiy muammolar hamda har xil voqeliklar va tafsilotlar to`g`risida hukm yuritish yoki xulosa chiqarish imkoniyatini beradi. Bu holat o`z navbatida fuqarolarning siyosiy faollik rolini ortib borishi uchun zamin xizmatini bajaradi. Kuzatishlar shuni ko`rsatadi, ya`ni mahalla munosabatlarida barcha qatlamlardagi kishilarning ishtirok etishi bir tekis holatda kechadi. Bu esa jamiyatda o`rta qatlam munosabatlarini shakllanishiga yordam beradi. Bir-birlari bilan o`zaro ijtimoiy munosabatlarga kirishish oqibatida mahallaning odamlar hayotiga yaqinligi, aholi turmush tarzi va kundalik hayoti bilan uyg`unligi ko`p jihatdan jamiyatda demokratik jarayonlarni chuqurlashtirish imkoniyatini yanada tezlashtiradi.

Odamlarning hatti-harakati, voqelikka va har qanday yangilikka nisbatan munosabati, eng avvalo yuksak ahloq-odob, sharqona vazminlik, ota-bobolarimizga xos mulohazamandlik, qiyin va murakkab vaziyatlarda shaxsiy manfaatlardan umumdavlat va umumxalq manfaatlarini ustun qo`yish, jamoa uchun yashash kabi insoniy fazilatlarga qaratilgan. Bu va shunga o`xshagan milliy qadriyatlar jamiyatdagi oqilona siyosat tufayli umuminsoniy qadriyatlar darajasiga ko`tarilmoqda.

O`zbekiston Respublikasi «Fuqarolarning o`zini o`zi boshqarish organlari to`g`risida» yangi tahriridagi qonunning 6-moddasida aytilganidek, «Fuqarolarning o`zini o`zi boshqarish organlari faoliyatining asosiy prinsiplari demokratizm, oshkoralik, ijtimoiy adolat, insonparvarlik, mahalliy ahamiyatga molik masalalarni yechishda mustaqillik, jamoatchilik asosida o`zaro yordam» - deb belgilangan. Aytish mumkinki, O`zbekistonda amalga oshirilayotgan mahalla demokratiyasi, uning xalq hayotiga yaqinligi, aholi turmush tarzi va kundalik hayoti bilan uyg`unligi sababli kundalik hayot tarzimizda qaytadan qaror topayotgan boshqaruv tizimi sifatida o`z ifodasini topmoqda.

Jamiyat taraqqiyotidagi har qanday o`zgarishlar, yangiliklar, ayniqsa insoniyat rivojiga katta turtki beradigan jarayonlar, kashfiyotlar o`z-o`zidan yuz bermaydi. Buning uchun avvalo asriy an`analar, tegishli shart-sharoit, tafakkur maktabi, madaniy-ma`naviy muhit mavjud bo`lmog`i kerak. Iqtisodiy taraqqiyot sur`atlari avj olgan sari odamlarning ma`rifatga intilishi ham kuchayib borishi zarur.

O`zbekiston Respublikasining asosiy kuch-qudratini manbai - bu xalqimizning umuminsoniy qadriyatlarga sodiq qolganligidir. O`zbekistondagi ana shunday umuminsoniy qadriyatlar sarchashmalaridan biri mahalla tizimi ekanligi to`g`risida yuqorida to`xtalib o`tgan edik. Uning nufuzini oshirish, ijtimoiy, siyosiy, tarbiyaviy, ulkan ma`naviy masalalardan biri bo`lib qolmoqda. Prezident I. Karimov «Turkiston» gazetasi muxbirining bergan savollariga -

«Mahalla, tabir joiz bo`lsa, kishilik jamiyatida alohida tarbiyaviy ahamiyatga molik bo`lgan o`ziga xos maskandir deyish mumkin. Bu noyob tajriba aholining mahalla bo`lib yashash tarzi jahonning boshqa mamlakatlarida kam uchraydi. Shuning uchun ham insonni jamiyat bilan birga yashashga o`rgatadigan, shu ruhda tarbiyalaydigan birlamchi va beqiyos makon-bu mahalladir» - deb javob qaytarishida, ushbu tizimning ommabop jarayonga aylantirish ayni muddao ekanligi to`g`risidagi g`oya deb ifodalasa bo`ladi.

**REFERENCES**

1. Karimov I.A. Bunyodkorlik yo`lidan. - T.: «O`zbekiston», 1996 y.
2. Karimov I.A. O`zbekiston XXI asr bo`sag`asida. Xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. - T.: «O`zbekiston», 1997y.
3. Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash - davr talabi. Toshkent, 1997 yil.
4. Udalsova. Sosiologiya upravleniya - Uchebnoye posobiye. - Novosibirsk, 1999 g.
5. Smelzer N. Sosiologiya. - M., 1994 g.
6. Sokanova G. Ekonomicheskaya sosiologiya. - Minsk. «Visshaya shkola», 1998.
7. Radayev V. Ekonomicheskaya sosiologiya. - M.: Aspekt-Press, 1998.
8. Ribanovskiy. Migrasiya naseleniya, M., 1989 g.
9. Xolbekov A, Idirov U. Sosiologiya. Toshkent. 1999 yil.
10. Osipov S.S. Osnovi sosiologii. Moskva. 1997.

# BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA O'QISH MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH VA UNGA KREATIV YONDOSHISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

**Saidova Fotima Maxamadnajimovna**
Toshkent shahar Shayxontohur tumani 320- maktab o'qituvchisi, Toshkent davlat pedagogika universiteti mustaqil izlanuvchisi

https://doi.org/10.5281/zenodo.7598204

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda o'qish madaniyatini shakllantirish va unga kreativ yondoshishning ijtimoiy pedagogik ahamiyati, kitob, kitob o'qishga bolgan qiziqishni rivojlantirish uchun o'qituvchi va ota-onalarning o'rni, dars jarayonida didaktik talablar haqida fikr yuritilgan.*

***Kalit so'zlar:*** *o'qish madaniyati, kreativlik, kitob, kitobxonlik, maktab, o'yin faoliyati.*

# ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ ФОРМИРОВАНИЯ КУЛЬТУРЫ ОБУЧЕНИЯ У ШКОЛЬНИКОВ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ И ТВОРЧЕСКОГО ПОДХОДА К НЕМУ

***Аннотация.*** *В данной статье раскрывается социально-педагогическое значение формирования культуры чтения в начальных классах и творческого подхода к ней, роль учителей и родителей в развитии интереса к чтению книг, дидактические требования в ходе урока. обсуждалось.*

***Ключевые слова:*** *культура чтения, творчество, книга, чтение, школа, игровая деятельность.*

# PEDAGOGICAL PRINCIPLES OF FORMING A CULTURE OF LEARNING IN PRIMARY CLASS STUDENTS AND CREATIVE APPROACH TO IT

***Abstract.*** *This article discusses the socio-pedagogical importance of creating a culture of reading in primary grades and a creative approach to it, the role of teachers and parents to develop interest in reading books, and didactic requirements in the course of the lesson.*

***Key words:*** *reading culture, creativity, book, reading, school, game activity.*

Azal-azaldan xalqimiz ijod ahliga o'zgacha mehr va o'zgacha hurmat bilan qaraydi. Kitobga muhabbat, uni qadrlash, o'qishga ishtiyoq esa xalqimizning qon-qoniga singib ketgan. Zotan, yaxshi kitob insonda Vatanga muhabbat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat tuyg'ularini yuksaltirib, yaxshilik va ezgulikka undaydi.

Jahon hamjamiyati kun sayin rivojlanib borayotgan XXI asrni "texnika asri", "yuksak texnologiyalar asri", "intellektual taraqqiyot asri" kabi e'tiroflar bilan atamoqda. Albatta, bu gaplarda to'la jon bor. Zero, uzoq va yaqin atrofga nazar solganda, bu sohalarda olamshumul kashfiyotlar yaratilib, odam bolasining aqlini lol qoldirgulik darajada buyuk ishlar amalga oshirilayotganini inkor etib bo'lmaydi.

Bugun taraqqiy etgan mamlakatlarda zavod va fabrikalar texnologik jihatdan elektronlashtirilib borilayotgani, badavlat oilalarning uylarini, u yerdagi xo'jalik ishlarini hatto robotlar boshqarayotgani haqidagi ma'lumotlardan xabardormiz. Biroq, hali "Bu ishlarning hammasiga aynan, tafakkur, ya'ni kitobning mislsiz qudrati tufayli erishilmoqda", deganga o'xshash jo'yali fikrlarni deyarli o'qiyotganimiz yo'q. Yoki biz yashab turgan asrni qaysidir xalqaro tashkilot bir ovozdan "Kitob asri", "Kitob mo'jizalari asri" deya ko'klarga ko'targanini eshitmadik. Nima uchun?

Fikri ojizimizcha, insoniyat bugungi kunga kelib, asosan iqtisodiy jihatdan foyda ko‘rishga ruju qo‘yib, deylik, sanoat ishlab chiqarish, farmatsevtika, maishiy xizmat, rangli metallurgiya, neft, gaz va ko‘mir ishlab chiqarish kabi tarmoqlarni tez daromad olib keluvchi soha deb hisoblamoqda va bor-budini shularga sarflamoqda. Biron aqli butun, ziyoli kishi “hoy, janoblar, bu yutuqlarning mohiyatida aynan, kitobga bo’lgan muhabbatimiz yotadi” degan haqiqatni baralla aytishni xayoliga keltirmayapti.

O’qish madaniyati – kitob bilan ishlash bo'yicha ko'nikmalar to'plami, shu jumladan mavzularni ongli ravishda tanlash, o'qishning tizimli va ketma-ketligi, shuningdek bibliografik vositalar yordamida ker akli adabiyotlarni topish, ma'lumotnoma va bibliografik apparatdan foydalanish, oqilona usullarni qo'llash. , o'qilgan narsalarni (tezis, eslatma yozish, izohlash, o'zaro tanishish va boshqalar) maksimal darajada o'zlashtirish va chuqur anglash, bosma asarlarga ehtiyotkorlik bilan ishlov berish.

O'qish madaniyati - o'qish jarayonini maqbul tashkil etish, uning ijtimoiy ahamiyati va boshqa maqsadlariga erishish uchun bilim, qobiliyat, ko'nikmalar to'plami; shaxsiy axborot madaniyati tarkibiy qismlaridan biri (Library Entsklopediya, 2007).

Kitob o'qish madaniyati - bu shaxs bilan umumiy madaniyatning ajralmas qismi bo'lib, u kitob bilan ishlash, shu jumladan mavzularni ongli tanlash, tizimli va izchil o'qish, shuningdek kerakli adabiyotlarni topa olish ko'nikmalarining to'plamidir. bibliografik vositalar yordamida ma'lumotnoma va bibliografik apparatdan foydalaning, oqilona usullarni qo'llang (guvohlik berish, eslatma olish, izohlash, ko'rib chiqish va boshqalar), o'qiganlaringizni maksimal darajada o'zlashtiring va chuqur idrok eting, bosma asarlarga g'amxo'rlik qiling (Gendina NI).

O'qish madaniyati - kitob bilan ishlash bo'yicha ko'nikma va ko'nikmalar to'plami, o'quvchilar tipologiyasining mezonlari, o'quv vositasi, insonning umumiy madaniyatining bir qismi; kitobga muhabbat, o'qishga qiziqish, o'qilgan narsalarni idrok etish va anglash, ijodiy o'qish, kitobning mohiyatini anglash, o'quvchining ongi, hissiyotlari va tasavvurlarini safarbar qilish (Grinyuk O.I., 2012).

Бугунги кунда шахс имкониятларини кенгайтиришнинг кўплаб йўналишлари ва воситалари мавжуд. Бундай воситалар биринчи навбатда ҳар бир инсоннинг билиш имкониятларини кенгайтиришга хизмат қилади. Китоб ва китобхонликка бўлган қизиқиш шахс фаолиятининг самарали кечишини таъминлайди. Шунинг учун ҳам китобхонлик воситасида ўқувчиларда  қизиқишни шакллантириш алоҳида аҳамиятга эга.

**Қизиқиш** - 1) объект ёки ҳодисани англаш ва бирор фаолият турини ўзлаштиришга мойиллик;

2) ўқувчи ёки талабанинг ўзи учун қимматли ва ёқимли бўлган муайян нарса ва ҳодисага муносабати.

Қизиқишларда шахснинг ўзига хос хусусиятлари мужассамлашган бўлади. Қизиқиш билимларни онгли, пухта, барқарор, англаган ҳолда ўзлаштиришга кўмаклашади. Қизиқиш инсонда интилиш, фаоллик, ички туртки, эҳтиёжни шакллантиришга хизмат қилади. Қизиқиш шахснинг борлиққа танлаб муносабатда бўлиши, ўзига хос қарор қабул қилиши, ўзини ўзи назорат эта билиши, мақсадга интилувчанлигида, юзага келган тўсиқларни енгишида намоён бўлади. Шунинг учун ҳам ўқувчиларда бошланғич синфлардан бошлаб у ёки бу ҳодисага нисбатан қизиқиш уйғотиш алоҳида аҳамиятга эга. Қизиқиш туфайли ўқувчилар муайян объектни чуқуроқ

ўзлаштиришга интиладилар. У ҳақидаги билимларни алоҳида интилиш билан ўзлаштиришга киришадилар.

Бошланғич синф ўқувчиларида китобга қизиқиш уйғотиш орқали инсоният ақл-идрокининг нодир намуналарида ифодаланган билимлар ва ҳаётий тажрибаларни ўрганишларига кенгроқ шароит яратилади. Ўқувчиларда бадиий адабиётга нисбатан қизиқиш уйғотишда китобхонлик асосий восита сифатида хизмат қилади.

Ўқувчиларда китобга қизиқиш уйғотишда таълим жараёни асосий ўрин эгаллайди. Таълим жараёни олдига шахсни ҳар томонлама уйғун ривожлантириш вазифаси қўйилган бугунги кунда ўқувчиларда китоблар ёрдамида қизиқиш уйғотиш ижтимоий-педагогик заруриятга айланмоқда. Китоб ўқиш орқали ўқувчилар ўз билимларини мунтазам такомиллаштиришга муваффақ бўладилар. Ўқувчилар билан ўзаро муносабатга киришишнинг дастлабки кунларидан бошлаб ўқитувчилар уларда китобга нисбатан қизиқиш уйғотишлари лозим. Айнан бошланғич синфларда бадиий китобга нисбатан ўқувчиларда шаклланган қизиқишлар барқарор бўлиб, бутун ҳаёти давомида мустаҳкамланиб боради.

Ўқувчиларда китобга қизиқиш уйғотиш ғоясининг асосчиси буюк чех педагоги Я.А.Коменский ҳисобланади. У ўзининг “Буюк дидактика” асарида ўқувчиларда у ёки бу машғулотга нисбатан қизиқиш уйғотиш ҳақида фикр юритган.

Қизиқиш билиш эҳтиёжларининг намоён бўлиш шаклидир. У шахсни ўз фаолияти мақсадини англашга йўналтиради. Объектив борлиқни ифодалайдиган далилларнинг моҳиятини чуқурроқ англашга ундайди. Қизиқиш шахснинг ўрганилаётган объектни ўзлаштиришга бўлган интилишини ифодалайди. Ўқувчининг айни бир қизиқишини қондириш иккинчи қизиқишнинг вужудга келишига асос бўлиб, билиш фаолиятининг ривожланишига шароит яратади.

Л.С.Выготскийнинг таъбирича, қизиқишлар бола хулқ-атворининг ҳаракатлантирувчи кучи ҳисобланади. У ўқувчи интилишларининг ёрқин ифодасидир. Қизиқишлар ёрдамида ўқувчиларнинг фаолияти уларнинг эҳтиёжларига мувофиқ келади. Шунинг учун ҳам таълим-тарбия жараёни ўқувчиларнинг қизиқишларига асосланган ҳолда ташкил этилиши керак. Бу ўқув жараёнининг ўқувчиларни қизиқтирган ўқув предметларига устиворлик бериш асосида ташкил этишини англатади. Ўқувчига босим ўтказиш, пўписа қилиш, қўрқитиш орқали уни муайян ҳодисани ўрганишга жалб этиш мумкин эмас. Ўқувчиларда қизиқиш уйғотиш билан бир қаторда уни муайян мақсадга йўналтириш ҳам муҳим аҳамиятга эга.

Муҳим жиҳатлардан яна бири ўқувчиларнинг қизиқишларини ҳисобга олган ҳолда ўқув жараёнларини ҳаётий вазиятларга яқинлаштиришдан иборат. Ўқув жараёнини ҳаётий вазиятларга яқинлаштиришда китоб намуналари муҳим ўрин эгаллайди. Ўқув жараёнини ҳаётий вазиятларга яқинлаштириш ўқувчиларда муайян ҳодисаларга нисбатан қизиқиш уйғотади. Педагоглар ўқувчиларда қизиқиш уйғотиш орқали уларни аниқ бир фаолиятга кенгроқ жалб этиш мумкинлигини англаб етишлари лозим.

Ҳар бир шахс ўзини ўраб турган борлиққа нисбатан шахсий муносабат тажрибасига эга. Худди мана шу муносабат уни муайян вазиятларга олиб киради ва маълум нарсаларни ўрганишга нисбатан қизиқиш, эҳтиёж ва истакни вужудга келтиради.

Билишга оид қизиқишлар ўқув жараёнининг динамик ривожланишини таъминлашга кўмаклашади. У ўқувчиларнинг фаол тарзда ўқув-билув фаолиятини

ISSN:
2181-3906

International scientific journal
«MODERN SCIENCE AND RESEARCH»
VOLUME 1 / ISSUE 3

ўзлаштиришларига ёрдам беради. Билишга оид қизиқишлар ўқувчиларда ташаббускорликни таркиб топтиради. Бу жараёнда ўқувчининг ўзи янги билимларни ўзлаштириш усулларини излаб топади. Натижада таълим, тарбия ва ривожланишнинг самарадорлиги ортади. Фаол бўлмаган ва хеч нарсага қизиқмайдиган ўқувчиларга ўқитувчилар кучли таъсир ўтказиб, уларнинг билишга оид қизиқишларини муайян мақсадга йўналтиришлари керак.

Қизиқишлар ўқувчиларда ёркин ҳис-туйғуларни вужудга келтириш имкониятига эга. Ўқувчилар ўз қизиқишларини қондириш учун объектив борлиқни чукуррок ўрганишлари, унинг ўзига хос жиҳатларини англаб етишлари талаб қилинади. Ўқувчиларнинг қизиқишлари қондирилиши натижасида уларда кувонч ҳисси, кўпроқ билишга интилиш майллари кучаяди. Агар ўқувчилар ўзлари қизиққан муайян нарсани ўргана олмасалар уларда салбий ҳис-туйғулар, ўз кучларига ишонмаслик вужудга келади. Билишга оид қизиқишлар ўқишнинг асосий мотивларидан бири ҳисобланади. Буни ўқувчилар бошқалардан кўра кўпроқ ҳис этадилар. Бу ўқувчилар ўзлари учун нима қизиқарлию, нима қизиқарли эмаслигини аниқлаб олган вақтларидан бошланади. Бундай нарсалар сирасига дарс, ўқув предмети ёки муайян китобларни киритиш мумкин.

Ўқувчилар учун билишга оид қизиқишлар ўқиш мотивлари сифатида уларни мазкур объектларни билишга ундайди. Мазкур ўринда ўқитувчилар уларга тўсқинлик қила олмайдилар, чунки бу ўқувчиларнинг шахсий қизиқишлари билан боғлиқ. Бу ўқувчилар фаолиятининг асосий мақсадини ифодалаб, ўқув жараёнининг осон, самарали, ёркин, ҳис-туйғуларга бой бўлишини таъминлаб уларнинг дарсларда толиқмасликларига асос яратади. Билишга оид қизиқишлар ўқув фаолиятининг турли майллари билан ўзаро алоқадор бўлиб, ўқувчи дунёқарашини ҳар томонлама бойитишга кўмаклашади. Ушбу қизиқишлар бир-бирига мос келмаса, ўқувчиларнинг ривожланиш жараёнлари секин кечади. Ўқувчиларда муайян ҳодисаларга нисбатан қизиқишнинг шаклланиши натижасида уларда ўқув жараёнига нисбатан онгли муносабат ҳосил бўлади. Бу эса ўз навбатида ўқувчиларнинг ўз шахсий ўқув-билув фаолиятларини бошқаришлари, қўйилган мақсадга эришиш йўллари ва мақсадларини аниқ англаб олишларига кўмаклашади. Шу билан бир қаторда ўзлари қизиққан соҳадаги билим, кўникма, малакаларининг мунтазам бойишини таъминлайди.

Ўқувчиларда билишга оид қизиқишларни шакллантириш ўқитувчи зиммасидаги мураккаб вазифалардан ҳисобланади. Бунинг учун педагог ўқув жараёнини ўқувчиларда билиш қизиқишларини шакллантиришга йўналтирган ҳолда ташкил этиши лозим. Бу жараёнда ўқувчи мунтазам тарзда ўқув материалларига қизиқиши, ўз-ўзини ривожлантириши, ўзлаштирган билимларининг йўналиши ва соҳаларини кенгайтириши мақсадга мувофиқ. Ўқувчилар ўқув жараёнида туғилган муаммоларни ечишга ўз шахсий ҳиссаларини қўшишлари ҳам муҳим аҳамиятга эга.

Қизиқишга турли мутахассислар турлича ёндашадилар. Бу ёндашувлар бир-бирини инкор қилмайди, балки қизиқишнинг турли жиҳатларини эътироф этишга кўмаклашади. Билишга оид қизиқишлар ҳақида аниқ тасаввурга эга бўлиш учун унинг турли жиҳатлари ва таснифларини ўрганиш мақсадга мувофиқ.

Шахснинг билишга оид қизиқишларини Т.Н.Каптан қуйидагича таснифлаган:

- жисмоний қизиқишлар;
- ақлий қизиқишлар;

- эстетик қизиқишлар;
- ижтимоий қизиқишлар;
- иродага асосланган қизиқишлар.

Шунингдек қизиқишнинг бошқа турлари ҳам мавжудки, улар билвосита ва бевосита қизиқишларга бўлинади.

Бевосита қизиқишлар сирасига ўқувчиларни билиш жараёнига бевосита жалб этишни киритиш мумкин. Мақсадга эришишнинг асосий воситаси меҳнат ҳисобланади.

Билвосита қизиқишлар сирасига фаолият натижасига бўлган қизиқишни киритиш мумкин. Бу ўринда айни бир қизиқишни бошқасига нисбатан муҳим ва алоҳида аҳамиятга эга деб ҳисоблаш мумкин эмас. Ҳар қандай қизиқиш алоҳида воситалар ва усуллар ёрдамида қондирилганда ўзининг кутилган самарасини беради.

Ўқувчиларнинг қизиқишларини қондириш нафақат уларнинг интеллектуал соҳаларини бойитиш, балки уларни келажакдаги фаолиятга йўналтириш имкониятига ҳам эга.

Ўқувчиларнинг билишга оид қизиқишларини ривожлантириш соҳасида қуйидаги даражаларни ажратиб кўрсатиш мумкин:

1) синчковлик
2) қизиқувчанлик
3) шахсий билишга асосланган қизиқиш
4) ижодий қизиқиш.

Улар ўқувчиларнинг у ёки бу ўқув предметига нисбатан турли-туман қизиқишларини ифодалайди. Ҳали ўрганилмаган билимларни ўрганишга интилиш, янги ахборотларни ўзлаштириш кабилар шулар жумласидандир.

*Синчковлик* – билишга асосланган қизиқишнинг дастлабки босқичи ҳисобланади. Бунда ўқувчининг эътибори билан боғлиқ тарзда унинг муайян нарсаларни ўрганишга, билишга бўлган интилиши ифодаланади. Қизиқишнинг ушбу босқичида муайян объект ёки ҳодиса чуқур ўрганилмайди, балки унга синчковлик билан назар ташланади. Бунда шахс ўзини ўраб турган воқеликда қандай ўзгаришлар рўй берганлигини синчковлик билан ўрганишга киришади ва унга муносиб жавоб қайтаради.

Қизиқишнинг қизиқувчанликка асосланган босқичи янгича моҳият касб этиб, уни қизиқтирган ҳодисалар ва нарсаларнинг барча ўзига хос жиҳатларини аниқлашга бўлган интилиш кучаяди. Ушбу жараёнда билиш мақсадга йўналтирилганлик характерига эга бўлиб, ўқувчиларнинг интилишларига ташқи омиллар таъсир кўрсатади. Қизиқувчанлик босқичида ўқувчиларда бевосита қизиқишга бўлган интилишнинг шаклланганлигини кузатиш мумкин. Бунда ўқувчи билиш жараёнига тўлиқ жалб этилади. Унинг ёрдамида эса ўзининг билиш эҳтиёжларини қондиради. Бундай фаолиятнинг натижаси ўқувчи учун алоҳида аҳамият касб этади. Натижада ўқувчи ўзи қизиққан соҳани чуқуррок ўрганишга киришади, бир нуқтада тўхтаб қолмайди. Қизиқувчанлик эса шахсий қизиқишга айланади.

Билишга асосланган қизиқиш сабаб-оқибат боғланишларини шакллантириш заруриятини келтириб чиқаради. Натижада ўқувчилар мазкур боғланишнинг ўзига хос хусусиятларини аниқлашга ҳаракат қила бошлайдилар. Ушбу босқичда ўқувчилар олдига муайян муаммолар қўйилади. Ўқувчилар эса ушбу муаммоларга онгли тарзда ечим топишга интиладилар. Билишга асосланган қизиқишлар ўқувчиларни билмасликдан узоқлаштиради. Объектив борлиқнинг янги жиҳатларини англаш, интеллектуал

ISSN:
2181-3906
International scientific journal
«MODERN SCIENCE AND RESEARCH»
VOLUME 1 / ISSUE 3

ривожланишнинг янги босқичларига кўтарилишларини таъминлайди. Натижада ўқувчиларнинг фаол ҳаракатлари таъминланади: ўз-ўзини назорат қилиш, ирода кучига ишониш, иш жараёнида ташаббускорлик ва некбинлик, ўз-ўзини такомиллаштириш ва ривожлантириш истагига эгаликнинг намоён бўлиши.

Ижодий қизиқишларнинг намоён бўлиш босқичи қуйидагиларни ўз ичига олади: мустақиллик, ўқувчининг қайта шаклланган фаолияти, ўз олдиларида турган муаммоларнинг янгича ечимларини таъминловчи усулларни қўллаш, ўз ижодий лаёқатларини намоён қилиш кабилар.

Китобхонликка бўлган қизиқиш – ўқувчиларнинг китобларда ифодаланган аждодлар тажрибасини ўрганиш ва ўз фаолиятида қўллашга бўлган интилишини ифодаловчи қизиқишдир. Бунинг учун ўқувчиларда ақлий ҳамда эмоционал фаоллик шаклланиши лозим. Ақлий ҳамда эмоционал фаоллик китобларда мақсадга йўналтирилган асосий компонент сифатида намоён бўлиб, ўқувчиларга ижтимоий тажрибани тақдим этишга хизмат қилади. Чунки китобларда ушбу тажриба сақланиб, аждодлардан авлодларга тақдим этилади. Шунга кўра билишга асосланган қизиқишлар танловга асосланган қизиқиш бўлиб, биринчи навбатда ўқувчиларнинг интеллектуал соҳасини ривожлантиришга кўмаклашади. Қизиқиш ёрдамида ўқувчилар муайян соҳадаги билимларни ўзлаштиришга фаол киришадилар. Бунда уларга китоб яқиндан ёрдам беради.

Шахснинг ривожланиши учун билишга оид қизиқишларнинг аҳамияти шундаки, унда муайян соҳадаги фаолият қизиқиш таъсирида ўқувчининг руҳий жараёнларини фаоллаштиради. Ўқувчиларда интеллектуал қониқиш ва ҳиссий кўтаринкилик бағишлайди. Билишга оид қизиқишлар шахс фаоллигини таъминловчи мотив бўлиб, унинг билиш фаолияти ривожланишига кўмаклашади.

Бошланғич таълимнинг асосий вазифаларидан бири ўқувчиларда китобхонлик воситасида бадиий адабиётга қизиқишни шакллантиришдан иборат. Бу муҳим масалалардан бири бўлиб, китоблар ва китобхонлик ўқувчиларга таълим-тарбия бериш ва уларни ривожлантиришда катта аҳамият касб этади.

**Китобхонлик** – бошланғич синф ўқувчиларига нимани ўргатиш ва қандай воситалар ёрдамида уларнинг бадиий адабиётга бўлган қизиқишларини ривожлантиришни белгилаб берувчи педагогик ҳодиса ҳисобланади. Китобхонлик ёрдамида нафақат нутқий ва ақлий фаолият шакллантирилади, балки умумўқув характердаги билим, кўникма, малака ва компетенцияларнинг муайян мажмуи таркиб топтирилади.

Барча ўқув предметларини ўқитиш ва синфдан ташқари педагогик жараёнларда ўқувчиларда китоб билан мулоқотга киришиш кўникмаси шакллантирилади. Китобхонлик фаолияти ўқиш меҳнатига киришиш истагини англатади. Китобдаги воқеликни идрок этиш унинг мазмунини чуқурроқ англашга кўмаклашади. Китоб тўлиқ ўқиб бўлингач, ўқувчи у ҳақида ўйлаш имкониятига эга бўлиши лозим.

Шуни таъкидлаш керакки, айнан мактабда ўқувчилардаги китобхонликка бўлган иштиёқ пасаяди ёки аста секин йўқолиб боради. Бу шундан далолат берадики, ўқитувчилар ҳар бир синфда ўқувчининг ўқиш техникасига оид кўникмаларининг ривожланишини назорат қилиб борадилар. Бундай назорат ўқувчилар учун зерикарли бўлиб, уларни китоблардан бездиради. Ўқувчилар ўқитувчининг топшириғига кўра муайян китобни ўқийдилар, лекин улар учун мазкур асар умуман қизиқарли бўлмайди.

Ўқувчилар ўз хохиш-истакларига асосланган ҳолда бадиий адабиёт намуналарини танлаб ўқиганларидагина китобхонлик улар учун мароқли машғулотга айланади.

Биз қуйида ўқувчиларда китобхонликка бўлган қизиқишнинг пасайишига олиб келган сабабларни кўрсатишга ҳаракат қиламиз:

- ўқувчиларга оммавий ахборот воситаларининг кучли таъсир кўрсатаётганлиги, фан-техника тараққиёти, жумладан, турли гаджетларнинг пайдо бўлиши ва уларнинг кўрсатаётган таъсири;
- аксарият оилаларда болаларнинг китоб ўқишига мутлақо эътибор қаратилмаётганлиги;
- ўқувчилар мактабга борганларидан кейин ота-оналарнинг уларга китоб ўқиб беришга оид фаолиятларининг сусайиши, бунга эҳтиёж мавжуд эмас, деган фикрнинг қарор топганлиги;
- ўқувчиларга тизимли равишда китобхонлик фаолиятини шакллантириш механизмларининг мавжуд эмаслиги.

Ўқитувчилар бошланғич синф ўқувчиларини китоб билан мулоқотга ўргатишга аксарият ҳолларда рағбат билдирмайдилар. Чунки, кичик ёшдаги ўқувчиларни китоб билан мулоқот қилишга ўргатиш мураккаб педагогик ҳодиса ҳисобланади. Китобхонликка ўргатмасдан туриб эса уларда бадиий адабиёт намуналарига нисбатан қизиқишни шакллантириш имконсиз ҳисобланади.

**REFERENCES**

1. “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ibot qilish bo‘yicha komissiya tuzish to‘g‘risida”gi farmoyishi. Toshkent, 2017 yil 13 yanvar, “Xalq so’zi” gazetasi.
2. *SH. Mirziyoev /*Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo’lishi kerak. TOSHKENT - «O’ZBEKISTON» NMIU,- 2017
3. Sh. Mirziyoyev. “Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz”, Toshkent, O’zbekiston, NMIU, 2017 yil, 423-bet.
4. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 13 sentyabr kuni qabul qilingan PQ-3271 sonli “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutoaalasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ’ib qilish bo’yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to’g’risida”gi qarori.-T.: 2017 yil 13 sentyabr.
5. K. Qosimova va boshqalar. Ona tili o`qitish metodikasi.T. Noshir.2009.296-b.
6. S. Matchonov va boshqalar, “O’qish darslarida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish”, Noshir, T. 2010.14-b.
7. Kitobxonlik saodatga eltadi: metodik-bibliografik qo’llanma / Alisher Navoiy nomidagi O’zbekiston Milliy kutubxonasi; Tuzuvchi M.Baltabaeva; Muharrir SHukur Qurbon. - Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O’zbekiston Milliy kutubxonasi, 2017. - 78 b.

# GLOBALLASHUV DAVRIDA ILM FANNING O'RNI

**Abdug'aniyev Erali Nurali o'g'li**
Tarix fakulteti O'zbekiston milliy universiteti

https://doi.org/10.5281/zenodo.7598885

***Annotatsiya***. *Bilimlar taraqqiyoti kelajakda qanday bo`ladi? Globallashuv jarayonlari fan taraqqiyotiga qanday ta`sir qilishi mumkin? Mutaxassislarning fikriga qaraganda, globallashuv jarayonlari fanda ham global o`zgarishlarni keltirib chiqardi. Bular eng avvalo fanning mohiyati, strukturasi, funktsiyalaridagi – transformatsiya jarayonlari, ya`ni chuqur, yangi sifatiy o`zgarishlar bilan xarakterlanadi. Bularni eng avvalo fanning tobora global, internatsional mazmun kasb etib, globallashib borayotganida ko`ramiz.*

***Kalit so'zlar***: *Globallashuv; iqtisodiy; ijtimoiy; resurslar; global integratsiya; ta'lim tizimi; axborot; taraqqiyot; raqobatbardosh; zamonaviy texnologiyalar; professional bilim; innovatsiyalar; global raqobat; internet.*

## РОЛЬ НАУКИ В ЭПОХУ ГЛОБАЛИЗАЦИИ

***Аннотация.*** *Как будет происходить развитие знаний в будущем? Как процессы глобализации могут повлиять на развитие науки? По мнению экспертов, процессы глобализации вызвали глобальные изменения в науке. Прежде всего, для них характерны трансформационные процессы в сущности, структуре и функциях науки, т. е. глубокие, новые качественные изменения. Прежде всего мы видим это в том, что наука приобретает глобальное, интернациональное содержание и становится глобализированной.*

***Ключевые слова:*** *Глобализация; экономический; Социальное; Ресурсы; глобальная интеграция; система образования; Информация; разработка; конкурентоспособный; современные технологии; профессиональные знания; инновации; глобальная конкуренция; Интернет.*

## THE ROLE OF SCIENCE IN THE ERA OF GLOBALIZATION

***Abstract.*** *How will knowledge develop in the future? How can globalization processes affect the development of science? According to experts, the processes of globalization have caused global changes in science. First of all, they are characterized by transformational processes in the essence, structure and functions of science, i.e. deep, new qualitative changes. First of all, we see this in the fact that science is acquiring a global, international content and is becoming globalized.*

***Keywords:*** *Globalization; economic; social; resources; global integration; education system; information; development; competitive; modern technologies; professional knowledge; innovations; global competition; Internet.*

Bugungi dunyoda mamlakatlar iqtisodiy, ijtimoiy va texnologik tarmoqlar bilan chambarchas bog'langan bo'lib, bu ko'rinmas bog'lar natijasida moddiy va nomoddiy qadriyatlar milliy chegaralardan oshib butun dunyo bo'ylab yoyilganiga guvoh bo'lmoqdamiz. Globallashuv faqat iqtisodiy va siyosiy sohada emas, balki ijtimoiy, madaniy, huquqiy, ta'lim va turizm kabi ko'plab sohalarda ham o'z ta'sirini ko'rsatmoqdaki, bu xalqlar o'rtasida o'zaro madaniy hamkorlikni va madaniyatlararo muloqotni jadallashganida ko'rinadi. Garchi "globallashuv" tushunchasi ilk bor 1833 yilda Britaniyalik iqtisodchi Foter tomonidan resurslarni taqsimlash va ulardan foydalanish to'g'risidagi maqolasida ishlatilgan bo'lsada, global hayotning barcha

tarkibiy qismlarida globallashuvning muqarrar ta'siri sezilib turadi. Globallashuv deganda dunyoning barcha mamlakatlarining siyosiy, iqtisodiy va madaniy sohalarda har bir sohada milliy chegaralarni bekor qilish orqali birlashishi tushuniladi. Tushunchaning kengroq ta'rifi: "global integratsiya, mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy munosabatlarning o'rnatilishi va rivojlanishi, mafkuraviy tafovutlarga asoslangan qutblanishning barham topishi" sifatida ta'riflanadi. Shu nuqtai nazardan, rivojlanish yo'lidan ildam qadamlar bilan borayotgan mustaqil O'zbekiston uchun siyosiy, iqtisodiy va xalqaro ijtimoiy-madaniy mavqeini saqlab qolish va jadal rivojlanish jarayonida o'z oldida turgan afzalliklar va kamchiliklarni to'g'ri idrok eta olish qobiliyatiga ega bo'lish talab etiladi. Nafaqat ushbu jarayondan ta'sirlangan mamlakat qatorida bo'lish, balki jarayonga hissa qo'shishi va shunga mos ravishda strategiyani ishlab chiqa oluvchi mamlakatlar safida bo'lish bugungi davr talabidir. Bunga yagona yo'li murakkab globallashuv va axborotlashgan makonda ta'lim tizimini mos ravishda isloh qilishdir. Taraqqiyot va o'zgarishlar mamlakatning ko'plab sohalariga to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita ta'sir ko'rsatsa ushbu o'zgarishlardan ta'sirlanadigan, va taraqqiyot jarayoniga ta'sir ko'rsatadigan soha ta'lim tizimi hisoblanadi. Hozirgi vaqtda rivojlanish jarayonida bo'lgan davlatlar global globallashuv sharoitida o'zlarining mavjudligini saqlab qolish va global ishchi kuchini oshirish uchun ta'lim tizimini moslashtirish orqali raqobatbardosh kuchlarini saqlab qolish imkoniyatiga ega bo'lmoqdalar. Bilim va axborot odamlar va jamiyatlar uchun o'zgarishlarni tushunish, o'zgarishlarga moslashish va o'zgarishlarning salbiy ta'siridan himoyalanish uchun juda muhim va ma'naviy boylik bo'lib qolmoqda. Globallashayotgan dunyoda bilim va ma'lumotga ega bo'lish, tegishli ma'lumotni tanlab olish, o'zi tanlagan ma'lumotni amaliyotda qo'llash va ma'lumotni o'zi ishlab chiqarish imkoniyatiga ega bo'lgan shaxslar va millatlar o'rtasidagi tafovut tobora kuchayib bormoqda. Bilim va axborotni boshqarish va undan oqilona foydalanish dunyoda iqtisodiy va siyosiy kuchga ega bo'lishning asosiy omili bo'lib qolmoqda. Shunday sharoitda axborot va uning kafolati bo'lgan ta'limning qiymati oshib borishi tabiiy hol hisoblanadi. Axborot makonida bilim va ma'lumotni ishlab chiqarish va undan samarali foydalananishga imkoniyatga ega bo'lmagan xalqlar va davlatlar axborotni boshqarish kuchiga ega davlatlarga nisbatan taraqqiyotdan ortda qolmoqdalar. Dunyo miqyosida globallashuv va axborotning tez va arzon narxlarda oqib chiqishiga imkon beradigan aloqa texnologiyalari sohasi boshqa ko'plab sohalarda bo'lgani kabi ta'limga ham katta ta'sir ko'rsatdi. Buning natijasida ta'limning o'zgarishi, ta'lim ijtimoiy tuzilmani tashkil etuvchi eng asosiy tarkibiy qismlardan biri ekanligi bilan izohlanadi. Boshqa tomondan, ta'limning o'zi ijtimoiy tuzilishga ta'sir ko'rsatadigan muhim omillardan biridir. Shu sababli, bugungi kunda ko'plab rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar globallashuv natijasida yuzaga kelgan ijtimoiy o'zgarishlarning ehtiyojlari tufayli ta'lim tizimini takomillashtirish uchun bir qator yangiliklarni amalga oshirmoqdalar. Ushbu yangiliklar:

• Ta'lim tizimni axborotlashtirish;
• zamonaviy texnologiyalar asosida zamonaviy o'quv yurtlarini yaratish;
• o'qituvchilar professional bilim va mahorat darajasini oshirish;
• ta'lim muassasasini boshqarishdagi innovatsiyalar orqali o'quv va o'quv jarayonini takomillashtirish ko'rinishidagi turli xil siyosat va amaliyotlarni o'z ichiga oladi.

Bugungi global raqobat muhitida barqaror o'sish uchun davlatlar ushbu davr talablariga javob beradigan shaxslarni o'qitishi kerak. Shu sababli, mamlakatlar o'zlarining ta'lim dasturlarini tayyorlash jarayonida yuz beradigan o'zgarishlar va yangi jarayonlarni hisobga olishlari kerak.

Globallashuv asri bo'lmish XXI asrga qadam qo'ygan O'zbekiston uchun ushbu asr shubhasiz zamonaviy taraqqiyot, intellektual mulk, aqliy salohiyat hukmronlik qiladigan asrdir.

Respublikamiz 1 – Prezidenti I.Karimov o'zining qator chiqish va nutqlarida mustaqillikning rivoji, davlatimiz taraqqiyoti bevosita ilm-fan, ta'lim va fan uyg'unligi, ilm ahlining chuqur mushohadasi hamda yuqori darajasidagi mezoniga bevosita bog'likligini ta'kidlab o'tadi. "Biz farzandlarimizning nafaqat jismoniy va ma'naviy sog'lom o'sishi, balki ularning eng zamonaviy intellektual bilimlariga ega bo'lgan, uyg'un rivojlangan insonlar bo'lib, XXI asr talablariga to'liq javob beradigan barkamol avlod bo'lib voyaga yetish uchun zarur barcha imkoniyat va sharoitlarni yaratishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'yganmiz", - deya ta'kidlaganlar I.A.Karimov. Mutaxassislarning fikriga qaraganda, globallashuv jarayonlari fanda ham global o`zgarishlarni keltirib chiqardi. Bular eng avvalo fanning mohiyati, strukturasi, funktsiyalaridagi – transformatsiya jarayonlari, ya`ni chuqur, yangi sifatiy o`zgarishlar bilan xarakterlanadi. Bularni eng avvalo fanning tobora global, internatsional mazmun kasb etib, globallashib borayotganida ko`ramiz. Bu jarayon ikki yo`nalishda rivojlanayotganligi ta`kidlanmoqda. Bulardan birinchisi, fanning notijorat globallashuv yo`nalishi bo`lib, unda olimlar va turli o`quv yurtlari birgalikda ilmiy tadqiqot olib boradilar, o`zaro bilim almashish sodir bo`ladi. Ikkinchisi tijorat yo`nalishidagi fandagi globallashuv hisoblanadi. Bu yo`nalish asosan XX asrdan boshlandi va keyingi o`n yillarda dadil o`sib borayotganligi kuzatilmoqda. Bu yo`nalishdagi fan globallashuvi obyektiv asosga ega bo`lib, uning omillari bo`lib global moliyaviy va fond bozorlarining vujudga kelishi; halqaro raqobatning kuchayib global tus olishi; transmilliy korporatsiyalarning iqtisodiy faoliyat ko`lamining o`sishi; aloqa vositalari, shuningdek global "INTERNET" tarmog`ining rivojlanishi, yerning maxsus sun`iy yo`ldoshlarining uchirilishi hizmat qiladi. Tijorat yo`nalishidagi fan globallashuvida transmilliy korporatsiyalar va davlatlar chet eldagi ilmiy ishlanmalarni moliyalaydi va bu holat bugungi kunda o`sib bormoqda. Shuni ham aytib o`tish kerakki, bunday fandagi globallashuv jarayonlari ijobiy tomonlari bilan birga bir qator muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Ya`ni xalqaro al`yanslarning faoliyatida faqatgina iqtisodiy maqsadlarni ko`zlab, ilmiy tadqiqotlarni olib borish keng tus oladi, bu esa fundamental bilimlar taraqqiyotini susaytiradi. Shuningdek, xalqaro al`yanslar mahalliy ilmiy xodimlar o`rtasidagi qo`nimsizlik, ilmiy salohiyatning pasayishi, axborotlarning qo`ldan boy berilishi kabi oqibatlarga olib kelishi mumkin. Shunga qaramasdan, fandagi globallashuv ham obyektiv jarayon bo`lib, uning salbiy tomonlarini bartaraf etish uchun ilm - fan va har bir davlat o`rtasida mustahkam hamkorlik talab etiladi. Demak, aytish mumkinki, globalashuv jamiyat hayotining barcha sohalariga o`z ta`sirini o`tkazuvchi jarayondir. Global jarayonlar insoniyat oldidagi global muammolarni global – evolyutsionizm, sinergetik paradigmaga asoslangan fanni yanada rivojlantirish, bilim va texnologiyalarni innovatsion ishlab chiqarishga joriy etish asosidagina hal qilish mumkinligini ko`rsatmoqda.

**REFERENCES**

1. Inson taraqqiyoti ma`ruza.O`zbekistonda ta`lim: talab va taklif mutanosibligi. O`zbekiston. -T., 2007-2008.32-b.
2. Rakitov A.I. Nauka v epoxu globalni`x transformatsiy (rossiyskaya perspektiva). Nauka v Rossii: sostoyanie i perspektivi.- M.; 1997. S. 13.
3. Karimov I. YUksak ma`naviyat – engilmas kuch. T., Ma`naviyat. 2008. 113 - b.
4. O`zbekiston Respublikasi "Ta`lim to`g`risida" gi Qonuni. -T., 1997. 3-band.

5. Osnovi otkritogo obrazovaniya. Otv. Red. Soldatkin V.I. – T.1. RGI otkri`togo obrazovaniya. -M.: 2002.S 69-70.
6. Muxamedova Z. M, Paradigma gumanizatsii obrazovaniya T., 2004.S.12

*УДК.* **619.616.9 – 036.2:576.807.3**

# KUYDIRGI KASALLIGI

**A. S. Mengliev**
Termez agrotexnalogiyalar va innovatsion rivojlanish instituti (v.f.f.d)
**H.B.Annakulov**
Assistant of the Department of Veterinary and Silkworm Breeding. Termez  stitute of agro technologies and innovative development
**Raxmonov Murodbek Amirqul o'g'li**
**Sharapov Umrzoq Abdulmahmad o'g'li**
Termez agrotexnalogiyalar va innovatsion rivojlanish instituti 4-bosqich 416-guruh  talabalari
**Shoydulov Dilshodbek Ro'zimamatovich**
**Usanov Fozilbek Boxrom o'g'li**
2-bosqich 214-guruh talabalari

***https://doi.org/10.5281/zenodo.7603799***

***Annotasiya.*** *Kuydirgi kasalligi qo'zg'atuvchisini umumiy xarakteristikasi,* kasallik septik kechishi, *Bakteriologik diagnoz qo'yish, Mikroskopiya, Bac. anthracis ning Sof  kulturasini oziq muhitida ajratish, Serologik tekshirish usullari, Allergik tekshirish usuli va tekshirish muddatlar.*

***Tayanch iboralar:*** *Epizootiya, infektsiya, patogen, infektsion jarayon, infektsion kasallik, mutualizm, immunoreaktivlik, oqsil, rezervuar, zoonoz, zooantroponoz, antroponoz, moyil organizm, infektsiya xillari, alimentar infektsiya, ekzogen infektsiya, chang infektsiya, endogen infektsiya, virulentlik, transmissiv yo'l, gorizontal yo'l, vertikal yo'l, antigen, geterogen antigenlar, epitop, antitelo, immunitet omillari.*

# СИБИРСКАЯ ЯЗВА

***Аннотация.*** *Общая характеристика возбудителя сибирской язвы, септическое течение болезни, Бактериологическая диагностика, Микроскопия, Bac. Выделение чистой культуры сибирской язвы на пищевую среду, Серологические методы исследования, Аллергический метод исследования и сроки тестирования.*

***Ключевые слова:*** *эпизоотия, инфекция, возбудитель, инфекционный процесс, инфекционное заболевание, мутуализм, иммунореактивность, белок, резервуар, зооноз, зооантропоноз, антропоноз, восприимчивый организм, виды инфекции, алиментарная инфекция, экзогенная инфекция, пылевая инфекция, эндогенная инфекция, вирулентность, трансмиссивный путь, горизонтальный путь, вертикальный путь, антиген, гетерогенные антигены, эпитоп, антитело, иммунные факторы.*

# ANTHRAX DISEASE

***Abstract.*** *General characteristics of the causative agent of anthrax, septic course of the disease, Bacteriological diagnosis, Microscopy, Bac. Isolation of pure culture of anthracis in food medium, Serological test methods, Allergic test method and test periods.*

***Key words:*** *Epizootic, infection, pathogen, infectious process, infectious disease, mutualism, immunoreactivity, protein, reservoir, zoonosis, zooanthroponosis, anthroponosis, susceptible organism, types of infection, alimentary infection, exogenous infection, dust infection, endogenous infection, virulence, transmissible path, horizontal path, vertical path, antigen, heterogeneous antigens, epitope, antibody, immune factors.*

**Kuydirgi** (lot. - Febris carbunculosa; ingl.- Anthrax; ruscha - sibirskaya yazva) o‘tkir kechuvchi o‘ta xavfli infeksion kasallik bo‘lib, septitsemiya, og‘ir zaharlanish va karbunkulalar hosil qilish bilan kechadi, barcha turdagi qishloq xo‘jalik, uy, yovvoyi hayvonlar kasallanadi hamda u odamlarga asosan hayvonlar orqali osongina yuqadi.

**Tarixiy ma’lumot.** Kasallikni miloddan ancha oldin “fors olovi”, qadimgi yunon olimlari esa “ilohiy olov” deb ataganlar. Gippokrat, ibn Sino, Gomerlar ham bu kasallikni “yonayotgan ko‘mir” deganlar. Kasallikning katta epizootiyasi O‘rta asr va keyingi 200 yil davomida Yevropa, Amerika, Osiyo va Afrika qit’alarida kuzatilgan.

Ushbu kasallikni Sibirda hayvonlar va odamlarda birinchilar qatorida kuzatib, sibirskaya yazva (sibir yarasi) degan nomni rus olimi A. Eshke 1758 yilda va N. Nojevshikov 1762 yilda berganlar. S. S. Andrievskiy 1786-1789 yillarda ushbu kasallikning yuqumli ekanligini aniqlagan va 1788 yilda u o‘zini kasal hayvon qoni bilan zararlab, og‘ir kasallanadi va kasallik belgilari, kechishini va hayvonlar bilan odamlarda bitta qo‘zg‘atuvchi bo‘lishini isbotlaydi.

I. Peterson va N. F. Gamaleya esa kasallik qo‘zg‘atuvchisini qon so‘ruvchi hasharotlar bir hayvondan ikkinchisiga o‘tkazishi bo‘yicha xabar berganlar. 1849 yilda nemis olimi Pollender, 1850 yilda fransuz olimlari Rayne, Daven birinchi bo‘lib o‘lgan hayvonlardan ajratilgan kasallik qo‘zg‘atuvchisini ko‘rganlar. 1876 yilda R. Kox haqiqatan ham kasallik qo‘zg‘atuvchisini ajratgan va spora hosil qilishini isbotlagan. 1877 yilda Askole kasallikni pretsipitatsiya reaksiyasida (PR-Askole reaksiyasi) aniqlash usulini yaratgan.

1881 yilda kuchsizlantirilgan kasallik qo‘zg‘atuvchisidan L. Paster, 1883 yilda esa L.S. Senkovskiy kuydirgiga qarshi tirik vaksina yaratganlar. 1944 yilda N.N. Ginsburg tomonidan STI (Sanitarno-texnik institut), 1956 yilda GNKI va 1991-1992 yillarda S.G. Kolesov, N.A. Mixaylov Yu. Borisovich (VNIIVViM) kuydirgiga qarshi qo‘zg‘atuvchining batsilla shakli 55 shtammidan vaksina yaratgan.

S. G. Kolesov va G. I. Romanovlarning (1976) yozishicha, miloddan 463-452 yil avval qadimiy Rimda kuydirgi hayvonlarga katta talafot keltirgan va juda ko‘p odamlarning o‘limiga sabab bo‘lgan. O‘sha manbada miloddan 163 yil avval Italiyaga ushbu kasallik junli matolar bilan Galiyadan keltirilgani va kuydirgini Yevropaning bir qancha mamlakatlari hududlarida – 1758 va 1774 yillarda Finlandiyada, 1774 yilda Shvetsariyada, XVIII asrning 70 – yillarida Rossiyada, 1912 yilda Fransiya va Germaniyada 1926 yilda Polshada, Saksoniyada tarqalgani yozilgan.

Kuydirgining oldini olish uchun asosan unga qarshi emlash o‘tkazish talab etiladi. Buning uchun kuydirgi batsillasining 55 shtammidan tayyorlangan vaksina bilan barcha moyil hayvonlar (buzoqlar 3 oyligidan boshlab 1-marta, 6 oydan so‘ng 2-marta va barcha yoshdagi katta qoramollar har yili 1 marta 1ml dozada, qo‘zi, uloqlar 3 oyligidan boshlab 1-marta, 6 oydan so‘ng 2-marta va barcha yoshdagi katta qo‘y-echkilar har yili 1 marta 0,5 ml dozada va cho‘chqalar ham 3 oyligidan boshlab 1 ml dozada) va barcha yoshdagi katta cho‘chqalar har yili 1 marta 1 ml dozada teri ostiga emlanadi.

Kuydirgi bo‘yicha xavfli hududlarda har yili reja asosida barcha moyil hayvonlar semizligi, fiziologik holati hisobga olingan holda emlanishi zarur. Oriq, kasal va gipovitaminoz hayvonlar kuydirgiga qarshi emlanmasligi, buzoq, qo‘zi va cho‘chqa bolalari 3 oylik bo‘lgan zahoti emlanishi kerak. Emlangan hayvonlarni 14 kundan so‘ng so‘yish mumkin.

Veterinariya mutaxassislarining asosiy e’tibori kuydirgi o‘choqlarini hisobga olish, hayvonlarni so‘yishni, ayniqsa majburiy so‘yishni nazorat etishga qaratilishi va aholi o‘rtasida

ushbu kasallik bo‘yicha tushuntirish ishlari olib borishi zarur. O‘lgan hayvonlar tezda kuydirilib yo‘qotilishi, u yotgan joy dezinfeksiya qilinishi, so‘yilgan hayvon va uning mahsulotlari veterinariya nazoratidan o‘tishi talab etiladi. Hayvonlar va ularning mahsulotlarini tashish, qayta ishlash jarayonlari doimo mutaxassis nazoratida bo‘lmog‘i kerak. Fermalar o‘z vaqtida go‘ngdan tozalanishi va go‘ngni zararsizlantirish, joriy dezinfeksiya, dezinseksiya va deratizatsiya qilib turish hamda yaylov, suv ichadigan, hayvonlar to‘planadigan joylarni, ular haydaladigan yo‘llarni toza saqlash, fermani atrofini devor bilan o‘rash unga kirishda dezobaryer, sanitariya o‘tkazgich tashkil qilish, begona kishi va hayvonlarni fermaga kiritmaslik, barcha xodimlarni maxsus kiyim-kechak, poyafzal, bet-qo‘l yuvgich, dezinfektor vositalar bilan ta’minlash, yangi xarid qilingan hayvonlarni kuydirgi bo‘yicha sog‘lom xo‘jalikdan olish, ularni 1 oy davomida profilaktik nazoratda saqlash, fermaga faqat emlangan hayvonlarni kiritish kuydirgini oldini olishga yordam beradi.

- veterinariya mutaxassisining ruxsatisiz xo‘jalikka boshqa xo‘jalik va aholi punktlaridan hayvonlarni kiritmaslik hamda xo‘jalikda hayvonlarni bir joydan ikkinchi joyga o‘tkazmaslikni ta’minlash;

- sotib olinadigan hayvonlarni ushbu kasallik bo‘yicha sog‘lom xo‘jalikdan olish, keltirilgan mollarni 30 kunlik profilaktik karantinda saqlash, u davrda ularni brutsellyozga serologik tekshirish va faqat brutsellyozga seronegativ guruh mollarni podaga qo‘shish;

- ferma va aholiga tegishli mollarni hattoki yaylovda, umumiy sug‘orish joyida boshqa hayvonlar bilan qo‘shmaslik;

- buzoqlarni pasterlangan sut bilan boqish, fermani muntazam dezinfeksiya, dezinseksiya va deratizatsiya qilish, fermadagi barcha tur hayvonlarga to‘yimli ozuqalar berish, ularni rejali diagnostik tekshirish.

Ferma, poda, suruv, aholi punktida yoki boshqa korxonada moyil hayvonlar orasida ushbu kasallikka dastlabki diagnoz aniqlanishi bilan veterinariya mutaxassisi darhol bu haqda tuman veterinariya bo‘limini va sanitariya epidemiologiya nazorati xodimini xabardor qiladi. Kuydirgi kasalligiga laboratoriyaviy diagnoz hayvonlar orasida ferma, suruv yoki aholi punktida aniqlanishi bilan tuman veterinariya bo‘limi ushbu holat to‘g‘risida dalolatnoma yozadi va shu asosda tuman (shahar) hokimi qarori bilan ferma, suruv yoki aholi punktiga *karantin* qo‘yiladi. O‘choqdagi hayvonlarning tana harorati o‘lchanadi va hayvonlar 3 guruhga (kasal, unga gumon qilingan va shartli sog‘lom) bo‘linadi. Kasal hayvonlar davolanadi, sog‘lomlari vaksina bilan emlanadi. Sog‘lom, ammo zararlanganiga gumon qilingan hayvonlarning suti qaynatiladi, kasallaridan olingan sut yo‘qotiladi. Kuydirgiga qarshi kurash chora-tadbirlar rejasi va fermani sog‘lomlashtirish tadbirlari tasdiqlanishida nosog‘lom va xavfli hududlar belgilanishi kerak.

Karantin talablari bo‘yicha quyidagilar taqiqlanadi:

- karantin hududidan hayvon, uning mahsulotlarini (go‘sht, sut, yog‘, teri, jun, shox, tuyoq), ozuqalar (xashak, don), transport vositalarini chiqarish va ushbu hududga yuqorida ta’kidlanganlarni va begona kishilarni kiritish;

- hayvonni so‘yish, o‘lgan molni yorish, terisini archish, hayvonlarni guruhga to‘plash yoki almashtirish, jarrohlik ishlarini amalga oshirish;

- aholi punktida molbozor, ko‘rgazmalar, sport tadbirlari tashkil etish;

- umumiy joydan suv ichish.

- xo‘jalikdan go‘sht, sut, sut mahsulotlari, teri, jun, tuyoq chiqarish;

- kasal hayvon sutidan foydalanish, go‘shtga so‘yish.

*Sog‘lomlashtirish tadbirlarida* **d**ezobaryer va kechayu kunduz ishlaydigan *qorovullik posti* tashkil etiladi. Hayvon turgan binolar har kuni dezinfeksiya qilinadi. O‘lgan hayvon kuydiriladi. Qoldiq xashak, go‘ng va boshqa chiqindilar kuydiriladi. Kasallarni parvarish qilish uchun alohida odam ajratiladi va u maxsus himoya kiyimlari bilan ta’minlanadi. Kasal va kasalga gumon qilingan sigir suti qaynatilib, yo‘qotiladi. Shartli sog‘lom sigir suti qaynatilgandan so‘ng iste’molga yaroqli hisoblanadi. Hayvon o‘lgan joy 10% li o‘yuvchi natriy bilan dezinfeksiya qilinib, 15-20 sm chuqurlikda kovlanib, tuprog‘i 25% li faol xlorli ohak bilan aralashtirilib, 2 m chuqurlikka ko‘miladi va usti betonlanib, «Kuydirgi» belgisi va sana yozib qo‘yiladi. *Karantin* fermadan oxirgi o‘lgan yoki tuzalgan hayvondan 15 kun keyin, yakuniy dezinfeksiyadan so‘ng tuman hokimi qarori bilan olinadi. U yer tumanning xo‘jalik erlaridan foydalanish xaritasiga kiritilishi kerak. U yerda qurilish, meliorativ ishlari olib borish taqiqlanadi. Qoldiq xashak, go‘ng va boshqa chiqindilar kuydiriladi.

Kasallik chiqqandan oldingi go‘ng, shaltoq va boshqa chiqindilar 10% li ishqor bilan zararsizlantiriladi.

Dezinfeksiya uchun 10% li o‘yuvchi natriy, 4% li formaldegid, 10% li bir xlorli yod, 7% li vodorod peroksid, 2% li glyutar aldegid qo‘llaniladi.

Kuydirgi bilan kasallangan hayvonlar, ularning go‘shti, terisi, suti, juni va boshqa chiqindilari bilan aloqador kishilar 8 kun davomida tibbiyot xodimlari kuzatuvida bo‘ladi.

Tuproq qatlami ishqorli formal’degid bilan zararsizlantiriladi (10,0 formaldegid, 5 mg xlorli ohak 1m$^2$ yuza uchun). Go‘ng 2 yil mobaynida biotermik usul bilan zararsizlantiriladi. Fermadagi suyuq axlatlar 1 m$^3$ suyuq massaga 30 kg ammiak qo‘shib, 5 kun ichida zararsizlantiriladi. Shular bilan bir qatorda dezinseksiya va deratizatsiya tadbirlari ham o‘tkaziladi.

**REFERENCES**

1. Salimov X.S., Qambarov A.A. “Epizootologiya” darslik, 2016 y.
2. Parmanov M.P. va boshq., “Epizootologiya” darslik. T, 2010.
3. Parmanov M.P., “Epizootologiya”o’quv qo’llanma. T, 2002.
4. Parmanov M.P. va boshq., “Epizootologiya” O’quv qo’llanma. T, 2007.
5. Mamatova M.N. va boshq., “Xususiy epizootologiya” O’quv qo’llanma. T, 2006.
6. Matt J. Keeling & Pejman Rohani. “Modeling Infectious Diseases in Humans and Animals”, USA, 2007.

**Axborot manbalari**

1.www. Ziyo.net.uz.
2. www.veterinariya meditsinasi.uz
3. www.sea@mail.net21.ru
4. www.veterinary@actavis.ru
5.http: //www//infect/ru

# BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA SINF RAHBARINING PEDOGOGIK MAHORATI

**Xudaynazarova Dilbar Mo'xidjonovna**
Namangan viloyati To'raqo'rg'on tumani 51-umumiy o'rta ta'lim maktabi

https://doi.org/10.5281/zenodo.7603837

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada boshlang‘ich ta’limda sinf rahbarining ish tartibi, pedagogik mahorati va o‘quvchi bilan ishlash tartibi haqida yoritib berishga harakat qilindi.*

***Kalit so‘zlar:*** *Boshlang‘ich sinf, kasbiy mahorat, uzluksiz, innovatsion ta’lim, malaka oshirish.*

# PEDAGOGICAL SKILLS OF THE HEAD OF THE CLASS IN PRIMARY EDUCATION

***Abstract.*** *In this article, an attempt was made to shed light on the work order, pedagogical skills, and work order of the class leader in primary education.*

***Key words:*** *Elementary school, professional skills, continuous, innovative education, professional development.*

# ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ МАСТЕРСТВО РУКОВОДИТЕЛЯ КЛАССА В НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ

***Аннотация.*** *В данной статье предпринята попытка пролить свет на трудовой распорядок, педагогическое мастерство, трудовой распорядок классного руководителя в начальных классах.*

***Ключевые слова:*** *начальная школа, профессиональные качества, непрерывное, инновационное образование, профессиональное развитие.*

Har qanday murakkab zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari, integratsiyalar, fan sohasidagi olamshumul yangiliklar avvalo o‘qituvchi tomonidan o‘zlashtirilib, so‘ngra uning bilimi, saviyasi, qobiliyati evaziga o‘quvchplar ongiga va tafakkuriga yetkaziladi. O‘qituvchiga nisbatan qo‘llaniladigan “pedagogik mahorat” atamasi hech qachon o‘z mavqeini yo‘qotmaydi, balki tobora takomillashib, boyib va zamon talablariga mos o‘zgarib boraveradi. Barcha kasb – korlar tizimida o‘qituvchilik kasbi muhim ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. Zero, o‘qituvchi yosh qalblar kamolotining me’moridir. Bugun u yoshlarni g‘oyaviy – siyosiy jihatdan chiniqtirib, tabiat, jamiyat, tafakkur taraqqiyoti, qonuniyatlarini o‘rgatar ekan, avvalo, u yosh avlodni kelajak mehnat faoliyatiga tayyorlashi, kasb – hunar egallashlariga ko‘maklashishi va jamiyat uchun muhim bo‘lgan ijtimoiy – iqtisodiy vazifani hal etishga chog‘lamog‘i darkor. Ana shu ma’suliyat o‘qituvchidan o‘z kasbining mohir ustasi bo‘lishni, o‘quvchi - yoshlarga tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatib, ularning qiziqishi, qobiliyati, iste’dodi, e’tiqodi va amaliy ko‘nikmalarini har tomonlama rivojlantirishning optimal yo‘llarini izlab topadigan kasb egasi bo‘lishni talab etadi. Buning uchun pedagogik mahorat fani o‘qituvchidan doimo kasbiy mahorati ustida izlanish uchun, unga turli shart – sharoitlar yaratishi, kerakli moddiy va ilmiy – metodik yordam ko‘rsatishi hamda o‘qituvchining ijodiy tashabbuskorligini oshirishiga ko‘maklashadi.

So’nggi yillarda sinf rahbarining faoliyati turli shakl va metodlar bilan boyitildi. Tarbiyaviy ishlarni tashkil etish va o’tkazishda o’quv yurti jamoat tashkilotlarining roli tobora oshirildi. Ushbu ishni tayyorlashdan maqsad o’quv yurtining sinf rahbariga hozirgi vaqtda mamlakatda uzluksiz ta’limning yagona tizimini yaratish borasidagi ish uslublarini har tomonlama keng joriy qilish va metodik yordam ko’rsatishdan iboratdir. Ideologik muassasalar

sifatida o'quv yurti oldiga muhim tarbiyaviy vazifalar qo'yilgan, bu esa ayni vaqtda har bir sinf rahbarining asosiy vazifalaridan biri xisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining bundan keyingi rivojlanishi bevosita ta'lim-tarbiya natijasiga bog'liqligi barchaga ayon. Ta'lim-tarbiyani takomillashtirmay, ma'naviy boy barkamol insonni tarbiyalash mushkul. Bu haqda O'zbekiston Respublikasining Ta'lim to'g'risidagi Qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturida belgilab berilgan ijtimoiy vazifalardan kelib chiqib yosh avlod ta'lim-tarbiyasini tashkil etishni kundalik hayotning o'zi talab qilmoqda. Jamiyatda o'qituvchi, birinchidan, o'sib kelayotgan avlodni tarbiyalash, ularga har tomonlama bilim berishdan iborat bo'lgan faxrli hamda ma'sul vazifalarni bajaradi. Yurtboshimiz ham ta`lim-tarbiyani dolzarb masala sifatida ko`tarmoqda. Ya`ni, mustaqil dunyoqarashga ega, ajdodlarimizning bebaho merosi va zamonaviy taffakurga tayanib yashaydigan barkamol shaxs – komil insonni tarbiyalashdan iborat degan fikrlari yana bir bor boshlang`ich ta`lim o`qituvchilariga ma`suliyat yuklaydi va vazifalarni ado etish pedagogning alohida ijtimoiy roli va uning jamiyatdagi faxrli o'rnini belgilaydi. Jamiyatda o'qituvchi faoliyati yuksak baholanmoqda va uning obro'si yuksaltirilmoqda.

Sinf rahbarining muhim vazifalaridan biri-bu o'quvchining o'qishga bo'lgan havasi, e'tiqodi va bilim, qobilyatini rivojlantirish, kasb-hunarga bo'lgan layoqatini, yosh va ruhiy xususiyatlar asosida rivojlantirish, har bir o'quvchining bo'lg'usi hayoti rejalarini amalga oshirish, o'quvchilarning salomatligini muhofaza qilishdan iborat. Faollarga ishonish, ularning sinf jamoasi orasida obro'sini ko'tarish, o'z vaqtida ularga tegishli yordam ko'rsatish sinf rahbarining bevosita asosiy vazifasidir. Shuningdek, sinf rahbarining tashkilotchilik funksiyasi tarbiya jarayonida muhim vosita sanaladi. Chunki, tashkilotchilik tushunchasining o'zi keng ma'noga ega. Maxsus bir maqsadni ko'zlab u yoki bu ishni tadbiriy choralarni tashkil etish sinf rahbaridan katta malaka va maxsus mahoratni talab qiladi. Tashkilotchilik funksiyasi bir necha elementlarga bog'liqdir:

A. O'tgan ishlarni tashkil qilish, uning muvaffaqiyati yoki muvaffaqiyatsizligi sabablarini belgilab olish.

B. Sinfda o'tkaziladigan barcha ishlar tarbiyaviy harakterga ega bo'lib, ma'lum maqsadni ko'zlab o'tkazilishi va sinf rahbari turli tarbiyaviy ishlarni o'tkazishda oldin shu ishning modelini tuza bilish lozim.

D. Sinf rahbari oldiga qo'yilgan maqsadga yetishish uchun o'z oldiga aniq vazifa qo'ya bilish lozim.

E. Sinf rahbari har bir tadbiriy choralarni amalga oshirishda o'qituvchi va o'quvchilarning qobiliyatlariga qarab, vazifalarni taqsimlash, ma'lum reja asosida tarbiyaviy tadbirlarning o'tazish o'rni, vaqti, soati, javobgar shaxslar va tizimligini aniqlash lozim.

Tarbiyaning maqsadlari, vositalari va natijalari o'rtasida, shuningdek, tarbiyalanuvchi va tarbiyachi tafakkuri, motivlari o'rtasida g'oyat murakkab bog'liqlik bor. Kattalarning maqsadi, odatda, yoshlarning maqsadlari (hatto strategik maqsadlari) bor. O'quvchining rivojlanish mantiqi, uning tafakkuri, harakatlari bitta nuqtai nazarda, tarbiyachining mantiqi boshqa nuqtai nazarda turishi mumkin. Bunday variantda hech qanday tarbiyaviy ta'sir ko'rsatib bo'lmaydi. Tarbiyaviy ishlarning sifat va samaradorligi, avvalo tarbiyachining g'oyaviy ishonchiga va siyosiy ongining darajasiga bog'liq.

Sinf rahbari o'zining g'oyaviy-siyosiy ongini oshiradi. Bu sinf rahbariga bolalarni onglilik ruhida tarbiyalashga, ular orasiga begona ideologiya va yomon xulqning kirib borishiga qarshi kurasha olish imkoniyatini bera oladi. Sinf rahbarining axloqiy obro'si g'oyat darajada

yuqori bo'lishi ham bu o'rinda muhimdir. Sinf rahbari ana shundagina tarbiyaviy ta'sir kuchiga ega bo'ladi. Tarbiyachining shaxsiy fazilatlari, ma'naviy qiyofasi o'quvchilar ongining va xulqining shakllanishida katta ta'sir ko'rsatadi. Sinf rahbari uchun kasbiy malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishning o'zi yetarli emas. O'z tarbiyaviy faoliyatida yuksak darajadagi fuqarolik fazilatlari, intizomi va odamiyligi, axloqiy sifatlari bilan ham ta'sir o'tkazadi.

Tarbiyachilik texnikasi sinf rahbarining asosiy qurolidir. Chunki tarbiyachilik talanti juda ko'p sifatlarni chuqur bilish, keng fikr doirasi, ishga jon dildan ko'ngil qo'yish bolalarga bo'lgan cheksiz muhabbat, muomalada nazokatlilik, qalb yoshligi, serzavq, temperament, aql va odoblilik namunasi, aloqada nazokat va sipolik, vazminlik va kamtarlik kabi fazilatlarning bo'lishini taqozo qiladi. Bunda yana tarbiyachilik texnikasi qo'shilsa ishda muvaffaqiyat ta'minlanishi tabiiydir. Pedagogik faoliyatda vositalar, maqsadlar va natijalarning nisbatini doimo tashkil qilib borish zarur. Ular uzviy birlikni tashkil etadi, bir – biriga bog'liq bo'ladi va alohida tarzda amalga oshirilmaydi. Maqsadni amalga oshirish usuli – bo'lajak natijadir. Natija yangi vositalarni tanlash, yangi maqsadlarni qo'yish uchun amaliy asos hisoblanadi. Tajribada ma'lum darajada qo'llanilgan har qanday vosita natija beradi, hatto biror sababga ko'ra maqsad aniq ifodalanmagan bo'lsa ham natija bervermaydi.

Tajribada mavjud bo'lgan pedagogik vositalarning ikkitasini ko'rib chiqamiz.

Birinchisi: har qanday pedagogik vosita hamisha bir qator boshqa vositalar, usullar, shartlar bilan bog'liq bo'ladi, ular pedagogik jarayoning muayyan bosqichida ta'sir ko'rsatish natijasini belgilab beradi. Masalan rag'batlantirish bir xil jarayonlarni tezlashtirish va boshqarishga to'siqnlik qilish, turli salbiy va ijobiy hissiyotlarning turli – tuman ko'rinishlarini vujudga keltirishi mumkin.

Ikkinchi: ayrim vositalarni qo'llanish pedagogning ular ta'sirini, mumkin bo'lgan o'zgarishini anglash qobiliyatlariga butunlay bog'liq bo'ladi. Jamoa muomala sharoitida vositalarni qo'llash minut sayin o'zgarib turadigan vaziyatni hisobga olish zarurligini taqazo qiladi.

Pedagoglarda biz albatta oliyjanoblik hissini tarbiyalashimiz shart. Oliyjanoblik qalbning o'ziga xos holatidir. Bu holat insonda sokinlik, hurmat, mehr, g'urur hislarining qo'shilishidan hosil bo'ladi. Pedagogning o'quvchilarga bo'lgan munosabati mehr, hayrihohlikdan iborat bo'lishi kerak. Ma'lumki rivojlanish uchun yordam berish murakkab jarayon bo'lib, o'quvchilar oldgiga qo'yib o'zi chetda qarab turishi va faqat shu talablar qanday bajarilayotganligini kuzatib borishi yetarli degan xulosaga kelgan pedagoglar katta xatoga yo'l qo'yadilar.

Yuqorida ta'kidlangan fikrlar va boshqa nomutanosibliklarning ko'pchiligi ta'lim mazmuniga borib taqaladi. Demak, o'qituvchilarni tayyorlash ishida eng dolzarb va murakkab masalalardan biri – Davlat ta'lim standartlari doirasidagi mazmunni tanlab olish, uning mantiqiy izchilligi, uzviyligi, uzluksizligi va ma'lum ma'noda yetarli va zarurligini ta'minlash hisoblanadi. Chunki bugun qanday ta'lim mazmunining tanlab olinishi va o'rganilishi bilan tayyorlayotgan mutaxassislarimizning tayyorgarlik darajasi bilan bevosita bog'liq. Agar ta'lim mazmuni to'g'ri tanlab olinmasa, har qanday takomillashgan shakl, metod va vosita ham ko'zlangan umumiy va o'quv maqsadlariga erishishimizga kafolat bera olmaydi.

Tahlillarimiz ta'lim mazmunining yetarli va zarur darajasi:

- mutaxassis egallab turgan lavozimiy vazifalarini talab darajasida to'liq bajarishiga;
- mutaxassisning bir ishlab chiqarish o'rnidan ikkinchisiga gorizontal va vertikal tekisliklarda o'tishiga;

- mutaxassis ish o'rnini o'zgartirmagan holda sohaga kirib kelayotgan yangi texnika va texnologiyalarni o'zlashtirishiga;
- o'zi va safdoshlarining faoliyatini to'g'ri baholashga hamda jamoaga moslashib faoliyat ko'rsatishiga;
- ekstremal vaziyatlarda tezkor maqbul qarorlar qabul qilishiga;
- mustaqil ravishda ijodiy faoliyat bilan shug'ullanish va shu kabilarga imkon berishga ko'ra tanlab olinishi zarurligini ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, aniqlangan bo'shliqlarni hisobga olgan holda o'qituvchilarning malakasini oshirish tizimi pedagogik mahoratni oshirish bo'yicha qo'yidagi yo'nalishlarga e'tibor berish lozim: 1. Pedagog kadrlarning pedagogik, psixologik tayyorgarligini butun choralar bilan kuchaytirish, malaka oshirish jarayonida insonning imkoniyatlari haqidagi yangi ilmiy, nazariy, psixologik, pedagogik axborotlarni o'rganishga alohida e'tibor berish; 2. Mashg'ulotlarda o'qituvchining tarbiyachilik mahoratini oshirishga, tarbiya nazariyasi, metodikasi va amaliyotiga oid yangi axborotlarni berishga yo'naltirish, o'qituvchilarni o'quvchilarda mustaqil fikrlashga, faoliyat ko'rsatishga, atrofda sodir bo'layotgan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy o'zgarishlarga baho bera olishga o'rgatuvchi metodlar bilan qurollantirish; 3.O'quv jarayonida axborot kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash, pedagog kadrlarni tayyorlovchi unversitet, pedagogik institutlari va pedagogika kallejlari faoliyati bilan malaka oshirish tizimi o'rtasidagi hamkorlikni yo'lga qo'yish; 4.Malaka oshirishda olgan yangiliklarni amaliyotda qo'llay olishlarini, ta'lim jarayoniga tadbiq eta olishlariga erishish maqsadida umumiy o'rta ta'lim maktablari bilan hamkorlik rejalarini tuzish, metodik yordam berish, o'qituvchilarning ta'lim sohasidagi har qanday o'zgarishlar va yangiliklarga tayyorlash.

**REFERENCES**

1. Абдуллаев С. Х. Малака ошириш таълим муассасаларида ҳамкорликда бошқарув //Современное образование (Узбекистан). – 2016. – №. 12. – С. 78-83.
2. Mavlonova R., B. Normurodova, N. Rahmonqulova, Tarbiyaviy ishlar metodikasi.- T.:"Tib-kitob", 2010.

MUNDARIJA/ TABLE OF CONTENTS/ СОДЕРЖАНИЕ


| | | |
|---|---|---|
| **1.** | TARIX FANINI O'QITISHDA TURLI USULLARDAN FOYDALANIB INTEGRATSIYANI TAMINLASH<br>*Seytekova Ayzoda Jaksilikovna* | 5 |
| **2.** | ONA TILI VA ADABIYOT DARSLARIDA TURLI XIL INNOVATSION TEXNALOGIYALARDAN FOYDALANISH<br>*Niyozaliyeva Nigora Ravshanovna* | 9 |
| **3.** | BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING MATEMATIK MALAKALARINI RIVOJLANTIRISHDA INTERFAOL METODLARNING AHAMIYATI<br>*Davatova Oysifat Xakimovna* | 12 |
| **4.** | HAMSHIRALIK ISHI ASOSLARI FANINI O'QITISHDA INOVATSION TEXNOLOGIYALARNING O'RNI<br>*Palvanova Dilnoza Husan qizi* | 16 |
| **5.** | TA`LIM JARAYONIDA MAKTABLARDA BIOLOGIYA VA KIMYO FANLARINI O`QITISH VA VAZIFALARI<br>*Komilova Mohinabonu Bobir qizi*<br>*Abdullayeva Nazokat Amrullayevna* | 20 |
| **6.** | TA'LIMDA TEXNOLOGIK JARAYONLAR HAQIDA<br>*Muhammadjonova Zarnigor Adxamjon qizi* | 24 |
| **7.** | INFORMATIKA DARSLARINI OLIB BORISHDA O'YIN TEXNALOGIYALARINNG AHAMIYATI<br>*Matkarimova Nazokat Yo'ldashevna* | 26 |
| **8.** | TA'LIMDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING ILMIY ASOSLARI<br>*Habibullayeva Mohira* | 29 |
| **9.** | BOSHLANG'ICH SINFLARGA MATEMATIKA FANINI O'QITISH METODIKASI VA DARS JARAYONIDA NOAN'ANAVIY - NOODATIY USULLARDAN FOYDALANISH USULLARI.<br>*Babekbaeva Baxtigul Muratbaevna* | 32 |
| **10.** | UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA MATEMATIKA FANINI O'QITISHDA AXBOROT VA INAVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH<br>*Davletbayeva Dilafruz Yerdashevna* | 40 |
| **11.** | MATEMATIKA FANINI O'QITISHNING METODIKASI, MAZMUNI VA VAZIFALARI<br>*G'anijonova Nozimaxon Paroxiddin qizi*<br>*Jumaboyeva Dildora Shaxobiddin qizi* | 47 |
| **12.** | INFORMATIKA FANINI TURLI INNOVATSIYA BILAN O'QITISH HAQIDA<br>*Jo'raxonov Faruxbek*<br>*Jumaboyeva Dildora* | 51 |

| | | |
|---|---|---|
| 13. | MATEMATIKA FANINI O'QITISH JARAYONIGA INNOVATSION YONDASHUV HAQIDA<br>Foziljonov Asadbek Akromjon o'g'li<br>Ikromova Husnidabonu Shoyatbek qizi | 55 |
| 14. | MAKTABDA MATEMATIKA O'QITISHNING MAZMUNI VA VAZIFALARI HAQIDA<br>Abdumajidova Mubina Mirzohidjon qizi<br>Muhamadjonova Gulshoda Farhodjon qizi | 58 |
| 15. | ONA TILI VA ADABIYOT DARSLARINI OLIB BORISHDA ZAMONAVIY PED TEXNOLOGIYALARNING AHAMIYATI<br>Norova Sohiba Sulaymonovna | 61 |
| 16. | UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA JISMONIY TA'LIM-TARBIYA MUAMMOLARI<br>Hamroyeva Dilrabo | 64 |
| 17. | UMUMTA'LIM MAKTABLARDA MATEMATIKA FANINING METODOLOGIK ASOSLARI<br>Istamova Mohinur | 68 |
| 18. | MATEMATIKA DARSLARIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH<br>Najimova Zarina Raxim qizi | 71 |
| 19. | UZBEKISTAN STATE UNIVERSITY OF PHYSICAL EDUCATION AND SPORTS<br>PEDAGOGICAL TECHNOLOGY OF QUALIFYING FOR PARA ATHLETICS AT THE STAGE OF MULTI-YEAR PREPARATION<br>Abdiey Sherzod Abdurahmonovich<br>Odilov Ruhiddin Fahriddinovich<br>Kenjayeva Xilola Azizxodjayevna<br>Kushbakova Sevara Eshboyevna | 74 |
| 20. | BOLALARDA NEGATIVIZM<br>Yaxyoyeva Muxayyo Hikmatullo qizi | 80 |
| 21. | YANGI O'ZBEKISTONDA INKLYUZIV TA'LIMNI RIVOJLANISHI<br>Eshqo'ziyeva Sitora Rustam Qizi | 83 |
| 22. | BIATLONCHILARNI MUSOBOQALARGA TAYYORLASHDA CHIDAMLILIGINI TARBIYALASHNING ASOSIY USULLARI<br>Karimov Farrux Muxiddin o'g'li<br>Nosirov Sardor To'lqinjon o'g'li<br>Halimov Fotima Karim qizi | 87 |
| 23. | МЕТОДИКА ИЗУЧЕНИЯ УРАВНЕНИЙ ВЫСШИХ СТЕПЕНЕЙ<br>Юлдашева Феруза Эрдановна | 91 |
| 24. | INFORMATIKADA PYTHON DASTURLASH TILI - ZAMON BILAN HAMNAFAS<br>Turayeva Ziyodaxon<br>Jumaboyeva Dildora | 97 |

| | | |
|---|---|---|
| 25. | ISBOTLASHGA DOIR ALGEBRAIK MASALALAR HAQIDA TUSHUNCHALAR<br>To'lanova Ozodaxon Faxriddin qizi<br>Temirov Otabek Mamathoja o'g'li | 100 |
| 26. | TA'LIMDA TEXNOLOGIK JARAYONLAR HAQIDA<br>Jurayeva Nargiza Abdulxapizovna | 103 |
| 27. | HEURISTICS IN ARCHITECTURE. (HEURISTIC METHODS).<br>Makhamova Makhbura | 105 |
| 28. | ONA TILI VA ADABIYOT DARSLARIDA FANLARARO ALOQADORLIKNING AHAMIYATI<br>Alimuhamedova Shahnoza G'ayratovna | 110 |
| 29. | BOSHLANG'ICH SINFLARGA TABIIY FANLARNI O'QITISHDA STEAM TA'LIM DASTURINING AHAMIYATI.<br>Ergashova Mo'taram Sa'dullayevna | 113 |
| 30. | БОЛАЛАР ФОЛЬКЛОР ЖАНРЛАРИ ВА ХАЛҚ ҚЎШИҚЛАРИ.<br>Жумаева Шохидахон Шавкатовна | 116 |
| 31. | MATEMATIKA DARSLARIDA BILISHNING TURLARI VA XULOSA CHIQARISH METODLARI<br>Yarbobayeva Muqaddas Mingboyevna | 119 |
| 32. | АНАЛИЗ ТРЁХ ПОСЛЕДНИХ ИГР В АПЛ ЛОНДОНСКОГО «АРСЕНАЛА»<br>Бобомурадов Б.К<br>Миразизов М.М | 124 |
| 33. | ЭШҚОБИЛ ШУКУР ШЕЪРИЯТИДА БАДИИЙ ОБРАЗ ТАКОМИЛИ<br>Эргашова Садоқат Эшмамат қизи | 129 |
| 34. | TURKISTON MILLIY OZODLIK HARAKATLARI TARIXSHUNOSLIGI (XIX ASR OXIRI XX ASR BOSHLARIDA)<br>Norbekov Suhrob Farxod o'g'li | 132 |
| 35. | МЫСЛИТЕЛИ О ЧЕЛОВЕКЕ, ЕГО ПРИРОДЕ И ФАКТОРЫ СОЦИАЛЬНОГО ВОСПИТАНИЯ<br>Нуруллаева Дж.С | 137 |
| 36. | MAKTABDA BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING BILIMINI BAHOLASHDA PIRLSNING AHAMIYATI<br>Axmedova Nurjaxon Amonovna | 141 |
| 37. | BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKA O'QITISH METODIKASI<br>Mo'minova Dilrabo Umaraliyevna | 144 |
| 38. | ZAMINDA BIOLOGIK O'SIMLIKLAR DUNYOSI HAQIDA<br>Abdiazizova Himoyat Adham qizi<br>Ibodullayeva Durdona Ozod qizi | 148 |

| | | |
|---|---|---|
| 39. | PROPER NUTRITION IS THE GUARANTEE OF HEALTH<br>*Ilhom Tolkunbayevich Dzhorayev* | 150 |
| 40. | MODEL VA MODELLASHTIRISH<br>*Shodiyeva Nasiba Ro'zimurod qizi* | 154 |
| 41. | BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING FIKRLASHINI OSHIRIB BORISHDA O'YINLARNING AHAMIYATI<br>*Alimova Arofat Mavlonovna* | 160 |
| 42. | BOSHLANG'ICH SINFLARDA DARSLARNI AXBOROT TEXNALOGIYALARIDAN FOYDALANGAN HOLDA TASHKIL ETISH<br>*Qo'chqarova Mavjuda Abdimannobovna* | 164 |
| 43. | BOSHLANG'ICH SINFLAR MATEMATIKA FANIDAGI GEOMETRIK MATERIALNING MAZMUNI<br>*Sobirova Dilfuza Abdimannobovna* | 167 |
| 44. | METHODOLOGY FOR USING GAMES IN TEACHING FOREIGN LANGUAGES<br>*Jalalova Sevara Janabay kizi* | 171 |
| 45. | BOSHLANG'ICH SINFLARNING MATEMATIKA DARSLARIDA MATEMATIK NUTQNI RIVOJLANTIRISH<br>*Xalilova Feruza Mirshavkatovna* | 175 |
| 46. | XUSUSIY TA'LIMNING JAMIYATDAGI O'RNI<br>*Allaberganov Xusniddin Xushnudovich*<br>*Nuriddinov Asilbek Farhod o'g'li*<br>*To'xtayev Sherxon Nuridin o'g'li* | 180 |
| 47. | ТАКРОР ИШЛАБ ЧИҚАРИШ ЖАРАЁНИДА ИНСОН КАПИТАЛИНИ ТАДҚИҚ ҚИЛИШ БОРАСИДАГИ НАЗАРИЙ ЁНДАШУВЛАР<br>*Мамажанова Саида Воҳабжоновна*<br>*Шарафиддинов Нозим Ўктам ўғли* | 184 |
| 48. | ИҚТИСОДИЙ ЎСИШ МАКРОИҚТИСОДИЙ БАРҚАРОРЛИКНИНГ ПИРОВАРД НАТИЖАСИ СИФАТИДА<br>*Мамажанова Саида Воҳабжоновна*<br>*Шарафиддинов Нозим Ўктам ўғли*<br>*Убайдуллаева Гўзалхон Муродқосим қизи* | 193 |
| 49. | РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТНИ ШАКЛЛАНТИРИШДА ЗАМОНАВИЙ ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИНГ ҚЎЛЛАНИЛИШИ ВА УНИНГ АҲАМИЯТИ<br>*Қодирова Дилафруз*<br>*Шарафиддинов Нозимжон* | 199 |
| 50. | TEXNOLOGIYA FANI O'QITUVCHILARINI TAYYORLASH JARAYONIDA INNOVATSION YONDASHUV ASOSIDA INTERFAOL METODLARNI QO'LLASH<br>*Do'syorova Ziragul Abdurazzaqovna* | 205 |
| 51. | MATEMATIKA FANINI O'ZLASHTIRISHDAGI TALABALAR | 210 |

| | | |
|---|---|---|
| | O‘RGANISH QOBILIYATINING TIPOLOGIK XUSUSIYATLARI HAQIDA<br>*Mahmudova Mohlaroyim Abduvalijon qizi*<br>*Mamajonova Hayotxon Hasanboy qizi* | |
| 52. | MATEMATIKA DASRLARIDA O‘QUVCHILAR TA’LIMI HAQIDA TUSHUNCHALAR<br>*Kayumova Sadoqat Nosirbek qizi*<br>*Jumaboyeva Roziya* | 213 |
| 53. | TEACHING METHODOLOGY BY COMPARING ENGLISH GRAMMAR TO NATIVE LANGUAGE GRAMMAR<br>*Abdurakhmanova Odila Gayratillayevna* | 215 |
| 54. | BOSHLANG’ICH SINF O’QUVCHILARINING MATEMATK TAFAKKURINI OSHIRISHDA MATEMATIK ERTAKLARNING AHAMIYATI<br>*Sulaymanova Shoxira O‘tkirovna* | 217 |
| 55. | MODAL VERB THEORY IN ENGLISH<br>*Madrakhimova Dilrabo Jobilovna* | 220 |
| 56. | BOSHLANG’ICH SINF DARSLIKLARIDAGI MAVZULAR VA ULARNING O’QUVCHI YOSHIGA MOSLIK DARAJASI<br>*Choriyeva Zulfiya Bahodirovna* | 222 |
| 57. | UMUMTEXNIKA FANLARINI O‘QITISHDA MASALALAR YECHISHNING O‘RNI VA AHAMIYATI<br>*Xaydarqulov Otabek* | 226 |
| 58. | BIOLOGIYA FANINI O'QITISHDA ZAMONAVIY INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH SAMARASI<br>*Annamuratova Zuhra Bazorovna* | 229 |
| 59. | BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA SINF RAHBARINING PEDOGOGIK MAHORATI<br>*Úsenova Elmira Japbar qizi* | 232 |
| 60. | PIRLS - MATNNI O‘QISH VA TUSHUNISH DARAJASINI BAHOLASHNING METODIK TAMOYILLARI<br>*Qilichova Gulnoza*<br>*Eshonqulova Lobar* | 235 |
| 61. | BIOLOGIYA FANINI O'QITISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINI O’RNI VA AHAMIYATI<br>*Mahkamov Muhriddin Olimjonovich* | 238 |
| 62. | ONA TILINI SAMARALI O'QITISH METODIKASI<br>*Halimova Nilufar Komilovna* | 242 |
| 63. | PIRLS XALQARO BAHOLASH TADQIQOTLARIDA IJOBIY NATIJAGA ERISHISHING METODIK TAMOYILLARI<br>*Madrimova Sevara Umidbekovna*<br>*Iskandarova Muyassar Kadam qizi* | 245 |
| 64. | SHAHAR SUV TA’MINOTI TIZIMINING GIDRAVLIK | 248 |

| | | |
|---|---|---|
| | HISOBLASH HAQIDA TUSHUNCHALAR<br>Sayfullayeva Muxlisa Iskandar qizi | |
| 65. | BOSHLANG'ICH SINF ONA TILI DARSLARIDA INTERFAOL DIDAKTIK O'YINLARDAN FOYDALANISH<br>Egamkulova Xilola Ergashaliyevna | 251 |
| 66. | BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARI NUTQINI RIVOJLANTIRISH USULLARI<br>Bobozoda Nargis Mirzoyevna | 254 |
| 67. | O'QITUVCHILARNING PEDAGOGIK MAHORATI TAJRIBASIDA TA'LIM METODLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH<br>Sidiqova Tojinisa Sotiboldiyevna | 256 |
| 68. | BOSHLANG'ICH MATEMATIKA DARSLARIDA NOSTANDART MASALALAR BILAN ISHLASH<br>Tursunova Sadoqat Abdumajidovna | 259 |
| 69. | ПРИМЕНЕНИЯ ВЫЧЕТОВ ДЛЯ А - АНАЛИТИЧЕСКИХ ФУНКЦИИ<br>Аноров Обиджон Умаралиевич<br>Султанова Фатимахон Эргашевна | 262 |
| 70. | BOSHLANG'ICH SINF DARSLARINI SAMARALI TASHKIL ETISHDA QO'LLANILADIGAN INTERFAOL METODLAR<br>Mirvohidova Fotima Abbosovna | 269 |
| 71. | ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИГР НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ<br>Мусаева Дилором Бегматовна | 272 |
| 72. | ЭРКАК / АЁЛ НУТҚИДАГИ ЭМОТИВ ЖУМЛАЛАР<br>Боймуродов Ғолиб | 275 |
| 73. | TARIX DARSLARINI TASHKIL ETISHDA INAVATSION USULLARDAN FOYDALANISH METODIKASI<br>Xo'jakeldiyeva Maxsuda Sindarovna | 277 |
| 74. | BUGUNGI KUNDA EKOLOGIYA BUZILISHINING INSON SALOMATLIGIGA TA'SIRI<br>Zebo Ollaberganova Safarbayevna<br>Shermetova Nafosat Shermamat qizi<br>Davletova Ra'no Yo'ldoshevna | 284 |
| 75. | ИСПОЛЬЗОВАНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ИНТЕГРАТИВНЫХ МЕТОДОВ ПРИ ОРГАНИЗАЦИИ УРОКОВ РУССКОГО ЯЗЫКА<br>Аляханова Хуршида Ахатовна | 287 |
| 76. | BOSHLANG'ISH SINF O'QUVCHILARINI O'QITISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNALOGIYALARNING AHAMIYATI<br>Umirzoqova Dildora Abdirashidovna | 290 |
| 77. | ЗНАЧЕНИЕ ДИДАКТИЧЕСКИХ ИГР В НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ<br>Исамова Феруза Равильевна | 293 |

| | | |
|---|---|---|
| 78. | BOLALAR XORI BILAN ISHLASH USLUBIYOTI<br>Abdullayeva Muqaddam Shuxrat qizi | 295 |
| 79. | BOSQON ULOQTIRUVCHI SPORTCHILARNING ULOQTIRISH VAQTIDAGI TEXNIKASI O'ZGARISHINI TAHLIL QILISH<br>F.Ch.Ziyayev<br>F.R.Toirov | 298 |
| 80. | O`ZBEKISTONDA BIATLON SPORT TURI BO`YICHA O`TKAZILGAN<br>2021 - 2022 - YILGI O`ZBEKISTON CHEMPIONATI MUSOBAQALARINING TAHLILI<br>R.U.Memetov | 303 |
| 81. | MATEMATIKA FANINI O‘QITISH JARAYONIDA KOMPYUTER DASTURLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI<br>Mamatqulova Nilufar Ulug’bekovna | 307 |
| 82. | FIZIKA FANIDA MEXANIKANING AHAMIYATI<br>Isaqova Shoira Ikromovna | 310 |
| 83. | МЕСТО И ЗНАЧЕНИЕ ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ПРОИЗВЕДЕНИЙ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ<br>Гильданова Ралия Рамиловна | 312 |
| 84. | ZAMONAVIY AXBOROT TEXNALOGIYALARDAN FOYDALANGAN HOLDA KIMYO FANIDA LABARATORIYA ISHLARINI TASHKIL ETISH<br>Yusupova Gulnoza To’xtaboyevna | 314 |
| 85. | BOSHLANG’ICH TA’LIMDAGI BAHOLASH TIZIMI, MUAMMO VA YECHIMLAR.<br>Djurayeva Nilufar Raxmatovna | 317 |
| 86. | BOSHLANG’ICH SINFLARNI XALQARO BAHOLASH TADQIQOTLARI DASTURLARIGA TAYYORLASHNING DOLZARB MUAMMOLARI<br>Mirzayeva Mashhura Sadullayevna<br>Abdumajitova Dilnoza Abdumajitovna | 320 |
| 87. | MAKTABDA BOSHLANG‘ICH SINFLARNI O‘QITISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH<br>Saparova Karligash Valixanovna | 325 |
| 88. | ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ПРИ ПРОВЕДЕНИИ УРОКОВ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ.<br>Рыскильдина Гульниса Фасхитдиновна | 327 |
| 89. | O’YIN TEXNALOGIYALARIDAN FOYDALANGAN HOLDA INFORMATIKA DARSLARINI TASHKIL ETISHNING AHAMIYATI<br>Xudayberganova Sabohat Muradovna<br>Sultanova O’g’iljon Rustam qizi<br>Otajonov Ulug’bek Yusupboyevich | 330 |
| 90. | NEMIS SHARQSHUNOS OLIMLARINING AYRIM QARASHLARIGA | 333 |

| | | |
|---|---|---|
| | DOIR<br>Munira Karimova | |
| 91. | ЎҚУВЧИ - ЁШЛАРНИНГ БУЗҒУНЧИ ҒОЯЛАРИНИ ОЛДИНИ ОЛИШНИНГ ПЕДАГОГИК АСОСЛАРИ<br>Утебаев Тажибай<br>Жубатканова Ханым Расуловна | 336 |
| 92. | IJODKOR SHAXS - GENDER XUSUSIYATLARINING BADIIY ASARDA AKS ETISHI VA UNING LINGVISTIK EKSPERTIZASI.<br>Mengliyev B. R<br>Eraliyeva Sarvinoz Oybek qizi | 341 |
| 93. | GLOBALLASHUV SHAROITIDA MA’NAVIY TARG‘IBOTNING ZARURIYATI VA O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI<br>Murodaliyev Baxtiyor Xolmirzayevich | 345 |
| 94. | YUKSAK MA’NAVIYAT VA DAXLDORLIK HISSI FUQAROLIK JAMIYATINING MUHIM OMILI<br>Turobov Akram Ural o‘g‘li | 349 |
| 95. | YADRO ITQITUVCHILARNI TEZKOR - KUCH SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH<br>I.D. G‘aniboyev<br>G‘.Xo‘jamkeldiyev<br>O.Tojimamatov F.Toirov | 353 |
| 96. | СТРАТЕГИЧЕСКИЙ МЕХАНИЗМ ПО ПОВЫШЕНИЮ ПРЕСТИЖА ПЕДАГОГА В УЗБЕКИСТАНЕ<br>Абдуллаева Барно Сайфиддиновна | 356 |
| 97. | KIMYO FANINI O’QITISHDA O’YINLARNING AHAMIYATI<br>Maxmudova Ra’noxon Maxsudovna<br>Mirzahakimova Mulkijahon Xoliqnazar qizi | 360 |
| 98. | SELEKSIYA VA BIOTEXNOLOGIYA ASOSLARI<br>Shavazov Qodirjon Ochilovich<br>Uraimova Xonzodabegim Mirzaaziz qizi | 363 |
| 99. | ZAMONAVIY SIYOSATDA BOSHQARUVCHILAR ELITASI FAOLIYATIDA MAKS VEBER SIYOSIY QARASHLARINING O`RNI<br>Nosirbekov Kozimbek Sunnatbek o’g’li | 366 |
| 100 | TYPES OF REHABILITATION<br>Khairulla Toshnazarovich Ortikov | 371 |
| 101 | SPORTCHA YURUVCHILARNI MASHG’ULOTLARINI REJALASHTIRISHDA YUKLAMALARNI TAQSIMLASH SAMARADORLIGI<br>I.D. G‘aniboyev<br>G‘.Xo‘jamkeldiyev<br>J.Murodqulov | 375 |
| 102 | TALABA YOSHLARNI ULOQTIRISH TEXNIKASIGA O‘RGATISHDA SAMARALI USLUB VA VOSITALARIDAN FOYDALANISH<br>Ziyayev F.Ch. | 378 |

| | | |
|---|---|---|
| | N.B.Normuradov | |
| 103 | XALQARO BAHOLASH TIZIMINING ASOSIY XUSUSIYATLARI VA TA'LIM SOHASIDAGI AHAMIYATI<br>Siddiqov Ravshan Berdimuratovich<br>Shomirzayev Sherzod Toshqulovich | 383 |
| 104 | YANGI MEHNAT KODEKSI MEHNAT MUNOSABATLARIGA QANDAY O'ZGARISHLAR OLIB KIRADI?<br>M.R.Abdunazarova | 386 |
| 105 | TARIX FANINI O'QITILISHIDA TARIXIY - BADIIY ASARLARDAN FOYDALANISH<br>Xoshimov Lochinbek Jumaboy o'g'li | 389 |
| 106 | ZEBO MIRZAYEVA IJODIDA ISHQ VA OTA OBRAZI<br>Isakulova Nafisa Maxmudovna<br>Isaqulova Charosxon Maxmud qizi | 392 |
| 107 | INFLUENCE OF RUMI'S WORK "MASNAVI MA'NAVI" ON UZBEK LITERATURE<br>Raximjonova Safarmo | 397 |
| 108 | IJTIMOIY SIYOSAT – O'ZBEKISTONDA DAVLAT SIYOSATINING MUHIM USTUVOR YO'NALISHI<br>Samadov Jahongir Rustamqul o'g'li | 400 |
| 109 | GENDER TENGLIGI TUSHUNCHASI VA UNING HUQUQIY ASOSLARI<br>Rasulova Tursunoy Tòlqinovna | 403 |
| 110 | SHARQ MUTAFAKKIRLARINING TA'LIM - TARBIYAGA OID MA'NAVIY<br>VA AXLOQIY QARASHLARI<br>Odilbek Jumanazarov Almardon o'g'li | 408 |
| 111 | YOSHLARNI TURLI AXBOROT XURUJLARDAN ASRASH BURCHIMIZ<br>Jaqsimuratova Gúljahan Jeńisbay qizi | 412 |
| 112 | ИСПОЛЬЗОВАНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ИНТЕГРАТИВНЫХ МЕТОДОВ ПРИ ОРГАНИЗАЦИИ УРОКОВ РУССКОГО ЯЗЫКА<br>Мирсадикова Мархабохон Анваровна | 415 |
| 113 | TA'LIMDA INNOVATSION USLUB VA TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH<br>Latipova Surayyo Boxodirovna<br>Yusupova Dinora Qurbanbayevna<br>Rahimova Rohila Oybek qizi | 418 |
| 114 | TA'LIMDA INNOVATSION USLUB VA TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH<br>Latipova Surayyo Boxodirovna<br>Yusupova Dinora Qurbanbayevna<br>Rahimova Rohila Oybek qizi | 422 |

| | | |
|---|---|---|
| 115 | BOSHLANG'ICH SINFLARDA JAMOANI SHAKLLANTIRISH VA JAMOAVIY ISHLASH USULLARI<br>Eshboyeva Sevara G'aybullayevna | 426 |
| 116 | PROKRASTINATSIYA XXI ASR SINDIROMI. PROKRASTINATSIYA HOLATINING SPORTCHILAR HAYOTIGA TA`SIRI<br>O'rinboyev Eldor Abdurasulovich<br>Abduvohidova Dildora | 430 |
| 117 | BOSQON ULOQTIRUVCHILARDA ULOQTIRISH VAQTIDAGI AYLANISH TEKISLIGI TA`MINLASH SAMADORLIGI.<br>F.Ch.Ziyayev<br>X.A.Ilhomov | 435 |
| 118 | BOSHLANGI'ICH SINF O'QUVCHILARIGA INGLIZ TILI O'QITISHDA O'YIN DARSLARNING AHAMIYATI<br>Umarova Muhabbat Usarboyevna<br>O'lmasova Mutabar Shavkatovna<br>Abdumannonova Gulnoza Abrorxonovna | 441 |
| 119 | BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QUVCHILARNING AXBOROTLAR BILAN ISHLASH KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH<br>Abduraxmonova Dildora Xudoyqulovna<br>Raximova Munira Ismanaliyevna | 444 |
| 120 | XAYRIDDIN SULTONOV HIKOYALARIDA BADIIY NUTQ POETIKASI<br>Qilicheva Nodira | 447 |
| 121 | MIRZA KENJABEK IJODIDA DINIY - MA'RIFIY G'OYALAR TALQINI<br>Raimova S.<br>Shahnoza Choriyeva | 450 |
| 122 | BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARIDA KREATIVLIK QOBILIYATINI SHAKLANISHI<br>Egamberdiyeva Dilobod Olimjonovna<br>Abdualimova Gulnoza Olimjonovna | 455 |
| 123 | O`ZBEKISTON MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI ORGANLARI HUQUQIY ASOSINING YARATILISHI VA HOKIMLIK INSTITUTINING TASHKIL ETILISHI<br>Asilbekov Doniyor Bahrom O`g`li | 461 |
| 124 | SHODMONQUL SALOM HIKOYALARIDA FOLKLOR TA'SIRI ("XALAJI" HIKOYASI MISOLIDA)<br>Qozoqboy Yo'ldoshev<br>Xakimova Farida Ilhom qizi | 466 |
| 125 | KINOQISSANING JANR XUSUSIYATLARI<br>Ko'charova Zilola | 470 |
| 126 | "OTA" ROMANIDA MILLIY DETALLAR VA QADRIYATLAR IFODASI | 473 |

| | | |
|---|---|---|
| | *Turdiyeva Nilufar Bobomurod qizi* | |
| 127 | ABDURAHMON SA'DIY VA XX ASR O'ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGIDA ADABIY TANQID VA NAZARIYA RIVOJI.<br>*Surayyo Norqobilova* | 477 |
| 128 | THE ISSUE OF STYLE IN RELIGIOUS TEXTS IN THE UZBEK LANGUAGE<br>(IN THE EXAMPLE OF THE WORK OF SHEIKH MUHAMMAD SADIQ MUHAMMAD YUSUF)<br>*Chorshanbiyev Mirziyot Ilhom ugli* | 480 |
| 129 | USMON AZIM POEZIYASIDA FALSAFIYLIK KATEGAORIYASI<br>*Z.Suvonov*<br>*Qilichova Shahnoza* | 483 |
| 130 | KIMYONING ASOSIY QONUNLARI VA TUSHUNCHALARI<br>*Omonov Jahongir Rahmonqo'l o'g'li* | 487 |
| 131 | BOSQON ULOQTIRUVCHI SPORTCHILARNI ULOQTIRISH VAQTIDA TOS XARAKATINI TO`G`RI AYLANISHGA O`RGATISH<br>*F.Ch.Ziyayev*<br>*N.Sh.Xalikova*<br>*Sh.Sh. Xusanov*<br>*E.U. Xamidova*<br>*S.S. Abdujalilov*<br>*Sh. Sh. Bozorov*<br>*J. J. Kamolov* | 494 |
| 132 | NAZAR ESHONQUL HIKOYALARIDA MODERN IZLARI<br>( «XAROBA SHAHAR SURATI» HIKOYASI MISOLIDA)<br>*Go'zal Himmatova*<br>*Ziyodullayeva Ozoda Ulug'bekovna* | 500 |
| 133 | PIRLS - MATNNI O'QISH VA TUSHUNISH DARAJASINI BAHOLASH<br>*Sultanova Gulmira Turǵanbayevna* | 503 |
| 134 | MATEMATIKA FANINI O'QITISH METODLARI<br>*Erdanova Surayyo Yusufovna* | 507 |
| 135 | ZAMONAVIY TERMINOLOGIK MUAMMOLAR<br>*Po'latov Bexruz Toir o'g'li* | 510 |
| 136 | ULUG'BEK HAMDAM IJODIDA RAMZIY OBRAZLAR (BIR PIYOLA SUV) HIKOYASI MISOLIDA<br>*Go'zal Himmatova*<br>*Qoramirzayeva Kamola Karim qizi* | 513 |
| 137 | TA'LIM TIZIMIDA XORIJIY TILLARNI O'QITISHNING O'ZIGA XOSLIGI<br>*Umarova Gulrux Saloxiddinovna* | 516 |
| 138 | THE USE OF INNOVATIONS IN THE TEACHING PROCESS AND ITS TYPES | 520 |

| | | |
|---|---|---|
| | *Yulchiyeva Maftuna* | |
| *139* | *NUTQ MADANIYATI VA SHARQ MUTAFAKKIRLARINING NUTQ HAQIDAGI QARASHLARI*<br>*Qodirova Mukarramxon Ikromjonovna* | 523 |
| *140* | *MAHALLIY BOSHQARUV TIZIMIDAGI O'ZGARISHLAR VA KADRLAR MASALASI*<br>*Odambayev Ulug'bek Saliyevich* | 528 |
| *141* | *BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA O'QISH MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH VA UNGA KREATIV YONDOSHISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI*<br>*Saidova Fotima Maxamadnajimovna* | 532 |
| *142* | *GLOBALLASHUV DAVRIDA ILM FANNING O'RNI*<br>*Abdug'aniyev Erali Nurali o'g'li* | 539 |
| *143* | *KUYDIRGI KASALLIGI*<br>*A. S. Mengliev*<br>*H.B.Annakulov*<br>*Raxmonov Murodbek Amirqul o'g'li*<br>*Sharapov Umrzoq Abdulmahmad o'g'li*<br>*Shoydulov Dilshodbek Ro'zimamatovich*<br>*Usanov Fozilbek Boxrom o'g'li* | 543 |
| *144* | *BOSHLANG'ICH TA'LIMDA SINF RAHBARINING PEDOGOGIK MAHORATI*<br>*Xudaynazarova Dilbar Mo'xidjonovna* | 547 |

Eslatma!!! "Modern science and Research" jurnaliga kiritilgan maqolalardagi raqamlar, ma'lumotlar to'g'ri ekanligiga va maqola mazmuniga mualliflar shaxsan javobgardirlar.

# «MODERN SCIENCE AND RESEARCH»

INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL

VOLUME I/ ISSUE 2

Issn: 2181-3906

"Modern Science and Research" MCHJ

Litsenziya № 042359/10.10.2022

Manzil: 100115, Toshkent shahri "Yangi hayot" tumani, "Humo" MFY 7a, 8/41

Tel: +99891-982-31-31